

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



Q.Q. MAMBETJANOV

---

# IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT NAZARIYALARI

---

*O'quv qo'llanma*

TOSHKENT

**Mambetjanov Q.Q. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari. O'quv qo'llanma.**  
**/Professor T.S. Rasulovning umumiy tahriri ostida. – T.: TDIU, 2016. -321 b.**

O'quv qo'llanmada ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning xususiyatlari, iqtisodiy taraqqiyot mechanizmlarining amal qilishi, davlatning iqtisodiy rivojlanish siyosati va uning asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi qarashlar, uning asoslari va manbalariga oid mavzular yoritilgan bo'lib, unda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda davlat va nodavlat sektorining o'mi va ahamiyati ilmiy-nazariji jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatni modernizatsiya qilish va isloh etishni yanada chuqurlashtirishga yo'naltirilgan davlat iqtisodiy siyosatining amalga oshirilishi natijasida O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanganligi ishonarli dalillar asosida ko'rsatib berilgan bo'lib, ushu o'quv qo'llanma iqtisodchi olimlar va o'qituvchilar, tadqiqotchilar va oliv o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir** iqtisod fanlari doktori, professor T.S. Rasulov

**Taqrizchilar:** iqtisod fanlari doktori, professor T.T. Jo'rayev,  
iqtisod fanlari doktori, Sh.Sh. Shodmonov

**Мамбетжанов К.К. Теория социально-экономического развития. Учебное пособие. /Под общей редакцией проф. Расулова Т.С. – Т.: ТДИУ, 2016. – 321 с.**

В учебном пособии рассмотрены взгляды об экономическом развитии, темы касающиеся его основ и источников, государственная политика по экономическому развитию и его основные направления, функционирование механизмов экономического развития, особенности социально-экономического развития и научно-теоретически анализированы в нем роль и значение государственного и негосударственного сектора при обеспечении социально-экономического развития. А также указано обеспечение устойчивого экономического роста в Узбекистане в результате реализации государственной экономической политики направленной на дальнейшее углубление реформирования и модернизации страны, данное учебное пособие предназначено ученым экономистам и преподавателям, исследователям и студентам высших учебных заведений.

**Ответственный редактор** доктор экономических наук, профессор Т.С. Расулов

**Рецензенты:** доктор экономических наук, профессор Т.Т. Жураев,  
доктор экономических наук, профессор Ш.Ш. Шодмонов

**Mambetjanov K.K. Theory of socio-economic development. Text book. – T.: TSEU, 2016. – 321 p.**

In this tutorial, disclosed the topic of the features of socio-economic development, the mechanisms of economic development, the state policy of economic development and its basic directions, different views about the economic development and their foundations, scientific – methodically analyzed the significance and role of the public and private sector in the provision of social-economic development. Also presented credible evidence on ensuring the stable growth of the economy of Uzbekistan as a result of the government's economic policy aimed at deepening the modernization and reform of the country. This manual focuses scholars and teachers of the economy, job seekers and students of higher educational institutions.

**Editor in chief** professor, doctor of economic sciences T.S. Rasulov

**Reviewers:** professor, doctor of economic sciences T.T. Jo'rayev,  
Professor, doctor of economic sciences Sh.Sh. Shodmonov

Mazkur o'quv qo'llanma Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining 2015-yil 29-maydagi 10-soni qaroriga muvoqiq nashrqa tavsiya etilgan.

	MUNDARIJA	bet
<b>KIRISH.....</b>		<b>10</b>
<b>I-bob.</b>		
1.1. "IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT NAZARIYALARI" FAN SIFATIDA	13	
1.2. Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyot tushunchalari.....	13	
1.3. "Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyaları" fanining predmeti.....	19	
1.4. "Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyaları" fanining uslublari.....	20	
1.4. "Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyaları" fanining ahamiyati.....	23	
<b>2-bob.</b>	IQTISODIY TARAQQIYOT TO'G'RISIDAGI TURLI XIL NAZARIYA VA QARASHLAR	25
2.1. Iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi nazariyalar (A.Smit, A.Marshall, J.Keyns qarashlarining mohiyati) .....	25	
2.2. Hozirgi zamon institusionalizm, neoliberalizm va monetarizm oqimlari namoyondalarining qarashlari.....	30	
2.3. O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi nazariyalarning shakllanishi.....	35	
<b>3-bob.</b>	IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI VA SHART-SHAROITLAR	41
3.1. Ishchi kuchi, tabiiy va moddiy resurslar, ularning zaxiralar hamda sifati iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki manbai ekanligi.....	41	
3.2. Iqtisodiy o'sishning investitsion salohiyati.....	45	
3.3. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda ijtimoiy sohaning o'mni va ahamiyati.....	52	
<b>4-bob.</b>	IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING MEZON VA KO'RSATKICHLARI	59
4.1. Iqtisodiy taraqqiyotning mezon va ko'rsatkichlari.....	59	
4.2. Aholi turmush darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar.....	64	
4.3. O'zbekistonda o'tgan yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlarining ta'minlanishi.....	70	
<b>5-bob.</b>	IQTISODIY TIZIMLAR VA IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI	78
5.1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga turlicha yondashuvlar.....	78	
5.2. Iqtisodiy tizim va uning unsurlari. Iqtisodiy tizimlarning taraqqiyot qonuniyatları.....	82	
5.3. Iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi va iqtisodiy taraqqiyot.....	84	
<b>6-bob.</b>	BOZOR IQTISODIY OTI IQTISODIY TARAQQIYOTNING GAROVI SIFATIDA	90
6.1. Bozor, uning vazifalari va turlari.....	90	
6.2. Bozor iqtisodiyoti – tovar xo'jaligi tashkil etishning iqtisodiy asosi.....	93	
6.3. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti.....	97	
<b>7-bob.</b>	IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI: USTUVOR YO'NALISH VA VAZIFALARI	101
7.1. Davlatning iqtisodiy siyosati: mazmuni, yo'nalishlari, tamoyillari va amalga oshirish mekanizmlari.....	101	
7.2. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlar.....	106	
7.3. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari.....	112	
<b>8-bob.</b>	IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTGA ERISHISHNING XORIJ TAJRIBALARI	117
8.1. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyot darajasiga ko'ra turkumlanishi.....	117	
8.2. "Yangi industrial mamlakatlar"ning jahon xo'jaligida tutgan o'mni.....	121	
8.3. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning AQSh, Yaponiya, Germaniya, Shved, Xitoy modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	129	
<b>9-bob.</b>	TARAQQIYOTNING "O'ZBEK MODELI" VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	136

9.1.	O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konseptsiyasi va strategiyasi....	136
9.2.	Bozor islohotlari va ularning asosiy yo'nalishlari. Islohotlar bosqichlari va vazifaları.....	140
9.3.	O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining yaratilishi.....	145
<b>10-bob.</b>	<b>TARKIBIY O'ZGARISHLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING BOG'LILIGI</b>	148
10.1.	Tarkibiy o'zgarishlar mohiyati, zarurligi va shart-sharoitlari.....	148
10.2.	Milliy iqtisodiyot tarkibining samarali shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar...	152
10.3.	O'tish davrida O'zbekiston milliy iqtisodiyotini tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning zarurligi va uning xususiyatlari.....	157
<b>11-bob.</b>	<b>KICHIK BIZNES VA HUSUSIY TADBIRKORLIK IJTIMOY-IQTISODIY TARAAQCIYOT GAROVIDIR</b>	161
11.1.	Kichik biznes va hususiy tadbirdorlik tushunchalari.....	161
11.2.	Kichik biznes va hususiy tadbirdorlik mezonlari.....	164
11.3.	Kichik biznes va hususiy tadbirdorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'mi.....	169
11.4.	Kichik biznes va hususiy tadbirdorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari.....	175
<b>12-bob.</b>	<b>IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MNLASHDA QULAY INVESTITSION MUHITNING YARATILISHI</b>	184
12.1.	Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va turlari.....	184
12.2.	Investitsion muhit va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	187
12.3.	Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jahon tajribasi.....	194
12.4.	O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning davlat tomonidan boshqarilishi.....	196
<b>13-bob.</b>	<b>IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTGA ERISHISHDA AGRAR ISLOHOTLARNING O'RNI VA ROLI</b>	203
13.1.	Mamlakat iqtisodiyotida agrar sohaning tutgan o'mi.....	203
13.2.	Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, ularni amalga oshirish shakllari va usullari.....	211
13.3.	Agrar sektorni istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari.....	222
<b>14-bob.</b>	<b>IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTDA IQTISODIY MUVOZANAT VA MUTANOSIBLIKNING ZARURLIGI</b>	226
14.1.	Iqtisodiy muvozanat va mutanosiblik tushunchalari hamda ularning turlari.....	226
14.2.	Respublika iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishida vujudga kelgan nomutanosibliklar: sabab va oqibatlar.....	238
14.3.	Milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklarni bartaraf etish zarurligi va uning yo'llari.....	241
14.4.	O'zbekistonda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi.....	244
<b>15-bob.</b>	<b>IJTIMOY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING DAVRIYLIK XARAKTERI</b>	250
15.1.	Davriylik – iqtisodiy taraqqiyotning umumiyligi shakli ekanligi.....	250
15.2.	Iqtisodiy davrning monetaristik, iqtisodiy beqarorlik nazariyalari.....	252
15.3.	Iqtisodiy inqiroz mazmuni, uning moddiy asosi, sabablari va turlari.....	257
15.4.	O'zbekistonda inqirozli jarayonlarning namoyon bo'lish xususiyatlari va uni bartaraf etish yo'llari.....	260
<b>16-bob.</b>	<b>DEMOGRAFIK HOLATNING MAMLAKAT IJTIMOY-IQTISODIY TARAAQCIYOTIGA TA'SIRI</b>	264
16.1.	Aholi o'sishi va iqtisodiy taraqqiyot o'rasisidagi bog'lilik bo'yicha turli xil nazariyalar.....	264
16.2.	Aholi o'sishining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatları. Maltus nazariyasi va unga bo'lgan tanqidiy yondashuvlar.....	269
16.3.	O'zbekistonda demografik jarayonlarning o'ziga xosligi.....	273

<b>17-bob.</b>	<b>IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMBASHARIY QONUNIYATLARI</b>	278
17.1.	Jahon mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti va o'zaro iqtisodiy bog'liqning o'sishi.....	278
17.2.	Xalqaro mehnat taqsimoti va uning turlari.....	280
17.3.	Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari to'g'risidagi turlicha nazariyalar va ularning asosiy yo'nalishlari.....	283
17.4.	O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi.....	289
<b>18-bob.</b>	<b>MAMLAKAT IQTISODIY TARAQQIYOTIDA XALQARO SAVDONING O'RNI VA ROLI</b>	293
18.1.	Xalqaro savdoning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'mni.....	293
18.2.	Tashqi savdoni boshqarishning tarifli va tarifsiz usullari.....	295
18.3.	O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar rivojining ustuvor yo'nalishlari.....	301
	GLOSSARIY (ZOHLI LUG'AT).....	308
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	317

## ОГЛАВЛЕНИЕ

		стр.
		10
	<b>ВВЕДЕНИЕ</b>	
<b>Глава 1.</b>	<b>«ТЕОРИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ» КАК САМОСТОЯТЕЛЬНАЯ НАУКА</b>	
1.1.	Понятие экономического развития и экономического роста.....	13
1.2.	Предмет «Теории социально-экономического развития».....	19
1.3.	Метод «Теории социально-экономического развития».....	20
1.4.	Значение «Теории социально-экономического развития».....	23
<b>Глава 2.</b>	<b>РАЗЛИЧНЫЕ ТЕОРИИ И ВЗГЛЯДЫ ОБ ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ</b>	
2.1.	Теории об экономическом развитии (сущность взглядов А. Смита, А. Маршалла, Дж. Кейнса).....	25
2.2.	Взгляды представителей течений монетаризма, неолиберализма и современного институционализма.....	30
2.3.	Формирование теории об экономическом развитии Узбекистана.....	35
<b>Глава 3.</b>	<b>ФАКТОРЫ И УСЛОВИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	
3.1.	Рабочая сила, природные и материальные ресурсы, их запасы и качества как первоначальный источник экономического развития.....	41
3.2.	Инвестиционный потенциал экономического роста.....	45
3.3.	Место и роль социальной сферы в достижении экономического развития.....	52
<b>Глава 4.</b>	<b>ПОКАЗАТЕЛИ И КРИТЕРИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	
4.1.	Показатели и критерии экономического развития.....	59
4.2.	Основные макроэкономические показатели, характеризующие уровень жизни населения.....	64
4.3.	Обеспечение высокого темпа роста по основным макроэкономическим показателям в прошедшем времени в Узбекистане.....	70
<b>Глава 5.</b>	<b>ЭКОНОМИЧЕСКИЕ СИСТЕМЫ И ЭТАПЫ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	
5.1.	Различные подходы к познанию этапов социально-экономического развития.....	78
5.2.	Экономические системы и их элементы. Закономерность развития экономических систем.....	82
5.3.	Экономическое развитие и совершенствование экономических отношений....	84
<b>Глава 6.</b>	<b>РЫНОЧНАЯ ЭКОНОМИКА – КАК ЗАЛОГ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	
6.1.	Виды и функции рынка.....	90
6.2.	Рыночная экономика – экономическая основа создания товарного хозяйства...	93
6.3.	Социально ориентированная рыночная экономика.....	97
<b>Глава 7.</b>	<b>РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ: ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ И ЗАДАЧИ</b>	
7.1.	Экономическая политика государства: сущность, направления, принципы и механизмы осуществления.....	101
7.2.	Приоритетные направления экономических реформ на современном этапе.....	106
7.3.	Основные направления государственной политики по социальной защите, безработице и обеспечению занятости рабочей силы в Узбекистане.....	112
<b>Глава 8.</b>	<b>ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ В ДОСТИЖЕНИИ СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	
8.1.	Классификация стран мира по уровню экономического развития.....	117
8.2.	Место в мировом хозяйстве «новых индустриальных государств».....	121
8.3.	Американский, японский, немецкий, шведский и китайские модели достижения социально-экономического развития и их особенности.....	129

<b>Глава 9.</b>	<b>«УЗБЕКСКАЯ МОДЕЛЬ» РАЗВИТИЕ И ЕЁ ОСОБЕННОСТИ</b>	136
9.1.	Концепция и стратегия осуществления экономических реформ в Узбекистане.	136
9.2.	Рыночные реформы и их основные направления. Этапы и задачи реформы.....	140
9.3.	Создание инфраструктуры рыночной экономики в Узбекистане.....	145
<b>Глава 10.</b>	<b>ВЗАИМОСВЯЗЬ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ И СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	148
10.1.	Сущность, необходимость и условия структурных изменений.....	148
1.2.	Факторы, влияющие на эффективное формирование структуры национальной экономики.....	152
1.3.	Необходимость совершенствования структурных состав национальной экономики Узбекистана в переходном периоде и их особенности.....	157
<b>Глава 11.</b>	<b>МАЛЫЙ БИЗНЕС И ЧАСТНОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО КАК ЗАЛОГ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	161
11.1.	Понятие малого бизнеса и частного предпринимательства.....	161
11.2.	Критерии малого бизнеса и частного предпринимательства.....	164
1.3.	Место малого бизнеса и частного предпринимательства в социально-экономическом развитии страны.....	169
11.4.	Механизмы государственной поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства.....	175
<b>Глава 12.</b>	<b>СОЗДАНИЕ БЛАГОПРИЯТНОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО КЛИМАТА В ОБЕСПЕЧЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	184
12.1.	Экономическое значение и виды инвестиций.....	184
12.2.	Инвестиционный климат и его влияние на экономику страны.....	187
12.2.	Мировая практика регулирования иностранных инвестиций.....	194
12.4.	Государственное управление иностранных инвестиций в Узбекистане.....	196
<b>Глава 13.</b>	<b>МЕСТО И РОЛЬ АГРАРНЫХ РЕФОРМ В ДОСТИЖЕНИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	203
1.1.	Место аграрной сферы в экономике страны.....	203
1.2.	Методы и формы осуществления государственного регулирования и механизмы поддержки аграрной сферы.....	211
1.3.	Тенденции развития аграрного сектора в будущем.....	222
<b>Глава 14.</b>	<b>НЕОБХОДИМОСТЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАВНОВЕСИЯ И ПРОПОРЦИЙ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ</b>	226
14.1.	Понятие и виды экономического равновесия и пропорций.....	226
14.2.	Выявленные диспропорции в структурном строении экономики страны: причины и последствия.....	238
14.3.	Необходимость и пути предотвращения структурных диспропорций национальной экономики.....	241
14.4.	Обеспечение макроэкономической стабильности в процессе перестройки структурного строения производства в Узбекистане.....	244
<b>Глава 15.</b>	<b>ЦИКЛИЧЕСКИЙ ХАРАКТЕР СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	250
15.1.	Цикличность – как общая форма экономического развития.....	250
15.2.	Теория экономической нестабильности и монетаристические теории экономического цикла.....	252
15.3.	Понятия, причины, виды и материальные основы экономического кризиса....	257
15.4.	Особенности и меры предотвращения кризисных явлений в Узбекистане.....	260
<b>Глава 16.</b>	<b>ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ НА СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАНЫ</b>	264
16.1.	Различные теории о взаимосвязи роста населения и экономического развития.	264
16.2.	Социально-экономические последствия роста населения. Теория Мальтуса и критические взгляды на неё.....	269

16.3.	Особенности демографических процессов в Узбекистане.....	273
<b>Глава 17.</b>	<b>ОБЩАЯ ЗАКОНОМЕРНОСТЬ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ</b>	
17.1.	Рост экономической взаимосвязи и экономического развития стран мира.....	278
17.2.	Международное распределение труда и его виды.....	280
17.3.	Различные теории о международной экономической интеграции и их основные направления.....	283
17.4.	Развитие внешнеэкономических связей в Республике Узбекистан.....	289
<b>Глава 18.</b>	<b>МЕСТО И РОЛЬ МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛИ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ СТРАНЫ</b>	
18.1.	Место международной торговли в социально-экономическом развитии страны.....	293
18.2.	Тарифные и нетарифные методы управления внешней торговли.....	295
18.3.	Приоритетные направления развития внешнеэкономических связей в Узбекистане.....	301
	<b>ГЛОССАРИЙ</b> .....	308
	<b>СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ</b> .....	317

## TABLE OF CONTENTS

	page
<b>INTRODUCTION</b>	10
<b>Charter 1.</b> «THEORIES OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT» AS INDEPENDENT SCIENCE	13
1.1. Concept of economic development and economy growing.....	13
1.2. Article of «Theory of socio-economic development».....	19
1.3. Method of «Theory of socio-economic development».....	20
1.4. Value «Theories of socio-economic development».....	23
<b>Charter 2.</b> DIFFERENT THEORIES AND LOOKS ABOUT ECONOMIC DEVELOPMENT	25
2.1. Theories about economic development (essence of looks of A.Smita, A.Marshalla, J.Kayns).....	25
2.2. Looks of representatives of flows of monetarism, neoliberalizma and modern institucionalizma.....	30
2.3. Forming of theory about economic development of Uzbekistan.....	35
<b>Charter 3.</b> FACTORS AND TERMS OF ECONOMIC DEVELOPMENT	41
3.1. Labour force, natural and financial resources, their supplies and qualities as a primary source of economic development.....	41
3.2. Investment potential of the economy growing.....	45
3.3. A place and role of social sphere in achievement of economic development....	52
<b>Charter 4.</b> INDEXES AND CRITERIA OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT	59
4.1. Indexes and criteria of economic development.....	59
4.2. Basic macroeconomic indexes, characterizing the standard of living of population.....	64
4.3. Providing of high rate of growth on basic macroeconomic indexes in a past tense in Uzbekistan.....	70
<b>Charter 5.</b> ECONOMIC SYSTEMS AND STAGES OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT	78
5.1. Different going near cognition of the stages of socio-economic development....	78
5.2. Economic systems and their elements. Conformity to law of development of the economic systems.....	82
5.3. Economic development and perfection of economic relations.....	84
<b>Charter 6.</b> MARKET ECONOMY – AS MORTGAGE OF ECONOMIC DEVELOPMENT	90
6.1. Kinds and market functions.....	90
6.2. A market economy is economic basis of creation of commodity economy.....	93
6.3. Socially oriented market economy.....	97
<b>Charter 7.</b> A ROLE OF THE STATE IS IN PROVIDING OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT: PRIORITY DIRECTIONS AND TASKS	101
7.1. Economic policy of the state: essence, directions, principles and mechanisms of realization. ....	101
7.2. Priority directions of economic reforms on the modern stage. ....	106
7.3. Basic directions of public policy after social defence, unemployment and providing of employment of labour force in Uzbekistan.....	112
<b>Charter 8.</b> FOREIGN EXPERIENCE IS IN ACHIEVEMENT OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT	117
8.1. Classification of the world countries on the level of economic development....	117
8.2. A place is in the world economy of the «new industrial states».....	121
8.3. American, Japanese, Nemecskiy, Swedish and the Chinese models of achievement of socio-economic development and their feature.....	129
<b>Charter 9.</b> «UZBEK MODEL» IS DEVELOPMENT AND ITS FEATURES	136

9.1.	Conception and strategy of realization of economic reforms is in Uzbekistan.....	136
9.2.	Market reforms and their basic directions. Stages and tasks of reform.....	140
9.3.	Creation of infrastructure of market economy is in Uzbekistan.....	145
<b>Charter 10.</b>	<b>INTERCOMMUNICATION OF STRUCTURAL CHANGES AND SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT</b>	
10.1.	Essence, necessity and terms of structural changes.....	148
10.2.	Factors, influencing on the effective forming of structure of national economy..	152
10.3.	Necessity of perfection structural composition of national economy of Uzbekistan in a transitional period and their feature.....	157
<b>Charter 11.</b>	<b>SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTERPRISE AS MORTGAGE OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT</b>	
11.1.	Concepts of small business and private enterprise.....	161
11.2.	Criteria of small business and private enterprise.....	164
11.3.	A place of small business and private enterprise is in socio-economic development of country.....	169
11.4.	Mechanisms of state support of small business and private enterprise.....	175
<b>Charter 12.</b>	<b>CREATION OF FAVOURABLE INVESTMENT CLIMATE IS IN PROVIDING OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT</b>	
12.1.	Economic value and types of investments.....	184
12.2.	Investment climate and his influence on the economy of country.....	184
12.3.	World practice of adjusting of foreign investments.....	187
12.4.	State administration of foreign investments is in Uzbekistan.....	194
12.5.	Foreign investment in Uzbekistan.....	196
<b>Charter 13.</b>	<b>A PLACE AND ROLE OF AGRARIAN REFORMS IS IN ACHIEVEMENT OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT</b>	
13.1.	A place of agrarian sphere is in the economy of country.....	203
13.2.	Methods and forms of realization of government control and mechanisms of support of agrarian sphere.....	203
13.3.	Progress of agrarian sector trends in the future.....	211
13.4.	Problems of agrarian sphere in the economy of country.....	222
<b>Charter 14.</b>	<b>A NECESSITY OF ECONOMIC EQUILIBRIUM AND PROPORTIONS IS FOR SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT</b>	
14.1.	Concept and types of economic equilibrium and proportions.....	226
14.2.	The exposed disproportions are in the structural structure of economy of country: reasons and consequences.....	226
14.3.	Necessity and ways of prevention of structural disproportions of national economy.....	238
14.4.	Providing of macroeconomic stability in the process of re-erecting of structural structure of production in Uzbekistan.....	241
14.5.	Macroeconomic stability in the process of re-erecting of structural structure of production in Uzbekistan.....	244
<b>Charter 15.</b>	<b>CYCLIC CHARACTER OF SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT</b>	
15.1.	Recurrence – as a general form of economic development.....	250
15.2.	Theory of economic instability and monetaristicheskie theory of economic cycle.....	250
15.3.	Concepts, reasons, kinds and financial bases of economic crisis.....	252
15.4.	Features and measures of prevention of the crisis phenomena are in Uzbekistan.	257
15.5.	Prevention of the crisis phenomena are in Uzbekistan.....	260
<b>Charter 16.</b>	<b>INFLUENCE OF THE DEMOGRAPHIC STATE ON SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF COUNTRY</b>	
16.1.	Different theories about intercommunication of growth of population and economic development.....	264
16.2.	Socio-economic consequences of growth of population. Theory of Mal'tusa and critical looks to it.....	264
16.3.	Features of demographic processes are in Uzbekistan.....	269
16.4.	Demographic processes in Uzbekistan.....	273
<b>Charter 17.</b>	<b>GENERAL CONFORMITY TO LAW OF ECONOMIC DEVELOPMENT</b>	
17.1.	Growth of economic intercommunication and economic development of the	278

world countries.....	278
17.2. International distributing of labour and his kinds.....	280
17.3. Different theories about international economic integration and their basic directions.....	283
17.4. Development of external economic connections is in Republic Uzbekistan.....	289
<b>Charter 18. A PLACE AND ROLE OF INTERNATIONAL TRADE IS IN ECONOMIC DEVELOPMENT OF COUNTRY</b>	
18.1. A place of international trade is in socio-economic development of country.....	293
18.2. Tariff and untariff methods of management of foreign trade.....	295
18.3. Priority directions of development of external economic connections are in Uzbekistan.....	301
GLOSSARY.....	308
REFERENCES.....	317

## KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni, omillari, o'lchamlari va muammolarini o'rganish doimo iqtisodiy fanlar hamda davlat siyosatining asosiy vazifalaridan bo'lib kelgan. Ana shu kabi muhim masalalarni samarali hal qilish ko'p jihatdan kishilarining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sirlari, ularning talab va xususiyatlari, qonun-qoidalari, amalgaga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning maqsad va mohiyatini chuqurroq bilishlariga bog'liq. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash bo'yicha tanlangan strategiya va inqirozga qarshi choralar dasturini amalgaga oshirish natijasida yurtimiz dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'atlarini ta'minlash, aholining moddiy farovonligini yuksaltirishga erishmoqda.

Prezidentimiz I.A. Karimovning "...Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va stipendiyalar hajmi o'tgan yili 23,2 %ga oshdi. Aholining jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar esa 10,2 %ga ko'paydi. Aholi daromadlari tarkibida tadbirdorlik faoliyatidan olinayotgan daromadlar ulushi tobora ortib bormoqda. Mustaqillik yillarda bu boradagi ko'rsatkich 10,6 %dan 52 %ga o'sdi. Bu Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlaridagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir,"<sup>1</sup> - deb ta'kidlashi hozirgi kunda mamlakatimizni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham rivojlantirish masalalarining qanchalik dolzarb ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

"Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarni iqtisodiy taraqqiyot muammolari va ularning yechimlari bilan tanishtirish, ularga iqtisodiy o'sish nazariyalarini o'rgatishdan iborat.

Fanning vazifalari - talabalarga ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi turli xil nazariya va qarashlar; o'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning xususiyatlari; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot mexanizmlarining amal qilishi; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda davlat siyosati va uning asosiy yo'nalishlari; ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning xorij tajribasi bo'yicha bilimlar berishdan iborat. Shuningdek, "Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari" fani fundamental fanlardan biri bo'lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu fanni o'rganish jarayonida o'qitishning ochiq, muammoli va vizual ma'ruzalar o'tkazish, insert, klaster va aqliy hujum kabi ilg'or pedagogik hamda axborot texnologiyalari qo'llaniladi.

O'quv qo'llanmada fanning mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot omillarini yoritib beruvchi eng asosiy mavzu va muammolar o'z aksini topgan. Mualliflar uni tayyorlash jarayonida qimmatli maslahatlarini bergen professor Sh.Sh.Shodmonovga o'z minnatdorchiligini bildiradilar.

<sup>1</sup>O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalgaga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirdorlikka keng yo'l o'chib berish – ustuvor vazifamizdir" nomli ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2015-yil 18-yanvar.

## **1-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT NAZARIYALARI FAN SIFATIDA**

### **1.1. Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyot tushunchalari**

Jamiyatagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy taraqqiyotga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlari boq'liq. Shu sababli mazkur bobning tahlili iqtisodiy rivojlanishning mohiyati, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sishning mazmuni, tur va ko'rsatkichlarini bayon etish bilan boshlanadi.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi juda murakkab jarayon bo'lib, u iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotdagи tarkibiy o'zgarishlar, aholi hayotining sifati va shart-sharoitlarining takomillashuvini o'z ichiga oladi. U hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish yuksalish va inqiroz davrlari, iqtisodiyotdagи miqdor va sifat o'zgarishlari, ijobjiy va salbiy tomonlarni qamrab olib, notejis davom etadi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlardan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, real YalM hajmining oshishi hamda aholi jon boshiga nisbatan ko'payishida o'z ifodasini topadi.

Iqtisodiy o'sishga tarixiy jihatdan yondoshilganda, u bir xil sur'atlarda va bir tekis bormaydi. Tarixda iqtisodiy o'sish sur'atlaringin jadallahish, jiddiy pasayish va hatto qisqarish davrlari ma'lum. Agar katta tarixiy bosqichlar olib qaralsa, jahon va milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarishning har tomonloma taraqqiyot manzarasi hosil bo'ladi. Shu bilan birga iqtisodiy o'sish nafaqat miqdor, balki muayyan sifat o'zgarishlari shaklida ham namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganidek: "Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari haqida gapirganda... uning mezonlariga va eng avvalo, sifat ko'rsatkichlariga ko'proq e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'sishlar iqtisodiyotimizda yuz berayotgan tarkibiy o'zgarishlar, uning izchil va barqaror rivoji uchun xizmat qilishi, xalqimizning hayot darajasini yuksaltirishga, bir so'z bilan aytganda, amaliy hayotimizni yaxshilashga olib kelishi lozim"<sup>2</sup>. Shunday ekan, iqtisodiy o'sish bevosita yalpi ichki mahsulot miqdorining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga ko'payishi hamda sifatining yaxshilanishi va tarkibi takomillashuvida ifodalananadi.

Iqtisodiy o'sishni YalM mutlaq hajmining ortishi orqali yoki aholi jon boshiga real YalM miqdorining ortishi orqali o'chash buning qanday maqsadda amalga oshirilayotganiga boq'liq. Odatda biror-bir mamlakat iqtisodiy o'sishini YalM mutlaq hajmining ortishi orqali o'chash uning iqtisodiy salohiyatini baholashda, aholi jon boshiga real YalM miqdorining ortishi orqali o'chash esa mamlakatdagi turmush darajasini taqqoslashda qo'llaniladi.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. //Xalq so'zi, 2001-yil 17-fevral. №37.

Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini tavsiflovchi mazkur ko'rsatkichlar (real YaIM va aholi jon boshiga real YaIMning o'sishi) miqdoriy ko'rsatkichlar bo'lib, ular birinchidan, mahsulot sifati oshishini to'liq hisobga olmaydi va shu sababli farovonlikning haqiqiy o'sishini to'liq tavsiflab berolmaydi; ikkinchidan, real YaIM va aholi jon boshiga YaIMning o'sishi bo'sh vaqtning sezilarli ko'payishini aks ettirmaydi va farovonlik real darajasining pasaytirib ko'rsatilishiga olib keladi; uchinchidan, iqtisodiy o'sishni miqdoriy hisoblash boshqa tomonidan uning atrof-muhit va insонning hayotiga salbiy ta'sirini hisobga olmaydi.

Shunga ko'ra, iqtisodiy o'sishning barcha tavsisi yillik o'sish sur'atarining % dagi o'chovida to'liq o'z ifodasini topadi:

$$O'S = \frac{YAIM_{joriy} - YAIM_{basis}}{YAIM_{basis}} \times 100\%,$$


bu yerda:

O'S – iqtisodiy o'sish sur'ati, %da;

$YAIM_{basis\ davr}$  – taqqoslanayotgan davr (yil)dagi real YaIM hajmi;

$YAIM_{joriy\ davr}$  – joriy davr (yil)dagi real YaIM hajmi.

Shuningdek, iqtisodiy o'sish mamlakat ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayib borishini ham anglatadi. Milliy ishlab chiqarish natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillashib borishi pirovardida ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'inining o'ng tomonga qarab siljishiga olib keladi. Aytaylik, 2014-yildagi milliy ishlab chiqarish hajmi ( $Y_{2010}$ ) 2010-yildagi ( $Y_{2014}$ )ga nisbatan o'sdi. Bu o'sish, o'z navbatida, milliy ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'inining ham kengayishiga olib keladi (1-chizma).



1-chizma. Iqtisodiy o'sish natijasida milliy iqtisodiyot ishlab chiqarish imkoniyatlari kengayishi

Chizmaga ko'ra, iqtisodiy o'sish natijasida ishlab chiqarilgan ijtimoiy mahsulot miqdori ortadi, bu esa aholi turmush farovonligi oshishiga olib keladi. Iqtisodiyot mavjud ehtiyojlarni yanada to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ahamiyati to'g'risida fikr bilirliganda uning darajasini ham e'tiborda tutish lozim. Iqtisodiy o'sish sur'atarining muhimlik darjasasi turli mamlakatlar real YaIMning hajmidan kelib chiqqan holda farqlanadi. Real YaIM hajmi nisbatan kichik bo'lgan mamlakatlar uchun 8-10 % darajasidagi iqtisodiy

o'sish sur'ati me'yordagi holat sanalishi, real YaIM hajmi juda katta bo'lган мамлакатлар учун 2-3% дарajasidagi iqtisodiy o'sish sur'ati esa muhim ko'rsatkich hisoblanishi mumkin.

Iqtisodiy o'sish sur'atining ahamiyatini iqtisodchilar tomonidan qo'llaniluvchi "70 qoidasi" yordamida ham yoritib berish mumkin. Bu qoidaga ko'ra, milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarilayotgan YaIM hajmini 2 baravarga oshirishda qancha vaqt talab etilishini aniqlash uchun 70 sonini yillik o'sish sur'atiga bo'lish kerak bo'ladi. Masalan, mamlakatimizdagi o'sish sur'atining 7,7 % darajasida YaIMni 2 baravar oshirish uchun 9,1 yil talab etiladi (70:7,7). Holbuki, iqtisodiy o'sishning 2000-yildagi 4,0 % darajasida bu ko'rsatkichga 17,5 yilda (70:4) erishish mumkin edi.

Keyingi yillarda iqtisodiy o'sish sur'ati yanada oshirilishi bu muddatning sezilarli ravishda qisqarishiga olib keladi. Ijtimoiy mahsulotning o'sish sur'ati bilan ishlab chiqarish omillari miqdorining o'zgarishi o'tasidagi nisbat iqtisodiy o'sishning ekstensiv yoki intensiv turlarini belgilab beradi.

Ekstensiv iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari miqdorining ko'payishi tufayli erishiladi. Aytaylik, mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa ko'paytirish uchun mavjud korxona bilan bir qatorda o'rnatilgan uskunalarining quvvati, miqdori va sifati, ishchi kuchi soni va malaka tarkibi bo'yicha xuddi shunday yana bir korxona quriladi. Ekstensiv rivojlanshda, agar u sof holda amalga oshirilsa, ishlab chiqarish samaradorligi o'zgarmay qoladi.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi sharoitida mahsulot chiqarish miqyoslarini kengaytirishga ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yanada ilg'or ishlab chiqarish vositalari va yangi texnikani qo'llash, ishchi kuchi malakasini oshirish, shuningdek mavjud ishlab chiqarish potensialidan yaxshiroq foydalanish yo'lli bilan erishiladi. Intensiv yo'llishlab chiqarishga jaib etilgan resurslarning har bir birligidan olinadigan samara, yakuniy mahsulot miqdorining o'sishi va mahsulot sifatining oshishida o'z ifodasini topadi.

Bunda mahsulot ishlab chiqarishni ikki hissa oshirish uchun mavjud korxonaga teng bo'lган yana bir korxona qurishga hojat yo'q. Bu natijaga ishlab turgan korxonani rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta qurollantirish, mavjud resurslardan yaxshiroq foydalanish hisobiga erishish mumkin.

Real hayotda ekstensiv va intensiv omillar sof holda alohida-alohida mavjud bo'lmaydi, balki muayyan uyg'unlikda, o'zaro qo'shilgan tarzda bo'ladi. Shu sababli ko'proq ustuvor ekstensiv va ustuvor intensiv iqtisodiy o'sish turlari haqida so'z yuritiladi.

Iqtisodiy o'sish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shu sababli uni baholash uchun ma'lum bir ko'rsatkich kifoya qilmaydi, muayyan ko'rsatkichlar tizimi talab etiladi. Bu ko'rsatkichlar tizimida naflilik (moddiy-ashyoviy) va qiymat ifodasidagi ko'rsatkichlar farqlanadi. Iqtisodiy o'sishning naflilik (moddiy-ashyoviy) ko'rsatkichlari ancha aniq natija beradi, (chunki ular inflyatsiya ta'siriga berilmaydi), biroq ularni universal holda qo'llab bo'lmaydi (iqtisodiy o'sish sur'atlarini hisoblashda har xil ne'matlar ishlab chiqarishni umumiy ko'rsatkichga keltirish

qiyn). Qiymat ko'rsatkichlar keng qo'llaniladi, ammo ularni har doim ham inflyatsiya ta'siridan to'liq "tozalash" mumkin bo'lavermaydi. Shu sababli iqtisodiy o'sish sur'atlari qiyosiy yoki o'zgarmas narxlarda hisoblanadi. Chunki bunda ijtimoiy naflilikning umumiy ko'rsatkichi bo'yicha o'sish darajasini aniqlash mumkin.

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

1) YaIM va milliy daromadning mutlaq hajmi va uning o'sish sur'ati;

2) YaIM va milliy daromadning aholi jon bosh hisobiga to'g'ri keluvchi miqdori va uning o'sish sur'ati;

3) YaIM va milliy daromadning iqtisodiy resurs xarajatlari birligi hisobiga to'g'ri keluvchi miqdori va uning o'sish sur'ati.

Yuqorida ta'kidlanganidek, iqtisodiy o'sishni aniqlashda har uchala ko'rsatkichdan ham foydalanish mumkin, lekin ularning ahamiyati turlicha bo'ladi. Masalan, agar diqqat markazida iqtisodiy salohiyat muammosi tursa, birinchi ko'rsatkichdan foydalanish ko'proq mos keladi. Alovida mamlakat va mintaqalardagi aholining turmush darajasini taqqoslashda, ko'proq ikkinchi ko'rsatkichdan foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlikni baholashda uchinchi ko'rsatkichga ustuvorlik beriladi.

Iqtisodiy o'sishning alohida tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlari ham mavjud, ulardan asosiyлari ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darjasи, mehnat unumdarligi o'sishi va ish vaqtini tejash, shaxsiy daromad va foya massasi, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi kabilar hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

a) ishlab chiqarish vositalarining rivojlanganlik darajasi;

b) xodimning malakasi va tayyoragarlik darajasi;

v) ishlab chiqarishning moddiy va shaxsiy omili o'rtasidagi nisbat;

g) mehnat taqsimoti, ishlab chiqarishning tashkil etilishi, ixtisoslashtirilishi va kooperatsiyasi.

Iqtisodiy o'sishning jahon amaliyotida keng qo'llaniladigan boshqa ko'rsatkichi iqtisodiyotning tarmoq tuzilishi hisoblanadi. U tarmoqlar bo'yicha hisoblab chiqilgan YaIM (YaIM) ko'rsatkichi asosida tahlil qilinadi.

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari, % hisobida<sup>3</sup>

Ko'rsatkich	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
Sanoat ishlab chiqarishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3	7,7	8,8
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish	6,1	4,5	5,7	6,8	6,6	7,0	6,8
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4	13,9	14,8
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1	14,2	13,5

<sup>3</sup> Manba: [www.worldtax.org](http://www.worldtax.org), [www.worldwide-tax.com](http://www.worldwide-tax.com), [www.taxworld.org](http://www.taxworld.org) internet saytlari ma'lumotlari.

Jadvalga ko'ra, yuqorida bayon etilgan murakkab va qiyin sharoitda ham iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalarida iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlari saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2013-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 2012-yilga nisbatan 8,8 %ga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,8 %ga, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 %ga o'sib, uning YalM tarkibidagi ulushi 53 %ni tashkil etdi. Ichki talabni rag'batlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yilda chakana tovar aylanmasining 2012-yilga nisbatan 14,8 %ga o'sishi kuzatildi.

Bunda iqtisodiyotning yirik sohalari, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlari o'rtasidagi nisbat ham o'rganiladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh omillar taklif omillari deb ham atalib, iqtisodiyotning o'sish layoqatini belgilab beradi:

- 1) tabiiy resurslarning miqdori va sifati;
- 2) ishchi kuchi resurslari miqdori va sifati;
- 3) asosiy kapital (asosiy fondlar) hajmi;
- 4) texnologiya va fan-texnika taraqqiyoti.

Bu omillar har birining yalpi mahsulot hajmiga ta'sirini baholash orqali iqtisodiy o'sishni tavsiflash mumkin.

Ma'lumki, yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi, ya'ni:

$$Y = f(L, K, N),$$

bu yerda:

Y – yalpi milliy (ichki) mahsulot;

L – ishchi kuchi sarflari;

K – kapital sarflari;

N – tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog'lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o'sishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko'rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

- 1) mehnat unumdorligi ( $Y/L$ ) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;
- 2) mehnat sig'imi ( $L/Y$ ) – jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 3) kapital samaradorligi ( $Y/K$ ) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;
- 4) kapital sig'imi ( $K/Y$ ) – kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 5) tabiiy resurslar samaradorligi ( $Y/N$ ) – mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlariga nisbati;
- 6) mahsulotning resurslar sig'imi ( $N/Y$ ) – tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;
- 7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi ( $K/L$ ) – ishlab chiqarish jarayonida qo'llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda yuqorida ko'rib chiqilgan ko'rsatkichlardan tashqari yana keyingi qo'shilgan ishlab chiqarish omillari unumdarligi ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ko'rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o'zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo'shimcha o'sishi ta'sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sish hajmini belgilab beradi:

- 1) keyingi qo'shilgan mehnat unumdarligi ( $\Delta Y/\Delta L$ );
- 2) keyingi qo'shilgan kapital unumdarligi ( $\Delta Y/\Delta K$ );
- 3) keyingi qo'shilgan tabiiy resurslar unumdarligi ( $\Delta Y/\Delta N$ ).

Bu ko'rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o'sishida har bir omilning hissasini namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = (\Delta Y/\Delta L)L + (\Delta Y/\Delta K)K + (\Delta Y/\Delta N)N.$$

Iqtisodiy o'sishga taqsimlash omillari ham ta'sir etadi. Ishlab chiqarish salohiyatidan maqsadga muvofiq foydalanish uchun nafaqat resurslar iqtisodiy jarayonga to'liq jalb etilgan bo'lishi, balki ulardan samarali foydalanish ham zarur. Resurslarning o'sib boruvchi hajmidan real foydalanish va ularni kerakli mahsulotning mutlaq miqdorini oladigan qilib taqsimlash ham lozim.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi taklif va taqsimlash omillari o'zarobog'liq va bir-birini taqozo etadi. Masalan, resurslar miqdori oshishi va sifati yaxshilanishi, texnologiyani takomillashtirish iqtisodiy o'sish uchun imkoniyat yaratadi. To'liq bandlik va resurslarni samarali taqsimlash bunday o'sishni ro'yobga chiqaradi.

Iqtisodiy o'sishda resurslarni taqsimlash omillari ham o'z o'miga ega bo'lsada, bu muammoni tahlil qilishda asosiy e'tibor taklif omillariga qaratilishi zarur.

Fan-teknika taraqqiyoti mehnat unumdarligi va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Texnika taraqqiyoti nafaqat ishlab chiqarishning butunlay yangi usullari, balki boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil qilishning yangi shakllarini ham o'z ichiga oladi. Umuman, fan-teknika taraqqiyoti deyilganda pirovard mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish maqsadida mavjud resurslarni yangicha uyg'unlashtirishni taqozo etuvchi yangi usullarning topilishi ham tushuniladi.

Amaliyotda texnika taraqqiyoti va kapital qo'yilmalar (investitsiyalar) mustahkam o'zarobog'liq bo'lib, texnika taraqqiyoti ko'pincha yangi mashina va uskunalariga investitsiyalar kiritilishiga olib keladi. Masalan, atom energiyasidan foydalanish bo'yicha texnologiyani qo'llash uchun atom elektrostansiyalarini qurish zarur. Bir qarashda texnika taraqqiyoti tarixiy va shiddatli ro'y berish tavsifiga ega bo'ladi. Gaz va yoqilg'i dvigatellari, konveyer va yig'ma liniyalar hayotmizga o'tmishning eng muhim yutuqlari sifatida kirib keldi.

Real mahsulot ikki asosiy usulda ko'paytirilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko'proq hajmi jalb etilishi;
- 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo'li bilan.

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo'llash, ishlab chiqarishni tashkil qilish hamda yangi boshqaruva usul va shakllarini joriy etish hisoblanadi.

Mehnat unumdarligi oshishini belgilab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to'g'ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma'lum vaqtida,

kapitalning hajmi mutlaq ko‘payishi mumkin, ammo ishchi kuchi soni tezroq oshsa, mehnat unumdoorligi pasayadi. Chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi.

Ta‘lim va malakali tayyorgarlik mehnat unumdoorligini oshiradi va natijada ancha yuqori ish haqiga ega bo‘lish imkonini beradi. Inson kapitaliga investitsiyalar qo‘yish mehnat unumdoorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi. O‘z-o‘zidan aniqki, ishchi kuchi sifatining eng oddiy ko‘rsatkichi ta‘lim darajasi hisoblanadi. Hozirgi davrda respublikamiz iqtisodiyotida band bo‘lganlarning 30 % ga yaqini oliy va o‘rtalik maxsus ma’lumotga ega. Lekin oliy va yoki o‘rtalik maxsus ma’lumotga ega bo‘lganlar, aniq sohalardagi bilmalari darajasi bo‘yicha boshqa rivojlangan mamlakatlardagi ishchilardan ancha orqada va ko‘pchiligi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha faoliyat turida band emas. Shu sababli keyingi yillarda respublikamizda maktab, oliy va o‘rtalik maxsus bilim yurtlarida ilg‘or ta‘lim berishning tizimlari joriy etilmoqda, kasb-hunar kollejlarni rivojlantirishga alohida e’tibor berilmoqda. Kadrlar tayyorlashning milliy dasturida qo‘ylgan vazifalarni amalga oshirishda ham ijobjiy natjalarga erishilmoqda.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida amalga oshirilayotgan “tarkibiy o‘zgarishlar iqtisodiy o‘sishning hal qiluvchi omiliga aylanib bormoqda”<sup>1</sup>.

Amaliy hayotda iqtisodiy o‘sishni susaytirib turuvchi omillar ham mavjud bo‘ladiki, ular mehnat muhofazasi, atrof-muhitning ifloslanishi kabi holatlar natijasida kelib chiqadi. Keyingi yillarda respublikamizda davlat tomonidan atrof-muhit ifloslanishining oldini olish, xodimlar mehnat sharoitini yaxshilash va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tartibga solishda muhim tadbirlar amalga oshirildi. Bu, o‘z navbatida, iqtisodiy o‘sish sur‘atiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki bunday tadbirlarni amalga oshirish tegishli xarajatlarni taqozo etadi. Shu orqali mehnat unumdoorligini oshirish uchun zarur mablag‘lar boshqa tomonga jaib etiladi.

## 1.2. “Ijtimoly-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari” fanining predmeti

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani ijtimoiy fan bo‘lib, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, huquq, siyosatshunoslik, tarix kabi ijtimoiy fanlar bilan ham chambarchas bog‘liq, ulardan uslubiy va ilmiy ozuqa oladi hamda ularga ham manba bo‘lib xizmat qiladi. Lekin ularning hech biri ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining o‘rnini bosa olmaydi, bu fanning o‘z vazifasi va predmeti mavjud.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining predmetini aniqlashni turli nazariy qarashlarni o‘rganib, sintez qilishdan boshlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining predmeti nima? Bu fan asosan nimani tadqiq qilib, kishlarga nimani o‘rgatadi, degan savolning yechimi juda murakkab bo‘lib, bu haqda o‘tmishda ham, hozir ham turli olimlar turli fikrlar bildirib kelmoqdalar.

Har qanday mehnat, har qanday ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, eng avvalo, tabiat ashyolari, moddiy vositalar, pul mablag‘lari orqali amalga oshiriladi va ulardan

<sup>1</sup> Karimov I.A. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish – eng muhim vazifamiz. //Xalq so‘zi, 2000-yil 15-fevral.

foydalaniлади. Shuning uchun mavjud resurslar, ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar, ulardan unumli foydalanishga munosabat, ishlab chiqarish omillarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sirida o'рганилishi lozim. Boshqa tomonidan, hech qanday mehnat yoki ishlab chiqarish alohida olingen kishi yoki guruh tomonidan, boshqalar bilan aloqasiz, munosabatlarsiz amalga oshirilmaydi. Ular ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida albatta o'zaro munosabatda bo'ladiлар va shu munosabatga qarab harakat qiladilar, o'z xulq-atvotlari belgilaydilar.

Demak, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani shu munosabatlarning ikki tomonini qamrab olgan bo'lishi, ulami o'рганиши lozim. Bundan tashqari, mazkur munosabatlar, xatti-harakatlar ishlab chiqarish jarayonining o'zidagina emas, balki barcha takror ishlab chiqarish bos qichlarida ishlab chiqarish, ayrboshlash (sotib olish, sotish), taqsimlash va foydalanish, ya'ni iste'mol qilish jarayonlarida ham sodir bo'ladi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining predmetini aniqlashda yodda tutish kerakki, iqtisodiyotning ko'pgina tomonlari aniq iqtisodiy fanlar, ya'ni sanoat iqtisodiyoti, savdo iqtisodiyoti, agroiqtisodiyot va agrobiznes, iqtisodiy axborot, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, menejment kabi fanlar yordamida o'рганилади.

Iqtisodiyotning ayrim tomonlari esa moliya, soliq va soliqqa tortish, kredit, pul muomalasi, bank ishi, bojxona ishi, statistika, ekonometrika, tashqi iqtisodiy aloqalar, buxgalteriya hisobi, xo'jalik faoliyatini tahlili kabi fanlarda o'рганилади.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani bu fanlar bilan chambarchas bog'liq holda mavjud bo'ladi, ulardan ayrim aniq tomonlarni oladi va rivojlantiradi. Lekin ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani aniq iqtisodiy fanlarning nazariy asosi, ya'ni poydevori hisoblanadi, ularga uslubiy, nazariy yo'nalish beradi. Ular uchun umumiy bo'lgan ilmiy tushunchalar, qonun-qoidalalar, iqtisodiyotning turli tarmoqlari, sohalari, tomonlari o'rtasidagi aloqadorlik va o'zaro ta'sirni o'рганади va belgilab beradi.

Shularni hisobga olib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining predmeti – iqtisodiy taraqqiyotga erishish maqsadida moddiy ne'matlarni (va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy xo'jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarni o'рганишдан iborat, deb aytish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani iqtisodiy munosabatlarning turli shart-sharoitlar, zamon va makonda shaklan va mazmunan o'зgaruvchanligi, ulami ifoda etuvchi ilmiy tushunchalar, qonun-qoidalarning ham o'зgarib turishi, ularning doimo harakatda, rivojlanishda bo'lishini o'рганади. Bundan tashqari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani turli iqtisodiy voqeа-hodisa va jarayonlarning mazmuni hamda mohiyatini o'рганибгина qolmay, ularning o'zaro aloqadorligi, o'zaro ta'sirini ham tahlil qiladi.

### **1.3. "Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari" fanining uslublari**

Haqiqiy fanning amalda vujudga kelishi faqatgina tadqiqot predmetining shakllanishi bilan emas, shu bilan birga uning bilish usulining qaror topishi bilan ham bog'liqdir. Uslubiyat ilmiy bilish tamoyillar tizimi, yo'llari, qonun - qoidalari va aniq hodisalaridir. Bu obyektiv reallikni bilish dialektikasi, mantiqi va nazariyasini o'z

ichiga oluvchi bir butun ta'limotdir. Uslubiyat umumilmiy tavsifga ega, lekin har bir fan o'z predmetidan kelib chiqib, o'z ilmiy bilish usullariga ega bo'ladi. Shuning uchun uslubiyat umumilmiy va ayni vaqtida xususiy bo'ladi.

Dialektik usul qoidalari ilmiy bilishning umumiy usuli bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanida qo'llaniluvchi bu tamoyillar quyidagilardir:

1. Iqtisodiyot o'zaro aloqada, chambarchas bog'liqlikda, ziddiyatda, o'zaro ta'sir qilib turuvchi turli bo'g'in va qismlardan iborat yaxlit bir jarayonki, u doimo harakatda, rivojlanishda, mazmun va shakl jihatdan o'zgarib turuvchi ichki va tashqi hodisalar bilan aloqada bo'ladi.

2. Iqtisodiy jarayonning har bir qismini alohida olib, uning o'ziga xos xususiyatlari, kelib chiqish va yo'q bo'lish sabablari va oqibatlari, uning ijobjiy va salbiy jihatlar, ichki va tashqi aloqadorlik va bog'liqlik tomonlarini zamон va makonda o'rGANISH. Bu yerda shu narsani hisobga olish lozimki, biron-bir iqtisodiy hodisa o'zi bir jarayonning oqibati, natijasi bo'lgani holda, boshqa bir iqtisodiy jarayonga sabab yoki omil bo'lishi mumkin. Masalan, mashina, dastgoh, asbob-uskunalar bir ishlab chiqarish jarayonining oqibati, natijasi bo'lgani holda ikkinchi ishlab chiqarish jarayonining omili, sababi bo'lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar taqsimot va iste'mol sohalarida o'zgarish bo'lishiga, qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar esa sanoatda o'zgarish bo'lishiga tutki bo'ladi va h. k.

3. Iqtisodiy jarayonlarni oddiydan murakkabgacha, quyidan yuqorigacha rivojlanishida deb qarash. Bu yerda son jihatidan o'zgarishlar to'plana borib, sifat jihatidan o'zgarishga olib kelishini hisobga olish zarur.

4. Ichki qarama-qarshiliklar birligi va ularning o'zaro kurashiga rivojlanishning manbai deb yondashish.

Iqtisodiy faoliyatlar, hodisa va jarayonlar tabiiy, moddiy, shaxsiy omillar va pul mablag'lari kabi omillarga tayangan holda kechadi, bu omillar o'zaro chambarchas bog'liq hamda ziddiyatda bo'ladi va o'zaro ta'sir ko'rsatadi, ular doimo sifat va miqdor jihatdan o'zgarib turadi, turli davrlarda turlicha ijtimoiy shaklga ega bo'ladi, eski iqtisodiy qonunlar, tushunchalar o'miga yangilari paydo bo'ladi. Ana shular hisobga olinsa, bu fan uchun dialektika qoidalari qo'llashning qanchalik zarurligi va muhimligi darhol namoyon bo'ladi.

Dialektik dunyoqarash qadimgi yunon falsafasidan boshlab to hozirgacha butun kishilik jamiyatni ma'naviy taraqqiyoti tarixida inson aql-idroki erishgan buyuk yutuqdir. Dialektik uslubning mohiyati o'rganilayotgan jarayonning ichki ziddiyatlar tufayli o'z-o'zidan harakatda bo'lishini tushuntirishdan iborat va bu narsa har qanday fanga, jumladan iqtisodiyot nazariyasi faniga ham taalluqlidir.

Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining o'ziga xos tadqiqot usullari ham mavjud, ulardan eng muhimi ilmiy abstraksiyadir. Iqtisodiy jarayonlarning mohiyati o'zgarishini o'rganishda mikroskoplar, kimyoviy laboratoriyalardan foydalaniб bo'lmaydi, bunda abstraksiya kuchi ishga solinadi.

Ilmiy abstraksiya usuli - tahlil paytida halal berishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali narsalar, voqeа-hodisalarни fikrdan chetlashtirib, o'rganilayotgan jarayonning

asl mohiyatiga e'tiborni qaratishdir. Bu usul yordamida o'rganilayotgan voqeа va hodisaning ichki, ko'zga ko'rinnmaydigan mohiyati, uning asl mazmuni bilib olinadi.

Tahlil va sintez usuli. Tahlil o'rganilayotgan bir butunni alohida qismlarga ajratish va ularni izchillik bilan tahlil qilish. Sintez o'rganilgan qismlardan olingan xulosa va natijalarni bir butun yaxlit jarayon deb qarab, umumiy xulosa chiqarishdir. Murakkab iqtisodiy tizimlar ana shu yo'l bilan o'rganiladi, iqtisodiy tizim yaxlitligi tasvirlab beriladi. Mantiqiylik va tarixiylikning birligi usuli. Iqtisodiyot nazariyasida tarixiylik dalili tarixiy rivojlanish nuqtai nazaridan tadqiqot olib borish zarurligini taqozo etadi. Chunki iqtisodiy jarayonlar tarixiy jarayon sifatida rivojlanadi. Mantiqiylik usulida jarayonlar faqatgina tarixiy nuqtai-nazardan emas, shu bilan birga asosiy ichki zarur qonuniy bog'lanishlar bo'yicha ham tahlil qilinadi.

Foydalaniyatgan usullar ichida tajriba ma'lum o'rин egallaydi, iqtisodiy o'sishning keskin o'zgarishi bosqichlarida, jumladan iqtisodiyotning inqiroz va beqarorlik bosqichlarida tajribadan keng foydalaniadi. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish paytida tajriba alohida o'ringa ega. Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish, ya'ni ilmiy tajriba, o'tkazish hisob-kitob vositasiga asoslanish va ilmiy yo'naliishlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy tahlilni qo'shib olib borish. Mikroiqtisodiy tahlilda iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini bo'lmish korxona va firmalarning ichki jarayonlarini alohida iqtisodiy subyektlarning xatti-harakati, xulqi tadqiq qilinadi. Bu tahlilda alohida olingan tovarlarning xarajatlari, kapital va boshqa resurslardan foydalanish, narx shakllanishi, ish haqi to'lash, talab va taklif tarkib topishining shakl va mexanizmlarini o'rganish muhim o'rın tutadi. Makroiqtisodiy tahlil makromutanosiblikni ta'minlash asosida milliy iqtisodiyotning to'laligicha faoliyatini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi. Milliy mahsulot, bahoning umumiy darajasi, inflyatsiya, ishchi kuchining ish bilan bandligi masalalari bu tahlil obyekti hisoblanadi. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'ladi.

Induksiya va deduksiya o'zaro qarama-qarshi bo'lgan, ammo o'zaro bog'liqlikdagi fikrlash usulidir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy dalillarga qarab harakati induksiya, aksincha, umumiy dalillardan xususiy dalillarga tomon harakati deduksiya deb ataladi. Iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilishda ikki tomonlama yondoshuv usuli. Bunda barcha iqtisodiy jarayonlar qiymat va naflilik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi va xulosa chiqariladi. Aks holda bir tomonlamalikka yo'l qo'yilib, yanglish tasavvur va noto'g'ri xulosalarga olib kelishi mumkin<sup>4</sup>.

Iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy jihatdan tahlil qilishda taqqoslash, statistik, matematik va grafik usullaridan keng foydalaniadi. Ayniqsa, hozirgi davrda grafik usulni keng o'zlashtirish va qo'llash zarur. Grafiklar nazariya modellarini ifodalashda vositachi bo'lib xizmat qiladi. Aniqroq aytganda, grafik usul o'zgaruvchi miqdorlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rgazmali tasvirlaydi. Bu usullar yordamida iqtisodiy jarayon va hodisalarining mazmuni, ulardagи o'zgarishlar, kelib chiqish sabab-oqibatlarini bilish mumkin.

<sup>4</sup>Bu usulning nazariy va amaliy ahamiyati prof. Sh.Shodmonov, dots. G.Baubekova tomonidan chop etilgan "Инновационные методы в прогнозировании экономической теории" kitobida batafsil bayon etilgan.

#### **1.4. “Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari” fanining ahamiyati**

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining ahamiyatini uning maqsad va vazifalaridan anglab olishi mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining maqsadi va vazifasini ikki tomonlarma, ya’ni amaliy va nazariy tomonlarini tushuntirish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining to’rt asosiy vazifasini ajratib ko’rsatish mumkin:

1) bilish vazifasi - har qanday fan kabi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani ham muhim ahamiyatga ega: jamiyatda insonlarning tabiat ashyolari, boshqa moddiy ashyolar hamda o’zaro aloqalarida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etib, bizni o’rab turgan olam to’g’risidagi fikrlarimizni kengaytiradi;

2) amaliy vazifa – amaliy iqtisodiyotning asosiy maqsadi cheklangan resurslardan unumli foydalanib, iqtisodiy o’sishni ta’minlash va shu asosda o’sib boruvchi ehtiyojlarni qondira borishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, cheklangan turli xil resurslarning har bir birligi evaziga ko’proq tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko’rsatishni ta’minlash, har bir faoliyat turi bo‘yicha xarajatlar miqdori bilan erishilgan samara, ya’ni tovar va xizmatlar miqdorini taqqoslash, resurslardan unumliroq foydalanish yo’llarini topishdan iborat;

3) uslubiy vazifasi – ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining o’zi, tahlili va uning tamoyillari, olingen xulosalar, tadqiq etilayotgan iqtisodiy qonunlar boshqa ijtimoiy va tarmoq fanlari uchun uslubiy asos bo’lib xizmat qiladi;

4) g’oyaviy-tarbiyaviy vazifasi – ushbu vazifa shundan iboratki, uning yordamida talabalar, mutaxassislar va iqtisodiyot ilmini o’rganuvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakkantiradi, milliy istiqlol g’oyasini talaba yoshlar ongiga singdiradi, ularni millat manfaatlari yo’lida iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy mahsulotni ko’paytirish, milliy pul qadrini oshirish, milliy tovarlarning jahon miqyosida xaridorgir bo’lishini ta’minlash, mamlakat aholisining turmush darajasini ko’tarish ruhida tarbiyalaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani talaba yoshlarga moddiy ne’matlarning inson mehnatining mahsuli ekanligini tushuntirib, ularni mehnat hamda cheklangan resurslarni tejash ruhida tarbiyalaydi.

“Zaminimizda yashayotgan odamlarning munosib va erkin, faravon hayotini ta’minlash, har bir kishi huquq va imkoniyatlardan to’liq foydalanish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish - jamiyatimizni isloh qilish va yangilash paytida oldimizga qo’yayotgan g’oyat muhim vazifalardandir”<sup>5</sup>. Bundan tashqari, iqtisodiyot nazariyasi aholini ish bilan ta’minlash, pul qadrsizlanishining oldini olish, aholini ijtimoiy himoya qilish yo’llarini ko’rsatib berishi lozim. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani makroiqtisodiyot darajasida tahlil qilib, uning sohalari, ko’rsatkichlari, omillari o’rtasidagi bog’lanishlarni, iqtisodiy o’sish yo’llarini aniqlab ko’rsatadi va davlatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatida ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining maqsadi esa, avvalo, ilmiy bilishdan iborat. Shundan kelib chiqadiki, iqtisodiy jarayon va hodisalarini kuzatish, ulardagagi shakl va mazmun o’zgarishlarini, ichki bog’lanish va aloqlar, ziddiyatlar,

<sup>5</sup> Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T-5. – T.: O’zbekiston, 1997. 179-b.

qonun-qoidalar va tushunchalarni bilib, birinchi navbatda, talabalar, iqtisodchi mutaxassislar va iqtisodiy taraqqiyotga qiziquvchi boshqa xodimlarga o'rgatishdan iborat. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining biz qayd etilgan amaliy, nazariy, uslubiy va tarbiyaviy tomonlari o'zaro chambarchas bog'liqidir. Amaliy iqtisodiyot nazariy bilimga ega bo'lismash, u bilan qurollanish zaruratini taqozo etadi. Nazariy bilim esa oldindan ko'ra bilish va amaliy harakat yo'lini to'g'ri belgilash imkonini beradi. Umuman, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani iqtisodiy jarayonlar, voqeja va hodisalar sirini bilishda ilmiy qo'llanmadir.

"Pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish borasidagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch - cuvvat manbai, ilmiy asos milliy g'oya, milliy mafkuradir"<sup>6</sup>. Shu aqidadan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fani "Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakkantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish"<sup>7</sup> vazifasini ham bajaradiki, bu iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlardan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Jamiyatda hayotga, o'zgarishlarga befarq qaraydigan loqayd kimsalar bo'lmasligi kerak. Bu taraqqiyotimizni orqaga surib yuboradi. Inson buyuk, ezgu orzular bilan yashasin. Uni nafaqat mamlakat, balki jahonda ro'y berayotgan hodisalar qiziqtirsin. Dunyoqarashi, ongi chegaralanib bir qolipda qolmasin. Milliy g'urur, istiqlol mafkurasi g'oyalari unga doim hamroh bo'lsin"<sup>8</sup>. Bu maqsadga erishish uchun "Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari" fani Prezidentimiz I.A. Karimovning so'zlagan nutq va ma'ruzalarida, asarlarida ko'rsatib berilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish davri tamoyillarini, o'tishning o'ziga xos yo'lini, o'zining iqtisodiy qonunlarini, yo'l-yo'riqlarini, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan qarorlar asosida mamlakatimiz oldida turgan iqtisodiy muammo va vazifalarning chuqur tahlili, hal etish yo'llarini yoritmog'i, o'tish davri iqtisodiyotining xususiyatlari, ko'p ukladli iqtisodining, turli shakldagi mulkchilikning vujudga kelish yo'llari, usullarini ko'rsatib bermog'i lozim.

### Asosiy tayanch tushunchalar

Iqtisodiy o'sish, iqtisodiy taraqqiyot, ekstensiv iqtisodiy o'sish, intensiv iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish omillari, iqtisodiy taraqqiyot ko'rsatkichlari, iqtisodiy resurslar, uslubiyat, ilmiy bilish tamoyillari.

### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy o'sish va iqtisodiy taraqqiyot tushunchalarining qanday farqi mavjud?

2. Iqtisodiy o'sishning qanday turlari mavjud?

3. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining predmeti nimadan iborat?

U boshqa iqtisodiy fanlar orasida qanday o'rin tutadi?

4. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari fanining qanday vazifalari mavjud?

Bu vazifalarning bugungi kundagi ahamiyati nimalarda namoyon bo'ladi?

5. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalarini o'rganishda qanday usullardan foydalilanildi?

<sup>6</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000. 463-b.

<sup>7</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: O'zbekiston, 1999. 187-b.

<sup>8</sup> Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T-5. -T.: O'zbekiston, 1997. 149-bet.

## **2-bob. IQTISODIY TARAQQIYOT TO'G'RISIDAGI TURLI XIL NAZARIYA VA QARASHLAR**

### **2.1. Iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi nazariyalar (A.Smit, A.Marshall, J.Keyns qarashlarining mohiyati)**

Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun eng avvalo ushbu tushunchaga oid nazariya va qarashlarni chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu sababli mazkur bobning tahlili iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi turli xil qarashlar, nazariya va g'oyalar, qolaversa, mamlakatmizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalarining vujudga kelishi va shakllanishini bayon etish bilan boshlanadi. Tahlil davomida iqtisodiy taraqqiyot bo'yicha A. Smit, A. Marshall, J. Keynslar hamda hozirgi zamon monetarizmi, institutsionalizm va liberalizm oqimlari namoyondalari qarashlarining mazmun-mohiyatini yoritib berishga ham o'rinn ajratiladi.

XVIII asr o'rtalarida Angliya boshqa mamlakatlarga nisbatan manufakturadan fabrikaga o'tishga yaqin turar edi. Angliya sanoat inqilobi arafasida edi. Mamlakatning sanoat mahsulotlari jahon bozorida yuqori baholangan va talab tobora ortgan, ammo davlat tomonidan kiritilgan savdo-sotiqdagagi proteksionizm siyosati, feodalizm davridagi bir qancha tartib va cheklovlardan qonunlar davr talabiga javob bermay qo'ysi, ularning mavjudligi kapitalizm rivojiga to'sqinlik qilar edi.

Angliya sanoati egalari erkin sohibkorlik faoliyatini kuchaytirish, feodalizm qoldiqlarini tugatishni talab qildi. Shu sababli sohibkorlar sinfi yangi kapitalistik ishlab chiqarish usulini ilmiy jihatdan to'la tahlil qiluvchi iqtisodiy ta'lilotlarga muhtoj edi.

Shunday qilib, XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning birinchi choragida Buyuk Britaniyada boshqa davlatlarga nisbatan iqtisodiy g'oyalarining rivojlanishi uchun nihoyatda qulay sharoitlar yuzaga keldi, bu g'oyalar A. Smit ta'lilotida o'z aksini topdi.

A. Smit merkantilizm, ilk klassik maktab va fiziokratizm g'oyalarini mukammal o'rganib, shular asosida yangi iqtisodiy maktabning shakllanishini nihoyasiga yetkazdi. Aslini olganda u bozor iqtisodiyoti asosini yaratdi.

A. Smit 1766-yilda o'zining bosh asari - "Xalqlar boyligining tabiatini va sabablari to'g'risidagi tadqiqot"ni yozishga kirishdi, bu asar 1776-yil martda Londonda chop etildi. Asarda insoniyat tomonidan ilgari yaratilgan iqtisodiy bilimlar mujassamlashtirildi va umumiy nazariy tamoyillar asosida nisbatan batartib iqtisodiy fanlar tizimiga aylandi.

Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va uning moddiy-turmush darajasini oshirish muammolari A. Smit tadqiqotining predmetini tashkil etadi. Qanday shart-sharoitlarda va qanday qilib insonlar yuqoriroq moddiy turmush darajasiga erisha oladilar degan fikr asarning asosiy g'oyasini aks ettiradi.

Iqtisodiy taraqqiyot bilan sanoat tovarlari narxi pasayish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxi esa o'sish tendensiyasiga ega deb hisoblaydi.

Iqtisodiy taraqqiyotning shaxsiy mansaat va stixiyali qonunlarning o'zaro nihoyatda samarali harakati sharoitlarini A. Smit "tabiiy tartib" deb atagan. A. Smit va uning izdoshlari bu tushuncha bir tomonidan iqtisodiy siyosatning tamoyili va

maqsadi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu iqtisodiy harakatni o'rganish uchun nazariy konstruksiya yoki modeldir deb tushunishgan. Demak, jamiyatga naf keltiruvchi faoliyatni biror harakat bilan cheklamaslik kerak, degan xulosa chiqariladi. Bu tamoyilga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

- ishchi kuchining erkin harakati;
- savdoda (yer savdosida ham) to'la erkinlik;
- sanoat va ichki savdoni hukumat tomonidan reglamentatsiya qilishga qat'iy qarshilik;
- erkin tashqi savdo (proteksionizmga qarshi).

Olimning bu g'oyalari keyinchalik to'la amalga oshdi.

A. Smitning iqtisodiy qarashlari asosida shunday g'oya yotadiki, unga ko'ra jamiyat boyligi ishlab chiqarish jarayonida mehnat tufayli paydo bo'ladi. U kapitalistik ishlab chiqarishning manufaktura bosqichini tahlil qilish asosida iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili mehnat taqsimotidir, degan xulosaga keldi va buni o'z tadqiqotlarining boshlang'ich punkti deb qabul qildi.

Smit foyda normasi va %ning past darajasini iqtisodiy rivojlanish va "millatning ravnaqi ko'rsatkichi deb izohlanadi, ammo foyda normasining pasayib borish tendentsiyasini tushuntirib bera olmadni.

A. Smit erkin raqobat davridagi Buyuk Britaniyadagi iqtisodiy siyosatni asoslashga katta e'tibor berdi. U ishlab chiqaruvchilarga iqtisodiy erkinlikni ta'minlash, davlatning iqtisodiy hayotga aralashmasligini talab qilardi. Ammo mamlakatning mudofaa manfaatlari iqtisodiyotdan ham ustun bo'lishi mumkin degan fikri mavjud, ya'ni bu ba'zi paytlarda davlatning iqtisodga aralashuvni zarur deganidir. Smit iqtisodiyotda davlat sektorining samarasizligini ko'rsatib, "*"hukumat har doim va istiznosiz buyuk isrof garchidir"*" deydi. Shu sababli davlatning faqat uch funksiyasi tan olinadi: 1) huquq-tartibot; 2) mamlakat xavfsizligini ta'minlash; 3) jamiyatga zarur bo'lgan (ammo xususiy sektor tomonidan tuzilmagan) ijtimoiy korxona va muassasalarini ta'minlash.

Smit zamonaliv davlat soliq siyosatining nazariy asoslarini yaratdi. Soliqlar fuqarolarning kuchi va imkoniyatiga mos kelishi, ishga yaroqli har bir kishiga alohida belgilanishi kerak, soliq imkonii boricha arzon, uning shakli va olinish vaqtini esa to'lovchi manfaatiga mos kelishi zarur.

Sanoatchilar manfaatlarini himoya qilgan olim lendlordlar, ya'ni yirik yer egalariga belgilangan soliq imtiyoziga qarshi chiqdi. Yer rentasi davlat soliq'i qo'yiladigan eng qulay obyekdir. Smit foydadan olinadigan soliq samarasiz degan xulosa chiqardi. Korxona egasi foydani saqlash uchun o'z mahsulotiga yuqori baho qo'yish bilan soliq og'irligini iste'molchi ustiga yuklaydi. U ish haqidan olinadigan soliq ham mahsulotga loyiq emas deb hisoblaydi. Bu soliqni ham korxona egasi to'laydi, chunki tirikchilik minimumini ta'minlashi kerak.

Smit savdodagi proteksionizmga (davlat tomonidan cheklovlari, soliq, bojxona va boshqalar), tashqi savdodagi har qanday cheklashlarga qarshi edi. U nochor ahvolga tushib qolgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun quyidagi uch omilni ko'rsatib bergen edi: 1) mamlakatda tinchlik, osoyishtalik bo'lishi va saqlanishi; 2) me'yordagi

yengil soliqlar tizimi; 3) davlat iqtisodiyot ishlariga hadeb aralashavermasligi zarur, iqtisodiyot tabiiy ravishda amalga oshaveradi.

A. Smitdan keyin **A. Marshall** (1842-1924) iqtisodiyotda neoklassik (yangi klassik) yo'nalishning yetakchi vakili va marjinalizmning "Kembrij maktabi" lideri sifatida maydonga chiqdi. U 1902- yildan boshlab yangi "Ekonomiks" fanini kiritdi va siyosiy iqtisod fani asta-sekin siqib chiqarildi. Marshall marjinalizm g'oyasini musbat ravishda aniqladi.

Uning tadqiqot metodida klassik maktab g'oyalariga vorislik mavjud bo'lib, ular yanada rivojlantiriladi. A. Marshall insonlarning iqtisodiy faoliyatini "sof" iqtisodiy nazariya pozitsiyasida turib, xo'jalikning ideal (benazir) modelini tadqiq etdi. Ammo iqtisodiyotning muvozanati bilan bog'liq bir qancha marjinal g'oyalar orqali u bu fanni "xususiy" holat, ya'ni firma, soha (mikroiqtisodiyot) darajasida qaraydi. Bunday yondoshuv olim yaratgan "Kembrij maktabi" va XIX asr oxiri - XX asr boshidagi ko'pchilik neoklasdavrarga xosdir. Ammo alohida ta'kidlash kerakki, A. Marshall o'zidan oldin o'tgan ortodoksal klasdavrardan farqli ravishda, iqtisodiy kategoriyalarni "Isbot" talab etuvchi ma'lum asosiy chegaralanishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

U korxonada ishlab chiqarish hajmlarini o'stirish davomida solishtirma ishlab chiqarish xarajatlari o'zgarishi qonuniyatları aniqlandi. Korxona ishlab chiqarish miyosini oshirganda undan keladigan naf miqdori muammozi ko'rib chiqiladi. Marshall xususan qayd etadiki, odatda raqobatli iqtisodiyotda yirik korxona (firma) o'z tovariga narxni pasaytirishni ta'minlaydi, bu esa raqobatchilar oldida ustunlikka olib keladi (malaka oshuvi, maxsus mashina va asbob-uskunalarni qo'llay olish tufayli). Eng muhim bunday iqtisoddan jamiyat manfaat ko'radi.

"Repreztativ firma" (o'rtacha firmaning turi) tushunchasi kiritiladi. Uning hajmi ma'lum tovari ishlab chiqarish hajmi ortishi bilan ortadi, bu esa ham ichki ham tashqi foyda keltiradi, chunki mehnat sarflari va boshqa ishlab chiqarish xarajatlari pasayadi.

Bundan olim ikkita iqtisodiy qonun mavjudligi to'g'risida xulosa chiqaradi: 1) o'sib boruvchi foyda; 2) doimiy foyda. Birinchisiga ko'ra, mehnat va kapital sarflari hajmi ortishi bilan odatda ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirishga olib keladi, mehnat va kapitaldan foydalanish samarodorligini oshiradi, proporsional (mutanosib) ravishda yuqoriroq foyda keltiriladi. Ikkinchisiga ko'ra, mehnat va boshqa xarajatlarni mahsulot hajmining proporsional o'sishiga olib keladi. Olimning fikricha, real hayotda bu ikki tendensiya doimo o'zaro qarama-qarshi turadi.

1929-1933- yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi sanoat jihatidan rivojlangan va past rivojlangan mamlakatlarga katta zarba berdi. Avvalgi (klassik, neoklassik) ta'limotlar tadqiqotida mikroiqtisodiy tahlil (alohida korxona) asosiy o'rinni egallagan bo'lsa, inqiroz katta ishsizlik sharoitida boshqacha, makroiqtisodiy tahlil (davlat, jahon) ga zarurat tug'ilgan edi. Fanning bu sohasida hozirgi davming tanqli iqtisodchisi J.M. Keyns muhim kashfiyotni yaratdi.

Xuddi shu davrda ijtimoiy iqtisodiyot masalalarida munozara kuchaydi. Unda erkin xo'jalik faoliyati va davlatning iqtisodiyotga aralashuvi, trestlar va sindikatlar, proteksionizm va friteaderlik muomalalari ko'ndalang bo'lib turar edi. Shu davrdagi

ilmiy tadqiqotlar muammosi hozirgi kunda ham nihoyat dolzarb, chunki davlatning bozor iqtisodiyotini tartibga solishi masalasi uzul-kesil hal etilmagan. Bu borada ikki yo'nalish hukmron. Keyns ta'limotiga to'la asoslanuvchilar - keynschilar va unga qisman qo'shiluvchilar neoliberallardir.

XX asrning birinchi yarmida iqtisodiy inqirozlarning damba-dam takrorlanishi tufayli "kapitalizmni tartibga solishga" oid iqtisodiy g'oyalari soni ko'paydi. Ana shunday yo'nalishning yorqin tarafida sifatida ingliz iqtisodchisi **Jon Meynard Keyns** (1884-1946) shuhrat qozondi. Uning bosh asari - "**Ish bilan bandlik, % va pulning umumiy nazariyasi**" (1936) kitobidir. Uning barcha asarlaridagi asosiy masala kapitalizmni oqlash, uning inqirozlarsiz rivojini ta'minlashning abadiyligini isbotlashga o'renishedir. Uning yaratgan nazariyasi iqtisodiyot ta'limotlari tarixida alohida o'rinni egallaydi va bu o'ziga xos inqilob bo'lib, hozirgi davrda ham ahamiyatlidir. Keyns asosiy asarining boshidayoq klassik muktabga qarshi ekanligini bayon etdi.

Keyns ta'limotining asosiy va yangi g'oyasi shuki, bozor iqtisodiy munosabatlari tizimi mukammal va o'z-o'zini avtomatik ravishda tartibga sola olmaydi. Shu sababli maksimal darajada bandlik va iqtisodiy o'sishni faqat davlatning iqtisodiyotga faol aralashuvi ta'minlay oladi. Bu ish davridagi amaliy iqtisodiyotdagi konkret ahvol bilan chambarchas bog'liq edi. Yetakchi olimlarning ta'kidlashicha (J.K.Gelbreyt, M.Blaug), firmalar, monopoliya va oligopoliyalar faoliyatidagi tengsizlik nisbatan kichik doiradagi kishilarning faoliyati bilan bog'liq, bu tengsizlik printspipida davlatning aralashuvi bilan tuzatilishi mumkin edi.

Keynsning umumiy bandlik nazariyasi quyidagilarga asoslanadi: Ish bilan bandlik ortishi tufayli milliy daromad, demak, iste'mol ortadi, ammo iste'mol daromadga nisbatan sekinroq ortadi, chunki daromad ortishi bilan "jamg'arishga intilish" kuchayadi. Uning fikricha, asosiy psixologik qonun shundan iboratki, kishilar odatta daromadlar ortishi bilan iste'molni ham oshiradi, ammo bu daromadlar darajasida bo'lmaydi. Natijada daromadlar oshishi bilan jamg'arish ortadi va iste'mol nisbati kamayib boradi. Natijada "samarali talab" kamayadi, talab shunday yo'l bilan ishlab chiqarish hajmlari va bandlik darajasiga ta'sir etadi.

Iste'mol talabining yetarlicha oshmasligi yangi investitsiyalarga xarajatlarning oshuvi yo'li bilan qoplanishi, ya'ni ishlab chiqarish iste'molining ishlab chiqarish vositalariga qarab oshishi yo'li bilan qoplanishi mumkin. Shu sababli investitsiyalarning umumiy hajmi bandlik hajmini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Keynsning fikricha investitsiyalar hajmi investitsiyalarga intilishga bog'liq. Investor investitsiyalarni kapitalning "eng yuqori samaradorligi" % darajasigacha pasaygan paytgacha kengaytiradi (foyda normasi o'lchanadigan rentabellik).

Qiyinchilik shundaki, kapitalning rentabelligi pasayadi, % darajasi esa mo'tadil bo'ladi. Bu holat yangi investitsiyalar uchun imkoniyatni pasaytiradi, demak, bandlik o'sishi ham kamayadi. Kapital "eng yuqori samaradorligi" ning pasayishi kapital massasining oshishi, shuningdek, kapitalist-tadbirkorlarning bo'lajak daromadlariga ishonchszlikka "moyilligi" bilan tushuntiriladi. Keyns ta'limoti bo'yicha

bandlikning umumiy hajmi uch omilga - “iste’molga moyillik”, “eng yuqori samaradorlik” va % normasiga bog’liq.

Keyns ochgan “assosiy psixologik qonun” uning fikricha, istalgan jamiyat uchun qo’llanilishi mumkin va iste’mol talabining kamomadi asriy tendensiyaga ega hamda barcha uchun yagona iste’mol qonuni mavjuddir. Keyns %ga alohida e’tibor beradi, uni pul qarzi uchun berilgan haq deb hisoblaydi. Uning fikricha, % muomaladagi pul miqdoriga va “likvidlilik afzalligi”ga bog’liq. Uning miqdori “likvidlilik afzalligi”ga to’g’ri va muomaladagi pul miqdoriga teskari proporsionaldir.

Keynsning umumiy nazariyasida investitsiyalarning umumiy bandlik hajmini aniqlashdagi assosiy roli to’g’risidagi tezis muhimdir. Ular iste’mol talabining yetarli emasligini to’ldirishi (kompensatsiyalash) kerak. Bunda ishlab chiqarishni kengaytirish masalasi iste’mol talabi oshuvidan alohida qaraladi. Investitsiyalarning ko’payishi ishlab chiqarishga qo’shimcha ishchilarni jalb etishga olib keladi, bu esa bandlik, milliy daromad va iste’mol oshishini ta’minlaydi. Yangi investitsiyalar tufayli bandlikning dastlabki oshishi yana qo’shimcha bandlikni vujudga keltiradi, chunki qo’shimcha ishchilarning talabini qondirish zarurati tug’iladi. Qo’shimcha bandlikning oshish koefitsientini Keyns *multiplikator* deb ataydi, u bir tomonidan investitsiyalar o’sishi, ikkinchi tomonidan bandlik va daromadlarning o’sishi o’ttasidagi nisbatni ko’rsatadi.

Multiplikator formulasi:

$$K = \frac{Y_w}{J_w}$$

bunda: **K** - multiplikator koefitsienti, **Y<sub>w</sub>** - daromad oshishi; **J<sub>w</sub>** - investitsiya oshishi. Multiplikator “iste’molga eng yuqori moyillik” bilan bog’liq, chunki u iste’molga ketgan sarflar o’sishining daromadlar o’sishiga nisbatini bildiradi. “Iste’molga eng yuqori moyillik” qancha yuqori bo’lsa, multiplikator ham shunchalik katta va demakki, bandlik yaxshi bo’ladi. Keyns bir qancha hisob-kitoblarga asoslanib, AQShning multiplikatorini aniqladi, u 2,5 ga teng ekan. Bu daromadlar o’sishi investitsiyalar ortishidan 2,5 marta ortiq degani, ya’ni 1 dollar investitsiya 2,5 dollar daromad keltiradi.

Xususiy investitsiyalarni rag’batlantirish uchun % normasini tartibga solish taklif etiladi. Uning fikricha, davlat muomaladagi pul miqdorini oshirish yo’li bilan % darajasini tartibga solish imkoniyatiga ega. Muomaladagi pul miqdorini oshirish amalda inflyatsiya (pulning qadrsizlanishi)ni qo’llash demak, ammo bunda ssuda %i kamayadi va pul ishlab chiqarishga qo'yish uchun rag’batlantiriladi.

To’la bandlikni ta’minlash uchun faqat investitsiyalarning emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish taklif etiladi. Buni hal qilish vositasi sifatida soliqlarga murojaat qilish kerak deyiladi. Aholi “jamg’armalari”ni muomalaga kiritish maqsadida soliqlarni oshirish talab etiladi va bu omonatlar davlat investitsiyalarini oshirish uchun foydalanimishi mumkin deyiladi. Shu vaqtning o’zida boylarning solig’ini oshirishga qarshilik qilinadi. Keyns o’z taklifini quyidagicha tushuntiradi: Mehnatkashlarning soliqlarini oshirishdan maqsad - ularning “jamg’armalari”ni

kamaytirish va iste'molni rag'batlantirishdir. Real ish haqini pasaytirish uchun inflyatsiya asosida narx-navoni oshirish yo'li tavsiya etiladi. Real ish haqini pasaytirmay, to'liq bandlikni ta'minlash mumkin emas, degan fikr ishchilarga uqtiriladi.

Keynsni hozirgi davrda hammaga yaxshi tanish ibora - "aralash iqtisodiyot"ning otasi deyish mumkin, bu iqtisodiyotda hukumat hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Sof iqtisodiyot deyarli hech qaysi davlatda yo'q. Keynsning iqtisodiy g'oyalari birinchi navbatda "buyuk inqiroz" ta'siri ostida paydo bo'ldi. 1929-1933-yillardagi bu buyuk inqiroz Amerikani larzaga keltirdi, ishlab chiqarish yarmiga (50%)ga qisqardi. 17 mln. kishi ishsiz edi (25%), 9 mln. omonatchi kuyib qoldi. Ana shunday sharoitda iqtisodiyotni qutqarishning muhim yo'li - hukumat xarajatlari ekanligi ko'rsatib berildi. Keyns asosiy asarining birinchi satrlaridan boshlaboq "klassik iqtisodiy maktabga qarshi" ekanligini yozadi.

Aniq aytish kerakki, keyns ta'limoti inqirozlar, urushlar va urushdan keyingi davrlar uchun samarali bo'ldi, chunki favqulodda holatlar davrida davlatning o'mi kuchli bo'lishi kerak. Amalda esa, ayniqsa 2-jahon urushidan so'ng G'arb mamlakatlarining sotsialistik mo'ljali kuchaydi (davlat mulki oshib bordi), davlat byudjeti qarzları ko'payib, ishsizlik ham o'sgan, inflyatsiya kuchli. Bu ijtimoiy ishlarni ko'paytirishga qaratilgan tadbirlar natijasi deb tan olinmoqda. Ishsizlikni ish haqini pasaytirish yo'li bilan hal etish tarafdarlari ham mavjud, ammo pul massasini ko'paytirish, ya'ni emissiya yo'li ko'pchilikka oson ko'rindi. Bu konsepsiya ma'lum davr mobaynida inflyatsiya bo'lmagan holda minimal ishsizlik darajasini isbotlashga imkon beradi.

## **2.2. Hozirgi zamon institutsionalizm, neoliberalizm va monetarizm oqimlari namoyondalarining qarashlari**

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida olamda bo'lib o'tgan aniq ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar tufayli jahondagi mamlakatlarning salohiyati keskin o'zgardi, ilgari ilg'or bo'lgan davlatlar 2-o'rnlarga (Angliya, Fransiya), nisbatan qoloq bo'lgan davlatlar esa 1-o'rnlarga chiqib oldi (AQSh, Germaniya). Xuddi shu davrda yetakchi mamlakatlarda erkin raqobatga asoslangan iqtisodiyotdan ko'pincha monopolistik iqtisodiyotga o'tish kuchaydi. Monopoliya kuchayishi monopol foya olishga imkon yaratdi va iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir eta boshladi. Shu sababli antimonopol choralar qo'llash g'oyasi ilgari surildi va bu birinchi AQShda ro'y berdi. Keyinchalik (va hozirda) barcha davlatlarda bunday chora qo'llandi.

Antitrest siyosati yo'li bilan iqtisodiyot ustidan ijtimoiy nazoratning turlicha metod (usul)lari qo'llanila boshladi. Ana shu usullarning nazariy asoslari yuzaga keldi va hozirda ham mavjud.

Iqtisodiy ta'limotlardagi institutsionalizm yo'nalishi AQShda XX asrning 20-30-yillarida keng tarqaldi, ammo u ancha oldin, XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan (T.Veblemnning 1899-y. chiqqan "Bekorchi sinflar nazariyasi" asari bilan bog'liq). Bu yo'nalish nomi lotincha "instituto" - urf-odat, ko'rsatma, muassasa so'zidan olingan va kapitalizmnning imperializm bosqichiga o'tishi bilan bog'liq

ravishda ro'y berdi, chunki bu davr rivojlanishini erkin raqobatga asoslangan avvalgi davr ta'limotlari bilan izohlash mumkin bo'lmay qoldi.

Bu ta'limot yo'nalishi vakillarining fikricha, institutlar jamiyat rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib xizmat qiladilar. Bu tushuncha zamirida ijtimoiy hodisalar, masalan, oila, davlat, monopoliya, kasaba uyushmalarini va boshqa muassasalar yotadi, ya'ni jamoat ruhining namoyon bo'lishi, yurish-turish va o'ylash usulini xalqning ma'lum guruhlari uchun odatiy, an'anaviy, shuningdek, huquqiy, axloqiy va boshqa ko'rinishlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalish maskurachilarining fikricha, iqtisodiy kategoriyalar bo'lgan xususiy mulk, soliq, pul, kredit, foyda, savdo va boshqalar jamiyat ruhining paydo bo'isi shaklidir. Demak, ular obyektiv iqtisodiy qonunlarning mavjudligini to'la tan olmaydilar va jamoat ruhiyatining evolyutsiyasini tahlil qiladilar.

Institutsilizm ma'lum ma'noda neoklassik yo'nalishga muholifdir.

Neoklasdavrar bozor iqtisodiyotini o'zini-o'zi boshqara oluvchi (A. Smit fikri) sistema deb qarasalar (sof iqtisodiyot fani), institutsilizm tarafдорлари iqtisodiyot rivojlinishining harakatlantiruvchi kuchlari moddiy omillar bilan birga tarixiy ma'noda qaraladigan ma'naviy, axloqiy, huquqiy va boshqa omillarga ham bog'liqdir deb o'yaydilar. Demak, bu yangi yo'nalishning tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy-iqtisodiy, shu bilan birga noiqtisodiy muammolarni tahlil etish ilgari suriladi. Shu bilan birga, tadqiqot obyektlari, ya'ni institutlar birinchi yoki ikkinchi darajali deb qaralmaydi va o'zaro qarama-qarshi qo'yilmaydi.

Institutsilizmga xos uslubiy xususiyatlar quyidagilardir:

1) neoklassikaga xos abstraksiyaning yuqori darajasi va ayniqsa baho nazariyasining ortodoksal statik xarakteridan qoniqmaslik;

2) iqtisodiy nazariyani boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyaga intilish yoki fanlararo yondoshuv ustuvorligiga ishonch;

3) klassik va neoklassik nazariyalarda empirizm (tajribaga suyanish) yetishmasligidan norozilik, chuqur miqdoriy tadqiqotlar o'tkazishga chorlash.

Bu yo'nalishning vujudga kelishi, shakllanishi va evolyutsiyasining ma'lum tarixi mavjud. Uning maskurachilarini T. Veblen, J. Kommons, U. Mitchell asarlarida iqtisodiy davr va inqirozlar tarixi bo'yicha faktik materiallar jamlangan. Bu olimlar jamiyat a'zolariga xos urf-odat, an'ana, odob-axloq, instinktlarni o'rganish bilan shug'ullanadilar. Ularda nazariy tadqiqotdan ko'ra, yozib borish, qayd etish uslubi ustunroqdir.

Institutsilizm evolyutsiyasini uch davrga bo'lish mumkin:

1. 20-30-yillarda institutsilizmning keng tarqalishi. Bu davrning bosh maskurachisi T. Veblendir (1857-1920), uni J.R. Kommons (1862-1945), U. Mitchell (1874-1948), J. Gobson (1858-1940), U. Gamiltonlar faol himoya qildilar.

2. Urushdan keyingi kechki institutsilizm. Bu davr maskurachilarini iqtisodiyotdagi qarama-qarshiliklarni izohlab berish bilan birga F. Ruzvelt tomonidan ilgari surilgan "yangi kurs" islohotlarini amalga oshirish bo'yicha tavsyanomalarni ham ilgari surdilar. Ular demografiya va antropologiyani o'rgandilar, ishchilar harakatining kasaba uyushmalarini nazariyalarini ishlab chiqdilar. 50-yillarda J.M. Klark "Iqtisodiy institutlar va insonlar farovonligi", A. Berli "Mulksiz hokimiyat" va

“XX asr kapitalistik inqilobi” kitoblarini chop etdilar, G. Minz o‘z maqolalarida aksionerlar soni ortishi, kapital mulkning kapital funksiyadan ajralish jarayonini qayd etdi.

3. 60-70-yillarda ijtimoiy-institutsional yo‘nalish, ya’ni neoinstitutsionalizm paydo bo‘ldi. 60-yillardagi institutsionalizm asoslari amerikalik nazariyotchi A. Louva Shvetsiyalik iqtisodchi G. Myurdal tomonidan ishlab chiqildi. Hozirgi davrdagi ijtimoiy-institutsional yo‘nalish ta’limoti J.K. Gelbreyt va R. Xeylbronlerlar tomonidan davom ettirilgan.

Institutsionalizmdagi uch asosiy oqimni ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-psixologik
2. Ijtimoiy-huquqiy.
3. Empirik yoki konyunktur-statistik.

Lekin, shu bilan birga, barcha yo‘nalishlarga xos bo‘lgan umumiylik ham mavjud. Ular ozmi-ko‘pmi burjua jamiyatini axloqiy-psixologik jihatdan tanqid ostiga oladilar, iqtisodiyot fanida reformistik yo‘lni oqlaydilar va bu oqim olimlari burjua jamiyatini mutlaq maqtashdan chetlangan. Bu yo‘nalish g‘oyalariga baho berib, g‘arb iqtisodchilari institutsionalizmni “Formalizmga qarshi g‘alayon” deb qaramoqdalar, uni klassik iqtisodiy muktabga qarama-qarshi qo‘ymoqdalar. Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishi va avvalgilaridan farq qilishi vaqt va sharoit taqozosi tufaylidir. Chunki kapitalizm avvalgi davrdagidan keskin o‘zgardi, davlat va jamaat tashkilotlari, ayniqsa, kasaba uyushmalarining roli ortib ketdi. Ularni hisobga olmaslikning iloji yo‘q edi.

Ikkinci tomondan bu yo‘nalishning “norozilik kayfiyati” “eng yuqori naf nazariysi”ga ham qarshi qaratilgan edi. Agar bu nazariya mikroiqtisodiy tahlil bilan shug‘ullansa, institutsionalizm makroiqtisodiy tahlilni amalga oshiradi. “Yuqori naf” vakillari jamiyatning asosiy iqtisodiy subyekti sifatida Robinzon (alohida individ)ni tanlashsa, institutsionalizm maskurachilari kollektiv - jamoa “psixologiyasi”ni birinchi o‘ringa qo‘yadilar. Ular “Yuqori naf” nazariyasiga qarshi chiqib, jamiyatning stixiyali rivoji o‘rniga ishlab chiqarishni boshqarishda ijtimoiy tadbirlar qo‘llashni afzal ko‘rdilar. Boshqa maktablardan farqli ravishda, institutsionalizm iqtisodiy hayotning ba’zi ijtimoiy tomonlarini tanqidiy o‘rganishni asos qilib oldi, ammo davlat monopolistik kapitalizmi tizimini qo‘llab-quvvatladi.

Ularning g‘oyalarida “Ijtimoiy nazorat”ni himoya qilish orqali yangi sharoitda iqtisodiyotni tartiblashni tashkil etishni lozim deb ko‘rsatiladi. Ayniqsa bu sharoitda huquqiy masalalarni rivojlantirish muammosi dolzarb qilib qo‘yildi. Ular “erkin muldorlik” va marjinalizmga qarshi chiqib, iqtisodiyotda avtomatik barqarorlik mexanizmi mavjudligini inkor etdilar va iqtisodiy jarayonlarni miqdoriy tahlil qilishning tarafdarlari edilar. Keynsdan ancha avvalroq ular davlat iqtisodiyotga faol aralashishi kerak, degan fikri ilgari surdilar.

**Neoliberalizm** keynschilik bilan deyarli bir vaqtida paydo bo‘ldi va u XX asming 30-yillarida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning mustaqil qarashlar majmuasidan iborat. Ilmiy nazariya va amaliy hayotda neoliberal iqtisodiy jarayonlarga davlatning ma’lum darajada aralashuvli tufayli cheklanmagan erkin raqobat g‘oyasining ustuvorligiga asoslanadi. Agar keynschilik iqtisodiyotda

davlatning faol aralashuvini boshidanoq zarur deb qarasa, neoliberalizm davlatning nisbatan passiv tartibga solinishini qo'llaydi. Keyschilik modellarida iqtisodiyotning turli sohalarini investitsiyalash, hukumat buyurtma va xaridlari hajmini kengaytirish, soliq siyosatini kuchaytirish bo'yicha davlat chora-tadbirlari majmuasiga ustuvorlik beriladi. Bu siyosatning o'ta keng qo'llanilish oqibatlari iqtisodiy tarixdan ma'lum bo'lgan davlat byudjeti kamomadi va inflyatsiyaga olib kelishida ko'rindi.

Neoliberalistlar iqtisodiyotni liberallashtirishni, erkin baho shakllanish prinsiplaridan foydalanishni, iqtisodiyotda xususiy mulk va nodavlat tuzilmalarining yetakchi bo'lishini qo'llaydilar. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi o'mi esa "tunggi qorovul" yoki "sport sudyasi" qabilida bo'lishi ko'zda tutiladi. Bu yo'naliishing yirik vakili L. Erxard aytganidek, "Raqobat mumkin bo'lgan hamma yerda, tartibga solish - zarur bo'lgan yerda" amalga oshishi kerak. Davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroti cheklangan bo'lib, tadbirkorlarning erkin va me'yordagi faoliyati iqtisodiyotdagi muvozanatni saqlashning asosiy sharti sifatida qaraladi.

XX asrning 30-yillarda davlatning iqtisodiyotga aralashuvini cheklash maqsadida muqobil neoliberal markazlar tashkil etildi. Buning sababi shundaki, 2-jahon urushi arafasida paydo bo'layotgan militaristik g'oyalalar niroyatda kuchli bo'lib, ko'p mamlakatlarda (Germaniya, Italiya, AQSh, Buyuk Britaniya...) davlatning iqtisodiyotga aralashuvi keskin kuchayadi. Neoliberalizmning eng yirik markazlari Germaniya, AQSh va Angliyada vujudga kelib, shunga muvofiq Frayburg maktabi (yetakchi vakillari - V. Oyken, V. Ryobke, A. Ryustov, L. Erxard va b.), Chicago maktabi, uni "monetar maktab" deb ham ataladi (yetakchi vakillari - L. Mizes, M. Fridmen, A. Shvari va b.), London maktabi (yetakchi vakillari - F. Xayek, L. Robbins va b.).

Fransiyada neoliberal g'oyalarning taniqli vakillari sifatida iqtisodchilar J. Rueff, M. Alle va hokazo keltirish mumkin. Bu olimlar o'sha davridayoq yagona ilmiy-amaliy platformani ishlab chiqish uchun harakat boshladilar. 1938-yili Parijdagi konferensiyada neoliberalizmning asosiy prinsiplari xalqaro ko'lamda e'lon qilindi. Bu neoliberalarning yig'ilishi (forumi) "Lippman kolokviumi" deb ham ataladi, buning sababi shuki, o'sha yili amerikalik iqtisodchi A. Uolter Lippman "Erkin shahar" kitobini e'lon qildi va undagi g'oyalalar neoliberal prinsiplar bilan hamohangdir. Parijdagi qo'llab-quvvatlangan neoliberal umumiyligi prinsiplarning mohiyati shundan iboratki, davlatlar erkin raqobat qoidalarini qaytarishga g'amho'rlik qilishlari va ularni barcha xo'jalik subyektlari tomonidan bajarilishini ta'minlashlariga ko'maklashuvi so'raladi. Bu hujjatda xususiy mulk ustuvorligi sharti, bitimlar erkinligi va bozorlar erkinligi davlat yo'li bilan faqat ekstremal (urush, tabiiy ofat, halokat va b.) holatlardagina qayta ko'riliishi mumkin deb hisoblanadi. 2-jahon urushidan so'ng neoliberalizm prinsiplari dastlab G'arbiy Germaniya (GFR) da amaliy jihatdan muvaffaqiyatlari tafbiq etildi. Bu yerda 1948-yildan boshlab, bu g'oyalalar Adenauer-Erxard davlat doktrinasi statusiga aylantirildi. Neoliberalizmning taniqli nemis nazariyotchilari V. Rebne, A. Ryustov va boshqalar ozodlik va insonparvarlik bahonasida monopolizm vujudga kelishining barcha ko'rinishlari tanqidiga boshchilik qildilar. V. Oyken va uning safdoshlari Frayburg universitetida 1948-yildan "Ordo" nomli yillik to'plamni chiqara boshladilar, bu

jurnal barcha davlatlar uchun neoliberalizmning nazariy minbari rolini o'ynaydi. V. Oyken tomonidan tanlangan "Ordo" so'zi yig'ma bo'lib, erkin bozor xo'jaligining "tabiiy tizimi" ma'nosini beruvchi mazmunga ega edi. Neoliberalizm G'arbiy Germaniya doktrinasi "Oyken maktabi" ta'siri ostida hatto "Ordoliberalizm" deb atala boshlandi.

GFR neoliberalizm nazariyotchilari "erkin bozor" va adolatli taqsimot printsiplarini "ijtimoiy tenglik" prinsipi g'oyasi bilan birga qo'shishga muvaffaq bo'ldilar. Birinchi marta uning kontseptsiyal g'oyasi A. Myuller-Armakning "Xo'jalik boshqaruvi va bozor xo'jaligi" (1947-yil) kitobida izohlanadi, bunda "Ijtimoiy bozor xo'jaligi" matni ham ilk bor qo'llanilgan. Bu sohadagi ishlanmalar V. Rebke, L. Erxard, V. Oyken (asli tarixchi) va boshqalar tomonidan davom ettirildi.

60-70-yillarda neoliberalizm konsepsiysi "ijtimoiy bozor xo'jaligi" modelini yaratish va amalga oshirish prinsiplari institutsionalizmning "barcha uchun farovonlik jamiyat" konsepsiysi bilan hamohangdir. Chunki ikkala modelda insonni inson tomonidan ekspluatatsiya va sinfiy antagonizm inkor etiladi. Bu modellardan bundan tashqari davlatning faol ijtimoiy vazifasi (funksiyasi) g'oyasi mavjud bor. Davlat barcha fuqarolarga ijtimoiy xizmatni olish va ular farovonligini oshirish uchun teng huquq va teng imkoniyatlар yaratishi zarudir. Bunda jamiyatning turli qatlamlarida aksionerlar sonining ortishi bilan birga, barcha ijtimoiy institutlar barqarorligi oshishi, assosiy mehnatkash aholining ertangi kunga ishonchi va boshqalar ko'zda tutiladi.

Keynchilik neoliberalizmga muqobil ravishda Chikago maktabi vujudga keldi, uning **monetar (pul bilan bog'liq) g'oyalari** Chikago universitetida 20 yillarda paydo bo'ldi. Ammo neoliberal yo'nalish harakatida amerika monetarizmi mustaqil pozitsiyasini faqat 50-yillar oxiri va 60-yillar boshida egalladi. Bunda M. Fridmen (1912) nashrlari muhim ahamiyat kasb etdi (1976-yilgi iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati). Fridmen va uning safdoshlari Keynsning pulsiz omillari (masalan, investitsiyalar) o'rniga aynan pulli omillarni afzal ko'rdilar.

1958-yil A.U. Fillipsning empirik egri chizig'i paydo bo'lishi bilan pul hisobidagi ish haqining yillik % o'zgarishi va ishsizlik darajasi (hissasi) o'rtaqidagi bog'lanish aniqlandi. Bunda 1861-1913-yillar Angliyadagi real ma'lumotlardan foydalilanigan. 1964-yil P. Samuelson mashhur "Ekonomiks" darsligining 6 nashriga shu grafikni kiritdi va uni Fillips egri chizig'i deb atadi. Avvalgi tadqiqotlarda (masalan, Keyns) inflyatsiyasiz to'la bandlik iqtisodiy siyosatning maqsadi sifatida ko'rib chiqilar edi. Bu egri chiziqa ko'ra, narxlar me'yorda va ishsizlik nomuvofig hodisalar bo'lib chiqdi, ya'ni ishsizlikni kamaytirishga inflyatsiyani kuchaytirish yo'li bilan erishiladi, inflyatsiyani pasaytirish esa odatda ishsizlar ko'payishini taqozo etadi. Shunday qilib, bir vaqning o'zida turg'un narxlar va to'la bandlikka bo'lgan ishonch, barqaror narx va to'la bandlik o'rtaSIDA tanlash bilan o'rin almashdi.

M. Fridmen va uning safdoshlari Fillips egri chizig'ini har tomonlama o'rganib, u (egri chiziq) har doim ham turg'un emasligi ma'lum bo'ldi, ayniqsa 60-yillar oxirida ko'pgina mamlakatlarda inflyatsiya o'sishi "mantiq"qa qarama-qarshi ishsizlikning pasayishi emas, balki uning o'sishi va 70-yillar boshida esa inflyatsiya va ishsizlikning bir vaqtida o'sishi bilan ro'y berdi.

M. Fridmen iqtisodiy jarayonlarda pul, pul massasi va pul muomalasi ahamiyatini ko'tarishga harakat qildi. Pulning aslida neoliberal monetar konsepsiysi AQShning respublika hukumati tomonidan (1969-1970-yillar Nikson prezidentligi davrida) hukumati tomonidan sinovdan o'tdi (bunda M. Fridmen prezident maslahatchisi edi). Ammo monetar iqtisodiy g'oyalar AQShning keyingi prezidenti davrida yaxshi natija berdi. Tarix va iqtisodiyotda reyconomika deb nom olgan bu siyosat dollar real mustahkamlangan bir sharoitda inflyatsiyani kamaytirish mumkin bo'ldi, R. Reyan prezidentlik davrida yangi 14 million millioner - tadbirkor paydo bo'ldi. Demokrat B. Clinton (8 yil) prezidentligi davrida ham shu siyosat davom ettirildi va yaxshi natija berdi.

Fridmen konsepsiysi asosiy masala davlatning qat'iy pul siyosatidir (boshqalardan, masalan, Keynsdan farqi). Bu Fridmenning "ishsizlik tabiiy normasi" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, konyunktura holatiga bog'lanmagan holda, har yili pul massasi 3-4 %ga doim va turg'un (stabil) ravishda oshirib borilishi kerak. AQShning qator yillar davomida yalpi milliy mahsuloti o'sishi o'rtacha sur'atlarini hisobga olib, milliy iqtisodiyotning maksimal mumkin bo'lgan darajasi aniqlanadi. Fridmenning "ishsizlik tabiiy normasi" konsepsiysi institusional, shuningdek qonuniy hujjalarga asoslanadi (masalan, kasaba qo'mitalari, minimal ish haqi to'g'risidagi qonun).

### **2.3. O'zbekistonda iqtisodiy taraqqiyot to'g'risidagi nazariyalarning shakllanishi**

Insoniyat XXI asrga kelib, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining mohiyatini chiqurroq anglash bilan bir qatorda, uning asoratlariga barham berishga astoydil kirishganini namoyon etmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi uchun sobiq mustabid tuzum merosi va soxta maskuraning oqibatlari quyidagilarda o'z aksini topishi Respublika Prezidenti I. Karimov asarlariда umumlashtirilgan:

1. Bir yoqlama rivojlangan, mo'rt, zaif iqtisodiyotga asoslangan markazga qaram yarim mustamlaka mamlakat.
2. Boy mineral xomashyo resurslaridan nazoratsiz va ayovsiz foydalanish hamda paxta yakkahokimligiga asoslangan iqtisodiy tizim.
3. Mahalliy xomashyolarni qayta ishlash quvvatlarining ibtidoiy darajadaligi, ishlab chiqarishning texnologik asbob-uskuna va butlovchi qismlar, shuningdek, yoqilg'i ta'minotida markazga qaramlik.
4. Eng muhim oziq-ovqat mahsulotlari (un, shakar, go'sht-sut mahsulotlari) va boshqa xalq iste'moli mahsulotlarining chetdan keltirilishi.
5. Paxta xomashyosi mahsulotlarining suv tekinga tashib ketilishi, oltin, qimmatbaho va rangli metallar, strategik ahamiyatga ega materiallar jahon bozorida o'ta xaridorgir boshqa qimmatbaho mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishdan keladigan foydadan O'zbekiston xazinasiga tushmaslik.
6. Iqtisodiy o'sish sur'atları samaradorligi ko'rsatkichlarining salbiy darajadaligi ortib borishi, moliya-pul tizimining butkul ishdan chiqishi.
7. Xorijiy mamlakatlar bilan bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarning cheklanganligi.

8. Qishloq joylarda yashirin ishsizlik, shahar va qishloqdagi turmush darajalaridagi farqning ortib borishi.

9. O'zbekiston aholisi turmush darajasi ko'rsatkichlarining sobiq Ittifoqdagi eng oxirgi o'rnlardan biriga tushib qolganligi.

10. Ekologik muammolarning keskinlashuvi, yer-suv resurslaridan ayovsiz foydalanish, yerlar sho'rланishining ortishi, cho'l zonalarining kengayishi.

Yuqorida keltirilgan xulosalarni isbotlovchi dallillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

1. 1991-yilda yetishtirilgan paxta xomashyosining bor-yo'g'i 3,5 % i pirovard iste'mol uchun respublikada qayta ishlangan.

2. 1990-yilda respublikada mavjud korxonalarining 38 % sobiq Ittifoq, 54 % sobiq Ittifoq-respublika, bor-yo'g'i 8 % korxona respublika mulkchiligi tasarrufida bo'lgan.

3. 1988-yilda 4349.3 mln. ga ekin maydonlarining 125.3 ming ga maydoni (2.8 %) aholining shaxsiy tomorqalarini tashkil etgan.

4. 1930-yilda respublika aholisining 70 % ga yaqinidagi jami daromadi tirikchilik o'tkazish uchun zarur eng quyi darajadan ham past edi. Ayni paytda Rossiya va Ukrainada aholining 30 %ga yaqinigina shunday ahvolda kun kechirgandi.

5. Ma'lum sabablarga ko'ra, respublika hozirgi xalq xo'jaligi va aholi juda qattiq ehtiyoj sezayotgan tovarlarning 65 %gacha qismini tashqaridan keltirishi majbur edi. Yoqilg'i, dastgohlar, asbob-uskunalar, yog'och-taxta va yog'och materiallari to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Ular ham chetdan keltirilgan.

Keltirilgan ma'lumot va dalillar asosida bozor munosabatlariga o'tish zarurati to'g'risida I.Karimov quyidagilarni ta'kidlagan:

...Bozorga o'tish muqarrar. Bu - davr talabi, obyektiv reallikdir. Ayni vaqtida bozor faqat maqsad emas, balki yangi qadriyatlarni shakllantirish, odamlar faoliyatining sifat jihatdan tubdan yuqori darajasiga erishish uslubi va vositasidir<sup>9</sup>.

Bozorga o'tish zarurati tashqi va ichki omillardan ham kelib chiqadi.

#### *Tashqi omillar:*

1. Jahon hamjamiyatining geosiyosiy tarkibida ijtimoiy dunyoqarashda chuqur sifat o'zgarishlarni amalga oshirish.

2. Davlatlararo hamkorlikda integratsion jarayonlarning kuchayishi.

3. Yagona xalqaro me'yor, qoida va standartlarga o'tilishi bilan yagona siyosiy-iqtisodiy jarayonlarning shakllanishi.

4. Sotsialistik deb atalgan lagerning parchalanishi va ma'muriy- buyruqbozlik tizimining barham topishi.

5. Moddiy turmush farovonligi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha G'arbdan ortda qolishning kuchayishi va iqtisodiy tizim tanazzuli.

#### *Ichki omillar:*

2. Mustabid tizim qusurlari va direktiv rejalashtirishning salbiy oqibatlari.

3. Davlat mulkchiligining yakkahokimligi tufayli mulk va shaxsning ajratilishi va ijtimoiy serxarajatlilikning ortib borishi.

<sup>9</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992, 44-b.

4. Xarajatlarni tejashdan manfaatdorlikning yo‘qligi, piravardida esa, resurslar samarasiz taqsimlanishining kuchayishi.

5. Mehnat unumdorligini oshirishdan rag‘batlantirishning pasayishi va mehnatga layoqat va loqaydlikning ortishi.

6. Texnika va texnologiya rivojlanishidagi turg‘unlik.

7. Iqtisodiy hayotda mulkning mutlaq davlatlashtirilishiga qarshilik munosabati sifatida xusiyona iqtisodiyotning kuchayishi.

8. Ijtimoiy hayotda talab va taklif muvozanatini ta’minalash samaradorligi pastligi.

9. Direktiv markazlashgan rejalashtirish tizimining hudud va xo‘jaliklar talablarini qondirishda muvofiqlashtirish imkoniyatlarining cheklanganligi. Natijada quyi bo‘g‘inlarda - xaridor va sotuvchi, iste’molchi va ishlab chiqaruvchilar orasidagi bevosita bog‘liqlikni ta’minalashga ma’muriy rejalashtirishning salbiy ta’siri.

10. Korxonalararo raqobatning yo‘qligi tufayli samaradorlikka moyillikning pastligi.

11. Xomashyo serxarajatligiga asoslangan investitsion talabning kuchayishi.

12. Sotsialistik xo‘jalik yuritishda fondlarning markazlashgan taqsimotiga asoslanganligi tufayli ko‘proq resurslar taqchilligi namoyon bo‘ladi. Bozor iqtisodiyotida esa, sotish qiyinchiligi ishlab chiqarish qiyinchiligidan muhimroq hisoblanadi.

13. Korxonalarning pul mablag‘lari bilan ta’minalashda yagona davlat bank tizimining faol ishtirot eta olmasligi. Bank tizimining pul mablag‘lari aylanmasidan manfaatdorlikning pastligi. Ayniqsa, kredit siyosatining mijozlar moliyaviy imkoniyati bilan bevosita bog‘lanmaganligi.

14. Davlat budjeti vakolatining keng qamrovlligi turli bo‘g‘indagi xo‘jaliklar daromadiga bog‘liq bo‘lib, uning to‘planishi va taqsimlanishi to‘liq markazlashtirilgan. Korxonalarning budjetdan moliyalashtirilishi zaxiralardan samarali foydalanishni rag‘batlantirmagan.

Ma’muriy-buyruqbozlik tizimining eng muhim ayanchli oqibatlaridan biri - mute shaxs “soviet kishisi” ning shakllanishi hisoblanadi. Mazkur shaxs tafakkuri masifikasiy qarashlar, g‘oyaviy kurashlar, chalg‘ituvchi dalilllar tuzog‘iga asir qilindi. Taraqqiyparvar insoniyat erishgan yutuqlardan bebabra qoldi. Sobiq tizim o‘z iqtisodiy g‘oyalarda ish kuchining qayerlardadir tovar sifatida sotilayotganligini tanqid qiladi-yu, o‘zidagi inson resurslariga e’tibor faqat kundalik moddiy ehtiyojlarni arang qondirish darajasida qolib ketganligini inkor etadi. Keyinroq, 1999-yilga kelib, Prezidentimiz I. Karimov bu haqda ta‘kidlaganidek: “Shunday ulkan salohiyatga ega bo‘lgan mamlakatni kamsitadigan og‘ir ahvolga solib qo‘yib, u qonuniy haqli ravishda o‘ziga qarashli bo‘lgan mablag‘ni markazdan dotatsiya sifatida so‘rab, aytish mumkinki, yolvorib olishga majbur edi. Boz ustiga, noinsoniy g‘oya hukmron bo‘lgan mustabid tizim o‘zining bor masifikasiy kuchini, ommaviy axborot vositalarini, butun maorif tizimini ishga solib odamlar ongini keng miqyosda zaharlar edi. Ularning milliy va diniy tuyg‘ularini qo‘pol ravishda kamsitar edi. O‘z ona tilini, milliy an‘ana va madaniyatini, o‘z tarixini bilmaslik, ko‘plab odamlarning

shaxsiy fojiasiga aylanib qolgan edi. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan tabiiy intilish johilona inkor etilardi....

...Biz eski tizim o'z o'mini osonlikcha bo'shatib bermasligini, uning zaharli mafkurasi odamlar ongini tez va oson o'z ta'siri iskanjasidan chiqarmasligini yetarli darajada o'zimizga tasavvur qilishimiz va hisobga olishimiz zarur edi”<sup>10</sup>.

Yuqoridagilar va boshqalarni hisobga olgan holda, O'zbekiston mustaqillik davrida ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor munosabatlariga o'tishni zarur deb topdi. XX asr nihoyasiga kelib, shakllangan iqtisodiy taffakur va iqtisodiy taraqqiyot istiqbollari to'g'risidagi qarashlarda erkin itisodiy tartibga solish g'oyasi ham, markazlashtirilgan tarzda rejalashtirish g'oyasi ham inqirozga uchraganligi bayon etilmoqda. Chunki I.Karimov ta'kidlaganidek: Jahon sivilizatsiyasi ijtimoiy taraqqiyotning sifat jihatdan yangi yo'llarini ishlab chiqdi, tartibga solinadigan bozor iqtisodiyoti mana shu yo'lga asos qilib olingen. O'tish davri ko'hna Yevropa mamlakatlariida bir necha yuz yilni tashkil etgan bo'lsa, mustamlakachilikdan ozod bo'lgan Osiyo va boshqa qit'a mamlakatlariida bir necha o'n yildan iborat bo'ldi. Masalan, Buyuk Britaniya-200 yil, Fransiya -150 yil, Germaniya va AQSh-50-100 yil.

Boshlang'ich shart-sharoitlarga ko'ra, yondoshilgan guruhlash mezoniga asosan tartiblashga solinadigan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari uchun 3 ta yondashuv va yana bir turdag'i urinish mavjudligi I. Karimov tomonidan tahlil etilgan. Bular:

1. Uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyotni bosib o'tgan rivojlangan mamlakatlardagi aralash iqtisodiyot.

2. An'naviy (oddiy va bozor, patriarchal feodal munosabatlariga ega) iqtisodiyot asosida shakllanayotgan madaniylashgan bozor munosabatlari.

3. Rejalashtirilgan buyruqbozlik iqtisodiyoti negizida shakllanayotgan bozor munosabatlariga asoslangan demokratik jamiyat.

4. Sotsializm g'oyalalarini samarali bozor iqtisodiyotini vujudga keltirish bilan qo'shib olib borishga urinayotgan sotsialistik iqtisodiyotning xitoycha yo'li.

Yuqoridagi yondoshuvlar asosidagi tahlillarga ko'ra, bozor munosabatlarining rivojlanishi birorta ham mamlakatda benuqson va tekis kechmagan. Bozor mexanizmlarini ideallashtirish ham katta xato bo'ladi. Shuning uchun ham “O'zbekiston tanlab olgan yo'l respublika va uning xalqi manfaatiga nihoyatda mos keladigan ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisoddir”,<sup>11</sup> – deb ta'kidlaydi I.Karimov. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning milliy xususiyatlari akademiklar S.S. Fulomov, M. Sharifxo'jayev, professorlar A. O'lmasov, N. Tuxliyev, Yo. Abdullayev, Sh. Shodmonov, A. Razzoqov kabilarning tadqiqotlarida bat afsil bayon etilgan.

Biroq bozor iqtisodiyotiga oid tushunchalarni bayon etishdagi yondoshuvlarda ayrim farqlar ham mavjud. Masalan, prof. A.A. Razzoqov bozor munosabatlarining 3 ta shakli mavjudligini qayd etadi. Bular:

1. Yovvoyi bozor (dastlabki paytlarda).

<sup>10</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992, 62-b.

<sup>11</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va tarqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992, 71-b.

2. Ma'muriy-buyruqbozlik bozori (sobiq Ittifoq va sotsialistik deb atalgan mamlakatlarda).

3. Boshqariladigan bozor (hozirgi deyarli barcha rivojlangan yetakchi mamlakatlarda).

Ayni paytda prof. A. O'limasovning fikricha, "Tarixan bozor iqtisodiyotining 2 turi bo'lgan: yovvoyi va madaniylashgan bozor iqtisodiyoti". Umuman, barcha tadqiqotlar I. Karimov asarlaridagi ilmiy-nazariy qoidalarni chuqurroq va kengroq sharxlash vazifasini hal etganligini ta'kidlash lozim. Konstitutsiyamiz hamda xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari va ilg'or jahon tajribalarini uyg'unlikda mujassamlashtirilgan - dunyoda "O'zbek modeli" deb e'tirof etilgan iqtisodiy islohotlar modelingining asosiy muallifi I. Karimov inson-islohot uchun emas, islohot inson uchun xizmat qilishi kerak, deb ta'kidlagan mezon muhim hisoblanadi.

Islohotlarning "O'zbek modeli" nimalarga asoslanadi degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

- bozor iqtisodiyoti va demokratiya tamoyillariga asoslanuvchi jamiyatni barpo etish;

- Ittifoq parchalangandan keyingi O'zbekistonning haqiqiy holati;

- xalqning mentaliteti va tarixiy an'analarga islohotlarni amalga oshirishning ba'zi sur'atlariga aholining tayyorlik darajasi;

- "Shok terapiyasi" dan voz kechish.

Demak, islohotlardan asosiy maqsad - yurtimizning yanada rivojlanishi, xalqimizning farovonligi, jahon hamjamiyatidan o'zimizga munosib o'rinnegallashdan iborat. XXI asr boshida O'zbekiston taraqqiyotining I. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan strategiyasida quyidagi muhim ustuvor yo'nalishlar mavjud. Bular:

1. Iqtisodiyotning izchil o'sishi va samaradorligini oshirish, demokratik bozor islohotlarini chuqurlashtirish asosida xalq turmush darajasining barqaror va uzuksiz yaxshilanib borishini ta'minlash hamda aholini kuchli ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutilgan.

2. Siyosiy va iqtisodiy hayotni, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini kuchaytirish, jamiyatda manfaatdor va qarama-qarshi kuchlar o'rtasida muvozanatni ta'minlovchi kuchli mexanizmni shakllantirish zarur.

3. Shaxsiy manfaatlarni mamlakat, xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihaddan barkamol insonlarni tarbiyalash asosida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish lozim.

Xalqaro ekspertlarning fikricha, inson taraqqiyoti zamirida O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishidagi asosiy tamoyillar jumlasiga quyidagilar kiritilgan:

- YalM o'sish sur'atlarining aholi o'sish sur'atlaridan ustun kelishi, pirovardida esa turmush darjasini yaxshilanishi uchun zamin yaratildi.

- Uzoq muddatli istiqbolda o'sish omili bo'lgan asosiy kapitalga sarmoya kiritishning yuqori sur'atlari ta'minlandi.

- Iqtisodiy o'sishning ijobiy sur'atlari sharoitida inflyatsiya sur'atlaridan barqarorlashishi natijasida aholining real daromadlari va turmush darjasini yaxshilandi.

Shuningdek, islohotlar tajribasini umumlashtirishda turlicha yondoshuvlar shakllanmoqda. Ulardan biri bozor munosabatlariiga o'tishning ijtimoiy muammolarini hal etishi 3-bosqichga taqsimlanadi:

1-bosqich (1991-1994-yy).

2-bosqich (1994-1997-yy).

3-bosqich (1997-yildan hozirgi paytgacha).

*Birinchi bosqichning* maqsadi aholi turmush darajasining keskin pasayishi va ishsizlikning keskin oshishiga yo'l qo'ymaslik bo'ldi. Bu bosqichda davlat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'mol bozorini himoya qilish uchun iste'mol mahsulotlarini me'yoriy tarqatish tizimi, talon va kuponlar joriy etildi. Ijtimoiy kam ta'minlanganlar uchun imtiyozlar saqlandi. *Ikkinci bisqichning* maqsadi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, inflyatsiyani jilovlash bo'ldi. Natijada mulkdorlar sinfi shakllandi. Xorijiy omillarga bog'liq o'zak tarmoqlarni mustahkamlash choralar ko'rildi. Milliy valyuta inflyatsiyasini maqbul darajada jilovlash imkonini yaratildi. *Uchinchi bosqich* maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni sifat jihatidan yangi pog'onaga ko'tarishga qaratildi. Iqtisodiyotda miqdor va sifat siljishlari, kichik biznes va tadbirdorlik uchun huquqli sharoitlar yaratildi, ishsizlikning yashirin va turg'un holatlarini bartaraf etishga oid choralar ko'rildi. Aholi daromadlarining yangi turlari - mulk va tadbirdorlikdan ham shakllana boshladi. Aholi kam ta'minlangan qatlamlarining turmushi yaxshilandi. Boqimandalik chekindi. Mehnat va tadbirdorlik faolligi ortdi.

#### **Asosiy tayanch tushunchalar**

A. Smit, A. Marshall, J. Keyns, M. Fridmen, institutsionalizm, neoliberalizm va monetarizm oqimlari, "tabiiy tartib", proteksionizm siyosati, erkin tashqi savdo, "Repreztativ firma", o'sib boruvchi foyda va doimiy foyda, multiplikator, "aralash iqtisodiyot", antitrest siyosat, neoliberalizm, monetar g'oyalar.

#### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

2. Nima uchun A. Smit manufaktura ishlab chiqarishining mafkurachisi bo'lib qoldi?

3. A. Smitning pul, qiymat, daromadlar, ish haqi, kapital va takror ishlab chiqarish to'g'risidagi ta'limotlariga qisqacha izoh bering.

4. Xalq boyligi qanday omillarga bog'liq?

5. Nochor ahvolga tushgan iqtisodiyotni rivojlantirish uchun nima qilmoq kerak?

6. Davlat iqtisodiyotga nima uchun aralashishi kerak?

7. Keyns ta'limotiga qanday shart-sharoitlar asos qilib olingan?

8. Keyns ta'limotining hozirgi davrdagi ahamiyati nimadan iborat?

9. Neoliberalizm vujudga kelishining shart-sharoitlari, keynschilikdan farqi nimada?

10. "Ijtimoiy bozor xo'jaligi", uning tiplarini izohlang.

11. Fridmanning "ishsizlik tabiiy normasi" ni tushuntirib bering.

## **3-bob. IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI VA SHART-SHAROITLARI**

### **3.1. Ishchi kuchi, tabiiy va moddiy resurslar, ularning zaxiralari hamda sifati iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki manbai ekanligi**

O'zbekiston - katta inson salohiyatiga ega mamlakat. Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohot va tub o'zgarishlardan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlaydi.

Jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil, o'z navbatida, uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda hal qiluvchi asos hisoblanadi.

Jamiyatning ishchi kuchi salohiyatini kuchaytirish, undan samarali foydalanish muammolari bozor munosabatlari davrida birmuncha murakkablashadi va ularning yechimini topish iqtisodchi olimlar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bunga texnikani yangilash va boshqaruvni o'zgartirish bilan erishib bo'lmaydi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida, avvalo, iqtisodiyotning tarkibiy tizimi tubdan o'zgarishi, jumladan, zamonaviy texnika va texnologiyalarning kirib kelishi, milliy iqtisodiyotning rivojlanishi inson resurslari sifat jihatidan yaxshilanishini obyektiv tarzda taqozo etadi.

Mehnatga layoqatli aholining umumiyligi ta'lim va kasbiy tayyorgarligi, fan sohasidagi bilim darajasi, sihat-salomatligi, turmush darajasi ishchi kuchi resurslarining sifat jihatlarini ifodalaydi. Mehnatga layoqatlilik o'zi nima va kimlarni mehnatga layoqatli deb hisoblaymiz? Mehnatga layoqatlilik – insонning ma'lum bir ishni bajarishi uchun zarur mehnat qobiliyatidir.

Mehnatga layoqatlilik quyidagi turlarga bo'linadi:

- umumiyligi mehnatga layoqatlilik maxsus tayyorgarlik va malaka talab qilmaydigan mehnat qibiliyatini ifodalaydi;

- kasbiy mehnatga layoqatlilik maxsus bilim, alohida malakanasi talab etuvchi mehnat qibiliyatidir;

- maxsus mehnatga layoqatlilik shaxsning ma'lum ishlab chiqarish va tabiiy sharoitlarda maxsus bajariladigan mehnat bo'yicha qibiliyatidir. Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitlarida jamiyat ishchi kuchi resurslarining sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishda mehnatga kasbiy layoqatlilik alohida ahamiyat kasb etadi. Mehnatga layoqatlilik ishchi kuchining imkoniy unumdorligidan iborat. Uning sifati xodimning malakasi, kasb-koriga bog'liq bo'lib, u mehnat unumdorligida namoyon bo'ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash, texnik jihatdan qayta jihozlash, boy tabiiy, mineral xomashyo va qishloq xo'jaligi resurslaridan, mehnat va intellektual salohiyatimizdan to'liq foydalaniib, xaridorbop, raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarish, dunyo bozorida o'zimizga xos munosib o'rinni egallash, shuning hisobidan siyosiy va iqtisodiy mustaqilligimizni ta'minlaydigan tizimni vujudga keltirish bugungi kunda bizning muhim vazifamiz<sup>12</sup>.

<sup>12</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-privorod maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000, 498-b.

Ishchi kuchi resurslari – zarur bilim va mahoratga, ishslash qobiliyati va malakasiga ega bo‘lgan jamiyat a’zolari, mehnat ahlidir. Ularning soni jamiyatdagi ishlab chiqaruvchi kuchlar qanday imkoniyatga ega ekanligini belgilab beradi. Ishchi kuchi resurslari iqtisodiyotda mehnat bilan band bo‘lganlarni ham, mehnat qilishlari mumkin bo‘lganlarni ham qamrab oladi.

Hozirgi davrda O‘zbekiston o‘z ishchi kuchi salohiyatiga ega. Ishchi kuchi salohiyatining negizini tashkil etuvchi ishchi kuchi zaxiralari 1997-yilda butun aholining 48,7 %iga teng edi. Shundan buyon bu zaxira har yili 210-220 ming nafarga ko‘payib bormoqda va 2013-yilga kelib, ular 62.8 %ni tashkil qildi<sup>13</sup>.

Ishchi kuchi zaxiralaring shakllanishi, avvalambor, aholining yosh va jinsiy tarkibi orqali aniqlanadi. Uning o‘zgarishi nafaqat ishchi kuchi zaxiralari, balki jamiyat iqtisodiy taraqqiyotida ham o‘z aksini topadi. Aholining yosh va jinsiy tarkibi o‘zgarishidagi eng muhim natijalardan biri uning mehnatga yaroqli qismidagi o‘zgarishlar hisoblanadi. Mehnatga yaroqli yoshdagagi aholi nisbiy va mutlaq ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi ishchi kuchi resurslari shakllanishi va u orqali mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti sur’atlariga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Aholining yosh tarkibi inson resurslari takror barpo qilinishi jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi. Chunki tug‘ilish va o‘lim jarayonlari aholining yoshi bilan uzviy aloqador.

Aholining mehnat faolligi 18-19 yoshdan, qoloq mamlakatlarda 10-14 yoshdan kuchaya boshlaydi. Tadqiqotlar inson ta’limiy darajasi oshishi bilan uning nisbatan past yoshlarda ish bilan bandligi o‘rtasida teskari aloqa mavjudligidan dalolat beradi.

Yosh o‘zgarishi bilan inson iste’mol qiladigan moddiy ne’matlarning nafaqat hajmi, balki tarkibi ham o‘zgaradi. Agar o‘rtacha iste’molni 100 % deb belgilasak, unda 10-14 yoshli bolaning iste’moli 82 %ni, 30-39 yoshdagagi kishiniki 129 %ni, 60-64 yoshdagagi odamniki esa 70,9 %ni tashkil etishi venger olimlari tomonidan aniqlangan.

Yosh o‘zgarishi bilan insonning mehnat unumdarligi ham o‘zgaradi. Bunda organizmning fiziologik xususiyatlari asosiy o‘rin tutadi. Agar 18-20 yoshdagagi 2 nafar odam bir kunda 1,5 ming dona g‘isht quysa, 50-59 yoshdagagi shuncha odam bir kunda 500 dona g‘isht quya oladi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat qobiliyati bo‘yicha aholini guruhlarga ajratish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston va jahondagi aksariyat mamlakatlarda aholi uch guruhga ajratib o‘rganiladi. Jumladan:

- mehnatga yaroqli yoshgacha;
- mehnatga yaroqli yoshdagi;
- mehnatga yaroqli yoshdan keyingi.

Aholini guruhlarga ajratishda ularning yoshi chegaralarini aniqlash asosiy muammo hisoblanadi. Bu masalani hal etishda huquqiy asoslangan va amalda mavjud bo‘lgan yosh chegaralarini ajratish muhim ahamiyatga ega. Mehnatga layoqatli yosh chegarasi davlat tomonidan belgilanadi. Bunda inson organizmining nafaqat biologik xususiyatlari, balki mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar, ya’ni

<sup>13</sup>O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi mu’lumotlari.

iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi, aholining turmush tarzi, umumiy, maxsus va oliv ta'lim tizimining holati, o'rtacha umr davri va boshqalar ham hisobga olinadi.

Ana shularga asoslangan holda aholini yoshiga nisbatan 5 guruhga ajratish mumkin.

1. Bolalar (0-14 yosh) – ularning aksariyati mehnat jarayonida ishtirok etmaydi, lekin kelajakda mehnat salohiyatini belgilab beradilar.

2. O'smir va yoshlar (15-24 yosh) – mazkur guruhning ma'lum qismi iqtisodiyotning qator soha va tarmoqlarida band, ma'lum qismi esa maktabni bitirganidan so'ng o'qishni davom ettiradi.

3. 25-30 yoshdagilar mehnatga layoqatli jami aholining asosiy qismini qamrab oladi. Lekin ular ham iqtisodiyotda band bo'lmaydilar, ular orasida yosh bolali onalar va ayollar ko'pchilikni tashkil etadi.

4. 60 dan 70 yoshgacha bo'lganlar. Ularning aksariyati pensiyada bo'ladi, juda kam qismi mehnat faoliyatini davom ettiradi. Lekin bu yoshda mehnat faoliyatini davom ettirayotganlarning ham ko'pchiligi qariganligi sababli nafaqaga chiqadi.

5. Aholining 70 va undan katta yoshdagisi qismi. Ular hammasi mehnat faoliyatidan chetlashadi. Iqtisodiy faollik 15-19 yoshda boshlanib, 65-69 yoshda tugaydi, 30-44 yoshda esa eng yuqori nuqtasiga yetadi.

Ishchi kuchi resurslari salohiyatining eng muhim ko'rsatkichi mehnat zaxiralarining asosi bo'lib, mehnatga layoqatli yoshdagisi aholi hisoblanadi.

O'zbekiston mutlaq miqdori juda katta bo'lgan mehnat zaxiralariga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, respublikada mehnatga layoqatli yoshdagisi aholi salmog'i 2000-yilda 50,2 %ga teng bo'lgan bo'lsa, 2013-yili 51,6 %ga oshgan.

### 3.1.1-jadval

#### O'zbekiston aholisining mehnat salohiyatiga ko'ra guruhlari

Yillar	Mehnatga layoqatli yoshgacha (16 yosh) bo'lgan aholi		Mehnatga layoqatli yosh (erkaklar 16-59, ayollar 16-54) dagi aholi		Mehnat yoshidan (erkaklar 60, ayollar 54) o'tgan aholi	
	soni, mln. nafar	salmog'i %	soni, mln. nafar	salmog'i, %	soni, mln. nafar	salmog'i %
1990	8,8	42,9	10,0	46,5	1,4	7,6
1996	9,97	42,9	11,4	49,5	1,8	7,7
2000	9,94	41,9	12,74	50,2	1,8	7,9
2005	9,86		13,14		1,8	
2010	9,73		13,56		1,81	
2013	9,6		13,99		1,83	

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mamlakatda ishchi kuchi resurslari salmog'i, mehnat salohiyati qancha yuqori, mehnatga layoqatli aholi soni qanchalik ko'p bo'lsa, taraqqiyot yanada yuksaladi.

XX asr oxiriga kelib ma'lum bo'ldiki, insoniyat o'z rivojlanish tarixida navbatdagi energetik (va ekologik) bosqichga qadam qo'ydi. Buni bir qator belgilar yordamida ifodalash mumkin.

Sayyoramiz aholi sonining tez (XX asrning ikkinchi yarmida 2,4 baravar) o'sishi va o'rtacha kishi boshiga energiya iste'molining sezilarli ortishi insoniyat

tarixida misli ko‘rilmagan darajada energiya iste’mol qilinishiga olib keldi. Bunda energiya iste’mol qilish mamlakatlar va qit’alar bo‘yicha bir xil taqsimlanmadı: Jahan banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2000-yilda dunyo bo‘yicha o‘rtacha kishi boshiga energiya iste’moli 1,62 t. bo‘lib, neft ekvivalentida AQShda 8,32 t., Kanadada 7,85 t., Finlyandyada 6,41 t., Avstraliyada 5,74 t.dan Bangladeshda 0,14 t., Yamanda 0,2 t.gacha ko‘rsatkichlar kuzatilgan<sup>14</sup>. Energetika resurslarining asosiy iste’molchilari rivojlangan mamlakatlar bo‘lib, bu mamlakatlarda Yer shari aholisining atigi 15 % yashaydi. Shu bilan birga dunyodagi ko‘plab mamlakatlarda energetika resurslari tanqisligi sezilib, aholining chorak qismi umuman elektr energiyasidan mahrum.

O‘sib borayotgan aholining energetik ehtiyojlari tez sur’atlarda o’sishi, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ikkita asosiy tabiiy to‘siqqa, energetik bo‘sag‘aning ikkita tarkibiy qismiga duch kelmoqda. Dastlabki to‘siq ekologik to‘siqdir. Yoqilg’ini yoqish natijasida atmosferaga chiqariluvchi zaharli moddalarning keskin o’sishi “parnik samara”ning paydo bo‘lishi va tabiiy ofatlarga olib keladi. Xalqaro energetika agentligi bergen ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha atmosferaga chiqariluvchi SO<sub>2</sub> hajmi 1999-yilda kishi boshiga Qatarda 63,11 t., AQShda 19,8 t., Avstraliyada 16,95 t., Kongoda 0,13 t., Mozambikda 0,06 t., Efiopiyada 0,06 t.ni tashkil qilgan<sup>15</sup>.

Ikkinchi to‘siq bu resurslarning cheklanganligi bo‘lib, ularning zaxirasi tugashi bilan yangi mineral xomashyo konlarini razvedka qilish, yoqilg’i resurslarini qazib olish va tashish xarajatlari oshib ketadi. Bu esa energetika sektorining iqtisodiyot uchun og‘ir yukka aylanishiga olib keladi hamda boy va kambag‘al mamlakatlar o‘rtasidagi farqning yanada chuqurlashuviga sabab bo‘ladi.

Ko‘rinib turibdiki, energetika sektorining inertsion rivojlanishi boshi berk yo‘lga olib keladi. Bunday yondashuvda insoniyat energetik bo‘sag‘adan o‘ta olmaydi va uning oldida tiz cho‘kishga majbur bo‘ladi. Energetika sektorini o‘zgartirishning prinsipial jihatdan yangi yo‘llarini izlash, energetik bo‘sag‘ani jahon energetika sektorining barcha bo‘g‘inlarida innovatsion o‘sish va uni tubdan tarkibiy qayta tuzish asosida bosib o‘tish lozim.

Energetika sektori iqtisodiyot rivojlanishining asosidir. Aynan energiyadan foydalananish samaradorligi xo‘jalik subyektlari va butun mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini belgilab beradi.

O‘z energiya resurslari zaxirlarining mavjudligi O‘zbekistonga mustaqillik yillari davomida energetik mustaqillikni ta’minlashdan tashqari energetika resurslari eksportini oshirish hamda energiya resurslari narxining nisbatan arzonligi sababli energetika sektoriga taalluqli bo‘limgan korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, ko‘plab ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni hal etishga imkon berdi. Tobora kuchayib borayotgan xalqaro raqobat sharoitlarida barqaror iqtisodiy o‘sishning ehtiyojlari respublika yoqilg’i-energetika majmuuning rivojlanishiga yangicha talablar qo‘yadi.

Jahon bozoriga intergatsiyalashuvni boshlagach, O‘zbekiston sobiq Ittifoq hududidagi boshqa mamlakatlar kabi bu bozorda o‘z raqobatbardoshligi yetarli darajada bo‘limgan mahsulotlariga talabning pasayishiga uchradi, bu esa aholi va

<sup>14</sup>Ходов Р.Г. Государственное регулирование национальной экономики. Учебник. – М.: Экономист, 2004. 310-312 стр

<sup>15</sup>Ходов Р.Г. Государственное регулирование национальной экономики. Учебник. – М.: Экономист, 2004. - 620c.

korxonalar to'lov layoqatining keskin pasayishini asoslab berdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda, energetika siyosati, avvalo, ijtimoiy o'zgarishlarning vositalaridan biri sifatida ko'rib chiqildi, uning vazifalari energiya resurslari narxini aholi va korxonalarning normal faoliyati uchun maqbul darajada ushlab turishga aylandi. Bunday yondashuvga faqat energetika resurslari bilan yetarli darajada ta'minlangan, ya'ni energetika mustaqilligi sharoitlarida erishish mumkin edi.

Energetika siyosati qanday yaratiladi? Unga 1992-yilda asos solingen bo'lib, 1995-yilda "2010-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston energetika strategiyasining asosiyo yo'naliishlari" tasdiqlandi. 1999-yilda elektr energetikasi sohasi hamda neft-gaz sanoatida tarmoqlararo dasturlarni rivojlantirish asosiyo hujjat bo'lgan "2010 yilgacha bo'lgan davrda energetikani rivojlantirish dasturi" ishlab chiqildi. 2001-yilden 2010-yilgacha bo'lgan davrda elektr energetikasi va ko'mir sanoatini rivojlantirish dasturiga o'zgartirishlar kiritildi va tasdiqlandi.

O'tgan asming 90-yillari o'rtalari juda murakkab vaziyat bilan tavsiflanadi – mamlakatda qayta ishlash korxonalarining taqchilligi sezilib turgan. Energiya resurslarini qazib olish sur'ati o'sib, mayjud Farg'onan nefsti qayta ishlash zavodining bu resurslarni to'liq qayta ishlashga quvvati yetmaganligi sababli Buxoro nefsti qayta ishlash zavodini qurish haqida qaror qilindi. Loyihaning texnologik qismini Frantsianing "Teknip" firmasi, Yaponianing "Marubeni" va "Djey-Dji-Si" kompaniyalari bajargan. Fransuzlar bilan shartnoma 1995-yilda tuzilgan bo'lib, zavodning o'zi Ko'kdumaloq koni asosida 1997-yilda ishga tushirildi. Ushbu zavod ishga tushgandan buyon yiliga 2,5 mln. tonna gaz ishlab chiqara boshladi, mamlakat ichki bozorni nisbatan arzon bo'lgan yuqori oktanli benzin, aviakerosin, suyultirilgan gaz, dizel yoqilg'isi va boshqa ko'plab iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun zarur mahsulotlar bilan ta'minlay boshladi.

### **3.2. Iqtisodiy o'sishning investitsion salohiyati**

Bugungi modernizatsiya qilish jarayoni, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, korxona va tashkilotlarning texnik va texnologik imkoniyatlarini yuksaltirishni investitsion mablag'garsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada davlat tomonidan amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining aniqligi va uni samarali amalga oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan stretegiyaning to'g'rilinga bog'liq.

"O'zbekiston Respublikasi aholi farovonligini oshirish loyihasi" da keltirilishicha, investitsiya maqsadlari uchun ichki jamg'armalardan maksimal darajada samarali foydalanish hamda YaIMda jamg'armalar ulushining o'sishini rag'batlantirish natijasida 2015-yilga borib, yalpi jamg'arma ulushi YaIMga nisbatan 26 %ga; ishlab chiqarish va xizmatlar sohasini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritayotgan mahalliy va xorijiy investorlar uchun qulay investitsion muhitni yaratish va shaklantirish orqali kapital qo'yilmalar umumiylaj hajmida korxonalarning o'z mablag'lari ulushini 45 %ga yetkazish, kapital qo'yilmalar umumiylaj hajmida xorijiy investitsiyalar ulushini 35,5 %ga; investitsiyalarning umumiylaj hajmida esa davlat kapital qo'yilmalari ulushi 7,7 %ga etishi prognoz qilinmoqda.

2013-yil yakunlariga nazar soladigan bo'lsak, Investitsiya dasturini amalga oshirish doirasida mamlakatimizda 13 milliard AQSh dollari qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012-yilda giga nisbatan 11,3 %ga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 %ini xususiy investitsiyalar – korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdirdi.

Jalb etilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi – 70 %dan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish obyektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamонави uskunalar xarid qilishga sarflangan investitsiyalar ulushi esa qariyb 40 %ni tashkil etdi. Umuman, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 %dan iborat bo'ldi.

O'zlashtirilgan umumiy kapital qo'yilmalar hajmining 3 milliard dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi. Shuning 72 %dan ziyodi yoki 2 milliard 200 million dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir<sup>16</sup>.

Mamlakatimiz kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashda ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarining muvozanatli va me'yorda faoliyat yuritishiga e'tibor qaratilmoqda. Bu borada "2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari to'g'risida"gi PQ-1442-sonli qarorida sanoatni rivojlantirishning kompleks dasturi va modernizatsiya qilinishi, texnik va texnologik yangilanishi, yangidan barpo etilishi kutilayotgan yirik investitsion loyihalar aks etgan.

Bularni umumlashtirgan holda quyidagicha guruhlash mumkin: 2011-2015-yillar uchun umumiy qiymati 47,5 milliard AQSh dollari miqdorida 519 ta loyiha tasdiqlandi. Bundan umumiy qiymati 5,58 milliard AQSh dollariga teng bo'lgan 334 loyihani 2011-yilda amalga oshirish belgilab olingan. Shu bilan birga, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha quyidagi 12 ta tarmoq dasturlarini amalga oshirish hukumat darajasida belgilab qo'yilgan:

1. Paxtani qayta ishlash sanoati (129,7 mln.doll. miqdoridagi 41ta loyiha).
2. To'qimachilik sanoati (477,7 mln.doll.ga 65 ta loyiha).
3. Yog'-moy sanoati (31,7 mln.doll.ga 63 ta loyiha).
4. Kimyo sanoati (291,7 mln.doll.ga 30 ta loyiha).
5. Avtomobilsozlik sanoati (255,1 mln.doll.ga 26 ta loyiha).
6. Qurilish materiallari sanoati (343,1 mln.doll.ga 36 ta loyiha).
7. "O'zmetkombinat" (49 mln.doll.ga 9 ta loyiha).
8. Farmatsevtika sanoati (26,5 mln.doll.ga 45ta loyiha).
9. Navoiy TMK (1068.0 mln.doll.ga 29ta loyiha).
10. Olmaliq TMK (798.0 mln.doll.ga 15ta loyiha).
11. Qishloq xo'jaligi mashinasozligi (28 mln.doll.ga 13ta loyiha).
12. Temir yo'llar (2724.0 mln.doll.ga 23 ta loyiha).

Bugungi kunda, ushbu qarordan o'rinn olgan investitsiya loyihalarni amaliyotga ttabiq etish davomida sanoat ishlab chiqarish hajmi va uning ko'lami yildan-yilga

<sup>16</sup>Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladı. //Xalq so'zi, 2014-yil 18-yanvar.


oshib bormoqda. "Infrastructure Journal" xalqaro nashri 2014-yil 13-martda Ustyurt gaz-kimyo majmuasi qurilishi loyihasini "Neft-gaz sohasidagi 2014-yilning global bitimi" nufuzli mukofoti bilan taqdirladi.

Ustyurt gaz-kimyo majmuasi qurilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan tasdiqlangan mamlakatimiz sanoatini keng ko'lamli modernizatsiya qilish dasturi doirasida amalga oshirilmoqda. Bu neft-kimyo sohasida nafaqt O'zbekiston, balki MDH hududida uzoq muddatli loyihaviy moliyalashtirish asosida hayotga tatbiq etilayotgan dastlabki keng ko'lamli loyihadir. Loyihaning ro'yobga chiqarilishi 2016-yildan yiliga 4,5 milliard kub metr tabiiy gaz, yuqori zichlikdagi 400 ming tonna polietilen, 100 ming tonna polipropilen, 110 ming tonna piroлиз benzin ishlab chiqarish va bevosita majmuuning o'zida mingdan ziyod yangi ish o'mni tashkil etish imkonini beradi.

Loyihaning umumiy qiymati 3,9 milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Mazkur loyiha qo'shma korxona muassisalar bo'lgan Janubiy Koreyaning "Kogaz", "Lotte", "STX Energy" kompaniyalari va "O'zbekneftgaz" milliy xolding kompaniyasining 1,4 milliard dollar hajmidagi to'g'ridan-to'g'ri investitsiyasi, shuningdek, regress huquqi cheklangan va kreditlarni qaytarish muddati 16 yil etib belgilangan loyihaviy moliyalashtirish prinsiplari asosida jalb etilgan 2,5 milliard dollardan ziyod kredit resurslari hisobidan moliyalashtiriladi.

Loyihani moliyalashtirishda Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa va Osiyorining Korea Development Bank, Korea Finance Corporation (Koreya Respublikasi), China Development Bank (XXR), ING (Niderlandiya), KfW, Bayern LB, Siemens Bank (Germaniya), Credit Suisse (Shveytsariya), Nordea, SEC (Shvetsiya) kabi rivojlanish banklari hamda yetakchi tijorat banklari, shuningdek, Janubiy Koreya, Germaniya va Shvetsianing loyihani amalga oshirishda qatnashayotgan banklarga sug'urta to'lovlarini taqdim etgan eksport-import agentliklari ishtirot etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2013-yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 27557,3 milliard so'mni tashkil etdi yoki 2012-yilgi ko'rsatkichdan 9,8 %ga ortdi(3.2.2-rasm).



3.2.1-rasm. YaIM va investitsiyalar hajmining o'sish dinamikasi, %da

2001-yildan 2013-yilgacha bo'lgan davrda YaIM ishlab chiqarishning o'rtacha o'sishi yiliga 7,2 %ni tashkil etdi. YaIM hajmining bunday yuqori o'sishiga, xususan,

asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining barqaror o'sishi omil bo'ldi. Bu davrda investitsiyalar hajmi yiliga 12 %dan oshib bordi. Agar 2013-

yl yakunlariga ko'ra, YalM hajmi 2000-yilgi ko'rsatkich bilan solishtirganda 247,1 %ni tashkil etgan bo'lsa, ayni paytda investitsiyalar hajmi 407,4 %ni tashkil etdi.

Qayd etish lozimki, so'ngi 6 yil YalMDa asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi 22-23 % ko'rsatkichidan oshgan. Investitsiyalarni moliyalash manbalari tarkibida nodavlat mablag'lari ulushi 2013-yil yakunlariga ko'ra 78,1 %ni, tegishlicha davlat manbalari ulushi 21,9 %ni tashkil etdi. So'nggi 4 yil davomida (2010-13-yillar) nodavlat manbalar ulushi qariyb 78 % darajasida barqaror ravishda saqlanib turibdi.

2013-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 3 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi, shundan 72,0 %dan ortig'i yoki 2,2 milliard AQSh dollari - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar. Asosiy kapitalga investitsiya va kreditlar ulushi 20,3 %ni tashkil etdi. Barcha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning 40 %idan ortig'i transport va aloqa korxonalarida o'zlashtirilgan. Yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini jalgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2013-yilda butun xorijiy kapitalning 35 %ini tashkil etdi<sup>17</sup>.

Faol investitsiya siyosati iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. O'zbekistonning investitsiya strategiyasida yangi va yuksak texnologiyalarga asoslangan, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini qayta ishlashni ta'minlovchi, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinnari yaratishga yo'naltirilgan investitsiya loyihamlariga ustuvor ahamiyat berilmoxda. 2013-yilda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, yetakchi soha va tarmoqlarni texnik va texnologik yangilashga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar tarkibida yangi qurilish uchun sarflangan mablag'lar jami kapital qo'yilmalarining 57,8 %ini; kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish 28,9 %ni tashkil etgan.

Yangi ishlab chiqarish obyektlarini tashkil etish hamda mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish uchun mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va yoqilg'i-kimyo, yengil va oziq-ovqat sanoati sohalariga yirik kapital qo'yilmalar yo'naltirildi, bu esa iqtisodiyotga jalgan qilingan kapital qo'yilmalar tarkibida ushbu tarmoqlar ulushining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Oxirgi yillarda xalqaro investitsiyalar bozorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning (TTXI) harakati yildan-yilga kamayish tomon yuz tutib bormoqda. BMTning Savdo va rivojlanish tashkilotining (YUNKTAD) "Jahon investitsiyalari to'g'risidagi ma'ruzasi" ma'lumotlariga ko'ra hali davom etayotgan jahon moliyaviy inqirozi tufayli dunyo bo'yicha rivojlangan davlatlarga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarga nisbatan rivojlanayotgan davlatlarga TTXI hajmi katta miqdorni tashkil etgan (2012-yilda dunyo bo'yicha umumiy TTXI larning qariyb 52 %ni rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri kelgan<sup>18</sup>).

2012-yilda dunyo bo'yicha TTXI hajmi 18 %ga qisqargani holda, 1,35 trillion AQSh dollarini tashkil etgan. Birgina 2012-yilda rivojlangan mamlakatlarga

<sup>17</sup> Bank axborotnomasi, №14 (933), 2014-yil 2-aprel. 9-b.

<sup>18</sup> 2013-yilga jahon investitsiyalari to'g'risida ma'ruba. Birlashgan millatlar tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiysi. -Nyu-York va Jeneva, 2013-y.

kiritilgan TTXI hajmi o'tgan yilga nisbatan 32 %ga qisqargan va mutlaq qiymatda TTXI hajmi 561 milliard AQSh dollarini va 12 yil oldingi (2000- y.) qiymatga tenglashganligini ko'rsatadi (3.2.1.-jadval).

### 3.2.1-jadval

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi  
(milliard dollar va %da)**

Mintaqalar	TTXI kirib kelishi			TTXI chiqib ketishi		
	2011-y.	2012-y.	2013-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
<b>Jahon bo'yicha</b>	<b>1409</b>	<b>1652</b>	<b>1351</b>	<b>1505</b>	<b>1678</b>	<b>1391</b>
Rivojlanayotgan davlatlar	696	820	561	1030	1183	1391
Rivojlangan davlatlar	637	735	703	413	422	426
Afrika	44	48	50	9	5	14
Osiyo	401	436	407	284	311	308
Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo	313	343	326	254	271	275
Janubiy Osiyo	29	44	34	16	13	9
G'arbiy Osiyo	59	49	47	13	26	24
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	190	249	244	119	105	103
Okean bo'yi	3	2	2	1	1	1
O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari	75	96	87	62	73	55
Tarkibiy munosabatlar bo'yicha juda zaif, iqtisodiyoti kichik bo'lgan davlatlar	45	56	60	12	10	10


**Davlatlarning xalqaro TTXIdagi ulushi, %da**

Rivojlanayotgan davlatlar	49,4	49,7	41,5	68,4	70,5	65,4
Rivojlangan davlatlar	45,2	44,5	52,0	27,5	25,2	30,6
Afrika	3,1	2,9	3,7	0,6	0,3	1,0
Osiyo	28,4	26,4	30,1	18,9	18,5	22,2
Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo	22,2	20,8	24,1	16,9	16,2	19,8
Janubiy Osiyo	2,0	2,7	2,5	1,1	0,8	0,7
G'arbiy Osiyo	4,2	3,0	3,5	0,9	1,6	1,7
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	13,5	15,1	18,1	7,9	6,3	7,4
Okeaniya	0,2	0,1	0,2	0,0	0,1	0,0
O'tish davri iqtisodiyoti mamlakatlari	5,3	5,8	6,5	4,1	4,3	4,0
Tarkibiy munosabatlar bo'yicha juda zaif, iqtisodiyoti kichik bo'lgan davlatlar	3,2	3,4	4,4	0,8	0,6	0,7

Manba: UNCTAD, World Investment Report 2013.

Birinchi marotaba, ya'ni 2012-yilda rivojlangan mamlakatlarga nisbatan rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotiga kiritilgan TTXI hajmi yuqori ko'rsatkichni namoyon etgan. Ushbu investitsiyalarning foya normasi o'rtacha 8 fozni tashkil etganini inobatga olsak, o'tish davri iqtisodiyotiga mansub bo'lgan davlatlarda 13 %ni, rivojlangan mamlakatlar uchun esa o'rtacha 7 %ni tashkil etgan. Shundan qariyb 33 %si (500 milliard dollar) TTXIlarni qabul qilgan davlatlarga

qolgani esa (1trillion dollar), TTXI kiritgan davlatlarga ripatriatsiya qilingan<sup>19</sup>. 20 ta eng yetakchi davlatlarga jalg qilingan TTXI ko'rsatkichini tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori uchtaлик: AQSh (168 milliard dollar), Xitoy (121 milliard dollar) va Gonkong (75 milliard dollar) davlatlariga to'g'ri kelgan (3.2.2-rasm).



**3.2.2-rasm. 2012-yilda TTXI jalg etgan 20 ta yetakchi davlat  
(milliard AQSh dollarri)**

Rasmdan kuzatish mumkinki, davlatlarning rivojlanganlik darajasiga ko'ra, TTXI jalg qilingan kuchli 20 talikning to'qqiztasi rivojlangan davatlarga, to'qqiztasi rivojlanayotgan davatlarga va 2 tasi iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan davatlarga to'g'ri kelgan.

Boshqa davlatlarning iqtisodiyotiga TTXI kiritgan davlatlar orasida BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy, Janubiy Afrika) eng yuqori ko'rsatkichni

<sup>19</sup>2013-yilga jahon investitsiyalari to'g'risida ma'reza. Birlashgan millatlar tashkilotining Savdo va rivojlanish bo'yicha konferensiysi. -Nyu-York va Jeneva, 2013-y.

tashkil etgan. 2000-yilda ushbu davlatlardan chiqib ketgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar xajmi 7 milliard dollarni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilga kelib esa uning hajmi 145 milliard dollarni tashkil etgan jami TTXIIlarning 10 %iga tengligini ko‘rsatadi (BRIKS tomonidan boshqa davlatlarning iqtisodiyotiga kiritgan TTXI hajmi 2012-yildan 2000-yilga nisbatan 2071,4 %ga oshgan).

Xitoy 2012-yilda boshqa davlatlarga kiritgan TTXI bo‘yicha uchinchi pog‘onani egallagan. Vaholanki 2011-yilda oltinchi o‘rinda turgan. Ushbu yillar oralig‘ida davlat Trans milliy kompaniyalari (TMK) 845 tani tashkil etgan bo‘lsa, ular tomonidan jahon iqtisodiyotning turli tarmoq va sohalariga kiritgan investitsiyalari hajmi 145 dollarni tashkil etgan (5.2.1-jadval). Bu esa jami TTX investitsiyalarning 11 %ini tashkil etadi va ular tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarning umumiy miqdori qariyb 26 trillion dollarni, shundan 6,6 trillion dollar qo‘shilgan qiymatni hosil qilgan. Ushbu hajmdagi tovar va xizmatlarni yaratish jami 72 million kishi sarfarbar etilgan. Bundan ko‘rish mumkinki, TM kompaniyalarda ish bilan band bo‘lgan bitta xodimga 36111,1 AQSh dollari to‘g‘ri kelgan.

Investitsiyalar jalb qilinishi uchun moliya bozorida qulay muhitni shakllantirish, soliq yukini kamaytirish, moliya va bank sektorini isloq qilish, tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish hamda yangi ishlab chiqarishni tashkil etishda kredit resurslarini jalb qilish dolzarb masaladir, chunki bulami amalga oshirish yirik moliyaviy imkoniyatlarni talab etadi. Mazkur moliyalashtirish masalasining yechimi korxonalarga investitsion kreditlar berish bilan ta‘riflanadi.

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarda O‘zbekistonda qulay investitsiya muhiti shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha qonun yo‘li bilan keng ko‘lamdagи imtiyozlar, afzallik va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoq va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirotkida 4,2 mingtadan ko‘proq korxona tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko‘proq asosan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 %dan ko‘prog‘i ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligi , uni rivojlantirish istiqbollariga qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘yilmalar kiritayotgan xorijiy investorlar uchun maksimal darajada qulay investitsiya muhitini yaratish, respublika mintaqalariga xorijiy sarmoyalar va zamonaliv texnologiyalar jalb etish rag‘batlantirilishini kuchaytirish, xorijiy investorlar hamda xorijiy investitsiyalar ishtirotidagi korxonalar uchun kafolatlar va imtiyozlar tizimini yanada mustahkamlash maqsadida qonun hujjalriga bir qator o‘zgartirish va qo‘srimchlar kiritildiki, bu o‘z navbatida, mamlakatimizning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bunday o‘zgarishlar sirasiga quyidagilarni keltirib o‘tish joiz:

1. Xorijiy investoring pul shaklidagi ulushi 5 million AQSh dollaridan kam bo‘limgan yangidan tashkil etilayotgan xorijiy investitsiyalar ishtirotidagi

korxonalar davlat ro'yxatidan o'tgan sanadan boshlab, 10 yil mobaynida soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar yuz bergan holatlarda, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (tovarlar, ishlar, xizmatlarni realizatsiya qilish aylanmasi), mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, yagona soliq to'lovi, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga hamda Ta'lif va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashning mazkur korxonalar davlat ro'yxatidan o'tish sanasida amal qilgan me'yor va qoidalarini qo'llashga haqli ekanligi belgilab qo'yildi.

2. Shunday tartib o'matildiki, qiymati 50 million AQSh dollaridan oshadigan va xorijiy investoring ulushi kamida 50 % bo'lgan investitsiya loyihalari doirasida, ishlab chiqarish maydonidan tashqaridagi zarur tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini qurish budget mablag'lari hamda boshqa ichki moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilishi belgilandi<sup>20</sup>.

Yuqorida bildirilgan tahlil va mulohazaqlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash lozimki, modernizatsiya qilish jarayonlari kuchayayotgan bir sharoitda davlatning o'rta va uzoq muddatli oraliqdagi investitsion strategiyasi quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilmoqda:

- milliy iqtisodiyotning yuqori sur'atdagi raqobatdoshligini ta'minlashga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirish;
- iqtisodiyotning import va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymat yaratadigan yetakchi ustuvor tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash;
- mintaqaviy infratuzilma sohasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor investitsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- mahalliy va xorijiy investorlarning innovatsion-investitsion faolligini oshirish maqsadida investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash;
- yuqori texnologiyalarga asoslangan va yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi qo'shma loyihalarni tashkil etishga xizmat qiladigan qulay biznes muhitini yaratish;
- inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan va bugungi kunda BMT tomonidan davlatlarning ko'p qirrali rivojlanishiga berilayotgan baholardan biri sifatida Inson taraqqiyoti indeksining yuqori bo'lishiga erishish.

### **3.3. Iqtisodiy taraqqiyotga erishishda ijtimoiy sohaning o'rni va ahamiyati**

Rivojlangan bozor iqtisodiyotini shakllantirish jarayonida Prezidentimiz I.A.Karimov "Barcha islohotlarning iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning asl maqsadi insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat"<sup>21</sup> degan so'zlarini hech qachon yoddan chiqmasligi kerak. Aholi turmush darajasi faqat uning daromadlarining oshishi, sifatli iste'mol tovarlari bilan yetarli ta'minlanishi asosida o'chanib qolmaydi. Balki ma'naviyat va ma'rifat, madaniy ehtiyoj, turli shakllarda sifatli xizmat ko'rsatish, bo'sh vaqtidan mazmunli foydalanish

<sup>20</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012-y., 15-son, 167-modda; 2013-y., 12-son, 150-modda.

<sup>21</sup>Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 119-b.

jismoniylar va aqliy yetuklik kabi ko'pgina sifat ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladiki, zero ularsiz yuksak turmush farovonligiga erishib bo'lmaydi.

Iqtisodiyoti rivojlangan Yevropa va Osiyo mamlakatlari tajribasi aholining yuksak turmush darajasiga erishishi nafaqat moddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi orqali, shu bilan birga, ijtimoiy soha, ya'ni xizmat ko'rsatish sohalarining ham keng miqyosda o'sishga bog'liqligini ko'rsatib turibdi.

Xizmatlar bozori subyektlari - tibbiyat, maorif, madaniyat, kommunal xo'jaligi, sug'urta, bank, maishiy, chakana savdo, aloqa va boshqa muassasalarining rivojlanishi mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga ijtimoiy yo'naliш berilganligidan dalolat beradi. Chunki, bu sohalar faoliyati aholining kundalik turmushi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning jamiyatdagi burchlarini bajarishi hamda ish o'rirlarida yuqori mehnat unumdarligiga erishishida asosiy omildir.

Ijtimoiy sohaga budjetdan xarajatlar yil sayin oshib bormoqda.

2014-yilda ijtimoiy sohada ham chuqr sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta'minlash va rivojlantirishga davlat budjeti jami xarajatlarining qariyb 60 % yo'naltirilmoqda.

**Ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettiриldi.** O'tgan yili jami 540 dan ziyod obyekt, shu jumladan, 380 ta muktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi<sup>22</sup>.

Ijtimoiy sohaning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi salmog'ini hisobga olsak, milliy iqtisodiyotning bu tarmog'i iqtisodini o'rganish va to'g'ri yo'liga qo'yib bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirayotgan respublikamiz uchun dolzarb masala ekanligini ko'rish mumkin.

Ijtimoiy soha xizmati, birinchidan, o'ziga xos iqtisodiy qonuniyatga ega: ularning qiymati bo'lmaydi, chunki qiymat yaratish uchun moddiy ne'matlar barpo etilmaydi, aksincha xizmat ko'rsatiladi.

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohalari mehnati moddiy ishlab chiqarish sohalari mehnatidan alohida tomonlari bilan farq qiladi. Bu sohalar xodimlari alohida odamlar bilan muloqotda bo'ladilar, har xil toifadagi va har xil diddag'i odamlarning so'rovlariiga javob beradilar. Bu esa xodimlardan yuksak sifatli kasb mahoratini talab etadi.

Uchinchidan, ijtimoiy sohani joylashtirishda tabiat omili moddiy ishlab chiqarish sohalarini joylashtirishdagi singari ahamiyatga ega emas.

<sup>22</sup> 2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom etirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirdorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljalangan iqtisodiy dastuning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2015-y.18-yanvar.

Xizmat ko'rsatish sohalarining asosiy ishlab chiqarish fondlari moddiy ishlab chiqarish mehnat vositalariga tashqi ko'rinishdan o'xshashi mumkin. Iqtisodiy mohiyati esa bir-biriga o'xshamaydigan, chunki moddiy ishlab chiqarishda mehnat vositalari o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga asta-sekin o'tkaza borib, amortizatsiya ajratmasi sifatida o'z qiymatini tiklasa, ijtimoiy sohada iste'mol natijasida mehnat vositalari o'z qiymatini yo'qotadi va moddiy ishlab chiqarish sohalarini tomonidan yaratilgan milliy daromad hisobiga ular qayta tiklanadi.

To'rtinchidan, xizmat ko'rsatish sohalari mehnatining faqat oz miqdori mexanizatsiyalashtiriladi va avtomatlashtiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy soha moddiy ishlab chiqarish sohalaridan mehnat sig'imining ko'pligi bilan farq qiladi. Ijtimoiy sohada mehnat hajmini kengaytirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish asosan mehnat resurslarini sonini ko'paytirish mehnat hamda boshqarishni tashkil qilishning taraqqiy etgan usullarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Beshinchidan, xizmat iste'mol predmeti hisoblanadi. Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohalarining xizmati asosan bepul ko'rsatiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida respublikamizda ijtimoiy sohada ma'lum xizmat turlari pullik ko'rinishda amalga oshirilmoqda. Lekin bunday xizmat ko'rsatishda ham ma'lum doiradagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj tofadagi kishilarga ma'lum yengiliklar berilmoqda.

Bepul xizmat bu ijtimoiy sohaning ijtimoiy madaniy (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va h.k.) sohalari xizmatidir. Bu xizmat turlarining rivojlanishi umumiyligi iste'mol jamg'armalari hisobidan olib boriladi.

Pullik xizmat turlariga uy-joy, kommunal xo'jaligi korxonalari, maishiy xizmat, aloqa, transport, sayohat va turizm, sport, dam olish sohalari, huquq tashkilotlari va qisman tibbiyot va ta'lim tizimlaridagi xizmatlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat sohalarida ham o'z xodimlarini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida bir qator xizmat turlari pulli xizmat ko'rinishida olib borilmoqda. Aholiga pulli xizmat ko'rsatishni kengaytirish tovar massasi bilan pul resurslarini muvofiqlashtirishda asosiy ahamiyatga ega. Chunki u aholi daromadlarini maqsadli yo'naltirish tarmoqlarini kengaytiradi.

Ijtimoiy sohada pulli xizmatlarni joriy etish va ulami tijorat borasidagi faoliyatlarini rivojlantirish budget taqchilligining oldini olish imkonini beradi.

Oltinchidan, ijtimoiy soha xizmatiga keng xalq ommasi murojaat etishi, xizmat turlarining xilma-xilligini ko'ramiz. Shuning uchun ham ba'zi hududlarda bu sohalarning xizmat "ko'chma" ravishda, ya'ni o'zлari qatnab xizmat ko'rsatishga moslashtirilgan. Ijtimoiy sohaning xizmati bevosita inson omili bilan bog'liq. Shu sababli bu xizmat sohalariga tegishli muassasalarining hududlararo joylashishi ko'p jihatdan demografik omillar va ishlab chiqarish imkoniyatlariga bog'liq.

Yettinchidan, ijtimoiy sohaning faoliyati ikki xil usulda moliyalashtiriladi.

- A) budget asosida;
- B) xo'jalik hisobidan.

Sakkizinchidan, xizmat ko'rsatish sohalari xodimlariga ish haqini to'lashni tashkil qilish o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xodimlarning ish haqi manbalari bu sohadan tashqari shakllanadi: moddiy ishlab chiqarish xodimlari yaratgan milliy daromad

hisobiga ijtimoiy soha xodimlarining ish haqlari milliy daromadning turli qismlarida tashkil topadi, demakdir.

Xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari mehnatiga son jihatidan baho berish qiyin, shuning uchun ham bu soha xodimlariga ish haqi belgilashda mehnat faoliyati samarasi, vazifa turi, korxona tabaqasi, ma'lumot darajasi va mehnat stajining davomiyligiga e'tibor beriladi. Shuningdek bu sohalar xodimlariga ish haqi to'lashda yagona haq to'lash jadvalidan foydalilanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarish, taqsimlash, sotish va iste'mol qilish bo'g'inlarini umumlashtiruvchi yagona xalq xo'jaligi kompleksi ikkita yirik tarmoqdan: moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridan iborat. Shuning uchun ham xalq xo'jaligi ikki soha ko'rinishi bilan chegaralanadi. Moddiy ishlab chiqarishga tarixan va mantiqan qarasak, moddiy ne'matlar yaratish insoniyat taraqqiyotida asosiy omil hisoblanadi. Alovida noishlab chiqarish turlari faoliyatining ajralib chiqishi esa ishlab chiqarish kuchlari darajasining rivojlanishi va ijtimoiy mehnat taqsimotining boshlang'ich shaklidir.

Moddiy ishlab chiqarishning asosiy belgisi - ishlab chiqarish sohasidagi ishchilar mehnati, tabiat resurslarini inson ehtiyojiga moslashtirish hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohalari xodimlari mehnatining ajralib turuvchi belgisi shu soha xizmatini faqat inson uchun, uning kamol topishi, ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi va qolgan barcha faoliyatining amalga oshirilishiga yo'naltirilganligidir.

Xizmat ko'rsatish sohalari xalq xo'jaligida bajaradigan vazifasiga qarab uch turga bo'linadi.

Birinchi guruhga ishlab chiqarishdan bevosita tashqarida moddiy va nomoddiy farovonlikni qayta ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi tarmoqlar kiradi.

Ikkinci guruhga taalluqli tarmoqning faoliyati bevosita inson qobiliyatini oshirish, salomatligini saqlash, ma'naviy va madaniy ehtiyojini shakllantirish va qondirish, shuningdek, ischi kuchini takror ishlab chiqarishga qaratilgan.

Xizmat ko'rsatish sohalarining uchinchi tarmoq guruhiga bevosita jamiyatning umum davlat tizimi bilan bog'liq sohalar kiradi va ular aholining boshqarishga ijtimoiy ehtiyoji, davlat xavfsizligi, ijtimoiy mulkni mustahkamlash va uni qo'riqlashga talabni qondiradi.

Mamlakatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tib borar ekan, hukumatimiz asosiy e'tiborni ijtimoiy sohani rivojlantirishda qaratmoqda, chunki bu sohani taraqqiy ettirmay turib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o'tib bo'lmaydi.

Mustaqillik yillarda tarmoqning ta'lim tizimiga alohida e'tibor qaratildi. Respublikamizda yoshlarga ta'lim-tarbiya olishlari uchun ijtimoiy kafolat va keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.


2011-2016-yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi.

Sog'liqni saqlash sohasida qishloq vrachlik punktlarining faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqildi. Bunday tibbiyot maskanlarining sonini yanada optimallashtirish, zamonaviy diagnostika va tibbiyot asbob-uskunalarini bilan

jihozlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash va ularning mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Optimallashtirish natijasida kamquvvatli va samarasiz faoliyat yuritayotgan 243 ta qishloq vrachlik punkti tugatildi.

Aholi bandligini ta'minlash, avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha zarur sharoitlar yaratish ijtimoiy siyosatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlanтирish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014-yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'mi tashkil etildi. Ularning 60 %i qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir<sup>23</sup>.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan chuqur asoslab berilgan kuchli ijtimoiy siyosat aholi yalpi daromadlarining o'sishi uchun zarur shart-sharoit yaratdi. Mazkur islohotlar natijasida 1991-2012-yillar davomida O'zbekiston aholisining yalpi daromadlari 8,6 barobar oshdi. Yalpi daromadlar tarkibida shu davr mobaynida mulk daromadlari, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan olingan daromadlar ko'rinishidagi yangi daromad turlari paydo bo'ldi. Mamlakatimiz hukumati tomonidan aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qabul qilinishi hayotimizda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan o'rta sinfni shakllantirish imkonini berdi (3.3.1-rasm).



### 3.3.1-rasm. Jamiyat tarkibida o'rta qatlarning ulushi

Rasmda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1990-yilda o'rtacha daromadga ega bo'lganlar aholining 18 %ini tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda, uy xo'jaliklarini tadqiq etish natijalariga ko'ra, bu ko'rsatkich 24 %ga etgani ayon bo'ldi. 2013-yilda esa 71

<sup>23</sup>2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom etirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish - ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanтириш yakunlari va 2015-yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasuning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2015-y.18.01.

% uy xo'jaliklari o'rtacha darajadan kam bo'limgan barqaror daromadga ega bo'lgan.

Oilaning yalpi daromadlari oshib borishi bilan bir vaqtida yurtimizda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish hisobidan ushbu daromadlardan samarali foydalanish uchun sharoit yaratildi.

Agar 1991-yilda aholi daromadlarining bor-yo'g'i 46-48 %ni mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovar resurslari bilan ta'minlangan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 78,8 %dan oshdi. Shu bilan birga, 2013-yilda iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1991-yilga nisbatan 6,7 barobar, aholiga pullik xizmat ko'rsatish hajmi esa 1,4 barobar o'sdi (3.3.1-jadval).

### 3.3.1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida aholi yalpi xarajatlarining tarkibi, %da<sup>24</sup>

Ko'rsatkichlar	1991-y.	2001-y.	2010-y.	2013-y.
<b>1. Jami xarajatlar tarkibi</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
ulardan:				
iste'mol xarajatlari	81,1	84,3	78,4	78,8
Iste'moldan tashqari xarajatlar (soliqlar, a'zolik badallari va boshqa majburiy to'lovlar)	7,1	6,9	6,2	6,0
pul omonatlari va jamg'armalar	11,8	8,8	15,4	15,9
<b>2. Jami iste'mol xarajatlari</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:				
oziq-ovqat mahsulotlari uchun	58,3	59,8	49,8	49,5
nooziq-ovqat mahsulotlari uchun	31,5	26,8	33,7	33,8
xizmatlar uchun to'lovlar	10,2	13,4	16,5	16,7

Jadvalga ko'ra, 1991-2013-yillar davomida jami xarajatlar tarkibida iste'mol xarajatlarining ulushi 81,1 %dan 78,8 %ga, iste'moldan tashqari xarajatlar ulushi 7,1 %dan 6 %ga qisqargan, aksincha, pul omonatlari va jamg'armalar ulushi 11,8 %dan 15,9 %ga ortgan. Shu bilan birga, oilalarning iste'mol xarajatlari makrotarkibi ham optimallashib bormoqda: oziq-ovqat mahsulotlari uchun xarajatlar ulushi barqarorlashib, xizmatlar uchun xarajatlar ulushi ortib bormoqda. Bunday holat iqtisodiy rivojlanib borayotgan davlatlarga xosdir.

Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 1991-2012-yillarda non va non mahsulotlarining iste'moli kamaygan, aksincha, qolgan oziq-ovqat mahsulotlarining iste'moli ortgan (3.3.2-jadval).

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasasi ma'lumotlari.

**O'zbekiston Respublikasida asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol qilinishi (aholi jon boshiga, kilogramm hisobida)**

Ko'rsatkichlar	Yillar				2012-yilda 1991-yilga nisbatan %da
	1991-y.	2001-y.	2010-y.	2012-y.	
Non va non mahsulotlari	170	167	160	158	92,9
Go'shi va go'sht mahsulotlari	31	34	38	39	125,8
Sut mahsulotlari	183	162	239	242	132,2
Tuxum (dona)	97	47	138	140	144,3
Sabzavot va poliz ekinlari	107	128	238	241	225,2
Kartoshka	29	36	45	47	162,0
O'simlik yog'i va boshqa moylar	12	12	13	13	108,3
Shakar	12	16	17	18	150,0
Meva, jumladan, uzum	23	42	83	85	369,5

O'zbekistonda aholi soni 1991-2012-yillar mobaynida 38,2 % oshganiga qaramay, jon boshiga go'sht va go'sht mahsulotlari iste'mol qilish 25,8 %ga ortdi, jumladan, sut va sut mahsulotlari 32,2 %, tuxum 44,3 %, sabzavot 2,2 barobar, kartoshka 1,6 barobar, meva 3,7 barobar va shakar 1,5 barobar o'sdi. Ayni vaqtida iste'mol tarkibi ancha sifatlari oziq-ovqat mahsulotlarini ko'proq iste'mol qilish hisobidan o'zgarmoqda. Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, "Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?" degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtida "Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi, yuksak marralarni egallashimiz kerak?" degan savol ustida o'yashimiz, nafaqat o'yashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim<sup>25</sup>.

#### Asosiy tayanch tushunchalar

Ishchi kuchi, tabiiy va moddiy resurslar, mehnatga layoqatlilik, energetika sektori, investitsion salohiyat, iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, ijtimoiy soha, ta'lrim sohasi, xizmat ko'rsatish sohalari, sog'liqni saqlash sohasi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, aholi bandligi.

#### Takrorlash uchun savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy taraqqiyotning dastlabki manbai nimalardan iborat?
2. Ishchi kuchi resurslari deganda nimani tushunasiz?
3. Investitsion salohiyat nima?
4. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish deganda nimani tushunasiz?
5. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash nima?
6. Ijtimoiy sohaning mazmunini tushuntiring.
7. Ijtimoiy sohaning tarkibiy qismlarini sanab bering.
8. Moddiy ishlab chiqarishning bosh belgisi nima?
9. Yalpi daromadlar tarkibi nimalardan iborat bo'ladi?

<sup>25</sup>2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'garishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom etirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2015-y 18.01

## **4-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING MEZON VA KO'RSATKICHLARI**

### **4.1. Iqtisodiy taraqqiyotning mezon va ko'rsatkichlari**

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyot darajasini ifodalovchi eng asosiy ko'rsatkichlardan biri yalpi ichki mahsulot (YaIM)dir. YaIM yaxlit iqtisodiyotning rivojlanish yakunini yoritib beruvchi ishlab chiqarishning pirovard ko'rsatkichidir. Uning mazmuni iste'mol qiymati nuqtai nazaridan yakuniy tovar va xizmatlarning jamiini, qiymat jihatidan esa qayta yaratilgan qiymat hamda asosiy fondlar amortizatsiyasini ifodalaydi.

YaIMning to'g'ri va aniq hisoblanishi har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, uning jahon hamjamiyatiga kirib borish imkoniyati hamda jahon iqtisodiyotidagi tutgan o'rmini belgilab beradi. Shu sababli har bir mamlakat o'z hududida yaratilayotgan tovar va xizmatlar hajmini imkonli boricha to'laroq hisoblashga harakat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, YaIM harakat shakllarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va shu asosda hisobchilik tizimini takomillashtirishni obyektiv zaruratga aylantiradi.

YaIMning takror ishlab chiqarish bosqichlari bo'yicha harakati ushbu ko'rsatkichni hisoblashning uchta usulidan foydalanishni taqozo etadi:

1. Qo'shilgan qiymatlar (ishlab chiqarish) usuli.
2. Xarajatlар (pirovard iste'mol) usuli.
3. Daromadlar (taqsimlash) usuli.

Bu uchala usulni qo'llash YaIM harakatining barcha davrlarini kompleks tadqiq etish, daromadlardan foydalanish hamda ularni shakllantirish jarayonlarini o'rganishga yordam beradi.

Qo'shilgan qiymat usuli bo'yicha hisoblangan YaIM hajmi yaxlit iqtisodiyotning tarkibiga kiruvchi alohida tarmoqlarning shu mahsulotni yaratishdagi o'rni va hissasini aniqlashga yordam beradi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va uni yanada diversifikatsiya qilish sanoatning YaIMdagil ulushini 2010-yildagi 24 %dan 2015-yilda 28 %ga, qurilishda 6,4 %dan 7,6 %ga oshirish imkonini beradi. Natijada 2011-2015- yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1,3 barobardan ortgani holda, uning YaIMdagil ulushi 17,5 %dan 13,5 %ga tushadi<sup>26</sup>.

YaIM real hajmining o'sishi milliy iqtisodiyotning rivojlanishini umumlashtirgan holda aks ettiruvchi, aholining o'sib va o'zgarib borayotgan ehtiyojlari, turmush sifatini yaxshilash qobiliyatini ifodalovchi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun iqtisodiy o'sishni uning mezonlari bo'yicha turlarga ajratib o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda iqtisodiy o'sish mezonlarini aniqlash bo'yicha qator tadbirlar ishlab chiqildi. Unga ko'ra, iqtisodiy o'sishni uning mezonlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1. Sekinlashgan iqtisodiy o'sish (2% dan past).
2. Mo'tadil iqtisodiy o'sish (2%-4%).

<sup>26</sup>O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillardagi (1990-2010-yillarda) asosiy tendentsiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarda mo'ljalangan prognozlar. – T.: O'zbekiston, 2011.120-b.

3. O'rtacha iqtisodiy o'sish (4%-6%).

4. Barqaror iqtisodiy o'sish (6% dan yuqori).

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda 2005-yildan keyingi davrlarda barqaror iqtisodiy o'sishga erishilmoqda (4.1.1-jadval).

#### 4.1.1-jadval

#### Iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'sish sur'atlari (%da)<sup>27</sup>

Ko'rsatkichlar	Yillardar									
	2000	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	2013
YalM	103,8	107,0	107,5	109,5	109,0	108,1	108,5	108,3	108,2	108,0
Sanoat mahsuloti	105,9	107,3	110,8	112,1	112,7	109,0	108,3	106,3	107,7	108,8
Qishloq xo'jaligi	103,1	106,2	106,2	106,1	104,5	105,7	106,8	106,6	107,0	106,8
Xizmat ko'rsatish	115,7	116,3	120,1	126,6	121,3	112,9	113,4	116,1	114,2	113,5
Chakana savdo aylanmasi	107,6	105,1	114,7	121,0	117,2	116,6	114,7	116,4	113,9	114,8

4.1.1-jadval ma'lumotlariga asoslanib, O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotini 2000-yildan keyingi davrlarda ikkita bosqichga bo'lish mumkin: birinchi bosqich – 2000-2004-yillardagi o'rtacha iqtisodiy o'sish (YalM 4-4,5 %ga) erishilgan davr; ikkinchi bosqich – 2005-yildan keyingi barqaror iqtisodiy o'sish davri (kamida 7 %). Mamlakatimizda oldingi yilga nisbatan qo'shimcha o'sish sur'ati sanoatda 8,8 %ga, xizmat ko'rsatish hajmi 13,5 %ga teng bo'ldi. Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi, jumladan, savdo sohasi – 14,8 %ga o'sdi.

Hozirgi murakkab sharoitda respublikamizda bunday ijobiy natijalarining qo'lga kiritilishi puxta o'yangan, eksportga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatning to'g'ri olib borilishi, iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarida chucher tarkibiy o'zgarishlarning izchilligini ta'minlayotgan qulay investitsion muhitining mavjudligi, oqilona byudjet-soliq siyosati kabi qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasidir.


Yaqin yillarda YalMning yiliga 8 %dan ortiq bo'lgan darajadagi barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, umuman 2012-2015-yillar davomida uning hajmi 1,5 barobar, xarid qobiliyatni pariteti bo'yicha esa 1,6 barobar hisobidagi o'sishga erishish ko'zda tutilmoqda. Bunda iqtisodiy o'sish barqarorligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mutanosibligi, past inflyatsiya ko'rsatkichlari va milliy valyuta kursining barqarorligi orqali ta'minlanadi.

Kelgusi yilda ichki talabning oshib borishiga muhim ahamiyat beriladi. Chunki jahon iqtisodiyoti va mahsulotlar bozorlaridagi beqarorlik sharoitida bunday yondashuv iqtisodiyotni izchil rivojlantirishning barqarorlashtiruvchi va rag'batlantiruvchi omili sifatida muhim o'rinn tutadi.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday davlatda yaratilayotgan YalM hajmining tarkibida iqtisodiyot subyektlari tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar ulushi ahamiyatli o'rinn egallashi obyektiv jarayondir. Jumladan,

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini ma'lumotlari.

mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohalariga katta e'tibor qaratilishi natijasida, ushu sohaning tarkibi yildan-yilga shakllanib, rivojlanib bormoqda. Buni mamlakatimizda 1990-2013-yillarda xizmat ko'rsatish hajmi 2,8 barobar oshganligidan ham anglash mumkin. Agar 1990-yilda xizmatlar ko'rsatish sohasining YalMdagi ulushi 33,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 53,0 %ni tashkil etdi (4.1.1-rasm).



**4.1.1-rasm. YalMdagi xizmat ko'rsatish sohasining ulushi (%da)<sup>28</sup>**

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi tobora muhim o'rinni tutmoqmoqda. Biz o'tgan yil boshida 2013-2016-yillarda qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar dasturini tasdiqladik. 2013-yilda xizmat ko'rsatish bo'yicha 13 mingdan ortiq korxona, jumladan, savdo-maishiy komplekslar, minibank va sug'urta kompaniyalari filiallari va boshqa korxonalar tashkil etildi. 2013-yil yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 %ga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000-yildagi 37 %dan 53 %ga o'sdi. Bu raqam va ko'rsatkichlar mamlakatimiz xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda taraqqiy topgan ko'pgina davlatlar darajasiga tobora yaqinlashib boryapti, deb aytishga asos beradi<sup>29</sup>.

Hozirgi kunda YalMni qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayoni korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan rasmiy ma'lumot hamda turli xildagi majbuliy hisobotlar asosida amalga oshirilmoqda. YalMning bu usulini tanlash mavjud axborot bazasining xususiyatlari va uning ishonchliligi bilan bog'langan. Biroq ilmiy kuzatuvarimiz shuni ko'ra, ushu usul hisob-kitob ishlarda muayyan kamchiliklarga ega.

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

<sup>29</sup> 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljalangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalişlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2014-y. 18. 01.

Birinchidan, xizmat ko'rsatish sohalarining axborot ta'minoti yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Natijada bu sohaning ulushi yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini to'liq topmayapti.

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini ifodalab beruvchi turli xil hisobot shakllari talab darajasida ishlab chiqilmagan, bu esa ularning faoliyatini to'laligicha o'rganish imkoniyatini bermayapti.

Bugungi kunda respublikamizda ayrboshlash jarayonida bevosita ishtirok etadigan va o'z tannarxini to'la qoplaydigan bozor xizmatlaridan farqli o'laroq nobozor xizmatlarining qiymati ishlab chiqarish xarajatlari va asosiy vositalarning eskirishi hajmida hisoblanadi. Natijada esa nobozor xizmatlarini ko'rsatuvchi iqtisodiyot subyektlarining qo'shimcha mahsuloti sotilmagan bo'lib qoladi. Bir qator nobozor xizmatlarini ko'rsatuvchi sohalar ko'rsatgan xizmatlarining qiymati to'g'ri hisoblanmasligi evaziga mamlakatda yaratilayotgan YaIM hajmini buzib ko'rsatadi.

Fikrimizcha, YaIM hajmini qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayonida nobozor xizmatlarining hajmini xuddi bozor xizmatlari hajmini hisoblagandek yondashishimiz zarur. Foya miqdorini esa xuddi shu tur xizmatlar ko'rsatilayotgan sohalarda olinayotgan foya bilan shartli ravishda teng deb olish kerak.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda norasmiy faoliyat (oilaviy biznes, do'konlar, yordamchisi xo'jalik, yakka tartibdagi mehnat faoliyati kabilalar) sohasi ham sezilarli darajada kengaydi. Iqtisodiyotning norasmiy sektori tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish bo'yicha ochiq faoliyat yurituvchi sektor hisoblanadi, lekin ular muntazam ravishda tegishli statistik hisobotlarni topshirmasligi sababli ushbu faoliyat natijalarini hisobga olish imkoniyati cheklangan. Bu esa YaIM hajmi va uning dinamikasini aniq baholash imkonini bermaydi, buning oqibatida esa xufyona va norasmiy iqtisodiy faoliyat natijalari yakuniy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda o'z ifodasini topmaydi.

Fikrimizcha, norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiyot subyektlarining ishlab chiqarish natijalarini tanlama uslubni yanada takomillashtirish orqali hisobga olish zarur. YaIM hajmini qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblash jarayonida aksariyat iqtisodchilar ishlab chiqarish sohasiga uy bekalarining ko'rsatadigan uy yumush xizmatlarini ham kiritishni taklif qiladilar. Bular kir yuvish, ovqat tayyorlash, uy-joy hamda uy jihozlarini toza holda tutish, bola tarbiyasi va shu kabi xizmatlardir. Ularning fikricha, bunday xizmat turlarini shartli ravishda bozor baholarida hisobga olish kerak va ularning qiymatini ham YaIM tarkibiga kiritish zarur. Aks holda mamlakatda yaratilgan YaIM hajmi sun'iy ravishda kamaytirib ko'rsatiladi.

Fikrimizcha, uy bekalarining bunday xizmatlarini YaIM hajmini hisoblaganda e'tiborga olmaslik kerak. Chunki ular juda katta hajmda ko'rsatiladigan nobozor (pulsiz) xizmatlar bo'lib, shartli ravishda pulda o'lchanadigan bo'lsa, bozor iqtisodiyotining natijaviy ko'rsatkichlariga putur yetkazadi, ya'ni ularning tarkibida shartli ravishda pulda o'lchanadigan nobozor xizmatlari salmog'i haddan tashqari oshib ketadi. Bu esa YaIM hajmining sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishiga olib keladi.

YalMni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblaganda – uy xo'jaliklari, davlat va uy xo'jaliklariiga xizmat ko'rsatuvchi notijorat (ijtimoiy) tashkilotlarining pirovard iste'mol uchun qilgan barcha xarajatlari umumlashtiriladi. Bundan tashqari, yalpi jamg'arma, tovar va xizmatlarning eksport - importi qoldig'i ham hisobga olinadi, ya'ni:

$$YaiM = PI + YAJ + EIQ, \quad (1)^{30}$$

bu yerda: PI – pirovard iste'mol; YaJ – yalpi jamg'arma; EIQ – tovar va xizmatlarning eksport - importi qoldig'i.

YalMni xarajatlar usuli bo'yicha hisoblaganda iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida hosil bo'lgan yalpi jamg'arma ko'rsatkichi ham hisobga olinadi. Yalpi jamg'arma asosiy fondlar yalpi jamg'armasi, moddiy aylanma vositalar zaxiralarining o'zgarishi va sof xarid qilingan qimmatbaho buyumlar qiymatidan iborat.

Asosiy fondlar yalpi jamg'armasi o'z ichiga barcha turdag'i bino-inshoot, asbob-uskuna, texnika-texnologiyalar, turar joy, mol-mulk va hakozolarni oladi. Bularidan tashqari hozirgi kunda dasturiy ta'minotlarni xarid qilish, foydali qazilma boyliklarni qidirish va shu kabi sohalar uchun qilinadigan xarajatlar ham asosiy fondlar yalpi jamg'armasi tarkibiga kiritilgan. Asosiy fondlar yalpi jamg'armasi mamlakatda yaratilayotgan YalM hajmiga juda katta ta'sir qiladigan omillardan sanaladi. Ayniqsa, ilmiy tadqiqotlar uchun xarajatlarni YalM tarkibida yangicha talqin qilish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini namoyon qilishda, uning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini xalqaro taqqoslash hamda jahon hamjamiyatidagi nufuzini oshirishda muhim rol o'yaydi.

Ilmiy tadqiqot bilan bog'liq bo'lgan faoliyat insoniyat va jamiyat rivojlanishida turli xildagi ixtirolarni yaratish hamda ularni hayotga tatbiq etish bilan bog'liq bo'lgan, muntazam ravishda bilim, ko'nikma va malakanasi oshirib borishga qaratilgan ilmiy-ijodiy faoliyatdir. Ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi bozor va nobozor ishlab chiqaruvchilari tomonidan muayyan subyektlarning buyurtmalari yoki o'z tashabbuslariga asosan olib boriladigan tadqiqot ishlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda MXT-93 xalqaro andozasida ilmiy tadqiqot faoliyati natijalarining hajmi, ya'ni shu sohaga qilingan xarajatlar oraliq iste'mol sifatida hisobga olinadi. Bu esa, o'z navbatida, YalM tarkibida ushbu harajatlarning hisobga olinmasligiga sabab bo'ladi. Natijada pirovard iste'mol bo'yicha YalM hajmi past darajada namoyon bo'ladi. Vaholanki, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari (bilim, ko'nikma va malaka zaxiralari) kelgusidagi iqtisodiy taraqqiyotga zamin yaratadi.

Fikrimizcha, ilmiy tadqiqot faoliyati natijalari, ya'ni shu sohaga qilingan sarf-xarajatlarni milliy hisoblar tizimida aks ettirishga boshqacharoq yondashish zarur. Ushbu sohaga qilingan xarajatlarni xuddi bino-inshoot, texnika-texnologiya, kompyuter dasturlari va shu kabilarga qilingan sarflar singari asosiy kapitalning yalpi jamg'armasi sifatida hisobga olish zarur. Chunki ilmiy tadqiqot faoliyati natijalaridan ham ishlab chiqarish jarayonida uzoq yillar davomida bir

<sup>30</sup> Abdullayev Yo. Makroiqtisodiy statistika: 100 savol va javob. – T.: Mehnat, 1998. -145 b.

necha bor foydalanish mumkin. Lekin ayrim yo'nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlar ham mayjudki, ular o'z egasi yoki butun bir jamiyatga ma'naviy tomondan nafl bo'lsada, iqtisodiy foyda olib kelmaydi. Ular uchun qilinadigan xarajatlarni oraliq iste'mol sifatida hisobga olishni davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari MHT-93 xalqaro andozasida harbiy sohadagi quroslasha va ularni yetkazib beruvchi vositalar uchun qilingan xarajatlar kapital jamg'arish sifatida emas, balki davlat boshqaruv organlarining oraliq iste'moli shaklida hisobga olinadi.

Fikrimizcha, agar harbiy sohadagi quroslasha va ularni yetkazib beruvchi vositalar bir yildan ortiq muddat xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, u holda ularga qilingan xarajatlarni asosiy kapital yalpi jamg'armasi sifatida hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tavsiyalarning ahamiyati shundaki, pirovard iste'mol bo'yicha yalpi ichki mahsulotni hisoblash jarayonida yalpi jamg'arma hajmining oshishi hisobiga YALM miqdori ham sezilarli darajada oshadi. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yorqinroq namoyon etishga yordam beradi.

#### **4.2. Aholi turmush darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar**

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, turmush darjasini konsepsiysi bilan uzviy bog'liq. Ayrim muhim ko'rsatkichlar va uning indikatorlari 4.2.1-jadvalda keltirilgan.

#### **4.2.1-jadval**

##### **Aholi turmush darjasini ko'rsatkichlari va indikatorlari**

Turmush darjasini ko'rsatkichlari	Ko'rsatkichlar indikatorlari
<b>I. Asosiy jismoniy ehtiyojlar qondirilishi</b>	
1. Salomatlik	1.1. 1 ming yoki 100 ming aholi hisobiga jami o'lim. 1.2. 1000 tug'ilgan bola hisobiga bir yoshgacha o'lgan bolalar soni. 1.3. Kutilayotgan umr uzoqligi. 1.4. Kasallik natijasida mehnat qobiliyatining y o'qotilishi.
2. Ovqatlanish	2.1. Asosiy oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli va hokazolar
3. Turar joy	3.1. Turar joylarda uylarning umumiy maydonini ishga tushirish. 3.2. Turar joylarning umumiy maydoni. 3.3. Turar joy jamg'armasini obodonlashtirish. 3.4. Kyartiralaming o'rtacha kattaligi.
4. Uylardagi mol-mulklar	4.1. Aholining moddiy-maishiy va xo'jalik buyumlari bilan ta'minlanganligi. 4.2. Aholiga madaniy-maishiy buyumlar sotish.
5. Pulli xizmatlar	5.1. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish hajmi. 5.2. Aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish tarkibi. 5.3. Maishiy xizmatlar hajmi
<b>II. Ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi</b>	
6. Aholining madaniy darjasini	6.1. Aholining ma'lumot darjasini. 6.2. Nashr etilayotgan kitob va risolalar hajmi. 6.3. Chiqarilayotgan jurnallar va boshqa davriy nashrlar hajmi. 6.4. Aholining televizorlar bilan ta'minlanganligi.
<b>III. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish</b>	

7. Mehnat sharoitlari	7.1. Sanoatda ish vaqtı nobudgarchiligi (o'rtacha hisobda bir ishchi hisobiga, kuni). 7.2. Xodimlarning mehnat sharoitini o'zgartirish (og'ir jismoniy mehnat bilan band bo'lganlar va hokazo). 7.3. Ishlab chiqarishda shikastlanish (bir ish kuni va bundan ko'proq ish kuni hisobiga baxtsiz hodisalarda shikastlangan va mehnat qibiliyatini yo'qotganlar hamda 1000 nafar ishlaydigan odam hisobiga shikastlanishi o'lim bilan tug'allanganlar soni). hokazolar.
8. Dam olish sharoitlari	8.1. Yozgi oromgohlarda dam olgan bolalar soni
9. Ijtimoiy ta'minot	9.1. Pensiyalar va o'rtacha ish haqi va uning eng kam miqdorlari bo'yicha nisbat. 9.2. Bolalarga atalgan nafaqlarning o'rtacha miqdorlari va ularning yashashiga loyiq minimum nisbati. 9.3. Pensiyalar miqdori va tirikchilik minimumi nisbati
10. Ijtimoiy-maishiy vaziyat	10.1. Ishsizlarning umumiy soni. 10.2. Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va shikastlanishlar, qotilliklar va hokazolar oqibatidagi o'lim. 10.3. Ish tashlashlar (ish vaqtı nobudgarchiligi kishi-kunlari miqdori, qatnashchilar soni). 10.4. R o'yxtaga olingen jinoyatlar soni. 10.5. Ifloslangan oqar suvlarning chiqarib tashlanish hajmi. 10.6. Havoga ifoslangan moddalar chiqarib tashlanishi. hokazolar.
11. Daromad va sarf-xarajatlar	11.1. Aholining pul daromadlari, jumladan, ularning turlari bo'yicha. 11.2. Aholining pul sarf-xarajatlari, jumladan, ularning turlari bo'yicha. 11.3. Ish bilan band bo'lgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqi, jumladan, tarmoqlar, mintaqalar va kasblar bo'yicha uning tabaqaalanishi. 11.4. Aholining omonatlardagi jamg'armalari va uning ko'payishi.

Turmush darajasini baholash uchun jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar:

- darajaga oid ko'rsatkichlar (mutlaq qiymatlar);
- tarkibiy ko'rsatkichlar (darajaga oid ko'rsatkichlarning tarkibiy qismlari);
- dinamik (darajaga oid ko'rsatkichlarning o'zgarishini tavsiflovchi, nisbiy)

ko'rsatkichlar sifatida hisoblab chiqilishi mumkin.

Nisbiy turmush darajasini quyidagi uchta jihat bo'yicha:

- avvalgi yillardagi turmush darjasini bilan taqqoslash;
- bir mintaqadagi turmush darjasini boshqa mintaqadagi (mamlakatlardagi) turmush darjasini bilan taqqoslash;

v) amaldagi turmush darjasini odamlarning minimal va oqilona talablarini ifodolovchi ehtiyojlarning rivojlanganlik darjasini bilan taqqoslash orqali aniqlash mumkin.

Yuqorida keltirilgan turmush darjasini konsepsiysi inson faoliyatining alohida qirralarini xarakterlaydi. Ta'kidlab o'tilganidek, barcha klassifikatsiyalar o'rtasida uziyil aloqa mavjud. Ular bir-birini to'ldiradi, ammo kompleks baholash uchun integral ko'rsatkichlar tizimi zarur. Hozirda asosi turlicha bo'lgan turmush darjasini

konsepsiyanini aholining turmush darajasini (sifatini) har tomonloma xarakterlab beruvchi yagona ko'rsatkichga keltirish bo'yicha samarali usul yo'q, biroq olimlar shunday usullarni ishlab chiqish bo'yicha jiddiy ish olib bormoqdalar.

Sho'rolar davri amaliyotida integral o'lchov sifatida jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha haqiqiy daromad ko'rsatkichidan foydalanilardi. Uni oshirishning asosiy shakllari quyidagilar: haqiqiy ish haqining o'sishi (pul shaklidagi ish haqini to'g'ridan-to'g'ri oshirish, narxлами tushirish, soliqlar, majburiy ajratmalarni kamaytirish), ijtimoiy iste'mol jamg'armalaridan to'lanadigan to'lovlarni (ijtimoiy transfertlarni) oshirish va hokazo.

"Haqiqiy daromadlar" ko'rsatkichida pul daromadlaridan tashqari natural daromadlarning qiymati, muassasalarning ijtimoiy soha uchun moddiy xaratatlari ko'rinishidagi daromadlar, aholining qimmatbaho qog'ozlari, jamg'armalari ham hisobga olinadi. Aholining haqiqiy daromadlari indeksi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasini, moddiy ne'matlar, xizmatlar, tariflar baholarining, soliq va majburiy ajratmalarning o'zgarishini hisobga olgan holda ifodalaryadi.

Keyingi yillarda yangi – "ixtiyordagi haqiqiy darommaddan" (soliq va majburiy ajratmalar chiqarib tashlanib, inflyatsiya sur'atlarini hisobga olgan holdagi pul daromadlaridan) foydalanmoqda.

Bu ikki ko'rsatkichning farqi haqiqiy ixtiyordagi daromad – miqdor ko'rsatkichi, jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha haqiqiy daromad esa aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarning o'rtacha miqdori ekanidan tashqari, ularni hisoblash metodikasi ham turlicha.

Aholining turmush darajasini ifodalash uchun jahondagi turli mamlakatlarda turlicha mezonlar qo'llaniladi. Ular orasida minimal iste'mol budjeti, kambag'alchilik, mutlaq va nisbiy kambag'alchilik ko'rsatkichlaridan keng foydalaniladi.

**Minimal iste'mol budjeti** – shaxsnинг rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'nnaviy ehtiyojlar iste'molining ijtimoiy asoslangan minimal darajasini ta'minlovchi iste'mol tovar va xizmatlari turlarining qiymati.

**Kambag'allik ko'rsatkichi** aholining turmush darajasini baholash uchun foydalaniladigan mezonlardan biridir. Juhon amaliyotida kambag'allik darajasini ta'riflashga yondashishda uchta asosiy konsepsiya: mutlaq, nisbiy va subyektiv kambag'allik konsepsiyasidan foydalaniladi.

**Mutlaq kambag'allik konsepsiysi** shaxs yoki oqilona minimal hayotiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan daromadni ta'riflashga asoslanadi. O'zbekistonda insонning minimal ehtiyojlarini ta'riflash uchun shunday tirikchilik minimumi belgilanganki, uni hisoblab chiqishda kaloriyalar, oqsillar, yog' va uglevodlar zaruriy iste'molining fiziologik me'yorlaridan foydalaniladi.

**Nisbiy kambag'allik konsepsiysi** asosiy mezon sifatida insонning minimal ehtiyojlaridan emas, balki uning farovonligi ko'rsatkichlarining biror-bir mamlakatda ustunroq keluvchi moddiy ta'minlanganlik darajasi bilan bo'ladigan nisbatidan foydalanadi. Bunday yondashuvda daromadlari mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadning muayyan ulushidan oshmaydiganlar kambag'al hisoblanadi.

Keyingi vaqtarda xorijdagi tadqiqotlarda nisbiy kambag‘allikni ta’riflashning boshqa uslubiyatidan ham keng foydalilmoqda, u insonning boshdan kechirayotgan, umumqabul qilingan turmush tarzi olib borish imkonini bermaydigan yetishmovchiliklar ro‘yxatini o‘z ichiga oladi.

**Kambag‘allikning subyektiv konsepsiysi** ijtimoiy maqbul turmush darajasi uchun zarur bo‘lgan resurslarni subyektiv ta’riflashga asoslangan.

Konsepsiyalardagi farqlardan tashqari, kambag‘allik miqyoslarini ta’riflashga uy xo‘jaliklari tavsifini tanlash ham ta’sir etadi, u kambag‘allikni baholash uchun foydalilaniladigan ko‘rsatkich bilan taqqoslanadi. Amaliyotda uy xo‘jaliklarining quyidagi tavsiflaridan foydalilanadi:

- uy xo‘jaliklarining pul daromadlari;
- uy xo‘jaliklarining pul sarf-xarajatlari;
- uy xo‘jaliklari tasarrufidagi moddiy resurslar ko‘rsatkichlari.

O‘zbekistonda kambag‘allikni ta’riflash, kambag‘allik darajasini baholashda o‘rta hisobda bir oydagisi pul daromadlari ko‘rsatkichidan foydalilaniladigan tarzda kambag‘allik chegarasini tirikchilik minimumi darajasida belgilovchi mutlaq konsepsiya asoslanadi. Tirikchilik minimumi inson salomatligini saqlash va uning hayoti faoliyatini ta’minlash uchun zarur moddiy ne’mat va xizmatlar iste’molining minimal darjasini ko‘rsatkichidir.

Tirikchilik minimumi o‘rta hisobda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qiymat tarzida va umuman O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha, uning tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy demografik guruhlar bo‘yicha, shu jumladan, alohida shaharlar va ma’muriy-hududiy birlashmalar bo‘yicha belgilanishi mumkin.

Tirikchilik minimumining qiymatini belgilash negizini ilmiy asosda ishlab chiqilgan oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy turlari o‘lchamlari tashkil etadi, ular aholi ayrim ijtimoiy-iqtisodiy guruhlari uchun minimal iste’mol me’yorlari bo‘yicha tabaqaqlashtirib berilgan hamda iste’mol qilinadigan moddalarning kaloriyaliliqi va kimyoviy tarkibi bo‘yicha muvozanatlashtirilgan. Oziq-ovqat mahsulotlari iste’moli me’yorlarini asoslashda turli tabiiy-iqlimiy sharoitlarni hisobga olish maqsadida respublika hududi amaldagi uslubiy tavsiyalarga muvofiq bir necha zonaga ajratilgan. Zonal taqsimotga muvofiq yiliga o‘rta hisobda aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari turlari ma’lum miqdorlar doirasida belgilab chiqilgan. Hududiy zonalar bo‘yicha oziq-ovqat turlarining quvvat bera olishi sutkasiga 2204 kkal.dan 2607 kkal.gachani tashkil etadi.

Tirikchilik minimumi budgetida iste’mol me’yorlari faqat oziq-ovqat mahsulotlariga belgilangan, tovarlar va barcha turdagisi xizmatlar qiymati 31,7 % miqdorida belgilangan. Tirikchilik minimumi budgeti strukturasi Mehnat va ijtimoiy rivojlanish vazirligining uslubiyati asosida hisoblab chiqiladi.

Hozirgi vaqtida qonunchilikdagi tirikchilik minimumiga doir talablariga muvofiq umuman O‘zbekiston Respublikasi va uning tarkibiga kiruvchi subyektlardagi aholi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari uchun iste’mol savatini belgilash bo‘yicha yangi Uslubiy tavsiyalar loyihasi ishlab chiqilmoqda. Qonunchilik talablariga muvofiq uslubiy tavsiyalarga quyidagilar kirishi kerak:

1) umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha va uning tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlar uchun, inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovar va xizmatlar minimal turlarini shakllantirish prinsiplari va tartibi;

2) O'zbekiston Respublikasi tarkibiga kiruvchi subyektlar tomonidan iste'mol savatini belgilashda issiq yoki sovuq tabiyi-iqlim sharoitlari, aholining asosiy ijtimoiy-demografik guruhlari nooziq-ovqat tovar va xizmatlar iste'mol qilishidagi milliy an'analar va mahalliy xususiyatlarni hisobga olishga asosiy yondashuvlar;

3) umuman O'zbekiston Respublikasi bo'yicha va uning tarkibiga kiruvchi subyektlardagi asosiy ijtimoiy-demografik guruhlar uchun, inson salomatligini saqlash va uning hayotiy faoliyatini ta'minlash uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari, nooziq-ovqat tovar va xizmatlarning namunaviy minimal turlari.

Belgilanishi uslubiy tavsiyalar asosida amalga oshiriladigan iste'mol savati qonunchilikka muvofiq kamida besh yilda bir marta belgilanadi. Tirikchilik minimumini hisoblab chiqishga oid yangi Uslubiy tavsiyalar loyihasida ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha amaldagi tavsiyalarga nisbatan yuqoriq iste'mol me'yorlari belgilangan. Bundan tashqari, nooziq-ovqat tovar va xizmatlar bo'yicha iste'mol me'yorlari ham belgilangan.

Turmush darajasini ifodalash uchun mutlaq va nisbiy qashshoqlik ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi.

**Mutlaq qashshoqlik** - daromadlarning umuman yo'qligi yoki shaxsnинг (oilaning) minimal turmush ehtiyojlarini qondirish uchun zarur daromadning yo'qligidir. Mutlaq qashshoqlik ko'proq daydilar, boshpanasizlar va shu kabilalar orasida uchraydi.

**Nisbiy qashshoqlikni** O'zbekiston sharoitida yashash minimumi budgetidan kam bo'lgan daromadlar miqdori bilan aniqlanadi. Jahon amaliyotida esa bu ko'rsatkich mamlakat bo'yicha o'rtacha daromadlarning 40-60 %idan kam bo'lgan daromadlarga nisbatan qo'llaniladi. Jahon amaliyotida integral ko'rsatkich sifatida insonning rivojlanish indeksi (IRI) qo'llaniladi. "BMT taraqqiyot dasturlari" (BMTTD) mualliflari jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot, kutilayotgan umr ko'rish davri va aholining ma'lumot darajasi kabi kattaliklarning o'rtachasini hisoblab, turmush darajasining umumlashtiruvchi indikatorini ishlab chiqdilar.

IRI integral ko'rsatkich bo'lib, u:

1) kutilayotgan umr uzoqligini;

2) aholining savodliligi % ihamda 25 va undan yuqori yoshdashuvchilarining o'qiganlik yillari o'rtacha miqdori bo'yicha aniqlanadigan aholining ma'lumot darajasini;

3) muayyan yilda birjadagi kurs emas, balki tegishli mamlakatlar valyutalarining xarid qobiliyati bo'yicha AQSh dollarida hisoblab chiqiladigan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni o'z ichiga oladi.

Xalqaro Mehnat tashkilotining 117-soni "Iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari va me'yorlari to'g'risida"gi konvensiyasiga muvofiq maqbul turmush darajasini saqlab borish maqsadida davlatlar oziq-ovqat bilan ta'minlash, sog'liqni

saqlash, salomatlik, uy-joy qurish, mehnat sharoitlari, yollanma xodimlar va mustaqil ishlab chiqaruvchilarni taqdirlash, ijtimoiy ta'minot kabi sohalarda taraqqiyotga ko'maklashish uchun iloji boricha chora-tadbirlar ko'rishlari lozim.\*<sup>31</sup>

Aholining quyidagi to'rtta turmush darajasini ajratib ko'rsatish mumkin:

- **yuqori turmush darjasasi** – insonning har tomonlama kamol topishini ta'minlovchi ne'matlardan foydalanish;

- **normal daraja** – insonning jismoniy va aqliy kuch-quvvatini to'la tiklash uchun qulay sharoitlarni ta'minlovchi ilmiy asoslangan me'yorlar bo'yicha oqilona iste'mol qilish;

- **kambag'allik** – mehnat uchun resurslarni qayta yaratishning quy'i chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish;

- **qashshoqlik** – iste'mol qilinishi insonning yashash qobiliyatini saqlash imkoniyatinigina beruvchi ne'mat va xizmatlarning biologik mezonlar bo'yicha yo'il qo'yiladigan minimal turlarini iste'mol qilish.

Iste'mol budgetlari turmush darajasi indeksi va dinamikasini me'yoriy- tahliliy baholash, pragnozlash va tartibga solish hamda daromadlar sohasida asoslangan siyosat ishlab chiqishning muhim vositasidir. Turmush darajasi indeksini hisoblash uchun turmush darajasidagi quyidagi komponentlarining jon boshiga to'g'ri keladigan indeksi aniqlanadi: ovqatlanish (to'yimliligi va oqsillarga boyligi bo'yicha), uy mulklari jamg'armai (solishtirma narxlarda), uy-joy (qulayliklarni qo'shgandagi maydoni), salomatlik va sog'lijni saqlash (umr ko'rish davri dinamikasi, o'lim darajasi, sog'lijni saqlash uchun xarajatlar bo'yicha), ta'lif va madaniyat (ma'lumot olish o'rinni, ta'lif va madaniyat uchun ajratiladigan xarajatlar bo'yicha), aholiga xizmat ko'rsatish (solishtirma narxlarda) va hokazo.

So'ng oila budgetlari statistikasi bo'yicha ehtiyojlarning elastiklik koeffitsiyenti aniqlanadi. Elastiklikka teskari kattalik turmush darajasining berilgan komponenti bo'yicha ehtiyojlar nisbiy qat'iyligining o'chovi sifatida qabul qilinadi. Shundan keyin har bir komponent uchun ehtiyojlar umumiyligi salmog'ida berilgan ehtiyojning ulushini ko'rsatuvchi koeffitsiyent topiladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda turmush darajasi asta-sekinlik bilan o'sib bormoqda, ammo uning ayrim ko'rsatkichlari rivojlangan davlatlar bilan taqposlaganda hali ancha past.

Turmush darajasini yaxshilashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri umr ko'rish davridir. Bu ko'rsatkich so'nggi yillarda taxminan 3,5 yilga qisqardi. Ta'kidlash joizki, barcha ko'rsatkichlar va ularning tasniflari o'tasida mustahkam aloqa mavjud. Turmush darajasining o'zgarishi turli xil omillar ta'sirida yuz beradi, ularni oqilona boshqarish aholining turmush darajasini tartibga solib borish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, turmush darajasi - turli xil sabablarga bog'liq bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Har bir insonning turmush darajasi havo va suv muhitini, uy-joyi, maishiy va ishlab chiqarish sharoitlari, iste'mol tovarlarining sifati va hajmidan boshlab, to umumiy ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik vaziyat, shuningdek, siyosiy institutlarning ahvoligacha bo'lgan qator tabiiy va ijtimoiy omillar bilan

<sup>31</sup>Xalqaro mehnat konvensiyasi yordamida qabul qilingan konvensiya va tavsiyalar. 1919-1966 /Xalqaro mehnat byurosi byuro. – Jeneva, 1983. – 1321 b.

belgilanadi. Ularning eng diqqatga sazovorlari - siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy soha va fan-texnik taraqqiyot, shuningdek, ekologiyaga (atrof-muhitga) ta'sir etuvchi omillardir.

Omissalarning ta'siri tabiiy-iqlimi sharoit va zaxiralarning (inson, mehnat, ishlab chiqarish, moliyaviy, axborot, ma'naviy zaxiralar) mavjudligiga (yo'qligiga) qarab kuchayishi (susayishi) mumkin. Ammo bunda to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud emas. Masalan, Yaponiya, Shveytsariya kabi davlatlarda tabiiy zaxiralarning kam bo'lishiga qaramay, ular eng boy davatlardan sanaladi. Farovonlikning yuqori darajasi aholisi ko'p bo'lgan davlatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya) bilan bir qatorda kam aholili davatlarda ham (Lyuksemburg, Finlyandiya, Shveytsariya) kuzatiladi. Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston, Qирг'изистон va O'zbekiston kabi davatlarning iqlimi deyarli bir biriga yaqin bo'lsa-da, ulardagi aholining turmush darajasi tubdan farq qiladi.

Aholining ma'lumot darajasi, kasbiy darajasi yuqoriligi, iqtisodiy faolligi, tadbirkorligi, ijtimoiy munosabatlarni mamlakatda turmush darajasi yuqori bo'lishini ta'minlovchi sabablar sifatida ta'kidlanadi. Masalan, Yaponiya erishgan iqtisodiy taraqqiyotni bиринчи navbatda ta'lim tizimi, millatning mehnatsevarligi, faolligi, korxonalarda mehnatning oqilona tashkil etilishi bilan bog'lanadi.

#### **4.3. O'zbekistonda o'tgan yillardagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori o'sish sur'atlarining ta'minlanishi**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov har yili o'tgan yil yakunlari va joriy yil rejalariga bag'ishlab o'tkaziladigan Vazirlar Mahkamasi majlisida mamlakatimiz taraqqiyotida erishilgan natijalar, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning turli jabhalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar, shuningdek, kelgusida alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan ustuvor vazifalar bo'yicha keng qamrovli dasturiy ma'ruba qiladi. Ushbu an'anaga muvofiq holda, 2014-yilning 17-yanvar kuni asosiy maqsadi O'zbekistonning 2013-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanchan yakunlarini muhokama etish va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlab olishdan iborat bo'lgan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari ushbu majlisda so'zlagan ma'rzasida o'tgan yilda erishilgan yutuq va natijalar to'g'risida to'xtalar ekan, -

"Biz bugun 2013-yilning yakunlari haqida gapirganda, avvalo, o'tgan yilda mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda mutanosiblikka erishgani, modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanganini qayd etamiz"<sup>32</sup>. - deb e'tirof etdilar.

Haqiqatan ham, keyingi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan va bugungi kunda saqlanib qolayotgan jiddiy muammolar O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yana bir sinovga aylandi. Jahoning yetakchi rivojlangan mamlakatlari ham inqirozning oldini olish, uning ta'sir darajasini pasaytirish borasida turli shakl va ko'lAMDAGI

<sup>32</sup> 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom etirish yili bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2014-yil 18-yanvar.

harakatlarni boshlab yubordi. Jumladan, ushbu chora-tadbirlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash maqsadida jahondagi rivojlangan mamlakatlarning – "Katta yigimalik" deb nom olgan guruhi doirasida bir necha bor sammitlar o'tkazilib, tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Dastlab bu chora-tadbirlar 2009-2010-yillarda ma'lum natija bergandek bo'ldi. Xususan, jahon iqtisodiyotida o'sish sur'atlarining pasayishi to'xtatildi, ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish o'sdi, investitsion faoliyat jonlandi. Biroq, ushbu chora-tadbirlardagi o'zaro mutanosiblik darajasining pastligi, inqirozga qarshi kurashish yo'llari va vositalarini qo'llashdagi izchillikning yo'qligi ularning samarasini keskin pasaytirib yubordi, aksariyat hollarda ko'zlangan natijalarga erishish imkonini bermadi. Ana shunday qiyin vaziyatda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning "O'zbek modeli" mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minladi. Jumladan, YALM 8 %ga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 %ga, qishloq xo'jaligi – 6,8 %ga, chakana savdo aylanmasi – 14,8 %ga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 %ni tashkil etdi (4.3.1- jadval).

#### 4.3.1.- jadval


#### 2007-2013-yillarda erishilgan asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar<sup>33</sup>

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, % da	2007-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.	2013-y.
YALM ning o'sishi	9,5	9,0	8,1	8,5	8,3	8,2	8,0
Sanoat mahsulotining o'sishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3	7,7	8,8
Xizmat ko'rsatish hajmi	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1	15,0	13,5
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4	13,9	14,8
Davlat budjetining bajarilishi	+1,1	+1,5	+0,2	+0,3	+0,4	+0,4	+0,3
Inflyatsiya darajasi	6,8	7,8	7,4	7,3	7,6	7,0	6,8
Iqtisodiyot bo'yicha o'rtacha ish haqining oshishi	44,2	40,0	40	32	26,5	26,5	20,8
Aholi jon boshiga real daromadlar o'sishi	27,0	23,0	26,5	23,5	23,1	17,5	16,0

O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 %ni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 %ni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir.


2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 %dan 20,5 %ga (4.3.1-rasm), jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 %dan 8 %ga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 % profitsit bilan bajarildi (4.3.1-rasm).

<sup>33</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini ma'lumotlari.



4.3.1-rasm. Soliq yukining pasayishi, YalM ga nisbatan %da<sup>34</sup>

Bunday soliq yengilliklari juda katta mablag'ni tejash va uni korxonalar ixtiyorida qoldirib, ularning o'z aylanma mablag'larini ko'paytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, shuningdek, aholi daromadlarini oshirish imkonini berdi.



4.3.2-rasm. 2005-2013-yillarda davlat budjeti taqchilligi (profitsit) (YalMga nisbatan, (%))da<sup>35</sup>

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ijtimoiy sohaga yo'naltirilgan xarajatlar yuqori darajada saqlanib qoldi va umumiy xarajatlarning 59,3 %ini tashkil etdi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yuz berayotgan jiddiy sifat o'zgarishlari alohida e'tiborga sazovordir.

Yurtimizda qabul qilingan 2011-2015-yillarda sanoatni ustuvor darajada rivojlantirish dasturi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga doir tarmoq dasturlarining izchil amalga oshirilishi natijasida sanoat

<sup>34</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

<sup>35</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

tarkibida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan, raqobatdosh mahsulotlar tayyorlayotgan qayta ishlash tarmoqlarining o'mi tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 78 %dan ortig'i aynan ana shu tarmoqlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2013-yilda yuqori texnologiyalarga asoslangan mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati 121 %ga, qurilish materiallari sanoati 113,6 %ga, yengil sanoat 113 %ga va oziq-ovqat sanoati 109 %ga o'sgani misolida buni yaqqol ko'rish mumkin.

Telekommunikatsiya uskunalarini, kompyuter texnikasi va mobil telefonlar, keng turdag'i maishiy elektronika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi zamонавий korxonalar tashkil etilmoqda. Iqtisodiyotimizning deyarli barcha tarmoqlari modernizatsiya qilinib, amalda texnologik jihatdan yangilanmoqda.

Ana shunday o'zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi hozirgi vaqtida 24,2 %dan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki, bu ko'rsatkich 2000-yilda 14,2 %dan iborat edi.

Mamlakatimizda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni tubdan oshirish bo'yicha o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar ham amaliy samara bermoqda.

O'tgan yili ana shunday tovarlar ishlab chiqarishning o'sish hajmi 14,4 %ni tashkil etdi va yalpi sanoat hajmida ularning ulushi 35,5 %ga etdi. Bunday tovarlarning raqobatdoshligi nafaqat ichki bozorda, balki tashqi bozorda ham tobora ortib bormoqda.

Hech shubhasiz, bu borada sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyum va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish ko'lamini kengaytirish bo'yicha bajargan ishlariimiz muhim ahamiyatga ega.

So'nggi 3 yilda mamlakatimizda mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi qariyb ikki barobar oshdi. Faqat o'tgan yilning o'zida 455 ta korxonada mahalliylashtirish dasturi asosida 1 ming 140 ta loyiha amalga oshirildi. Buning natijasida ishlab chiqarish hajmi 1,2 barobar ko'paydi va import o'mini bosish bo'yicha yakuniy samara 5 milliard 300 million AQSh dollarini tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning o'mi va ahamiyati tobora mustahkamlanib borayotgani o'zi iqtisodiyotimizning tarkibida bo'layotgan ijobjiy o'zgarishlardan dalolat beradi. Faqatgina o'tgan yilning o'zida yurtimizda 26 mingdan ziyod kichik biznes subyekti ish boshladi, ushbu sektorda faoliyat yuritayotgan korxonalarining umumiyligi soni yil oxiriga kelib, 190 mingtaga etdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 %ni ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, 2000-yilda bu ko'rsatkich 31 %dan iborat edi.

Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 %i, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 %i, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 %i kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Ana shu raqamlardan ko'rinish turibdiki, kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramay, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan

ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda.

Iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur o'zgarishlar mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobji o'zgarishlarga erishishda eng muhim omilga aylandi.

Jahon bozoridagi konyunkturaning beqarorligiga qaramay, 2013-yilda eksport hajmining o'sishi 10,9 %dan iborat bo'lди. Tashqi savdo faoliyatidagi ijobji saldo 1 milliard 300 million dollarni tashkil etdi. 2013-yilda qimmatbaho metallar narxining keskin pasayganiga qaramay, mamlakatimiz oltin-valyuta zaxirasi o'tgan yil davomida 2 %ga ko'paydi.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida qishloq xo'jaligi strategik tarmoq hisoblanadi. Chunki agrar soha mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. 2013-yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 2,3 barobar ko'paydi. Faqat o'tgan yilning o'zida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 %ga, jumladan, dehqonchilik – 6,4 %ga, chorvachilik – 7,4 %ga o'sdi.

Aytish kerakki, izchil yuqori o'sish sur'atlari bilan birga, yalpi ichki mahsulotning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 2000-yilda bu boradagi ko'rsatkich 30,1 %ni tashkil etgan bo'lisa, 2013-yilda faqatgina 16,8 %ni tashkil etdi.

Buni avvalambor iqtisodiyotimizda amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o'zgarishlarning, mamlakatimiz bir paytlardagi agrar respublikadan bosqichma-bosqich ravishda sanoati rivojlangan zamonaviy davlatga aylanib borayotganining yaqqol tasdig'i sifatida qabul qilishimiz darkor.

Iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasi muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

2013-yil yakunlariga ko'ra, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 %ga, ularning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 2000-yildagi 37 %dan 53 %ga o'sdi.

Bu raqam va ko'rsatkichlar mamlakatimiz xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda taraqqiy topgan ko'pgina davlatlar darajasiga tobora yaqinlashib boryapti, deb aytishga asos beradi.

O'tgan yili tijorat banklarining jami kapitali 25 %ga, 2000-yilga nisbatan esa 46 barobardan ziyod ko'paydi. Natijada bugungi kunda banklarimiz kapitalining yetarlilik darajasi 24,3 %ni tashkil etmoqda, bu esa bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tomonidan 8 % etib belgilangan talabdan uch barobar ko'pdir.

Investitsiyasiz taraqqiyotga erishish mushkul. Chunki investitsiyalarsiz ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, bandlikni ta'minlash, aholi daromadalarini oshirish kabi tadbirlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Shu sababli mamlakatimizda investitsion faoliyikni rag'batlantirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida 2013-yilda 13 milliard dollar qiymatidagi kapital qo'yilmalar o'zlashtirildi, bu 2012-yilga nisbatan 11,3 %ga ko'pdir. O'zlashtirilgan kapital qo'yilmalar umumiy hajmining deyarli yarmini, ya'ni 47 %ini xususiy investitsiyalar-korxonalar va aholining shaxsiy mablag'lari tashkil etgani alohida e'tiborga loyiqdır.

Jalb etilayotgan investitsiyalarning asosiy qismi - 70 %dan ortig'i, birinchi navbatda, ishlab chiqarish obyektlarini qurishga yo'naltirildi, eng yangi zamonaviy uskunalar xarid qilishga sarflangan investitsiyalar ulushi esa qariyb 40 %ni tashkil etdi.

Umuman, mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritish hajmi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 23 %dan iborat bo'ldi.

2013-yilda Investitsiya dasturi doirasida moliyalashning barcha manbalari hisobidan umumiyligi qariyb 2 milliard 700 million dollardan iborat bo'lgan 150 ta ishlab chiqarish yo'nalishidagi loyihani amalga oshirish ishlari niyoyasiga yetkazildi. Bular qatorida Toshkent issiqlik elektr markazida kogeneratsion gaz turbinali texnologiyani joriy etish; Janubiy O'rtabuloq - Muborak gazni qayta ishlash zavodi gaz quvurini va kompressor stansiyasini barpo etish orqali Somontepa va Janubiy O'rtabuloq konlарini to'liq jihozlash; "Angren" konini modernizatsiya qilish orqali Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasining 1-5-energiya bloklarini yil davomida ko'mir bilan ishlashga o'tkazish; "Angren" maxsus industrial zonasini hududida "Ohangaron" podstansiyasini rekonstruksiya qilish, "Bekobod sement" ochiq aksiyadorlik jamiyatida yangi liniya qurish hisobidan faoliyat yuritayotgan sement ishlab chiqarish jarayonini modernizatsiya qilish, "Quyuv-mexanika zavodi" shu'ba korxonasi metall quyishni rekonstruksiya qilish va boshqa yirik loyihalar mavjudligini alohida qayd etish lozim.

Shu bilan birga, Toshkent va Namangan viloyatlarda zamonaviy to'qimachilik komplekslari, Jizzax va Xorazm viloyatlarda yigiruv va to'quv, Samarqand viloyatida sport poyabzallari ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etildi. Oziq-ovqat sanoati bo'yicha 21 ta korxonada ishlab chiqarish modernizatsiya qilindi va texnik qayta jihozlandi.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish bo'yicha o'z oldimizga katta maqsadlar qo'ygannamiz. Ularni amalga oshirishda kerakli imtiyozlarga ega bo'lgan maxsus industrial zonalarni tashkil etish yo'lida oxirgi yillarda biz ko'pgina tajribalarga ega bo'immoqdamiz.

Buning amaliy tasdig'ini "Navoiy" va "Angren" maxsus industrial zonalari faoliyatini misoldida ko'rish mumkin.

"Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasini tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiyligi qiymati 100 million dollardan ziyod bo'lgan 19 ta investitsiya loyihasi bo'yicha ishlab chiqarish korxonalarini ishgaga tushirildi. Jumladan, yuksak texnologiyalar asosida modem va televizorlar uchun pristavkalar, elektr energiyani elektron hisoblagichlar, yuqori kuchlanishga chidamli kabellar, issiqlik va suv isitish qozonlari, mobil va statsionar telefon apparatlari, tayyor dori vositalari va boshqa turdagli mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

2013-yilda maxsus zonadagi korxonalar tomonidan qiymati 100 milliard so'mdan ziyod mahsulot ishlab chiqarildi va bu boradagi o'sish sur'ati 2012-yilga nisbatan 25,8 %ni tashkil etdi.

“Angrem” maxsus industrial zonası hududida qisqa muddatda umumiyligi qiyamasi qariyb 44 million dollar bo‘lgan 5 ta loyiha asosida energiyani tejayidigan diodli yorug‘lik lampalar, turli kattalikdagi mis quvurlar, ko‘mir briquetlari kabi yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, shakar ishlab chiqarish bo‘yicha yangi zavod va boshqa korxonalar tashkil etildi.

Ayni shu yo‘nalishda to‘plangan tajribani hisobga olib, o‘tgan yilning mart oyida Jizzax viloyatida “Jizzax” maxsus industrial zonası tashkil etilgani sizlarga yaxshi ma’lum. Sirdaryo viloyatida bu zonaning filiali faoliyat ko‘rsatishi ko‘zda tutilgan.

Bugungi kunda “Jizzax” maxsus industrial zonası hududida transport, ishlab chiqarish va muhandislik kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish bo‘yicha faol ishlar olib borilmoqda. O‘tgan yilning o‘zida mazkur zona hududida Xitoy kompaniyalari ishtirokida 100 ming dona mobil telefon ishlab chiqarish, shuningdek, chorva mahsulotlarini qayta ishslash va ozuqa tayyorlash bo‘yicha umumiyligi qiyamasi qariyb 6 million dollar bo‘lgan dastlabki 3 ta loyiha amalga oshirildi.

O‘tgan yili aholining ijtimoiy farovonligini ta‘minlash va sotsial sohani rivojlantirish masalalari hal qiluvchi o‘rin egalladi. Yangi ish o‘rinlari tashkil etish, bandlikni ta‘minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013-yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta‘minlandi. Bu ish o‘rinlarining 60,3 %dan ortig‘i qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o‘rni tashkil etildi.

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning aholi hayot darajasi va sifatini yuksaltirishdagi ta‘siri va natijalari haqida alohida to‘xtalib o‘tish zarur.

2013-yilda aholi real daromadlari 16 %ga oshdi, o‘rtacha oylik ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 20,8 %ga ko‘paydi.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda pensiyalarning o‘rtacha miqdori o‘rtacha ish haqiga nisbatan 37,5 %ni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich Rossiyada 25,7 %dan, Markaziy Osyo mamlakatlarida esa 23-28 %dan iboratdir. Joriy 2014-yilda mamlakatimizda bu ko‘rsatkichni 41 %ga yetkazish ko‘zda tutilmoqda.

Oilalar daromadlari tarkibi o‘zgarmoqda – tadbirkorlikdan olinayotgan daromadlar aholi yalpi daromadlarining yarmidan ziyodini tashkil etmoqda. Holbuki, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich o‘rtacha 20-25 %dan oshmaydi.

Eng muhim jihat shundaki, O‘zbekistonda eng past va eng yuqori daromad oladigan aholi guruhlari o‘rtasidagi tafovut darajasi so‘nggi yillarda 8 barobarga to‘g‘ri kelmoqda. Ko‘pgina, shu jumladan, qo‘shni davlatlarda bu raqam mamlakatimizdagi ko‘rsatkichdan bir necha barobar yuqori ekani, ya’ni o‘ta

kambag' al va nochor aholi guruhlari va o'ta boylar guruhi orasidagi tafovut oshib borayotganini ta'kidlash lozim.

Bu ko'rsatkichlar eng avvalo bizning o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsad – dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish yo'lidan izchil va bosqichma-bosqich ilgarilab borayotganimizning isboti bo'lib, ana shu mamlakatlar erishgan marralarga biz ham albatta etamiz, degan ishonchni tug'diradi.<sup>36</sup>

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Iqtisodiy taraqqiyotning mezon va ko'rsatkichlari, aholi turmush darajasi, yalpi ichki mahsulot (YalM), qo'shilgan qiymatlar (ishlab chiqarish) usuli, harajatlar (pirovard iste'mol) usuli, daromadlar (taqsimlash) usuli, sekinlashgan iqtisodiy o'sish, mo''tadil iqtisodiy o'sish, o'rtacha iqtisodiy o'sish, barqaror iqtisodiy o'sish, minimal iste'mol budjeti, kambag'allik ko'rsatkichi, mutlaq kambag'allik konsepsiysi, nisbiy kambag'allik konsepsiysi, kambag'allikning subyektiv konsepsiysi, mutlaq qashshoqlik, nisbiy qashshoqlik.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Iqtisodiy taraqqiyotning mezon va ko'rsatkichlari qanday hisoblanadi?
2. Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari nimalarni o'z ichiga oladi?
3. Yalpi ichki mahsulot nima?
4. YalMni qo'shilgan qiymatlar usuli bo'yicha hisoblashda nimalar e'tiborga olinishi zarur?
5. YalMni harajatlar usuli bo'yicha qanday hisoblanadi?
6. YalMni daromadlar usuli bo'yicha hisoblashdan maqsad nima?
7. Minimal iste'mol budjeti deganda nimani tushunasiz?
8. Kambag'allik ko'rsatkichi nima?

<sup>36</sup> Islom Karimov 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. – T.: O'zbekiston. 2014-y.

## **S-bob. IQTISODIY TIZIMLAR VA IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

### **5.1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga turlicha yondashuvlar**

Kishilik jamiyatni ishlab chiqarish munosabatlari va ishlab chiqaruvchi kuchlarning o'zaro birligi va ziddiyati asosida taraqqiy etib borib, uning turli bosqichlariga o'ziga xos bo'lgan iqtisodiy tizimlar muvofiq keladi. Insoniyat taraqqiyoti bosqichlari va har bir bosqichga xos iqtisodiy tizimlarni o'rganish iqtisodiy jarayonlarni, ularni o'zgaruvchan ekanligini bilishda muhim ahamiyatga ega.

Taraqqiyot bosqichlarini bilishda turli xil yondoshuvlar mavjud bo'lib, ulardan asosiyлари sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- tarixiy-formatsion yondoshuv;
- madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi jihatdan yondoshuv;
- texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondoshuv;
- ijtimoiy-iqtisodiy shakllar o'zgarishi jihatidan yondoshuv.

Ijtimoiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga **tarixiy-formatsion yondoshuvda** ishlab chiqarishning ijtimoiy usullari va uning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga e'tibor berilgan.

**Ishlab chiqarish usuli** ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish (iqtisodiy) munosabatlarining birligidan iborat. Ishlab chiqarishning shaxsiy va moddiy omillari, ya'ni ishchi kuchi bilan ishlab chiqarish vositalari birqalikda jamiyatning **ishlab chiqaruvchi kuchlarini** tashkil etadi. Boshqacha aytganda ishlab chiqaruvchi kuchlar ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida kishilar bilan tabiat o'rtaсидаги bog'lanishni amalga oshiruvchi shaxsiy va texnik-buyumlashgan elementlar tizimidan iborat. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi ijtimoiy taraqqiyotning eng muhim mezoni va umumiy ko'rsatkichidir.

Kishilar ishlab chiqarish jarayonida faqat tabiat ashylari va boshqa moddiy ashylar bilan emas, shu bilan birga o'zaro munosabatlarda bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlariga kirishadilar. Bunda ishlab chiqarishda tarkib topadigan tashkiliy-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bir-biridan farq qiladi. Tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar ishlab chiqarishni tashkil qilish jarayonida vujudga keladi. Mazkur munosabatlar kishilar o'rtaсидаги aloqalar sifatida namoyon bo'lib, shu bilan birga ishlab chiqarish holatini bevosita tavsliflaydi, ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti muayyan bosqichlarining xususiyatlari va ularning ijtimoiy uyg'unlashuvini aks ettiradi. Bu masalan, mehnat taqsimoti, uni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash, ishlab chiqarishning to'planishi va uyg'unlashtirilishidir.

Ishlab chiqarish har doim muayyan ijtimoiy shaklga ega bo'ladi. Bu ijtimoiy shakl ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni vujudga keltiradi, ularning mohiyati va asosini ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik munosabatlari tashkil etadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** kishilar uchun zarur hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar. Ular takror ishlab chiqarish munosabatlari yoki iqtisodiy munosabatlar deb ham ataladi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining muayyan darajasi ishlab chiqarish munosabatlarning ma'lum turini taqozo etadi.

Muayyan taraqqiyot darajasidagi ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari muayyan turining birligi va o'zaro ta'siri ishlab chiqarish usulini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish munosabatlari faqat ishlab chiqaruvchi kuchlar bilangina o'zaro aloqada bo'lib qolmaydi. Ular bir vaqtida bazis ham hisoblanib, uning ustida ishlab chiqarish munosabatlarning ushbu tizimiga xos alohida siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, milliy, oilaviy va boshqa ijtimoiy munosabatlar hamda tartibotlarning alohida turlari yuzaga keladi. Ana shularning yig'indisi jamiyatning ustqurmasini tashkil etadi. Siyosat, huquq, axloq va ustqurmaning boshqa elementlari ham muhim ahamiyat kasb etadi, o'zlarini vujudga keltirgan ishlab chiqarish munosabatlariiga, ular orqali esa jamiyatning ishlab chiqaruvchi kuchlariga ham aks ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish usuli bilan jamiyat ustqurmasi **ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyani** tashkil etadi. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaning tarkibiy tuzilishini 1-chizma orqali yaqqol tasavvur etish mumkin. Bu yerda ikki holatga e'tibor berish muhim. Birinchidan, ishlab chiqarish munosabatlari mustaqil, alohida tizimni tashkil etmaydi. U ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ham, shuningdek ustqurma bilan ham har doim o'zaro ta'sirda bo'ladi. Ikkinchidan, turli formatsiyalarda o'ziga xos ishlab chiqarish munosabatlari amal qiladi va bu esa har bir formatsiyaga mos keluvchi ishlab chiqarish usulini belgilab beradi.

Insoniyat jamiyat tarixida bir-biri bilan izchil almashinib turgan qator ishlab chiqarish usullari va shunga muvosif ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar ajralib turadi. Ishlab chiqarish usullari almashinishing klassik namunasi Yevropa namoyish qilingan deb hisoblanadi. Yevropa hududida o'zaro almashinib, ibtidoiy jamaoa, quldarlik, feodal va kapitalistik munosabatlar izchil tarkib topdi. Boshqa qit'alarga kelganda esa, bu yerda kapitalizmgacha bo'lgan davrda mana shu marralar aniqroq qayd etilgan. Osiyo, Afrika, Avstraliyada Yevropa mustamlakachiligining ta'siri seziladi. Adabiyotlarda Osiyocha ishlab chiqarish usuli deb atalmish usul haqida ham qayd qilinadi. Bu usulning shakllanishida mamlakatlarning katta turkumiga xos ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlarining sug'orish tizimlarini markazlashtirilgan tarzda tartibga solib turish va davlatning ana shu sharoitlarda alohida roli bilan bog'liq sifat xususiyatlari aks etadi.

**Iqtisodiy fonda ijtimoiy taraqqiyotni sivilizatsiyaning tarixiy rivojlanish tiplari** natijasi sifatida o'rghanish ham muhim o'r'in tutadi.

"Sivilizatsiya" so'zi lotinchada fuqarolarga oid, ijtimoiy degan ma'nolarni anglatadi. Bu tushuncha fanga frantsuz faylasuflari tomonidan nisbatan yaqin vaqt – ikki asr oldin kiritilgan bo'lib, tafakkur va erkinlik hukmron bo'lgan jamiyatlarni tavsiflash uchun qo'llanilgan. Bugungi kunda mazkur tushuncha quyidagi o'rnlarda qo'llaniladi:

- jamiyat madaniyatni darajasini baholash;

m- yovvoyilik davri o'rniga kelgan kishilik jamiyatni rivojlanish bosqichini tavsiflash (L.Morgan, F.Engels);

- alohida guruqlar, xalqlar va davlatlar taraqqiyotining madaniy-tarixiy davri (N.V.Danilevskiy, A.Toynbi);

- madaniyat taraqqiyotining so'nggi bosqichi, uning tugashi fazasi (O.Shpengler);

- ijtimoiy hayot asosiy tarkibiy qismlari – inson salohiyati, moddiy ne'matlar ishlab chiqarish usuli, atrof-muhitning majmui".

Umuman, sivilizatsiya rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning oqilona tashkil etilgan tuzumi sifatida talqin etiladi.

Jamiyat taraqqiyotini sivilizatsiya nuqtai nazaridan o'rganishda sivilizatsiyalarning almashuvi nazariyasi muhim o'rinn tutadi. Bu nazariya tarafdarlari quyidagi 7 ta bosqichdan iborat sivilizatsiyani ajratib ko'rsatadilar:

1) davomiylik muddati 30-35 asrni o'z ichiga olgan neolit davri;

2) davomiylik muddati 20-23 asrni o'z ichiga olgan sharqiylar quldarlik davri (bronza asri);

3) davomiylik muddati 12-13 asrni o'z ichiga olgan antik davr (temir asri);

4) davomiylik muddati 7 asrni o'z ichiga olgan erta feodal davri;

5) davomiylik muddati 4,5 asrni o'z ichiga olgan sanoatlashuvdan oldingi davr;

6) davomiylik muddati 2,5 asrni o'z ichiga olgan sanoat davri;

7) davomiylik muddati 1,3 asrni o'z ichiga olgan yuqori sanoatlashuv davri".

Bu qayd etilgan bosqichlardan ko'rinib turibdiki, ushbu nazariyada turli qarashlar va yondoshuvlarni aralashtirish holatiga yo'l qo'yilib, jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini ajratishning aniq bir mezoni yoki belgisi mayjud emas.

Jamiyat taraqqiyoti bosqichlariga **texnologik yondoshuv** ham ma'lum bir oqim xisoblanadi. Ular jamiyat tarixiy taraqqiyoti davomida ro'y berayotgan o'zgarishlar ko'lami va xarakterini yaxshiroq tushunib olish uchun ishlab chiqarishning turli texnologik usullarini tahlil etish, mashinalashgan ishlab chiqarishning vujudga kelishi va rivojlanish tarixiga murojaat qilish zarur deb hisoblaydilar.

Mehnat vositalari, materiallar, texnologiya, energiya, axborotlar va ishlab chiqarishni tashkil etish bilan birgalikda **ishlab chiqarishning texnologik usuli** deyiladi.

Ular o'rtaqidagi chegaralarni jamiyat taraqqiyoti tarixinining yirik bosqichlari ajratib turadi. Bir texnologik ishlab chiqarish usulidan boshqasiga o'tish asosan mehnat vositalarining xarakteridagi o'zgarishlar, fan va texnika taraqqiyoti bilan belgilanadi.

Ishlab chiqarish texnologik usullarining dastlabki uchta bosqichlari alohida farqlanadi. Bular oddiy kooperatsiya, manufaktura va mashinalashgan ishlab chiqarish. **Oddiy kooperatsiya** – bir xil ish yoki xizmat vazifasini bajaruvchi xodimlarning eng oddiy shaklidagi uyushishi, birgalashib ma'lum tartib asosida ishlaydigan kishilar guruhidir. Kooperatsiyaning yakka tartibdagi hunarmandchilik ishlab chiqarishiga nisbatan afzalliklari quyidagilar orqali namoyon bo'лади:

<sup>37</sup> Экономическая теория (политэкономия): Учебник / Под общ. Ред. Акад. В.И. Видяпина акад. Г.П. Жураалевой. – 4-е изд. - М.: - ИНФРА М 2004, 51стр.

<sup>38</sup> Экономическая теория (политэкономия): Учебник. - Изд., испр. и дор./Под. Общ. Ред. Акад. В.И. Видяпина, А.И. Добринина, Г.Р. Жураалевой, Л.С. Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 55 стр.

1) ko'plab ishchilarning birgalikdagi mehnati ishchi kuchidagi alohida tafovutlarning yo'qolishiga, ularning sifat jihatidan bir xildalashuviga olib keldi;

2) bino va inshootlardan birgalikda foydalanish natijasida yoqilg'i, yoritish va boshqa shu kabi xarajatlarning kam sarflanishi mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi ishlab chiqarish vositalarining tejalishiga olib keldi;

3) birgalikdagi mehnat bellashuvni keltirib chiqarib, mehnat unumdarligini oshirdi.

Mashinalashgan ishlab chiqarishga olib boruvchi yo'lida **manufaktura**, ya'ni mehnat taqsimotiga asoslangan, lekin mashina hali mayjud bo'lмаган шароитдаги кооператсиya muhim rol o'ynaydi. Manufaktura davrida ishlab chiqarishning umumlashuv jarayoni davom etadi. Yalpi ishchi kuchi tarkib topadi, har bir ayrim xodim esa yalpi ishchi kuchining tarkibiy qismiga aylanadi. Bunda oddiy kooperatsiyadagidek qo'l mehnatiga va qo'l mehnatiga asoslangan qurolga tayanadi.

Manufaktura ixtisoslashtirilgan qurol va asboblar vujudga keltirib hamda ishchini tor operatsiyalarni bajarishga bog'lab, yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga o'tish uchun zarur shart-sharoit tayyorlaydi. Bu davrda ishlab chiqarishni tashkil etish, mehnatning mazmuni va xarakterida, ishlab chiqarishning butun texnologik usulida, iqtisodiy munosabatlarda va butun ijtimoiy hayotda ham tub o'zgarishlar ro'y beradi. XVIII asrning so'nggi 30 yili ichida boshlangan sanoat revolyutsiyasi natijasida **yirik mashinalashgan ishlab chiqarish** vujudga keldi.

Kooperatsiyaning bu shakli xuddi manufaktura singari, mehnat taqsimotiga asoslanadi, lekin undan mashinali mehnatga asoslanishi bilan tubdan farq qiladi. Fabrika ichidagi mehnat taqsimoti tamomila mashinalarning vazifalari bilan belgilanadi.

Mashinalar tizimiga asoslangan fabrika bugun ham ko'p jihatdan ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiya bo'g'ini rolini saqlab kelmoqda. Shu bilan birga fan va texnikadagi inqilobiy o'zgarishlar, EHMning paydo bo'lishi va rivojlanishi, yagona axborot tizimlarining yaratilishi, ishlab chiqarish umumlashuvining yanada o'sishi uning texnikaviy bazisini jiddiy ravishda o'zgartirib yubordi.

Fan-texnika, texnologiya va axborot tizimidagi o'zgarishlarga qarab ko'pchilik olimlar, masalan, R.Aron, Dj. Gelbreyt, U.Rostou va boshqalar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini uch bosqichga: industrlashgangungacha bo'lgan jamiyat, industrlashgan jamiyat, yuqori industrlashgan yoki axborotlashgan jamiyatlarga bo'lib o'rganishni tavsija etadilar.

Bunda ular industrlashgangungacha bo'lgan jamiyatning asosiya belgilari sifatida: a) aholining asosan qishloq xo'jaligi bilan bandligi; b) qo'l mehnatining hukmronligi; v) mehnat taqsimotining juda sayozligi (dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, savdo, boshqaruva va boshqalar); g) natural xo'jalikning hukmronligini ko'rsatadi.

Jamiat taraqqiyotining ikkinchi muhim bosqichi industrlashgan jamiyatning asosiya belgilari deb: a) ishlab chiqarishning mashinalashganligi; b) sanoatning fan-texnika yituqlari asosida rivojlanishi, unda ishchilar sonining ko'payishi; v) shahar aholisining qishloq aholisiga qaraganda ko'payishi va boshqalar.

Taraqqiyotning uchinchi muhim bosqichi yuqori darajada industrlashgan jamiyatning asosiy belgilari: a) xizmat ko'rsatish sohasining yuksak darajada rivojlanishi; b) ishchi kuchining asosiy qismi (60-70%) shu sohada band bo'lishi; v) fanning bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylanishi, fan xodimlarining va malakali mutaxassislar rolining oshishi; g) iqtisodiyotning hamma sohalarida va kundalik hayotda axborot va hisoblash texnikalarining keng qo'llanilishi; d) tovarlar va xizmatlar sifatiga putur yetkazmasdan iqtisodiy resurslarning hamma turlarini tejash imkonini beradigan yangi texnika va texnologiyalarning keng qo'llanilishi va boshqalar.

Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, texnika va texnologiyadagi o'zgarishlar jamiyat taraqqiyotida asosiy rolni o'yaydi va tashkiliy, boshqaruv tizimlarining, ishchi-xizmatchilar tarkibining o'zgarishiga, mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi. Lekin bu texnik o'zgarishlarga qarab bir tomonlama yondoshuv bilan jamiyat taraqqiyoti qonunlarini aniqlab bo'lmaydi. Ayniqsa, iqtisodiy tizimlar va ularning xarakterini bilishda ham texnik ham ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning birgalikda olib, ularning o'zaro bir-biriga ta'sirini va shu dialektik aloqadorlik va ta'sir natijasida sodir bo'ladigan taraqqiyot qonunlarini o'rganish zarurdir.

Jamiyat taraqqiyotiga, jumladan texnika va texnologiyaning rivojiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning kuchli ta'sirini shunda ko'rish mumkinki, bir necha ming yillab rivojlanmay yotgan texnika va texnologiya taraqqiyoti tovar xo'jaligi va bozorming vujudga kelishi bilan gurkirab o'sib ketdi.

Texnika taraqqiyotining hamma bosqichlari ya'ni oddiy kooperatsiya, manufaktura, mashinalashgan ya'ni industrlashgan ishlab chiqarish, yuqori darajadagi industrlashgan, axborotlashgan jamiyat bosqichlari keyingi 250-300 yilga, ya'ni tovar xo'jaligi rivoj topgan davrga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham keyingi paytda ko'pgina iqtisodchilar jamiyat taraqqiyoti bosqichlarini iqtisodiy tizimlarga bo'lib o'rganadilar<sup>19</sup>.

## 5.2. Iqtisodiy tizim va uning unsurlari. Iqtisodiy tizimlarning taraqqiyot qonuniyatları

Har bir davrda va makonda amal qilayotgan iqtisodiy munosabatlar majmuasi - iqtisodiyotni tashkil qilish shakllari, xo'jalik mexanizmi va iqtisodiy muassasalar bilan birgalikda iqtisodiy tizimni tashkil qiladi.

Iqtisodiy nazariyada ko'pincha iqtisodiy tizim tushunchasini ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi bilan bog'lab turkumlashga harakat qilinadi. Shu asosda dunyodagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy tizimining uchta nusxasiga kiritiladi: an'anaviy iqtisodiyot, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiyoti va bozor iqtisodiyoti tizimlari.

**An'anaviy iqtisodiyot** – deyarli hamma mamlakatlar bosib o'tgan tarixiy tizimdir. U hozirgi davrda ham ko'plab iqtisodiy jihatdan kam rivojlangan mamlakatlarda mayjud bo'lib, ularda urf-odatlar, udumlarga, an'analarga asoslangan iqtisodiy jarayonlarga amal qiladi. Ularda natural yoki mayda tovar xo'jaligi

<sup>19</sup>Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2005, 86-87-b.

hukmron bo'ladi. Bu yerda ishlab chiqarish, ayrboshlash, daromadlarni taqsimlash vaqt-i vaqt bilan o'matiladigan urf-odatlarga asoslanadi. Merosxo'rlik va sulola (tabaqa) shaxslarning iqtisodiy rolida hukmronlik qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy turg'unlik aniq ifodalananadi. Texnika taraqqiyoti va yangiliklarni joriy qilish keskin cheklangan, chunki ular an'analar bilan ziddiyatli hisoblanadi va ijtimoiy tuzum barqarorligiga xavf tug'diradi. Iqtisodiy faoliyatga nisbatan diniy va madaniy tartiblar birlamchi hisoblanadi.

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki iqtisod muammosini hal qilishning bir xil va umum tan olingan yechimi mavjud emas. Har xil madaniyat va tarixiy o'tmish, har xil urf-odat va an'analar, qarama-qarshi mafkuraviy qarashlarga ega bo'lgan turli jamiyatlar aniq iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun turli xil tartiblardan foydalananadi.

Bozor iqtisodiyotiga qarama-qarshi tizim, **ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti** hisoblanadi. Bu tizim amalda barcha moddiy resurslarga ijtimoiy aniqrog'i davlat mulkchiligining hukmronligi va ma'muriy organlar tomonidan iqtisodiy qarorlarning markazlashgan tartibda qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Foydalananidigan resurslarning hajmi, mahsulotning tarkibi va taqsimlanishi, ishlab chiqarishni tashkil qilish kabilarga tegishli barcha muhim qarorlar markaziy boshqarish organlari tomonidan qabul qilinadi.

Iqtisodiy taraqqiyotda muhim bosqich hisoblangan tizim **bozor iqtisodiyoti tizimi**dir. Bozor iqtisodiyoti tizimi asosan ikki bosqichga egadir. Birinchisi erkin raqobatga asoslangan klassik bozor iqtisodiyoti bo'lib, ba'zi adabiyotlarda uni sof kapitalizm deb ham yuritiladi. Ikkinchisi esa hozirgi zamondagi rivojlangan bozor iqtisodiyoti bo'lib, uni aralash iqtisodiyot tizimi deb ham yuritiladi.

**Erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti** resurslarga xususiy mulkchilik, iqtisodiy faoliyatda va tadbirkorlikda erkinlik, iqtisodiy jarayonlarni tartiblashda va uyg'unlashtirishda bozor mexanizmidan foydalananish bilan tavsiflanadi. Bunday tizimda uning ham bir qatnashchisining xulq-atvori shaxsiy manfaatiga asoslanadi, har bir iqtisodiy birlik, alohida qabul qilingan qarorlar asosida, o'zlarining daromadlarini eng yuqori darajada yetkazishga intiladi. Bozor tizimi yordamida alohida qabul qilingan qarorlar uyg'unlashtiriladi. Raqobat sharoitida tovarlar (xizmatlarning) ishlab chiqarilishi, resurslarning taklif qilinishi Shuni bildiradiki, har bir mahsulot va resurslarning ko'plab mustaqil harakat qiluvchi xaridor va sotuvchilari mavjud bo'ladi. Bu yerda iqtisodiy jarayonlarga davlatning aralashuvchi cheklangan tavsifga ega bo'ladi. Shu sababli davlatning roli, xususiy mulkni himoya qilish va erkin bozorning amal qilinishi yengillashtiruvchi ishonchli huquqiy tartiblar o'matishdan iboratdir.

**Hozirgi zamondagi bozor iqtisodiyoti.** Hozirgi davrda real hayotda bozor iqtisodiyoti sof bozor mexanizmi va rejali iqtisodiyot unsurlarini mujassamlashtiradi. Mulkchilikning har xil shakllari, tadbirkorlikning turli yo'nalishlari mavjud bo'ladi, unda rejalashtirish, proqnozlash, aholini sotsial himoyalash kuchayadi. Masalan, AQSh iqtisodiyoti hozirgi davrda oldingi erkin bozor iqtisodiyotdan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar quyidagilarda ko'rinishadi.

Birinchidan, mulkning bir qismi davlat qo'lida bo'lib, u iqtisodiyotda faol rol o'yynaydi. Bu iqtisodiyotning barqarorligi va o'sishi uchun sharoit yaratishda, bozor tizimi yetarli darajada ishlab chiqarmaydigan yoki umuman yetkazib bermaydigan ayrim tovarlar va xizmatlar bilan ta'minlashda, daromadlar taqsimlanishini o'zgartirishda va shu kabilarda namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, sof kapitalizmdan farq qilib Amerika iqtisodiyotiga yirik korporatsiyalar va kuchli kasaba uyushmalari shaklidagi qudratli iqtisodiy tashkilotlar mayjud.

Bu yerda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, xususiy mulkchilik va bozor tizimiga suyanish, ijtimoiy mulkchilik va markazdan rejalashtirish har doim ham bir vaqtida mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, sobiq millatchi Germaniya iqtisodiyoti avtoritar kapitalizm deb atalgan, chunki mulkchilik xususiy bo'lib qolsada, mamlakat iqtisodiyoti qattiq nazorat ostiga olingan va markazdan boshqarilgan.

Buning teskarisi, bozor sotsializmi deb atalgan sobiq sotsialistik Yugoslaviya iqtisodiyotida resurslarga ijtimoiy mulkchilik xos bo'lgan va bir vaqtida iqtisodiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarishda erkin bozor asosida olib borilgan. Shvetsiya iqtisodiyotida ham 90 % dan ortiq xo'jalik faoliyati xususiy firmalarda to'plangan bo'lsada, davlat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va daromadlarni qayta taqsimlashda faol qatnashadi. Hozirgi vaqtida Xitoy Xalq Respublikasida davlatning markazlashgan holda iqtisodiyotga aralashuvi va rejalashtirish tizimi saqlanib qolgan holda bozor mexanizmlari muvaffaqiyat bilan qo'llanilib, barqaror va tez sur'atlar bilan iqtisodiy o'sishga erishmoqda<sup>40</sup>.

### **5.3. Iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi va iqtisodiy taraqqiyot**

Iqtisodiy munosabatlarning takomillashuvi iqtisodiyot tarmoqlarini texnik jihatdan yangilash va qayta qurollantirishni taqozo qiladi. Ushbu jarayonda amalga oshirilayotgan ishlar ijtimoiy hayotimizning deyarli barcha jabhalarida tadbiq etilib, qamrab olinish ko'lamlari esa muntazam va bosqichma-bosqich kengaytirib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlash, uni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, jahon bozori kon'yunturasidagi tebranishlar, inqiroz holatlariga nisbatan chidamligi, mustaqil rivojiana olish imkoniyat va salohiyatlari aynan iqtisodiyotdagि tub islohotlar natijalariga bog'liq.

Shuning bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash ijtimoiy hayotning boshqa sohalaridagi o'zgarishlariga ham chambarchas bog'liq. Ya'ni, barcha soha va jabhalari o'rtasida jadal olib borilayotgan modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish davomida izchillik va mantiqiy muvozanatni ta'minlash zarur. Shundagina ko'zlangan maqsad kutilgan samarani beradi. Eng avvalo, mamlakatimizda har bir soha bo'yicha davlat darajasidagi dasturlar qabul qilinib, uning ijrosiga katta ahamiyat qaratilayotganligidir. Jumladan, modernizatsiyalash natijalari o'laroq, zamonaviy va takomillashtirilgan texnika-tehnologiyalar yordamida sifatli hamda eksportga mo'ljallangan mahsulotlar ishlab chiqarilishiga erishilmoqda.

<sup>40</sup> Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2005, 105-107-b.

O'zbekiston uchun jahon bozoriga yangi marralarga chiqishning ishonchli yo'li sifatida inqiroz davom etib turgan yillarga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning shu yillarda quyidagi eng muhim yo'naliishlari belgilab berildi:

- tarkibiy o'zgarishlarni davom ettirish va iqtisodiyotni diversifikasiyalash, buni birinchi navbatda, xalqaro sifat standartlariga javob beradigan, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori bo'lgan raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash yo'li bilan amalga oshirish, mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiy taraqqiyotga erishishning eng muhim omili sifatida ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish<sup>4)</sup>.

- korxonalarni texnik qayta qurollantirish - alohida ishlab chiqarish turlarini zamonaliviy talablarga asosan yangi texnika va texnologiyalarni kiritish, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunalarini yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi. U ishlab chiqarish intensivligini kuchaytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish va ishlab chiqarilayotgan tovarlar sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Texnik modernizatsiya masalasini XX asr o'rtalari namunaviy industrializatsiyasi bilan ayniylashtirish noto'g'ri. Bu masalaga har qanday, hatto yuqori industriallashgan mamlakat ham duch kelishi mumkin. Modernizatsiya strategiyasining muvaffaqiyatlari tajribasi quyidagi to'rtta bosqich ketma-ketligidan iborat bo'ladi:

- 1) importning o'mini bosish bosqichi (asosiy tarmoqlarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash, Yuqori tariflar);
- 2) eksportga yo'naltirilgan o'sishni ta'minlash bosqichi (eksportni va yirik korxonalarini qo'llab-quvvatlash, texnologiyalarni qarzga olish);
- 3) jadal o'sishni rag'batlantirish bosqichi (innovatsiyalarga e'tibor beriladi, tariflarni pasaytirish, antimonopol tartibga solish, kichik va o'rta korxonalarini qo'llab-quvvatlash);
- 4) rivojlangan bozor bosqichi.

Bu evolyutsiyaning xususiyatlari importni o'mini bosishdan eksportga yo'naltirilganlikka, o'rganishdan innovatsiyalarga, yirik firmalarni tashkil etishdan kichik va o'rta firmalarni qo'llab-quvvatlashga o'tishdan iborat. Rivojlanish bosqichiga mos modernizatsiya siyosatini tanlay olish va bir bosqichdan ikkinchisiga o'tishda uni o'zgartira olish muhimdir.

Bu vazifani amalga oshirish oson bo'lmay, bunda eng asosiy jihat o'zgartirishlar uchun kerakli paytni tanlay bilish hisoblanadi. Aks holda, ikkita katta xatodon biriga yo'l qo'yilish ehtimoli yuqori bo'ladi. Birinchisi inertsiya bo'ylab harakat qilish, ya'ni o'tmishda muvaffaqiyatlari bo'lgan siyosatdan u mos kelmaydigan yangi bosqichda foydalanish. Ikkinchisi hukumat kechroq qo'llanishi kerak bo'lgan usul va dastaklardan vaqtidan oldin foydalanishni boshlashi. Ikkala xato ham

<sup>4)</sup> Karimov I. A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009.

davlatning iqtisodiyotni modernizatsiya qilish bo'yicha harakatlarini chippakka chiqarishi mumkin.

O'zbekiston hozirda modernizatsiyaning birinchi bosqichidan ikkinchi bosqichiga o'tish pallasida. Birinchi bosqich uchun iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlar va davlatning yetakchi tarmoqlardagi aktiv investitsion faoliyati bilan ajralib turadi. Inqiroz ikkinchi bosqichga o'tishni tezlashishiga sabab bo'lди. Bunda iqtisodiyotning real sektori keng ko'lamli texnik modernizatsiya evaziga mustahkam rivojlanadi.

Shu bilan birga, ilmiy bilimlarni yangi mahsulot va texnologiyalarga kirituvchi tarmoqlarni iqtisodiy rivojlanishini uzoq muddatli shakllanishi eng muhim strategik masaladir. Maqsad – mamlakat raqobatbardoshligini o'rta va uzoq muddatli istiqbolda yuksaltirishdir. Jahan moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan modernizatsiyalashgan, texnologik jihatdan yangilangan, yangi bozorlarni egallashga qodir iqtisodiyot bilan chiqish uchun o'z ichiga 42,5 mlrd dollarlik 852 ta loyihami oluvchi, 2009-2014-yillarda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish dasturi qabul qilindi.

Mazkur dastur iqtisodiyotning real sektorida mamlakatning eksport salohiyatini tashkil etuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan, tayyor mahsulotga bo'lgan ichki talabni qondiruvchi, va mahalliylashtirilayotgan ishlab chiqarishlarda qayta ishlanishi uchun yarimfabrikatlarni yetkazib beruvchi yirik loyihami amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, dastur ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni rivojlanirish, milliy texnologik bazani yangilashni rag'batlantiruvchi turli iqtisodiy mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Xususan, asbob-uskunalariga bojxona bojlarini pasaytirish, texnologik jihatdan yangilanib qayta foydalanishga kiritilgan mulknini soliqqa tortishdan ozod qilish.

Tijorat banklarining hozirgi % stavkalarida biznes soliqlarni to'lab, bank bilan hisob-kitob qilishi uchun shunday loyihami amalga oshirishi kerakki, ular yillik 25-30% foyda keltirishi kerak. Shunday qilib, modernizatsiyani o'tkazish bilan ma'naviy eskirgan xorij texnologiyasiga bog'lanib qolish xavfi tug'iladi. Shunga ko'ra, mazkur masalaning yechimi sifatida quydagilarni tavsya etish mumkin: birinchidan, milliy innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarib, joriy qilish; ikkinchi variant – transmilliy korporatsiyalar tizimiga kirish, bunda texnologiyalar oqib o'tishi litsenziyalarni notijorat shartlarda korporatsiya ichidagi almashinuv kabi tabiiy yo'l bilan amalga oshadi.

Har ikkala variantni amalga oshirish uchun institutsional shart-sharoitlar va moddiy bazani yaratish uchun vaqt, yetarli kuch va moliyaviy qo'yilmalar kerak bo'ladi. Yaqin kelajakda O'zbekiston uchun kerakli sharoitlarni yaratish qiyin bo'ladi. Shu sababdan bugungi kunda va yaqin istiqbolda sanoatni texnik jihatdan modernizatsiya qilishning asosiy kanali – xorij texnologiyasidan keng ko'lama foydalanishdir. 2000-yildan boshlab xorijdan keltirilayotgan tovarlarning ko'pi ishlab chiqarish-texnik ahamiyatidagi mahsulotlar.

Texnologik uskunalarini va liniyalarni sotib olish moslashish, modernizatsiya qilish, rivojlantirish bazasini yaratishni taqozo etadi. Buni amalga oshirish uchun aniq texnologiyalar majmuasini tanlash, uni joriy etish strategiyasini aniqlash va yaratilayotgan ishlab chiqarishda ishlashi uchun personalni tayyorlash kerak.

Yangi texnologiyalarni joriy etish bilan kechadigan modernizatsiya jiddiy tayyorgarlikni talab etadi – ishlab chiqarishni tarkibiy o'zgartirish, turli kategoriyadagi personalni malakasini oshirish va qayta tayyorlash. Tadqiqotlar va ishlanmalar sektori, yetakchi texnika oliygohlari – buning uchun tabiiy asosdir. Amaliy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini amalga oshirishni rag'batlantirish uchun qator iqtisodiy mexanizmlar ko'zda tutiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 15-iyuldagagi “Innovatsion loyihamlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaroriga asosan:

Xo'jalik subyektlari bilan tuzilgan amaliy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini bajarish qismi bo'yicha ta'lif va ilmiy tadqiqot muassasa va tashkilotlari uch yilgacha daromad solig'i, yagona soliq to'lovi, qo'shilgan qiymat solig'i va davlat maqsadli fondlariga majburiy to'lovlardan (yagona ijtimoiy to'lovdan tashqari) ozod qilingan.

Shu nuqtai nazardan qaraganda yirik korxonalar va ishlab chiqarish birlashmalarida texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning texnik auditini o'tkazish, korxonalarga zamonaviy va jahon miqyosda muvvafaqiyatlari sinovdan o'tgan texnologiyalarni jadal joriy etish orqali mamlakatimizning sanoat salohiyatini yanada mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 15-martdagagi “Yirik korxonalar va ishlab chiqarishlarda texnologik asbob-uskunalar va texnologiyalarning texnik auditini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 72-sonli qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, yirik korxona va ishlab chiqarish birlashmalarida texnik audit o'tkazish bo'yicha maxsus dastur tasdiqlanib, unga asosan, iqtisodiyot tarmoqlarida faoliyatni amalga oshiradigan yirik korxona va ishlab chiqarish birlashmalarida 2011-yilda texnik audit o'tkazish bo'yicha tarmoq ishchi guruhlari tashkil qilindi. Ishchi guruhlarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilandi:

- asosiy ishlab chiqarish fondlarining zamonaviy talablarga muvofiqligini xatlovdan o'tkazish va shu asosda foydalanishdan bosqichma-bosqich chiqarilishi kerak bo'lgan eskirgan va energiyani ko'p talab qiladigan texnologik asbob-uskunalar, ma'naviy eskirgan texnologiyalarning aniq ro'yxatini belgilash;

- foydalanadigan texnologik asbob-uskunalarning normativ-texnik hujjatlarini, tarmoqni rivojlantirishning uzoq muddatli konsepsiyasini hisobga olgan holda, zamonaviy raqqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati bo'yicha o'rganish;

- tarmoq ishchi guruhlariiga ekspertiza o'tkazish va eng maqbul qarorlar ishlab chiqish uchun korxona va xo'jalik birlashmali mablag'lari hisobidan ixtisoslashtirilgan loyiha institutlari, injiniring va konsalting kompaniyalari, asbob-uskunalar, texnologiyalar, jihozlar va vositalar ishlab chiqaradigan zavodlarning mutaxassis va ekspertlarini jaib etish.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'lami tobora kengayib borayotgan ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyalashuvi jarayoniga bugun ilmiy-texnologik yangiliklarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan barcha tuzilmalar - O'zbekiston Fanlar akademiyasi institutlari, oliv va o'rta maxsus o'quv yurtlari, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, korxonalarning texnologik va konstrukturlik bo'limlari jalg etilmoqda. Xo'jalik yurituvchilar va olimlar o'rtasidagi bevosita aloqa mexanizmi, ularmi tarmoqlar va korxonalar ehtiyojlari, mavjud istiqbolli yangiliklar haqidagi zarur axborot bilan ta'minlash yil sayin takomillashib borayotir. Endi ular bu boradagi yo'lga qo'yilgan aloqalar tufayli yil davomida o'zaro hamkorlik qilish imkoniyatiga ega. Bu esa, o'z navbatida, shartnomalarni yanada sinchkovlik bilan qayta ishlab chiqish, ularmi amalga oshirish uchun zarur resurslarni oldindan ajratish imkonini beradi.<sup>42</sup>

Iqtisodiyotning tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish va ishlab chiqarishni diversifikasiya qilishga ko'maklashadigan davlat dasturlari asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda<sup>43</sup>:

- umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari va xo'jaliklararo yo'llar qurilishi, ta'mirlanishi va qayta jihozlanishi;
- temir yo'llar qurilishi va elektrlashtirilishi;
- elektr stansiyalarini modernizatsiya qilish, yuqori voltli elektr uzatish tarmoqlarini qurish va ta'mirlash;
- gaz uzatish tizimi va gaz taqsimlash liniyalarini qurish va kapital ta'mirlash;
- xomashyo komponentlarini ishlab chiqarish maqsadida yirik sanoat korxonalari qurilishini moliyalashtirish;
- mahalliy butlovchi qismlar ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish;
- yangi texnologiyalar rivojlantirilishiga ko'maklashish va ilm-fan va sanoat o'rtasida o'zaro aloqalarni ta'minlash;
- logistika markazlarini rivojlantirish.

Iqtisodiyotni va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni jadallashtirish hamda ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish bo'yicha islohotlar bevosita davlatimiz tomonidan, milliy korporatsiyalar, kompaniyalar, korxonalarning o'z mablag'lari va AQSHning "Jeneral Motors", "Teksako", Germaniyaning "MAN", "Daymler Bents", "Klaas", Buyuk Britaniyaning "BAT", Ispaniyaning "Maksam", Yaponiyaning "Isuzu", "Itochu", Malayziyaning "Petronas", Koreyaning "Korean Air", "CNOC", "LG", Xitoyning "CNPC", Rossianing "Lukoil", "Gazprom" kabi jahondagi eng yirik va mashhur kompaniyalar, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlari investitsiya banklari hamkorligida amalga oshirilmoqda.

<sup>42</sup><http://tashkent.uz>, <http://anons.uz> saytlari ma'lumotlari.

<sup>43</sup> Salimov A. Hududlarda sanoati rivojlantirishning asosiy omillari, ishlab chiqarishni qayta jihozlash va modernizatsiya qilish, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishini kengaytirishda mahalliy hokimliklarni vazifalari. //Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari rahbarlarining mintaqaviy seminari. -T., 2010.

Keyingi yillarda mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdag'i ulushini kengaytirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soladigan 50 dan ortiq huquqiy hujjat qabul qilindi, jumladan, "Konsessiyalar to'g'risida"gi, "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi, "Chet elliq investorlar huquqlarining kafolatlari va ulami himoya qilish choralar to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi, "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonunlar ayni shu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda respublikamiz iqtisodiyotining deyarli barcha tarmoq va sohalarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash tadbirlarining keng ko'lamma amalga oshirilishi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Biroq, bu boradagi jiddiy muammo – mahsulotlarimiz tannarxining yuqori darajada qolayotganligi ularning raqobatdoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Tarixiy-formatsion yondoshuv, madaniylashish (sivilizatsiya) darajasi jihatdan yondoshuv, texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondoshuv, sotsial-iqtisodiy shakllar o'zgarishi jihatidan yondoshuv, ishlab chiqarish usuli, ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya, texnologik yondoshuv, ishlab chiqarishning texnologik usuli, oddiy kooperatsiya, manufaktura, yirik mashinalashgan ishlab chiqarish, an'anaviy iqtisodiyot, iqtisodiy tizim, ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyoti, bozor iqtisodiyoti tizimi, erkin raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti, hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bosqichlarini bilishga bo'lgan qanday yondashuvlar mavjud?
2. Tarixiy-formatsion yondoshuvning asosini nima tashkil qiladi?
3. Texnika va texnologik taraqqiyot darajasi jihatidan yondoshuvning o'ziga xosligi nimada?
4. Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya nima?
5. Oddiy kooperatsiya bilan manufakturaning farqi nimada?
6. Iqtisodiy tizim ning qanday modellari mavjud?
7. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotining kamchiligini tushuntirib bering.

## **6-bob. BOZOR IQTISODIYOTI IQTISODIY TARAQQIYOTNING GAROVI SIFATIDA**

### **6.1. Bozor, uning vazifa va turlari**

Bozor – ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar (sotuvchilar va xaridorlar) o'rtasida pul orqali ayirboshlash jarayonida vujudga keladigan munosabatlar majmuasi.

Bozoring asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- sotuvchi va xaridorlarning o'zaro kelishuvi, ekvivalentlilik printsipi asosida ayirboshlash;

- sotuvchilarning xarajatlari qoplanib, foyda olishi;

- to'lovga layoqatli bo'lgan xaridorlarning talabini qondirish va raqobatchilik.

Bozor tovarlarni ishlab chiqarish va ayirboshlash, pulning vujudga kelishi, ularning rivojlanishi natijasida kelib chiqqan tarixiy tushuncha bo'lib, hozirgi davrda keng tarqalgan obyektiv iqtisodiy jarayondir.

Bozoring iqtisodiy mazmunini ochib berishda uning obyekti va subyektini ajratib ko'rsatish lozim bo'ladi. Bozor obyekti - ayirboshlash munosabatlarga jalb qilingan iqtisodiy faoliyat natijalari va iqtisodiy resurslar, tovar, pul va unga tenglashtirilgan moliyaviy aktivlar. Bozor subyekti – ayirboshlash munosabatlari qatnashchisi. Bozor subyektlari ikki guruhga – sotuvchi va xaridorlarga bo'linib, ular bozor munosabatlарining turli vazifalarini bajaradi.

Bozoring asosiy vazifasi ishlab chiqaruvchilar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlarni, iqtisodiy resurslarni iste'molchilarga yetkazib berishdan iboratdir. Bu yerda bozor ishlab chiqarish bilan iste'molni bir-biriga bog'laydi, ishlab chiqarilgan tovar yoki xizmat o'z iste'molchisini topadi. Bunda bozor vositachi bo'lib xizmat qiladi. Bozorda qiymat shakllari almashadi. U qiymatni tovar shaklidan pul shakliga aylantiradi. Individual mehnat sarflari sifatida chiqqan tovarlar bozor tomonidan tan olinsa, ijtimoiy mehnat sarfini namoyon qiladi va tovarning bozor qiymati hosil bo'ladi. Shuningdek, adabiyotlarda bozorning boshqa ko'plab qo'shimcha vazifalari ham keltiriladi. Bu vazifalarni yaqqolroq tasavvur etish uchun ulami maxsus chizma ko'rinishida ifodalash mumkin (6.1.1-chizma).



#### **6.1.1-chizma. Bozoring vazifalari**

Bozor turli xil vazifalarni bajarsa-da, ular o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladi. Bozoring iqtisodiy mazmunini chuqurroq tushunish uchun uning turlari va ichki tuzilishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Hozirgi davrda bozor murakkab tuzilishga egadir. Bozorning ichki tuzilishi murakkab bo'lganligi sababli uni turkumlashga quyidagi mezonlar asos qilib olinadi: bozorning etuklik darajasi, sotiladigan va sotib olinadigan mahsulot turi, bozor subyektlari xususiyatlari, bozor miqyosi, iqtisodiy aloqalar tavsifi va boshqalar.

Bozorning **yetuklik darajasiga qarab** rivojlanmagan bozor, erkin (klassik) bozor, hozirgi zamon rivojlangan bozorlarga bo'linadi. **Rivojlanmagan, shakllanayotgan bozor tasodifiy tafsifga ega bo'lib, unda tovarni tovarga ayirboshlash** (barter) usuli ko'proq qo'llaniladi. Bozorning bu turi tarixan hali haqiqiy pul mavjud bo'limgan davrga to'g'ri keladi. Lekin hozirgi davrda ham ayrim mamlakatlarda pul inqirozga uchrab, ijtimoiy ishonchni yo'qotgan, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ham bozorning bunday turi amal qilishi mumkin.

**Erkin (klassik) bozor – tovar va xizmatlarning har bir turi bo'yicha juda ko'p ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar, sotuvchilar va xaridorlar mavjud bo'lib, ular o'rtaida erkin raqobat amal qiluvchi, narxlar talab va taklif o'rtaсидаги nishbatga qarab erkin shakllanuvchi bozordir.** Erkin bozorda raqobatning turli usullari qo'llanilib, aholi va ishlab chiqaruvchilar keskin tabaqalanishi ro'y beradi.

Hozirgi zamon rivojlangan bozori ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash va aholini ijtimoiy himoyalash maqsadida bozor aloqalarining davlat tomonidan tartibga solib turilishiga asoslanadi. Demak, davlat ham bozor ishtirokchisi bo'lib, u bozor aloqalarini tartiblashtiradi va boshqaradi. Hozirgi zamon rivojlangan bozorida turli xil birjalar va boshqa oldi-sotdi jarayoniga xizmat qiluvchi sohalar taraqqiy etgan bo'ladi. Raqobatning asoratli kurashlari, aholining tabaqalashuvi yumshatilib, ularning daromadlari o'rtaсидаги tafovutlar me'yor darajasida ushlab turiladi.

Bozor **hududiy jihatdan** ham turlicha bo'lishi mumkin. Bular mahalliy bozorlar (Toshkent bozori, Samarqand bozori, Urgut bozori, London bozori, Nyu-York bozori, Pekin bozori va boshqalar); milliy bozorlar (O'zbekiston bozori, Rossiya bozori, Ukraina bozori, Angliya bozori, Amerika bozori, Xitoy bozori va boshqalar); hududiy bozorlar (Markaziy Osiyo yoki Osiyo bozori, G'arbiy Yevropa bozori) va niyatoy jahon bozori.

**Sotiladigan va sotib olinadigan tovar, xizmat turiga ko'ra** bozorlar quyidagi turlarga bo'linadi: iste'mol tovarlari va xizmatlari bozori, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchi (resurslar) bozori, valyuta bozori va fond birjalari, ilmiy-texnika kashfiyoti va ishlanmalar bozori.

**Muomalaga chiqadigan subyektlarning xususiyatiga** ko'ra ulgurji va chakana savdoni ajratish mumkin. Chakana savdoda, asosan, sotib oluvchilar fuqarolar hisoblanadi. Turli shakldagi korxonalar, firmalar, xususiy do'konlar va boshqalar esa sotuvchi hisoblanadi. Ulgurji savdoda mahsulotlar yirik partiyalarda ko'tarasiga sotiladi.

Bozorning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lib **iste'mol tovarlari va xizmatlar bozori** hisoblanadi. Bu bozorda xo'jalik subyektlarining barcha uchta turi: uy xo'jaliklari, davlat va korxonalar qatnashadi.

**Iste'mol tovarlari va xizmatlari** bozorining maxsus turi **intelлектуал tovarlar bozoridir.** Bu bozorda aqliy mehnat mahsuli bo'lgan tovarlar - ilmiy g'oyalar, texnika yangiliklari, san'at va adabiyot asarlari, har xil axborotlar oldi-sotdi qilinadi.

Intellektual bozor tarkibida ilmiy-texnika ishlamalarini ayriboshlash katta o'ren tutadi. U amalda patent, litsenziya va nou-xau sotishdan iborat bo'lib, bu bozorda asosan, innovatsiya firmalari ish ko'radi. Mazkur firmalar yangiliklar yaratish, bozorda sotish va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha xizmat ko'rsatadi.

**Ishlab chiqarish vositalari (resurslar) bozorida** tovar sifatidagi mehnat vositalari va materiallar oldi-sotdi qilinadi. Bu bozorda mashina, asbob-uskuna, xomashyo, yoqilg'i va materiallar kabi ishlab chiqarish vositalari ulgurji ravishda soltiladi. Resurslar bozoridagi tovarlar shaxsiy iste'molga emas, ishlab chiqarish iste'moliga xizmat qiladi, ya'ni ishlab chiqarish talabini qondiradi.

Iqtisodiy resurslar bozorining tarkibiy qismini ishchi kuchi bozori tashkil qiladi. Ishchi kuchi bozorida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan iqtisodiy resursning oldi-sotdi bitimi amalga oshiriladi. Bu bozorda biznes tomonidan ishchi kuchiga bo'lgan talab, uy xo'jaliklari tomonidan bildirilgan ishchi kuchi taklifi bilan to'qnash keladi. Shunday ekan, ishchi kuchi bozorida iqtisodiy subyektlarning ikki turi – tadbirkorlar va yollanma ishchilar harakat qiladi. Ishchi kuchi insonning mehnat qilish qobiliyatni sifatida tovarga aylanadi, bu qobiliyat bozor orqali uning egasidan ajratib olinishini bildirmaydi. Ishchi kuchi bozorida insonning o'zi emas, uning mehnat qilish qobiliyatni ma'lum muddatga soltiladi.

Moliya bozori turli-tuman va ko'p jihatli bo'lsa ham oldi-sotdi obyekti bitta, ya'ni pul (pulga tenglashtirilgan qog'ozlar) hisoblanadi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lgan xo'jalik subyektlari o'z moliyaviy resurslarini ularga ehtiyoj sezgan subyektlarga taklif qiladi.

Moliya bozorini moliyaviy bitimlarning harakatiga qarab turkumlash mumkin. Bunda moliya bozori ikkiga ajraladi: qarz majburiyatları bozori va kapital (mulk) bozori. Qarz majburiyatları bozorida pul vaqtinchalik qarzga olinadi va shaxsiy iste'mol uchun ishlatiladi. Kapital (mulk) bozorida jamg'arishga qo'yilgan puldan daromad olish huquqi soltiladi va sotib olinadi. Bu bozorda mablag'lar kapital sifatida ishga solinib, foyda keltiradi. Shuni hisobga olib kapital bozorini ikkita bo'g'inga ajratish mumkin: ssuda kapitali bozori va qimmatli qog'ozlar bozori. Ssuda kapitali bozori – pul shaklidagi kapitalning % to'lash sharti bilan qarzga berish bo'yicha oldi-sotdi munosabatidir. Bu bozorda asosan davlat va banklarning qisqa muddatli majburiyatları muomalada bo'ladi.

**Qimmatli qog'ozlar bozori** – turli ko'rinishdagi qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiya, veksel, chek, depozit kabilari)ning oldi-sotdi munosabati. Mazkur bozor amalda fond birjalari, auksionlar va banklardan iborat bo'lib, unda broker va dilerlar vositachilik qiladi. Qimmatli qog'ozlarning harakati xususiyati bo'yicha moliya bozori birlamchi va ikkilamchi (hosila) bozorlarga bo'linadi. Birlamchi bozorda yangi nusxadagi qog'ozlar soltiladi va sotib olinadi, ikkilamchi bozorda oldin chiqarilgan qimmatli qog'ozlar harakat qiladi. Birlamchi bozorda qimmatli qog'ozlar sotilsa, ikkilamchi bozorda qayta soltiladi. Iqtisodiyot uchun qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori favqulodda muhim ahamiyatga ega. U xo'jalik subyektlari o'tasida moliyaviy vositalarning erkin harakat qilishini ta'minlaydi.

## **6.2. Bozor iqtisodiyoti – tovar xo‘jaligi tashkil etishning iqtisodiy asosi**

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti dunyoning ko‘pchilik mamlakatlari uchun xos bo‘lib, u turli mamlakatlarda har xil darajada va o‘ziga xos xususiyatlar bilan amal qilmoqda va rivojlanmoqda.

Ishlab chiqarishning mustaqilligi, tadbirkorlikning erkinligi, resurslar erkin almashtinuvining ta’minlanishi bozor iqtisodiyotini samarali amal qilishining muhim shartlari bo‘lib hisoblanadi. Tovar ishlab chiqaruvchi qanchalik mustaqil bo‘lsa, bozor ham shu darajada yaxshi rivojlanadi. Erkin ayirboshlash tovar ishlab chiqaruvchi faoliyatining nisbatan samarali yo‘nalishlarini ko‘rsatib beruvchi erkin narxlarning shakllanishiga imkon yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti – bu tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir. Bunday iqtisodiyot erkin tovar-pul munosabatlariiga asoslanib, uning negizida tovar va pulning turli shakllardagi harakati yotadi, u iqtisodiy monopolizmni inkor etadi.

Bozor iqtisodiyoti subyektlari tarkibiga tadbirkorlar ham, o‘z mehnatini sotuvchi ishchilar ham, pirovard iste’molchilar, ssuda kapitali egalari va qimmatli qog‘ozlar egalari ham kiradi. Odatta, bozor xo‘jaligining barcha asosiy subyektlari uchta guruhga bo‘linadi: uy xo‘jaliklari, korxonalar (tadbirkorlik sektori) va davlat sektori.

**Uy xo‘jaliklari – iqtisodiyotning iste’mol sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik.** Uy xo‘jaliklari doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida yaratilgan tovar va xizmatlar iste’mol qilinadi. Bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaliklari mulk egasi hamda ishlab chiqarish omillarini yetkazib beruvchilar hisoblanadi. Iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish uchun sarflanadi.

**Tadbirkorlik sektori – bu iqtisodiyotning daromad (foyda) olish maqsadida amal qiluvchi birlamchi bo‘g‘indir.** U ish yuritish uchun o‘z kapitalini yoki qarz olingan kapitalni ishga solishni taqozo etadi, bu kapitaldan olingan daromad ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun sarflanadi. Tadbirkorlar tovar xo‘jaligida tovar va xizmatlarni yetkazib beradi.

Davlat sektori – o‘z oldiga foya olishni maqsad qilib qo‘ymagan, asosan, iqtisodiyotni tartibga solish vazifasini amalga oshiradigan turli byudjet tashkilotlari va muassasalarining majmui.

Shuningdek, ba‘zi darslik va o‘quv qo‘llanmalarda bozor iqtisodiyotining yana bir alohida, mustaqil subyekti sifatida banklar ajratib ko‘rsatiladi<sup>4</sup>.

**Bank – iqtisodiyotning me’yorda amal qilishi uchun zarur bo‘lgan pul massasi harakatini tartibga soluvchi moliya-kredit muassasasi.**

Bozor iqtisodiyotining muhim va umumiy belgilari quyidagilardan iborat:

- turli shakllardagi mulkchilikning mavjud bo‘lishi va unda xususiy mulkchilikning ustun turishi;
- tadbirkorlik va tanlov erkinligi;
- raqobat kurashining mayjudligi;

<sup>4</sup> Экономическая теория (политэкономия): Учебник/Под общ. ред. акад. В.И.Видяллина, акад. Г.П. Журавлевой. – 4-е изд. – М.: ИНФРА-М, 2004. 78-79 стр.; Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazarivasi: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma/Akad. M.Sharifxo‘jayevning ilmiy tahriri ostida. – Т.: O‘qituvchi, 2002, 74-б.

- davlatning iqtisodiyotga cheklangan holda aralashuvi;
- korxona va firmalarning ichki va tashqi shart-sharoitlar o'zgarishlariga moslashuvchanligi.


Bozor iqtisodiyotining bu belgilari uning barcha bosqichlari uchun umumiyyidir. Lekin bozor iqtisodiyotining mazmuni va belgilari haqida gap borganda bu iqtisodiyotning tarixan tarkib topgan ikki turini bir-biridan farq qilish zarur. Uning birinchi ko'rinishi uzoq vaqt davomida shakllanib, g'arbdagi rivojlangan mamlakatlarda XIX asming oxirlarigacha davom etib keldi. U iqtisodiy adabiyotlarda **klassik yoki sof bozor iqtisodiyoti** deb nom oldi. Uning asosiy belgilari: a) iqtisodiy faoliyat yuritishning xususiy mulkchilikka asoslanganligi; b) kapital va ishlab chiqarishning korxona miqyosida umumlashganligi; v) tadbirkorlar, ishchilar, tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar ning shaxsan erkinligi; g) tadbirkorlarning yuqori foyda olish uchun kurashlari; d) iqtisodiyotning talab va taklif, erkin bozor narxi va raqobat kurashlari asosida tartiblanishi; e) aholining ijtimoiy himoya qilinmasligi, ishsizlikning va aholi ijtimoiy tabaqaqlashuvining kuchayishi.

Bozor iqtisodiyotining ikkinchi ko'rinishi **hozirgi zamon rivojlangan bozor iqtisodiyoti** deb atalib, XIX asming oxiri va XX asr boshlaridan buyon amal qiladi. Uning asosiy belgilari:

- iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyatini yuritishning turli mulkchilik shakllari, ya'ni xususiy, davlat, jamao, aralash va boshqa mulk shakllariga asoslanganligi;
- kapital va ishlab chiqarishning yuqori darajada umumlashganligi, mulknинг bir qismi yirik monopoliyalar va davlat qo'lida to'planib, milliy va xalqaro miqyosda umumlashganligi;
- v) iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning faol ishtiroki.
- g) xo'jaliklarni yuritishda reja usulidan foydalanishning kuchayishi (biznes rejasi, marketing tizimi orqali boshqarish);
- d) ijtimoiy himoyaning kuchayishi.

Bu har ikkala turda bozor iqtisodiyotining asosiy belgilari va xususiyatlari saqlanib qoladi, ularda tovar va pulning harakati, ularning qonun-qoidalari rivojlanish uchun negiz va shart-sharoit bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi zamon bozor xo'jaligi iqtisodiyotdagi xususiy va davlat sektorlarning o'zaro aloqasiga asoslanadi. Iqtisodiyotga ta'sirning intensivligi darajasi hamda davlat tomonidan hal etiluvchi ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda, zamonaviy bozor iqtisodiyotining quyidagi modellari farqlanadi (6.2.1-chizma).

Bozor iqtisodiyotida yuqorida tilga olingen belgi va tartiblar bilan birga, barcha hozirgi zamon iqtisodiy tizimlariga xos bo'lgan bir qator shart-sharoitlar bo'lishi taqozo qilinadi. Bular quyidagilar: ilg'or texnologiya va yangi texnik vositalardan keng miqyosda foydalanish; ishlab chiqarishning ixtisoslashishi.



### 6.2.1-chizma. Zamonaviy bozor xo'jaligi modellari

Mavjud iqtisodiy tizimlar orasida bozor iqtisodiyoti o'zining afzalliliklari bilan ajralib turadi. Aynan shu afzalliliklar mazkur iqtisodiy tizimning samarali va barqaror amal qilishi, rivojlanishiga zamin yaratadi. Eng avvalo, bozor iqtisodiyotining uchta ustun jihatini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**1. Resurslarni taqsimlashning samaradorligi.** Bozor tizimi resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Buning mazmuni shuki, raqobatli bozor tizimi resurslarni jamiyatga eng zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishga yo'naltiradi. U ishlab chiqarish uchun resurslarni uyg'unlashtirishning ancha samarali usullarini va ishlab chiqarishga yangi, ancha samarali texnologiyani qo'llashni taqozo etadi. Qisqasi, bozor tizimi shaxsiy manfaatni Shunday tartibda boshqaradiki, u jamiyat uchun mavjud resurslardan zarur tovarlarni talab darajasidagi miqdorda ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

**2. Iqtisodiy faoliyat va tanlov erkinligi.** Bozor iqtisodiyoti tizimining muhim afzalliklaridan biri Shundaki, u shaxsiy erkinlik roliga ustuvorlik beradi. Ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil qilishning asosiy muammolaridan biri bo'lib alohida shaxs va korxonalar iqtisodiy faoliyatini uyg'unlashtirish hisoblanadi. Bunday uyg'unlashtirishni amalga oshirishning ikki usuli mavjud. Birinchisi – markazdan boshqarish va majbur qilish tadbirlarini qo'llash bo'lsa, ikkinchisi – bozor tizimi vositasи orqali ixtiyoriy hamkorlikdir. Faqat bozor tizimigina iqtisodiy faoliyatni

majbur qilmasdan uyg'unlashtirishga layoqatlidir. Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlik va tanlash erkinligini namoyish qilib, aynan shu tufayli u muvaffaqiyatga erishadi.

### **3. Iqtisodiy subyektlar tinimsiz harakat va izlanishlarining ta'minlanishi.**

Bozor iqtisodiyotining yana bir afzalligi shundaki, unda har bir shaxs, korxona, firma va koorporatsiyalar tinimsiz harakatda va izlanishda bo'lishadi. Chunki xo'jasizlik, sustkashlik, beg'amlik har qanday xo'jalik tizimini xonavayron qilishga olib keladi. Jismoni va yuridik shaxslar raqobatga bardosh berish, doimiy ravishda foyda olishni ta'minlash uchun kurashadi. Natijada bozor iqtisodiyoti million-million kishilarni xarakatga soladi, ularni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi.

Bozor iqtisodiyotning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy afzalliklari bilan bir qatorda boshqa ko'plab **ijobiy jihatlarini** ham sanab o'tish mumkin. Jumladan:

- uning ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvi va ko'nikishining yuqori darajasi;
- fan va texnika yutuqlaridan foydalanish, ularni ishlab chiqarishga joriy etishning jadal sur'ati;
- turli-tuman ehtiyojlarni qondirish, mahsulot sifatini oshirish qobiliyati;
- buzilgan muvozanatni nisbatan tezlik bilan qayta tiklash;
- cheklangan axborot – turli resurslarning narx darajasi va ularning sarflanish darajasiga yo'nalgan holda bozor iqtisodiyotining muvaffaqiyatli amal qila olish imkoniyati.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bozor iqtisodiyotining ham o'ziga xos kamchilik va ziddiyatlari mavjud. Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyati shundan iboratki, u o'zining bosh nazorat mexanizmi - raqobatning kuchsizlanishiga yo'l qo'yadi va hatto buni rag'batlantiradi. Bunday iqtisodiyotda raqobat kuchsizlanishining ikkita asosiy manbai mavjud:

1) bozor iqtisodiyoti sharoitidagi erkin muhitda tadbirkorlar foyda ketidan quvib va o'z iqtisodiy mavqelarini yaxshilashga intilib, raqobatning cheklangan yo'lidan ozod bo'lishga harakat qiladilar. Firmalarning qo'shilib ketishi, kompaniyalarning xufyona kelishuvi, raqobatlashuvning noqonuniy usullari (masalan, jismoni kuch ishlatish, zo'ravonlik, tazyiq o'tkazish va h.k.)ni qo'llash – bularning barchasi raqobatning kuchsizlanishi va uning tartibga soluvchilik ta'sirining pasayishiga olib keladi;

2) bozor tizimi **rag'batlantiradigan texnika taraqqiyoti** ham raqobatning zaiflashishiga olib keladi. Eng yangi texnologiya, odatda: a) juda katta miqdordagi real kapitaldan foydalanishni; b) yirik bozorlar bo'lishini; v) kompleksli, markazlashgan va qat'yan bir butun bo'lib birlashgan bozorning tarkib topishini; g) boy va ishonchli xomashyo manbalarini talab qiladi. Bunday texnologiya bozorning hajmiga nisbatan keng miqyosdag'i hisoblanuvchi ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishi zarurligini bildiradi. Boshqacha aytganda, eng yangi texnologiyani qo'llash asosida ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligiga erishish, aksariyat hollarda ko'p miqdordagi mayda firmalar emas, uncha ko'p bo'limgan yirik ishlab chiqaruvchilar mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

Bozor tizimi jamiyatning yuqori ehtiyojli tovarlar bilan ta'minlanishiga ham kafolat bermaydi. Raqobatning kuchsizlanib borishi iste'molchining erkinligiga ham

putur yetkazadi. Bozor tizimi o'zining iste'molchining xohishiga ancha mos keluvchi resurslarni taqsimlash layoqatini ham yo'qotib borishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotning navbatdagi ziddiyati jamiyat a'zolari daromadlaridagi tengsizlikning kuchayib borishi va aholining tabaqalanishi bilan bog'liq. Bunday iqtisodiyot har qanday yuksak darajada rivojlanmasin daromadlar tengsizligini bartaraf qila olmaydi, faqat uni ma'lum darajada yumshatish mumkin.

Bozor iqtisodiyotining umumiy e'tirof qilingan kamchiliklaridan yana biri shundan iboratki, u ijtimoiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarib, bozorga taklif qilishga qodir emas. Shu sababli jamiyat a'zolarini bunday ne'matlar va xizmatlar bilan ta'minlash davlat zimmasida bo'ladi.

Tovarlar hajmi bilan pul massasi o'rtasidagi ro'y berib turadigan nomuvosfiqlikni bartaraf eta olmaslik ham bozor iqtisodiyotining ziddiyati hisoblanadi. Bu pulning qadrsizlanishi, ya'ni inflyatsiya jarayoni orqali namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining asosiy ziddiyatlari bilan bir qatorda quyidagi **kamchilik yoki salbiy jihatlari** ham mavjud:

- atrof-muhitni ishlab chiqarish va boshqa faoliyat turlari ta'siridan muhofaza qilish mexanizmining mavjud emasligi;
- resurslarning qayta tiklanmaydigan turlarini saqlash imkoniyatining yo'qligi;
- mehnat qilish bilan bog'liq kafolatlarning mavjud emasligi;
- fanda fundamental va amaliy tadqiqotlarning rivojlanishiga ko'maklashuvning yo'qligi;
- rivojlanishning beqarorligi hamda ijtimoiy ishlab chiqarishning pasayish holatlarining mavjudligi<sup>45</sup>.

Shuningdek, 2008-yilda AQSh ipoteka kreditlash tizimida vujudga kelgan hamda ko'plab rivojlangan mamlakatlarga tarqalib, avval iqtisodiyotning moliyaviy sektorida, keyinchalik esa real sektor hamda ijtimoiy sohasida jiddiy talofatlarga olib kelgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham ko'p tomonidan bozor iqtisodiyotining ziddiyatlari jihatlari ta'siri bilan bog'liq. Aksariyat rivojlangan mamlakatlarda bozorning o'zini-o'zi tartiblash mexanizmini mutlaqlashtirish va bunda davlatning nazorat qilish, tartibga solish vazifalariga umuman e'tibor qaratmaslik pirovardida inqiroz holatlarining ro'y berishiga olib keldi. O'zbekistonda davlat tomonidan bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni tartibga solish jarayonlariga doimiy e'tibor qaratalib, zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi<sup>46</sup>.

### 6.3. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti

Bizning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz respublikaning o'ziga xos tur mush shart-sharoitlari va xususiyatlarini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslangan. Ayni paytda, bizning yo'l-jahon amaliyotida to'plangan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar orttirgan ijobji tajribalarni ham hisobga oladi.

<sup>45</sup>Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2005, 109-130-b.

<sup>46</sup>Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009, 8-b.

O'zbekiston tanlab olgan yo'l - respublika va uning xalqi manfaatlariga mos keladigan, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiyotdir. Bozor munosabatlari o'tish insонning ijodiy va mehnat salohiyatini namoyon qilishdagi, boqimandalikni bartaraf etishga, yo'qolib ketgan egallik tuyg'usini qayta tiklashga imkon beradi. Faqat bozorgina mahsulot ishlab chiqaruvchining hukmini bartaraf etib, respublikaning g'oyat katta boyliklaridan samarali foydalanishni ta'minlay oladi.

Ijtimoiy sohaga: maorif, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, madaniyat va san'at, uy-joy communal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, chakana savdo va umumiyoq qatlaniш, jismoniy tarbiya, sport va boshqa tarmoqlar kiradi.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlari bu eng avvalo inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir.

Shunday qilib, biz komil ishonch bilan aytal olamizki, mustaqillik yillari mobaynida biz yangi jamiyat asoslarini yaratishga o'zgarishlar muqararligining negizini ta'minlashga muvaffaq bo'ldik.

Ijtimoiy sohaning asosiy mazmuni – aholi turmush farovonligini oshirish hisoblanadi. Aholining turmush farovonligi darajasi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmi bilangini emas balki ijtimoiy sohani rivojlantirish ahvoli, darajasi, asosan budgetli tibbiyotni, uy joy qurilishini rivojlantirish hamda xizmat ko'rsatishni tashkil qilish nazarda tutilgan qismi bilan ham bog'liq. Binobarin, iqtisodiyotni inson tomonidan beistisno har bir oilaning kundalik zaruriyati va hayotiy ehtiyojlari, aholining individual talablari tomoniga yo'naltirish ishlarimizning o'zagi bo'lib qolmoqda.

Ijtimoiy siyosat deganda muayyan davlat hokimiyatining ushbu soha bo'yicha o'z oldiga qo'yan vazifalarini va maqsadlarini amalga oshirish bilan bog'liq ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot siyosat turi tushuniladi. Bu siyosat bevosita aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq siyosat bo'lib unga:

- daromad siyosati;
- ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorini shakllantirish;
- aholiga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish sifatini yaxshilash kabi ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat turlari kiradi.

Ijtimoiy siyosatning obyekti bo'lib xizmat ko'rsatish sohasi: maorif, madaniyat va san'at, sog'liqni saqlash uy-joy communal xo'jaligi, savdo, umumiyoq qatlaniш, jismoniy tarbiya-sport, madaniyat va san'at, birjalar va dehqon bozorlari, ijtimoiy himoya va ta'minot, ijtimoiy sug'urta jamg'armalari, hayriya jamg'armalari va boshqalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilika erishgandan keyingi dastlabki kundayoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtisodiyotini qurishni maqsad qilib oldi. O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat o'tkazilishi davr taqazosi edi, desak xato bo'lmaydi. Chunki:

- sobiq Ittifoqning qator respublikalaridan farqli o'laroq, O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni ijtimoiy sharoiti og'ir, turmush darajasi ko'rsatkichlari past bo'lgan bir vaqtda boshlashiga to'g'ri keldi;

- Respublikada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul daromadlari, o'rtacha ish haqi, eng muhim oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish va nooziq ovqat tovarlari hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik darajasi jihatdan oxirgi o'rnlarda edi;

- 1990-yilda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, aholiga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko'rsatish hajmi bo'yicha respublika ko'rsatkichlari sobiq Ittifoq ko'rsatkichlarining 55-60 %idan oshmas edi;

- Aholining katta qismi, ayniqsa qishloq aholisi jamiyatda rasman e'lon qilingan qashshoqlikda yashardi. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, 1989-yilda jon boshiga hisoblanganda respublikalardagi oilalarning (respublikamizdagi) 44 %ining pul daromadi rasmiy belgilangan eng kam ish haqidan ham oz bo'lgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, O'zbekistonda kuchli ijtimoiy siyosat olib borilishi lozim, lekin qanday qilib? Bu y erda eng muhim muammolardan biri masalaning javobini tashkil qiladi, ya'ni, eng avvalo kam ta'minlangan tabaqaga yordam berish haqida davlat samarali siyosatni ishlab chiqishi lozim va bunga bog'liq holda kam ta'minlanganlik va kambag'allik tushunchalarini ta'riflab berish shart deb o'yaymiz. Har bir davlatning kam ta'minlanganligini belgilashning, ya'ni hisoblab aniqlashning o'ziga xos uslubi mavjuddir. Masalan: o'rtacha davlat pensiyasi Finlyandiyada 65 %, Norvegiyada 90 %, Buyuk Britaniyada 40 %, Yaponiyada 60 %, Ispaniyada 85 %, Italiyada 75 %, Fransiyada 50 %, Kanadada 45 % va Rossiyada 35 % ni tashkil qiladi. Respublikamizda ham aholi muhtojlik darajasiga qarab farqli guruhlarga ajratilgan: juda muhtojlar, muhtojlar, kam mulklilar va kam ta'minlanganlar.

Mamlakatda xizmat ko'rsatish sohalari aholining qandaydir ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq. Xizmatlarning hammasini ikkita yirik guruhga bo'lish mumkin:

- 1) Moddiy xizmatlar;
- 2) Ijtimoiy va ma'naviy xizmatlar.

Moddiy xizmatlar ishlab chiqarish tarmoqlarida yaratilgan mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berish bilan, ularni saqlash bilan bog'liq bo'lgan xizmatlardir. Masalan, savdo xizmatlari, aholiga maishiy xizmat ko'rsatishning ayrim turlari.

Ijtimoiy va ma'naviy xizmatlarga sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat muassasalarining xizmatlari, jismoniy tarbiya va sport, adabiyot, teatr, kino, muzeylar va boshqa tarmoqlarning xizmatlari va boshqalar kiradi.

Yetkazib berish usuli bo'yicha xizmatlar ikki guruhga bo'linadi:

- 1) Pulli xizmatlar;
- 2) Bepul xizmatlar.

Pulli xizmatlarga uy-joy kommunal xo'jalik xizmatlari, aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlari, savdo xizmatlar va hokazolar kiradi.

So'nggi yillarda respublikada kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni qo'llab - quvvatlash va rag'batlanadirish borasida hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan izchil tadbirlar, xizmat sohasidagi alohida olingen tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qator dasturiy yo'nalishlar xizmat ko'rsatish va servis sohasini,

shuningdek maishiy xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelmoqda. Davlatning ijtimoiy siyosati keng ma'noda hukumatning har qanday harakatini o'ziga kiritadi va ularning har birisi u yoki bu ma'noda ijtimoiy ahamiyat kasb etadi hamda bu davlatning ijtimoiy siyosatiga kiritilishi mumkin, uning ijtimoiy – iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy, ijtimoiy va boshqa tizimlarini aytish mumkin. Lekin davlat faoliyatining bunday keng aniqlanishi uni o'rganishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun biz ijtimoiy sohaga tegishli davlat faoliyatini o'rganamiz.

Davlatning ijtimoiy faoliyatini quyidagi uch turga kiritish mumkin:

1. Ijtimoiy ehsnlarni ishlab chiqish, ularning xususiy ishlab chiqarishini boshqarish va subsidiya qilish;
2. Ijtimoiy ehsnlarni sotib olish va yetkazish;
3. Daromadlarni qayta taqsimlash va transfert to'lovlarini amalga oshirish.

Ijtimoiy soha – bu davlat va jamiyatning ijtimoiy masalalar yechimiga qaratilgan faoliyatining mosligi, boshqacha qilib aytganda, barcha ijtimoiy dasturlarning mosligi. Shuningdek, ijtimoiy ehsnlarni amalga oshiruvchi davlat va jamiyat tashkilotlarining, məktəb, o'quv yurtlari, kasalxonalar, teatrлar, mehnat bo'lmlari, energiya tarmoqlari, suv, gaz tarmoqlari va boshqalar, ya'ni davlat qo'lidagi ijtimoiy infratuzilma. Ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi insoniy kapitalni investitsiyalash hisoblanadi, shaxsnинг ishlab chiqarish va ruhiy salohiyatini qo'llab - quvvatlash va rivojlantirish, ijtimoiy dasturlaridek, u soliq tushumidan moliyalashtirilib, ehsan hisoblanmaydi, vaqt o'tishi bilan bepul xizmat iste'molchilar bu harajatlarni to'ldiradilar. Bu barcha yo'nalişlilar, avvalambor, alohida shaxs va oilalarga pullik va bepul ijtimoiy yordamlarni o'z ichiga oladi, aholining alohida ijtimoiy guruqlarining boshqarilishiga tegib o'tadi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Bozor iqtisodiyoti, bozor mexanizmlari, bozor, bozor obyekti, bozor subyekti, bozor infratuzilmasi, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy xizmatlar, ijtimoiy soha, moddiy xizmatlar, ijtimoiy va ma'naviy xizmatlar.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Bozor iqtisodiyotining mazmuni va asosiy belgilari nimalardan iborat?
2. Klassik va hozirgi zamон bozor iqtisodiyotining umumiyl томонларини va farqlarini tushuntirib bering.
3. Bozor iqtisodiyotining afzalliklari va ziddiyatlari nimalardan iborat?
4. Bozor iqtisodiyotining asosiy ishtiroychilarini kimlar va ular o'rta sidagi iqtisodiy alopqlar qay tarzda kechadi?
5. Bozor tushunchasining ta'rifini bering va uning asosiy vazifalarini ko'rsating.
6. Bozorni turkumlashda qanday mezonlar asos qilib olinadi? Ularni sanab ko'rsating.
7. Yetuklik darajasiga qarab bozorning qanday turlari ajratiladi?

## **7-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA DAVLATNING ROLI: USTUVOR YO'NALISH VA VAZIFALARI**

### **7.1. Davlatning iqtisodiy siyosati: mazmuni, yo'nalishlari, tamoyillari va amalga oshirish mexanizmlari**

Mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog'liq. Chunki milliy iqtisodiyot taraqqiyotiga asosan quyidagi yo'llar orqali erishiladi:

- 1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo'llash;
- 2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;
- 3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish. Hozirgi davrda O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xususiyatlari hisoblanadi.

Ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan tizimdan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi quyidagi holatlar orqali izohlanadi.

Birinchidan, davlat milliy iqtisodiyotda o'zini o'zi bozor vositasida tartibga solish orqali bajarish mumkin bo'lmagan yoki samarali ravishda amalga oshirib bo'lmaydigan vazifalarni o'ziga oladi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va iste'molning xususiy tavsifi bir qator ijobiylari va salbiy oqibatlarini tug'diradi.

Uchinchidan, davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi shu sababli ro'y beradiki, individual iste'molchilar hamma vaqt u yoki bu tovarni iste'mol qilishning oqibatlarini obyektiv baholay olmaydilar. Shu nuqtai nazardan, davlat foydali iste'molni kengaytirish va aksincha sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tovarlar iste'molini cheklash vazifasini o'z zimmasiga oladi. Masalan, davlat tamaki mahsulotlari uchun yuqori aktsiz (egri) solig'inii o'rnatib, bir tomonidan o'zining daromadini oshirsa, boshqa tomonidan shu mahsulotga bo'lgan talabni cheklaydi.

To'rtinchidan, davlat bozorming tabiatidan kelib chiqadigan ayrim holatlarni qisman yengillashtirish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bozor hamma uchun to'lovga qobil talabni qondirishga teng imkoniyatni ta'minlaydi. Ammo bu bozor mexanizmining milliy boylikni ijtimoiy-adolatli taqsimlashini anglatmaydi. Bunday sharoitda davlat aholi kam ta'minlangan qatlaming turmush darajasi haqida g'amxo'rlik qilish, bepul (yoki imtiyozli) bilim berish, tibbiy xizmat ko'rsatish va shu kabilarni o'z zimmasiga oladi.


Beshinchidan, hozirgi sharoitda barqaror, izchil iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish vazifasi ham davlatning zimmasiga tushadi.

XX asrning 80-yillarda rivojlangan mamlakatlarda yangi konservativ konsepsiylar asosida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni cheklash jarayonlari boshlandi. Bunda tartibga solishning an'anaviy shakllaridan voz kechildi, davlat mulkini xususiylashtirish yo'lli bilan davlat sektori ulushi qisqartirildi, xo'jalik qarorlarini qabul qilishda nomarkazlashuv jarayonlari kuchaytirildi, iqtisodiyotdagi bozor mexanizmlarining ahamiyati oshirildi. Jumladan, AQShda bu tadbirlar

“Amerikaning yangi rivojlanish yo‘li: iqtisodiy jihatdan yangilanish dasturi” nomli yo‘nalish asosida amalga oshirilib, unda daromad solig‘i stavkalarining pasaytirilishi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish maqsadida yirik korporatsiyalar investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo‘llash, federal hukumat xarajatlarini cheklash, xususiy biznes faoliyatining davlat tomonidan tartibga solinishini kamaytirish, inflyatsiyaga qarshi pul-kredit siyosatini o‘tkazish ko‘zda tutilgan edi.

Biroq olib borilgan tadbirlar kutilgan natijani bermadi. Masalan, AQShda YalMDagi davlat sarflari ulushi 1980-yilda 22,6 % bo‘lsa, 1987-yilga kelib 27 % ga qadar o‘sdi. Davlat qarzlarini kamayish o‘rniga o‘sib ketdi, inflyatsiyaning pasayishi moliya tizimining izdan chiqishdan saqlab qola olmadi. Aksincha, inflyatsiyaning cheklanganligi uchun o‘sish sur’atlarining pasayishi, ishsizlikning o‘sishi, real ish haqining pasayishi kabi holatlar yuzaga keldi. Bunday jarayonlar Angliya, Yaponiya, Avstriya, Italiya va boshqa mamlakatlarda ham ro‘y berdi”.

90-yillardan boshlab iqtisodiyotni tartibga solishda keynscha tendentsiyalar yangidan kuchaya boshladi. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangi tipi davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarni ro‘yobga chiqarish, davlat tomonidan tartibga solishning moslashuvchanligini oshirish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aralashuv shakkari va byurokratik nazoratning kamayishi bilan tavsiflanadi. Davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi vazifasi zamonaviy bozor xo‘jaligining modellariga karab turilcha darajali ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi chizmada ham ko‘rishimiz mumkin:



### 7.1.1-chizma. Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellarida davlatning ahamiyati

<sup>4</sup> Основы экономической теории. Политэкономия: Учебник /Под ред. Д.Д. Москвина. – М.: Эдиториал УРСС, 2003, 392-393-стр.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning obyektiv asosi bo'lib ham milliy iqtisodiyot darajasida, ham xalqaro miyosda ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi negizida ishlab chiqarishning umumlashuvi jarayoni xizmat qiladi.

Bu jarayon quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- chuqurlashib borayotgan ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida ishlab chiqarish ixtisoslashgan tarmoqlarining o'zaro aloqasi va o'zaro bog'liqligi yanada kuchayadi;
- ishlab chiqarishning kooperatsiyalashuvi va markazlashuvi natijasida alohida xo'jalik birliklarining mayda bo'laklarga ajralib ketish holatlari barham topadi;
- ishlab chiqarishning yirik korxonalarda to'planuvi jarayoni o'sadi;
- turli iqtisodiy mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar va faoliyat almashuvi jadallahadi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish deganda davlatning jamiyat a'zolari ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiyligida iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha faoliyati tushuniladi.

Bozor xo'jaligi sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, ijro etish va nazarat qilish xususiyatidagi tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Hozirgi sharoitda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish takror ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bir qator vazifalarni hal qilishga qaratiladi. Bular jumlasiga iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, bandlikni tartibga solish, tarmoq va mintaqaviy tuzilmalardagi ijobji siljishlarni qo'llab-quvvatlash, eksportni himoya qilish kabilarni kiritish mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash va uni o'zgarib turuvchi sharoitga moslashтирish hisoblanadi.

Bu asosiy maqsaddan bir qator aniq maqsadlar kelib chiqadi. Ular jumlasiga iqtisodiy davrni barqarorlashtirish; milliy xo'jaliklarning tarmoq va mintaqaviy tuzilishini takomillashtirish, atrof-muhit holatini yaxshilash kabilarni kiritish mumkin. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi uning vazifalarida aniq namoyon bo'ladi. Bozor xo'jaligi sharoitida davlatning iqtisodiy vazifalari asosan bozor tizimining amal qilishini yengillashtirish va himoya qilish maqsadiga ega bo'ladi. Bu sohadagi **davlatning iqtisodiy vazifalaridan** quyidagi ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta'minlash;

2) raqobatni himoya qilish.

Davlatning boshqa vazifalari iqtisodiyotni tartibga solishning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Bu yerda **davlatning uchta vazifasi** alohida ahamiyatga ega:

1) daromad va boylikni qayta taqsimlash;

2) resurslarni qayta taqsimlash;

3) iqtisodiyotni barqarorlashtirish, ya'ni iqtisodiy tebranishlar vujudga keltiradigan inflyatsiya va bandililik darajasi ustidan nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish.

Davlat milliy iqtisodiyotni tartibga solishda bir qator usullardan foydalanadi. Bu usullarni umumlashtirib quyidagicha guruhash mumkin:

- bevosita ta'sir qilish usullari;
- bilvosita ta'sir qilish usullari;
- tashqi iqtisodiy usullar.

Davlat iqtisodiyotni bevosita tartibga solishda ma'muriy vositalardan foydalanadi. Ma'muriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga tayanadi va ta'qiqlash, ruxsat berish va majbur qilish xususiyatidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Tartibga solishning ma'muriy vositalardan foydalanilganda yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish ko'zda tutiladi. Ayniqsa ishlab chiqarish tanazzulga uchragan davrda iqtisodiyotga bilvosita ta'sir qilish tadbirlari kam samarali bo'lib, ma'muriy vositalardan foydalanishga ustunlik beriladi. Bu usullardan quyidagilarni alohida ko'rsatish mumkin:

**a) iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari – transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish.** Bunda davlat mulk sohibi va tadbirdor sifatida o'ziga qarashli korxona va tashkilotlar iqtisodiy hayotida faol qatnashadi. Davlat tadbirdorligi, ma'lum doirada amal qilib, ko'pincha texnologiya sharoiti xususiy kapital uchun qulay bo'limgan korxonalar doirasi bilan cheklanadi. Davlat tadbirdorligi bir tomondan, ma'lum sharoitlarda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lsa, ikkinchi tomondan vaqt o'tishi bilan samarasiz bo'lib qolishi ham mumkin. Bunday holda ular xususiy tadbirdorlik obyektiqa aylantiriladi.

Respublikada "iqtisodiyotni erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning boshqaruvchilik vazifalarini-funksiyalarini qisqartirish uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga, birinchi galda xususiy biznes faoliyatiga aralashuvini cheklash"<sup>44</sup> hisoblanadi;

**b) narxlar va ish haqini "muzlatib" qo'yish siyosati.** Bu iqtisodiyotga aralashishning antiinflyatsion tadbirlari hisoblanib, inflyatsiyani yumshatishga qaratiladi. Mazkur siyosatni yuritishda narxlar va ish haqini oshirish qonun bilan ta'qilandi yoki ma'lum doira bilan cheklanadi. Antiinflyatsion tadbirlar orqali inflyatsiya darajasini pasayishi investitsiyalarga rag'bat beradi;

**v) ish bilan bandlik xizmati faoliyati (mehnat birjalari)ni tashkil qilish.** Davlat bu faoliyatni tashkil qilish bilan ishsizlikni qisqartirish choralarini ko'radi. Ularni zarur kasblarga qayta tayyorlaydi, ish bilan ta'minlanmaganlarga nafaqa beradi, muhtojlarga yordam ko'rsatadi;

**g) iqtisodiy sohani tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish (monopoliyaga qarshi qonunchilik, tadbirdorlik to'g'risidagi,**

<sup>44</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: Yangi asr avlod, 2001, 62-bet.

bank sohalari, qimmatli qog'ozlar bozorining faoliyatini tartibga solishni ko'zda tutuvchi qonunlar).

Shu orqali bozor munosabatlариниң rivojlanishi qонун yo'li bilan kafolatlanadi, turli mulk shakllarining daxlsizligi ta'minlanadi, monopoliyalarga yo'l berilmaydi va erkin raqobatga sharoit yaratiladi.

Iqtisodiyotni bilvosita tartibga solishda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va budget siyosatida o'z ifodasini topadi.

**Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat bo'ladi:**

- hisob stavkasini tartibga solish;
- moliya-kredit muassasalarining Markaziy bankdagi zaxiralari minimal hajmini o'matish va o'zgartirish;
- davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari (davlat majburiyatlarini chiqarish, ularni sotish va to'lash).

Davlat bu dastaklar yordamida moliya bozorida talab va taklif nisbatini kutiqlan yo'naliishda o'zgartirishga harakat qiladi. Jumladan, ssudaga beriladigan pul miqdorini o'zgartirish uchun % stavkasi vositasidan foydalanadi. Davlat kreditiga bo'lgan talab va taklifni markaziy bank orqali quyidagi yo'llar bilan o'zgartiradi.

Birinchidan, davlat markaziy bank ehtiyojlari orqali banklar mablag'larining qarzga beriladigan va zaxirada turadigan qismlari ulushini o'zgartiradi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o'zgaradi, ya'ni uning taklifi oshsa, % kamayadi, aksincha u kamaysa, % oshadi. %ning kamayishi kredit olishga intilishni kuchaytiradi va bu investitsiya faolligi orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Ikkinchidan, Markaziy bank boshqa banklarga past % stavkasida qarz berib, ularning kreditlash ishida faol qatnashib, iqtisodiy o'sishiga ta'sir qilishini ta'minlaydi.

Uchinchidan, davlat markaziy bank orqali xazina majburiyatlarini tarqatadi, o'z obligatsiyalarini sotadi yoki qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Natijada taklif etilgan pul miqdori o'zgarib, bu %ga ta'sir etadi. Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifini o'zgartirish borasidagi siyosati monetar siyosat deb yuritiladi.

Davlat **budget siyosati** uning daromadlar va harajatlar qismini o'zgartirishga qaratiladi. Davlat xarajatlarini qoplash uchun moliyaviy mablag'larni jalb qilishning eng asosiy dastagi soliqlar hisoblanadi. Ulardan xo'jalik subyeklari faoliyatiga va ijtimoiy barqarorlikga ta'sir ko'rsatishda ham keng foydalilanadi.

Soliqlar yordamida davlat tomonidan tartibga solish tanlangan soliq tizimiga, soliq stavkasi darajasiga hamda soliq turlari va soliq to'lashda berilgan imtiyozlarga bog'liq bo'ladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida **budget xarajatlaridan** ham foydalananadi. Bunga birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalari va kafolatlari, hamda xususiy sektordan tovarlarni sotib olishga qilinadigan sarflar misol bo'ladi.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda asosiy kapitalga hisoblanadigan **jadallashgan amortizatsiya** ajratmalari alohida rol o'ynaydi. U hozirgi sharoitda jamg'arish va iqtisodiyotdag'i tarkibiy o'zgarishlarni rag'batlantirishning asosiy vositasi hamda iqtisodiy davri va bandlikka ta'sir ko'rsatuvchi muhim dastak hisoblanadi.

Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat kapital qo'yilmalari muhim rol o'ynaydi. Jumladan, bozor konyunkturasi yomonlashgan, turg'unlik yoki inqiroz sharoitida xususiy kapital qo'yilmalar qisqaradi, davlat investitsiyalari esa odatda o'sadi. Shu orqali davlat ishlab chiqarishda tanazzul va ishsizlikning o'sishiga qarshi turishga harakat qiladi.

Davlat kapital qiymatlari iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlarda ham sezilarli o'ringa ega bo'ladi, masalan, davlat xususiy kapitalining oqib kelishi yetarli bo'lmagan mintaqalar, tarmoqlar yoki faoliyat sohalarida yangi obyektlar qurish va eskilarini qayta qurollantirish orqali iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bularidan tashqari davlat kapital qo'yilmalari ilmiy tadqiqot ishlarida, kadrlar tayyorlashda, tashqi savdo va chetga kapital chiqarishda ham katta rol o'ynaydi. Shuningdek, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bir qator shakllarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- davlat iqtisodiy dasturlarining ishlab chiqilishi;
- ilmiy tadqiqotlar va ilmiy tadqiqot konstrukturlik ishlanmalari, ixtirolarni davlat tomonidan rag'batlantirish hamda iqtisodiyotdagи ijobiylar tarkibiy siljishlarni ta'minlash;
- investitsiya jarayoni va iqtisodiy o'sishni davlat tomonidan tartibga solish;
- ishchi kuchi bozorga davlat tomonidan ta'sir ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va boshqalar.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning oliv shakli **davlat iqtisodiy dasturlari** hisoblanadi. Uning vazifasi tartibga solishning barcha usuli va vositalardan kompleks foydalanishdan iborat.

Iqtisodiy dasturlar o'rta muddatli, favquloddagi va maqsadli bo'lishi mumkin. O'rta muddatli umumiqtisodiy dasturlar odatda besh yilga tuziladi. Favquloddagi dasturlar tig'iz vaziyatlarda, masalan, inqiroz, ommaviy ishsizlik va kuchli inflyatsiya sharoitlarida ishlab chiqilib, qisqa muddatli xususiyatga ega bo'ladi. Bunday maqsadli dasturlarning obyekti tarmoqlar, mintaqalar, ijtimoiy sohalar va ilmiy tadqiqotlarning har xil yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish **tashqi iqtisodiy usullar** yordamida ham amalga oshiriladi. Bunda maxsus vosita va dastaklar orqali mamlakatning tashqi dunyo bilan amalga oshiriladigan xo'jalik aloqalariga bevosita ta'sir ko'rsatiladi.

Tovarlar, xizmatlar, kapital va fan-texnika yutuqlari eksportini rag'batlantirish tadbirlari, eksportni kreditlash, chet ellardan investitsiyalar va eksport kreditlarini kafolatlash, tashqi iqtisodiy aloqalarga cheklashlar kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdoda boj to'lovlarini o'zgartirish, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini jaib qilish yoki cheklash bo'yicha tadbirlar, mamlakatga chetdan ishchi kuchini jaib qilish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlarda va davlatlararo uyushmalarda qatnashish mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga solishning asosiy vositalaridir.

## **7.2. Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichidagi ustuvor yo'nalishlar**

Prezident Islom Karimov o'zining "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" nomli kitobida umumiylar strategiya doirasida iqtisodiyotni

isloh qilish sohasidagi muayyan strategik maqsadlarni belgilab berdi. Ularning asosiyları quyidagilardir:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish.

2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar qilish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikrplashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasidagi "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz" nomli ma'rzasida davlat va jamiyat qurilishi borasidagi bosh maqsad va vazifalarni, jamiyatimizni yangilash va isloh etishning birinchi darajali va hayotiy muhim vazifalarini belgilab berdi. "Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat", - deb ta'kidladi.

Asosiy strategik maqsad va vazifaning saqlanib qolganligi sababini u shunday tushuntirdi: "Bu - lo'nda qilib aytganda, rivojlangan davlatlarning tajriba va taraqqiyot modellaridan ko'r-ko'rona nusxa ko'chirmagan holda, ularga xos yuksak hayot darajasi va sifatiga erishish. Mamlakatimizda millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir insонning barcha huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, farovon turmush tarzi ta'minlanadigan demokratik rivojlanish yo'lini izchil davom ettirish demakdir"<sup>49</sup>.

Bu ulug'ver maqsadlarga erishish uchun jamiyatimizni yangilash va isloh etishning hozirgi yangi bosqichida quyidagi vazifalar davlat, ijtimoiy tuzilmalar va mahalliy hokimlik idoralarining diqqat markazida turmog'i, parlamentimiz qonunchilik faoliyatining asosini tashkil etmog'i lozim:

### I. Siyosiy sohada:

Ijtimoiy hayotimizning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish, yangi ma'no-mazmun bilan boyitish, uning izchilligi va samarasini ta'minlash zarur. Bu boradagi bosh vazifalar quyidagilardan iborat:

1. Mamlakat siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish. Fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insонning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarishi uchun tegishli shart-sharoit yaratish. Odamlarning o'z xohish-irodasini erkin ifoda etishi, jamiyatimizda mavjud bo'lgan

<sup>49</sup> Karimov I.A. Ikkinci chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasidagi ma'rza. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000, 323-b.

turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish.

2. Mamlakat siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik muhiti qaror topishiga erishish. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflari o'z ifodasini topishi lozim. Amaldagi ko'ppartiyaviylik - bu har xil qarash va g'oyalar o'rtasidagi bahsmunozara, turli partiyalar, jumladan, muxolif partiyalar uchun ham siyosiy raqobat maydoni.

3. Nodavlat tuzilmalar, hukumatga qarashli bo'limgan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

4. Jamiyatimizda ommaviy axborot vositalarining haqiqiy "to'rtinchı hokimiyat"ga aylanishini ta'minlash.

5. Inson huquqlari va erkinliklarini yanada mustahkamlash va rivojlantirish. O'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor.

## **II. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida:**

1. Hokimiyat tizimlari bo'linishining konstitutsion printsipiga amal qilinishini ta'minlash.

2. Ma'muriy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini kuchaytirish.

3. Kadrlar tanlashning obyektiv tarzda ishlaydigan tizimini shakllantirish.

## **III. Iqtisodiyot sohasida:**

1. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish.

2. Xususiylashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosda amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish. Dunyo tajribasi shundan dalolat beradiki, jamiyatda tom ma'nodagi mulkdorlar sinfining ko'pchilikni tashkil etishi ijtimoiy hayotdagi barqarorlik va farovonlikning kafolati bo'lib xizmat qiladi.

3. Mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jaib etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish. Xorij sarmoyasining iqtisodiyotimizdagи tarkibiy o'zgarishlarda, ishlab chiqarishni texnikaviy qayta jihozlash va modernizatsiya jarayonini Jadallashtirishda faol ishtirot etishiga erishmog'imiz zarur.

4. Kichik va o'rta biznesni ustuvor tarzda rivojlantirish. Biz kichik, o'rta va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda nafaqat hal qiluvchi mavqe egallashi, ayni vaqtida uning aholi farovonligi va daromadlari ortishida, ishsizlik muammosini yechishda ham muhim omilga aylanishiga erishmog'imiz lozim.

5. Iqtisodiyotda mukammal texnologik jarayonni o‘z ichiga olgan ishlab chiqarish yetakchi o‘rinda turishi zarur. Bu jarayonda mahalliy xomashyo asosida ishlaydigan ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga asosiy e’tibor qaratilishi kerak.

#### **IV. Ma’naviyat sohasida:**

1. Milliy qadriyatlarimizni tiklash, milliy g‘oya va maskurani shakkantirish. Milliy, ma’naviy qadriyatlar va hozirgi zamon sivilizatsiyasi yutuqlarining uyg‘unligidan kelib chiqib milliy maskurani boyitish.

2. Mamlakatimizdagи har bir fuqaroning o‘z fikrini erkin ifoda etishi va uni himoya qila olishini jamiyatimizda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlarning negiziga aylantirish.

3. Islom dinini iymon, axloq, diyonat, ma’rifat manbai sifatida qadrlab, undan g‘arazli siyosiy maqsadlarda foydalinishni istaydigan kuchlardan himoyalash.

4. Oila, onalar va ayollarning jamiyatidagi o‘mi va mavqeini yanada oshirish.

5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish.

6. O‘zbekistonda yashayotgan barcha millat va elatlarning tili, madaniyati, ursodat va an‘analarini rivojlantirishga ko‘maklashish, ularga yaratib berilgan imkoniyat va sharoitlarni yanada kengaytirish.

7. Keksalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatishdek noyob insoniy qadriyatni yangi mazmun va amaliy ishlar bilan boyitish.

#### **V. Sud-huquq sohasida:**

1. Huquqiy davlatni shakkantirish borasida birinchi galda qabul qilinishi lozim bo‘lgan yangi qonun va me’yoriy hujjatlarni aniqlash.

2. Qonun va me’yoriy hujjatlarning so‘zsiz bajarilishini ta’minlovchi tizim yaratish uchun zarur chora-tadbirlarni ko‘rish.

3. Sudning to‘laqonli mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatidagi mustaqilligini ta’minalash uchun sud tizimini isloh qilish.

4. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini keng ko‘lamda amalga oshirishga alohida e’tibor berish.

#### **VI. Tashqi siyosat sohasida:**

1. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, xavfsizlikni ta’minalash.

2. Yaqin qo’shni mamlakatlar, xususan, Afg‘onistonda tinchlikni ta’minalash borasidagi sa'y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash.

3. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga keng miqyosda integratsiyalashuvini ta’minalash.

#### **VII. Xavfsizlikni ta’minalash sohasida:**

1. Demokratik va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ma’naviy taraqqiyotga erishish, shuningdek, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligini kuchaytirishning asosiy sharti va garovi – mamlakatimizning xavfsizligini ta’minalash, jamiyatimizda tinchlik, barqarorlik, millatlar va fuqarolar o‘rtasida totuvlikni saqlash va ko‘z qorachig‘iday asrashdir.

2. Markaziy Osyo mamlakatlarining tinchligi va barqarorligiga, mazkurnintaqada yashovchi xalqlarning xavfsizligiga daxil qiluvchi tajovuzlarning oldini olish va bartaraf etish borasidagi hamjihatligini mustahkamlash, ularning bu yo‘ldagi

sa'y-harakatlari, imkoniyatlari va salohiyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish. Armiya, chegara va ichki qo'shinlarimizni bosqichma-bosqich va izchil isloh etish.

3. Terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz barpo etishga oid O'zbekiston tashabbusini amalga oshirish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish.

4. Huquq-tartibot organlari tizimini isloh etish va ularning jamoatchilik bilan aloqalarini mustahkamlash.

5. Jinoyatchilikka, ekstremizm va jaholatning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashda, umumiy xonadonimizdag'i tinchlik va osoyishtalikni asrash yo'lida aholi faolligini oshirish lozim.

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish bozor munosabatlарини shakllantirish yo'lidagi muqarrar jarayondir. U eng avvalo tanglik holatlariga barham berishga qaratiladi. Tanglik holati inqirozga uchrashning oldini olish uchun ishlab chiqarish, chiqarilayotgan tovar va (xizmatlar)ning sifati va turini o'zgartirish yuzasidan choratadbirlar ko'rishga undaydi, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulotning sifati va iste'mol xossalarni yaxshilashga, uning raqobatga bardoshligini oshirishga majbur qiladi. Bu pirovard natijada bozorda talab va taklif o'rtasida qulay muvozanatni ta'minlashga olib keladi. Kengroq ma'noda barqarorlashtirish, avvalo, makroiqtisodiyotda muvozanatni saqlash, ishlab chiqarishning keskin pasayishiga va ommaviy ishsizlikka yo'l qo'ymaslikdir. Shuningdek u pul qadrsizlanishining oldini olish, to'lov balansini bir me'yorda saqlash sohasida aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan davlat siyosatidir.

Jahon tajribasida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishda bir necha xil yondashuvlar tarkib topgan. Bulardan birinchisi monetar yondashuv deb ataladi. U pulning qadrsizlanish darajasini pasaytirib turishga, pul massasini hamda to'lovga qodir bo'lgan jami talabni keskin kamaytirish hisobiga pul muomalasini barqarorlashtirishga asoslanadi. Bu yondashuvning kamchiligi shuki, u ishlab chiqarishning jismoniy hajmi kamayishiga va investitsiya faoliyatining to'xtab qolishiga olib keladi.

Ikkinchisi – ishlab chiqarish va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishga, tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirishga yordamlashish, iqtisodiyotda nomutanosibliklarga barham berishga asoslangan yondashuv. Bunda bir me'yordagi qattiq moliyaviy va pul-kredit siyosati tovar bilan qoplashning iloji bo'lmagan ortiqcha talablarni cheklash bo'yicha tadbirlar bilan uzviy bog'lab olib boriladi.

Respublikada transformatsiyalashuv davrida makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda ikkinchi yondashuvga ustunlik beriladi. Bu ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga erishish uchun ustunlikka, istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni har tomonlama rag'batlantirish, eng muhim bo'g'lnlarni aniqlash (neft, energetika, don, paxtani qayta ishslash sanoati va h.k.) va shu orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo'yicha amalga oshiriladigan yondashuvdir. Boshqalardan ustun hisoblangan yetakchi tarmoqlar belgilab olinishi bilan birga, ularning ichki tuzilishini qayta o'zgartirish ham hisobga olinadi.

Barqarorlashtirish dasturini ishlab chiqishda, muvozanatga keltirilgan monetar siyosat asosiy tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni tarkiban qayta tashkil qilishni qo'llab-quvvatlash siyosati bilan birga qo'shib olib borilishi zarur. Ana shu

yondashuvlar negizida iqtisodiy barqarorlikka erishishning asosiy mezonlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik;
- boshqalardan ustun bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish va rag'batlantirish;
- davlat budjeti va korxonalar moliyaviy ahvolining barqarorligini ta'minlash;
- pulning qadrsizlanishini to'xtatish;
- to'lov balansi va davlat valyuta rezervlarining holatini yaxshilash;
- muvozanatlashtirilgan ijtimoiy siyosat asosida aholi turmush darajasini yaxshilash.

Budget intizomiga rioya qilish va uning kamomadini cheklash barqarorlashtirishning hal qiluvchi omillaridan biridir. Bunda soliq tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi bosqichda iqtisodiyotni barqarorlashtirishda kredit-bank tizimini, pul muomalasini mustahkamlash, valyuta munosabatlarni tartibga solish ham alohida o'rinn tutadi.

Bozor munosabatlariiga o'tish davrida milliy valyutani mustahkamlash umummilliy vazifa hisoblanadi. Shu sababli milliy valyutaning barqarorligi, uning ichki bozorda erkin almashinuvini ta'minlash uchun respublikada bir qator dasturlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi.

Birinchidan, milliy valyutaning tovar (xizmat)lar bilan barqaror ta'minlanishiga erishish. Bunda bozorni iste'mol mollari bilan to'ldirish va ularning umumiylajiga respublikada ishlab chiqariladigan mahsulotlar hissasini oshirib borish hal qiluvchi o'ringa ega bo'ladi.

Ikkinchidan, yetarli barqaror valyuta zaxiralariga ega bo'lisch. Bunga respublika eksport imkoniyatini kengaytirish, korxonalarni eksport uchun mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarga aylantirish va ularning jahon bozoridagi mavqeini oshirish orqali erishiladi.

Uchinchidan, ishlab topilgan har bir so'mni qadrlash va xalq xo'jaligiga sarflangan har bir so'mning foyda bilan qaytishiga erishish. Buning uchun qat'iy moliya-kredit siyosatini izchillik bilan o'tkazish zarur.

To'rtinchidan, pul qadrsizlanishiga, inflyatsiyaga qarshi puxta o'ylangan siyosat o'tkazish. Bunda ichki bozorni mollar bilan to'ldirish, naqd pul va kredit emissiyasining o'sishiga, aholi qo'lida pulning harakatsiz turib qolishiga yo'l qo'ymaslik birinchi darajali ahamiyatga ega.

Respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tishida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish vazifasi butunlay yangi xalq xo'jalik kompleksini bunyod etishga qaratiladi. Bu esa iqtisodiyotning tarmoq va hududiy tuzilishini, ishlab chiqarilayotan mahsulot, eksport va import tarkibini qayta qurish, shuningdek, eng muhim makroiqtisodiy va takror ishlab chiqarish nisbatlarni tartibga solishni talab qiladi.

Respublikada bozor munosabatlariiga o'tish jarayonida: "Iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan amalga oshirish va olib borilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning

mustaqilligini yanada oshirish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'lidagi mavjud to'siqlarni bartaraf etish sohadagi o'zgarishlarning asosiy yo'nalishlaridir"<sup>50</sup>.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi bosqichida mamlakatni modernizatsiyalash va isloh etish asosiy strategik vazifaga aylandi. Bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi ustuvor vazifalar mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'rurasida belgilab berildi:

- birinchidan, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish;

- ikkinchidan, xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash;

- uchinchidan, kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamini kengaytirish;

- to'rtinchidan, bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish;

- beshinchidan, uy-joy kommunal xo'jaligini isloh qilish;

- oltinchidan, soliq siyosatini yanada takomillashtirish".

Shunday qilib, Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlarga asos soladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni namoyon etish uchun sharoit yaratib beradi, ijtimoiy-ma'naviy sohadagi ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlaydi.

### **7.3. O'zbekistonda ishchi kuchi bandligini ta'minlash va ishsizlarni ijtimoiy himoya qilish borasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Bozor munosabatlarga o'tish davrida davlatning ijtimoiy siyosati faqat jamiyat a'zolarining manfaatlarini ishonchli ravishda himoya qilishdangina iborat bo'lmasdan, balki mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, aholining o'sishi yuqori sur'atlar bilan borayotgan va o'ziga xos aholi tarkibiga ega bo'lgan respublikamizda ish bilan bandlik masalasi eng muhim muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlar jarayonida ushbu masalani hal etish uchun bir qator tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan.

**Birinchidan**, keng faoliyat turlari, shuningdek yakka tartibdagи tadbirkorlikni kengaytirish uchun sharoit yaratish. Birinchi navbatda qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishslash, xalq iste'mol mollarini, mahalliy xomashyodan qurilish materiallari tayyorlovchi xususiy kichik korxonalarini faol rivojlantirishni rag'batlantirish.

**Ikkinchidan**, xizmat sohasini rivojlantirish, aholiga ko'rsatiladigan ijtimoiy-maishiy xizmat va qurilish bo'yicha xizmat turlarini yanada kengaytirish. Bunda ham qishloq joylarda xizmat sohasini rivojlantirishga ustunlik beriladi.

**Uchinchidan**, qishloqda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratib, shu orqali yangi ish joylarini ochish, yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish.

<sup>50</sup> Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushbuncha va tamoyillar. Ma'ruza matnlari uchun materiallar. – T.: Yangi asr avlod, 2001, 9-b.

<sup>51</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh eishdir. – T.: O'zbekiston, 2005, 76-88-b.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun respublikamizda qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bo'yicha ishlar uzlusiz davom ettirilmoqda.

**To'rtinchidan**, ishdan bo'shagan xodimlarni qayta tayyorlash va qayta o'qitishni tashkil etishni tubdan o'zgartirish. Bunda ishdan bo'shayotgan va ixtisosi bo'lmagan shaxslarga qisqa davrda, bozor iqtisodiyotiga hamda iqtisodiyotning o'zgarib borayotgan tuzilishiga muvofiq keluvchi kasbkorni o'rgatishga e'tibor qaratish. Shu maqsadda maxsus maslahat va o'quv markazlari, biznes maktablarning keng tarmog'ini yanada rivojlantirish ko'zda tutiladi.

**Beshinchidan**, vaqtincha ishga joylashtirish imkonini bo'lmagan mehnatga yaroqli aholini davlat tomonidan ishchonchli ravishda ijtimoiy himoyalash. Bu siyosat ularning o'ta zarur ehtiyojlarini qondirish va kafolatli tirikchilik manbalariga ega bo'lishga qaratiladi.

Ishchi kuchining ish bilan bandligi muammosi ko'p qirrali bo'lib, u barcha odamlarga o'z qobiliyatlarini ishga solish, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun dastlabki teng imkoniyatlarni ta'minlovchi davlat va bozor mexanizmini vujudga keltirish; ishchi kuchini unumli va samarali ish bilan band qilish; zarur hollarda ishchi kuchini iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari o'rtasida qayta taqsimlash kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi.

Prezidentimizning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'rurasida ish o'rinalarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013-yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlanganligi, bu ish o'rinalining 60,3 %dan ortig'i qishloq joylarda yaratilganligi, bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyyod ish o'mi tashkil etilganligini ta'kidlab o'tdilar.

Bundan tashqari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik aholi bandligi va uning daromadlarini oshirish muammolarini hal etishda o'ziga xos lokomotiv vazifasini bajarayotganligi, ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishda salmoqli hissa qo'shayotganligi, uning bugungi kunda mamlakatimizda eng yirik ishchi kuchi bozori, mulkdorlar o'rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad va farovonlik manbai hisoblanishi ta'kidlab o'tildi<sup>52</sup>.

Shuningdek, ma'ruzada bundan buyon kichik biznesni nafaqat son jihatidan ko'paytirish, balki uni sifat jihatidan ham rivojlantirish, bu borada oddiy ishlab chiqarishdan ichki va tashqi bozorga yo'naltirilgan murakkab, yuksak texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishga o'tish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligi qayd etildi.

<sup>52</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi "2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi" nomli ma'ruzasi. – T.: //Xalq so'zi, 18.01.2014-y.

Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi samaradorligini ta'minlash uchun davlatni bandlik siyosatining quyidagi yo'nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

- oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirishni jadallashtirishni ta'minlash;

- mazkur maqsadlarda mikrokreditlash tizimini rag'batlantirish;

- yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperatsiyani rivojlantirish inkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;

- mahalliy xomashyonini puxta qayta ishlashga va tayyor, raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan engil va oziq-ovqat qayta ishslash sanoatining ko'p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;

- xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'Imagan bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga e'tiborni kuchaytirish;

- ishsizlarni kasbiy o'qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug'ullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi xalqimizning farovon turmushini ta'minlash manbai bo'lgan ish bilan bandlik darajasining yanada oshishiga, aholining ijtimoiy muhofazasining kuchayishiga yanada keng yo'l ochib beradi.

Mamlakatimizda aholini ish bilan bandligini oshirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada "Aholining ish bilan bandligini oshirish" davlat dasturi, "Bandlik hizmati to'g'risida"gi qonun va shu kabi huquqiy meyoriy hujjatlarni ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda aholining ish bilan bandligini oshirish hamda ishsizlikni kamaytirish bo'yicha davlat siyosati quyidagi chora-tadbirlar orqali amalga oshiriladi:

- tarkibiy qayta qurishni rag'batlantirish hamda iqtisodiyotni tubdan isloh qilish;

- ishchi kuchiga talabni shakllantirish va rag'batlantirish;

- ishchi kuchi taklifini qisqartirish;

- bandlik xizmatini shakllantirish va rivojlantirish;

- ishchi kuchi bozorini rivojlantirish va tartibga solish;

- aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish va hokazo.

Qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish borasida davlatning roli muhimdir. Qaysiki, qishloq joylarda mavjud bo'lgan mulkdorlar ya'ni ish beruvchilar guruhini shakllantirishda ularga yuridik va iqtisodiy maslahatlar berishga qodir bo'lgan davlat tomonidan tashkil qilingan konsalting firmalarning roli beqiyosdir. Ikkinchisi tomonidan esa, yangi ish o'rinalarini tashkil qilish uchun kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni moliyaviy tomonidan qo'llab-quvvatlovchi tijorat banklari faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish hamda tadbirdorlik faoliyati mahalliy va davlat boshqaruv organlarining aralashuvini qisman cheklash ko'zda tutiladi.

Jiddiy muammolar yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida davlat doimiy ravishda fuqarolarni ish bilan ta'minlash siyosatini o'tkazadi.

Birinchidan: ishsizlikning friktion va tarkibiy turlari o'sganda;

- qayta kasb o'rgatadi hamda ta'lif berish tizimini kengaytiradi;
- bo'sh ish joylari haqidagi axborotlarni keng tarqatadi;
- mehnat birjalariga investitsiyalarni kiritadi.

Ikkinchidan, agar ishsizlik davriy xususiyat kasb etsa, davlat budget, fiskal, kredit pul vositalarini ishga soladi, ya'ni:

- ish bilan ta'minlashni kuchaytirish uchun ishlab chiqarishga ko'proq mablag' sarflaydi;

- tadbirkorlarning manfaatdorligini oshirish uchun ssuda hamda kreditlarning % stavkalarini pasaytiradi;

- ishlab chiqaruvchi va iste'molchilarga solinadigan soliqlarni kamaytiradi.

Uchinchidan, davlat ishchi kuchi bozorini tashkil etish va tartibga solishda:

- aholi soni, yosh va jinsining salmog'idagi o'zgarishlariga;

- ish bilan bandlikdagi tarmoq va hudud o'zgarishlariga;

- qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mezonlariga;

- ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish tarkibiga;

- ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuvi kabi omillarga alohida e'tibor beradi.

Ihsizlik muammosini hal qilishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birga sanoatni rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Qishloq joylarda chet el investitsiyasiga asoslangan ishlab chiqarishni olib kirish qishloqda mavjud bo'lgan ishchi kuchi potensialiga va xomashyodan unumli foydalanish, aholi turmush darajasining yaxshilanishi pirovardida qishloq va shahar o'rtafiga farqning kamayishi bilan ajralib turadi.

Bunday chora-tadbirlar ishsizlik muammosini hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada kuchaytirish imkonini yaratadi. Bu esa kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ayniqsa, qishloq joylarda yangi ish joylarini yaratish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog'liq zarur ijtimoiy vazifani bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keyingi yillarda mamlakatda aholini ish bilan ta'minlashning yangi usuli yo'lga qo'yila boshlandi. Bu ham bo'lsa, mamlakat ichkarisida mavjud bo'lgan ortiqcha ishchi kuchlarini chetga eksport qilishdir. Bu jahon tajribasida sinalgan usul bo'lib, misol uchun Turkiyada yiliga 25-30 ming ishchi Yevropa mamlakatlarida ishlab valyuta olib keladi. Mamlakatda mavjud ortiqcha ishchi kuchini chet elda ishlab kelishi uchun sharoit yaratib beri shva uni keng miqyosida yo'lga qo'yish yurtimiz rivojiga katta hissa qo'shadi. Qaysiki, ular mamlakatimizga valyuta olib kirish bilan birga chet el texnologiyalarini o'rganib, zamon talablarini darajasidagi yetuk, malakali mutaxassis bo'lib qaytadilar. Bundan tashqari ular o'z jamg'armalarini ishlab chiqarishga joriy qiladilar va bu yangi ish o'rinnarining ochilishini ta'minlaydi. Natijada ishsizlar sonining ma'lum darajada kamayishiga o'z hissalarini qo'shadilar.

## **Asosiy tayanch tushunchalar**

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, davlatning iqtisodiy vazifalari, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari, tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalari, bevosita usullar, bilvosita usullar.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Davlatning iqtisodiyotdagi roliga turlicha qarashlarini baholang?
2. Davlat asosiy iqtisodiy vazifalarini sanab chiqing va ularning qisqacha tavsifini bering?
3. Bozor iqtisodyoti sharoitida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning zarurligini nima taqozo qiladi?
4. Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi?
5. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning bevosita va bilvosita usullariga tavsif bering.
6. Tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy vositalarini sanab ko'rsating.
7. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishda davlat sektori qanday rol o'yaydi?
8. Davlat iqtisodiy dasturlari qanday amalga oshiriladi?

## **8-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTGA ERISHISHNING XORIJ TAJRIBALARI**

### **8.1. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyotga darajasiga ko'ra turkumlanishi**

Mamlakatlarni guruhlarga ajratishda turli mezonlardan foydalilanadi. Birinchi mezon sifatida hududiy yondoshuvga murojaat qilish mumkin. Masalan, mamlakatlarni qit'alar bo'yicha guruhlash, o'z navbatida, bu qit'alarни madaniy-tarixiy hududlarga bo'lish mumkin. Misol uchun Yevropani G'arbiy, Markaziy va Sharqiy Yevropaga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YalM hajmiga ko'ra mamlakatlarni eng kam rivojlangan, rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarga guruhlanadi. BMT iqtisodiy tahlil maqsadlarida mamlakatlarni quyidagilarga ajratadi: rivojlangan mamlakatlar, o'tish davri iqtisodiyotidagi mamlakatlar va rivojlanayotgan mamlakatlar. Bu guruhlarga kiruvchi mamlakatlarni ham turli tamoyillarga ko'ra yana kichik guruhlarga bo'lish mumkin. Masalan, rivojlangan mamlakatlarning ichida eng taraqqiy etgan yetti mamlakat: AQSh, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya va Kanadani ajratib ko'rsatish mumkin. O'tish davri iqtisodiyotli mamlakatlarni ham Sharqiy Yevropadagi sobiq sotsialistik mamlakatlar va sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan respublikalarni alohida guruhga kira olamiz.

Rivojlanayotgan mamlakatlarni hududiy, iqtisodiyotining rivojlanishi, tashqi qarzining miqdori darajasi jihatidan ham guruhlarga ajratishimiz mumkin. Masalan, sof kreditor, sof qarzdar mamlakatlar yoki energiya resurslarini eksport qiluvchi yoki bu resurslarni import qiluvchi mamlakatlar va hokazo. Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda mamlakatlarning quyidagi elementar tipologiyasini keltirishimiz mumkin.

- 1) Katta yettilik davlatlari.
- 2) Boshqa rivojlangan mamlakatlar.
- 3) Yangi industrial mamlakatlar.
- 4) Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari.
- 5) Sobiq SSSR respublikalari.
- 6) Xitoy.
- 7) Hindiston va Pokiston.
- 8) Nisbatan tezroq rivojlanayotgan mamlakatlar.
- 9) Klassik rivojlanayotgan mamlakatlar.
- 10) Eng kam rivojlangan mamlakatlar.

Daromad darajasiga ko'ra mamlakatlarni kam daromadli (60 ta), o'rtadan past daromadli (59 ta), o'rtadan yuqori daromadli (37 ta) va yuqori daromadli (53 ta) mamlakatlarga ajratish mumkin.

XX-XXI asrlar bo'sag'asida jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlarning tutgan o'mni juda katta bo'lib, bunday guruhga kiruvchi davlatlar asosan Yevropa qit'asi va Shimoliy Amerika materigida joylashgandir.

Ma'lumki, rivojlangan "katta yettilik" davlatlar (hozirgi kunda ushbu davlatlar guruhiga Rossiya Federatsiyasini qo'shilishi bilan "katta sakkizlik" davlatlar degan so'zlar ham jahon iqtisodiyotida ishlatalmoqda) iqtisodiyotini rivojlanishi asosan

tabiiy resurslardan qanday foydalanishlik darajasiga va shuningdek uzoq yillarga mo'ljallangan zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdagi o'zgarishlarga bog'liqdir. Shuning uchun ham bu mamlakatlar iqtisodiyotida tabiiy resurslardan tejamli foydalaniladi, ishlab chiqarishda esa energetika quvvati pasayishiga yo'l qo'yilmaydi. Masalan, AQSh ishlab chiqarishida asosan kam harajat qilish evaziga yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulot 1900-1990-yillar davomida 8-9 baravarga, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 4-5 baravarga ortgan edi.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi qanchalik yuqori bo'lmasin narx-navoning ko'tarilishi ushbu davlatlarda yuqoriligicha qolmoqda. Bu holat albatta xizmat ko'rsatish sohalari va shunindek ilmiy-texnikaviy inqilobga asoslangan yangi tarmoqli sanoat korxonalarining vujudga kelishi bilan bog'liqdir.

Jahon xo'jaligining rivojlanishida rivojlangan mamlakatlarning qay darajada sanoat energetikasi bilan ta'minlanganligi ham muhim rol o'ynaydi. Hozirgi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlar o'zлari ishlab chiqarayotgan sanoat energetikasi mahsulotlaridan tejamkorlik bilan samarali foydalanib kelmoqdalar. Masalan, 1970-1990-yillar davomida AQSh sanoat energetikasi iste'molini 40 % ga, Yaponiya va Fransiya davlatlari esa, 30 % ga qisqartirish imkoniyatiga ega bo'lishgan edi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarining barchasida qayta ishlash sohalari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular asosan tejamkorlik bilan samarali foydalanishning ijtimoiy dasturlari asosida amalga oshirilmoqda. Masalan, 90-yillar boshida AQShda qalayning 72-73 % xomashyoga bo'lgan talabi, misning 60 % i, po'latning 50 % i, oltinning 47 %i, ruxning 43 % i qayta ishlash sanoat korxonalarini hisobiga qondirilgan edi. Xullas, hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarishida qimmatbaho nodir metallar o'mini bosuvchi mahsulotlarni kengroq ishlatalishi muhim rol o'ynamoqda.

Jahon xo'jaligi rivojlanishida yetakchi sanoati rivojlangan mamlakatlar (AQSh, GFR, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Italiya) iqtisodiyoti muhim rol o'ynamoqda. Ushbu mamlakatlar ulushiga rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarning 79-80 % ni va dunyo mamlakatlarida ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarning 59-60 %ni, tovarlar eksportining 60-61 %ni va xizmat ko'rsatish sohalarining 49-50%ni to'g'ri kelmoqda.

Rivojlangan mamlakatlar guruhi hozirgi kunda o'z tarkibida jahonning 30 dan ortiq davlatini birlashtirgan bo'lib, bu davlatlar dunyo mamlakatlari xo'jaligida tutgan o'rninga ko'ra bir necha klassifikatsiya bo'lib o'rganiladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Yalpi ichki mahsulot (YalIM) hajmi bo'yicha rivojlangan katta "yettilik" davlatlar guruhi (ushbu davlatlar guruhi Rossiya Federatsiyasini qo'shilishi bilan "katta sakkizlik" davlatlar guruhi degan so'zlar ham ishlatalmoqda). Ushbu guruhg'a AQSh, Yaponiya, GFR, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada kabi davlatlarni kiritish mumkin.

2. Yevropa Ittifoqi kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhg'a GFR, Belgiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Shvetsiya, Finlandiya, Avstriya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

3. Yevropa erkin Savdo assotsiatsiyaga (EAST) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga Islandiya, Lixtenshteyn, Norvegiya, Shvetsariya kabi davlatlarni kiritish mumkin.

4. Benilyuks guruhiga kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga Belgiya, Niderlandlar va Lyuksemburg kabi davlatlar kiradi.

5. Shimoliy Amerika Erkin savdo shartnomasiga (NAFTA) kiruvchi davlatlar guruhi. Ushbu guruhga AQSh, Kanada, Meksika kiradi.

90-yillar boshida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni (YalM) to'g'ri kelishi bo'yicha jahonning rivojlangan mamlakatlari quyidagicha tavsiflangan edi: Yaponiya dunyoda ushbu ko'rsatkich bo'yicha uchinchiligi o'rinda turgan bo'lsa, Kanada 11, Norvegiya 6, Shvetsariya 1, Shvetsiya 5, AQSh 10, Avstriya 20, Frantsiya 13, Niderlandiya 17, Buyuk Britaniya 21, Islandiya 9, GFR 8 o'rinda turgan. Xullas, jahon xo'jaligida rivojlangan mamlakatlar o'z rivojlanish sohalari bo'yicha katta imkoniyatlarga ega bo'lib, jahon mamlakatlarini rivojlanishida asosan generatorlik rolini o'ynab kelmoqda.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlар tizimini rivojlanishining ahamiyatli tomonlardan biri, sobiq mustamlaka va qaram territoriyalarning roli va ahamiyatini iqtisodiy jihatdan kuchayib borayotganligidir. Ushbu mamlakatlar hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida rivojlanayotgan mamlakatlar yoki ozod etilgan mamlakatlar, "uchinchiligi dunyo mamlakatlari", "janub" mamlakatlari yoki "periferiya" mamlakatlari sifatida tilga olinadi.

Bu mamlakatlar iqtisodiyoti turli-tuman, ularning hududida 3,2 mlrd atrofida aholi yashaydi. Ushbu mamlakatlarda hozirgi kunda juda murakab ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlar kechmoqda.

Jahon xo'jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ozodlikka erishgan mamlakatlar iqtisodiyotining rivojlanishi XX asrning 60-yillardan boshlab, tobora usib boruvchi xarakter kasb etmoqda. Ularning eng ilg'orlari 1950-yilga kelib, rivojlanayotgan mamlakatlarning "o'rtachalaridan" (54 mamlakat) 2,4 marta, yuksaklikka erishdi. 50-yillarning o'rtalaridan boshlab, yuqorida zikr etilgan malakatlar o'rtasidagi rivojlanish darajisidagi farq sezilarli darajada ortib bordi. 90-yillarga kelib rivojlanayottgan mamlakatlarning birinchi guruhiga kiruvchi (19 ta mamlakat) malakatlardagi aholi jon boshiga "to'g'ri keluvchi o'rtacha foyda" o'rtachalariga nisbatan 2,9 barobar, quyi guruhlarinikiga nisbatan esa 12,2 barobar yuqori bo'ldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning aynan shu guruhlarining tarkibida ham, rivojlanish darajalari o'rtasidagi bog'liqda ham o'zgarishlar vujudga keldi. Jahon iqtisodiyotida ushbu jarayonlar natijasida tabaqalashuv ham ikkita asosiy mintaqada ro'y bergen edi. Mintaqaning bir tomonida ozodlikka erishgan mamlakatlarning ko'proq rivojlanganlari, jumladan, fors ko'rfazidagi bir qator mamlakatlar - Qatar, Quvayt, BAA, shuningdek, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar joylashgan bo'lsa, mintaqaning ikkinchi tomonida esa mutlaqo turg'unlik holatidagi iqtisodiy kambag'al mamlakatlar joylashgandir.

Bu kategoriyaiga 48 ta mamlakat taalluklidir. Bularga bir qator Afrika mamlakatlari, jumladan Mozambik (YalM yiliga kishi boshiga 80 dollar), Efiopiya (100 dollar), Sera Leone (140 dollar), Burundi (180 dollar), Uganda (190 dollar), Chad va Ruanda (200 dollar) kabi davlatlarni kiritish mumkin. Bu guruhga taallukli mamlakatlardan tashkari, guruh ruyxatining yanada quyi qismida joylashagan bir qator Osiyo mamlakatlarini – Nepal (160 dollar), Butan va Vyetnam (170 dollar), Mayanma va boshqa davlatlarni ham ko'rsatish mumkin.

Ushbu mintaqalar orasida rivojlanayotgan mamlakatlarning qolgan qismlari joylashgandir. Bu ham o'z navbatida, bir xil tipda bo'Imagan guruhdir. Uning tarkibiga kiruvchi mamlakatlar ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha farqlanadi. Bu mamlakatlardan eng rivojlanganlari hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan "yangi industrial davlatlar" iqtisodiyotiga yaqinlashib bormoqda. Jumladan, Lotin Amerikasi va Shimoliy Amerika o'ttasidagi farq sezilarli ravishda qisqarmoqda. Shimoliy Amerikaning yalpi milliy mahsuloti Lotin Amerikasining yalpi milliy mahsulotidan 4 marta ko'proqni tashkil etadi (50 yil oldin bu nisbat 10:1 ni tashkil etgan).

Ushbu iqtisodiy rivojlanishdagi farqlarga qaramasdan rivojlanayotgan mamlakatlarning barchasiga xos bo'lган umumiyl xususiyatlarni ham alohida ajratib ko'rsatish mumkin bo'lib, bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining ko'p ukladli xarakterga egaligi.

- Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi past darajada ekanligi, sanoat, qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infrostrukturating qoloq ekanligi (birinchi guruh, "Yuqori qutb" mamlakatlarini hisobga olmaganda).

- Ularning iqtisodiy rivojlanishi jahon xo'jaligi tizimiga qaram holatda ekanligi, kapitalizmni periferik xarakter kasb etishi va boshqalar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti ko'p ukladli ijtimoiy-iqtisodiy tarkibga asoslanadi. Bir qator mamlakatlarda kapitalistik uklad bilan bir qatorda hamon urug'-aymog'chilik va patriarchal munosabatlар ham mavjuddir. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va davlat xo'jalik ukladi muhim rol o'ynaydi. Davlat sektorini rivojlantirish bosqichi kapitalistik ishbilarmonlikni kengaytirish siyosati bilan hamohang olib boriladi. Buning natijasida esa davlat kapitalizmi paydo buladi va rivojlanadi.

Milliy xususiy kapitalistik xo'jalik ukladning rivojlanishi va shakllanishi jamg'arish muammolari (ya'ni, pul resurslarining yetishmovchiligi) va jamg'arilgan mablag'larning sarflanishi xususiyatlariga bog'liqdir. Bu mablag'lar asosan savdoga (ichki va tashqi), ko'chmas mulklarni sotib olishga, mashinalarni ta'mirlashga, sug'o'rta ga, benzin qo'yish shaxobchalariga, taksiga, ya'ni sarmoyalarni aylanishi tez bo'lgan sohalarga yo'naltiriladi.

Jahon iqtisodiyotida ozodlikka erishgan rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligidagi paydo bo'lgan va rivojlanib borayotgan kapitalizm periferik xarakterga ega. Bu shuni anglatadiki, u sanoati rivojlangan mamlakatlar kapitalizmidan nafakat rivojlanish darajasi bo'yicha, balki eng muhimi, ishlab chiqarish usullarning modeli va moddiy ne'matlar taqsimoti bo'yicha ham tubdan farq qiladi. Kapitalizm

markazlari, jamg‘arishning organik va o‘zaro aloqador doimiy o‘sish jarayonida bo‘lgan milliy zaminda paydo bo‘ladi va rivojlanadi.

Moslashuvchanlik (imitatsiya) aholining boy qatlamlarining uzlari uchun zaruriy bo‘lgan barcha narsalarni qo‘lga kirita oladigan maxsus bozorlarning tashkil topishidan boshlandi. Bunday vaziyatda aholining asosiy qismi kambag‘allikka mahkum etilib, ularni bozorlarda erkin muomalada bo‘lish imkoniyatidan mahrum etadi.

Transmilliy korporatsiyalar tomonidan joriy qilingan yangi texnik-texnologiyalar odatda hozirgi kunga mos keladi, ammo ularning bozor narxlari juda yuqori bo‘lib, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Jahon iqtisodiyotida ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘xshashlik tomonlari, ya’ni ularning qashshoqligi, aholisining qoloqligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi, sanoati rivojlangan mamlakatlardan katta miqdorda qarzdorligi bo‘lib hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi o‘zining to‘laqonli ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishi va aholisining yashash turmush tarzi darajasi bo‘yicha G‘arbiy Yevropani sanoatlashgan ilgor mamlakatlaridan qariyb 20-50 marotaba orqada qolmoqda.

## **8.2. “Yangi industrial mamlakatlar”ning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni**

Jahon iqtisodiyoti va XIMda “Yangi industrial mamlakatlar” (“YaIM”) rivojlanayotgan davlatlarning ko‘pchiligidan iqtisodiy parametrlerining barcha sistemalari bo‘yicha ajralib turadi.

“YaIM” ning rivojlanayotgan mamlakatlardan farqlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ularni rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan ham ajratib turishlidir. Ya’ni, ularning rivojlanishi “Yangi industrial” rivojlanish modeli sifatida mayjudligidir. Bunday xarakterli tomonlar, Lotin Amerikasidagi va Shuningdek Osiyodagi “YaIM”ning rivojlanish tajribasini chuqr tahlil qilish jarayonida ko‘zga tashlangan edi.

Lotin Amerikasidagi “YaIM”larning rivojlanish tajribasi va shuningdek Osiyodagi “YaIM”larning ko‘pchiligi ozodlikka erishgan jahonning rivojlanayotgan mamlakatlari uchun xalq xo‘jaligining ichki rivojlanish dinamikasi bo‘yicha ham, tashqi iqtisodiy munosabatlarining ekspansiyasi bo‘yicha ham, rivojlanishning o‘ziga xos namunasi bo‘lib qolmoqda. Odatda, rivojlanayotgan “Yangi industrial mamlakatlar” qatoriga Osiyodagi Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur, Malayziya shu bilan bir qatorda Lotin Amerikasidagi “YaIM”lar – Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar taalluqlidir. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha mamlakatlar “YaIM”larning birinchi avlodlari yoki birinchi qaldirg‘ochlari hisoblanadi. Ularning orqasida “YaIM”ning so‘nggi avlodlari (Filippin va Xitoyning janubiy chegaralari va boshqalar) yetishib chiqmoqda..

BMT tomonidan ishlab chiqilgan metodika bo‘yicha “YaIM”lar qatoriga kiruvchi davlatlar u yoki bu kriteriyalar bo‘yicha alohida ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

- aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning miqdori bo'yicha.
- yalpi ichki mahsulotning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari bo'yicha.
- yalpi ichki mahsulot tarkibidagi qayta ishlash sanoatining umumiyl miqdori bo'yicha ( 20% atrofida bo'lishi kerak).
- chiqariladigan tovarlarning umumiyl miqdoriga nisbatan sanoat mahsulotlarining ulushi va eksport miqdori bo'yicha.
- xorijiy mamlakatlarga chiqariladigan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning umumiyl miqdori va h.k.

"YalM"lar ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlardan ajralib turadi, balki ayrim hollarda bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlardan ham ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha ustunlikka egadir. Masalan, Tayvan, 1952-1995-yillarda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini 170 marotaba o'stirgan edi (aholining o'sishiga nisbatan 2,5 marotaba ortiqroqdir). Tashqi savdo hajmini esa 544 marotabaga oshirdi. Mamlakatning inflyatsiya darajasi o'rtacha 3,6 %ni, iqtisodiy o'sishning o'rtacha yillik sur'ati 8,7 %ni tashkil etgan edi. Tayvan iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoning ilg'or mamlakatlari qatoriga kiritilgan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad taxminan 12 ming dollarni tashkil qilgan edi.

Shunday qilib, 1960-1990-yillarda Osiyo mintaqasidagi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish sur'ati hisoblab ko'rilinganda uning miqdori yiliga 5 %ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin (bu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlariда 2 %ga teng bo'lgan). Ana shu yillarda Tayvanda yillik o'sish sur'ati juda yuqori bo'lib 8,7 %ni tashkil etgan. 90-yillarda Janubiy Koreya va Singapurda yillik o'sish sur'atlari 8 %ni, Malayziyada esa 9 %ni tashkil etgan.

Jahon iqtisodiyotida "Yangi industrial mamlakatlar"ning iqtisodiy rivojlanish sur'atining yuqoriligi aholining yashash turmush tarzini, yaxshilab borayotganligi bilan uygunlashib bormoqda. 1960-1990-yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad rivojlanayotgan "YalM"da 4 marotaba o'sgan edi. Xullas, xalqaro ekspertlarning bashorat qilishicha, 2015-yilga borib Sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan mamlakatlari G'arbiy Yevropaning yalpi milliy mahsulotining hajmi bo'yicha quvib o'tishi, 2020-yillarga borib esa Shimoliy Amerikadan ham o'zib ketishi bashorat qilinmoqda.

Osiyo - Tinch okeani mintaqasining "YalD"laridan biri Singapur haqida shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, u 1995-yilda mintaqqa davlatlari ichida birinchi bo'lib "industrial rivojlangan mamlakat" statusini qo'lga kiritdi. Bunday unvon unga Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT) tomonidan rasman e'lon qilindi. Barqaror iqtisodiy o'sishning 5-10 yilligi davomida o'ziga nisbatan past rivojlangan 10 mamlakat doirasidan ajralib chiqib, dunyoning boy davlatlari qatoridan joy oldi. (aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hisobiga). Siyosiy barqarorlik sharoitida mamlakatning sanoatida yillik o'sish sur'ati o'rtacha 8,4 %ni tashkil etdi. Mamlakat aholisining yashash turmush tarzi esa o'rtacha yetti marotabaga ortdi.

“YalM”ning iqtisodiy rivojlanish modeli va uning muvaffaqiyatli taraqqiy etish tomonlari qarab chiqilganda, uning tashqi va ichki omillari xususida ham to’xtalib o’tiladi. Ko’rinib turibdiki, omillarning bu ikki guruhlari, “YalM”larning hukumat rahbarlari tomonidan olib borilayotgan noziq maqsadli siyosatlar orqali to’ldirib turiladi. “YalM”larning ichki tuzilishidagi muammolarga, hamda ularning xo’jalik mexanizmlariga asosiy e’tiborni qaratmasdan turib, “YalM” tashqi iqtisodiy omillarining o’ziga xos tomonlarini ochib bera olmaymiz. Endi biz Lotin Amerikasining “YalM”ning rivojlanishi xususida to’xtalib o’tamiz.

Jahon tajribasi guvohlik bermoqdaki, jahonning u yoki bu mamlakatlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikka faol aktiv kirishayotganda asosiy ishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda tashqi savdoning o’sishiga xos hisoblanadigan shart-sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday ekan, bu mamlakatlар o’z iqtisodiy rivojlanishlari doirasida texnologik ishlab chiqarishning barcha bo’g’inlaridan keng foydalangan holda tarkibiy qayta qurilishlarga, ishlab chiqarishda tayyor xomashyolardan texnologik sig’imi yuqori bo’lgan tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga o’ta boshlaydi. Jahon iqtisodiyotida tarmoqlarni rivojlantrish va qayta ta’mirlash uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish, xalqaro mehnat taqsimoti ko’lamida ancha istiqbolli va “foydali” usul hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotida AQSh, Germaniya, Yaponiya kabi bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlari xuddi mana shu yo’llar orqali taraqqiy etgan edi. AQSh o’z iqtisodiy faoliyatini dastlabki yillarda asosan xomashyo, mevalar, paxta, asal, ko’mir va shunga o’xshash bir qator sanoat va qishloq ho’jalik mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan bo’lsa, GFR 50-yillarda ko’mir, qora metallurgiya, ximiyaviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan, Yaponiya esa to’qimachilik, metallurgiya, ximiyaviy sanoat mahsulotlarni eksport qilishdan boshlagan edi.

60-yillarda Sharqiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi bir qator mamlakatlari, ya’ni “YalM”lar ham xuddi ana shu yo’llar orqali rivojlanish bosqichiga qadam qo’yan edi.

Ushbu davlatlarning barchasi iqtisodiy o’sishning tashqi omillaridan samarali foydalandilar. Shu o’rinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalari - texnika va texnologiyalarni keng miqyosda jalb qilinganligini ta’kidlab o’tish lozimdir. Xullas, jahon iqtisodiyotida shunday savol tug’ildi qaysi sabablarga ko’ra “yangi industrial mamlakatlari”ni rivojlanayotgan dunyodagi boshqa mamlakatlardan ajratib o’rganish mumkin?

Ma’lumki, bir qator sabablarga ko’ra, “yangi industrial mamlakatlari” ning ba’zi birlari sanoati rivojlangan mamlakatning muhim siyosi va iqtisodiy manfaatlari ta’sir doirasiga tushib qolganligini ko’rishimiz mumkin. AQShning siyosiy manfaatlari asosan Sharqiy Osiyo mamlakatlarining “kommunistik ta’siriga” qarshi turuvchi Tayvan va Janubiy Koreyaning siyosiy manfaatlarni qo’llab-quvvatlashga qaratilgan edi. Shuning uchun ham ushbu mamlakatlarga cheksiz iqtisodiy yordam uyushtirilib harbiy jihatdan qo’llab-quvvatlandi. (Masalan, Tayvanga 1,5 mlrd. AQSh dollari miqdorida yordam ko’rsatilgan edi). 1950-1960-yillarda AQShning yordami, Tayvanda jalb etilgan jami investitsiyalarning 34 %ni tashkil etgan bo’lib, uning 74 %ni infrastrukturaga, 59 %ni qishloq xo’jaligiga va

13 %ni esa sanoatga jalb etilgan edi. Xullas bularning barchasi Tayvan iqtisodiyotining rivojlanishida tashlangan ijobiy qadam bo'ldi.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda "YalM"larni zamonaviy iqtisodiy tarkibining shakllanishida, to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning ta'siri katta bo'ldi. 80-yillarning birinchi yarmida "YalM"larni iqtisodiyotidagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning miqdori, rivojlanayotgan mamlakatlardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan sarmoya qo'yilmalarining 42 %ga yetgan edi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AQSh "yangi industrial mamlakatlar" dagi ishbilarmonlik sarmoyalaring eng ko'zga ko'rning investorini bo'lib hisoblanadi. Ulardagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan investitsiyalarning o'sishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investitsiyalar umumiy miqdorining 10 %ni tashkil etadi. Yaponiya hozirgi kunda "YalM" dagi to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilgan miqdori bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi.

Yaponiya investitsiyalari, "YalM" ning industriallashuviga va ularning eksport tavarlarning raqobatbardoshligini oshirishga imkoniyat yaratib, "YalM"lar sanoatida qayta ishlanadigan mahsulotlarning yirik eksportyorlaridan biriga aylanishida muhim rol o'ynamoqda. Yaponiya investitsiyalarini kirib kelishi birgina 1982-1985-yillarning o'zida Tayvanda 2,1 martaga, Gonkongda esa 61%ga o'sgan edi.

Yaponiya sarmoyalaring ishtirokida, ushbu mamlakatlar yuqori sifatli tayyor mahsulotlarning ekportyorlari bo'lib qolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chiqarish bazasi tashkil etildi. 80-yillarning boshidan, Yaponiya investitsiyalari umumiy miqdorining yarmisidan ko'prog'ini tashkil etgan edi. Xullas, Yapon investorlari ishtirokida "YalM"larda zamonaviy dastgohlar, elektronika jihozlari, dengiz kemalari va boshqalarni ishlab chiqarish bo'yicha komplekslar barpo etilgan edi.

Jahon iqtisodiyotida Osiyoning "YalM"lari uchun shu narsa xarakterli bo'ldiki, ulardagagi tadbirkorlik sarmoyalari, birinchi galda qayta ishslash sanoati va xomashyo tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirildi. O'z navbatida, Lotin Amerikasining "YalM"laridagi ishbilarmonlik sarmoyalari esa, ko'proq savdo, xizmat ko'rsatish sohalari va qayta ishslash sanoat tarmoqlariga jalb etilgan edi. Xullas, jahon iqtisodiyotida xorijiy sarmoyalarning keng miqyosda tarqalishi shu narsaga olib keldiki, "YalM"larda xorijiy sarmoyalalar ishtirok etmagan birorta ham iqtisodiy tarmoq qolmagan edi.

1998-yilda Lotin Amerikasi va Osiyoning "YalM"larining bozorlaridagi qo'yilmalarining daromadililik (% hisobida) quyidagicha xarakterda bo'lgan edi. Argentinada 58 %, Braziliyada 83,5 % ni, Meksikada 40 % ni, Chilida 39 % ni, Indoneziyada 79 %ni, Janubiy Koreyada 26,1 % ni, Tayvanda 104 % ni, Tailandda 121,3 % ni, Filippinda 165,2 % ni tashkil etgan edi. Ushbu statistik manbalardan ko'rinish turibdiki, Osiyoning "YalM"laridagi investitsiyalarning daromadililik darajasi Lotin Amerikasi mamlakatlarinikidan sezilarli darajada yuqoriroq bo'lgan.

Shunday savol tugiladi: xo'sh nima uchun xorijiy mamlakatlarning xususiy sarmoyalaring barchasi Osyo mintaqasidagi ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan faolroq kirib boradi?

Ma'lumki, 60-yillarning oxirida jahon xo'jaligini rivojlanishidagi vaziyat shu qadar murakkablashgan ediki, natijada transmilliy korporatsiyalarning rivojlanish

manfaatlari va strategiyalari Osiyodagi bir qator davlatlarning imkoniyatlari va intilishlari bilan moslashib borgan edi. Rivojlanayotgan mamlakatlar importidagi turli xildagi cheklashlar va ularning uncha katta bo'limgan to'lov qobiliyatiga duch kelayotgan transmilliy korporatsiyalar, joylarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish maqsadida, sarmoyalarni chetga chiqarish orqali tovarlar eksportini qisman yangilash tomon qadam qo'ya boshladи.

Transmilliy korporatsiyalarning xuddi ana shu yo'naliшhлardagi faoliyati, rivojlangan mamlakatlarning to'yingan bozorlarining konyukturasi, raqobatning avj olishi va ishlab chiqarish xarakatlarini pasaytirish uchun kurashish orqali amalga oshirilmoqda. Transmilliy korporatsiyalar, o'zлari faoliyat ko'rsatayotgan joylarda ishlab chiqarishni ilmiy asosda rivojlantirishga e'tiborni qaratadi. Xarakterli tomoni shundaki, jahon iqtisodiyotida "Osiyo ajdarhosи" deb nom olgan xalqaro iqtisodiy konyukturalarining bunday o'zgarishlarni kabul qilishga va ulardan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga tayyor ekanligi ma'lum bo'ldi. Transmilliy korporatsiyalarni, aynan Osiyo mintaqasiga jalb qilishida quyidagi shart - sharoitlar muhim ahamiyat kasb etgan edi.

1. "Yangi industrial mamlakatlar" ning foydali strategik joylashganligi. Ularning barchasi jahoning savdo iqtisodiy yo'llarining chorrahasida, ya'ni jahon xo'jaligi markazlari bo'lmiss - AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarga yaqinroq hududlarda joylashganligi.

2. "Yangi industrial mamlakatlar" ning barchasida sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan munosib hisoblangan avtokratik yoki shunga yaqin bo'lgan siyosiy muhitlar yaratilganligi. Ularda siyosiy barkororlik ta'minlanib, siyosiy hamda demokratik o'zgarishlar, iqtisodiy islohotlar amalga oshiriladi. Xorijiy investorlarning xavfsizligi uchun yuqori darajali kafolatlar ta'minlanadi.

3. Osiyodagi "yangi industrial mamlakatlar" aholisiga xos bo'lgan mehnatsevarlik intiluvchanlik, tartibiliik, matonatilik singari noiqitsodiy omillar ham katta ahamiyat kasb etdi. Bu omilar ma'lum darajada Osiyo va Lotin Amerikasidagi - "YalM" larning ikki modeli o'rtaSIDagi o'ziga xos bo'lgan bellashuvda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Xo'sh, ushbu modellarning o'ziga xos tomonlarini nimada ko'rshimiz mumkin. Jahon iqtisodiyotida birinchi model milliy iqtisodiyotning tashqi bozor va eksportga tomon ustivor yo'naliшhлari orqali rivojlanishini ko'rsatib bersa, ikkinchi model esa import o'mini egallashga qaratilganligidir. Birinchi modelda ko'rsatib o'tilgandek, XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida AQSh, ikkinchi jahon urishidan keyin - G'arbiy Yevropa davlatlari va Yaponiya, keyinchalik esa Osiyoning "YalM" lari ham rivojlanishning birinchi modeli yo'lidan borishdi. Ikkinci model esa sezilarli darajada Lotin Amerikasining "YalM" lari tomonidan o'zlashtirib olingan edi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda import o'mini egallashga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish strategiyalari bir qator rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'yamoqda. Import o'mini egallash strategiyalari xo'jalik tarkibining xilma - xilligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi. Ko'philik rivojlanayotgan mamlakatlarda esa yangi va muhim bo'lib

hisoblanuvchi bir qator ishlab chiqarish tarmoqlari barpo etilishi bilan bir qatorda muhim yo'nalishlar bo'yicha o'z - o'zini ta'minlash darajasi ham o'sib bormoqda.

Shuningdek iqtisodiyotni tubdan isloh qilishda asosiy yo'l bo'lib hisoblanuvchi import o'mini egallahsga mo'ljallangan ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirishni asosiy o'ringa qo'yuvchi barcha mamlakatlarda o'z-o'zidan jiddiy inqirozlar bo'lib turibdi. Gap shundaki, xorijiy kompaniyalar uchun imtiyozli kreditlarni yo'qligi va protektsionizm siyosatiga asoslangan milliy iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatishini "qo'llab-quvvatlab turganlik" muhiti jahon iqtisodiyotida tez moslashuvchan va samarali iqtisodiy tizimning vujudga kelishiga yo'l qo'ymadidi. Umuman oganda, import o'mini egallah siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatining dunyo xo'jaligida tub o'zgarishlar yasashiga yo'l qo'ymaydi.

Bundan tashqari, import o'mini egallah siyosati nafaqat tashqi omillarni pasayishiga yo'l qo'ymaydi, balki uning o'sishini ham ta'minlaydi. Import o'mini egallah printsiplariga uzoq vaqt tayanilganda mamlakatlarda qoloqlikni bartaraf etish imkoniyati paydo bo'ladi hamda keng miqyosdagi taraqqiyotga erishishni ta'minlovchi iqtisodiyotdagи yetakechi tarmoqlarni vujudga kelishiga halaqt beruvchi barcha to'siqlarga barham beriladi. Protektsionizm, ichki bozorlarni va biznesni himoya qilish choralarasi sifatida qisman samarasiz ishlayotganiga qaramasdan, uning monopol holati va baholarining keskin o'sayotganligidan foydalanib foyda olayotgan mahalliy korxonalarni qo'llab - quvvatlaydi. Xullas, hozirgi kunda jahon iqtisodiyotida import o'mini egallah davri, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan "yangi industrial mamlakatlar"da ham o'z nihoyasiga yetganligini ko'rshimiz mumkin.

Jahon iqtisodiyotida import o'mini egallah strategiyasi Lotin Amerikasining "YAlM"lari (Braziliy, Argentina, Meksika) uchun xilma-xil bo'lgan milliy iqtisodiyotni barpo etishda va shuningdek bir qator tovarlarni ishlab chiqarish bo'yicha jahonda salmoqli o'rnini egallab kelishida muhim rolni o'ynamoqda. Nima bo'lganda ham ushbu mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan qoloqlik darajasini bartaraf etish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yarata olmadilar. Shuning uchun ham Lotin Amerikasining "YAlM"lari qanchalik kuchayib iqtisodiy potensialga ega bo'lishlariga qaramasdan, Osiyodagi "YAlM"larga nisbatan iqtisodiy jihatdan ancha qoloqligicha qolmoqda. Masalan, Braziliyaning yalpi ichki mahsuloti (YAlM) Sharqiy Osiyodagi "yangi industrial mamlakatlar" ning umumiy yalpi ichki mahsulotiga nisbatan biroz kamroqdir.

Lotin Amerikasining "YAlM"lari ekportining salmoqli o'sishiga ega bo'lmasdan turib, o'z iqtisodiyotini talab darajasida tubdan isloh qilishga erisha olmadilar. Iqtisodiy o'sish sur'atlarining natijalariga qarab, ichki iqtisodiy muammolarni bartaraf etish uchun bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Bir vaqtning o'zida tashqi muammolar ham vujudga keldi. Eksportning past darajada o'sishi, to'lov balansi defitsitning hamda barcha yangi kreditlarga bo'lgan talablamning o'sishiga imkoniyat yaratdi. Oqibatda ushbu mamlakatlar sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarning eng ilg'or bo'lмагan texnika va texnologiyalarini o'z iqtisodiyotida joriy etish siyosatida mustahkamlanib qolaverdi.

Qayd etish joizki, Lotin Amerikasining “yangi industrial mamlakat”lari 90-yillarning o’rtalariga kelib 80-yillardagi uzoq davom etgan inqirozdan chiqib oldi. Braziliy, Argentina, Meksika, Chili kabi davlatlarda amalga oshirilgan liberal iqtisodiy o’sish sur’atlari yuksalib, savdo balansini yaxshilashda ijobiy yutuqlar qo’liga kiritildi.

Lotin Amerikasining yirik “YALM”laridan biri Braziliyada olib borilayotgan siyosat - bu ochiq iqtisodiyotni yaratishga qaratilganligidir. Buning uchun mamlakatning ichki bozorida raqobat kurashuvi uchun muhit yaratilayotgan bo’lib. unga bog’lik holda import tariflari pasaytirildi. 1995-yilda MERKOSUR mamlakatlari (Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay) o’rtasida bojxona to’siqlari to’liq olib tashlandi.

Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” o’z iqtisodiyotining eksportga mo’ljallangan ancha samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdi. Bu model, ma’lum davr mobaynida bir vaqtning o’zida import o’rnini egallash siyosatini ham o’z ichiga olgan edi. Eksport siyosati o’rnini egallashga mo’ljallangan industriallashuvning tugallangan davrini qayta sodir etishni talab etmaydi. Ma’lumki, jahon iqtisodiyotida import o’rnini egallash va eksportga mo’ljallangan iqtisodiy siyosat bir-biri bilan tengma - teng holda harakat qilib, ba’zi davrlarda esa ular bir-biridan ustunlikka ham ega bo’lishi mumkin. Eksportni kengaytirish davriga yoppasiga o’tish oldidan, import o’rnini egallash uchun jahon mamlakatlari ishlab chiqarishining zamonaviy tizimlarini vujudga keltirish, xalq xo’jaligini an’anaviy sektorini qayta qurish kabi masalarga ham e’tiborni qaratishmoqda.

Osiyoning ko’pchilik mamlakatlarda, jumladan XX asning 50 va 60- yillarda Janubiy Koreya va Tayvanda, 60-yillarda Malayziyada; 60 va 70-yillarning boshlarida Tailandda, 50 va 60-yillarning oxirida Filippinda import o’rnini egallash siyosati ustuvor yo’nalishga ega bo’lgan edi. Gonkong va ma’lum darajada Singapur, o’zlarining tarixiy rivojanish shart - sharoitlari, jug’rofiy joylashuvi va ichki talabning seklanganligi ta’sirida ishlab chiqarishni ko’proq eksportga qaratdilar. Mahalliy ishlab chiqarishni rag’batlantiruvchi chora-tadibrlar, qayta ishlash sanoatidagi foyda me’yorini oshirish, iste’mol mahsulotlarni va shuningdek uzoq muddatli foydalananishga mo’ljallangan tovarlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning asta - sekinlik bilan import o’rnini egallashiga sabab bo’lgan edi.

60-80-yillarda Janubiy Koreya jahon bozoriga uzoq muddatli foydalananishga mo’ljalangan mahsulotlarning 2,9 %ni, 3,4 %ni, 9,6 %ni, 9,3 %ni, 11,1 %ni va 9,6 %ni yetkazib bergen bo’lib, uning jahon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1% ga to’g’ri kelgan edi.

Osiyoning “yangi industrial davlatlari” sanoat mahsulotlari eksportining yuqori dinamikasiga asoslangan holda, an’anaviy ayrim tovarlar eksporti bo’yicha tashqi savdo aylanmasida hal qiluvchi o’rinni egallagan edi. Masalan, Janubiy Koreya va Tayvan eksportida xomashyo va oziq-ovqatning ulushi mos ravishda 7,1 % va 7 %ni tashkil etgan edi. Xullas, 90-yillarda Janubiy Koreyada tovarlar eksportida kiymati bo’yicha ikkinchi o’rinni poyafzal mahsulotlari egallagan bo’lsa, Tayvanda esa o’yinchoqlar va sport tovarlari egallagan edi. Janubiy Koreya

eksportida to'rtinchi o'rinda sintetik mahsulotlardan tayyorlangan tekstil tovarlari turgan bo'lsa, Tayvanda esa yettinchi o'rinda poyafzal mahsulotlari turgan edi.

Osiyoning "Yangi industrial davlatlari"da ayniqsa, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha eksportida Hindiston va shuningdek Lotin Amerikasining "YaID"larining kuchsizligi sezilarlidir. Agar Lotin Amerikasining "YaID"larini tovarlar eksportinig rivojlangan davlatlar umumiyligi eksportidagi ulushi 1998-yilda 1980-yilga nisbatan unchalik kamaymagan (0.5 %) bo'lsa-da, mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish bo'yicha ulushi qariyb 1.8 barobar kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Aynan ana shu mashina texnik mahsulotlar eksporti rivojlanayotgan davlatlarning xalqaro mehnat taqsimotidagi holatlarini yaxshilanishining eng muhim omilidir.

90-yillarda Osiyoning "Yangi industrial davlatlari"ni olib borayotgan faol tashqi savdo siyosati AQShning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan bo'lgan yillik o'zarlo savdo hajmi (128,4 mlrd.doll.) G'arbiy Yevropa bilan bo'lgan savdo aylanmasidan (117,1 mlrd.doll.) yuqori bo'lgan edi. Bunda Osiyoning "YaID"lari (Yaponiyani qo'shib hisoblaganda) AQSh bozorida avtomobillar va elektrontexnikaning 30 %ni, tekstil va tikuvchilik mahsulotlarining 50 %ni egallagan edi.

80-90-yillarda Rivojlangan mamlakatlarning eng yirik kapital importyori bo'lgan "Yangi industrial davlatlar" o'z geografiyasini ancha kengaytirgan edi. Hozirgi kunda ilg'or sanoati rivojlangan davlatlarini kapitali uchun Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi rivojlanayotgan davlatlarning yangi bozorlaridir. Masalan, Janubiy Koreya firmalari AQShda aniq maqsadga yo'naltirilgan eksport ekspansiyasini o'tkazmoqda. Amerika iqtisodiyotiga kapital qo'yishib, Janubiy Koreyaliklar o'z iqtisodiyoti uchun eng yangi texnologiyalarni kirib kelishiga yo'l ochmoqdalar. Shuningdek Janubiy Koreya firmalari Osiyoning "ajdarho" deb nom olgan boshqa davlatlariga ham kapital olib chikishni ko'paytirmoqda. Masalan, Tayvanning Xitoya bo'lgan qiziqlishi juda kattadir. 90-yillarning o'rtalarida Tayvanning XXRdagи investitsiyalari 9 mlrd.doll.dan oshib ketgan edi. O'z navbatida Gongkonglik ishbilarmonlar XXRda ro'yxatga olingen qo'shma korxonalarning yarmidan ko'prog'ini tashkil qilishgan.

XX asming 50-yillarida jahon xo'jaligidagi baynalminallahuv jarayonlarining tezlashishi rivojlanayotgan davlatlarni, birinchi navbatda "yangi industrial davlatlar"ni ham qamrab olgan edi. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarishni, mehnat va kapital bozorlarini va tovar ayirboshlash jarayonlarining baynalminallahuviga moliya bozorlarining baynalminallahuviga ham qo'shildi. "YaID"larning kredit imkoniyatini o'sishi, milliy moliyaviy bozorlarining rivojlanishi bilan va shuningdek moliyaviy salohiyatining oshishi bilan ham chambarchas bog'liqidir.

Ko'pgina "yangi industrial davlatlar" hozirgi kunda milliy moliyaviy bozorlarni tashkil topishining birinchi bosqichidan o'tishib ularning faoliyatini liberallashtirishning ikkinchi bosqichiga kirishdilar. Bu bilan esa ularning xalqaro moliya munosabatlari tizimiga faol integratsiyalashuviga asos yaratildi. Kapital harakatining baynalminallahish jarayonlari hatto rivojlangan davlatlar orasida ham yakunlanishdan uzoqdir. Shuning uchun ham bu haqida rivojlanayotgan davlatlar

haqida gapirmsa ham bo'ladi. Shunga qaramasdan, ba'zi bir "yangi industorial davlatlar" (Singapur va Gonkong) bu yo'lda o'zlarining sezilarli qadamlarini qo'ydilar. Bunga, 70-yillarda jahon iqtisodiyotida yangi xalqaro moliyaviy markazlarning hosil bo'lishi va tez o'sishini kiritish mumkin. XXI asr boshlarida Tayvan Osiyo - Tinch okeani mintaqasidagi yirik valyuta-moliyaviy markaziga aylanishini o'z oldiga maqsad qilib ko'ysi. Osiyoning "YALD"lari xalqaro moliya markazlari kredit-moliya operatsiyalarini o'tkazish miqyosi bo'yicha London, Parij, TSyurix kabi yirik moliya markazlari qatoriga chiqib, ularni ssuda kapitali bozoridan asta-sekin sikib chiqarmoqda.

Osiyoning "YALD"larini iqtisodiy evolyutsiyasining xarakterli tomonlaridan biri ularning bir-biriga bo'lgan qiziqishini tobora ortib borayotganligidir. Sanoati rivojlangan G'arbiy Yevropa davlatlariga kapital yo'naltirishning ustuvor tendentsiyasi, mintaqa va bir-biriga yaqin bo'lgan submintaqalarda savdo-iqtisodiy hamkorlarni olib borishligi bilan to'ldirilmoqda. Ammo bu Osiyoning "YALD"larini raqobatbardoshliligin oshirishga e'tibor bermayapti degani emas. Xullas, 90-yillarning o'talarida tovarlarning raqobatbardoshligi bo'yicha jahondagi birinchi beshlikda Singapur, Gonkong, Tayvan kabi davlatlar turgan edi.

Bu davlatlarda qabul qilingan iqtisodiy strategiyaning asosiy yo'naliishi ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishdir. Mehnattalab va past rentabelli ishlab chiqarishlar "YALD"larning "ikkinci okimi"da turgan Xitoy va Vyetnamga "topshirmoqda". Natijada bu ishlab chiqarishlarni bir paytlar sodir etgan sanoati rivojlangan davlatlardan birinchi avlod "yangi industrial davlatlar"ga ko'chish jarayoni amalda qaytarilmoqda. Shunday qilib "YALD"larni rivojlanishidagi qo'lg'a kiritilgan yutuqlari, jahon xo'jaligiga integratsiyasi, iqtisodiy o'sishining istiqbollari, aholi turmush tarzini o'sishi ushbu davlatlarning iqtisodiyotida tashqi iqtisodiy ekspansiyalarning roli yuqori darajada deyishga imkon beradi.

XXI asrda ushbu davlatlar jahon iqtisodiy hukmronligida yuqoriq o'rinni egallab, yangi va muhim natijalarni namoyish qilmoqda. Jahon Bankininng bashoratiga qaraganda, yaqin 10 yillar mobaynida o'sishning o'rtacha sur'atlari Janubiy Osiyoda - 5,5 %ni, Sharqiy Osiyoda - 7,7 %ni, Lotin Amerikasida - 3,5 %ni tashkil qilar ekan. 1996-2004-yillarda Sharqiy Osiyoda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning yillik o'sishi 6,6 %ni tashkil etib, o'rta hisobda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yillik daromad 1,9 ga o'sgan edi.

### **8.3. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning AQSh, Yaponiya, Germaniya, Shved, Xitoy modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari**

Jamiyatni taraqqiy ettrish va iqtisodiyotni isloh qilish yo'llarining xilma-xilligi bir qancha omillarga bog'liq. Avvalambor, bunga ularning aniq maqsadni ko'zlab yo'naltirilishi va iqtisodiyotning amal qilish printsiplari sabab bo'ladi. Rivojlanayotgan yosh mamlakatlar o'z oldilariga erishish osonroq bo'lgan maqsadlarni qo'yib, "muqobil rivojlanish" nazariyasining turli konsepsiyalariga tayanib, o'z yo'llarini mana shu konsepsiylar doirasida izlashga majbur edilar. Bu konsepsiyalarning asosiyлari quyidagilar:

- "Asosiy ehtiyojlar" konsepsiysi. Aholining eng kam tirikchilik ehtiyojini kafolatli tarzda ta'minlash va ish bilan band qilish muammolarini hal etish ushbu

konsepsiyaning asosiy maqsadidir;

- “Maqbul yoki tegishli texnologiya” konsepsiysi. Bu konsepsiya aholi bandligini ta’minlaydigan va mahalliy xomashyoni, avvalo qishloq xo’jalik xomashyosini qayta ishlashga qaratilgan sermehnat texnologiyani rivojlantirish zarurligiga asoslanadi;

- “O’z kuchiga jamoa bo’lib tayanish” konsepsiysi. Bu konsepsiya mavjud zaxiralardan to’liqroq foydalanishga va rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiy etgan mamlakatlarga qaramligini kamaytirish maqsadida ular o’rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan;

- “Yangi xalqaro iqtisodiy tartib” konsepsiysi. Bu konsepsiya rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy jihatdan mustamlaka holatidan qutilishga va iqtisodiy qoloqligini tugatishga, teng huquqli sheriklar sifatida tan olinish, xomashyo va sanoat mollariga o’z manfaatlariga muvofiq keladigan yangi narxlarni, xalqaro savdo me’yorlarini, valyuta kursini belgilashga, zamonaviy texnologiyalarni sotib olish imkoniyatlarini kengaytirishga bo’lgan umumiy intilishlarini aks ettiradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko’pgina andozalari, iqtisodiy yo’llari yuqorida ko’rsatilgan konsepsialar va nazariyalarning o’ziga xos qo’shilmasidan iboratdir<sup>53</sup>

Jahonda milliy taraqqiyot modellari ko’p. Ular o’sha mamlakat tub aholisi - millatning nomi bilan ataladi. Masalan, amerika, nemis, shved, yapon, Xitoy singari milliy modellar ma’lum. O’tgan asrning 90-yillari boshlarida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan “O’zbek modeli” tushunchasi hayotga shiddat bilan kirib keldi. U qisqa vaqt ichida shunchaki bir shior emas, balki hayotbaxsh kuchga ega ta’limot ekanligi hayotda o’z ifodasini topa boshladi.

Har bir milliy model o’sha mamlakat aholisining mentaliteti, tarixiy va madaniy qadriyatları, siyosiy tuzumi, ijtimoiy tarkibi, tabiiy - iqtisodiy shart-sharoitlari, ishlab chiqarish omillari va resurslari, iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi kabi holatlardan kelib chiqadi.

Qanday model to’g’risida gap bormasin, asosiy maqsad samarali iqtisodiyotni barpo etish, xalq turmush darajasini yuksalirishdan iboratdir. Biron-bir modelni tanlash pirovard maqsad emas. Model eng avvalo mavjud tabiiy, ishlab chiqarish va buyuk aql-zakovatning amaldagi ifodasıdır.

Shimoliy Amerika, xususan AQSh modelida bozorda davlatning xo’jalik faoliyatidagi roli eng past darajaga tushirilgan. Davlat asosan uchta vazifa - barqarorlik, qonun oldida barcha fuqarolarining tengligini ta’minalash, infratuzilmani rivojlantirish yo’li bilan biznes va tadbirkorlik faoliyatiga ko’maklashish hamda o’zini o’zi boqishga qurbi yetmaydiganlarga g’amxo’rlik ko’rsatish bilan shug’ullanadi. Bu model bozorning keskin, shiddatli yo’li bo’lib, korxonalarining zarar keltirib ishlashini, dotatsiyani rad qiladi. Bu yo’l bir qarashda ancha mastunkor tuyulsa-da, ammo xalqni, ayniqsa, uning kam ta’minlangan tabaqalarini ancha qiyin ahvolga solib qo’yishi mumkin. Amerika modeli narxlarning erkin shakllanishi, subsidiyadan voz kechish, tashqi savdo uchun ochiq iqtisodiyot, davlat korxonalarini

<sup>53</sup> Karimov I.A. O’zbekiston – bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li. – T.: O’zbekiston, 1993, 20-21-b.

xususiy lashtirish, chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, samarasiz korxonalarni yopish va ortiqcha ishchilarini bo'shatishni ko'zda tutadi. Bu yo'l muayyan keskinliklar - g'oyat yuqori narx-navo, ishsizlik, daromadlarning pasayishi, tashqi qarzning oshishiga ham olib keladi. Ammo bunday yo'qotishlar erkin bozorga o'tish bilan bog'liq. Uzoq muddatli foyda bilan keyinchalik qoplanishi mumkin, albatta.

Bu model aksiyadorlik mulkining intensiv qayta taqsimlanishi bilan tavsiflanadi. Bu modelda korxonaga tovar sifatida qaraladi. U "qismrlarga" bo'linib ham, fond birjasi orqali ham sotilishi mumkin. "Amerikacha" iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xos xustasiyatlardan yana biri ishlab chiqarish kontsentrasiyalashuvining g'oyat yuqoriligi va yirik biznesning iqtisodiyotda muhim o'r'in tutishidir. Rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra, korporatsiyalarining tovar aylanmasi mamlakatdagi jami tovar aylanmasining 90 %ini tashkil etadi. Mayjud 4 milliondan ortiq sanoat korporatsiyasidan besh yuztasi mamlakat yalpi ichki mahsulotining 40 %ini ishlab chiqaradi<sup>54</sup>. Ushbu korporatsiyalarining katta qismi transmilliy korporatsiyalar hisoblanadi va ularning xorijdagi korxonalari ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlari AQSh yalpi ichki mahsulotining 1/3 qismini tashkil etadi<sup>55</sup>.

Moliya kapitali darajasida kontsentrasiyalashuv ko'rsatkichlari yanada yuqori. Garchi mamlakatda bir necha ming tijorat banki faoliyat yuritsada, ulardan elliktasi jami bank aktivlarining 1/3 qismiga egalik qiladi.

Yirik banklar va sanoat korporatsiyalari strategik alyanslarni tashkil etadi. Bunday yirik moliya-sanoat guruhlari mamlakat yetakchi iqtisodiy markazlarini o'z ta'sir doirasiga qamrab olishi tabiiy. Mutaxassislar fikricha, hozirgi kunda AQSh iqtisodiyotida yigirmadan ortiq ana shunday alyans faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy taraqqiyotning "amerikacha" modelida inson omilining roli ham yuqori ekanligini ta'kidlash lozim. AQSh muhojir-ajnabiylar mamlakati hisoblanadi. Amerika davlati muhojirlar tomonidan barpo etilgan. Ommaviy muhojirlilik AQSh aholisi milliy tarkibining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Hozirgi amerika millati - dunyoning turli qit'alardan, eng avvalo, Yevropadan ko'chib kelgan odamlarning etnik yaxlitligi natijasidir. Garchi AQShda yuzdan ortiq millat va elat istiqomat qilsa-da, ularning 80 %ini Yevropaliklar, 12 %ini qora tanli amerikaliklar, 5 %ini ispan tilida so'zlashuvchi amerikaliklar tashkil etadi. Mahalliy xalq (avvalo, hindular) soni bir %ga yaqin, xolos.

Iqtisodiy adabiyotlarda Yevropa mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyot modellari quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- nemis iqtisodiy taraqqiyot modeli;
- britancha taraqqiyot modeli;
- fransuzcha taraqqiyot modeli;
- iqtisodiy taraqqiyotning "shvedcha modeli".

Nemis iqtisodiy taraqqiyot modelining o'ziga xosligi shundaki, unda asosiy e'tibor ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga, ijtimoiy-huquqiy davlat qurilishiga qaratilgan. Nemis "iqtisodiy mo'jizasi" iqtisodiyotga davlat aralashuvi va

<sup>54</sup> Экономика США./Под ред. В.Сутина/ – СПб.: Питер, 2003. - стр.514.

<sup>55</sup> Черников Г.П. Мировая экономика. – М.: Дрофа, 2003. - стр.297.

erkin bozor tamoyillaridan maqsadga muvofiq foydalanishga asoslanadi. Germaniyada iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillari jumlasiga "Marshall rejasii"ga muvofiq keng miqyosli yordamdan foydalanish, "inson kapitali" sifatining yuqoriligi, jahon xo'jalik aloqalarida faol ishtirok etish, mo'tadir ichki iqtisodiy siyosatni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida uzoq vaqt davomida narx barqarorligi saqlanib turgan holda, mamlakatda yalpi ichki mahsulotning yillik o'rtacha qo'shimcha o'sish sur'ati 8,5 %gacha etdi<sup>11</sup>. Aynan shu davrda "nemischa sifat", "nemischa mehnatkashlik", "nemischa mas'uliyat" kabi tushunchalar paydo bo'ldi.

Britancha taraqqiyot modelida iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ustuvor o'ringa ega. Davlat kapital qo'yilmalarni moliyalashtirishda, yangi tarmoqlarni rag'batlantirishda, ilmiy yo'nalishni rivojlantirishda, ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat ko'plab kichik korxonalarning yirik kompaniyalar bilan o'zaro shartnoma imzolashida vositachi rolini bajaradi. Kichik korxonalar esa bunday shartnomalar orqali barqaror bozorga, ta'minot va moliyalashtirish manbasiga ega bo'ladi, yangi texnologiyalar va ilmiy-texnika taraqqiyoti natijalaridan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritadilar.

Fransuzcha taraqqiyot modeli "dirijizm" tamoyillariga asoslanadi. Garchi "neoliberal inqilob" natijasida davlatning tadbirkorlik faoliyati birmuncha qisqargan bo'lsa-da, Fransiyada davlat tadbirkorligi AQSh darajasidan 3 barobar yuqoridir. Davlatning tartibga solish faoliyati ham sezilarli darajada saqlanib qolgan. Bugungi kunda Fransiya hukumati umummiliy tuzilmaviy dastur, yangi tarmoqlarni rag'batlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, faol ijtimoiy siyosat yuritish orqali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sir o'tkazmoqda. Iqtisodiyotni tartibga solishda davlat budjeti asosiy o'rinda turadi. Fransiya milliy daromadining 54 %i davlat budjeti orqali qayta taqsimlanadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning "shvedcha modeli"da ijtimoiy tenglik va adolatni ta'minlash ustuvordir. "Shvedcha" modelning iqtisodiy asoslari quyidagilardan iborat:

- aralash iqtisodiyot (bozor mexanizmi va davlat tomonidan faol tartibga solish usulidan birlgilikda foydalanish);
- ishlab chiqarish sohasida xususiy mulkchilik kombinatsiyasi va "iste'molning jamoalashuvi";
- ijtimoiy xizmatlarda davlat-kommunal sektorining yirikligi;
- cheklangan mikroiqtisodiy siyosatning bandlik va investitsiyalarning y uqori darajasini saqlab turish bo'yicha selektiv chora-tadbirlar bilan uyg'unlashuvi.

Milliy iqtisodiy taraqqiyot modellarining Yevropa modellari (Germaniya, SHveytsariya, Niderlandiya, Shvetsiya) ko'p hollarda Germaniyadagi mashhur daryo nomi bilan - "Reyn modeli" deb ham ataladi. Bu model aktsioner korxonalar mulklari tarkibining barqarorligi bilan tavsiflanadi. Bu modelda iqtisodiy faoliyat "falsafasi" katta rol o'ynaydi. Unga ko'ra korxonaga umumiyl manfaatlarga ega jamaa deb qaraladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda Yevropa mamlakatlarining turli milliy modellarida umumYevropa modeliga yaqinlashuv holati kuzatiladi. Bu eng

avvalo quyidagi yo'naliishlarda amalga oshirildi:

- yagona ichki bozorni barpo etish;
- iqtisodiy va valyuta ittifoqini shakllantirish;
- moliya siyosatini muvofiglashtirish;
- ijtimoiy modellarning yaqinlashuvi;
- tadbirkorlik faoliyati va raqobat muhitini shakllantirishning yagona shart-sharoitlarini ta'minlash;
- federativ tuzilmani takomillashtirish;
- iqtisodiyotni tartibga solishning yagona qoidalari va mexanizmlarini qabul qilish.

Yaponiyada ham, Osiyoning yangi industrial davlatlarda ham erkin tadbirkorlik faoliyati davlat boshqaruvi (markazlashgan rejalashtirish) bilan qo'shib olib boriladi. Asosiy narxlar fiskal usullar bilan, ya'ni davlat daromadlarini nazarda tutib boshqarilishi mumkin. Albatta, hozirgi iqtisodiyotda muayyan turdag'i bozor o'z xolicha va sof ko'rinishda uchramaydi. Hozir mamlakatlar, xalqlar tajribasi ancha umumlashib ketdi. Osiyodagi yangi industrial davlatlar, ulardan oldin esa Yaponiya iqtisodiy islohot va xo'jalikni tarkibiy qayta qurish davomida jahon tajribasidan keng foydalanganligi ma'lum.

Ikkinci jahon urushidan keyin Yapon iqtisodiyoti qiyin ahvolga tushib qolgan. Sanoatning chuqur inqirozi, harbiy-iqtisodiy modeldan bozor modeliga o'tishning qiyinchiliklari, iqtisodiyotning harbiy ishlab chiqarishga bo'ysundirilganligi, tinkani quritadigan taqchillik, inflyatsiya va boshqalarni yengib o'tish lozim edi. Ammo Yaponiya xalqi bu qiyinchiliklarni ancha tez hal qildi. Chunki mamlakatdagi boshqarishning markazlashgan harbiy qolipi joriy etilgan shunchaki tartibot emas, balki mavjud vaziyatni hisobga olib, ataylab orqaga chekinish edi.

Shuning uchun iqtisodiyotning yangi bozor modeli qaytadan yaratilmadi. Yaponiyada sobiq sotsialistik mamlakatlardagi kabi millatning eng iste'dodli, eng qobiliyatli qismi, tadbirkor, omilkor kishilar yo'q qilib yuborilmagan edi. Asosiy masala - islohotni nimadan boshlashda edi. Bu masala avvalo to'g'ri belgilab olindi va keyin yechildi: iqtisodiy jonlantirishning ustun tomonlari aniq belgilandi, avvalo oziq-ovqat, ko'mir, ruda, eng hayotiy zarur buyumlarni ishlab chiqarish rivojlantirildi.

Iqtisodiy taraqqiyotning "Yaponcha" modeli o'zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan biri Yaponcha hayot tarzi an'analarini xurmat qilish asosida barcha darajada va barcha ijtimoiy sohalarda munosabatlarni muvofiglashtirishni ko'zda tutuvchi jamiyatni ijtimoiy tashkil etishdan iboratdir. Yaponiyada g'oyaviy qadriyatlar asosida amerikacha standartlardan keskin farq qiluvchi mehnatga rag'batning o'ziga xos shakli vujudga kelgan. Iqtisodiy taraqqiyotning aynan "Yaponcha" modelida jamiyat xayotida ijtimoiy-madaniy va diniy omilning ahamiyati yaqqol o'z ifodasini topgan.

Yapon xalqi va madaniyatida ijtimoiy ong, jamao ruhi muhim o'r'in tutadi. Bu qadimiy va boy tarix samarasidir. Yapon milliy an'analariga ko'ra har qanday ijtimoiy guruh manfaati alohida shaxs manfaatidan ustun. Jamiyat hayotida birlamchi guruh - oila asosiy rol o'ynaydi, keyingi o'rinda esa jamao turadi. Zamонави

korxona, korporatsiya ham, davlat ham yirik oila hisoblanadi.

Har bir Yaponiyalik guruh nomidan fikrashi va o'zini guruh a'zosi deb hisoblashi faqat Yapon madaniyati va an'analari bilan botiq emas, albatta. Bunda Yapon jamiyatining ijtimoiy tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Mutaxassislar fikricha, Yaponiya ijtimoiy barkamollik jamiyatni hisoblanadi. Garchi real vaziyat ushbu ta'rifga to'la mos tushmasa-da, Yaponianing boshqa rivojlangan mamlakatlardan farqli jihatlari ko'p. Chunonchi, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar miqdori g'oyat yuqori bo'lishiga qaramasdan, Yaponiyada boylar va kambag'allar o'rtasida urchaliik katta tasovut yo'q. Hususan, aholining eng boy va eng qashshoq 20 %i daromadlari o'rtasidagi nisbat Yaponida 2,9 barobarni tashkil etadi, xolos. Vaholanki, bu ko'rsatkich AQShda 19 ga teng<sup>56</sup>.

Boshqaruvning "Yaponcha" usuli rivojlanishning strategik muammolariga alohida e'tibor qaratadi. Davlat korxonalarining ijtimoiy samaradorligini oshirishga harakat qiladi. Bunda u faqat pul rentabelligi bilan o'lchanadigan tor doiradan Yuqoriqoq fikrashni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi<sup>57</sup>.

Xitoy va Vyetnam iqtisodiy islohotni ustun darajada qishloq xo'jaligidan, oziq-ovqat bozorini to'ldirishdan boshladi va yaxshi natijalarga erishdi.

Xitoyda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida bozor mexanizmi va iqtisodiyotning nodavlat sektori o'z mavqeini sezilarli darajada kuchaytirdi. Ammo davlat tomonidan tartibga solish, mehnat bo'yicha taqsimlash va ijtimoiy kafolatlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu modelni sotsialistik model ustuvor mavqega ega bo'lgan aralash iqtisodiyot deb ham atash mumkin. Shu o'rinda Xitoy modelining asoschilaridan biri Den Syaopinning quyidagi so'zlarini keltirish o'rinni: "Reja" yoki "bozor" - bu kapitalizm va sotsializmning tub farqi emas. Rejali iqtisodiyot sotsializm degan ma'noni anglatmaydi, kapitalizmda ham reja mavjud. Ayni vaqtida bozor iqtisodiyoti kapitalizm emas, zero, sotsializmda ham bozor mavjud. Reja va bozor - iqtisodiy usullardir<sup>58</sup>.

Iqtisodiy taraqqiyot modellarining xilma-xilligi rivojlanayotgan mamlakatlarga ham xos. Bu modellarni rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin: eksportga yo'naltirilgan va importning o'mini bosishga qaratilgan strategiyani tanlagan mamlakatlar. Birinchi guruhga Janubi-Sharqiy Osiyoning "yangi industrial mamlakatlari"ni, ikkinchi guruhga Lotin Amerikasi mamlakatlarining rivojlanish modelini kiritish mumkin.

### Asosiy tayanch tushunchalar

"Asosiy ehtiyojlar" konsepsiysi, "Maqbul yoki tegishli texnologiya" konsepsiysi, "O'z kuchiga jamoa bo'lib tayanish" konsepsiysi, "Yangi xalqaro iqtisodiy tartib" konsepsiysi, iqtisodiyotni erkinlashtirish, "yangi industrial mamlakatlari", AQSh, Yaponiya, Germaniya, Shved, Xitoy modellari.

<sup>56</sup> Экономика США //Под ред. В.Суляна// – СПб.: Питер, 2003. - стр.324.

<sup>57</sup> Nurislom To'xliyev Taraqqiyotning o'zbek modeli. –Т.: "O'zbekiston milliy entsiklopediyasi" nashriyoti. 2012. 43-51-bellar.

<sup>58</sup> Лю Гогуан. Функционирование и развитие Китайской экономики. – Гуанчжоу, 2001. - стр.39 (xitoy tilida).

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Nima uchun bozor iqtisodiyoti jahon sivilizatsiyasi taraqqiyoti yo'lidagi muqarrar bosqich deb hisoblanadi?
2. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi zamон modellardan qaysilarini bilasiz?
3. Bozor iqtisodiyotiga o'tish hozirgi zamон modellarining bir-birlaridan farqlanuvchi jihatlarini ko'rsatib bering.
4. Nima uchun bozor munosabatlariга o'tish modellari turlicha bo'ladi?
5. Bozor munosabatlariга o'tish modellarining shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
6. Yangi industrial mamlakatlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar modellari nimasi bilan farq qiladi?
7. Mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiy etishi konsepsiyaning shakllanishi qanday omillarga bog'liq?
8. Rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiy etishining turli konsepsiyanini izohlab bering.

## **9-bob. TARAQQIYOTNING “O‘ZBEK MODELI” VA UNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

### **9.1. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish konsepsiysi va strategiyasi**

Ma’muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish maqsadi bir xil bo‘lsada, o‘tish yo‘llari turlicha bo‘lishi mumkin. Oldingi boblardan ma’lumki, bir tizimdan ikkinchi tizimga o‘tishda ikki yo‘l, ya’ni revolyutsion va evolyutsion yo‘llar mavjud. O‘zbekiston bozor munosabatlariiga o‘tishning evolyutsion, bosqichma-bosqich amalga oshiriluvchi yo‘lini tanladi. Bu yo‘l mamlakatimizning o‘ziga xos madaniy, tarixiy, iqtisodiy va tabiyi xususiyatlarini hamda bu yo‘ldagi jahon tajribasini hisobga olgan holda revolyutsion to‘ntarishlarsiz, ijtimoiy to‘qnashuvlarsiz, ijtimoiy himoyani kuchaytirgan holda asta-sekinlik, lekin qat’iyatlilik bilan bosqichma-bosqich rivojlangan bozor iqtisodiyotiga o‘tishdan iboratdir.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov “Bizning bozor munosabatlariiga o‘tish modelimiz Respublikaning o‘ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an‘analar, urf-odatlar va turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o‘tishdagisi iqtisodiyotni biryoglama, beso‘naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslanadi”<sup>59</sup>, - deb ta’kidlaydi.

Shuningdek, “O‘zbekiston – bozor munosabatlariiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” kitobida mamlakatimiz rahbari jamiyatning sifat jihatidan yangi holatiga o‘tishning o‘z konsepsiyasini ta’riflab berdi. Ushbu konsepsiya o‘tishning besh asosiy tamoyilini o‘z ichiga oladi. Ularning mohiyati quyidagilardan iborat.

Birinchidan, iqtisodiyot siyosatdan ustun bo‘lishi kerak, ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli etishni ta’minlash zarur.

Ikkinchidan, davlat asosiy islohotchi bo‘lishi kerak, u eng muhim sohalarni belgilab berishi, islohotlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchil amalga oshirishi, jaholatparastlar va konservatorlarning qarshiligini yengishi lozim.

Uchinchi qoida - qonunning ustunligi. Buning ma’nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan yangi konstitutsiya va qonunlarni istisnosiz hamma fuqarolar hurmat qilishga va ularga rioya etishga majburdirlar.

To‘rtinchidan, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o‘tkazish. Bozor munosabatlarni joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta’sirchan choralar ko‘rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yo‘lidagi eng dolzarb vazifa bo‘lib keldi va bundan keyin ham shunday bo‘lib qoladi.

Beshinchidan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish iqtisodiyotning obyektiv qonunlarini e’tiborga olib, o‘tmishdagisi “inqilobiy sakrashlar”ga yo‘l qo‘ymay, ya’ni evolyutsion yo‘l bilan, puxta o‘ylab va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak<sup>60</sup>.

Bu tamoyillar o‘z istiqlol, rivojlanish va taraqqiyot yo‘limizga asos qilib olingan bo‘lib, o‘tish davri dasturining negizini tashkil etadi. Hozir bu qoidalarning

<sup>59</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O‘zbekiston, 1998, 101-102-b.

<sup>60</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston – bozor munosabatlariiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T.1. – T.: O‘zbekiston, 1996, 286-287-b.

amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini joriy etish yo'lidan izchil harakat qilishni ta'minlaydi.

Bundan tashqari, bozor munosabatlariga o'tish faqatgina iqtisodiyot sohalarini o'zgartirish bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy hayotning bir-birlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha sohalarini, shu jumladan siyosiy, ma'naviy-axloqiy, maishiy va boshqa sohalarni ham tubdan o'zgartirishni taqozo qiladi. Bularning hammasi bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich, evolyutsion yo'l bilan o'tish haqidagi g'oya juda muhim va afzal ekanligini ko'rsatadi.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini amalga oshirish iqtisodiyotni isloh qilishning asosiy bosqichlarini aniq farqlash, bu bosqichlarning har biri uchun aniq maqsadlarni, ularga erishish vositalarini belgilab olishni talab qiladi.

Prezidentimiz I.A. Karimovning asarlarida bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida quyidagi ikkita vazifani birdaniga hal qilish maqsad qilib qo'yilganligi ta'kidlanadi:

- totalitar tizimning og'ir oqibatlarini yengish, tanglikka barham berish, iqtisodiyotni barqarorlashтириш;

- Respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini hisobga olgan holda bozor munosabatlarining negizlarini shakllantirish<sup>61</sup>.

Shu vazifalarni hal qilish uchun birinchi bosqichda isloh qilishning muhim yo'nalishlari aniqlab olindi va bajarildi.

Birinchidan, o'tish jarayonining huquqiy asoslarini shakllantirish, islohotlarning qonuniy-huquqiy negizini mustahkamlash;

Ikkinchidan, mahalliy sanoat, savdo, maishiy xizmat korxonalarini, uy-joy fondini xususiylashtirish, qishloq xo'jaligida va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida mulkchilikning yangi shakllarini vujudga keltirish.

Uchinchidan, ishlab chiqarishning pasayib borishiga barham berish, moliyaviy ahvolning barqarorlashuvini ta'minlash.

Respublika iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o'tkazish bo'yicha birinchi bosqichda qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida iqtisodiyot sohasiga tegishli bo'lgan, iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishning huquqiy negizini barpo etadigan 100 ga yaqin asosiy qonun – hujjatlar qabul qilindi.

Birinchi bosqichda kichik xususiylashtirish amalda tugallandi, davlat mulkini boshqarish va uni mulkchilikning boshqa shakllariga aylantirish uchun zarur bo'lgan muassasalar tizimi tuzildi.

Qishloq xo'jaligida agrar islohot jarayonida bozor iqtisodiyoti talablariga mos keladigan yangi xo'jalik tizimi shakllandi va iqtisodiyotning davlatga qarashli bo'lmagan qismi keng rivojlandi.

Xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va mavjud sharoitlarga mos bo'lgan tizimlari ishlab chiqildi. Narxlar to'liq erkinlashtirildi, bozor infratuzilmasining asosiy qirralari shakllantirildi, aholini ijtimoiy himoyalash tizimi amalga oshirila boshladi, iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishildi.

<sup>61</sup>: Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995, 19-b.

Respublikada bozor munosabatlariiga o'tishning birinchi bosqichida iqtisodiyotda va ijtimoiy sohada yuz bergan tub o'zgarishlar uning o'z taraqqiyotida keyingi sifat jihatdan yangi bosqichga o'ta boshlash uchun mustahkam shart-sharoit yaratdi. Shu bilan birga isloh qilishning birinchi bosqichi natijalari keyingi bosqichning strategik maqsadlari va ustun yo'nalishlarini aniq belgilab olish imkonini berdi.

Ikkinci bosqichda investitsiya faoliyatini kuchaytirish, chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va shuning negizida iqtisodiy o'sishni ta'minlab, bozor munosabatlarini to'liq joriy qilish maqsad qilib qo'yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib I.A.Karimov asarida bu bosqich uchun bir qator vazifalar ajratib ko'rsatiladi.<sup>62</sup>

Birinchi vazifa – davlat mulklarini xususiylashtirish sohasida boshlangan ishni oxiriga yetkazish. Bunda davlat mulkini xususiylashtirish, tadbirdorlik faoliyatini keng qo'llab-quvvatlash, kichik xususiy korxonalar tashkil qilishni rag'batlantirish hisobiga ishlab chiqarishda davlatga qarashli bo'limgan qismning ulushini oshirish ko'zda tutiladi.

Ikkinci vazifa – ishlab chiqarishning pasayishiga barham berish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Bu ham korxonalar va tarmoqlarning, umuman davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish imkonini beradi.

Uchinchi vazifa – milliy valyuta-so'mni yana ham mustahkamlashdan iborat. Bu esa so'mning konvertatsiyasi, qat'iy valyutalarga erkin sur'atda almashtirish layoqati demakdir, unga pulning qadrsizlanishiga qarshi ta'sirchan choralarни qo'llash, iste'mol mollari ishlab chiqarishni ko'paytirish hamda ichki bozorni shunday mollar bilan to'ldirish, korxonalarining chetga mol chiqarishini kengaytirish hisobiga valyuta zaxiralarini mustahkamlash yo'li bilan erishiladi.

To'rtinchi vazifa – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini tubdan o'zgartirish, xomashyo yetkazib berishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish.

Bunda tarkibiy o'zgarishlarda Respublika uchun eng asosiy hisoblangan tarmoqlarni, jumladan yoqilg'i, energetika va g'alla komplekslarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

O'tish davrining ikkinchi bosqichida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoyalashni kuchaytirish, ularga tegishli yordam ko'rsatish borasida birinchi bosqichda tutilgan yo'l davom ettiriladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda iqtisodiyotni bozor munosabatlariiga o'tkazishda ikki bosqichli taraqqiyot yuzaga keladi. Birinchi bosqichda davlat sektori va bozor xo'jaligidan iborat yarim erkinlashgan iqtisodiy tizim yuzaga keladi. Ikkinci bosqichda iqtisodiyot to'liq erkinlashtiriladi, xususiylashtirish tugallanadi, narxlar erkin qo'yib yuboriladi, davlat korxonalarining monopol mavqeいi tugatiladi. Lekin bundan Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish maqsadiga to'liq erishildi va bu sohada qo'yilgan vazifalar to'liq bajarildi degan xulosa kelib chiqmaydi. Chunki bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirish har bir davrda kun tartibiga yangi vazifalarni qo'yadi.

<sup>62</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998, 332-333-b.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, hozirgi bosqichda "erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ham ijtimoiy, ham siyosiy vazifalarni hal qilishning asosiy shartidir"<sup>63</sup>. Bu esa iqtisodiyot sohasida quyidagi aniq vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi:

- iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarida erkinlashtirish jarayonini izchillik bilan o'tkazish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;
- xususiy lashtirish jarayonini yanada chuqurlashtirish va shu asosida amalda mulkdorlar sifinini shakllantirish;
- mamlakat iqtisodiyotiga xorij sarmoyasini, avvalo, bevosita yo'naltirilgan sarmoyalarni keng jalb etish uchun qulay huquqiy shart-sharoit, kafolat va iqtisodiy omillarni yanada kuchaytirish;
- kichik va o'rta biznes iqtisodiy taraqqiyotda ustuvor o'rinn olishiga erishish;
- mamlakatning eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiy tizimiga keng ko'lamda integratsiyalashuvini ta'minlash;
- iqtisodiyotda mamlakatimiz iqtisodiy mustaqilligini yanada mustahkamlashga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni izchil davom ettirish<sup>64</sup>.

O'zbekistonning davlat mustaqilligini qo'lga kiritganligi va u xalqaro miqyosda tan olinganligi shuni bildiradiki, bundan buyon respublika mustaqil ichki va tashqi siyosatini olib boradi, hech kimning vositachilgisiz o'zaro manfaatlari munosabatlarni o'matadi.

Respublikani milliy-davlat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy kamol toptiruvchi o'z taraqqiyot yo'lini ishlab chiqish strategiyasi belgilandi. Prezidentimiz "O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li" kitobida: "Biz hozir uzoq yo'lning boshida turibmiz. Barqaror bozor iqtisodiyoti ochiq tashqi siyosatga asoslangan kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish pirovard maqsad bo'lib qolishi kerak", - deb ta'kidlagan edi. Oradan uch yil o'tgach, Islom Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida iqtisodiyotni isloh qilish sohasidagi strategik maqsadlar va konsepsiyalarni, ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish strategiyasini ta'riflab berdi"<sup>65</sup>.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, butun isloh qilish jarayonining boshlang'ich nuqtasi strategiyani tanlab olishdan iboratdir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning pirovard maqsadini belgilab olish hozirgi isloh qilish strategiyasining boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Strategiya va uning pirovard maqsadini belgilar ekan, Prezident: "Bunda biz markazlashtirilgan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish – eski xo'jalik yuritish mexanizmini shunchaki yangilash yoki takomillashtirish emas, balki bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o'tish

<sup>63</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000, 15-b.

<sup>64</sup> Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2005, 199-202-b.

<sup>65</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T. 3. – T.: O'zbekiston, 1996, 165-b.

ekanligini qayta-qayta ta'kidladik. Bu bir iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalarining boshqa iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari bilan almashinuvidir<sup>66</sup>, - deb eslatib o'tdi. Ayni vaqtida, u: "Biz tanlab olgan yo'l ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgandir. Bu yo'l jahon tajribasini, shuningdek, xalqimizning turmush sharoitini, an'analarini, urf-odatlarini, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga asoslangandir", - deb ta'kidlaydi.

Shunday qilib. Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish iqtisodiyotda yangi bozor munosabatlariga asos soladi, iqtisodiy faoliyat erkinligi va tadbirkorlikni namoyon etish uchun sharoit yaratib beradi, ijtimoiy-ma'naviy sohadagi ijtimoiy kafolatlarni mustahkamlaydi.

## **9.2. Bozor islohotlari va ularning asosiy yo'nalishlari. Islohotlar bosqichlari va vazifalari**

Iqtisodiy munosabatlar va tashkiliy - boshqaruv tuzilmalarining bir turidan butunlay boshqa yangi turiga o'tish, iqtisodiy islohotlar strategiyasini ishlab chiqish va uning asosiy yo'nalishlarini aniqlab olishni taqozo qiladi. Iqtisodiy islohotlar – bu bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiy islohotlardan ko'zda tutilgan maqsad mamlakat aholisi uchun yashash va faoliyat qilishning eng yaxshi sharoitlarini yaratish, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligiga erishish, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashdan iborat.

Islohotlarni amalga oshirishdan oldin bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy modeli yaratildi.

Bu modelda yangi iqtisodiyotga o'tishning umumiy tomonlari va milliy xususiyatlari nazarda tutiladi, islohotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- mulkiy munosabatlarni isloh qilish;
- agrar islohotlar;
- moliya-kredit va narx-navo islohoti;
- boshqarish tizimini isloh qilish va bozor infratuzilmasini yaratish;
- tashqi iqtisodiy aloqalar islohoti;
- ijtimoiy islohotlar.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning bu asosiy yo'nalishlari I.A. Karimovning "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida" kitobida bayon qilib berilgan.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning boshlang'ich nuqtasi bozor iqtisodiyotining huquqiy negizini yaratishdan iborat bo'ladi.

Respublikada iqtisodiy islohotlarning huquqiy negizini yaratish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarning bir nechta yo'nalishini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi yo'nalish – davlat va iqtisodiy mustaqillikning huquqiy negizlarini yaratish, davlatni boshqarish qoidalarini tartibga soluvchi qonunlarni qabul qilish<sup>67</sup>.

<sup>66</sup> O'sha yerda.

<sup>67</sup> Shu yo'nalish bo'yicha respublikada quyidagi qonunlar qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida; O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasasi to'g'risida; Joylarda davlat hokimiyati to'g'risida; Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida.

Boshqaruv tizimining yuqori va quiyi darajadagi vazifalari aniq chegaralab qo'yildi. Vakolatli hokimiyatning yagona to'la huquqli organi bo'lgan hokimlik instituti yaratildi, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish sohasida fuqarolar yig'ini joriy qilindi.

Ikkinchchi yo'naliш – tizimdagi o'zgarishlarga, yangi iqtisodiy munosabatlarga va shu jumladan mulkchilik munosabatlariga asos bo'ladigan qonunlar tizimini yaratish<sup>68</sup>. Respublikada bu yo'naliш bo'yicha qabul qilingan qonunlarda mulkdorning huquqi tan olindi, xususiy mulkchilik huquqi e'tirof qilindi, mulkchilikning barcha shakllari uchun teng sharoit yaratildi. Davlat mulkini xususiylashtirishning samarali mexanizmi ishlab chiqildi. Qisqacha aytganda bozor munosabatlarining negizi bo'lgan ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirishning barcha huquqiy asoslari yaratildi.

Uchinchi yo'naliш – xo'jalik yuritishning va institutsiyonal o'zgarishlarning bozor sharoitlariga mos keladigan yangi mexanizmni yaratishga qaratadigan qonunlar<sup>69</sup>. Bozor infratuzilmasini yaratish va uning faoliyatiga xos jarayonlarni tartibga solishni ta'minlaydigan qonunlarni qabul qilishdan oldin, iqtisodiyotning turli sohalarida xo'jalik yuritayotgan subyektlarning huquq va iqtisodiy erkinlik borasidagi maqomini belgilab beradigan qonunlar qabul qilindi. Korxonalar to'g'risidagi qonun, kooperatsiya to'g'risidagi, dehqon xo'jaligi to'g'risidagi, xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risidagi qonunlar shular jumlasidandir.

To'rtinchchi yo'naliш – Respublikamizni xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti sifatida, ta'riflovchi huquqiy normalarni yaratish<sup>70</sup>. Bu yo'naliшdagи qonunlarni qabul qilish natijasida mamlakatimizning tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi tarixida sifat jihatdan yangi bosqich boshlandi.

Beshinchchi yo'naliш – kishilarning konstitutsion va yuridik huquqlarini, ijtimoiy kafolatlarini va aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlaydigan qonunlarni ishlab chiqish<sup>71</sup>. Bu qonunlar bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholining eng muhtoj tabaqalari manfaatlarini qonun kuchi bilan himoya qilishgagina emas, balki ularning ma'naviy imkoniyatlarini namoyon qilish, islohotlar uchun mustahkam ijtimoiy zamin yaratishga ham imkon beradi.

Yuqorida qarab chiqilgan barcha qonunlarda bozor iqtisodiyotining huquqiy asoslarini yaratish ham amaliy, ham iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning huquqiy asosini tashkil qildi.

Iqtisodiy islohotlarning bosh bo'g'ini mulkchilik munosabatlarini tubdan o'zgartirishdir, chunki shu orqali ko'p ukladli iqtisodiyot va raqobatlashish muhitini shakllantiriladi hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning shart-sharoitlari vujudga keltiriladi. Shu sababli Respublikada mulkiy munosabatlarni isloh qilishdan ko'zda

<sup>68</sup>Bunday qonunlar jumlasiga mulkchilik to'g'risidagi, yer to'g'risidagi, davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risidagi, ijara to'g'risidagi va shu kabi qonunlar kiradi.

<sup>69</sup>Bu guruh qonunlarga banklar va bank faoliyati to'g'risidagi, pul tizimi to'g'risidagi, tadbirkorlik to'g'risidagi, sug'unti to'g'risidagi, birjalar va birja faoliyati to'g'risidagi, auditorlik faoliyati to'g'risidagi, qimmatli qog'ozlar va fond birjasi to'g'risidagi qonunlar kiradi.

<sup>70</sup>Tashqi iqtisodiy faoliyot to'g'risidagi, O'zbekiston respublikasining yetakchi Xalqaro tashkilotlarga a'zoligi to'g'risidagi, valyutani tartibga solish to'g'risidagi qonunlar.

<sup>71</sup>Ish bilan bandlik to'g'risida, nogironlarni ijtimoiy himoyalash to'g'risida, fuqarolarning davlat nafaqasi ta'minoti to'g'risida, ta'lim to'g'risida, vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida qabul qilingan qonunlar.

tutilgan maqsad davlat mulki monopolizmini tugatish va bu mulkni xususiy lashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirishdan iborat.

Respublikada iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichidayoq qishloq xo'jaligini isloh qilishga ustunlik berildi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi. Birinchidan, Respublikamiz iqtisodiyotida agrar soha ustunlikka ega, aholining ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band, iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan shu tarmoq ahvoliga bog'liq. Hozirgi kunda agrar sektor hissasiga yalpi ichki milliy mahsulotning 30 %dan ko'prog'i to'g'ri keladi, xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 35 %ga yaqini qishloq xo'jaligida ishlaydi va barcha aholining yarmidan ko'prog'i qishloqda yashaydi.

Ikkinchidan, Respublika butun sanoat potensialining yarmiga yaqinini tashkil qiladigan sanoatning ko'pgina tarmoqlarini (paxta tozalash, to'qimachilik, yengil, oziq-ovqat, kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mashinasozligi va boshqalar) rivojlantirish istiqbollari bevosita qishloq xo'jaligiga bog'liq.

Uchinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlari (asosan paxta) hozirgi vaqtida valyuta resurslari, respublika uchum zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari, doridarmonlar, texnika va texnologiya uskunalarini chetdan sotib olishni ta'minlayotgan asosiy manbadir.

To'rtinchidan, mustaqillik sharoitida qishloq xo'jaligining oziq-ovqat muammosini hal etishdagisi roli ortib boradi.

Mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor munosabatlari o'sib o'tishida moliya-kredit sohasini isloh qilish alohida o'rinn tutadi. Moliyaviy munosabatlarda davlat budjeti tanqisligini kamaytirib borish, budjetdan beriladigan dotatsiyalar va subsidiyalarni bosqichma-bosqich qisqartirish, birinchi darajali, eng zarur umum davlat ehtiyojlari uchungina budjetdan mablag' ajratish, xalq xo'jaligini rivojlantirishda investitsiya kreditlaridan keng foydalanish islohotlarning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Kredit sohasidagi islohotlar bank tizimini takomillashtirish, banklarning mustaqilligini va pul muomalasi uchun javobgarligini oshirishga qaratiladi. Shu maqsadda Respublikada Markaziy bank hamda keng tarmoqli tijorat va xususiy banklardan iborat ikki bosqichli bank tizimi vujudga keltirildi. Markaziy bank zimmasiga federal rezerv tizimiga xos bo'lgan vazifalar yuklatildi. Ixtisoslashgan aksiyadorlik – tijorat banklari "G'alla bank", "Tadbirkor bank", "Savdogar bank", "Paxta bank" va boshqa banklar) shakllantirildi.

Iqtisodiyotni isloh qilishning eng asosiy muammolaridan biri narxlarni erkinlashtirishdir. Narxlarning erkin shakllanishi uchun narxlar tizimini isloh qilish ham zarurdir. Dastlab davlat xarid narxlarining amal qilish doirasi qisqartiriladi va keyin ichki narxlar jahon narxlariga muvofiqlashtirib boriladi. Shuningdek, narxlarni erkinlashtirishda xomashyo va mahsulot ayrim turlarining, narx-navo bilan aholi va korxonalar daromadlari o'rtasidagi tenglikka erishishga harakat qilinadi.

Respublikada islohotlarni asta-sekin va bosqichma-bosqich amalga oshirish printsiipi, narxlarni erkinlashtirishda yondashishga ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi.

Islohotlar boshlanishdan oldingi davrda respublikada narx-navoning nomutanosib tizimi tarkib topgan edi. Xomashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlari narxi

pasaytirilib, ishlov beruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar tovarlarining narxi sun'iy ravishda oshirib borilgan edi. Bundan ko'rilgan katta zarar respublikani dotatsiya oluvchi mintaqaga aylantirib qo'ydi.

Narx belgilashdagi nomutanosibliklar tufayli butun tarmoqlar, shu jumladan qishloq xo'jaligidagi ko'plab korxonalar zarar ko'rib ishladi. Xalq xo'jalik tarmoqlari ko'rgan zarar, ayrim mahsulot turlari (don, un va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari) yetishtirishga qilingan xarajatlar va turli ijtimoiy imtiyozlar berishdan ko'rilgan zarar byudjet mablag'lari hisobidan qoplanar edi. 1991-yil shu maqsadda sarflangan mablag' respublika b udjeti jami xarajatlarining 12 %dan ortig'ini tashkil qilgan.

Bularning hammasi narxlар islohotini amalga oshirishga real vaziyatni va aholining mavjud turmush darajasini hisobga olib, oldindan ishlab chiqilgan dastur asosida yondashishni talab qiladi.

Narxlар islohoti boshlangandan 1994-yilgacha hamma turdagи xomashyo va mahsulotlar bo'yicha erkin narxlarga o'tildi, barcha iste'mol mollari narxi ustidan davlat nazorati bekor qilindi.

Isloh qilishning dastlabki davrida (1992-yil) keng doiradagi ishlab chiqarish-technik vositasi bo'lgan mahsulotlar, ayrim turdagи xalq iste'mol mollari, bajarilgan ishlar va xizmatlarning kelishilgan narxlari va tariflarga o'tildi. Aholini himoyalash maqsadida cheklangan doiradagi oziq-ovqat va sanoat tovarlari narxlarining chegarasi belgilab qo'yildi.

Narxlар islohotining navbatdagи bosqichida (1993-yil) kelishilgan ulgurji narxlarni davlat tomonidan tartibga solish to'lig'icha to'xtatildi. Narxlarni erkinlashtirishning oxirgi bosqichida (1994-yil oktyabr-noyabr) xalq iste'mol mollari asosiy turlarining narxi erkin qo'yib yuborildi.

Shunday qilib, iqtisodiyotni isloh qilishning birinchi bosqichi narxlarni to'liq erkinlashtirish bilan tugadi.

Iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish boshqarishning tegishli tizimini yaratishni talab qiladi. Shunga asosan respublikada butun xalq xo'jaligini, tarmoqlar va hududlarni boshqarishning eng maqbul va hozirgi davrga mos bo'lgan tuzilmalari ishlab chiqildi.

Ko'plab markaziy iqtisodiy organlar va vazirliklar tugatildi (Davlat reja qo'mitasi, Davlat ta'minot qo'mitasi, Davlat narxlар qo'mitasi, Davlat agrosanoat qo'mitasi va boshqa qo'mita hamda vazirliklar) yoki ularning faoliyati tubdan qayta qurildi. Faoliyati tugatilgan ma'muriy apparatlar o'miga bozor iqtisodiyotiga xos yangi boshqarish bo'g'lnari tuzildi.

Respublika Moliya vazirligi va Markaziy bankining vazifalari hamda tarkibiy tuzilishi ahamiyatli darajada o'zgartirildi. Masalan, Moliya vazirligi zimmasiga Respublika budjetini vujudga keltirish bilan bir qatorda, davlat soliq siyosatining asosiy yo'naliishlari va qoidalarini ishlab chiqish, valyuta ishlarini boshqarish vazifasi yuklatildi.

Nazorat organlari faoliyatini tartibga solish, davlatning yagona soliq va bojxona siyosatini o'tkazish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi va Bojxona qo'mitasi tuzildi. O'tkaziladigan iqtisodiy islohot ishlarini muvofiqlashtirib turish uchun

Prezident huzurida iqtisodiy islohot, tadbirkorlik va chet el investitsiyalari bo'yicha idoralararo kengash tuzildi.

Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturlarini ishlab chiqish kabi vazifalarni bajarish uchun Davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasi tuzildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni boshqarish va shu soha korxonalarini faoliyatini muvofiqlashtirib turish uchun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tuzildi.

Respublika iqtisodiyotining tarmoqlari va ayrim sohalarini boshqarish tizimida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi. Tarmoq vazirliklari uyushmalarga, konsernlarga, korporatsiyalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik birlashmalariga aylantirish bilan batamom tugatildi. Transport, turizm, madaniyat, kinolashtirish kabi faoliyat sohalarida milliy kompaniyalar tuzildi.

Boshqarishning mahalliy darajasida (viloyat, tuman, shahar) ijroiya – boshqaruva vazifalarini bajarish uchun hokimlik joriy qilindi. Quyi bo'g'in boshqaruvida korxona va tashkilotlarga iqtisodiy erkinlik berilib, ular yangicha ish uslubiga o'tdi.

Isloh qilish natijasida tarkib topgan boshqaruva tizimi bozor iqtisodiyotiga o'tib borish bilan yanada takomillashib va rivojlanib boradi.

Bozor islohotlari bozor infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlarini ham qamrab oladi. Bunda moliya, bank-kredit tizimi muassasalari, sug'o'rta, auditorlik, yuridik va konsalting firmalari hamda kompaniyalarini, birja tizimini yaratish taqozo qilinadi.

Respublikada bozor infratuzilmasini yaratish bir qator yo'nalishlar bo'yicha bordi. Birinchi yo'nalish bo'yicha tovar xomashyo birjasi tizimi rivojlandi. Bu, o'z navbatida, brokerlik va dilerlik idoralari, savdo uylari, vositachi firmalar paydo bo'lishiga olib keldi.

Ikkinchi yo'nalishda kapital bozorining ishini ta'minlaydigan tuzilmalar vujudga keltirildi. Kredit resurslari bozori va valyuta bozori vujudga keltirildi hamda davlatga qarashli bo'limgan sug'urta kompaniyalar tuzildi.

Uchinchi yo'nalish mehnat bozorini shakllantirishdan iborat bo'lib, bu sohada 240 dan ortiq mehnat birjasini o'z ichiga oluvchi katta tarmoq tuzildi.

Bozor islohotlari tashqi iqtisodiy aloqalarga ham tegishlidir. Bu sohada islohotlarni amalga oshirish borasida respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy kompleksi mutlaqo yangidan shakllantirildi, tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishning mohiyat e'tibori bilan yangi mexanizmi vujudga keltirildi. Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi zarur bo'lgan muassasalar (Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, bojxonalar xizmati) barpo etildi. Respublikaning barcha vazirliklari va idoralari, korxonalarida tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'limlar, tashkilotlar va firmalar tuzildi.

Tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni barpo etish asosiy maqsad emas. Barcha islohotlarning asl maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat ko'rsatish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat. Shu sababli iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning butun davri

davomida aholini ijtimoiy himoyalash bo'yicha chora-tadbirlar ko'trish obyektiv zaruriyatdir.

Respublikada aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

Birinchi yo'nalish – narxlar erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish.

Ikkinci yo'nalish – Respublikaning ichki iste'mol bozorini himoya qilish hamda oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat mollari asosiy turlari iste'molini muayyan darajada saqlab turish.

Uchinchi yo'nalish – islohotlarning dastlabki bosqichida aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash.

Respublika uchun ijtimoiy himoyalash tizimini tanlab olishda xalqning uzoq yillar davomida qaror topgan ma'nnaviy axloqiy qadriyatlari, turmush tarzi va dunyoqarash xususiyatlari hisobga olinadi.

Shunday qilib, islohotlarning barcha yo'nalishlari mavjud iqtisodiy tizimning izchillik bilan bozor iqtisodiyotiga o'sib o'tishiga qaratildi. Bu islohotlar O'zbekistonning mustaqilligini iqtisodiy jihatdan ta'minlash, uni iqtisodiy jihatdan rivojlangan va xalqaro miqyosda obro'-e'tiborli mamlakatga aylantirishga xizmat qiladi.

### **9.3. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasining yaratilishi**

**Bozor infratuzilmasi** - bu bozor aloqalarini o'rnatish va ularning bir maromda amal qilishga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar tizimidir. Unga ombor xo'jaligi, transport, aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar, tovar va xizmatlar muomalasiga xizmat qiluvchi muassasalar (birjalar, auksonlar, savdo uylari, savdo-sotiq idoralari va agentliklari kabilar), moliya-kredit munosabatlari xizmat qiluvchi muassasalar (bank turidagi muassasalar, kreditlash idoralari, sug'urta va moliya kompaniyalari, soliq idoralari) va ijtimoiy sohaga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar (uy-joy va kommunal xizmat idoralari, aholini ishga joylashtirish firmalari) kiradi. Axborot xizmati idoralari ham bozor infratuzilmasining alohida bo'g'inini tashkil qilib, ularga ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va sotish bilan shug'ullanuvchi kompaniya va firmalar kiradi.

Bozor infratuzilmasining bu barcha unsurlari ishlab chiqaruvchilarning savdo-sotiq, moliya-kredit ishlariga, sherik topishiga, ish kuchini yollashiga ko'maklashadi. davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi tadbirlarini amalga oshiradi, ishlab chiqaruvchilar o'tasida aloqa o'rnatishga yordam beradi. Ularning bir qismi davlat mulkchiligidagi joylashsa, boshqalari mustaqil muassasa va uyushmalardan iborat bo'lib, ko'rsatgan xizmatlari uchun haq oladi. Bozor infratuzilmasida tovar (xizmat)lar muomalasiga xizmat ko'rsatuvchi muassasalar muhim o'r'in tutishi sababli ularning asosiyalarining qisqacha tavsifini beramiz.

**Birja** - namuna (yoki standart)lar asosida ommaviy tovarlarning muntazam savdo-sotiq ishlarini o'tkazuvchi tijorat muassasalaridir. Tovar birjalaridan farq qilib, fond birjasida qimmatmarx qog'ozlar va chet el valyutalarining oldi-sotdisi amalga

oshsa, mehnat birjası ishchi kuchi egasi bilan uni yollovchi korxona o'rtasida turib, unga bo'lgan talab va taklifni bir-biriga bog'laydi.

Birjaning barcha shakllarida kelishuvning xarakterli belgisi tovar, aksiya va valyuta kurslariga, narxning tebranib turishiga chayqov yo'li bilan ta'sir qilishdir.

Birjada uning qatnashchilari ayirboshlash to'g'risida bitim tuzadi, lekin tovarni yetkazib berish va uning haqini to'lash birjadan tashqarida yuz beradi. Bunda tovar egasi va xaridorlar qatnashishi shart emas. Ular nomidan ishni brokerlar (dallollar) yuritadi. Broker (makler)lar - bu tovar, fond va valyuta birjalarida oldi-sotdi bitimlarini tuzishda vositachilik qiladigan shaxs yoki maxsus firma. Ular odatda mijozlar topshirig'iga ko'ra va uning hisobiga ish yuritadi, kafolat beruvchi hisobiga o'z nomidan savdo bitimlari tuzishi ham mumkin.

Birjaning yana bir xususiyati shundaki, bu yerda hali ishlab chiqarilmagan, lekin tayyorlanishi aniq bo'lgan, oldin sotib olinib, egasi ixtiyoriga kelib tushmagan tovarlar ham sotiladi. Birjalar ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan birjalarda ayrim turdag'i yoki bir guruh tovarlar, universal birjalarda har xil tovarlar sotiladi.

**Aukcionlar** - alohida xususiyatlarga ega bo'lgan tovarlarni sotish uchun muayyan joylarda tashkil qilingan maxsus kim oshdi savdo muassasasi. Aukcionda savdo tovarlarning nisbatan cheklangan ro'yxati bo'yicha, ommaviy sotuvga qo'yish yo'li bilan o'tkaziladi. Aukcion e'lon qilingan vaqtida va ma'lum davrda o'tkaziladi. Bunda tovarlarning bozorga kelib tushish mavsumi va hajmi hisobga olinadi. Aukcion savdosida namuna tovarlar ro'yxatda ko'rsatilgan tartibda savdoga qo'yiladi, xaridorlar orasida eng yuqori narxni taklif qilgan kishi tovarni sotib oladi. Aukcionlarda san'at asarlari, noyob buyumlar, kolleksiyalar ham sotilishi mumkin. Savdo yarmarkalari ma'lum vaqtida o'tkazilib, bu yerda tovarlar ulgurji ravishda oldi-sotdi qilinadi. Tovar savdosи uning egasi bilan savdo firmasi o'rtasida yuz berib, unda bevosita iste'molchi qatnashmaydi.

**Savdo uylari** - savdo muassasasining maxsus turi. U ixtisoslashgan yoki universal bo'lishi mumkin. Ixtisoslashgan savdo uyi ayrim tovarlar bilan (kiyim-kechak, oyoq kiyim, gazlama va h.k.) universal savdo uyi har xil tovarlar bilan savdo qiladi. Savdo uylari tarkibida savdo firmalari muhim o'rinn tutadi. Ular tijorat ishini yurituvchi va ixtisoslashgan savdo-sotiq korxonalaridir. Firmalar mustaqil yoki yirik sanoat korporatsiyalari tarkibida ish yuritib, ulgurji va chakana savdo bilan shug'ullanadigan turlarga bo'linadi. Ayrim firmalar har ikkala savdo turi bilan ham shug'ullanadi. **Ulgurji savdo firmalari** tovarlarni o'z mulkiga sotib olib, keyin iste'molchilarga sotadi. **Chakana savdo firmalari** har xil shaklni olib, ular mustaqil do'konlar, maxsus do'konlar va supermarketlardan iborat bo'ladi. **Supermarket** - bu xaridorning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishiga asoslangan keng tarmoqli savdo korxonasi. U tovarlarning deyarli hamma turlari bilan, jumladan import tovarlar bilan savdo qiladi. Supermarket xaridolarga bepul maslahatlar beradi, tovarlarni buyurtma bo'yicha xaridor uyiga yetkazadi, ularga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatadi. Ko'p tarmoqli tashqi savdo firmalari ham savdo uyi deb ataladi. Ular o'z nomidan va ko'pincha o'zlarini hisobidan eksport-import hamda boshqa savdo aloqalarini olib boradi. Tashqi savdo uylari savdo korxonalarini sotib olish, jihoz va uskunalarni

ijaraga topshirish, kreditlar berish, sug'urta xizmati ko'rsatish bilan moliya va ishlab chiqarish xizmatida ham qatnashadi. Infratuzilma tizimida moliya-kredit munosabatlari xizmat qiluvchi muassasalar alohida o'ringa ega. Ular moliya bozori, uning asosi bo'lgan kapital bozorini shakllantiradi va amal qilish tartib-qoidalarini o'matadi. Moliyaviy muassasalardan ko'pchiligi o'ziga xos belgilarga ega bo'lsada, ularning barchasi bitta umumiy belgiga ega. Ular o'zlarining majburiyatlarini bildiradi, ya'ni mablag'lari ortiqcha bo'lgan subyektlardan pul qarz oladi va o'z nomidan mablag'lari yetishmagan subyektlarga pul qarz beradi.

Bozor infratuzilmasining banklar, sug'urta kompaniyalari, soliq va bojxona idoralari kabi muassasalari moliya-kredit munosabatlarda alohida o'ziga xos o'ringa ega. Ularning iqtisodiy faoliyati va moliyaviy munosabatlarda tutgan o'mi bilan keyingi mavzularda batafsil tanishamiz. Bozor iqtisodiyoti subyektlarini moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bozor infratuzilmasining axborot xizmati idoralari, shu jumladan auditorlik firmalari zimmasiga tushadi. **Auditor firmalar** - korxona, firma, kompaniyalar moliyaviy xo'jalik faoliyatini tekshirib boruvchi, ular hisobotini ekspertizadan o'tkazuvchi idora. Ular odatda aktsioner jamiyat yoki kooperativ shaklda faoliyat ko'rsatadi va to'liq mustaqillikga ega bo'ladi. Auditor firmalar o'z ishini har bir mamlakatda yoki xalqaro miqyosda qabul qilingan hisob-kitob va taftish qoidalariga binoan olib boradi. Auditor firma ishida qatnashuvchi taftishchilar auditorlar deb ataladi. Shunday qilib, bozor infratuzilmasi va uning qarab chiqilgan unsurlari barcha bozor turlarining faoliyat ko'rsatishi, hamda davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni ta'minlaydi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy uklad, iqtisodiyotni erkinlashtirish, islohotlar konsepsiysi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, "O'zbek modeli", bozor iqtisodiyotiga o'tishning besh tamoyili, strategiya, konsepsiya, narxlar islohoti, ko'p ukladli iqtisodiyot, tashqi iqtisodiy aloqalar, bozor infratuzilmasi.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. O'zbekistonning bozor munosabatlari o'tish yo'li qanday xususiyatlarga ega?
2. Respublika iqtisodiyotini isloh qilishga qanday tamoyillar asos qilib olinadi?
3. Bozor munosabatlarni bosqichma-bosqich qaror toptirish tamoyilining mazmunini batafsil tushuntiring.
4. Bozor munosabatlari o'tish har bir bosqichining maqsad va vazifalarini to'laroq bayon qiling.
5. Respublikada iqtisodiyotni isloh qilish qanday yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi?
6. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning har bir yo'nalishi bo'yicha o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring.
7. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini qaror toptirishning qanday davlat dasturlarini bilasiz?

## **10-bob. TARKIBIY O'ZGARISHLAR VA IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING BOG'LQLIGI**

### **10.1. Tarkibiy o'zgarishlar mohiyati, zarurligi va shart-sharoitlari**

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning amalga oshishiga ikki xil yondashuv mavjud. Keynscha va liberalistik yondashuv. J.M. Keyns tarafdarlarining fikricha, bozor resurslarning optimal ishlashini kafolatlamaydi, barqaror o'sishni ta'minlamaydi. Shuning uchun davlatning faol aralashuvi kerak, degan fikmi ilgari surishsa, liberalizm tarafdarlari bozor iqtisodiyotiga xos erkin faoliyat yuritish qoidalariga yo'l ochib berish zarurligini, iqtisodiyotda bozor regulyatori orqali muvozanatga erishish mumkinligini ta'kidlaydilar. Ular keynschilarning davlatni iqtisodiyotga faol aralashuvi haqidagi g'oyalarini iqtisodiy totalitarizm, deb qaraydilar va unga qarshi chiqadilar.

Ular davlatning iqtisodiyotga aralashmasligini taklif etishadi. Neoliberalizm g'oyalari asosida "Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti" yuzaga keladi. Bu konsepsiya GFR va Shvetsiyada yaxshi natija berdi, uning asosiy g'oyalari O'zbekiston iqtisodiyotida qo'llanilmogda. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining asosiy qoidalari: davlat tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishi, erkin narxlarning zarurligi; erkin raqobat; talab va taklifning muvozanati; iqtisodiyotning muvozanati; davlat bozor xo'jaligida shu shartlarni kafolatlashi va uning ijtimoiy yo'naltirilgan rivojini ta'minlash.

Xullas, davlatning iqtisodiy rivojlanishdagi va tarkibiy o'zgarishlardagi roli muhim ahamiyatga egadir. Ma'lumki, klassik va neoklassik ta'limot tarafdarlari davlatning ishtirokini imkon boricha cheklashni taklif etsa, Keyns va keynschilar hamda neokeynschilar davlatning roli faol bo'lishini targ'ib etadi.

Real hayotda Keysn, neokeysn, liberalizm va neoliberalizm oqimlarining nazariyalari ko'pincha bir-biri bilan bog'lanib ketadi, qay birini ustun darajada qo'llash mamlakatda shakllangan obyektiv shart-sharoitlarga bog'liq.

O'zbekiston iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda yuqoridagi nazariy oqimlardagi ilmiy xulosa va yondashuvlarni mamlakatimiz sharoitiga mos tomonlarini tanlab olib, ulardan ijodiy foydalanishga asoslanadi. Ammo bu konsepsiya mavjud nazariyalarning ko'chirmasi emas, balki ularni yangi sharoitlarda qayta ishslash va rivojlantrish mahsulidir. O'zbekiston konsepsiyasida ijtimoiy bozor xo'jaligi nazariyasini qo'llash, shuningdek, keynschilarning iqtisodiyotda davlatning rolini kuchaytirishdan iborat g'oyalariga amal qilinadi. Xullas, O'zbekiston konsepsiyasini birona nazariy oqimga bog'lab bo'lmaydi, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Milliy iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlar Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan asos solingen taraqqiyotning "O'zbek modeli" bo'yicha amalga oshirilmoqda. Bu mazmunan O'zbekistonning o'ziga xos yangi modelidir. Bu model o'zining mazmuniga ko'ra, biz yuqorida ko'rib o'tgan nazariy qarashlarning sintezidir. Chunki, bizda bozor iqtisodiyotiga o'tishda "Davlat bosh islohotchi", "Kuchli ijtimoiy himoya va "Evolyutsion yo'l bilan bosqichma-bosqich bozor munosabatlarini shakllantirish" - kabi tamoyillar mazkur konsepsiyaning mazmun va mohiyatiga to'g'ri keladi.

**Milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish** – moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning turli sohalari o'rtasida qayta taqsimlashdir. Ularni samarali va maqsadli o'zgartirish davlatning faol aralashuvini talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish davrida tarkibiy o'zgarishlarning zarurligiga Prezidentimiz katta e'tibor berib, ta'kidlaydi: "Iqtisodiy mustaqillikka erishish, iqtisodiy o'sishni, respublika aholisi farovonligini ta'minlash uchun iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, strategik rejada, barqarorlikni ta'minlashning asosiy shartidir"<sup>72</sup>.

Milliy iqtisodiyot tarkibida xalq xo'jaligining tarmoq tarkibi asosiy o'rinni egallaydi. U tarmoqlarning tovar va xizmatlar yaratishdagi, shu bilan birga YalM ishlab chiqarishdagi o'mini ko'rsatadi. Tarmoqlar tarkibi va tarkibiy qayta qurish muammolari ayniqsa, bir iqtisodiy tizimdan boshqa iqtisodiy tizimga o'tish davrida davlatning iqtisodiy siyosatining asosiy muammosidan biriga aylanadi. Shu sababli, Yurtboshimiz tomonidan iqtisodiyotimiz tarkibi masalasiga alohida to'xtalib ta'kidlanadiki, "Iqtisodiyotda maqsadga yo'naltirilgan tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish biz uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Biz aniq tarkibiy siyosatga ega bo'lmoq'imiz lozim. U birinchi navbatda mamlakatning iqtisodiy potensialini mustahkamlashga va bizning boy resurslarimizni to'la va samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qilmog'i lozim"<sup>73</sup>.

Milliy iqtisodiyot tarmoq tarkibi har bir davrdagi ijtimoiy mehnat taqsimotini, fan-texnika taraqqiyoti xarakterini, davlatning tarkibiy siyosatini, ijtimoiy talabni ifodalab beradi. U iqtisodiyotimiz tarkibiy tizimida asosiy o'rinni egallaydi va hududiy hamda takror ishlab chiqarish tarkiblari bilan o'zarob bog'liq. Chunki tarmoqlar ma'lum hududlarda joylashgandir.

Ishlab chiqarish tarkibining ijtimoiy talabga mos kelishi ishlab chiqarish va tarmoqlar samaradorligining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibini takomillashtirish - ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarning iqtisodiy siyosatida iqtisodiyot tarkibi va uni qayta qurish masalalari muhim o'rinni tutadi. Chunki iqtisodiyot tarkibi takomillashtuvi yangi tarmoqlar va yangi mulk shakllarini vujudga keltirib, bozor munosabatlarini shakllantirib boradi.

Iqtisodiyotning tarmoq tarkibi, ijtimoiy iste'mol va undagi kapital qo'yilmalar bilan o'zarob bog'liq. Chunki investitsiyalar iqtisodiyot tarmoq tarkibini takomillashtirish va qayta qurish bilan birga FTT, mahsulot ishlab chiqarishdagi tub o'zgarishlarni ta'minlaydi. Iqtisodiyot tarmoq tarkibini takomillashtirish va qayta qurish esa o'z navbatida, ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etadi. Bu avvalo quydigalarda o'z ifodasini topadi:

- ijtimoiy ishlab chiqarishda FTT belgilab beruvchi tarmoqlarni va shu bilan birga eng kam xarajatlar hisobiga yuqori natija beruvchi tarmoqlarning ustuvor darajada rivojlanishida;

<sup>72</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taqdид, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. 196-b.

<sup>73</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloqotlarni chuqurashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995. 235-b.

- ishlab chiqarish salohiyatini texnikaviy qayta qurishga olib keladigan, ishlab chiqarish va iste'molni muvofiqlashtiradigan, yangi mehnat qurollarini yaratish va takomillashtirishda.

Iqtisodiyot tarmoq tuzilmasi tahlilini dastlab nisbatan birlamchi, umumiy tarmoq mutanosibliklardan boshlab, undan keyin ikkinchi darajali tarmoqlar tahliliga o'tish maqsadga muvofiqlikdir. Birinchi navbatda ishlab chiqarish va ijtimoiy soha nisbatlarini ko'rsatish, undan keyin tarmoqlarni ushbu sohalarda tutgan o'mini tahlil etish lozim bo'ladi.

Ishlab chiqarish sohasi ko'pgina tarmoqlardan iborat bo'lib, ularni nazariy jihatdan ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Moddiy ne'matlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar (sanoat, qishloq xo'jaligi va h.k.);
2. Moddiy xizmatlarni amalga oshiruvchi tarmoqlar (savdo, moddiy texnika ta'minoti, aloqa, transport va h.k.)

Ijtimoiy sohani ham o'z navbatida ikki guruhga bo'lish mumkin:

1. Takror ishlab chiqarish jarayonining shaxsiy omillarini ijtimoiy iste'mol tavsifidagi ne'matlar bilan ta'minlovchi sohalari.
2. Takror ishlab chiqarish jarayonining bir maromda amal qilishini ta'minlash shart-sharoitlaridan kelib chiqadigan tarmoqlar (mudofaa, ichki ishlar, umumiy boshqaruv tashkilotlari va h.k.).

Har ikki soha va ularning tarkibiy qismlari bir-biri bilan o'zaro bog'liq. Ishlab chiqarish sohasidagi mehnat unumдорligining o'sishi, ijtimoiy sohaga ishchi kuchi resurslarini qayta taqsimlash imkonini beradi, uning rivojlanishi o'z navbatida fan-texnika, xodimlarning madaniy va ma'naviy darajasini oshiradi. "Ijtimoiy soha mahsuloti" iste'mol xizmatlari sifatida, aholining turmush darajasini oshiradi, ularning bo'sh vaqtini ko'paytiradi va undan samarali foydalanish imkonini beradi.

Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, iqtisodiyoti taraqqiy etgan davlatlarda ijtimoiy soha nisbatan ustun darajada rivojlanish qonuniyatiga ega va bu ularning YalMDa va aholi bandligidagi hissasining o'sib borishida namoyon bo'ladi.

Respublikamizda ijtimoiy sohalarda YalM ishlab chiqarishdagi ulushi bo'yicha birinchi o'rinni xalq ta'limi va undan keyin uy-joy va kommunal xo'jaligi hamda aholiga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy soha korxonalarini egallaydi.

2014-yilda bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi 15,7 %ga o'sdi, ularning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi esa 53 %dan 54 %ga oshdi. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 50 %dan ortig'i ushbu tarmoqda mehnat qilmoqda. Har yili yaratilayotgan yangi ish o'rinalarining, avvalambor, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilar uchun tashkil etilayotgan ish o'rinalarining uchdan bir qismidan ko'prog'i aynan mazkur soha hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Bu borada xizmatlar tarkibi ham tubdan o'zgarib borayotganini ta'kidlash joiz. Mobil aloqa, yuqori tezlikda ishlaydigan internet, kabelli televizion aloqa, masofaviy bank xizmatlari, qishloq xo'jaligi texnikasi, avtomobillar va texnologik uskunalarini ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish kabi zamonaviy yuqori texnologiyalar asosidagi xizmat turlari aholi o'rtasida tobora ommalashib bormoqda.

So'nggi besh yilda an'anaviy maishiy va kommunal xizmatlar ulushi 16 %dan 9,5 %ga tushdi, yuqori texnologiyalar asosidagi xizmatlar ulushi esa 21,2 %ga qadar ko'tarildi.

Yuqori texnologiyalarga asoslangan xizmatlar orasida keyingi yillarda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari boshqa sohalarga nisbatan jadal rivojlanayotganini alohida ta'kidlash joiz. Ushbu xizmatlar hajmi so'nggi besh yilda 3,3 barobar, o'tgan yili esa 24,5 %ga o'sdi<sup>74</sup>.

Iqtisodiyot tarkibi bevosita davlat makroiqtisodiy siyosatining ta'siri ostida bo'ladi. Davlatning tarkibiy siyosati bir tomonidan, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarning strategiyasi va taktikalari ishlab chiqilishini, ikkinchi tomonidan, tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilishining samarali chora-tadbirlari va mexanizmini aniqlash va mazkur mexanizmlar takomillashuvi ustidan nazorat qilishni taqozo etadi.

Tarkibiy siyosat - bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va aholining o'sib, o'zgarib borayotgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida ijtimoiy ishlab chiqarish rivojlanishini asoslash va ustuvor yo'nalishlarini ta'minlash, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini ishlab chiqarishga qo'llash borasidagi chora-tadbirlar majmuidir.

Iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish maqsadlari quyidagilarda ifodalanadi:

- iqtisodiyotning xomashyoviy bir tomonlama rivojlanishiga chek qo'yish;
- tayyor, tugallangan mahsulot ishlab chiqarishga o'tish;
- importga qaramlikni cheklash;
- eksport salohiyatini oshirish;
- istiqbolli sohalarga ustuvorlik berish, barqaror o'sish;
- ishchi kuchi resurslarining oqilona foydalanimishini ta'minlash;
- milliy bozorni ichki ishlab chiqarish hisobiga to'ldirish va aholi talablarini to'laroq qondirish.

Iqtisodiyot rivojlanishining boshlang'ich davrlarida kapital qo'yilmalar tez va yuqori samara beruvchi yo'nalishlarga sarflanishi, xususan, asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalashga, iqtisodiyotning asosiy va zarur tarmoqlarini vujudga keltirishga yo'naltirilishi kerak. Mustaqil davlat iqtisodiyoti shakllana borgan sari, mazkur yo'nalishlarga sarflanadigan investitsiyalar miqdori o'z-o'zidan kamaya boradi.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida 2020-yillarga mo'ljallangan iqtisodiyot tarkibini o'zgartirish konsepsiysi amalga oshirilmoqda. 2010-2020-yillarda iqtisodiy salohiyatda davlat tomonidan ko'zda tutilgan tarkibiy o'zgarishlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- qishloq xo'jaligini yangi texnika bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi va unga bog'liq bo'lgan sohalarning iqtisodiy munosabatlarini takomillashtirish;

<sup>74</sup>2015-yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 18.01.2015 y.

- iqtisodiyotning yuqori samarali, eksportga yo'naltirilgan tuzilmasini shakllantirish;
- iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini texnika bilan qayta jihozlash va yanada rivojlantirish;
- yengil va qayta ishlash sanoat korxonalarini texnika bilan jihozlash va zamonaviylashtirish;
- yuqori texnologiya va ilm talab ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish.

Tabiiyki, iqtisodiyotning tarkibini qayta qurish birdaniga takomiliga yetib qolmaydi. Bu o'zgarishlar muntazam davom etadigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, ular davr talabi va davlatning iqtisodiy siyosatidan kelib chiqib, tarmoqlararo hamda tarmoqlar, korxonalar ichida to'xtovsiz davom etaveradi. Bozor iqtisodiyoti va fan-texnika taraqqiyoti asosida tarmoqlar rivojlanib, mahsulot ishlab chiqarishda ularning hissasi oshib boraveradi. Aksincha bozor va taraqqiyotga mos kelmaydigan sohalarning mahsulot va xizmatlarni yaratishdagi ulushi pasayib yoki butunlay yo'qolib o'z o'mini boshqa ilg'or sohalarga bo'shatib beraveradi.

O'zbekiston Respublikasida davlatning amalga oshirayotgan oqilona iqtisodiy siyosati natijasida o'tish davrida ko'pgina MDH mamlakatlariga xos bo'lgan iqtisodiy inqiroz va beqarorlik va chuqur tarkibiy inqiroz ma'lum darajada yengil o'tdi, hamda 2008-yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kegayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham shunday bo'ladi deyishga to'liq asos bor.

Xullas, iqtisodiyotdagagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda davlat asosan ikki muammoni hal etishga e'tibor berishi lozim. Birinchidan, mustaqil davlatchilikni shakllantirgan holda bozor iqtisodiyoti talablariga javob beraoladigan iqtisodiyotni tarkibiy tuzilishini, uni rivojlanishiga ta'sir etuvchi bozor infratuzilmasini vujudga keltirish, ikkinchidan, insonning yashashi va mehnat qilishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

O'tish davridagi tarkibiy o'zgarishlar bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligiga, o'sib va o'zgarib borayotgan inson ehtiyojlarini qondirishga, ya'ni tarkibiy o'zgarishlar maqsad ko'rinishida emas, balki barkamol inson konsepsiyasini amalga oshirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

## **10.2. Milliy iqtisodiyot tarkibining samarali shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar**

Mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida ishlab chiqarish tarkibiga yangi talablar qo'yiladi. Mazkur talablar tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanadi. Iqtisodiyot tarkibiga: jamg'arish normasi, texnika taraqqiyoti, iste'mol tarkibi, ishchi kuchi resurslari, tabiiy resurslar, raqobat, talab va taklif, foyda, narx kabilalar faol ta'sir etadi.

Mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida ishlab chiqarish tarkibiga yangi talablar qo'yiladi. Mazkur talablar tashqi va ichki omillar ta'sirida shakllanadi. Iqtisodiyot tarkibiga: jamg'arish normasi, texnika taraqqiyoti, iste'mol tarkibi, ishchi kuchi resurslari, tabiiy resurslar, raqobat, talab va taklif, foyda, narx kabilalar faol ta'sir etadi.

Milliy iqtisodiyot tarkibini qayta qurish shakllanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri hisoblangan raqobat ijtimoiy ishlab chiqarish nisbatlarini moslashiruvchi asosiy bozor mexanizmidir. Raqobat iqtisodiy subyektlarni mehnat unumdarligini oshirishga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, jamg'arish hajmini oshirishga, FTT sur'atlarini jadallashtirishga va iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishlarni amalga oshirishga undaydi. Tarmoqlararo raqobat ta'siri ostida kapital va ishchi kuchi eng yuqori foyda normasiga ega tarmoqlarga intiladi va oqib o'tadi. Kapitalning shu tarzda oqib o'tishi natijasida ushbu tarmoqlarda tovar ishlab chiqarish va taklif etish ortib boradi. Kapital chiqib ketgan foyda normasi past bo'lgan tarmoqlarda esa ishlab chiqarish hajmi va tovar taklifi qisqarib boradi.

Milliy iqtisodiyot tarkibiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri – bu jamg'arishdir. Jamg'arish FTT yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etish bilan uzviy bog'liqidir. Jamg'arish FTT yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish jamg'arish normasini oshirishga majbur etadi. Jamg'arish normasini o'sishi ijtimoiy mahsulot tarkibida ishlab chiqarish vositalarining ulushini ortishini talab etadi. Ushbu holat joriy davrda iste'mol fondi va noishlab chiqarish asosiy fondlari o'sishini chegaralab qo'yadi, chunki bunda milliy mahsulot va milliy daromadning o'sgan qismi ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Iqtisodiy inqiroz davrida jamg'arish normasi asosan pasayib boradi.

Ishlab chiqarish tarkibi iste'mol tarkibi bilan uzlusiz bog'liqidir. Ularning o'zaro aloqasi dinamik xarakterga ega. Texnika taraqqiyoti ishlab chiqarish va iste'mol tarkibiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy ehtiyojlar qanchalik to'liqroq qondirilsa, ishlab chiqarish tarkibi shunchalik mukammal bo'ladi. Ijtimoiy ehtiyojlar aholining iste'mol buyumlariga bo'lgan ehtiyojlari, ishlab chiqarish, harbiy, boshqaruv ehtiyojlar va boshqalar orqali aniqlanadi. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanib borishi va ularning texnik imkoniyatlarini ortib borishi bilan u yoki bu ijtimoiy ehtiyoj bir vaqtning o'zida bitta emas bir nechta mahsulot ishlab chiqarish orqali qondirilishi mumkin. Iste'molchiga mahsulotni tanlash imkoniyati berilib, unda birinchidan, ushbu ehtiyojni qondirishga to'laroq imkoniyat beriladi, ikkinchidan, ehtiyoj birligini eng kam xarajat sarflab mahsulotni iste'mol qilishga imkoniyat beradi. Jamiyat tomonidan u yoki bu mahsulot turlarini ijobjiy yakuniy baholash ularni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida saqlab qoladi. Ijtimoiy baholash natijasida iste'mol uchun tanlab olingan turli mahsulotlarning umumiy summasi o'zaro aloqalar shaklida ishlab chiqarish tarkibini tashkil etadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini muntazam ravishda takomillashtirish va FTT sharoitida iqtisodiyot tarkibini doimiy murakkablashuvi natijasida alohida tarmoqlar mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi nisbatni o'zgarishi sodir bo'ladi. Tarmoqlar o'rtasida va ularning ichida mehnat nisbatlari mahsulotlari tez harakat qila boshlaydi. Bunda bir tomonidan, yangi ijtimoiy ehtiyojlarini shakllantiruvchi "yangi tarmoqlar"ning ulushi ortib borsa, ikkinchi tomonidan, eng kam mehnat xarajatlari bilan jamiyat ehtiyojlarini qondiruvchi progressiv deb nomlangan tarmoqlarning ulushi ko'payadi. Yangi va progressiv tarmoqlar mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'molda qo'llanilayotgan yangiliklarning kengayib borishi mehnat tejamkorligi

sur'atlarini o'sishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida jamg'arishni o'sishi va jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini jadallahuviga olib keladi.

Ijtimoiy ehtiyojlar tizimi ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini belgilovchi bir guruh omillardir, xolos. Boshqa omillar guruhi esa ishchi kuchi resurslari va mehnat unumdorligidan tashkil topgan. Doimiy ishchi kuchi resurslari miqdori foydalilanayotgan ishchi kuchi resurslari hajmi, ish joylari soni va ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lган aholining ulushi orqali aniqlanadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning ekstensiv rivojlanish yo'li mehnat sig'imkorligi yuqori bo'lган yo'nalishlarda ishlab chiqarish faoliyatiga malakasi o'zgarmagan holda yangi ishchi kuchini jalb qilishga asoslanadi. Iqtisodiyot tarkibini takomillashtirishda ishchilarning yuqori malakasi va mas'uliyatliligi bilan bir qatorda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni intensiv rivojlanish yo'nalishining kapitalsiz deb nomlanuvchi omillari ham qatnashadi.

Boshqa tomondan kapitalsiz omillar jamiyatdan hech qanday xarajatlarni talab qilmaydi deb tushunish ham xato bo'lar edi. Ular ishlab chiqarishning alohida tarmoqlari doirasida kapitalsiz deb hisoblanishi mumkin. Albatta intensiv taraqqiyot yo'li ilmiy tadqiqot va ularning natijalarini ishlab chiqarishga qo'llashda sarflanadigan xarajatlarning o'sishi bilan bog'liqdir.

Texnika taraqqiyoti ijtimoiy mehnat unumdorligi darajasini oshiradi va iqtisodiyot tarkibini ijtimoiy va shaxsiy ehtiyojlariga mos kelishini belgilovchi hamma boshqa omillarga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun texnika taraqqiyotining ishlab chiqarish tarkibiga ta'sirini mazkur tarkibga ta'sir etuvchi omillar bilan uzviy birlikda ko'rib chiqqan maqsadga muvofiqdir. Masalan, tabiiy omillarning ishlab chiqarishni rivojlanishida ahamiyati salmoqlidir. Tabiiy resurslarning sanoat va uning ayrim tarmoqlarining taraqqiyoti uchun mavjudligi yoki mavjud emasligi, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun yaraydigan yerning hosildorligi va uning hajmi bilan bog'liq tabiiy sharoitlar ishlab chiqarish rivojlanishi uchun bebabodir.

O'zining tabiiy-iqlim sharoiti bilan O'zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari muammolarini yechish uchun eng qulay sharoitlarga ega bo'lган istiqbolli hududlardan hisoblanadi. Yetarli miqdorda malakali ishchi kuchi resurslarining mavjudligi qulay tabiiy va iqtisodiy omillarga egalik, aholining bir necha asrlardan buyon shakllanib kelgan an'anaviy kasb-hunarlar, ko'nikmalarga egaligi, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib beradi.

XX asr oxirlarida rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyot tarkibini shakllanishida tabiiy omillarning ahamiyati pasayib ketmoqda. Yuqoridagi holat birinchidan, YaMM va sof milliy mahsulotda mehnat unumdorligi yuqori darajaga ega bo'lмаганligi sababli qishloq xo'jaligining ulushi va iqtisodiyotda band bo'lганlar umumiyligi sonidagi salmog'i pasayib ketishidir. Texnika taraqqiyoti xomashyoni tayyorlash va materiallarni qayta ishlash sohalarida alohida ahamiyat kasb etib, uning ta'sirida xomashyoga bo'lган ehtiyoj qisqarib boradi.

Tabiiy sharoitlar va tabiiy resurslarning iqtisodiyot samaradorligi va tarkibiga ta'siri ish kuchini takror ishlab chiqarish xarajatlari va tabiiy resurslardan foydalananish xarajatlarini hududiy farqlanishi (qishloq xo'jaligida, qazib olish sanoatida,

qurilishda) orqali namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga tabiiy sharoitlarga ishlab chiqarishning rivojlanishi ijobiy ta’sir ko‘rsatishi (kommunikatsiyalarni, madaniy landshaftlarni yaratish, daryolarni boshqarish va boshqalar) va salbiy ta’sir etishi mumkin (foydalı qazilmalar va o‘rmon resurslarini kamayib borishi, suv va atmosferani ifloslanishi va boshqalar).

Texnika taraqqiyoti darajasiga bog‘liq holda har bir mamlakatda ma’lum mehnat taqsimoti, ixtisoslashtirish darjası, tarmoqlarning kooperatsiyalashuvı va kombinatsiyalashuvı vujudga keladi, ma’lum bir turdagı xomashyolar va ularni qazib olish usullaridan foydalaniladi. O‘z navbatida ushbu jarayonlar ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiga ta’sir etuvchi omillarni bir guruhini tashkil etadi. Ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibiga mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darjası katta ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir mamlakatda ijtimoiy ishlab chiqarishning ma’lum bir mahsulotlar, tarmoqlarni rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tabiiy sharoitlar mavjuddir. Ushbu tarmoqlar mahsulotlari faqat mamlakat ichki ehtiyojlarini emas, balki shu mahsulot ishlab chiqarish uchun noqulay sharoitga ega bo‘lgan mamlakatlarning ham ehtiyojlarini hisobga olib ustun darajada rivojlantirilsa har bir mamlakat zamonaviy texnika va texnologiyaga asoslangan yirik ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotning samarali tarkibini, ijtimoiy mehnat unumdorligi o’sishini ta’minlaydi. Ishlab chiqarish tarkibiga texnika taraqqiyotining ta’sirini ko‘rib chiqishda, u faqatgina mavjud tarmoqlar o‘rtasidagi nisbatlarni optimallashuvini taqozo etibgina qolmasdan, balki yangi tarmoqlarni paydo bo‘lishiga olib kelishini ham hisobga olish muhimdir. Yangi turdagı xomashyo, mashina-uskunalar va energiya manbalari, texnologiya jarayonlarining paydo bo‘lishi yangi tarmoqlarni vujudga kelishini taqazo etadi.

Har qanday taraqqiy etgan mamlakat uchun FTT asosini fundamental, ilmiy-amaliy taraqqiyotlarni rivojlantirish tashkil etadi. Ko‘pgina istiqbolli, yangi tarmoqlarning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishiga fundamental fanlar va amaliy izlanishlarning yutuqlari sabab bo‘lgan, boshqa tomondan esa, ishlab chiqarish tarkibida ma’lum bir o‘zgarishlar amalga oshirilmaganda ko‘pgina fan-texnika yutuqlari ishlab chiqarishga joriy etilmay qolgan bo‘lar edi.

Fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etishda mashinasozlik tarkibini takomillashtirish alohida ahamiyatga egadir, chunki u hamma tarmoqlarni zamonaviy texnika asosida taraqqiy etish imkoniyatlarini belgilab beradi. Butun iqtisodiyotni zamonaviy texnika bilan qayta qurollantirish uchun, o‘ta yangi ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanishini jadallashtirish zarur.

Shunday qilib, ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqarish tarkibiga bevosita ta’sir etadi, xususan, mehnat vositalari va predmetlardan foydalanishni yaxshilash shular jumlasidandir. Har qanday mahsulotga, masalan, metallga o‘sib borayotgan ehtiyoj ikki usul bilan qondirilishi mumkin: uni ishlab chiqarishni ko‘paytirish yoki undan ratsional foydalanish.

Tarmoqlar nisbatiga ishlab chiqarishning ixtisoslashuvı va kooperatsiyalashuvini rivojlanish darjası, mahsulot sifatini yaxshilanishi,

buyumlarni puxta ishlanganligi ham ta'sir ko'rsatadi. Haqiqatdan ham, agar dvigatelning xizmat qilish muddati oshsa, agar sifatni oshirish natijasida kam sonli buyumlar bilan unga bo'lgan ehtiyojni to'laroq qondirilsa, bu holat bevosita ishlab chiqarish hajmlarida va ishlab chiqarish tarkibida o'z aksini topadi.

Ishlab chiqarish tarkibiga tarmoq omillari bilan bir qatorda har bir korxona faoliyati, ular tomonidan asosiy va aylanma fondlardan foydalanish darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, agar korxona mahsulot birligi ishlab chiqarishga ketgan moddiy resurslar xarajat normasini qisqartirishga, ularni tejashga, chiqindilarni kamaytirishga va ratsional foydalanishga harakat qilsa, bu ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan ehtiyojini nisbatan qisqarishiga olib keladi va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarishni oshirishga imkoniyat beradi. Agar korxona ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tarkibida yuqori texnik-iqtisodiy parametrlari bilan ajralib turuvchi, iste'molchilar ehtiyojlarini maksimal darajada hisobga oluvchi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga olib keluvchi ilg'or texnologiyani mujassamlashtiruvchi yuqori sifatli mahsulotlar ulushi oshib borsa, bu ijtimoiy ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga olib keladi.

Mashina va mexanizmlar konstruktsiyalarini yaxshilanishi, ular sifatini oshishi, tejamkor materiallardan foydalanish masalalarining yechimi ilmiy tadqiqot va loyiha konstruktorlik tashkilotlarining faoliyatiga, ularning o'z amaliyotida yangi ilmiy texnika yutuqlaridan optimal ravishda foydalana olishiga bog'liqdir<sup>75</sup>.

Milliy iqtisodiyot tarkibini qayta qurishni takomillashtirish bilan jamiyatda mavjud bo'lgan resurslar dinamikasi o'rtaida dialektik o'zaro bog'liqlik mavjud. Ushbu o'zaro bog'liqlik takror ishlab chiqarish jarayonida resurslarning doiraviy aylanishiga asoslanadi. Iqtisodiyot tarkibini qayta qurishni takomillashtirish, bir tomonidan ishlab chiqarish taraqqiyotiga, ikkinchi tomonidan esa, mavjud bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga imkoniyat beradi.

Ushbu ikki omil ijtimoiy mehnat unumdonligini ortishiga imkoniyat yaratadi. Ijtimoiy mahsulotning o'simini taqsimlanishi iqtisodiyot tarkibini takomillashtiruvchi asosiy vosita bo'lgan kapital qo'yilmalarni ko'paytirishga imkoniyat beradi. Bu esa iste'mol buyumlari ishlab chiqarishning o'sishi va ishchi kuchining takror ishlab chiqarish sharoitlari yaxshilanishini taqozo etadi. So'ngra esa resurslar doiraviy aylanishi takrorlanadi. Bunda ijtimoiy mehnat unumdonligi yanada ortadi va iqtisodiyot tarkibini takomillashuviga yangi shart-sharoitlar yaratiladi.

Bozor iqtisodiyoti turli bozorlarning o'zaro yaloqalari va o'zaro ta'sirlariga asoslangandir. Bozor segmentlari orasida o'zining o'zgaruvchanligiga qaramasdan, eng muhim axborotlar bozori hisoblanadi. Mahsulot ishlab chiqarish va uning sifati, sotish sharoitlari, narxi, foydasi va boshqalar to'g'risida keng va rivojlangan axborot tizimisiz hozirgi davr bozor iqtisodiyoti to'laqonli amal qila olmaydi va rivojlanmaydi. Foyda tadbirkorlik faoliyatining dvigatelni hisoblanadi. Foyda olish mexanizmi esa, nima, qayerda, qachon va qanday narxda, qaysi usul bilan va kimga sotilishi to'g'risidagi bilim va axborotlarni harakatga keltiradi.

<sup>75</sup> Курс экономики. Учебник. /Под ред. Б.А. Рафзберга. -4-е изд. Перераб. И доп. -М.: ИНФРА-М., 2006. стр. 215.

Raqobat, narx va foyda – bozorlar to'g'risidagi keng axborotlar tizimi orqali resurslarni samarali taqsimlashga, iqtisodiyotning rivojlanishini rag'batlantirishga, tadbirkorlikni, tavakkalchilikni qo'llab-quvvatlashga imkon beruvchi omillardir.

### 10.3. O'tish davrida O'zbekiston milliy iqtisodiyotini tarkibiy tuzilishini takomillashtirishning zarurligi va uning xususiyatlari

Ma'lumki, mustabid tuzum davrida O'zbekiston umumittifoq mehnat taqsimotida xomashyo bazasi vazifasini bajarar edi. 1990-yilda SSSRda ishlab chiqariladigan paxta tolasining 62,4 % ni O'zbekiston hissasiga to'g'ri kelardi, hamda etishtirilgan paxtaning 7 %gina respublikada qayta ishlanar edi<sup>76</sup>.

1990-yilda respublikada yaratilgan milliy daromadda sanoatning hissasi - 25,7 %, qishloq xo'jaligi - 44,2 %, qurilish - 14,1 %, transport va aloqa - 4,7 %, boshqa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari - 11,1 %ni tashkil etdi<sup>77</sup>.

Eksportning 67 %ini bitta tovar - paxta xomashyosi, importning esa, 57 %ini don mahsulotlari tashkil qilar edi. Yakka ekin (paxta) yetishtirishga asoslangan eksport-import tizimi hukmron edi.

Yirik ishlab chiqarish tajribalaridan ma'lumki, bir turdag'i mahsulot ommaviy ishlab chiqariladigan joyda samaraliroqdir. O'ta mayda (1 dan 19 kishigacha mehnat qiladigan) korxonalar 80-yillarda AQShda barcha korxonalarning 26,1, Yaponiyada 49,4 va Italiyada 43,4 %ni tashkil etdi. Mayda korxonalar (ya'ni, 20 dan 90 kishigacha ishlaydigan korxonalar) muvofiq ravishda 28,4, 27,7 va 30,4 %ga teng edi. O'rta korxonalar (bunga 100 dan 499 kishigacha ishlaydigan korxonalar kiradi) 24,0, 14,6 va 14,2 %, nihoyat, 500 dan ortiq ishchi mehnat qiladigan yirik korxonalar 21,5, 8,2 va 12,1 %ni tashkil etdi. Ko'rinib turibdiki, o'ta zamonaviy Yaponiyada ishchilarning deyarli yarmi o'ta mayda firmalarda jamlangan. Mayda va kichik firmalar ish bilan band bo'lgan Yaponlarning 3/4 qismini o'zida birlashtirgan<sup>1</sup>. Mayda firmalar iqtisodiyotning poydevori, deb bejiz aytilmaydi.

O'zbekiston sobiq respublikalar orasida aholi jon boshiga hisoblaganda quyidagi ko'rsatkichlar: sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (ikki marta), ijtimoiy sohaning rivojlanishi (aholi daromadlari, uy-joy bilan ta'minlanganlik, kommunal xizmatlar ko'rsatish, madaniy-maishiy obyektlar va boshqalar) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha orqada edi.

1990-yilda aholi jon boshiga tovarlar va xizmatlar iste'moli Rossiyada - 3735, Gruziyada - 3575, Ukrainada - 3470, Qozog'istonda - 2900 va O'zbekistonda esa, 2200 AQSh dollarini tashkil etardi.

1990-yilda jon boshiga go'sht iste'mol qilish Belorussiyada - 73 kg., Qozog'istonda - 71 kg., Rossiyada - 69 kg., Ukrainada - 65,5 kg. bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda - 30 kg.ni tashkil etdi. Tuxum iste'mol qilish jon boshiga Belorussiyada - 320, Rossiyada - 228, Qozog'istonda - 207 dona bo'lgan bo'lsa,

<sup>76</sup> Tuxliyev N., Taksanov A. Национальная экономическая модель Узбекистана. – Т.: О'qituvchi, 2000. 31-32-б.

<sup>77</sup> Народное хозяйство СССР в 1990 году. Статистический ежегодник. – Москва: Финансы и статистика, 1991. 11-бет. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. – Т.: Узбекистон, 1991. 10-б.

<sup>1</sup> Юданов А.Ю. Фирма и рынок. – М.: Знание, 1990. 5-б.

O'zbekistonda - 107 donani tashkil qildi<sup>78</sup>. Boshqa mahsulotlar bo'yicha iste'mol qilishda ittifoq respublikalaridan ancha orqada edi.

Milliyl iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish zarurligi eng avvalo tarkibiy o'zgarishlarni xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarida amalga oshirish, ularning maqsad va vazifalarini belgilash hamda o'zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi.

O'zbekistonda iqtisodiyot tuzilishidagi o'zgarishlar Prezident g'oyalariga ko'ra, quyidagi eng muhim vazifalarni hal etish bilan bog'liqdir:

**Birinchidan**, boshqa mamlakatlardan xomashyo resurslari eng muhim turlarining, butlovchi mahsulotlarning va oziq-ovqat mahsulotlарining olib kelinishini qisqartirib, ana shu mahsulotlar o'mini bosadigan korxonalarni rivojlantirish asosida respublikaning iqtisodiy mustaqilligiga erishish;

**Ikkinchidan**, o'zimizda ishlab chiqarishni tashkil etish hisobiga mahsulotlar va xalq iste'mol mollarining hayotiy muhim turlariga bo'lgan aholi va umumxalq xo'jaligi talablarini qondirish;

**Uchinchidan**, iqtisodiyotning mutanosib va barqaror ishlashini ta'minlash;

**To'rtinchidan**, iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishga qaratilgan bir tomonlama yo'nalishini bartaraf etish, g'oyat boy ma'dan - xomashyo resurslari va qishloq xo'jalik xomashyosini chuqurroq, mukammalroq qayta ishlanishini tashkil etish, ishlab chiqariladigan mahsulotning butlik darajasi va raqobatbardoshligini oshirish;

**Beshinchidan**, respublikaning eksport imkoniyatini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarda to'lov balansining ijobiy bo'lishiga erishish; oltin-valyuta zaxirasini mustahkamlash;

**Oltinchidan**, mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, mehnat qilishning yangi texnologiyalarga, xalqning tarixiy an'analari va udumlariga mos keladigan sohalarini barpo etish;

**Yettinchidan**, tarmoqlar ichidagi va hududiy jihatdan vujudga kelgan nomutanosibliklarni bartaraf etish, respublika hududida ishlab chiqaruvchi kuchlarni jadal rivojlantirish va oqilona joylashtirish<sup>79</sup>.

Buning natijasida mustaqillik yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida ijobiy o'zgarishlar yuz berdi va tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlash uchun shart-sharoitlar vujudga keltirildi.

Tarkibiy o'zgarishlardan ko'zlangan aniq maqsadlar quyidagilardan iboratdir:

- iqtisodiyotning xomashyo yetishtirishdan iborat bir tomonlamaligiga chek qo'yish;

- iste'molga tayyor, ya'ni tugallangan mahsulot ishlab chiqarishga o'tish;

- import o'mini bosa oladigan tovarlarni iloji boricha mamlakatning o'zida ishlab chiqarib, importga qaramlikni cheklash;

- mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazib, mamlakat eksport salohiyatini oshirish;

- ishlab chiqarishning istiqbolli sohalariga ustuvorlik berib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

<sup>78</sup> Народное хозяйство СССР в 1990 году. Статистический ежегодник. 1990. Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 г. – Т.: Узбекистон, 1991.

<sup>79</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloqotlami chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995. 230-231-betlar.

- mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, yangi texnologiyalarga o'tish, xalqimizning milliy va tarixiy an'analariga mos keladigan yangi sohalarni barpo etish;

- o'zimizda ishlab chiqariladigan tovarlar hisobidan milliy bozorni to'ldirish orqali xalq iste'mol mollarining muhim turlariga bo'lgan aholi talablarini to'laroq qondirish.

Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar o'zida quyidagilarni ifodalashi lozim:

- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini mujassamlashtirgan yangi, yuqori samara beruvchi ishlab chiqarishni tashkil etish va iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkonini beradigan tarmoqlar rivojlanishni ta'minlash;

- mamlakatning tabiiy sharoitini, uning mineral, xomashyo resurslarini demografik ahvolini, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli unumdar yerlar mavjudligini hisobga olish;

- ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish asosida yuqori iqtisodiy natijalarga erishishni ta'minlaydigan iqtisodiyot tarkibiy tuzilishiga erishish;

- milliy iqtisodiyot tarkibini shakllantirishda uning jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilib borishini e'tiborga olish;

- iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirishni mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga, ta'lim berish tizimini takomillashtirishga, aholining yuqori turmush darajasini ta'minlashga yo'naltirish.

Mustaqillik yillarda O'zbekistonda iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishida chuqur o'zgartirishlar amalga oshirilishi oqibatida respublikaning yoqilg'i-energetika resurslariga bo'lgan ehtiyoji o'zi hisobidan to'la ta'minlandi hamda g'alla importiga qaramlik barham topib, g'alla mustaqilligi qaror topdi.

Oliy Majlisning XIV sessiyasida sotsial infratuzilmani jadal rivojlantirishga alohida e'tibor berilib, noishlab chiqarish sohasini rivojlantirishning aniq yo'nalishlari, uning rivojlanishidagi ustuvor jihatlari belgilandi, bu sohadagi tarkibiy siyosatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlarga e'tibor qaratildi.

Noishlab chiqarish sohasidagi tarkibiy siyosat quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini izchil amalga oshirish;
- madaniyat va san'at sohalarini rivojlantirish;
- sog'liqni saqlash sohasida ambulatoriya - poliklinika xizmatlarini ko'paytirish.

Milliy iqtisodiyotdagi ijobiylar siljishlar oqibatida noishlab chiqarish sohalariga samoya qo'yilmalari ham orta bordi. Natijada, 2000-2008-yillarda YaIMda ta'lim uchun umumiylar ulushi 7,5-8 %, sog'liqni saqlash uchun umumiylar xarajatlar 4,5-5 %ni tashkil etdi.

Jahon bankining ma'lumotiga ko'ra, yalpi ichki mahsulotdan ta'lim sohasiga xarajatlar Rossiyada 3,4 %, AQSh, Fransiya va Buyuk Britaniyada 5,3 %ni tashkil etadi. O'zbekistonda 1998-yilda ta'lim sohasiga yo'naltirilgan xarajatlar yalpi ichki mahsulotning 7,6 %ini, 1999-yilda 8,1, 2000-yilda 10,3, 2008-yilda esa 12 %ni tashkil etdi.

Iqtisodiyotdagι tarkibiy o'zgarishlarni yanada samaraliroq bo'lishi uchun quyidagi sharoitlar yaratilishi lozim:

- davlatning tarkibiy o'zgarishlar borasidagi faol investitsion siyosatini amalga oshirish;
- xususiy investitsiyalarni rag'batlantirish va ular uchun munosib qulay sharoitlar yaratish;
- xususiy investitsiyalar yo'nalishini savdo-vositachilik sohalaridan ishlab chiqarishni rivojlantirishga burish;
- xorijiy investorlar uchun yanada qulay investitsiya muhitini yaratish;
- bozor munosabatlarning asosi bo'lgan kichik va o'rta korxonalar rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- zarar ko'rib ishlovchi korxona va tarmoqlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni asta-sekin to'xtatish, sanatsiya va bankrotlik siyosatini qo'llash.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Fan texnika taraqqiyoti, milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishi, importga qaramlik, eksport salohiyati, jamg'arish normasi, ishlab chiqarish tarkibi, iste'mol tarkibi, ijtimoiy ehtiyojlar, tarkibiy o'zgarishlar.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Tarkibiy o'zgarishlar deganda nimani tushunasiz?
2. Fan texnika taraqqiyoti nima?
3. Milliy iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini aytib bering.
4. Importga qaramlik nima?
5. Eksport salohiyatini qanday oshirish mumkin?
6. Jamg'arish normasi nima?
7. Ishlab chiqarish tarkibini qaysi yo'llar bilan takomillashtirish mumkin?

## **11-bob. KICHIK BIZNES VA HUSUSIY TADBIRKORLIK IJTIMOIY- IQTISODIY TARAQQIYOT GAROVIDIR**

### **11.1. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik tushunchalari**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari iqtisodchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Iqtisodchi-olimlar “biznes” tushunchasini “ish”, “munosabat”, “mashg’ulot” foyda olishga qaratilgan bozor munosabatlari subyektlarining iqtisodiy faoliyati deb talqin etadilar. Ayrim iqtisodchi-olimlar “biznes” va “tadbirkorlik”ni ma’nodosh tushunchalar, deb hisoblaydilar.

Iqtisodiy adabiyotlarda “tadbirkor” tushunchasi birinchi marta 1723-yilda paydo bo’lgan va bunda “tadbirkor” deganda “ishlab chiqarish va obyektlar qurilishi bo‘yicha majburiyatni o‘z zimmasiga olgan shaxs”<sup>80</sup> tushunilgan. Ilmiy termin sifatida “tadbirkorlik” tushunchasi XVIII asrning boshida taniqli ingliz iqtisodchisi Richard Kantilon ishlarida qo’llanilgan<sup>81</sup>. Uning fikricha, “tadbirkor – bu foyda olishi chegaralanmagan va tovarlarni arzon narxda sotib oladi-yu, lekin uni qimmatroq narxda sotadi, u tavakkalchi, taklifi talabga moslovchi shaxsdir”<sup>82</sup>.

N. Siropolis tadbirkorlikni jonli, dinamik faoliyat hisoblab, tadbirkorni ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etuvchi, uni boshqaruvchi va barcha mavjud riskni o‘ziga oluvchi shaxs sifatida talqin qiladi va tadbirkorlikning quyidagi muhim xususiyatlarini ko’rsatib beradi: aniq maqsadlarni ko’zlash; novatorlik; faoliyatning riskliligi; o‘ziga ishonch; qat’iyatlilik; javobgarlik<sup>83</sup>.

“Ekonomiks” darsligining mualliflari Makkonell K. R., Bryus L. fikricha, “kichik biznes - bu shunday sohaki, u tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarilishi jarayonida er resurslari, kapital va mehnatni birlashtirish bo‘yicha tashabbusni o‘z zimmasiga oladi, shu bilan birga biznesni yuritish jarayonida asosiy qarorlarni qabul qiladi. Shuningdek, kichik biznes yangilik yaratuvchi bo‘lib, tijorat asosida yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish texnologiyalari yoki biznesni tashkil etishning yangi shakllarini ishlab chiqarishga intiluvchi, riskli faoliyatdir”<sup>84</sup>.

A. Busigin tadbirkorlikni “foyda olish maqsadidagi iqtisodiy faoliykning maxsus tur” sifatida ta’riflab, tadbirkorlik faoliyatining maqsadi deb, Shunday tovarni ishlab chiqarish va sotishni tushunadiki, u bozorda talabga ega bo‘lib, tadbirkorga foyda keltirishi lozim. U tadbirkorlikni yangi narsani yaratish jarayoni sifatida, tadbirkorni esa bularning barchasiga zaruriy vaqt va kuch sarflovchi, bacha molivaviy, psixologik va ijtimoiy tavakkalchilikni zimmasiga oluvchi, evaziga pul va erishgan muvaffaqiyatdan qoniqish hosil qiluvchi inson sifatida qaraydi”.

<sup>80</sup> Основы бизнеса /Под. ред. Ю.Б.Рубина. Учебник. 6-е изд. – М.: Маркет ДС Корпорейшн, 2005. – 47 стр.

<sup>81</sup> Ахимов О.Ю. Малый и средний бизнес: звенья цепи понятий, рыночная среда, проблема развития. – М.: Финансы и статистика, 2004. – 24 стр.

<sup>82</sup> Основы бизнеса /Под. ред. Ю.Б.Рубина. Учебник. 6-е изд. – М.: Маркет ДС Корпорейшн, 2005. – 47 стр.

<sup>83</sup> Сирополис Николас К. Управление малым бизнесом. Руководство для предпринимателей: Пер. с англ. – М.: Дело, 1997. - стр. 50-60.

<sup>84</sup> Макконелл К.Р., Брюс Л. Экономикс. Т – 1., – М.: Дело, 1992. – стр.38

M. Lapusta, Yu. Starostin tadqiqotlarida “kichik tadbirkorlik - qonunchilikda belgilangan me’yorlarga muvofiq bozor iqtisodiyoti subyektlari tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi” sifatida qayd etilgan<sup>85</sup>.

A.O’lmasov, A.Vahobovlar fikricha, “tadbirkorlik mohiyatan biznesning asosiy turi. Ammo har qanday biznesni tadbirkorlik deb bo’lmaydi. Buning uchun biznes yaratuvchilik belgilariiga ega bo’lishi lozim. Biznes keng ma’noda puldan pul chiqarishga qaratilgan faoliyat. Ammo bunday faoliyatda yaratuvchilik bo’lganda tadbirkorlik yuzaga keladi, ya’ni bironqa ishga kapital qo’yib, resurslami samarali ishlatib, tovar va xizmatlarni yaratish tashkil etilganda buni tadbirkorlik deb aytish mumkin” – deya ta’riflaydilar<sup>86</sup>.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari, ularning faoliyati haqida gapirganda, ushbu subyektlar faoliyat olib borayotgan muhit – iqtisodiy, ijtimoiy va qonuniy tizim muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari uchun ma’lum iqtisodiy zona mamlakat misolida olinadigan bo’lsa, shu mamlakatda ushbu faoliyat bilan shug’ullanishning qonuniy asoslari qay darajada yo’lga qo’ylgan va u amaliyotda qanday ishlarloqda; mamlakatda kichik biznes va tadbirkorlik bilan shug’ullanish uchun iqtisodiy imkoniyatlar mavjudmi, ushbu faoliyat turlari bilan shug’ullanishning ijtimoiy jihatlari o’zida nimalarni mujassam etadi, degan savollar tug’ilishi tabiiy. Shunday ekan, yuqorida faktorlarni o’z ichiga oluvchi O’zbekistondagi kichik biznes va tadbirkorlik muhitini o’rganish va uning o’ziga xos xususiyatlарini ochib berish ushbu sohani yanada chuqurroq o’rganish imkoniyatini yaratadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o’rni va ahamiyati bu soha tomonidan amalga oshiradigan vazifalar orqali namoyon bo’ladi. Bunday vazifalarning turli-tumanligi esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining jahondagi barcha mamlakatlar uchun ham, o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan alohida bir mamlakat uchun ham qandaydir darajada ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Prezidentimiz Konstitutsiyamizning 18-yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasida bu borada quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta’minlash orgali biz mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo’lgan o’rta sinfnинг shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo’lib borishiga erishmoqdamiz.

Barchamizga ayonki, aynan ana shu ijtimoiy qatlam – ya’ni o’rta sinf yurtimizda amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirishdan, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan eng ko’p manfaatdordir. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimizdagи ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo’lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda”<sup>87</sup>.

<sup>85</sup>Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. – М.: ИНФРА-М, 1997. – стр. 5.

<sup>86</sup> O’lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyası: Darslik. – T.: Sharq, 2006. - 142-bet.

<sup>87</sup> Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo’lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Prezident Islom Karimovning O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18-yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruzasи. //Xalq so’zi, 2010-yil 8-dekabr.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagи аhamiyati to'g'risida so'z yuritganda, eng avvalo, uning **iste'mol bozoridagi muvozanatni ta'minlash** vazifasini **ta'kidlash lozim**. Sobiq rejali iqtisodiyot davridagi achchiq tajribadan ma'lumki, o'ta darajada yiriklashgan ishlab chiqarish ehtiyoj va talablar tuzilishidagi o'zgarishlarga qiyin moslashuvchan, harakatchanlik borasida o'ta sust hisoblanadi. Bundan farqli o'laroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng moslashuvchan, o'zgarib turuvchi talabga tez javob beradigan sohasi hisoblanib, turli ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, iste'molchi uchun zarur bo'lgan mahsulot va xizmatni yetkazib berish muammosini zudlik bilan hal etadi. Shu bilan birga, ular aholi ehtiyojlarning o'zgarishi natijasida mahsulot turlarini o'zgartirish va ishlab chiqarishga joriy etishni yirik ishlab chiqarishga nisbatan kam xarajat qilgan holda amalga oshira oladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning аhamiyati, ayniqsa, ko'lami jihatidan katta bo'limgan **yangi bozorlarni o'zlashtirishda** yaqqol namoyon bo'ladi. Mavsumiy, milliy, mahalliy аhamiyatga molik ba'zi mahsulot va xizmatlar talab hajmiga ko'ra yirik ishlab chiqarish uchun ko'p ham istiqbolli hisoblanmaydi. Biz kundalik turmushda kerak bo'ladigan uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib maishiy xizmat ko'rsatishgacha bo'lgan jarayonda yirik korxonalarning rolini odatda to'la tasavvur eta olmaymiz.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy sohadagi eng muhim vazifasi - bu aholining **ish bilan bandlik darajasini oshirishdir**. O'z navbatida u mazkur vazifani ikkita asosiy yo'l bilan bajarishi mumkin: yangi ish o'rinnarini barpo etish va vaqtincha bo'sh bo'lgan yoki ish bilan qisman band bo'lgan aholini ishga jalg etish, yoki boshqacha aytganda, ikkilamchi bandlikni **ta'minlash**. Aholining ish bilan bandligi va qo'shimcha daromad olish imkonini yaratish orqali u jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga katta hissa qo'shadi. Ushbu jihatlarni ham alohida e'tirof etgan holda, Prezidentimiz "Ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatlari mahsulotlar bilan to'ldirishda, bugungi kunda biz uchun eng dolzarb masalalardan biri bo'lmish aholimizni, avvalambor, yoshlarimizni ish bilan **ta'minlash** va shu asnodda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda ayni shu sohani tez va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri ekanini hech unutmasligimiz darkor"<sup>88</sup>, deb **ta'kidlab o'tdi**.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlantirilishi xo'jalik yuritishning sobiq **ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga xos bo'lgan salbiy oqibatlarni bartaraf etishda** muhim o'rinn tutadi. Jumladan, aynan **ma'muriy-buyruqbozlik tizimi** davrida noto'g'ri yuritilgan ijtimoiy siyosat oqibatida yirik shaharlarda ishlab chiqarishning haddan ziyod to'planishi, kichik shahar va qishloq joylarda esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darajada qolishi aholi o'rtasida tabaqalashuvni keltirib chiqqargan edi. Bunday yaroqsiz usul, ayniqsa, mamlakatimizdagi ko'plab kichik shahar va qishloqlardagi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlariga salbiy **ta'sir ko'rsatdi**. Aholining asosiy qismi qishloqlarda joylashganiga qaramasdan, mavjud ortiqcha ishchi kuchi uchun yangi

<sup>88</sup>Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom etirish – tarraqqiyotimizning muhim omilidir. Prezident Islam Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasi. //Xalq so'zi. 2010-yil 8-dekabr.

ish joylarini tashkil etish muammosi hal etilmadi. Shunga ko'ra, bu muammonni tezlik bilan hal etishning asosiy yo'llaridan biri – kichik korxonalarini, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishiga va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalarini tashkil etish ekani tobora ayon bo'ldi.

## 11.2. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlik mezonlari

Bugungi kunda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishda asosiy qonuniy hujjat 2000-yil 25-mayda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni xizmat qiladi. Ushbu Qonunning asosiy vazifasi fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va mansaattorligi uchun kafolatlari hamda sharoitlar yaratishdan, ularning ishchanlik faolligini oshirishdan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Ushbu Qonunning 3-moddasiga ko'ra, "Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvosiq amalga oshiriladigan tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat" deb ko'rsatilgan. Demak, ushbu ta'rifa asosan, tadbirkorlikda 4 ta asosiy tushuncha muhim o'rin egallaydi, ya'ni – tavakkalchilik, mulkiy javobgarlik, daromad olish va qonunda man etilmagan tashabbuskor faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik subyektlari deb, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarga aytildi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga esa, yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmagani holda jismoniy shaxs tomonidan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi nazarda tutiladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash, huquqsiz, mulk huquqi asosida o'ziga tegishli bo'lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning birgalikdagi mol-mulkidan foydalananidan hollarda, agar qonunlarda, nikoh shartnomasi yoki er-xotin o'rtasidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, er (xotin)ning roziligi talab qilinadi.

### Mikrofirmalarga:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi;
- xizmat ko'rsatish sohasida va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi;
- ulgurji va chakana savdo hamda umumiyl ovqatlanish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan korxonalar kiradi.

### Kichik korxonalarga esa:

- yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

– mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqish va qayta ishlash, qurilish hamda boshqa sanoat, ishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;

– fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshqa noishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan korxonalar kiradi.

Tadbirkorlar toifasi ikki yo'l bilan shakllanadi:

Birinchisi, tadbirkorlik avloddan avlodga o'tadi, ya'ni toifa o'zini-o'zi takroran yaratadi. Buning natijasida tadbirkorlar sulolasi paydo bo'ladi;

Ikkinchisi, ilgari tadbirkorlik qilmagan tadbirkorlikka qo'l uradi, natijada tadbirkorlar safiga kirib boradi. Bu yo'l o'tish davridagi mamlakatlarga, jumladan O'zbekistonga xos.

Hozirgi tadbirkorlar avlodi yangidan shakllangan bo'lsa, ularning keyigi avlodi o'zini-o'zi qaytadan yaratish asosida yuzaga keladi. Tadbirkorlar toifasining shakllanib ulgurishi o'tish davrining tugallanganligini bildiradi, chunki iqtisodiyot bozor qoidalariga amal qiluvchi faol kishilar qo'liga o'tadi.

Tadbirkorlikning amaliy shakllari qonun hujjatlari asosida belgilanadi va aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Tadbirkorlik faoliyati firma (korxona) doirasida va individual yakka tarzda yuritiladi. Birinchi shaklda yuridik shaxslar, ikkinchi shaklda jismoniy shaxslar tadbirkorligi yuz beradi. Tadbirkorlik asosan firmalarda va fermer xo'jaliklarida kechadi. Firma ayrim korxona va korxonalar birlashmasi shakliga ega.

Firma – bu tovar ishlab chiqaruvchi korxona. U nafaqat moddiy tovarlarni, shuningdek xizmatlarni ham yaratadi va bozorga chiqaradi.

Firma iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini, chunki shu yerda ishlab chiqarish yuz beradi, ya'ni ishlab chiqarish omillari harakatga keladi, xomashyo, materiallarga ishlov berilib, butlovchi qismlar yig'ilib iste'molga tayyor tovarlar yaratiladi, har xil xizmatlar ko'rsatiladi. Firmaning 4 ta asosiy belgisi bor:

1. Firma muayyan mulk shakliga oid va iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan korxona, yuridik shaxs. U erkin faoliyat yurgazadi, nimani qancha ishlab chiqarish, tovari kimga qanchadan sotish, tushgan daromadni qanday ishlatishtini o'z manfaatlardan kelib chiqqan holda hal etadi. U faqat bozor talablariga bo'ysunadi, ma'muriy tazyiqlardan xoli bo'lishi kerak.

2. Firma ishlab chiqaruvchilar jamoasi bo'lib, bu yerda individual manfaatlari mavjud, lekin umumiy manfaati bo'lganidan o'zar o'zaro birlashgan kishilar mehnat qiladilar. Firma jamoasida uning egalari, boshqaruvchilar (menejerlar) va yollanib ishlovchi ishchilar va xizmatchilar birlashadi.

3. Har bir firmaning korporativ – guruhiy manfaati bo'lib, bu uning maqsadida ifoda etiladiki, bu foyda topish, uni maksimumlashtirishdan iboratdir.

4. Firma ixtisoslashgan faoliyat yurgazadi, u hamma ishni qiluvchi universal korxona emas, balki ma'lum turdag'i faoliyat yurituvchi va xizmat ko'rsatuvchi jamoadir. Ixtisoslashuv bo'lganidan firma bozorming ma'lum segmentiga (qismiga) o'z tovarlarini taklif etadi.

Tashkiliy - huquqiy jihatdan firmalar turlicha nomlanadi.

Xususiy firma - bu ayrim shaxslar va oиласлаrgа qarashli korxona bo'lib, xususiy mulkka kiradi. Xususiy firma egasi ayrim shaxslar hisoblanadi. U yakka sohibga tegishli bo'lganidan, uning o'zi tomonidan boshqariladi. Firmaning kapitali xususiy bo'lganidan uning foyda-zarari ham egasiga tegishli bo'ladi. Korxona egasi yo'liqadigan risk ham uning zimmasiga tushadi. Kichik xususiy firmalarda oila a'zolarining mehnati bilan yollangan ishchilar mehnati qo'llaniladi. O'rta va yirik korxonalarda uning egasi faqat ishni boshqarish bilan shug'ullanadi, tovar va xizmatlarni esa yollangan ishchilar mehnati yaratadi.

Shirkat firmalar - bu bir necha sohiblar mulkiga va oлинган foydанин ular tomonidan baham ko'rilihiga asoslangan firmalardir. Shirkat firmalar o'zining uchta belgisi bilan ajralib turadi.

Birinchidan, ular kichik kapitallarni bir erga to'plab katta kapital hosil etadi, kapital egalarining sherikchiligiga asoslanadi.

Ikkinchidan, tadbirkorlik riski taqsimlanib, kapital qo'ygan sohiblarning barchasiga yuklanadi. Bu yerda partnyorlarning birqalikdagi mas'uliyati va javobgarligi mavjud bo'ladi.

Uchinchidan, bu yerda topilgan foydani sheriklar birqalikda o'zlashtiradilar, bu bilan ular manfaatlарining uyg'unligi ta'minlanadi.

Shirkat firmalar tabiatan demokratik bo'lib, uncha katta bo'lmagan mablag'ni ham kapitalga aylantirib ularning egasiga daromad topish imkonini beradi, shu sababli ular bozor tizimida keng tarqalgan firmalardir. Shirkat firmalarning o'zi ikki xil bo'ladi, bular mas'uliyati cheklangan va mas'uliyati cheklanganmagan firmalardir.

Mas'uliyati cheklanganmagan firmalar - shunday korxona hisoblanadiki, ularning kapitali sheriklar mulki hisoblanadi. Ularning korxona ochilish paytida, ya'ni unga dastavval qo'ygan mablag'i ustav kapitali deyiladi. Kapital sherikchilikka asoslangan bo'lsada, sheriklarning maqomi bir xil bo'lmaydi. Sheriklar ikki toifaga ajraladi. Birinchisi - to'la huquqli sheriklar. Bular firmaning javobgarligini o'z zimmasiga oladilar, zararni birqalikda ko'taradilar, oлинган foydani esa qo'ygan kapitalning miqdoriga qarab bo'lishib oladilar. Ikkinchisi - huquqi cheklangan sheriklar. Bular boshqa sheriklar majburiyatini zimmasiga olmaydilar, boshqalar to'laydigan zararni to'lamaydilar, lekin qo'ygan kapitaliga qarab foydанин bir qismini oladilar. Mas'uliyati cheklanganmagan firmalarning maxsus turi bu kooperativlardir. Bular ham sheriklar mulkiga tayanadi, risk taqsimlanganda foyda yu zarar birga baham ko'rildi. Biroq kooperativga a'zo bo'lish uchun unga pay berish kifoya qilmaydi, chunki bundan tashqari kooperativda ishlash ham zarur.

Mas'uliyati cheklangan firmalar. Bular ham sheriklar kapitaliga asoslangan va foydasi sheriklar o'rtasida taqsimlanadigan firmalar. Cheklangish shundan iboratki, firmalar majburiyatlariga o'zining ustav kapitali chegarasida javob beradi. Mas'uliyati cheklanganligi aytilgan firmalarning ko'plab ochilishiga olib keladi, ularga pul qo'ygan sheriklar safini kengaytirib yuboradi. Aktioner jamiyatlar mas'uliyati cheklangan firmalarning eng ko'p tarqalgan shakli, bu aktsionerlar jamiyatni hisoblanadi. Bular ko'p joyda korporatsiya deb yuritiladi. Muayyan korxona aksiya chiqarib uni sotadi.

Aksiyani sotib olganlar aktsionerlar, ya'ni aksiya egalari deb ataladi. Aksiya sotishdan tushgan pul korxonaning kapitalini hosil etadi. Aksiya egalari uning miqdoriga qarab topilgan foydaning bir qismini dividend sifatida oladilar. Aktionerlar korxona egalari hisoblanadi, lekin ularning maqomi bir xil emas. Aksiyalar katta qismining egalari yirik aktsionerlar bo'lib, kichik aksiya egalari mayda aktsionerlar hisoblanadi.

Turli shirkat firmalarda va xususiy korxonalarda boshqarish individual yakka tartibda bo'lsa, aktsioner jamiyatlarida korporativ boshqaruv mavjud bo'lib, bu ishda bacha aksiya egalari va yollanma boshqaruvchilar-menejerlar qatnashadi. Aktioner jamiyatlar yopiq va ochiq bo'ladi. Yopiq jamiyatlarda aksiyalarning asosiy qismi shu yerdagi ishchi va xizmatchilarga yoki ularning tashkilotlariga tegishli bo'ladi, begonaga aksiya berilmaydi. Ochiq jamiyatlarning egalari shu yerda ishlashi shart emas, aksiyador xohlaganlarga, hatto begonalarga ham sotiladi, lekin baribir bular ham teng huquqli xissadorlar sanaladi.


Davlat firmalari. Bular davlat mulki bo'lgan va uning nazorati ostida ishlaydigan korxonalar, ular iqtisodiyotda davlat tadbirkorligini tashkil etadi, iqtisodiyot davlat sektorining asosi hisoblanadi. Davlat firmalari ham erkin iqtisodiy subyekt hisoblanadi, ular ham el qatori bozor qonun-qoidalariga binoan faoliyat yuritadi. Ular odatda ser kapital va daromadiyuqori bo'Imagan korxonalardan iborat bo'ladi, ular yaratgan tovar va xizmatlar iqtisodiyot rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular transport, energetika, neft-gaz sanoati, kommunal xo'jalik, suv xo'jaligi, aloqa, telekommunikatsiya, kosmik sanoat kabi sohalarda ishlaydilar.

Aralash firmalar. Bular turli mulkchilikning qorishmasiga asoslangan korxonalar. Xorijiy va mamlakat ichidagi sheriklar birlashganda qo'shma korxonalar hosil bo'ladi. Mamlakat ichidagi sheriklar mulki, ya'ni davlat xususiy va jamoa mulki qo'shilganda birgalikdagi korxonalar hosil bo'ladi. O'zbekistonda kichik biznes xususiy tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalardan tashkil topgan. Ammo hozirgi davrda iqtisodiyotda kechayotgan murakkab jarayonlar, kichik tadbirkorlik faoliyati turli-tumanligi, mamlakatimizda uning o'ziga xos xususiyatlari ushu belgilarning barchasini o'z ichiga olgan klassifikatsiyani ishlab chiqishni talab etadi.

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqishda har bir tumanning tabiiy-iqlim, ijtimoiy iqtisodiy va ekologik xarakterli o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi uchun aholi daromadini oshirish maqsadida kichik biznesni rivojlantirish dasturini "Yuqoridaan pastga" tuzish noto'g'ri hisoblanadi. Har qandan tuman uchun aholi bandligini oshirish maqsadida kichik biznesni rivojlantirish dasturini ishlab chiqishda quyidagi asosiy tamoillardan kelib chiqish maqsadga muvofiq.

1. Dastur tumanni rivojlantirish konsepsiyasiga har tomonlama mos kelishi lozim.
2. Dastur bandlik muammolarini va mehnat bozorini o'rganish asosida ishlab chiqiladi.
3. Kichik va yirik korxonalar oqlona moslashuvi lozim.
4. Tumanda va viloyatda tovarlar va xizmatlarga talabni hisobga olish zarur.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlarning tarkibiy tuzilmasi**



**11.2.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi subyektlarning tarkibiy tuzilmasi<sup>89</sup>**

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri joylardagi statistika organlari tomonidan to'ldiriladigan ro'yxatdan o'tkazish kartalari asosida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan yuritiladi.

Tadbirkorlik subyekti davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun davlat boji yoki ro'yxatdan o'tkazish yig'imi to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida, Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligida va viloyatlar adliya boshqarmalarida davlat ro'yxatidan utkazilganlik uchun:

- xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun – eng kam oylik ish haqining besh baravari, shuningdek, 500 AQSh dollarri;

- ustav fondi to'liq xorijiy investorlar tomonidan shakllan-tiriladigan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun 2000 AQSh dollari miqdorida davlat boji to'lanadi.

Tadbirkorlik subyektlari davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi uchun

<sup>89</sup> Sanaqulova B.R. Kichik biznes va tadbirkorlikni soliqqa tortish. O'quv qo'llanma. – T.: Noshir, 2012-y. 26-bet.

Inspeksiylarda ro'yxatdan o'tkazish yig'imi undiriladi, ularning stavkalari davlat hokimiysi Qoraqalpog'ston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat hokimiysi vakil organlari tomonidan belgilanadi. Ro'yxatdan o'tkazish yig'imlarining cheklangan stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan belgilanadi.

Kichik biznesning potensial imkoniyatlari uni rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishga majbur qiladi. Bir qator hukumat qarorlari natijasida boshlangan kichik korxonalarini yaratishni rag'batlantirish jarayoni keyingi yillarda iqtisodiyotda ular ahamiyatining oshishiga olib keldi.

Hozirgi kunga qadar, iqtisodiyotning ushbu sektorini rivojlanishini belgilab beruvchi bosqichlar mamlakatimizda bozor munosabatlarning bosqichma-bosqich asosda shakllanib borishining ta'siri bilan xarakterlanadi.

Qanday shaklda, qanday ko'rinishda bo'lmasin, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy jarayonlarda faol qatnashib, mamlakatda yalpi ishlab chiqarishning barqaror o'sishini, mamlakatimiz eksport salohiyatining ortishi, bandlik darajasining ortishi va boshqa bir qator afzalliklari bilan diqqatga sazovor bo'lib kelmoqda.

### **11.3. Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni**

Keyingi o'n yillikda jahondagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning roli sezilarli darajada o'zgardi. Mazkur sohada YALMning salmoqli qismi tobora ko'proq ishlab chiqarilmoxda, ishchi kuchi aksariyat qismining ish bilan bandligi ta'minlanmoqda, barcha innovatsiyalarning yarmidan ko'proq qismi yaratilmoxda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi keyingi 30 yil ichida deyarli 70 %ga yetgan. Jumladan, bu ko'rsatkich AQShda 38 %dan 52 %ga, Yaponiyada 47 %dan 55 %ga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida umumiyl holda 58 %dan 67 %ga etgan, kichik tadbirkorlik subyektlarining ushbu mamlakatlardagi korxonalar umumiyl sonidagi ulushi esa 92,5 %dan past emas. XX asrning so'nggi 20 yili ichida kichik biznesdagi bandlik AQShdagisi ish bilan band bo'lgan aholi umumiyl sonining 47 %idan 54 %iga, Yaponiyada 73,8 %idan 78 %iga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 48 %dan 72 %ga qadar o'sgan. Bu mamlakatlarda kichik tadbirkorlik mavqeining mustahkamlanishi davlatning shu boradagi siyosati bilan uzviy bog'liqidir.

Jahon tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishdan qator mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning o'ziga xos dastagi sifatida foydalanib kelinmoqda. Jumladan:

- 1) ishchi kuchi bandligini ta'minlashning asosiy sohasi;
- 2) iqtisodiyotning innovatsiya salohiyatini rivojlantirish manbai;
- 3) ishlab chiqarish faoliyatining yangi shakllarini izlash va joriy etish manbai;
- 4) davlat byudjetini soliq bilan to'ldirish (masalan, Germaniyada soliglarning deyarli yarmini kichik biznes ta'minlaydi);
- 5) ishlab chiqarish pasayishining oldini olish (Vengriya, Chexiya, Polsha);

6) yirik biznes bilan uzviy bog'liq holda, mamlakatning barqaror rivojlanishi hamda uning iqtisodiyoti raqobatdoshligini oshirishning asosi. Ushbu yo'naliishlarni quyidagi jadval orqali yaqqol tasavvur etish mumkin (11.3.1-jadval).

### 11.3.1-jadval

#### Jahonning ayrim mamlakatlarda kichik biznesdan foydalanish yo'naliishlari

Kichik biznesdan foydalanish yo'naliishlari	Mamlakatlar
Ishsizlik va qashshoqlik kabi ijtimoiy muammolarining keskinligini pasaytiruvchi omil	Hindiston, Albaniya, Braziliya
Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlik, o'rta sifsnинг tarkib topishi	Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Kanada, Ispaniya
Retsessiyani bartaraf etish	Isroil, AQSh
Yangi bozorlarni barpo etish	Meksika, Kanada, Singapur, Yaponiya
Islohotlarni izchil amalga oshirish	Xitoy, Poisha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya

Kichik biznesning iqtisodiyot rivojidagi muhim o'mni shu bilan ham belgilanadi, u aholining ishbilarmonlik faolligini oshirishning, bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qiluvchi bonyodkor kuch bo'lgan tadbirkorlikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Aynan shu soha tufayli markazlashgan tarzda foydalanishning iloji bo'lmagan ichki zaxiralar – aholining bo'sh pul mablag'lari, moddiy va mehnat resurslarini harakatga tushirish imkonini vujudga keladi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochish orqali xalqning ma'naviy qadriyatlarini – milliy hunarmandchilikni yanada rivojlanirishga, unutilgan sohalarni qayta tiklashga imkon yaratiladi.

Ma'lumki, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri – atrof-muhitni muhofaza qilish muammosidir. Chunki insoniyat tomonidan ekstensiv xo'jalik yuritish orqali tabiatga o'tkazilgan tazyiq, yer osti va yer usti boyliklaridan ayovsiz foydalanish hozirgi kunda o'z oqibatini ko'rsatmoqda. Endilikda atrof-muhitni iflosantiruvchi, o'zidan zararli chiqindilarni chiqaruvchi, barcha tirik organizmlarni zaharovchi yirik korxonalarining faoliyatiga mutlaq yo'l ochib berish – insoniyat uchun jiddiy xatardir. Bu muammo esa ko'proq mahalliy xomashyolarni, yirik sanoat korxonalarining chiqindilarini qayta ishslash qobiliyatiga ega bo'lgan, ishlab chiqarishda chiqitsiz texnologiyalardan samarali foydalanuvchi hamda eng muhimmi, atrof-muhitga deyarli ta'sir ko'rsatmaydigan zamona viy texnologiyalar bilan qurollangan kichik korxonalarining ko'proq tashkil etilishi orqali hal etilishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, u yirik kompaniyalarning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni bilvosita rag'batlantiradi. Ko'pincha kichik korxonalarining yirik yakkahukmron ishlab chiqarishga bog'liqligi ta'kidlanadi. Biroq bu bog'liqlik bir tomonlama bo'lmasdan, aslida yirik korxonalar faoliyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yordamisiz tasavvur etish mumkin emas. Ko'plab mayda va o'rta kompaniyalar yirik korxonalar uchun turli ishlarni bajarib, butlovchi detal va qismlarni yetkazib berib, ularning ichki pudratchisiga aylanadi. Ichki pudrat tizimi yakkahukmron ishlab chiqaruvchilar uchun o'ta foydalidir. U boshqaruv xarajatlarini qisqartirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish, unchalik foyda bermaydigan turli ishlarning

katta qismini mayda tadbirkorlarga yuklash orqali yakkahukmron korxonalarning kapital tejashiga imkon yaratadi.

Bundan ko'rinadiki, hozirgi paytda mamlakatimizda kichik biznes korxonalarining yanada rivojlanishi yirik korxonalar rivojlanishi va ular o'ttasidagi kooperatsion aloqalarning chuqurlashuviga bog'liq. Bu borada, ayniqsa, yetakchi korxonalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Buning uchun yangi zamonaviy korxonalarni barpo etish bilan bir qatorda, mavjud yirik korxonalarni tarkibiy jihatdan qayta tuzish orqali kichik zamonaviy korxonalar faoliyatini yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotning turli soha va jarayonlari o'ttasidagi mutanosiblikni ta'minlash muammosi unda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yuritish shakllarining oqilona nisbatlariga ham bog'liqdir. Xususan, iqtisodiyotdagи korporativ tuzilmalar, transmilliy korporatsiyalar va boshqa turdagи yirik korxonalar bilan kichik biznes va xususiy korxonalar o'ttasidagi dialektik bog'liqlik aynan shunday mutanosiblikni taqozo etadi. Kichik biznes sektorи iqtisodiyotdagи yirik korxonalar sektorining zaif jihatlarining ta'sirini kamaytiradi, ular uchun samarasiz bo'lgan jarayonlarni bajarib, yaxlit iqtisodiyotdagи "bo'shliqlarni to'ldirib" turadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo'lishiga ham bog'liq ekani shubhasizdir.

Kam xarajat hisobidan yangi ish o'rnlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida va uncha katta bo'limgan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekani kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko'rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Shu bilan bir qatorda, kichik korxonalardan foydalanish miqyosining kengayishi ko'p miqdordagi kapital qo'yilmalarining amalga oshirilishini talab etmaydi, ularni tashkil etish xarajatlari tez qoplanadi. Mahsulot birligi qiyamatiga to'g'ri keladigan ustama xarajatlar (boshqaruv xarajatları) yirik korxonalarga qaraganda ancha past. Bularning barchasi xalq xo'jaligi miqyosida sezilarli tejamkorlikka olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan tejamli bo'lishi, tabiiyki, daromadning ham yuqori bo'lishiga olib keladi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlari nuqtai nazaridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi savdo va tashqi iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllaridagi faol ishtiroti valyuta tushumlarini ko'paytirishning, turli tashqi iqtisodiy vazifalarni hal etishning muhim manbaiga aylanishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes mazkur mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda katta rol o'ynaydi.

Kichik biznes tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar turli mamlakatlar qonunchiligi tomonidan turlicha belgilanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagicha belgilangan:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasida va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa tarmoqlarda, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji, chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish tarmoqlarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

yengil va oziq-ovqat sanoatida, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati, qurilish materiallari sanoati, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, qurilish hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa sanoat-ishlab chiqarish sohalarida, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan elliq kishi;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiyligi ovqatlanish hamda ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa sohalarda, band bo'lgan xodimlarning o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar<sup>90</sup>.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash quyidagi chora-tadbirlar hisobidan amalga oshirilmoqda:

– mazkur tarmoqlardagi ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada o'sishini ta'minlash;

– korxonalarni rekonstruksiya qilish;

– zamonaviy, ilgor va yuksak texnologik uskunalar bilan jihozlangan korxonalar tashkil etish;

– ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muntazam yangilab borish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosan tarmoq vazirlik va idoralari, ulardagagi yetakchi korxona va birlashmalar hamda mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi va samaradorligini ta'minlashga mutasaddi davlat, nodavlat va boshqa tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari taqozo etiladi. Shu bilan birga, fikrimizcha, ushbu jarayonlarni amalga oshirishda kichik biznes korxonalari imkoniyatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinalarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, soliq tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barqarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

\* O'zbekiston Respublikasi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonuni. 2012-yil 2-may.

So'nggi yillarda kichik biznes subyektlarining mamlakatimizda yangi ish o'rinalarini tashkil qilish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli bo'lib bormoqda (11.3.2-jadval).

### 11.3.2-jadval

#### O'zbekistonda yangi ish o'rinalarini yaratishda kichik biznes subyektlarining ulushi, ming kishi

Ko'rsatkichlar nomi	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2012-y.
Yangidan tashkil etilgan ish o'rinalri	661	940,5	950,0	956,2	973,5
shu jumladan:					
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda	374,3	391,8	480,0	600,1	602,2
% hisobida	57,0	41,7	50,5	62,8	61,9
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi band bo'lganlarning jami iqtisodiyotdagi band bo'lganlar soniga nisbatan ulushi, % hisobida	72,7	74,2	74,4	74,8	75,0


Jadvaldan ko'rindaniki, keyingi davrda mamlakatimizda yiliga 1 millionga yaqin yangi ish o'rinalari tashkil etilayotgan bo'lsa, ularning yarmidan ko'pi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri kelmoqda.

2013-yil davomida ish o'rinalarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi.

Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, ushbu sohalarda 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod yangi ish o'rinalari yaratildi<sup>91</sup>. Bu esa kichik biznes sohasining aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinalarini tashkil qilish muammosini hal etishda muhim o'rinni egallashini ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga davlat tomonidan katta e'tibor berilishi hamda uning qo'llab-quvvatlanishi natijasida bu tarmoqning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Agar mustaqil taraqqiyotning dastlabki pallasi 1991-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi atigi 1,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda ushbu ko'rsatkich 31 %ga, 2013-yilda esa 55,8 %ga etdi, ya'ni 2000-yilga nisbatan deyarli 21 barobar, 1991-yilga nisbatan esa 37 barobar o'sdi (11.3.1-rasm).

<sup>91</sup> 2013-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. - <http://www.cbu.uz/uzc/node/42573>.



**11.3.1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi, %da**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining kengayishi iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlarida ishlab chiqarish salmog'ining oshib borayotganida ham namoyon bo'lidi. Xususan, mazkur sohaning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2005-yildagi 10 %dan 2012-yilda 22,2 %ga, qishloq xo'jaligida tegishli ravishda 85,7 %dan 98 %ga, savdoda 43,7 %dan 45,3 %ga, yuk tashishda 24,6 %dan 81,4 %ga, assosiy kapitalga investitsiyalar hajmida 24 %dan 35,2 %ga, eksport hajmida esa 6 %dan 15,7 %ga qadar oshgan (11.3.3-jadval).

### 11.3.3-jadval

**O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushining 2005-2012-villardagi o'sish sur'ati, %da**

Ko'rsatkichlar	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil
Sanoat	10,0	10,9	13,2	14,6	16,9	19,6	21,0	22,2
Qishloq xo'jaligi	85,7	93,9	97,5	97,8	97,9	97,9	97,9	98,0
Investitsiya	24,0	26,5	23,7	24,6	23,7	30,8	33,0	35,2
Qurilish	50,9	52,1	55,4	58,4	41,6	52,3	69,0	70,7
Savdo	43,7	45,7	48,2	48,1	46,3	50,5	47,2	45,3
Xizmat ko'rsatish	52,5	50,8	50,1	48,5	47,6	47,7	46,5	44,7
Yuk tashish	24,6	27,2	34,7	38,9	39,5	40,0	77,9	81,4
Yo'lovchilar tashish	65,7	69,4	75,7	78,5	78,9	78,9	86,3	87,8
Eksport	6,0	10,7	14,8	12,4	14,6	13,6	18,8	15,7
Import	33,7	34,5	32,0	35,7	42,5	36,6	37,4	37,6

Mazkur sohaning iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanishida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes

va xususiy tadbikorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda.

Ana shu chora-tadbirlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbikorlik subyektlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi barqaror ravishda o'sib bormoqda. Xususan, 2013-yilda yalpi ichki mahsulotning qariyb 55,8 %, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 23 %, mahsulot eksportining 18 %i kichik biznes va xususiy tadbikorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, iqtisodiyotda jami ish bilan band bo'lgan aholining 75 %i shu sohada faoliyat yuritmoqda<sup>92</sup>.

#### **11.4. Kichik biznes va hususiy tadbikorlik subyektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari**

Mustaqillik yillarda respublikamizda kichik biznes sezilarli rivojlandi. Ammo kichik korxonalarini tashkil qilish sur'ati, ularning barqaror rivojlanishi va umumiyligi iqtisodiy tizimdagisi o'mi hali bozor iqtisodiyoti talablariga to'la javob bermaydi. Kichik biznesni rivojlantirish yo'lida ko'plab qiyinchiliklar paydo bo'ldi, ularni faqat davlat tomonidan ko'rilgan tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar asosidagina bartaraf qilish mumkin.

Tadbikorlik faoliyatida kuzatilayotgan ko'plab qiyinchiliklar va kamchiliklar kichik biznesni barpo etish va rivojlantirishni jiddiy qo'llab-quvvatlash zarurligini tasdiqlaydi. Bu avvalo, tadbikorlik faoliyatining o'zi bilan bog'liq bo'lgan, kichik biznesni tashkil qilishning mohiyatidan kelib chiqadigan qiyinchiliklardir. Ko'pgina kichik korxonalarda tadbirkorlarning o'zlarini ta'minot, savdo, ishlab chiqarishni tashkil qilish, iqtisod, buxgalteriya va shu kabi barcha boshqaruv funksiyalari bilan yakka tartibda shug'ullanadilar. Tabiiyki, bir kishiga bu murakkab funksiyalarning barchasini professional darajada bajarish qiyinlik qiladi. Shuning uchun xo'jalik jarayonlarida qabul qalinayotgan qarorlar har doim ham samarali bo'lmaydi, bu esa kichik korxonalarning bankrot bo'lishiga olib kelayotgan asosiy sabablardan biridir.

Tadbikorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati borligi sababli unda tinimsiz ravishda me'yorlanmagan mashaqqatlari mehnat, ulkan mas'uliyat, xatarlarning kattaligi va daromadlarning mutnazam emasligi kabi muammolar vujudga kelib turadi. Bundan tashqari, tadbikor har doim yollanma ishchilar, ijara chilar, banklar, moliya organlari, iste'molchilar oldidagi shartnoma majburiyatlarini bajarish tashvishida bo'ladi. Kichik korxonalarning faoliyatiga inflyatsiya, narxlarning o'sishi, talabning kamayishi, valyuta kurslarining nisbati kabi bozor munosabatlari to'liq shakllanmagan tizimga xos bo'lgan iqtisodiy o'zgarishlar ta'sir qilib turadi.

Iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy xarakterdagi chora-tadbirlarga qaramay, tadbikorlik faoliyatida ko'pgina hal qilinmagan muammolar o'z yechimini kutib turibdi. Ularning eng asosiylarini quyida keltiramiz:

- kichik korxonalarini zamonaviy va istiqbollni rivojlantirishning metodologik masalalari na hududiy va na tarmoq miqyosda ishlab chiqilmagan. Respublika

<sup>92</sup> 2013-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. - <http://www.cbu.uz/uzc/node/42573>.

iqitsodiyotini rivojlantirishning umumiy ko'rsatkichlarida kichik biznesning miqdoriy tarkibi va salmog'ini aniq hisobga olib borish tizimi yo'q. Aytim tadbirkorlik faoliyat turlarining roli va tutgan o'mini aniqlash qiyin. Axborot ta'minotiga oid muammolar kichik biznesni rivojlantirish tendentsiyalarini aniqlashga, tadbirkorlik jarayonining muayyan yo'nalishlarini va ustuvor sohalarini tanlashga imkon bermaydi;

- respublika va mahalliy hokimiyat organlaridagi ma'muriy-buyruqbozlik tizimi tushunchalari bilan eskicha fikrلaydigan rahbar xodimlarning eskicha qarashlari saqlanib kelmoqda, ularning bozor sharoitlariga moslasha olmayotganligi yaqqol sezilib turibdi. Buning oqibatida ko'pgina progressiv (ilg'or) huquqiy aktlar va hukumat qarorlari yetarlicha to'liq va o'z vaqtida bajarilmay qolmoqda;

- tarmoq va hududiy boshqaruv organlari tadbirkorlarning muammolarini hal qilish maqsadida ularning faoliyatini chuqur tahlil qilmayapti, ularda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish sohasida intuitsiya yo'q. Bozor iqtisodiyotida yuzaga kelgan infratarkib hali natija bermayotganligi tufayli tadbirkorlar axborot xizmatlaridan mahrum, ular biznes-rejalar tuzishda yordamga, malakali maslahatchilarga, auditor xizmatlarga muhtoj;

- mahalliy organlar tomonidan tadbirkorlarga bo'sh ish o'rinalarini, bino va inshootlarni, tugallanmagan qurilish obyektlarini, foydalanilmayotgan transport vositalarini berish bo'yicha shoshilinch choralar ko'rilmayapti. Ular kichik korxonalarda davlat buyurtmalarini joylashtirish bilan deyarli shug'ullanmaydilar;

- mulk egalariga binolar buzilganda, mulklar turli sabablarga ko'ra taqsimlanganda o'z mulklariga taalluqli aniq kafolatlar berishni ta'minlovchi ta'sirchan mexanizm oxirigacha ishlab chiqilmagan;

- tijorat banklari tomonidan ko'plab cheklashlar mavjud. Ko'plab rasmiyatchiliklarning hal qilinmaganligi tufayli imtiyozli kreditlar olish, ayniqsa, qiyin;

- me'yoriy va yo'rinnoma materiallarini ishlab chiqishda kichik biznesga xos faoliyat xarakteri, ularning o'ziga xos xususiyatlari to'liq hisobga olinmaydi.

Bu muammolarning barchasi kichik korxonalarni tashkil qilingan paytdan barqaror faoliyat bosqichiga qadar qo'llab-quvvatlash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xo'sh, tadbirkorlar yordamni kimdan kutishi kerak? Avvalo do'stlar va tanishlardan (pul topish yo'llaridan biri). Eski aloqalarga murojaat qilish ham mumkin. Ba'zi firmalar o'z maslahati bilan yordam qilishi mumkin. Yana tadbirkorlarning turli birlashmalari, ittifoq va uyushmalar bor. Ammo eng asosiy yordam faqat davlat tomonidan, uning markaziy va mahalliy boshqaruv organlari tomonidan bo'ladi.

Bunday qo'llab-quvvatlash so'nggi yillarda tobora kengayib va kuchayib bormoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishi qo'llab-quvvatlash, rag'batlanirishga qaratilgan yangi qonun, qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi PF-3619-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-sonli "Mikrofirmalar va kichik

korxonalarni rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2005-yil 24-iyundagi PF-3622-tonli "Tadbirkorlik subyektlarining xo'jalik sohasidagi huquqbuzarliklari uchun moliyaviy javobgarligini erkinlanshtirish to'g'risida"gi Farmonlarini, 2005-yil 15-iyundagi PQ-100-tonli "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Qarorining qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi PQ-100-tonli "Tadbirkorlik subyektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida"gi Qaroriga muvosiq, mikrofirmalar va kichik korxonalar 2005-yil 1-iyuldan davlat soliq xizmati organlariga soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va boshqa majburiy to'lovlarni endi har oyda emas, balki chorakda bir marta topshirishga o'tkazildi.

Ushbu qaror qabul qilingunga qadar, mikrofirmalar va kichik korxonalar – yagona soliq to'lovchilar soliq xizmati organlariga har choraklikda faoliyat turiga qarab, soliqlar va majburiy to'lovlar yuzasidan 10-15 ta hisob-kitobni taqdim etardilar. Endi yagona soliq to'lovchilarning topshiradigan hisob-kitoblari soni 7 tadan 4 tagacha, yagona soliq to'lovini to'lovchilarniki esa 4 tadan 1 tagacha qisqardi.

O'z faoliyatini savdo va umumiyligi ovqatlanish sohasida amalga oshiruvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar har chorakda soliqlar va majburiyat to'lovlar bo'yicha o'rtacha 13 ta hisob-kitobni taqdim etardi. 2005-yil 1-iyuldan boshlab esa soliq to'lovchilarning ushbu toifasi uchun topshiriladigan hisob-kitoblar miqdori 5 tagacha qisqartirildi.

Hisob-kitoblarni taqdim etishning bu tartibi joriy qilinishi kichik biznes subyektlariga moddiy xarakatlarni ancha kamaytirish imkonini yaratdi.

Ayni paytda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 14-iyundagi PF-3619-tonli "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining ahamiyati shundan iboratki, farmon qabul qilinishiga qadar nazorat qiluvchi organlari tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy jarimalar qo'llash, banklardagi hisob-varaqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish, huquqbuzarlik predmetlarini davlat foydasiga o'tkazish, litsenziya va ruxsat-nomalarni bekor qilish, ular faoliyatini to'xtatib qo'yish yoki tugatish kabi bir qancha ta'sir choralarini qo'llash huquqiga ega edilar. Farmonidan keyin esa yuqorida ko'rsatilgan tadbirkorlik subyektlariga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralarini faqat sud orqali amalga oshiriladigan bo'ldi. Bu farmon turli nazorat qiluvchi organlarning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashuviga barham berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi PF-3620-tonli "Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun 2005-yil 1-iyuldan boshlab yagona soliqni to'lash, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va Maktab ta'limi jamg'armasiga majburiy ajratmalar o'miga yagona soliq to'lovi joriy etildi. Belgilangan yagona soliq to'lovi stavkalari mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliq yukini kamaytirishni ko'zda tutadi.

Bundan tashqari, yangidan tashkil qilanayotgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga yagona soliq to'lovini to'lash muddatini bir yilga kechiktirish, kechiktirilgan summani imtiyozli davr tugagandan keyin teng ulushlarda 12 oy davomida to'lash huquqi berildi. Joriy etilgan ushbu me'yorlar mikrofirmalar va kichik korxonalar sonining o'sishi uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida kichik biznesning YALMdagi ulushining oshishiga olib keladi.


Vazirlar Mahkamasi qoshida Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantrishni rag'batlantirish bo'yicha respublika muvofiqlashtiruvchi kengashi faoliyat ko'rsatmoqda. Uning huzurida beshta ishchi guruhni tashkil qilingan. Ushbu kengash respublika mintaqalarida kichik biznesni rivojlantrish bo'yicha muayyan chora-tadbirlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, shu muammolarni hal qilish bo'yicha soha organlarining faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Davlat tomonidan berilayotgan yordamdan tashqari, O'zbekistonda tadbirkorlikning barpo etilishi va rivojlanishi mobaynida tadbirkorlarning nodavlat va notijorat tashkilotlariga birlashish yo'li bilan o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash shakllari tobora keng tarqalmoqda. Ushbu tashkilotlar tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi, o'z a'zolarini turli shakllarda qo'llab-quvvatlaydi va ularga xizmatlar ko'rsatadi. Bularga misol qilib Savdo-sanoat palatasi, Fermer xo'jaliklari uyushmasi, Tadbirkor ayollar uyushmasi, An'anaviy badiiy hunarmandchilik va ustalar uyushmalari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Mazkur sohaning iqtisodiyotning yetakchi bo'g'iniga aylanishida mamlakatimiz hukumati tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu jumladan, biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberalashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim rol o'ynamoqda.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar va ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi barqaror ravishda o'sib bormoqda. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu qadar jadal rivojlanishida eng avvalo mazkur soha uchun belgilanayotgan soliq imtiyozlari yetarli darajadagi rag'batlantiruvchi rol o'ynayotgani muhim hisoblanadi. Xususan, 2010-yilda kichik biznes subyektlari uchun belgilangan yagona soliq to'lovi 8 %dan 7 %ga, 2011-yilda 6 %ga, 2012-yilda 5 %ga pasaytirilgan (11.4.1-rasm).

11.4.1-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rindaniki, 1996-2012-yillar mobaynida kichik biznes subyektlari uchun belgilangan soliq stavkalar 38 %dan 5 %ga yoki 7,6 martaga qisqargan.



**11.4.1-rasm. Kichik biznes subyektlari uchun belgilangan soliq stavkalari, %**


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4455-sonli va 2011-yil 24- avgustdagagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-4354-sonli farmonlari va 2011-yil 11-martdagagi PQ-1501-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining yanada erkinlashtirilishi hamda ular uchun yaratilgan imtiyoz va qulayliklar, sohaning yanada rivojlanishiga va natijada ushbu sektor subyektlari tomonidan bank xizmatlari va kreditlariga talabning oshishiga imkon bermoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagagi PF-4453-sonli Farmoni talablaridan kelib chiqib, xo'jalik yurituvchi subyektlar muayyan hisobotlarni soliq va statistika organlariga yilda bir marta taqdim etishini inobatga olgan holda tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari ajratilishi jarayonida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha ravishda moliyaviy hisobotlar taqdim etilishi bekor qilindi.

Shu bilan bir qatorda, kredit olish yuzasidan arizalami elektron tizim orqali qabul qilish amaliyotini yo'lga qo'yish imkoniyati yaratildi<sup>93</sup>.


Amalga oshirilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar natijasida, 2001-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 171,5 milliard so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2013-yilda bu ko'rsatkich 6982,0 milliard so'mni tashkil etdi (11.4.2-rasm).

<sup>93</sup>2013-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014- yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. - <http://www.cbu.uz/uzc/node/42573>



#### 11.4.2-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo'naltirilgan kreditlar miqdori, mlrd. so'm.

11.4.2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rindaniki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga yo'naltirilgan kreditlar miqdori 2001-2013-yillarda mobaynida deyarli 41 martaga o'sgan. Kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kreditlarning ma'lum qismi mikrokreditlardan iborat bo'lib, ularning hajmi 2008-2013-yillarda 6,8 barobar o'sdi (11.4.3-rasm).



#### 11.4.3-rasm. Kichik biznes subyektlariga ajratilgan mikrokreditlarning o'sish dinamikasi, mlrd. so'm.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015-yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloq qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qarori asosida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash hajmini 2011-2015-yillarda 2,7 barobarga oshirish;
- xalqaro moliya muassasalarini va xorijiy mamlakatlar hukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdorini oshirish;

- tijorat banklarida imtiyozli kreditlash jamg'armalarini tashkil etish, jamg'arma mablag'larini uzoq hamda borish qiyin bo'lgan joylarda, shuningdek aholi zinchiliklari yashovchi hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini kreditlash uchun safarbar etish;

- iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarni kreditlash hajmini oshirib borish;

- mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni harid qilish uchun aholiga iste'mol kreditlari berishni yanada oshirish va hokazolar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalar xususan, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Germaniya taraqqiyot banki (KfW), Xitoy Xalq Respublikasi hukumati va boshqa xorijiy investorlar tomonidan kreditlar keng jalg etilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining loyiylarini moliyalashtirish maqsadida xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar hukumatlarining kredit liniyalari va grantlari hisobidan 145,4 mln. dollar miqdorida kredit mablag'ları ajratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1438-sonli qaroriga ko'ra xalqaro moliya institutlari va xorijiy mamlakatlar hukumatlari tomonidan ajratiladigan grantlar va kredit liniyalari miqdori 2014-yilda 130 million dollarni, 2015-yilda esa 155 million dollarni tashkil etishi mo'ljallangan.

Fikrimizcha, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish, mikrolizing va boshqa xizmatlar ko'rsatish samaradorligini ta'minlashning amaliy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, bunda quyidagi chora-tadbirlarning hisobga olinishini ta'minlash maqsadga muvofiq hisoblaniadi:

– kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini tahliliy va tanqidiy o'rjanib, bu borada aniqlangan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– tijorat banklari imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasining mablag'larining asosan olis va etib borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari zinchiliklari bo'lgan tumanlar hamda shaharlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida, ishlab chiqarish mikrofirmalari, kichik korxonalar, dehqon hamda fermer xo'jaliklarida yuqori texnologik va innovatsion loyiylarini moliyalash uchun ajratilishini ta'minlash va muntazam ravishda o'rjanib borish;

– mahalliy davlat hokimiyyati va boshqaruvening organlari hamda nazorat qiluvchi organlar rahbarlarining tadbirkorlikni kreditlash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari ijrosi yuzasidan hisobotlarini eshitib borish amaliyotidan yanada samarali foydalanish;

– mazkur qonunlar ijrosi yuzasidan korxona, muassasa va tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish;

– aholi va tadbirkorlik subyektlarining mikromoliyalash xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyojlarini yetarlicha ta'minlash maqsadida maxsus dasturlar ishlab chiqish va ularni to'liq amalga oshirish;

– mikrokreditlar ajratishda amaldagi me'yoriy hujjatlarni talablariga qat'iy rivoja

qilishni kuchaytirish, mikrokreditlar ajratilishida qonunbuzarliklarning oldini olish;

- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlashning eng samarali shakli hisoblangan mikrolizing xizmatlarining qishloq joylardagi hajmini ko'paytirish va ko'lamini kengaytirish;

- ajratilayotgan mikrokreditlar va boshqa mikromoliyaviy xizmatlar tarkibida mahalliy xomashyoga, chiqitsiz va energiya tejash tizimiga asoslangan, yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish, ajratilayotgan mikromoliyaviy mablag'larning maqsadli ishlatilishini ta'minlash;

- xodimlarning amaliy va kasb mahoratini hamda mas'uliyatini yanada oshirishga qaratilgan seminar-treninglarni muntazam ravishda tashkil etish va boshqalar.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatlari mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish respublikamizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalişlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu esa iqtisodiy raqobatning rivojlanishini, iste'mol bozorini tovarlar va xizmat turlari bilan to'ldirishni, shuningdek, xususiy tadbirkorlarning keng qatlamini yaratishni taqozo etadi. Bularni hisobga olib, bugungi kunda Respublikada quyidagi masalalarni hal qilish lozim:

- aholining keng tabaqalarini bozor faoliyatiga olib kirish, ulardagi boqimandachilik, iste'molchilik psixologiyasini bartaraf qilish, aholida xususiy tadbirkorlik, kichik biznes faoliyati bilan faol shug'ullanish istagini uyg'otish;

- qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy munosabatlami tubdan yangilash, dehqon va fermer xo'jaliklar faoliyatini yanada rivojlantirish hamda ular sonini imkon qadar oshirish, hududlarda kichik korxonalar tashkil etish yo'li bilan vaqtinchha ishsiz yurgan kishilarni qo'shimcha ish joylari bilan ta'minlash;

- mintaqada bozor munosabatlari va infratuzilmani jadallashtirish, iqtisodiy raqobatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- respublika aholisining ortib borayotgan talab va ehtiyojlarini to'laroq qondirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarni barpo etish;

- ko'rsatiladigan xizmatlar turini va miqyosini keskin oshirish, bank, auditorlik, konsalting hamda turli vositachilik faoliyatlarini hozirgi zamон fan va texnikasi yutuqlari asosida yuksak saviyada tashkil etishni ta'minlash;

- korxonalarni boshqarish samaradorligini oshirish, ularning iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lishlarini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratib berish;

- joylarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar turlari va hajmini bozor talablariga ko'ra osonlik bilan moslashtira oladigan iste'mol bozorini tovar bilan to'ldirib, eksport uchun mol chiqara oladigan kichik korxonalarни joriy qilish.

Ma'lumki, respublikada mehnatga layoqatli aholining 65,3 %i qishloqlarda yashaydi. Bu qishloq joylarda tadbirkorlikning rivoji uchun juda katta imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida band

bo‘lgan ortiqcha ishchi kuchlarini xizmat ko‘rsatish, qayta ishslash va shu kabi yo‘nalishlarga qayta taqsimlash kerak. Qishloqda tadbirkorlikni, uning kichik biznes shakllarini rivojlantirish bilan bog‘liq turli boshqaruv pog‘onalarida tashkiliy-iqtisodiy masalalarni hal etish ustuvor masalalar qatoriga kiradi.

Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun mamlakatimiz miqyosida quyidagi masalalarni hal qilish lozim:

- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishslash uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- hududlarda haqiqiy tadbirkorlik muhitini yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash;
- kichik biznes va tadbirkorlikning huquqiy bazasini mustahkamlash;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni texnologik jihozlar bilan ta‘minlashni qo‘llab-quvvatlash;
- islohotlar natijalarini reklama va axborot xizmati vositalari orqali keng ommaga etkazish.

Tadbirkorlik faoliyati rivojlanishida soliq va savdo sohalardagi davlat siyosati muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha shu sohadagi chekllovlar kichik biznes rivojidagi aksariyat muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. So‘rov o‘tkazilgan tad-birkorlarning 75 %i moliya-kredit tizimini takomillashtirishni, 52,5 % soliqni, 69 %i moddiy-texnika resurslari bilan savdo qilishni yaxshilash lozimligi to‘g‘risida fikr bildirganlar. Shuning uchun islohotlarning hozirgi bosqichida bu sohalarda tadbirkorlikka to‘siq bo‘layotgan omillarni tahlil qilish va ularni bozor talablari doirasida baholash muhim ahamiyatga egadir.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, biznes, tadbirkorlik, mikrofirma, kichik korxona, firma, xususiy firma, shirkat, mas’uliyati cheklanmagan firmalar, mas’uliyati cheklangan firmalar, ochiq jamiyatlar, davlat firmalari, aralash firmalar, yagona soliq, soliq stavkalari, kredit, mikrokredit.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Kim kichik va xususiy korxonalarining subyekti hisoblanadi?
2. Kichik biznes faoliyagining tarqalish sohalari qanaqa?
3. Kichik korxonalar kim tomonidan tashkil qilinishi mumkin?
4. O‘zbekistonda kichik biznesni belgilovchi mezon sifatida qanday ko‘rsatkichlardan foydalilanadi?
5. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni belgilashda qanday ko‘rsatkichlardan foydalilanadi?
6. Nima uchun kichik biznes korxonalari milliy iqtiso-diyotning poydevori hisoblanadi?
7. O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi qanday?
8. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hissasi qanday?

## **12-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA QULAY INVESTITSION MUHITNING YARATILISHI**

### **12.1. Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va turlari**

Investitsiyalar deganda barcha turdag'i milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirdorlik faoliyati obyektlariga yo'naltirilib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobjiy samaraga erishishi zarur. Investitsiyalar kapital qo'yilmalar shaklida ham amalga oshiriladi, hamda o'zidagi yangi qurilishlariga, kengaytirishga, rekonstruksiyaga va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni texnik qayta jixozlashga, uskunalar, inventarlar, loyihiaviy mahsulotlar sotib olishga sarf-xarajatlarni mujassamlashtiradi. Iqtisodiy fanlar va amaliyot "investitsiya" va "kapital qo'yilma" terminlarini bir xil tushuncha emasligini, ya'ni sinonim so'zlar emasligini ta'kidlaydi. Investitsiyalar kapital qo'yilmaga nisbatan keng mazmunli, qamrovli tushunchadir. g'arb adabiyotlarda investitsiyalar borasida so'z yuritilganda asosiy e'tibor fond bozoriga qaratiladi, chunki rivojlangan mamlakatlarda investitsiyalar asosan qimmatli qog'ozlar yordamida amalga oshiriladi. U. Sharp investitsiyalarga quyidagicha ta'rif beradi: "Real investitsiyalar asosan moddiy aktivlarga (yer, uskunalar, zavodlar) qilingan investitsiyalardir. Moliyaviy investitsiyalar bu qog'ozda bitilgan shartnomalardir. Bularga oddiy aksiyalar va obligatsiyalar kiradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotda investitsiyalarning asosiy qismi real investitsiyalarga tegishlidir. Rivojlangan iqtisodiyotda esa investitsiyalarning asosiy qismi moliyaviy investitsiyalash institutlarining keng miqyosida rivojlanishi real investitsiyalarning o'sishiga sababchi bo'ladi. Investitsiyalarning bu ikki shakli bir-biri bilan raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchidir".<sup>94</sup>

Investitsiya tushunchasi yagona va to'liq tushuncha berishlik uchun anchagina keng bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiy fanning turli qismlarida va amaliy faoliyatning turli sohalarida investitsiya mazmuni o'zining xususiyatlarga ega.

Ma'lumki, "Investitsiyalar" tushunchasi iqtisodiyot uchun yangi emas. Bugungi kunda "Investitsiyalar" tushunchasining ma'nosini anglash, uning mohiyatini to'g'ri tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Sobiq iqtisodiy tuzum davrlarida investitsiyalar tushunchasi ko'proq kapital qo'yilmalar bilan bog'lanib, kapital qurilishlar, kapital ta'mirlashlar va ilmiy-texnika taraqqiyoti uchun sarflanadigan kapital qo'yilmalarini anglatar edi va bu qo'yilmalar asosan markazlashgan fondlar va davlat budgetidan yuqori davlat idoralari tasdiqlagan rejalar asosida ajratilar edi.

Ko'pgina adabiyotlarda "investitsiya" terminida noaniqliklar uchraydi. Birinchidan, "investitsiyalar"ga fuqarolarning "iste'molchilik investitsiyalari" (maishiy texnika, avtomobil, ko'chmas mulk va boshq) qo'shib yuboriladi. Bunday investitsiyalar esa kapitalni o'sishini va foyda olinishini ta'minlamaydi. Ikkinchidan, "investitsiyalar" va "kapital qo'yilmalar" terminlarini tenglashtirishadi. Kapital qo'yilmalar - korxonaning moliyaviy mablag'larini asosiy kapitalga bo'naklashtirish bilan bog'liq investitsiya faoliyatining shaklidir. Investitsiyalar esa nomoddiy va moliyaviy aktivlarga qo'yilishi ham mumkin. Uchinchidan, ko'pgina manbalarda investitsiyalarni pul mablag'larini qo'yish deb ta'riflanadi. Amaliyotda esa, barcha

<sup>94</sup> Шарп У., Александр Г., Бейли Дж. Инвестиции: Пер. с англ.- М.: ИНФРА- М, 1997. – 1 б.

hollarda bunday bo'lmaydi. Investitsiyalashni boshqa shakllarda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, korxonaning ustav kapitaliga badal ko'rinishida ko'chib yuruvchi va ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar, nomoddiy aktivlar va boshqalar. To'tinchidan, ko'pgina ta'riflarda investitsiyalarni mablag'larning uzoq muddatli qo'yilmalar ko'rinishida bo'lishini ta'kidlashadi. To'g'ri, kapital qo'yilmalar uzoq muddatga investitsiyalani. Lekin qisqa muddatli investitsiyalar ham bo'ladi (masalan, montaj qilishga zarurat bo'lmagan va qurilish smetasiga kirmagan mashina va uskunalarini sotib olish).

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlaridan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi.

Birinchidan, qo'yilish obyektiga qarab investitsiyalar real va moliyaviy shakllarga ajratiladi.

**Real investitsiyalar** (kapital qo'yilmalar) – pul mablag'larini korxonaning moddiy va nomoddiy aktivlariga sarflanishidan iborat.

Moddiy investitsiyalar asosiy kapitalning elementlarini sotib olish bilan bog'liq bo'lib, ko'pchilik hollarda investitsion loyiham doirasida amalga oshiriladi. Shuning uchun shaxsiy mablag'lar bilan birga qarzga olingan mablag'lar ham foydalanimli mumkin. Qarzga mablag' olingan holda investor rolini aniq loyihalarga kredit mablag'lari ajratayotgan bank bajaradi. Nomoddiy investitsiyalar nomoddiy boyliklar yaratilayotganda amalga oshirilib, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarni amalga oshirish, yangi mahsulotlarning namunalarini yaratishga sarflarni mujassamlashtiradi.

Fan-tehnika taraqqiyotini tezlashuvi bilan intellektual salohiyat ishlab chiqarishni eng kuchli omiliga aylandi, uning jiddiy unsuri bo'lib qoldi. XX asr boshlarida fan ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun sarflanadigan qo'yilmalar oshib boradi. Shuning uchun ham jahonda real investitsiyalar tarkibida ilmiy izlanishlar, fan, ta'lim, kadrlar tayyorlash uchun sarflanadigan xarajatlar o'sib bormoqda. Masalan, AQSh, Yaponiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda fan va ilmiy izlanishga sarflanadigan qo'yilmalar o'sish sur'atlari asosiy fondlarga sarflanadigan investitsiyalardan ustundir. Jahon bozoriga kirib borish, keng ko'lamda marketingni rivojlantirish, bataysil axborotga ega bo'lish, yuqori darajadagi kompyuter tizimlarini tashkil etishni, yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va mazkur sohada dunyodagi rivojlangan davlatlar darajasiga erishishni talab etadi. Shuning uchun ham jadal sur'atlar bilan rivojlanish real investitsiyalar tarkibida fan, texnika, ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash uchun sarflanadigan real investitsiyalar asosiy o'rinalardan birini egallashi zarur.

Davlat tomonidan o'zlashtiriladigan investitsiyalar. Dastlabki bozor infratarkibini va u bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlarni rivojlantirishga sarflanadi. Investitsiyalarni samaradorligini oshirish asosiy kapitalni aktiv elementlarini vujudga keltirish va o'stirish hisobiga amalga oshiriladi.

Real investitsiyalarni taysifnomalash ularning hajmi va daromad me'yorlari asosida olib boriladi. Investitsiyalar hajmi o'zlashtiriladigan qo'yilmalar qiyamatini ifodalaydi, investitsiyalar miqdori esa ularning hajmini YaMMga yoki YalMga bo'lgan nisbatini ifodalaydi. Inflyatsiya yuqori va chuqurlashgan davrda esa aytilgan

ko'rsatkichlarga uning ta'siri to'g'ridan-to'g'ri bo'ladi. Investitsiya me'yori ishlab chiqarilgan YalM yoki YaMM qanchalik kapital sig'imkorligini, ya'ni qay darajada kapital xarajatlarini talab qilinishini bildiradi. Jamg'arish samarasi kapital sig'imkorligini o'sishi koefitsientlari asosida aniqlanadi.

*Moliyaviy investitsiyalar* kapitalni, to'lov va moliyaviy majburiyatlarning barcha turlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, moliyaviy aktivlarga joylashtirilishini anglatadi. Ushbu moliyaviy vositalarning eng muhimlari qimmatli qog'ozlardir: ulushli (aksiyalar) va qarz (obligatsiyalar). Real investitsiyalardan farqli o'lar oq moliyaviy investitsiyalarni ko'proq portsel investitsiyalar deb atashadi, chunki bu holda investoring asosiy maqsadi bo'lib moliyaviy aktivlarning mukammal yig'masini (investitsiyalar portfelini) shakllantirish va qimmatbaho qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan turli operatsiyalarni boshqarish hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalar xususiy kompaniyalar va davlat idoralari tomonidan muomalaga chiqarilgan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarga hamda bank depozitlariga, uzoq muddatga jalg qilinadigan qo'yilmalaridir. Moliyaviy investitsiyalarning asosiy qismi, kapitalni noishlab chiqarish sohasiga sarflanishini bildiradi. Moliyaviy investitsiyalar aksariyat holatlarda real investitsiyalarning manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, investitsiyada qatnashish xarakteriga ko'ra bevosita va portsel investitsiyalar farqlanadi. Bevosita investitsiyalar investorni o'z moliyaviy mablag'lanri joylashtirish obyektni tiklash imkoniyatini beradi. Portsel investitsiyalar tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqalar yordamida amalga oshiriladi. Moliyaviy vositachilar to'plangan mablag'lanri samarali, daromad keltiradigan qilib joylashtiradilar. Portsel investitsiyalar boshqa emitentlarning anderrating yordamida qimmatli qog'ozlarga joylashtirish shaklida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, investitsiyalash davriga qarab investitsiyalar qisqa muddatli (bir yilgacha bo'lgan muddatga beriladi) va uzoq muddatli (bir yilдан oshiq muddatga beriladi) bo'ladi. Masalan, oddiy aksiyalar umuman biror – bir muddat bilan cheklanmaydi. Masalan, depozit sertifikati olti oy muddatga beriladi – bu qisqa muddatli qo'yilmalar vositasidir, obligatsiyalar 20 yilda qaytarish muddati bilan uzoq muddatli qo'yilmalar vositasidir.

To'rtinchidan, mulk shakllaridan kelib chiqib investitsiyalar xususiy, davlat, qo'shma va xorijiy shakllarga ajratiladi. Xususiy investitsiyalar nodavlat yuridik shaxslarining va fuqarolarning mablag'larini tadbirkorlik faoliyati obyektlariga qo'yilishini anglatadi. Davlat investitsiyalari davlat budgeti va davlat korxonalarining mablag'larini joylashtirish orqali namoyon bo'ladi.

Beshinchidan, hududiy joylashtirilish bo'yicha investitsiyalar ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi.

Oltinchidan, investitsiyalar tavakkallik darajasi bo'yicha yuqori tavakkalli va past tavakkalli investitsiyalarga ajratiladi. Moliya sohasida tavakkallik deganda investitsiyalarga mutlaq yoxud nisbiy miqdordagi foyda kutilganidan ancha kam bo'ladi, boshqacha aytganda "tavakkallik" atamasi kutilmagan natija olish imkoniyatini anglatadi. qo'yilma mablag'lariga foydani mutlaq yohud nisbiy

miqdorlarini yoyilishi qanchalik keng bo'lsa tavakkallik shunchalik katta bo'ladi va aksincha. Y akka investor eng kam tavakkallchilikka ega bo'Igan davlat qimmatli qog'ozlardan tortib eng yuqori tavakkalli tovarlargacha bo'Igan qurollarni keng tanlash imkoniyatiga ega. Kapitalni joylashtirishni har bir tipi tavakalni ta'rifidir, ammo har bir muayyan holatda tavakkallik o'sha vositaning aniq xususiyatlari bilan belgilanadi. Masalan, obligatsiyalarga qaraganda aksiyalarga qo'yilmalar yuqori tavakkallik bilan bog'liq ekanligi ma'lum, shu bilan birga yirik kompaniyalar aksiyalariga qo'yilmalar kiritilishiga qaraganda yuqori tavakkallik obligatsiyalarni topish ham qiyin emas. Albatta, tavakkallik ko'p hollarda emitentning, vositachining yoki muayyan moliyaviy vositalarni sotuvchisini sofkilligiga bog'liq. Past tavakkallik investitsiyalar muayyan daromad olishni xavfsiz vositasi hisoblanadi. Aksincha, yuqori tavakkalli investitsiyalar chayqovchilik hisoblanadi.

## **12.2. Investitsion muhit va uning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri**

Xorijdan kapital qabul qiluvchi tomonidan investitsiya muhiti modelini ishlab chiqish har tomonlama asoslangan tashqi iqtisodiy aloqalarni anqliab beruvchi vositadir. U orqali xorijiy investorga ta'sir ko'rsatuvchi omillar to'g'risida aniq tushunchalarga ega bo'lish, xorijlik investorlarning xulq-atvorini har tomonlama anglash va mamlakatdagi iqtisodiy holatni chuqurroq baholash imkoniyati paydo bo'ladi. Bu jarayonlarning barchasi respublikamizning boshqa davlatlar bilan dastlabki iqtisodiy munosabatlarini yo'lga qo'yish jarayonida chetdan kapitalni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy investitsiya ishtirokida amalga oshirilishi lozim bo'Igan loyiha va dasturlarni ishlab chiqishda nafaqat o'z manfaatlari bilan chegaralanmasdan investorning maqsad va imkoniyatlari bilan hisoblashish alohida e'tiborga loyiqidir.

Investitsiya muhiti tushunchasi o'zining murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikro iqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi. Makroiqtisodiyot darajasida yondashilganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat siyosati, xalqaro shartnomalar shartlarini bajarish xorijiy mulkni milliyashtirish, turli masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tizimida ishtirok etish davlat boshqaruv tizimlarining mustahkamligi, siyosiy rahbariyatning muqarrarligi, davlatning iqtisodiyotga aralashish darjasи, iqtisodiy siyosatning mukammalligi, davlat apparatining ish samaradorligi, banklar tizimining takomillashuv darjasи, pul muomalasi va davlat budgetining barqarorligi, davlatning ichki va tashqi qarzlarini miqdori va boshqalar hal qiluvchi o'rinda turadi. Investitsiya muhitiga kapitalni qabul qiluvchi mamlakatning qonunlarida aks ettirilgan to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar va xorijiy firmalarining faoliyatini chegaralovchi yoki ta'qiqlovchi omillardan tashqari, to'liq aniqlanmagan ba'zi bir qoidalar va muvosiflashtirilmagan jarayonlarning mavjudligi salbiy ta'sir etadi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomonidan investor-firmasi va ikkinchi tomonidan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik subyektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamaot tashkilotlari o'rtasidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi. Bu darajada investitsiya iqlimi umumlashtirilgan baholar iqtisodiy, huquqiy va madaniy

jabhalarda yaqqol ko‘rinadi. Makro va mikroiqtisodiyot darajalari birqalikda yagona investitsiya muhitini tashkil etadi va potensial investorlar hamda kapitalni qabul qiluvchi tomonlarning bo‘lajak munosabatlarini belgilab beradi.

**Investitsiya muhiti** obyekt kategoriysi bo‘lib, har bir alohida olingen vaqt doirasida investorlar uchun haqiqatda mavjud bo‘lgan shart-sharoitlar majmuasini aks ettiradi. Lekin hozirgi sharoitda investitsiya muhiti faqat davlat organlari ta’siri ostida shakllanmoqda. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda jahon tajribasidan, jumladan xorijiy investitsiya bilan tashkil etilib, yuksak iqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishgan kompaniya va firmalar tajribasidan kengroq foydalanish kerak. Bu jarayonni amalga oshirishda milliy xususiyatlarni ham hisobga olish lozim.

Davlat hokimiyatining ta’sirchanligi investitsiya muhitini aniqlovchi omillardan birdir. Shundan kelib chiqib, har bir kapital jalb qiluvchi mamlakat ma’lum bir investitsiya tizimiga egaligini ta’kidlash mumkin. Bu tizim huquqiy me’yorlar va muassasalardan iborat xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi va investitsiya muhitini o‘z ichiga oladi. Xorijiy kapitalni qabul qilish tizimi investitsiya muhitining komponenti bo‘lib xizmat qiladi va unga nisbatan mustaqil ravishda tashkil etiladi. Chunki u investitsiya muhitini o‘zgartirishga qodirdir. Xorijiy investitsiyalarni qabul qilish tizimi qabul qiluvchi tomonni xorijiy kapitalni milliy iqtisodiyotga qulay ravishda kirib kelishini namoyon etsa, investitsiya muhiti kirib kelgan kapitalni mamlakat ichida optimal ravishda o‘sib borish vaziyatiga baho beradi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni yangi zamонавиу texnologiyalar bilan, qishloq xo‘jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuuni va boshqa sohalarda tub o‘zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo‘lgan investitsiya muhitini yaratib berish kerak. Investitsiya muhiti iqtisodiyotda yangi tushuncha emas, ammo mustaqil O‘zbekiston sharoitiga nisbatan ishlab chiqilmagan. Endi bu sharoitni yaratishga urinishlar bo‘lmoqda. Bir qator rivojlangan davlatlar bu jarayonni ijobiy tarzda amalga oshirgan. Investitsiya muhitining ahamiyati, amaliy jihatdan, qaysi boyliklar va yo‘nalishlar tizimi asosida xorijiy investorlar faoliyat yuritishlari to‘g‘risida tushuncha beradi va shuning negizida xorijlik investorlarga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

**Investitsiya muhiti** - juda keng ma’noda ishlatiladigan tushuncha bo‘lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammolar va masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Investor tomonidan ma’lum bir davlatga investitsiya qilishning qulay va noqulay tomonlari baholanadi, shu bilan bir qatorda, o‘z kapitalini kiritmoqchi bo‘lgan mamlakat masfurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi. Investitsiya muhiti har tomonlama chuqur tahlil qilinishi asosida investitsiya riski aniqlanadi. Investitsiya muhiti va risk darajalari bir-birlariga teskari nisbatdadir. Investitsiya muhiti qanchalik qulay bo‘lsa, investoring tadbirkorlik riski shunchalik past darajada bo‘ladi va bu investorlarning kirib kelishini ko‘paytiradi. Aksincha, investitsiya muhiti noqulay bo‘lsa, risk darajasi yuqori bo‘ladi. Bu esa investitsiya qabul qiluvchining sarf-xarajatlarining o’sishiga olib keladi. Shunday qilib,

investitsiya muhitining holati faqat investor uchun emas, balki investitsiya qabul qiluvchi uchun ham muhimdir.

Hozir turli mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi investitsiya uchun avj olayotgan raqobat kurashi nuqtai nazaridan investitsiya riski tushunchasini ko'rib o'tish zarur. Investitsiya oqimlarining u yoki bu mamlakatlarga yo'nalganligi, shuningdek ularning real hajmlari oxir-oqibat shu risklar bilan belgilanadi.

Umuman olganda investitsiya riskini uch toifaga bo'lish mumkin:

**1. Asosiy (yoki mamlakat bilan bog'liq) risk:**

- investitsiya kiritiladigan mamlakatdagi siyosiy va ijtimoiy barqarorlik;
- hukumat o'tkazadigan makroiqtisodiy siyosatning izchilligi va barqarorligi (infliyatsiya darajasini nazorat qilish, byudjet, kredit siyosati va boshqalar);
- tadbirkorlik faoliyatidan olingen foyda va boshqa daromadlarning investitsiya qo'yilgan mamlakatdan xorijga o'tkazish imkoniyatlari va sharoitlari;
- investitsiyalashning o'zga huquqiy sharoitlari (xorijiy investorlar huquqini himoya qiladigan qonun va qonun doirasidagi harakatlarning mavjudligi).

**2. Shartnoma yoki investitsiyaga qadar risk:**

- murakkab jarayonlarning davomiyligi va samaradorligi;
- shartnoma shartlarini kelishish va ma'qullah jarayoni, shuningdek tomonlarning shartnomalarda nazarda tutilgan shartlarga rioya etishlarini nazorat qiladigan muassasalarning bo'lishi va samarali ishlashi;
- munosib mahalliy sherik topish imkoniyati;
- yangi tashkil etiladigan korxona nizom jamg'armasiga uskuna-jihozlar, texnologiyalar, nou-xau, xomashyo, materiallar va boshqa ko'rinishida qo'shiladigan hissani baholash tizimining mavjudligi;
- intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy asoslari, shu jumladan texnologiyalarni transfertlash (o'tkazish) masalalari.

**3. Operatsion yoki investitsiyadan keyingi risklar:**

- operatsion (harakat) qarorlarni qabul qilish jarayoni tartib-qoidalari va davomiyligi;
- foyda va uni taqsimlash masalalari bo'yicha qaror qabul qilish jarayonida ta'sir ko'rsatish darajasi;
- menejmentni tashkil etish masalalari, shu jumladan investitsiya loyihasi infratuzilmasini, xodimlarni boshqarish, moliyaviy menejmentni tashkil etish;
- mahalliy xom ashyodan foydalanish imkoniyatlari va uni olish tartiblarini hal qilishning davomiyligi;
- mahalliy bozor marketingi;
- malakali mahalliy ish kuchining topilishi;
- jamoat havfsizligi, shu jumladan ushbu mamlakatda ishlayotgan xorijlik xodimlar uchun havf-xatarsiz ishlash sharoitlari.

Har bir kompaniya o'zining investitsiyalash strategiyasi, raqobat kurashidagi o'z o'midan kelib chiqqan holda investitsiya riski majmuini mustaqil baholaydi va u yoki bu mamlakatga investitsiya kiritadi. Keyingi o'n yillarda rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar bilan sanoat jihatidan jadal rivojlanayotgan mamlakatlarning kompaniyalari o'rtasidagi farqlar yaqqol ko'zga tashlana boshladi.

Rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar g'oyat sinchkov va pishiqligi bilan ajralib turadilar. Ular mamlakatdagi siyosiy-iqtisodiy vaziyatni uzoq o'rghanadi, tahlil etadi va shundan keyingina bu mamlakatga investitsiyalar kiritish yoki kiritmaslik haqida bir qarorga keladi. Yangi sanoati rivojlangan mamlakatlardagi kompaniyalar ularga qaraganda faolroq. Ularning strategiyasi hujumkorligi va tezkorligi bilan ajralib turadi. Bu kompaniyalar uchun yangi bozorlarga tez kirish hamda u yerda yetakchi mavqeni egallash asosiy masala hisoblanadi.

Bozorga kirishning ham birinchi, ham ikkinchi strategiyasiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Ammo ularning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomon degan savolga javob berish qiyin. Bu strategiyalar umuman boshqa-boshqa, har biri mazkur mamlakatlarning tarixiy tajribasi, biznes olami an'analari, kishilarning mentaliteti (dunyoqarashi) asosida shakllangan.

O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'ng xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish tizimini yaratishga kirishildi. Bu borada bir qator qonunlar va Prezident farmonlari chiqarildi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari va xorijiy investorlar faoliyatining kafolatlarini takomillashtirish to'g'risida"gi qonun va farmonlari shular jumlasidandir. Bu qonun va farmonlar ma'lum ma'noda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning huquqiy asosini tashkil etadi.

Investitsiya muhitiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi.

#### *Siyosiy omillar:*

- xorijiy investitsiya borasida davlat siyosati;
- xalqaro kelishuvlarga rioya qilish;
- davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi;
- iqtisodiy siyosatning hayotiyligi;
- mamlakatning xalqaro shartnomalar tizimida qatnashuvi;
- davlat apparatinining ish faoliyi;
- siyosiy hukumatning investitsiyalarga moyilligi.

#### *Iqtisodiy omillar:*

- iqtisodiyotning umumiyligi (yuksalish, pasayish);
- valyuta kursining barqarorligi;
- inflyatsiya jarayonining dinamikasi;
- soliq imtiyozlari;
- bojxona tartibi;
- ish kuchidan foydalanish tartibi;
- ish kuchi qiymati;
- aniq mahsulotlarga talab va taklif;
- kredit qiymati va boshqalar.

#### *Ijtimoiy omillar:*

- jamoatchilikning xususiy mulk va xorijiy investitsiyalarga munosabati;
- jamiyatning masifikativi birdamlik darajasi;
- mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining asosiy masalalari bo'yicha kelishuvning mavjudligi;
- ishchi guruuhining tashkilotchiligi.

Biron mamlakatning investitsion muhitini tahlil qilinganda, amaldor nuqtai nazari emas, balki o'z mablag'ini daromad keltiruvchi loyihaga joylashtirmoqchi bo'lgan xorijiy investorlarning fikrlari ahamiyatlidir. Ularning fikricha investitsiya muhiti bir qator zaruriy omillarga bog'liq bo'lib, ularning mavjudligi investitsiya muhitining eng qulay bo'lishini ta'minlaydi.

Birinchisi, **siyosiy barqarorlik** bo'lib, uning mavjud bo'lishi investoring kelgusi ishlarini rejalahshirish va ishonch bilan oldinga intilishiga imkon beradi. U kuchli qonuniy tizimning mavjudligi, tashqi va ichki harbiy nizolar, hamda inqilobiy o'zgarishlarning bo'lmasligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi, **iqtisodiy samaradorlik**. Har bir investor iqtisodiy o'sish juda yuqori bo'lgan, hukumat iqtisodiyotni rivojlantirish borasida barqaror siyosat olib borayotgan mamlakat iqtisodiyotiga mablag' sarflashni hohlaydi.

Yana bir muhim omil mamlakatdagi hukumat rahbarlari, mehnat jamoalari, muholif partiya vakillari va xalqning xorijiy investorlarga nisbatan bo'lgan **do'stona munosabatlaridir**. Undan tashqari oddiy xalqning xorijliklarga, ularning mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatiga bo'lgan munosabati ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu omil ham investorlarning mamlakatdagi faoliyatlariga katta ta'sir o'tkazadi.

**Hukumatning siyosati** yana bir muhim omil hisoblanib, investorlarning faoliyatiga turli xil ta'sir o'tkazishi mumkin. Albatta, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat bevosita yoki bilvosita biznes, savdo va investitsiyalash jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bunda uch jihatga alohida e'tibor berilishi zarur: **xorijiy investorlarning loyihalarda qatnashish darajasi**. Xorijiy investorlarni o'z biznesining qanday qismiga egalik qilishlari qiziqtiradi. Bu esa loyiha turiga bog'liq: a) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan, hamda xomashyoning asosiy qismi chetdan keltirilayotgan bo'lsa, investor biznesning maksimal darajada katta qismiga (ba'zida 100 %iga) egalik qilishga da'vogar bo'ladi; b) agar investitsiya loyihasi eksportga yo'naltirilgan, hamda xomashyoning asosiy qismi mamlakatning ichki xomashyosi bo'lsa, investor huddi shunday biznesning qo'shni mamlakatlardagi shart-sharoitlariga qarab ish tutadi; v) agar investitsiya loyihasi mahsulotni ichki bozorda sotishga mo'ljallagan bo'lsa, ko'pgina TMKlar sherikchilik asosida ish yuritishga harakat qiladilar, aks holda boshqa raqobatchilar ulardan oldin bozorni egallab olishlari mumkin. **Xorijiliklarning mehnati**. Xorijiy investorlar o'z biznesi va daromadlarini hamyurtlari nazorati ostida bo'lgani ma'qul deb fikralashadi. Ammo ishga juda ko'p xorijiliklarni jalb etish xarajatlarni oshirib yuboradi. **Valyuta muomalasini tartibga solish**. Xorijiy investorlarni mamlakatga mablag' olib kirish, uni sarflash imkoniyatlardan tashqari biznesdan topilgan daromadni konvertirlangan valyutaga ayirboshlash, chetga olib chiqish, valyuta hisob raqamiga ega bo'lish imkoniyatlari nihoyatda qiziqtiradi.

Keyingi omil **infrastruktura** holati bo'lib, u mamlakatdagi yuqoridagi sanab o'tilgan omillarning mavjud bo'lishidan keyingi muhim omillardandir. Unda ishlab chiqarish uchun yer maydonlaridan foydalanish, yerni ijara qilish shartlari va muddati, avtomobil va temir yo'llarning sanoat hududlarini asosiy transport bo'g'inlari (portlar, aeroportlar) va bozorlar bilan bog'langanligi, elektr

energiyasining mavjudligi, suv ta'minoti darajasi (ba'zi hollarda ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi), telekommunikatsiyaning rivojlanish darajasi, telefon, faks, teleks aloqalarining mavjudligi, kompyuter orqali aloqa o'rnatish masalalari muhimdir.

**Ishchi kuchi.** Ko'pincha xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy sababi qilib qabul qiluvchi mamlakatda ish kuchining arzonligi ko'rsatiladi. Lekin, investitsiyalarni jalb qilishga savodxonlik, ishchi kuchining malaka darajasi, mehnat qilish etikasi, mehnat unumdarligi darajasi, turli ijtimoiy harakatlarning ishlab chiqarish jarayoniga ta'siri va boshqalar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Banklar va moliya.** Mamlakatda jahon savdosi va investitsiya sohasida foydalilanidigan barcha moliyaviy instrumentlar mavjudligi ushbu sohadagi xizmatlar sifatini anglatadi. Investorlar uchun mamlakatda yetarli miqdorda faoliyat ko'rsatuvchi moliya institutlari va jahondagi yirik banklarga tegishli filiallarning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda jahoning yirik savdo va investitsiya kompaniyalari filiallарining faoliyat ko'rsatishi investorlar uchun ishonchhlilik darajasini oshiradi.

**Hukumat strukturalidagi rasmiyatchilik.** Hukumat o'z investitsiya siyosatini qanday baholashi muhim emas. Bunda katta tajribaga ega bo'lgan tadbirkorlar bergen baho muhimdir. Investorlar rasmiyatchilik, qog'ozbozlik avj olgan muhitga kamdan-kam o'z mablag'larni sarflaydilar. Hukumat uchun eng muhimmi, rasmiyatchilik sabab bo'lib amalga oshirilishi to'xtab qolgan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish, yo'l qo'yilgan xatoliklarni tuzatishdir.

**Mahalliy ishbilarmonlik muhiti.** Bu tushuncha juda keng bo'lib, unga: advokat, maslahatchilarning ko'pligi, malakali ish yurituvchilar, buxgalterlar, arxitektorlar va konstrukturлarning mavjudligi kiradi. Bundan tashqari qo'shma korxona ochishda mahalliy hamkorining tajribasi, aloqalari, mehnatsevarligi va ishonchhliliği ham hisobga olinadi.

**Yashash sifati.** Ushbu omil xorijiy investorga taklif qilinayotgan barcha narsalarda o'z aksini topadi. Aholi turmush tarzi va daromadlarining darajasi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning xilma-xilligi va mehnat uchun qilinadigan xaratjatlar hajmida o'z aksini topadi.

Investitsiyalash borasidagi qo'shma loyihalari va qo'shma korxonalarini tashkil etishdagи risklarni hisobga olishda ko'pchilik xorijiy investorlar BERI indeksidan foydalananadilar. Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha salmoqqa ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblab chiqadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan yuqori ball "barqaror mamlakat"ni anglatadi. Mamlakat to'plagan ball qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foya ham shuncha yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. BERI indeksining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

## 12.2.1-jadval

### BERI indeksi

No	Mezonlar	Salmog'i %
1.	Siyosiy barqarorlik: <i>kutilmagan hukumat to'ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini baholaydi</i>	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va soydaga munosabat: <i>xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyojlarga bo'lgan xarajatlar hajmi</i>	6
3.	Milliylashtirish: <i>beg'araz ekspropriatsiya imkoniyatlardan to mahalliy homiyatlarga imtiyozlar berishgacha</i>	6
4.	Devalvatsiya: <i>devalvatsiya ta'siri, hamda korxona faoliyatiga devalvatsivaning ta'sirini yumshatuvchi choralarining hayotiyligi</i>	6
5.	To'lov balansi: <i>hisoblar balansi va umumiy balansga, hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar</i>	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: <i>davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, boixona rasmiyatchiliklarini amalga oshirilishi, valyuta o'iazishlari va boshqa shunday operatsiyalar</i>	4
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari: <i>yillik yalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi 3%, 3-6%, 6-10% va 10 %dan yugor chegaralarda</i>	10
8.	Valyutaning konvertirlanganligi: <i>milliy valyutaning xorijiy valyutaga almashtirish imkoniyati, hamda milliy valyutaning (korxonalarla zarur bo'lgan darajada) valyutalar bozoridagi o'rni</i>	10
9.	Aloqa va transportni tashkil etish: <i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimini (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalananish imkoniyati. Transport infrastrukturini baholash</i>	4

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan BERI indeksi asosida investitsiya muhitini imitatsion baholangan bo'lib, u quyidagi jadvalda qayd etilgan:

## 12.2.2-jadval

### O'zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining imitatsion baholanishi

No	BERI indeksi mezonlari	bahosi	salmog'i.%	indeks
1.	Siyosiy barqarorlik	4	12	0.48
2.	Xorijiy investitsiyalar va soydaga munosabat	3	6	0.18
3.	Millivlashtirish	2	6	0.12
4.	Devalvatsiya	0	6	0
5.	To'lov balansi	1	6	0,006
6.	Rasmiyatchilik masalalari	1	4	0,04
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari	1	10	0,01
8.	Valyutani konvertirlanganligi	1	10	0,01
9.	Sharmomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
10.	Isb haqi va mehnat unumdarligiga xarakatlar	2	8	0,16
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalananish imkoniyati	1	2	0,02
12.	Aloqa va transportni tashkil etish	1	4	0,04
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor	3	4	0,12
14.	qisqa muddatli kredit	1	8	0,08
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	2	8	0,16
16.	JAMI		100	1,61

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda yana xalqaro kredit reytinglaridan ham foydalaniladi. Ular jahondagi o'n bir obro'li agentliklar tomonidan ishlab chiqiladi. Ulardan beshtasi – Amerika, uchtasi – Yapon, ikkitasi – Kanada va bittasi Angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90 % ikki yirik va mashhur Amerika kompaniyalariga tegishlidir – Standart and Poor's Investor Service va Moody's Investor Service.

### 12.2.3-jadval

#### Xalqaro kredit reytinglarini tuzishda foydalaniluvchi qimmatbaho qog'ozlarning ishonchliligi klassifikatsiyasi

Reyting belgilari		REYTING INTERPRITATSIYASI
Standart Poor's	Moody's	
AAA	Aaa	O'ta yuqori ishonchlilik. %lar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli o'ta yuqori.
AA+ AA AA	Aa1 Aa2 Aa3	Yuqori ishonchlilik. %lar va qarzning asosiy summasining to'lanish ehtimoli yuqori.
A+ A A-	A1 A2 A3	Ishonchlilik o'tadan yuqori. Emitentning qarzni va %larni to'lash imkoniyatlari yuqori, ammo iqtisodiyotni ichki barqarorligiga bog'liq.
VVV+ VVV VVV-	Vaa1 Vaa2 Vaa3	Ishonchlilik yetarli darajada. Emitentning qarz va %larni to'lash imkoniyatlari to'lov vaqtidagi iqtisodiyotning ichki barqarorligiga bog'liq.
VV+ VV VV-	Va1 Va2 Va3	Sharoitni ishonchli deb hisoblasa ham bo'ladi. Ammo ichki iqtisodiy holatning beqarorligi tufayli doimo to'lamaslik havfi mavjud.
V+ V V-	V1 V2 V3	To'lamaslik havfi yuqori. Emitentning to'lov qobiliyati cheklangan, ammo joriy vaqtidagi majburiyatlarga mos keladi.
SSS+ SSS SSS-	Saa	To'lanishi ehtimoli kam yoki to'lanmaydigan majburiyatlar. Emitentning to'lov qobiliyatiga mamlakatning ichki iqtisodiy beqarorligi bilan putur yetkazilgan.
S	Sa	Umuman to'lanmaydigan majburiyatlar (to'lovlarni muddatini uzaytirish yoki to'lamaslik). Emitent bankrot yoki zarar ko'rmoqda.

Xorijiy investorlar reytingdagi ma'lumotlardan vaqtini tejash maqsadida keng foydalanadilar. Mamlakatning reytingi y uqori yoki pastligi albatta ahamiyat kasb etadi. Lekin shu reytingga kirishning o'zi ham investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan yoki bu darajada ishonch uyg'otadi.

### 12.3. Xorijiy investitsiyalarni tartibga solishning jahon tajribasi

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini asosan kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada rag'batlanirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. BXIIlarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga

oshirish huquqini o'z zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog'iqliq. Shunisi xarakterlikni, kapitalni chetga chiqarish uni jaib qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

1) moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug'o'rtalash va kafolatlash;

2) nomoliyaviy: yer uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta'minlash; texnik yordam ko'rsatish.

Bu borada yirik kapital eksporteri-importeri bo'l mish AQSh tajribasi juda muhimdir. AQShning BXIIlarni tartibga solish siyosati ikki darajada amalga oshiriladi: federal, hamda mahalliy (shtatlar, okruglar, shaharlar). Federal tartibga solish deganda xorijiy investitsiyalarga nisbatan cheklashlar tushuniladi. Bunda milliy havfsizlik masalasi bиринчи o'ringa ko'tariladi. AQSh prezidenti amerika firmalarining qo'shilishi, yutilib ketilishi va sotib olinishi jarayonlarini (agar bunda firma faoliyatini ustidan nazorat xorijiy investor qo'liga o'tsa) to'xtatib qo'yish huquqiga ega.

Mahalliy darajada sug'urta biznesi va qishloq xo'jaligi yerlarini sotishni tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Trestlarga qarshi qonunlarning davlat organlari tomonidan qo'llanilishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Umuman, mahalliy ma'muriyatning xorijiy investorlar faoliyatini tartibga solish imkoniyatlari katta emas. Investitsiyalarni rag'batlantirish tajribasi ko'proqdir. AQShga xorijiy investitsiyalarni jaib etishning muhim mexanizmlaridan biri – xorijdagি vakolatxonalaridir. Ular investitsiyalarni u yoki bu shtatga jaib etilishiga ko'maklashadilar (Yaponianing o'zida shunday vakolatxonalardan 40 tasi faoliyat ko'rsatmoqda).

AQShning alohida shtatlariga xorijiy investitsiyalarni jaib etishni rag'batlantirish dasturi quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq imtiyozlari; korxonani qurayotgan yoki modernizatsiyalashtirayotgan xorijiy investor uchun bozordagi stavkalardan pastroq darajada qarzlar va subsidiyalar ajratish; kasbga o'qitish va bandlikka ko'maklashish; transport tarmog'ini takomillashtirish; yer uchastkasini qurilish uchun tayyorlash; tekinga foydalanish uchun er uchastkasini ajratish va boshqalar.

Xalqaro investitsiyalarni tartiga solish bo'yicha muhim amaliy hujjatlardan biri – Osiyo-Tinch okeani hamkorligi tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan xorijiy investitsiyalarning "ko'ngilli kodeksi"dir. Kelajakda Umumjahon savdo tashkiloti (UST) tomonidan foydalanilishi mumkin bo'lgan ushu "kodeks" da quyidagi investitsion tamoyillar qayd etilgan:

- transparentlik;
- donor-mamlakatlarga nodiskriminatsion yondashuv;
- xorijiy investorlar uchun milliy rejim;
- investitsion rag'batlarni sog'liqni saqlash, havfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan mos tushishi;
- savdoni va kapital qo'yilmalar o'sishini chegaralovchi investitsiyalarga cheklowlarni minimallashtirish;

- investitsiyalarni ekspropriatsiya qilinishidan voz kechish (bunda ijtimoiy maqsadlar uchun va milliy qonunchilik doirasida, nodiskriminatsiya asosida, xalqaro huquq qoidalariga amal qilgan holda va yetarli va samarali kompensatsiya to'lanishi sharti bilan ekspropriatsiya amalga oshirilishi mumkin);

- ro'yxatdan o'tkazilish va konvertatsiyalashuvning ta'minlanishi;

- kapitalni olib chiqishdagi to'siqlarni yo'qotish;

- ikki marotaba soliqqa tortishni bekor qilish;

- retsipient mamlakatning milliy qonunchiligidagi, ma'muriy tartib va qoidalariga xorijiy investorming amal qilishi;

- investitsion loyihami amalga oshirish bilan bog'liq xorijiy mutaxassislarini mamlakatdan chiqishiga va vaqtincha tashrif buyurishiga ruxsat berish;

- maslahatlar va muzokara yoki arbitraj yordamida kelishmovchiliklarni bartaraf etish.

Xorijiy investitsiyani o'z iqtisodiyotiga jalb etayotgan har bir davlat xorijlik sheriklariga huquqiy va tashkiliy kafolatlar yaratib beradi. Bu jarayon jahon tajribasida sinovdan ijobji ravishda o'tgan. O'zbekiston Respublikasi xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi qonuning 11-moddasida shunday yozilgan: Respublika hududida o'z investitsiya faoliyatini olib borayotgan xorijiy investorlar huquqlarining himoyasini O'zbekiston Respublikasi kafolatlaydi. Bu kafolat albatta, xalqaro huquq normalari asosida beriladi. Agar O'zbekistonning yangi qabul qilingan qonunchiligi investitsiya sharoitlarini yomonlashtirsa, o'n yilgacha xorijiy investitsiyalar ular jalb qilingan davrda qabul qilingan qonunchilik shartlari saqlanib qoladi. Bu talab mudofaa, milliy havfsizlik, jamoat tartibini saqlash va atrof-muhitni muhofaza qilishni ta'minlash bilan bog'liq qonunchilikni o'zgartirmaydi. O'zbekiston Respublikasi davlat organlari xorijiy investorlarning huquqlariga putur yetkazadigan huquqiy normativlarni qabul qilgan taqdirda investorlarga yetkazilgan zarar shu organlardan sud orqali undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq mamlakatlari ishtiroy etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko'p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida haqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog'laydi.

#### **12.4. O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarning davlat tomonidan boshqarilishi**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning birinchi bosqichida mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish hukumat tashqi iqtisodiy faoliyatini diqqat markazida bo'ldi. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish tadbirlarini amalga oshirishda hukumat quyidagi tamoyillarga asoslandi:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish sohasida aniq maqsadni ko'zlab siyosat yuritish;

- respublika iqtisodiyotiga bevosita kapital mablag'ni keng jalb etishni ta'minlovchi huquqiy ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni tobora takomillashtirish;

- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyani yetkazib berayotgan va iqtisodiyotning zamonaviy tarkibini vujudga keltirishga ko'maklashayotgan xorijiy investorlarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini yuritish;

- mablag'larni respublika mustaqilligini ta'minlaydigan, import o'mini qoplovchi va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган eng muhim ustuvor yo'nalishda jamlash.

Shuningdek respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyani jalb etishni faollashtirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

- investitsiya loyihibarini malakali ekspertlar nazoratidan o'tkazish va mukammal tayyorlanishiga erishish;

- qo'shma korxonalar va xorijiy investitsiya ishtirokidagi boshqa turdag'i tadbirkorlik faoliyatini ro'yxatdan o'tkazishdagi to'siqlarni butunlay olib tashlash.

- Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni milliy korxonalarga jalb etishda quyidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash sohalarini rivojlantirish;

- mineral xomashyo resurslarini, shu jumladan, neft va gazni qazib chiqarish, qayta ishlash bo'yicha ekologik ishlab chiqarishni tashkil etish;

- transport va telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish;

- iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ilmtalab va jahon bozorlarida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish;

- turizm sohasini rivojlantirish, xalqaro va ichki turizmnинг zamonaviy infratuzilmasini yaratishga erishish.

1998-yil respublikamizda investitsiya faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi 3 ta 1998-yil 30-aprelda O'zbekiston Republikasining "Chet el investitsiyalari to'g'risida" va "Chet el investorlarining kafolatlari va ularning huquqlarni himoya qilish choralar to'g'risida"gi hamda 1998-yil 24-dekabrda "Investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar mamlakatimizda investitsiya muhitini yaxshilash va uning iqtisodiyotga investitsiya joylashtirish hajmlarini oshirishga yo'naltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 22-martdagı farmoniga muvofiq quyidagi mezonlarga javob beruvchi chet el, shu'ba va qo'shma korxonalar chet el investitsiyasi bo'lган ishlab chiqarish korxonalari qatoriga kirishi belgilab qo'yildi: ustav jamg'armasi miqdori 150 ming AQSh dollaridan kam bo'lмаган korxonalar; korxona ishtirokchilaridan biri albatta xorij yuridik shaxsi hisoblangan; korxonaning ustav faoliyatida o'z ishlab chiqarishi yoki ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar servis xizmat hissasiga xo'jalik faoliyatidan tushumlar umumiy hajmining 60 % dan ko'prog'i to'g'ri keladigan korxonalar.

O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalar ichida qo'shma korxonalar yetakchi o'rinda turadi. To'liq xorijiy investitsiyalar bilan tashkil etilgan korxonalar kam. Ko'pchilik davlatlarda xorijiy investitsiyalar qatnashgan korxonalarni ro'yxatdan o'tkazish har xil. Ba'zi davlatlarda bu vazifani Moliya vazirligi bajarsa, boshqalarida Adliya vazirligi bajaradi. O'zbekistonda bu vazifani Adliya vazirligi amalga oshiradi. O'zbekistondagi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar respublika hududida filiallar yoki vakil korxonalarni tashkil etishi

mumkin. Bundan tashqari ular boshqa davlatlarda ham o‘z filiallarini ochishi mumkin.

O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar O‘zbekiston Respublikasi hududida xo‘jalik assotsiatsiyalari, konsernlar va boshqa birlashmalar tuzishlari mumkin. Xorijiy investitsiyalarning huquqiy himoyasi ta‘minlangan. Bu himoya har bir korxonada bo‘lgani kabi xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar uchun taalluqli. Milliy iqtisodiyotning ustuvor soha va hududlariga investitsiya kiritgan xorijiy investorlarga O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi tomonidan qo‘srimcha imtiyozlar berilishi mumkin. Shu bilan birga qonunda xorijiy investorlarning faoliyat turlari ham belgilangan. Xorijiy investorlar yoki xorijiy investitsiya qatnashgan korxonalar mavjud qonunchilikka muvofiq, o‘z maqsadlari va nizomlaridan kelib chiqib, barcha turdag‘i faoliyatlarini olib borishlari mumkin.

Xorijiy investorlar investitsiya hajmi, turlari, yo‘llarini belgilaydilar va ularni xohlagan korxonaga mustaqil ravishda kiritishlari mumkin. Investor o‘zi kiritgan investitsiya obyektlari va natijalariga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega. Shu bilan birga reinvestitsiya va savdo operatsiyalarini O‘zbekiston hududida milliy qonunchilik asosida, undan tashqarida esa xalqaro qonunlar asosida amalga oshirish huquqlariga ega. Investor egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlarini qonun bo‘yicha boshqa huquqiy va jismoni shaxsga berishi mumkin. Tomonlarning o‘zaro huquqlarini bir-biriga o‘tkazish vaqtidagi aloqalarni faqat ular o‘rtasida tuzilgan hujjat-shartnomalar hal qila oladi. Xorijiy investorlar va korxonalar qonunchilikda ko‘rsatilgan holatlarda yer uchastkalarini sotib olishlari mumkin. Xorijiy investorlar investitsiya faoliyatini amalga oshirishda quyidagilarga rioya etish zarur:

- O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qilayotgan qonunchilikka amal qilishi;

- O‘zbekistonda mavjud qonunchilik talablari asosida soliq to‘lash va boshqa to‘lovlarini amalga oshirishi;

- Investitsiya loyihasining sanitariya-gigienik ekologiya talablariga amal qilish bo‘limidagi ekspertiza xulosalarini olishi.

O‘zbekiston Respublikasida Germaniya, Hindiston, Janubiy Koreya, Turkiya, Indoneziya, Malayziya, Isroil, AQSh va bir qator boshqa mamlakatlar bilan investitsiyalami rag‘batlantirish va o‘zaro himoyalash to‘g‘risida bitimlar tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini amalga oshirishda dunyoning 25 dan ortiq mamlakatlari ishtirok etmoqda. Investitsiyalarni jalb etish vazifasini davlatimiz ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini yaratish va rivojlantirish asosida xaqiqiy mulkdorlarni shakllantirish bilan bog‘laydi.

“Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilishni ta‘minlash va tadbirdorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoniga binoan xalq iste’mol mollari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qo‘shma korxonalar ro‘yxatga olingan paytdan boshlab besh yil muddatga xorijiy valyutadagi tushumdan soliq to‘lashdan va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga valyutani majburiy sotishdan ozod qilish ko‘zda

tutilgan. Xorijiy investitsiya jalg etilgan korxonalarga quyidagi imtiyoz va rag'batlantirish omillari berilgan:

- tovarlar eksporti ishlab chiqarish hajmining kamida 30 %ini tashkil etadigan korxonalarga, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, foyda solig'ini amaldagi stavkalardan ikki barobar kamroq to'lash huquqi;

- xorijiy investitsiyali korxonalar daromadining ishlab chiqarishni kengaytirishga va texnologiyani yangilashga sarflanadigan qismidan soliq olmaslik;

- Respublika davlat investitsiya dasturiga kiritilgan loyihamar bo'yicha soliqlar to'lashdan etti yil muddatga ozod etish;

- ishlab chiqarilgan mahsulotning 25 % bolalar uchun mo'ljallangan bo'lsa, korxona ishga tushgandan boshlab soliqlar to'lashdan besh yil muddatga ozod etish. Keyingi yillarda bu korxonalarning foydasidan olinadigan soliq amaldagiga qaraganda ikki marta pasaytirilgan stavkalarda undiriladi;

- ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli bo'lib, ishlab chiqarish eksportga yo'naltirilgan yoki import o'mini bosishga mo'ljallangan bo'lsa soliqlar to'lashdan ikki yil muddatga ozod etish;

- foydadan to'lanadigan soliq-18 %;

- agar ustav kapitalning 50 % va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 500000 AQSh dollaridan

- 1 000 000 AQSh dollarigacha bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-15%;

- agar ustav kapitalning 50% va undan ko'proq qismi xorijiy sherikka tegishli va ustav kapitalning hajmi 1000 000 AQSh dollaridan va undan ko'p bo'lsa, foydadan to'lanadigan soliq-16%;

- agar ustav kapital hajmi 500 000 AQSh dollarini tashkil etsa, mol-mulk soliq'idan ozod qilish;

- yer soliq'idan ikki yilga ozod qilish;

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotni ruxsatnomasiz chetga sotish;

- investitsiya loyihamarini amalga oshirish uchun yer uchastkalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini tanlov asosida sotib olish;

- jismoniy, huquqiy shaxslar va davlatning mulkini xususiy lashtirishda bemalol ishtirot etishlari mumkin.

Hozirgi kunda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar investitsiya faoliyatiga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuv quyidagi qoidalardan kelib chiqmoqda:

- investitsiya talabini faollashtirish, investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning ustun sohalariga to'plash;

- investitsion jarayonlarga korxonalar, tashkilotlar, aholi jamg'armalarini to'laroq jalg etish va undan respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda foydalanish;

- xorij kapitalining kirib kelishi uchun qulay iqtisodiy muhit hozirlash.

Respublika Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash tufayli, respublikamizda investitsion muhit yaxshilanibgina qolmasdan, bir qator ijtimoiy muammolarga ham barham beriladi,

deb o'yaymiz. Chunki farmonning 2-bandida ta'kidlab o'tilganidek, xorijiy investitsiyalar hisobidan tashkil etiladigan korxonalar Respublikamizdagi ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan qator mintaqalarga joylashtirilishi ko'zda tutilgan.

Xorijiy korxonalar 2005-yilning 1-iyulidan boshlab, asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, ekologiya solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod qilinadilar. Bu imtiyozlar xorijiy investitsiyalar hajmi quydagicha bo'lganda beriladi:

- 300 ming AQSh dollaridan 3 million AQSh dollarigacha - 3 yil muddatga;

- 3 milliondan ortiq AQSh dollaridan 10 million AQSh dollarigacha - 5 yil muddatga;

- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 7 yil muddatga.

Shunday qilib, o'matilgan huquqiy asoslar xorijiy hamkorlarning keng investitsiya faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratib, ularning huquqlarini va sarflagan sarmoyasini himoya qiladi.

Umuman, xorij investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha respublikamiz mintaqalarini quydagi uch guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhga eng qulay investitsion muhit va yuqori darajadagi tadbirkorlikka ega, eksport faoliyatida qo'shma korxonalar mavqeい nisbatan yuqori bo'lgan Toshkent shahri, Andijon, Farg'on'a Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari kiradi.

Ikkinci guruhga investitsion faollik darajasi nisbatan o'rtacha bo'lgan Buxoro, Namangan va Samarqand viloyatlarini kiritish mumkin.

Uchinchi guruhdan esa, investitsion faollik darajasi o'ta sust, eksport faoliyatida qo'shma korxonalar mavqeい deyarli sezilmaydigan mintaqalar Xorazm, Sirdaryo va Jizzax viloyatlari o'rinn olgan.

1994-2013-yillarda respublikamiz iqtisodiyotida o'zlashtirilgan jami xorijiy sarmoyalarning 67,0 %'i birinchi guruh mintiqalari hissasiga to'g'ri kelgan. Toshkent shahri (41,5 %), Qashqadaryo (9,9%), Andijon (9,8 %), va Farg'on'a (5,8 %) viloyatlari eng yuqori salmoqqa ega bo'ldi.

Ayrim viloyatlarga jalb qilinayotgan sarmoya miqdori juda ham sustdir, tahlillarga ko'ra, keyingi yillarda xorijiy sarmoyalarning asosiy qismi Toshkent, Farg'on'a, Andijon, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlariga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi farmoni bilan Navoiy viloyatida "Erkin industrial – iqtisodiy zona (EIIZ)" tashkil etilishi e'lon qilindi. Uning faoliyat qilish muddati hozircha 30 yil qilib belgilangan, keyinchalik yana uzaytirilishi mumkin. Bu erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etilishi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni yanada ko'proq jalb etilishiga olib keladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etish, shuningdek, Navoiy shahrida yangi barpo etilgan aerodromni xalqaro operator – Koreyaning "Korean Air" kompaniyasi boshqaruviga berish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi tufayli oldimizda katta istiqbollar ochiladi. Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi undan

nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyonni Yevropa bilan bog'laydigan qit'alararo transport-ekspeditsiya uzelii sifatida foydalananish imkonini beradi. Ayni paytda u Navoiy viloyati va qo'shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratadi”<sup>95</sup>.

2013-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Navoiy viloyat hududida dunyoning 22 mamlakati investitsiyalari ishtirokida 47 ta korxona faoliyat yuritmoqda. Ular tomonidan xalq ho'jaligi uchun zarur oziq-ovqat, mashinasozlik va metallga ishlov berish, qurilish mollari, kimyo va neft-kimyo, elektrotexnika, farmatsevtika va kosmetika, rangli metalurgiya mahsulotlari tayyorlanmoqda.

Ayni paytda “Navoiy” erkin industrial-iqtisodiy zonasida Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi, AQSh, Germaniya, Xindiston, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari va boshqa mamlakatlar ishtirokida 25 ta investitsiyaviy loyiha amalga oshirilmoqda. Yuqori texnologiyalar asosida avtosanoat uchun zarur ehtiyoj qismlar ishlab chiqarayotgan “Uz Eral Cadle” mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi O'zbekiston – Janubiy Koreya qo'shma korxonasi – shulardan biridir. Bugungi kunda ushbu korxonada 39 turdag'i avtomobil kabellari ishlab chiqarilmoqda. 2012-yilda amalga oshirilgan modernizatsiyalash tadbirlari natijasida Janubiy Koreyadan keltirilgan 272 ming AQSh dollarilik texnologik uskunalar yordamida mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan “Cobalt” rusumli avtomashina akkumulyatorlari uchun jgut tayyorlanmoqda.

Hududda samarali faoliyat yuritayotgan korxonalar qatoriga, “O'zMinda” qo'shma korxonalarini ham kiritish mumkin. “O'zavtosanoat” AK va Hindistonning “Minda Capital Ltd” kompaniyasi investitsiyalari asosida tashkil etilgan mazkur korxonada “Telecom innovations” raqamli televedenie signallarini qabul qiluvchi DSLAM va ADSL modellari ishlab chiqarilayotir.

Hozirgi kunda ushbu qo'shma korxonada “DSLAM”va “ADSL” modellari bilan birga, raqamli “IPTV” qurilmalari tayyorlash ham o'zlashtirildi. Mazkur yangi uskuna yordamida raqamli televedenie signallarini internet tarmog'i orqali qabul qilish mumkin. 2013-yilda ham ushbu korxonada modernizatsiya ishlari davom ettirilib, 400 ming AQSh dollarilik investitsiya o'zlashtirildi. Umuman, “Navoiy” erkin industrial – iqtisodiy zonasida faoliyat ko'rsatayotgan “Telecom innovation” qo'shma korxonasiga kiritilgan 582 ming AQSh dollarilik xorij investitsiyasi evaziga bu erda ishlab chiqarish quvvati ikki barobar ortdi.

“Navoiy” erkin industrial iqtisodiy zonasini tashkil etilganidan buyon uning hududida umumiyligi 100 million dollardan ziyod investitsiya loyihasi ro'yobga chiqarildi. Pirovardida birgina 2013-yilda qiymati 100 milliard so'mlikdan ko'proq mahsulot ishlab chiqarilib, bu boradagi o'sish sur'ati 2012-yildagiga nisbatan 25,8 %ni tashkil etdi<sup>96</sup>.

Shuni ham e'tirof etish lozimki, mamlakatimiz viloyatlariga xorijiy sarmoyalarning jalb qilish hajmi hali ham talab darajasida emas. Jumladan, viloyatlarning eksport qobiliyatlarini to'laligicha ishlatish va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish lozim. Viloyatlarda sarmoya loyihibarini tayyorlash

<sup>95</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009. 51-52 betlar.

<sup>96</sup> Ziyayev T., Rasulov T., Yarashov O. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda investitsiyaviy siyosat //Ishonch, 5-son.

chog'ida hududiy joylashish va resurslar inobatga olinmayapti. Qishloq xo'jaligi xomashyosidan eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish o'miga, qishloq xo'jaligi texnikasiga butlovchi qismlarni yetkazish bo'yicha loyihalar taklif qilinmoqda. Bizning fikrimizcha, nafaqat viloyatlar, balki, butun Respublikaga ko'proq xorijiy sarmoyalarni va kreditlarni jaib etish maqsadida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1. Investitsion loyihalarni rejalashtirish chog'ida viloyatlardagi eksport salohiyatlarini ko'zda tutish;

2. Viloyatlarda telekommunikatsiya tizimini va mehmonxonalarini rivojlantirish;

3. Xorijiy investorlarni respublikadagi investitsion muhit va kerakli axborotlar bilan tanishtirish maqsadida taqdimot marosimlari va biznes-anjumanlar o'tkazish zarur;

4. Viloyatlarning eksport qobiliyatini oshirish maqsadida chet eldan olib kelinayotgan zamonaviy va yuqori ishlab chiqarish quvvatlariga ega bo'lgan anjomlarga past boj stavkalari o'matilishi lozim, deb o'yaylimiz.

Yuqorida keltirilgan takliflar xorijiy sarmoyalarning viloyatlar o'rtaida teng taqsimlanishini va ularni o'z vaqtida qoplanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar - iqtisodiyotda tarkibiy qayta o'zgarishlarni amalga oshirishning va iqtisodiy o'sishning moddiy asosidir. Bu maqsadlarda ulardan foydalanish investitsiyalarni tarmoq tarkibining o'zgarishida o'z aksini topdi. Yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi, yoqilg'i-energetika mustaqilligiga erishish, ishlab chiqarishni yangilash investitsiyalar tarkibi o'zgarishini talab etadi. Bular o'z navbatida Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Inqirozga qarshi choralar dasturida (2009-2012-yy.) ko'zda utilgan tadbirlarni izchillik bilan amalga oshirish jahon moliyaviy-iq tisodiy inqirozining tahdid va xatarlariga munosib qarshi turish, uning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirining oldini olish imkonini beradi"<sup>97</sup>.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Tarkibiy siyosat, investitsiya faoliyati, investitsion siyosat, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, diversifikatsiya, kafolatlar, imtiyozlar, ijtimoiy omillar, moliyaviy investitsiyalar, asosiy risk, investitsiyaga qadar risk, operatsion yoki investitsiyadan keyingi risklar, siyosiy omillar, iqtisodiy omillar, real investitsiyalar

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Investitsiya faoliyati nimani anglatadi?

2. Investitsiya faoliyatini davlat tomonidan boshqarish choralar ni malardan iborat?

3. Investitsiya fondlari investitsiya faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

6. Xorijiy investitsiyalar qanday boshqariladi?

7. Xorijiy investitsiyalarni boshqarishni xorij tajribasining xususiyatlari ni malardan iborat?

8. Xorijiy investitsiyalar uchun O'zbekiston Respublikasida qanday imkoniyatlar yaratilgan?

<sup>97</sup> Karimov J.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009. 54-b.

## **13-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTGA ERISHISHDA AGRAR ISLOHOTLARNING O'RNI VA ROLI**

### **13.1. Mamlakat iqtisodiyotida agrar sohaning tutgan o'rni**

Agrosanoat majmuasining tarkibiy qismi bo'lgan – qishloq xo'jaligi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi oziq-ovqat sanoati O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmoqlari hisoblanadi. Bu tarmoqlar mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariiga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 %ga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xomashyo yetkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor hisoblanadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlatning agrar siyosati birinchi navbatda mamlakatda mustahkam oziq – ovqat bazasini, yer va suvdan oqilona foydalanish shart-sharoitlarini yaratish, mulkchilikda davlat monopoliyasini keskin cheklash va xususiy mulk egaligi hamda mulkchilikning boshqa shakkllariga keng yo'l ochish, turli mulkchilik shaklidagi qishloq xo'jaligi korxonalariga teng rivojlanishiga erishish va ularni har tomonlama qo'llab – quvvatlash masalalariga qaratilgan.

Ta'kidlash joizki, 2013-yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 16,8 %i qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. O'tgan yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish 6,8 %ga, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 6,4 %ga, chorvachilik mahsulotlari – 7,4 %ga o'sdi. Agrar tarmoq respublikamiz aholisining salmoqli qismini ish o'rnlari bilan ta'minlab kelmoqda. Tarmoqning mamlakatimiz uchun ulkan ahamiyatga ega ekani hisobga olinib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasiga respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.


Mustaqillik yillarda muhtaram Prezidentimizning tashabbusi va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-teknika yutuqlarini, yangi texnikalarini va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallahish bormoqda. Cheklangan yer va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Respublikamiz agrar tarmog'ida amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar natijasida qishloq xo'jaligining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari yuksalib bormoqda. Jumladan, o'tgan 2000-2013-yillar oraliq'ida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari o'sib borish dinamikasiga ega bo'ldi. Xususan, bu ko'rsatkich 2000-yildagi 103,1 %dan, 2013-yilda 106,8 %ga oshdi<sup>98</sup>.

<sup>98</sup> Xodiyev B.Yu.va boshqalar. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom etirish yili bo'ladi: Prezident I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2014. 41-b.

**Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti** – agrar ishlab chiqarishning umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, hisobot davrining amaldagi narxlarida yoki solishtirma naxlarda hisoblangan, qishloq xo‘jaligi korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan o‘simlikchilik va chorvachilik mahsulotlari qiymatining yig‘indisi sifatida aniqlanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti salmog‘ining kamayib borish tendentsiyasi kuzatilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2000-yilda yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligining salmog‘i 30,1 %ga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2013-yilda bu ko‘rsatkich 16,8 %ga tushgan (13.1.1-rasm).



□ Qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining yillik o’sish sur’atlari, % ■ Yalpi ichki mahsulotda qishloq xo‘jaligining ulushi, %

### 13.1.1-rasm. Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari, (%)da)

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida qishloq xo‘jaligi salmog‘ining pasayib borishi qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti ishlab chiqarish hajmining kamayib borganini anglatmaydi. Aksincha, O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, qishloq xo‘jaligi yalpi mahsuloti qiymati amaldagi narxlarda 2000-yildagi 1387,2 milliard so‘mdan 2012-yilda 24370,3 milliard so‘mga yoki absolyut ko‘rsatkichda 17,5 marta o‘sgan. Bu holat mamlakatimizda sanoatning industrial tarmoqlarini jadal rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik-texnologik yangilash va uning raqobatdoshligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar va tub iqtisodiy islohotlar natijalari bilan izohlanadi.

Mamnuniyat bilan qayd etish joizki, mustaqillik yillarda mamlakatimiz qishloq xo‘jaligini barqaror sur’atlar bilan rivojlantirish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida agrar tarmoqning taraqqiyot darajasi dunyo miyisosida ham salmoqli bo‘lmoqda. Xususan, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanish darajasi Mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga (MDH) a’zo mamlakatlar ichida eng yuqori rivojlanish ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lmoqda. Fikrimizning isboti uchun 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga murojaat etsak, 2005-2013-yillar oraliq‘ida qishloq xo‘jaligi mahsulotining o‘ttacha o‘sish sur’atlari

Rossiya Federatsiyasida 103,8 %, Ukrainada 104,7 %, Qozog'istonda 104,2 %, Moldovada 103,1 % va Qirg'izistonda 101,3 %ga teng bo'lgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich 106,2 %ni tashkil etganini ko'rish mumkin (13.1.1-jadval)<sup>99</sup>.

### 13.1.1-jadval

**MDH mamlakatlarida 2005-2013-yillarda yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari (%)da)**

	2005-yil	2006-yil	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2013-yil	2005-2013-yillarda o'rtacha "sishsur'atlari, %da
O'zbekiston	105,4	106,7	106,1	104,5	105,7	106,8	106,6	107,0	106,8	106,2
Ukraina	99,9	103	94	118	100,1	98,5	119,9	95,5	113,7	104,7
Armaniston	111,2	100,4	110	101	99,9	86,4	113,9	109,5	107,1	104,4
Qozog'iston	107,3	106	109	94	113,8	88,3	126,8	82,2	110,8	104,2
Ozbarbyjon	107,5	100,9	104	106	103,5	97,8	105,8	105,8	104,9	104,1
Rossiya	101,6	104	103	111	101,2	88,7	123,0	95,3	106,2	103,8
Belarus	101,7	106	104	109	101,3	102,5	106,6	106,1	96,0	103,7
Moldova	100,8	99	77	132	90,1	107,9	105,0	77,6	138,3	103,1
Qirg'iziston	95,8	102	102	100,6	107,4	97,4	102,0	101,2	102,9	101,3

O'zbekiston Respublikasi agrar siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholini, sanoatni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash;
- qishloq aholisining turmush darajasini oshirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirish evaziga xorij valyutalari tushumini ko'paytirish;
- qishloq xo'jaligiga tushayotgan tushumlarni boshqa tarmoqlar o'rtasida taqsimlashni mo'tadillashtirish;
- qishloq xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;
- qishloq xo'jaligida raqobat muhitini kuchaytirish;
- qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligida tadbirkorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish;
- qishloq xo'jaligida mehnat unumдорligi oshirish va tarmoqning iqtisodiy samaradorligini ko'tarish.


<sup>99</sup>Xodiyev B.Yu. va boshqalar. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izhil davom ettirish yili bo'ladi: Prezident I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidan yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2014. 41-b.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini isloh qilish juda murakkab sharoitlarda amalga oshirilmoqda. Bu sharoitlarga quyidagi kiritish mumkin:

- moliyaviy mablag'larning talab darajasidan kam bo'lishi, yetishmasligi;
- qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasining eskirib qolganligi;
- qishloqda mehnat motivatsiyasining, manfaatdorligining nisbatan pastligi;
- qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlariga shakllanayotgan narxlar paritetining qishloq xo'jaligi uchun qulay holda rivojlanmaganligi;
- qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasining yetarli darajada yaxshi rivojlanmaganligi;
- qishloq aholisining xarid qilish qobiliyatining nisbatan pastligi;
- qishloq xo'jaligiga nisbatan arzon va sifatlari mashina va texnikalarni olib kelish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- qishloq xo'jaligi uchun kimyoiy vositalar, ma'danli o'g'itlar, yoqilg'i moylash materiallarini yetkazib berish (ayrimlarini ishlab chiqarishning) kamayishi;
- mustaqillikning dastlabki yillarda inflyatsiya darajasining nisbatan yuqori bo'lishi;
- yer va suv resurslarining sifatining pasayishi.

Ba'zi qiyinchiliklarga qaramay, mamlakat Prezidenti va hukumati tomonidan iqtisodiy islohotlar puxta o'yangan holda olib borildi va u ijobjiy samara bera boshhladi.

Alovida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillik yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga ekstensiv yo'l bilan emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsulorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda (13.1.2-rasm)<sup>100</sup>.



**13.1.2-rasm. Mamlakatimiz bo'yicha asosiy qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligining 1990-2013-yillar davomida o'zgarish dinamikasi, ts/ga**

Mustaqillik yillarda asosiy turdag'i ekinlarning hosildorligi muttasil o'sib borish sur'atiga ega bo'ldi. Xususan, 2-rasmida keltirilganidek 2013-yilda 1990-yilga nisbatan bug'doy hosildorligi 170,5 %ga, kartoshka hosildorligi 262,7 %ga, sabzavot

<sup>100</sup> Xodiyev B.Yu. va boshqalar. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mayjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Prezident I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanritish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. — T.: Moliya, 2014. 44- b.

hosildorligi 144,7 %ga, meva hosildorligi 234 %ga va uzum hosildorligi 148,6 %ga oshgan.

Tahlillar respublikamizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini ifoda etuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ekin turlari bo'yicha hosildorlikning va dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari shu mahsulotlar ekin maydonlarining o'sish sur'atlaridan yuqori bo'lganini tasdiqlaydi (13.1.2-jadval)<sup>101</sup>.

### 13.1.2-jadval

#### **Dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, hosildorlik va ekin maydonlari hajmi o'sish sur'atlariningsolishtirma ko'rsatkichlari (barcha toifadagi xo'jaliklarda), %da**

Ko'rsatkichlar	2012-yilda 2002-yilga nisbatan:		
	Ekin maydonlarining o'zgarish sur'atlari	Hosildorlikning o'sishsur'atlari	Mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari
Bug'doy	109,5	120,7	133,1
Paxta	92,1	117,8	110,8
Kartoshka	155,6	140,1	264,6
Sabzavotlar	144,1	138,5	264,6
Poliz	144,0	157,3	296,0
Meva	122,8	180,6	243,5
Uzum	106,4	208,6	233,2

Taqqoslash uchun, 2012-yilda 2002-yilga nisbatan bug'doy maydoni 109,5 %ga, sabzavotlar maydoni 144,1 %ga, poliz ekinlari maydoni 144 %ga, kartoshka maydoni 155,6 %ga, mevazorlar 122,8 %ga va uzumzorlar 106,4 %ga o'zgargan bo'lsa, shu vaqt oralig'iда bug'doy ishlab chiqarish 133,1 %ga, sabzavotlar 264,6 %ga, poliz 296 %ga, kartoshka 264,6 %ga, mevalar 243,5 %ga va uzum 233,2 %ga oshganini ko'rish mumkin. Qayd etilayotgan o'sish sur'atlariga faqatgina ob-havoning qulay kelishi natijasida emas, balki ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, agrotexnik va texnologik tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli o'tkazish, fermer xo'jaliklarini zarus miqdordagi moddiy resurslar bilan o'z vaqtida ta'minlash hamda shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish evaziga erishilmoqda.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash borasida quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining me'yoriy – huquqiy negizini takomillashtirish;
- qonunda ko'rsatilgan huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik;
- ularning ichki faoliyatiga aralashuvning har qanday ko'rinishiga yo'l qo'ymaslik;
- qishloq xo'jaligida maqbul baho siyosatini yuritish, doimiy ravishda qishloq xo'jaligi va sanoat tovarlar orasidagi baholar paritetini saqlab borish;

<sup>101</sup> O'sha manba 45 b.

- daromadlar pasayib ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- ilg'or texnologiya va texnikalar bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish;
- fuqarolar tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari va undan manfaatdorligining kafolatlari va sharoitlarini ta'minlash, ularning ishbilarmonlik faolligini oshirish hamda qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;
- moliya – kredit tizimini takomillashtirish hamda korxonalarining kredit manbalari va sarmoyalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarni kengaytirish va rivojlantirish;
- ulgurji va mayda ulgurji savdoni rivojlantirish, korxonalarining xomashyo, axborotlar va texnologiyalardan erkin va o'rta biznes korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligi hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;
- kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;
- pul – kredit tizimining barqaror faoliyatini ta'minlash uchun sug'urta tizimi ahamiyatini oshirish;
- yerga mulkchilik, yer va suvdan samarali foydalanish mexanizmini shakllantirish.

Respublikamizda fermer xo'jaliklarini huquqiy jihatdan himoya qilish bilan bir qatorda ularni iqtisodiy dastaklar orqali har tomonlama rag'batlantirish choralar ham amalga oshirilmoqda. Davlatning iqtisodiy rag'batlantirish choralar quydagi mexanizmlardan tashkil topadi :

- moliya – kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash;
- tabaqalangan va imtiyozi soliq tizimidan foydalanish;
- baholar paritetini saqlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va boshqalar.

Davlatning fermer xo'jaliklari faoliyatini iqtisodiy dastaklar orqali qo'llab – quvvatlash choralar fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga qulay shart - sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan beriladigan iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan tashkil topadi. Bunday chora-tadbirlar sarasiga soliqlar to'lashda yengilliklar berish, imtiyozli shartlar va %larda kreditlar berish, davlat buyurtmasi bo'yicha xarid qilinadigan mahsulotlarga kafillangan baholar belgilash, eksport-import operatsiyalarida qulay tariflar va to'lovlar o'matish kabi iqtisodiy dastaklar kiradi.

Fermer xo'jaliklarga soliq to'lashda sezilarli yengilliklar joriy etilgan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq ular dastlab tashkil etilganidan boshlab 2 yil mobaynida yagona yer solig'i to'lashdan ozod etilgan. Keyingi yillarda esa ular boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari bilan teng sharoitlarda yer maydonining joylashgan o'mni va tuproqning unumдорлиgi darajasidan kelib chiqib belgilanadigan ball-bonitetlar asosida yagona yer solig'i to'laydilar.

Fermer xo'jaliklarini moliya-kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash bиринчи navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo'llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi. Hozirgi kunda "Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi" doirasida dehqon va fermer xo'jaliklariga davlat mablag'lari, tijorat banklarining imtiyozli jamg'armasi hamda aynan shu maqsadlar uchun tashkil etilgan budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan imtiyozli kreditlar berish amalda qo'llanmoqda.

Davlatning fermer xo'jaliklari rivojlanishiga ko'maklashuvchi institutsional va infratuzilmalarni qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu vazifani amalga oshirish fermer xo'jaliklariga moddiy-texnik resurslarini yetkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashuvchi hizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog'ozlar bozori, fond birjalarini va yarmarkalar, axborot-maslahat markazlari hamda fermerlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va ulami rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Davlat bu yo'l bilan fermerlikni rivojini bilvosita qo'llab-quvvatlaydi.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada taraqqiy ettirishda asosiy e'tibor agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarida bozor tamoyillarini to'la qaror toptirish asosida qishloq aholisining turmush darajasini keskin oshirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan agrar tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli dasturi quyidagi eng muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mulkiy munosabatlarni va xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish borasida barcha subyektlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni bozor tamoyillari asosida amalga oshirish, shartnomaviy majburiyatlarining bajarilishida tomonlar mas'uliyatini oshirish.

2. Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish va samarali foydalanishni rag'batlantirish yo'nalishi bo'yicha tuproq unumdorligini oshirish va yarning meliorativ holatini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida barcha hududlarda qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish, unumdorligi past yer maydonlari salmog'ini kamaytirish.

3. Suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish, yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash maqsadida suv xo'jaligi tizimida moddiy va ma'naviy eskirgan irrigatsiya-melioratsiya tizimini yangilash, uning samaradorligini oshirish, yangi sug'orish texnologiyalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini joriy etish, yer maydonlari meliorativ holatini yaxshilash, drenaj tarmoqlarini qurish va ta'mirlash tadbirlarini amalga oshirish.

4. Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini viloyatlar va tumanlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish, mahsulotlar sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosilli, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yangi va istiqbolli, mahsulot sifati bozor talablariga javob beruvchi navlarni joylashtirish.

5. Chorvachilik **tarmog'**ini kompleks rivojlantirish, asosan chorva mollarining naslini yaxshilash hisobidan uning mahsuldarligini oshirish. Buning uchun:

- chorvachilik **tarmog'**ining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;
- naslchilikni tubdan yaxshilash;
- tarmoqda servis, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;

- parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;

- chorva mollarida uchraydigan yuqumli kasallikkarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish;

- ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajasiga erishish, bunda lalmi yerlardan chorva ozuqasi yetishtirish uchun foydalanishni kengaytirish.

6. O'rmon xo'jaligini kompleks rivojlantirish borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazaridan:

- qo'riqlanadigan hududlar davlat kadastrini joriy etish;
- o'rmon xo'jaligida mevali, manzarali daraxt ko'chatlarini yetishtirishni yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;
- hududlarning ekologik holati bo'yicha geografik-axborot tizimini ishlab chiqish.

7. Qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash **tarmog'**ini rivojlantirish, agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish.

Qishloq xo'jaligi, xususan, chorva va meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik xususiy korxonalarni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, xomashyoni qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, ho'l meva-sabzavot va tayyor mahsulot eksport qiladigan subyektlar uchun imtiyozlar tizimini ishlab chiqish.

8. Qishloq joylarda servis xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish agrar tarmoqda servis xizmatlari ko'rsatish sohasini rivojlantirish, bozorga tez moslashuvchi subyektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

9. Qishloq xo'jaligida moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimini takomillashtirish:

- davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla yetishtirishda asosan imtiyozli kreditlash orqali moliyalashtirib borish tizimini takomillashtirish;

- paxta va g'alladan tashqari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni kreditlash mexanizmini takomillashtirish;

- qishloq xo'jaligi uchun texnika, ehtiyyot qismlar, naslli chorva mollar, urug'lik va ko'chatlar, zamonaviy texnologiya va uskunalar, dori-darmon, kimyoviy preparatlarni import qilishda soliq va bojxona imtiyozlari tizimini yana kengaytirish;

- qishloq joylarga kichik sanoatni jalb qilishda soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;

– mahalliy ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida protektsionizm siyosatini doimiy ravishda amalga oshirish;

– unumdonligi past bo'lgan, shuningdek, nasoslar bilan sug'oriladigan maydonlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirib borish.

10. Agrar sohada ilm-fanni rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish. Bu sohada:

– atrof-muhitga ekologik zarar keltirmaydigan texnika va texnologiya hamda xomashyo resurslarini qayta ishlashda yangi uslublar ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

– paxtachilik va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlari birlamchi urug'chiligini tashkil qilish tizimini takomillashtirish;

– qishloq xo'jaligining amaliy muammolarini hal etishda innovatsion loyihalardan keng foydalanish va bunda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning bank orqali kreditlash tizimini joriy etish;

– qishloq xo'jaligida gen injeneriyasi borasida to'plangan jahon tajribasidan keng foydalangan holda, milliy tizimni yaratish;

– ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari yaratish ustida keng qamrovli ishlar olib borish;

– xorijdan keltirilgan naslli urug'lar asosida yuqori mahsuldor mahalliy chorva mollari, parrandalar, pilla qurti zotlarini yaratish.

11. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi daromadlarini oshirish.

### **13.2. Agrar sohani davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, ularni amalga oshirish shakllari va usullari**

Agrar soha davlat tomonidan doimiy ravishda tartibga solib turishga muhtoj tarmoq hisoblanadi. Bunga qator sabablar ta'sir ko'rsatadi. Avvalambor qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tabiiy sharoitlar bilan bog'liq. Ishlab chiqarishning natijasi hamisha ham xo'jalikning faoliyatigi bog'liq emas. Bir me'yorda qilingan mehnatning natijalari qishloq xo'jaligida tabiiy ta'sirlar natijasida turlicha bo'ladi. Uning mahsulotlarini uzoq vaqt saqlash imikoniylari cheklangan. Natijada, qishloq xo'jaligi o'z mahsulotlarini tezlikda sotishga majbur bo'ladilar.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan juda ko'plab tadbirkorlar shug'ullaniganliklari uchun ularga narx erkin, talab va taklif asosida shakllanadi. Bu narxlari ko'pincha qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun foydali bo'lmaydi. Shu sabablarga ko'ra qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlash zarurati mavjud. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari yaxshi rivojlangan ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmog'i davlat tomonidan tegishli qonun-qoidalar asosida tartibga solib turilishi va qo'llab-quvvatlanishi lozim.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligini markazlashgan rejalar asosida davlat tomonidan ma'muriy usullar orqali boshqarish tamoyillaridan voz kechib, bu sohaga

erkin bozor munosabatlari kirib kelayotgan bir paytda davlatning agrar ishlab chiqarish munosabatlari aralashuvi hayotiy zaruratga aylanadi.

Erkin bozor tarafdlorlari agrar sohaga xos bo'lgan bir qator xususiyatlarga (qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida sof raqobat imkoniyatlarining mavjudligi, agrar ishlab chiqarishga xos bo'lgan tabiiy – biotexnologik omillar dehqonlardan mustaqil qarorlar qabul qilishni talab etishi va boshq.) tayanib, bu tarmoqda erkin bozor munosabatlari amal qilishi uchun qulay shart – sharoitlar mavjud, degan g'oyani ilgari suradilar. Ularning fikricha, bozorning o'z – o'zini tartibga sola olish xususiyati, agrar iqtisodiyotga davlat aralashuvini talab etmaydi va bunga zaruriyat ham yo'q. Mustaqil xo'jalik yuritish va tadbirkorlik erkinligi esa bozor sharoitida fermerlarning yuksak sur'atlar bilan rivojlanishiga olib kelishi kerak.

Ammo, respublikamiz bozor munosabatlari o'ta boshlaganidan beri o'tgan davr saboqlari hamda ilg'or xorijiy mamlakatlarning tajribalari qishloq xo'jaligini davlatning faol aralashuvizis rivojlantririb bo'lmasligini ko'rsatmoqda. Chunki, bozor sharoitida agrar soha davlat tamonidan qo'llab – quvvatlanmasdan turib, sohalararo raqobatga bardosh berolmaydi.

Qishloq xo'jaligini davlat tamonidan tartibga solish va qo'llab – quvvatlash zaruratini dastavval qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda qaramoq maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaligi murakkab biotexnik texnologik hamda ijtimoiy – iqtisodiy tizim sifatida tavsiflanadi. Unda tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy xarakterdagi omillar bilan birgalikda yer, suv, o'simlik va chorva mollari organizm, yorug'lik, issqlik, havo, tabiiy iqlim va geografik joylashuv kabi tabiiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish jarayonida turli tavsifdag'i ushbu omillar uyg'unlashib ketadi. Ishlab chiqarish – xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning serqirraligi va murakkab tizimdan iboratligi qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat ko'rsatish imkoniyatlarini cheklaydi. Xususan, ishlab chiqarish tabiiy omillarning bir qismini (ob-havo, tabiiy-iqlim sharoiti va h.k.) boshqarish dehqonlarning imkoniyatlar doirasidan tashqari bo'lib, ularni oldindan rejalahtirib yoki oldini olib bo'lmaydi. Ammo, bu omillarning qulay yoki noqulay sharoitlarda kelishi xo'jalikning yakuniy moliyaviy natijalariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy iqlim sharoitiga (jonli organizmlar, jug'rofisiy muhit, ob-havo va boshqalar.) bog'liqligi dehqonlar faoliyati rag'batlantirish va sug'o'ttalash kabi bir qator himoya vositalarni yaratishni talab qiladi. Dehqon manfaati tomonidan yondashsak, yil davomida mahsulot yetishtirish uchun sarflangan xarajatlar tabiiy ofat va qurg'oqchilik tufayli bekorga sovurilishi mumkin. Bunday paytlarda uning ko'rgan zararini qisman bo'lsada qoplamaslik kelgusi yil hosiliga ham tahdid soladi.

Ob-havoning noqulay kelishi nafaqat qishloq xo'jaligi tarmog'ida, balki butun mamlakat miyisosida ham qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelmasligi uchun davlatning maxsus zaxiralari bo'lishi maqsadga muvofiq. Hosil mo'l bo'lgan yillarda davlat oziq-ovqat mahsulotlarining talabdan oshiq qismini dehqonlardan xarid qilib, maxsus omborlarda saqlashi va noqulay kelib, tanqislik vujudga kelgan yillari bu zaxiralardan talabni qondirish maqsadida

foydanishi mumkin. Bu tadbir hozirgi vaqtida dunyoning bir qator ilg'or davlatlarida (AQSh, Yevropa Hamjamiyi davlatlarida, Kanada) qo'llab kelinadi va ijobja samara bermoqda.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tabiiy-iqlimi sharoitlarga bog'liqligi bu tarmoqda narx va daromadlarning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qulay ob-havo sharoitida bozorga talabdan ortiqcha mahsulotning kirishi narxning keskin pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday holatni ko'proq g'all, sabzavot, poliz, meva va uzum mahsulotlari bozorida kuzatish mumkin. Ba'zan narxlarning bunday pasayishi mahsulot tannarxini qoplashga ham imkon bermasligi oqibatida dehqonlar katta zarar ko'radi.

Tabiiyki, bunday sharoitlarda agrar sohada erkin bozor munosabatlari amal qilayotgan bo'lsa, ular xonavayron bo'lishi turgan gap. Yoki ikkinchi bir yili ob-havoning noqulay kelishi (qurg'oqchilik, sel, jala va hokazo) hosilning keskin kamayib ketishiga va natijada narxlarning haddan tashqari qimmatlashishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunday hollarda dehqonlar hosilning kamayib ketishidan zarar ko'rsalar, iste'molchilar narxlarning balandligidan aziyat chekadilar. Ko'rinish turibdiki, har ikkala holda ham dehqon ko'proq zarar ko'radi va bu holat qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash zaruratini yuzaga keltiruvchi omillardan biri sifatida yuzaga keladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi mahsulotlari biologik jarayonlar bilan bog'liqligi tufayli tez buzuluvchan bo'ladi. Ularni uzoq muddat saqlash yoki olis masofalarga tashish imkoniyatlari ancha chegaralangan. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan farqli ravishda sanoat, savdo yoki xizmat ko'rsatish korxonalar o'z mahsulotlariga narx belgilashda ancha qulay mavqega ega. Chunki, iste'molchi so'rayotgan narx qoniqtirmasa, ularni toki bozorda qulay vaziyat vujudga kelgunga qadar tovarlarini sotmay saqlab turishlari mumkin. Qishloq xo'jaligi korxonalar esa sabzavot, meva yoki sut kabi tez buzuluvchan mahsulotlarni bozorda qulay vaziyat kelishini kutib, uzoq vaqt ushlab turaolmaydilar. Bu xil mahsulotlar ma'lum muddat o'tgandan so'ng o'zining iste'mol qiymatini yo'qotishi mumkinligi sababli fermerlar bozorda tashkil topgan narxlar darajasi bilan qanoatlanishga majbur bo'ladi.

Ikkinci tomonidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar respublikamizda ko'pchilikni tashkil etadi va erkin bozor hukm surib turgan sharoitda ular hech qachon o'zaro kelishib, mahsulotlariga yuqori narx belgilay olmaydilar, ya'ni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorida nisbatan ideal raqobat hukm suradi. Odатда, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabning o'zgarishi unchalik katta bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, unga talab elastiklikka ega emas (yoki juda past elastiklikka ega).

Aksincha, qishloq xo'jaligiga moddiy-teknika resurslari yetkazib beruvchi hamda ularga turli xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar hududlar miqyosida kamchilikni tashkil etib, ba'zan monopol mavqega ega ekanligi bilan xarakterlanadi. Qishloq xo'jaligi korxonalar xarid qiladigan sanoat mahsulotlari (texnika, mineral o'g'it, yoqilg'i va h.k.) narxi ko'p hollarda tez sur'atlar bilan o'sadi. Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari bilan bu tarmoq uchun zarur bo'lgan sanoat tovarlari

yoki xizmatlar narxlari o'ttasida yirik nomutanosiblik (narxlar dispariteti) vujudga keladi.

Bu esa, o'z navbatida, qishloq xo'jaliklari mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samarasini pasaytiradi yoki umuman, zararli qilib qo'yadi. Bunday holat hech bir mamlakat manfaatiga mos tushmaydi. Bunday vaziyatda davlat qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun noqulay bo'lgan texnika ta'minoti hamda xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning monopol mavqeini cheklash choralarini ko'rishga majbur bo'ladi.

Qishloq xo'jaligini davlat tamonidan qo'llab-quvvatlash zaruriyati bu tarmoqda kapital aylanishining xususiyatlaridan ham kelib chiqadi.

Ma'lumki, sanoat, savdo, moliya bozorlari kabi bir qator tarmoqlarda kapital aylanishi qishloq xo'jaligidagi nisbatan bir necha marta yuqoridir. Kapital qancha tez aylansa, shunchalik ko'p foyda keltirishi tufayli qishloq xo'jaligida kapitalning sekin aylanishi bu tarmoqqa investitsiya imkoniyatlarini keskin chegaralaydi. Ammo yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, yangi yernarni o'zlashtirish va sug'orish tarmoqlarini barpo etish, ishlab chiqarishni texnik qurollantirish, fan – texnika yutuqlari va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekologik vaziyatni barqaror ushlab turish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish uchun yirik kapital mablag'lar talab etiladiki, bu tadbirlarni yolg'iz qishloq xo'jaligi korxonalarning mablag'lari hisobdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Buning uchun davlat budjeti hisobidan maxsus mablag'lar ajratilishi maqsadga muvofiq. Nihoyat, fermer xo'jaliklarining ijtimoiy rivojlanishi, ya'ni ular uchun yo'llar barpo etish, gaz, suv, elektr ta'minoti, ijtimoiy – madaniy obyektlar qurish kabi umum davlat ahamiyatiga ega muammolar mavjudki, bu muammolarni davlat homiyligisiz yechib bo'lmaydi<sup>102</sup>.

Milli iqtisodiyotning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab-quvvatlashdagi asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- Huquqiy tartibga solish vazifasi-davlat agrar iqtisodiyot barqoror rivojlanishini va har bir xo'jalik yurituvchi subyekt teng sharoitlarda faoliyat yuritishini ta'minlashga imkon beruvchi me'yorlar hamda qonunlami qabul qilish orqali, ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning huquqiy asoslarini yaratishni nazarda tutadi.

- Barqarorlashtirish vazifasi-agrar iqtisodiyotda inqirozli holatlarni bartaraf etish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning pasayishiga yo'l qo'ymaslik va agrosanoat majmui tarkibining mutanosibligini ta'minlash bilan bog'liq.

- Tartibga solish vazifasi-xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyat yuritishlarini ta'minlash maqsadida bozor tuzilmalari bilan davlat boshqaruvining o'zaro manfaatliligi hamda uyg'unligini shakllantirishdan iborat.

- Rag'batlantirish vazifasi-milliy iqtisodiyot doirasida qishloq xo'jaligida fan-texnika taraqqiyotini, xususiy tadbirkorlikni,adolatli raqobat kurashini yoki boshqa ustivor yo'nalishlarni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarini ifodalaydi.

<sup>102</sup> Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti (Darslik). – T.: TDIU, 2010. – 168-171 b.

- Taqsimlash vazifasi – ijtimoiyadolat va himoyalash vositasi sifatida daromatlarni qayta taqsimlash, shuningdek, ichki mahsulot tarkibini o'zgartirish maqsadida resurslar taqsimotiga tuzatishlar kiritish bilan bog'liq.

- Ijtimoiy kafolatlash vazifasi – qishloq xo'jaligida ta'minot va aholi nachor qatlamlarini himoyalashning samarali tizimsini yaratish, ishlab chiqarish va taqsimotning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlash, ta'lif, sog'liqni saqlash va madaniy tadbirlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish bilan bog'liq chora – tadbirlarni o'z ichiga oladi.

- Muhofaza qilish vazifasi agrar ishlab chiqarishni salbiy xarakterdag'i tashqa ta'sirlardan (masalan, atrof – muhit va boshqalar) saqlash, milliy tovar ishlab chiqaruvchilarini tashqi eksportyorlardan yoki jahon bozoridagi kuchli raqobatdan himoyalash kabi vazifalardan iborat.

- Nazorat etish vazifasi – qishloq xo'jaligida qonuniy – me'yoriy hujjatlar, hukumat qarorlari va davlat andozalarining bajarilishi ustidan nazorat o'matish bilan bog'liq.

- Tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish vazifasi – xalqaro bozorlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportyorlarining manfaatlarini himoyalash, bojxona ta'riflari va soliqlar orqali eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar yaratishni rag'bantlantirish, ular uchun qulay iqtisodiy muhit hosil qilish tadbirlaridan iborat.

- Istiqbolni belgilash vazifasi – qishloq xo'jaligini istiqbolda rivojlantirishning ustivor yo'nalishlarini belgilash, barqaror agrar taraqqiyotining samarali variantlarini izchil amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida davlatning qishloq xo'jaligini qo'llab – quvvatlashdagi eng muhim vazifalaridan biri – tadbirkorlik tashabbusi va tanlov erkinligiga, mustaqil xo'jalik yuritish huquqi va o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan bozor xo'jaligining subyekti tadbirkorlarni shakllantirish hamda ularning sog'lom raqobat va teng xo'jalik yuritish sharoitlarida faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi huquqiy – me'yoriy asoslarini yaratishdir. Davlat tadbirkorlarning butun ijobjiy va mehnat qobiliyatlarini yuzaga chiqarishi hamda ular xo'jalikni boshqarish jarayonlarini to'siqsiz amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan barcha shart – sharoitlami, ya'ni tadbirkorlik va tanlov erkinligini qonunan mustahkamlab qo'yishi kerak. Shu bilan birga davlat tegishli qonuniy hujjatlar orqali bozor sharoitida xo'jalik yuritish qoidalarini belgilaydi.

O'tgan 23 yil davomida fermer xo'jaliklari muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi va bevosita rahnomoligida agrar sohada butunlay yangi xo'jalik yuritish shakli sifatida vujudga kelishdan boshlab asosiy qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti ishlab chiqaruvchisigacha bo'lgan katta yo'lni bosib o'tdi.

Mamlakatimiz agrar tarmog'ida fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga yo'naltirilgan iqtisodiy islohotlar davrini shartli ravishda 5 bosqichga bo'lish mumkin (13.2.1-jadval).

### O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish bosqichlari<sup>103</sup>

Bosqichlar	Bosqichlar davri	Bosqichlarning nomlanishi
I-bosqich	1991-1997-yillar	Fermer xo'jaliklarining dastlabki shakllanishi davri
II-bosqich	1998-2001-yillar	Fermer xo'jaliklari faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish va mustahkamlash davri
III-bosqich	2002-2007-yillar	Surunkasiga zarar ko'rib ishlagan istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida fermer xo'jaliklarini keng ko'lama ustuvor rivojlantirish davri
IV-bosqich	2008-2011-yillar	Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish va iqtisodiy samaradorligini yuksaltirish davri
V-bosqich	2011-yildan boshlab	Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish davri

Mamlakatimizda fermer xo'jaliklarini shakllantirish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 29-noyabrdagi "Respublikada dehqon (fermer) xo'jaliklarini yanada mustahkamlash va tadbirkorlik faoliyatini davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 295-sonli farmoni qabul qilinishi bilan boshlangan. Dastlabki tashkil etilgan fermer xo'jaliklari asosan mamlakatimiz hukumati tomonidan ajratilgan davlat er fondi bazasida, zaxiradagi yerlarda, mehnat resurslari etishmaydigan, yangi sug'oriladigan, qishloq xo'jaligi korxonalarining kam unumli, foya bermaydigan yoki past rentabelli yerlarda shakllantirilgan. Bunda yuridik shaxs huquqi bilan tashkil etilgan mustaqil fermer xo'jaliklari bilan bir qatorda jamoa (shirkat) xo'jaliklari hamda boshqa qishloq xo'jaligi korxonalarining tarkibida ichki ijara shartnomasi asosida tuzilgan fermer xo'jaliklari ham shakllanib borgan.

Mustaqil xo'jalik yuritish va mulk egaligi hissining to'liq shakllanmagani ta'sirida dastlabki fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligida mustahkam o'r'in egallay olmadi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda, 1997-yilning oxiriga kelib yurtimizda 21,4 ming fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatgan bo'lib, qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibida ularning salmog'i 2,8 %ni, don etishtirishda 5,9 %ni, sabzavotlarda 2,7 %ni, go'shtda 1,4 %ni, sutda 1,4 %ni va tuxum bo'yicha 0,4 %ni tashkil etgan.<sup>104</sup>

Fermer xo'jaliklarini mustaqil xo'jalik yuritish shakli sifatida faol shakllantirish jarayoni O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi qonunining qabul qilinishi bilan boshlandi. Qonun bilan fermer xo'jaligining huquqiy maqomi, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va tashkiliy-iqtisodiy asoslari aniq belgilab berildi. Ushbu qonun 2004-yilda yangi tahrirda qabul qilindi va fermer xo'jaliklarining rivojlanishi hamda mustahkam ildiz otishida muhim ahamiyat kasb etdi.


<sup>103</sup> Xodiyev B.Yu va boshqalar. 2014- yil yugori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarini safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Prezident I.A.Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga yakunlari va 2014-yilga mo'ljalangan iqtisodiy daasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T: "Moliya", 2014 – 346 b.

<sup>104</sup> O'zbekistonning yillik statistik to'plami. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi, 2008. -273-275-b.

Shirkat (jamoa) xo'jaliklari 1998-yilgacha agrar tarmoqda qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirib beruvchi asosiy xo'jalik yuritish shakllaridan biri bo'lib kelgan. Ammo, ularda boshqaruvning eski ierarxik usuli saqlanib qolingani, mulk egaligi hissining dehqonlardan begonalashgani, ishlab chiqarishni tashkil etishda inson omiliga tadbirkorlik va tashabbuskorlik xislatlariga e'tibor berilmagani. shuningdek, boshqa bir qator sabablar ta'sirida aksariyat shirkat xo'jaliklarda iqtisodiy samaradorlik pastligicha qoldi va oqibatda surunkali ravishda zarar bilan ishlash holatlari yuzaga kela boshladi.

O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi korxonalarini sanatsiya qilish to'g'risida"gi qonuniga asosan 1998-yilda 104 ta, 1999-yilda 150 ta va 2000-yilda 84 ta surunksiga zarar keltirib ishlayotgan xo'jaliklar sanatsiyaga tortildi. Respublikamiz hukumati tomonidan ularni "iqtisodiy sog'lomlashtirish" yuzasidan amalga oshirilgan sanatsiyalash tadbirlari kutilgan natijani bermadi. Xususan, 2002-yil yakuniga kelib mavjud 2018 ta qishloq xo'jaligi korxonasing 1700 tasi yoki 84,2 %ni zarar bilan ishlagan<sup>105</sup>. Natijada 1999-yildan boshlab respublikamizda zarar keltirib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklarga aylantirish jarayoni boshlandi.

Amalga oshirilgan tadbirlar natijasida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibida shirkat xo'jaliklarining ulushi 2000-yildagi 27,8 %dan 2013-yilda 2 %ga pasaygan bo'lsa, fermer xo'jaliklarining ulushi 5,5 %dan 34 %ga oshdi (13.2.1-rasm).



### 13.2.1-rasm. Qishloq xo'jaligi mahsulotining tarkibi, barcha xo'jaliklarga nisbatan %da<sup>106</sup>

Davlatning yana bir muhim vazifasi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talab va taklifning shakllanishini qo'llab – quvvatlashdir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talabni shakllantirish uchun aholining daromatlarini o'stirish va qayta taqsimlash, iste'mol uchun zarur bo'lgan ba'zi mahsulotlarning narxlarini tartibga solish kabi tadbirlar qo'llaniladi. Davlat iste'mol uchun zarur bo'lgan hamda strategik ahamiyatga ega bir qator mahsulotlarga davlat buyurtmalarini shakllantirish

<sup>105</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining ma'lumotlari.

<sup>106</sup> O'didiyev B.Yu. va boshqalar. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojanish. barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan ishobtlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Prezident I.A. Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'iishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T: "Moliya", 2014 – 48- b.

orqali ham qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror talabni yuzaga keltirishga hissa qo'shadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barqaror taklif hajmini qo'llab – quvvatlash bevosita er maydonlari hajmini optimallashtirish orqali ta'minlanadi.

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish borasida amalga oshirilgan yirik tadbirlardan biri ularning yer maydonlari hajmini optimallashtirish (maqbullashtirish) bilan bog'liq. Dastlab tashkil topgan aksariyat fermer xo'jaliklarida er maydonlari hajmining kichikligi mahsulot ishlab chiqarish rentabelligining o'sishiga va barqaror foyda olishga to'sqinlik qildi. Iqtisodiy ahvoli nochor bo'lgan bunday fermer xo'jaliklari o'zlarini zarur texnika vositalari va aylanma mablag' bilan ta'minlashga, bankdan kredit olish uchun garovga moddiy resurs qo'yishga imkoniyati yetmadi, olingan qarz majburiyatlarini qoplash uchun to'lovga qobillik (likvidlik) darajasiga ega bo'lmadi. Eng muhimmi, ular o'z xarajatlarini o'zi qoplash va foyda ko'rib ishlash, daromadlarini muttasil oshirib borish singari bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos bo'lib tushmadi.

Shundan kelib chiqqan holda, hukumatimiz tomonidan fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini to'liq inventarizatsiyadan o'tkazish va ular faoliyatini tanqidiy baholash asosida fermerlarga birkiritilgan yer maydonlarini maqbullashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shu bilan birga, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.


Fermer xo'jaliklarining yer maydonlari hajmini maqbullashtirish (optimallashtirish) – yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish va fermer xo'jaligining moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida uning yer maydoni hajmini o'zgartirish.

Maqbullashtirish jarayonida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy samaradorligini o'stirishga imkon yaratuvchi quyidagi omillar e'tiborga olindi:

- mavjud fermer xo'jaliklari ixtiyorida bo'lgan yer maydonlaridan yaxlit konturlarda yagona tartibda maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlash;
- fermer xo'jaliklarining qaysi sohaga ixtisoslashgani va mamlakatimizning turli hududlaridagi aholi zichligini e'tiborga olish;
- suv va boshqa moddiy resurslarini tejaydigan yangi agrotexnologiyalarni qo'llash uchun qulay sharoit yaratish;
- yiriklashtirilgan fermer xo'jaliklarini kompleks mexanizatsiyalash uchun ularning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish;
- zarar bilan ishlayotgan va o'zini oqlamayotgan kichik fermer xo'jaliklarining faoliyatiga barham berish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 6-oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi F-3077-sonli va 2009-yil 22-oktyabrdagi "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi er uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3287-sonli farmoyishlari asosida 2008 yildan boshlab fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish borasida yirik tadbirlar amalga oshirildi. Natijada 2014-yilning boshiga kelib 2008-yilga nisbatan respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215 776 tadan 72 329 taga yoki 66,5 %ga kamaytirildi,

bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha yer maydoni hajmi 27,6 gektardan 79,5 gektargacha oshdi (13.2.2-rasm)<sup>107</sup>.



### 13.2.2-rasm. Fermer xo'jaliklari yer maydonlari hajmini optimallashtirish natijasida o'rtacha bir fermer xo'jaligiga nisbatan yer maydoni hajmining o'zgarishi, gektar hisobida

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish printsipial muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi. Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga - qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Hozirgi vaqtida fermer xo'jaliklari qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishning eng samarali shakli ekanini hayotning o'zi tasdiqlab bermoqda.<sup>108</sup>

Optimallashtirishdan oldingi va keyingi davrlarda bir fermer xo'jaligiga o'rtacha to'g'ri keladigan yer maydonlarini tarmoqlar bo'yicha olib qaraydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich paxtachilik va g'ällachilikda 37 gektardan 101,2 gektarga, sabzavotchilik va polizchilikda 10 gektardan 30,6 gektarga, bog'dorchilik va uzumchilikda 3 gektardan 18,9 gektarga, chorvachilikda 154 gektardan 180,7 gektarga oshganini ko'rish mumkin<sup>109</sup>.

Optimallashtirish natijasida nafaqat fermer xo'jaliklariga biriktirilgan o'rtacha yer maydonlari hajmi sezilarli darajada oshdi, balki ularning moliyaviy barqarorligi va to'lovga qobilligi mustahkamlandi, shu bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va ekinlar hosildorligi ham oshib bordi.

<sup>107</sup> Xodiyev B.Yu. va boshqalar. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izhil davom ettirish yili bo'ladi: Prezident I.A. Karimovning mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. -T.: "Moliya", 2014 – 49. b.

<sup>108</sup> Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izhil davom ettirish yili bo'ladi: Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantrish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. - T.: O'zbekiston, 2014.

<sup>109</sup> O'sha manba. 346 b.

Davlatning uchinchi muhim vazifasi – qishloq xo‘jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishga yetaklovchi sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishdir. Buning uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorining ochiqligini hamda adolatl raqobat muhitini yaratish, nosog‘lom raqobat va monopoliyaga qarshi kurashning samarali vositalarini qo‘llash choralarini amalga oshiriladi.

Davlat qishloq xo‘jaligi korxonalarining jahon qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat bozorlarida teng huquqli subyekt sifatida qatnashishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratib bermog‘i lozim. Buning uchun davlat:

– Qishloq xo‘jaligi korxonalarining eksportga yo‘naltirilgan raqobatbardosh mahsulotlari etishtirishga rag‘batini oshirish;

– Mahaliy bozorlarda ularni tashqi eksportyorlar raqobatidan yetarli darajada himoyalash (protentsionizm) vositalarini ishga soladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida davlatning eng muhim vazifalaridan biri qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etishga ko‘maklashishdir. Bu vazifani amalga oshirish dehqonlarga moddiy – texnik resurslar yetkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishslash va sotishga ko‘maklashuvchi xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar tarmog‘ini yaratish, bank, moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori, fond birjalarini yaramarkalar, axborot – maslahat markazlari hamda dehqonlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va rivojlantirishni nazarda tutadi.

Davlatning qishloq xo‘jaligini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash borasidagi vazifalari ma‘lum bir tamoyillarga tayanib amalga oshiriladi. Bu tamoyillarni quyidagicha tavsiflash mumkin:

– Qishloq xo‘jaligining iqtisodiy mohiyatini, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va aholini oziq-ovqat bilan ta’minalashda uning tutgan o‘rnini va ahamiyatini ilmiy tushunish;

– Zaruriyat va yetarililik darajasidagi protektzionizm siyosati;

– Qishloq xo‘jaligini maqsadli – dasturiy tartibga solish;

– Davlat homiyligining doimiy kafolatlanishi;

– Qo‘llab-quvvatlash tadbirlarining tabaqalangan holda qo‘llanilishi;

– Davlat aralashuvining rag‘batlantirivchi yo‘nalishga egaligi;

– Davlat aralashuvining ijtimoiy yo‘naltirilganligi.

Davlat o‘zining qishloq xo‘jaligini tartibga solish va qo‘llab – quvvatlashga oid vazifalarini turli shakl va usullarda amalga oshiradi. Tanlangan mezonning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni quyidagicha turkumlash mumkin:

1. Davlatning agrar soha iqtisodiy jarayonlariga ta’siri darajasiga ko‘ra, tartibga solishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Davlatning qishloq xo‘jaligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi xo‘jalik yurituvchi subyektlarini o‘z tanlov erkinligidan kelib chiqib emas, balki davlat tomonida belgilangan qonuniy – me’yoriy qoidalar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilishga majbur etadi. Bunga soliq qonunchiligi, buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish bo‘yicha yo‘riqnomalar va boshqalar misol bo‘ladi.

Bilvosita usullar yordamida davlatning qishloq xo‘jaligiga ta’siri takror ishlab chiqarishning makroiqtisodiy nisbatlarini ta’minalash maqsadida xo‘jalik yurituvchi

subyektlarning faoliyatini iqtisodiy dastaklar yordamida tartibga solishni ko'zda tutadi. Bunda davlat iqtisodiy subyektlar tomonidan qarorlar qabul qilish jarayoniga to'g'ridan – to'g'ri aralashmaydi, balki bu qarorlarni davlatning iqtisodiy siyosatiga mos bo'lishini rag'batlantiradi.

2. Tashkiliy-institututsional mezonga ko'ra davlatni qishloq xo'jaligini tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari farq qiladi. Ma'muriy usullar xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun qonuniy va me'yoriy shart – sharoitlarni vujudga keltirish bilan bog'liq huquqiy infratizimni shakllantirishga oid chora – tadbirlar majmuasini o'z ichiga oladi. Uning vazifasi tadbirkorlik faoliyati uchun barqorar huquqiy sharoitlar yaratish, raqobat muhitini muhofaza qilish kabi tadbirlardan iborat.

Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish ma'muriy usullarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ular davlat hokimiyatining quadrati va salohiyatiga tayanadi;
- ularni amalga oshirish bilan bog'liq qo'shimcha moddiy rag'batlantiruvchi choralar yaratishni shart qilib qo'yaydi;
- ta'qiqlash, ruxsat berish va majburlash tadbirlarini (kvotlash, litsenziya berish, me'yoriy normalarni belgilash va h. k.) o'z ichiga oladi.

Ma'muriy boshqaruv o'z tabiatiga ko'ra, bozorga xos tartibga solish harakatiga to'siqlik qiladi. Biroq rivojlangan bozor sharoitida ham boshqarishning ma'muriy usullari o'z ahamiyatini saqlab qoladi va zarur bo'lganda ulardan foydaliladi. Xususan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan hamma mamlakatlarda ma'muriy usullar vositasida monopoliyaga qarshi siyosat amalga oshiriladi.

Iqtisodiy usullar yordamida davlat bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo'naliшha solish uchun ta'sir etish choralarini qo'llaydi. Iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy usullari bozor xo'jaligining o'z-o'zini boshqarish mexanizmiga qarshilik qilsa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi.

Iqtisodiyotni tartibga solish va qo'llab-quvatlashning iqtisodiy usullari quyidagilar kiradi.

- budget - soliq siyosati;
- pul-kredit siyosati;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish;
- iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash.

Budget-soliq tizimi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini davlat tomonidan bevosita tartibga solishning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi. Davlat budjetining xarakatlari qismi orqali daromadlarni qayta taqsimlash, qishloq xo'jaligi sohasida fan – texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etish va ilmiy tadqiqotlar olib borish, agrar iqtisodiyotning muhim tarmoqlariga davlat investitsiyalarini yo'naltirish hamda qishloqda ijtimoiy infratuzilmalarni barpo etish mumkin bo'ladi.

Soliq tizimi orqali qishloq xo'jaligi korxonalarini rag'batlantirish (soliq imtiyozlar va h.k.) amalga oshiriladi. Chunki progressiv soliq tizimidan noto'g'ri foydalanish, ya'ni uning me'yorini haddan tashqari oshirib yuborish iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu, birinchi navbatda, yuqori

unum bilan mehnat qilish va yuqori daromad olishga bo'lgan manfaatni, investitsiyalarga bo'lgan rag'batni yo'qqa chiqishi bilan izohlanadi.

Pul-kredit tizimi davlatning qishloq xo'jaligiga bilvosita ta'sir ko'rsatish usullaridan biridir. Pul-kredit tizimi orqali:

- maqsadli kreditlar berish;
- kredit berishning yuqori chegaralarini belgilash;
- bank %larining darajasi ustidan bevosita nazorat o'matish;
- kreditlar bo'yicha % stavkalarini tartibga solish;
- tijorat banklarini qayta moliyalash me'yorlarini tartibga solish kabi iqtisodiy rag'batlantirish choralarini qo'llaniladi.

Iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash (prognozlash) orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta'sir ko'rsatadi va ular xususiy tarmoq subyektlari uchun tavsiya mazmuniga egadir. Davlat istiqbolni bashorat qilish orqali kelgusida ko'zda tutilgan vazifalar samarali amalga oshirilishning optimal variantlarini izlasa, iqtisodiy dasturlar orqali ma'lum bir tarmoq, hudud yoki ustuvor vazifalarni rivojlantirish masalalarini hal etadi.

Davlat o'zining real hokimiysi kuchidan foydalangan holda qishloq xo'jaligini ma'muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi. Erkin bozor munosabatlari rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda davlatning ma'muriy usullar yordamida tartibga solish darajasi kamayib boradi. Ammo, uning ahamiyati saqlanib qoladi. Negaki, xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash monopoliyani cheklash, qonun ustuvorligini ta'minlash, ekologik muvozanatni saqlab turish kabi muhim tadbirlarni faqatgina kuchli davlat hokimiysi va ma'muriy usullar orqaligini ta'minlash mumkin.

Shu bilan birga iqtisodiy va institutsional usullar orqali fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash ko'proq ahamiyat kasb etib boraveradi.

Davlatning qishloq xo'jaligini tartibga solish va qo'llab - quvvatlash tadbirlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan hamda ijobjiy natijalarini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lsagina o'z samarasini beradi<sup>119</sup>.

### **13.3. Agrar sektorni istiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari**

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligini yanada taraqqiy ettirishda asosiy e'tibor agrar sohada islohotlarni chuqurlashtirish, ishlab chiqarish va boshqarish jarayonlarida bozor tamoyillarini to'la qaror toptirish asosida qishloq aholisining turmush darajasini keskin oshirishga qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan agrar tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli dasturi quyidagi eng muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

2. Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mulkiy munosabatlarni va xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish borasida barcha subyektlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni bozor tamoyillari asosida

<sup>119</sup> Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti (Darslik). – T.: TDIU, 2010. –172-175 b.

amalga oshirish, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishida tomonlar mas'uliyatini oshirish.

3. Qishloq xo'jaligida yerdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish va samarali foydalanishni rag'batlantirish yo'nalishi bo'yicha tuproq unumdorligini oshirish va yerning meliorativ holatini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida barcha hududlarda qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini oshirish, unumdorligi past yer maydonlari salmog'ini kamaytirish.

4. Suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish, yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash maqsadida suv xo'jaligi tizimida moddiy va ma'naviy eskrigan irrigatsiya-melioratsiya tizimini yangilash, uning samaradorligini oshirish, yangi sug'orish texnologiyalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini joriy etish, yer maydonlari meliorativ holatini yaxshilash, drenaj tarmoqlarini qurish va ta'mirlash tadbirlarini amalga oshirish.

5. Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini viloyatlar va tumanlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish, mahsulotlar sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosilli, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga chidamlı, yangi va istiqbolli, mahsulot sifati bozor talablariga javob beruvchi navlami joylashtirish.

6. Chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish, asosan chorva mollarining naslini yaxshilash hisobidan uning mahsulordorligini oshirish. Buning uchun:

– chorvachilik tarmog'ining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

– naslchilikni tubdan yaxshilash;

– tarmoqda servis, jumladan, zooveterinariya xizmatlari ko'rsatish sifati va assortimentini oshirish;

– parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va pillachilik sohalarini rivojlantirish;

– chorva mollarida uchraydigan yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish;

– ozuqa ekinlarini joylashtirishning maqbul darajasiga erishish, bunda lalmi yerlardan chorva ozuqasi etishtirish uchun foydalanishni kengaytirish.

7. O'rmon xo'jaligini kompleks rivojlantirish borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasi nuqtai nazaridan:

– qo'riqlanadigan hududlar davlat kadastrini joriy etish;

– o'rmon xo'jaligida mevali, manzarali daraxt ko'chatlarini yetishtirishni yanada rivojlantirish dasturini ishlab chiqish;

– hududlarning ekologik holati bo'yicha geografik-axborot tizimini ishlab chiqish.

8. Qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlash tarmog'ini rivojlantirish, agrar sohaning eksport salohiyatini oshirish.

Qishloq xo'jaligi, xususan, chorva va meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik xususiy korxonalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlash, xomashyoni qayta ishlash quvvatlarini ishga tushirish.

mavjud korxonalarini modernizatsiya qilish, ho'l meva-sabzavot va tayyor mahsulot eksport qiladigan subyektlar uchun imtiyozlar tizimini ishlab chiqish.

9. Qishloq joylarda servis xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish agrar tarmoqda servis xizmatlari ko'rsatish sohasini rivojlantirish, bozorga tez moslashuvchi subyektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash.

10. Qishloq xo'jaligida moliya-kredit, soliq va sug'urta tizimini takomillashtirish:

— davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi va g'alla yetishtirishda asosan imtiyozli kreditlash orqali moliyalashtirib borish tizimini takomillashtirish;

— paxta va g'alladan tashqari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarni kreditlash mexanizmini takomillashtirish;

— qishloq xo'jaligi uchun texnika, ehtiyoj qismlar, naslli chorva mollari, urug'lik va ko'chatlar, zamonaivy texnologiya va uskunalar, dori-darmon, kimyoivy preparatlarni import qilishda soliq va bojxona imtiyozlari tizimini yana kengaytirish;

— qishloq joylarga kichik sanoatni jalb qilishda soliq imtiyozlari va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;

— mahalliy ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida protektzionizm siyosatini doimiy ravishda amalga oshirish;

— unumdonligi past bo'lgan, shuningdek, nasoslar bilan sug'oriladigan maydonlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirib borish.

11. Agrar sohada ilm-fanni rivojlantirish va ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish. Bu sohada:

— atrof-muhitga ekologik zarar keltirmaydigan texnika va texnologiya hamda xomashyo resurslarini qayta ishlashda yangi uslublar ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish;

— paxtachilik va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining istiqbolli navlari birlamchi urug'chilagini tashkil qilish tizimini takomillashtirish;

— qishloq xo'jaligining amaliy muammolarini hal etishda innovatsion loyihalardan keng foydalanish va bunda innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning bank orqali kreditlash tizimini joriy etish;

— qishloq xo'jaligida gen injeneriyasi borasida to'plangan jahon tajribasidan keng foydalangan holda, milliy tizimni yaratish;

— ekologik toza qishloq xo'jaligi mahsulotlari yaratish ustida keng qamrovli ishlar olib borish;

— xorijdan keltirilgan naslli urug'lar asosida yuqori mahsuldor mahalliy chorva mollari, parrandalar, pilla qurti zotlarini yaratish.

12. Qishloq xo'jaligida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi daromadlarini oshirish.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Dotatsiya, lizing, sug'urta, soliq imtiyozi, avans, yer solig'i, mulk solig'i, fan-texnika taraqqiyoti, cheklanganlik, narx, iqtisodiy dastaklar, bahoning funksiyalari, ishlab chiqarish xarajatlari, tannarx, xarajatlar kalkulyatsiyasi, asosiy

mahsulot, qo'shimcha mahsulot, yondosh mahsulot, import, eksport, migratsiya, qishloq xo'jaligi, qayta ishlash sanoati, saqlash korxonalar, kimyo sanoati, moddiy rag'batlantirish, kasbiy malaka, hosildorlik, mahsuldorlik, natural ko'rsatkichlar.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlashning mohiyati.
2. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solib turish va qo'llab-quvvatlashning zarurati nimada?
3. Davlatning iqtisodiy funksiyalari.
4. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy dastag va instrumentlari.
5. Dotatsiya nima?
6. Subsidiya nima?
7. Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi vazifalari nimalardan iborat?
8. Agrar siyosat nima?
9. O'zbekistonda agrar siyosatni takomillashtirish yo'llari nimalarga asoslanadi?
10. Subventsiya nima?

## **14-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTDA IQTISODIY MUVOZANAT VA MUTANOSIBLIKNING ZARURLIGI**

### **14.1. Iqtisodly muvozanat va mutanosiblik tushunchalari hamda ularning turlari**

Muvozanatli tahlil “Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot nazariyalari” fanining muhim taddiq qilish usuli hisoblanadi. Bu usul orqali makroiqtisodiy ko’rsatkichlarni, ya’ni milliy daromad, iste’mol va jamg’arma, investitsiyalar, ishsizlik va bandlik kabilarni tahlil qilishda foydalaniladi. Milliy iqtisodiyot miqyosida jamiyatning daromadlari va xarajatlari o’rtasidagi muvozanat asosiy o’rin tutib, bu yalpi taklif (yaratilgan milliy daromad) va yalpi talab (foydalanilgan milliy daromad) o’rtasidagi muvozanatning o’ziga xos namoyon bo’lishidir.

Iqtisodiyot barqaror rivojlanishi uchun uning turli tomonlari o’rtasida ma’lum muvozanat bo’lishini taqozo qiladi. Iqtisodiy muvozanat deb iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelgan holatiga aytildi. Shuning uchun ham butun iqtisodiyotning muvozanati to’g’risida gap borganda eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o’rtasidagi tenglik e’tiborga olinadi. Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatning shakllanish jarayoni, uni ta’minlash ancha murakkab va ziddiyatli. Chunki u o’z ichiga xususiy va umumiyl tavsifdagi bir qator muvozanatlar tizimini oladi.


Xususiy muvozanat – bu ikkita o’zaro bog’liq bo’lgan iqtisodiy ko’rsatkichlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi. Xususiy muvozanat ishlab chiqarish va iste’mol, aholining sotib olish layoqati va tovar taklifi masalalari, budjet daromadlari va xarajatlari, alohida tovarlarga talab va taklif o’rtasidagi muvozanat ko’rinishida namoyon bo’ladi. Bu muvozanatlar ichida Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlab o’tganlaridek: “...ichki bozorda talab bilan taklif o’rtasida mutanosiblikka erishish, ya’ni chiqarilgan pul miqdori bilan una sotib olinadigan mollar salmog‘i o’rtasida to’g’ri nisbatni ta’minlash g’oyat katta rol o’ynaydi”<sup>1</sup>. Umumiyl muvozanat jamiyat barcha ehtiyojlari va milliy ishlab chiqarish hajmining o’zaro teng kelishini bildiradi. Umumiyl iqtisodiy muvozanat bozor sharoitida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning teng kelishida ko’tinadi. Bu nafaqat iste’mol ne’matlariga, balki ishlab chiqarish vositalariga, ishchi kuchiga hamda barcha iqtisodiy faoliyat natijalariga umumiyl talab va taklifning muvofiq kelishidir.

Umumiyl iqtisodiy muvozanat bir qator shart-sharoitlarni taqozo etadi. Birinchidan, bu ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishidir. Ikkinchidan, iqtisodiy muvozanat mamlakatdagi barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo’jalik mexanizmini taqozo qiladi. Uchinchidan, muvozanatli ishlab chiqarishning umumiyl tarkibiy tuzilishi iste’molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi lozimligini bildiradi. To’rtinchidan, iqtisodiyotda muvozanatning umumiyl shart-sharoitlari bo’lib bozor muvozanati, ya’ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hokazolar)da talab va taklif muvozanatga erishishi xizmat qiladi.

<sup>1</sup> Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O’zbekiston, 1999. 384-b.

Iqtisodiy muvozanat erkin raqobat bozorida barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqozo qiladi. Real hayotda iqtisodiyot doimiy harakatda va to'xtovsiz rivojlanish holatida bo'ladi. Iqtisodiy davr fazalarida, bozor konyunkturasi, bozor subyektlari daromadlari va talabi tarkibida o'zgarishlar ro'y berib turadi.

Bularning hammasi muvozanat holatini turg'un iqtisodiyotdag'i shartli umumiy muvozanat sifatida qarab chiqishni taqozo qiladi. Shunday qilib, makrodarajada umumiyl iqtisodiy muvozanat - bu mamlakat butun iqtisodiyotning mutanosibligidir. Bu barcha sohalar, tarmoqlar, xo'jaliklarning me'yorida rivojlanishini ta'minlaydigan iqtisodiy faoliyatning barcha qatnashchilari hamda barcha bozordagi o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo qiladigan muvozanatlar tizimini o'z ichiga oladi. Iqtisod fanlari doktori O.Hamroyev iqtisodiy muvozanatning mazmuni va uning tarkibiy tuzilishini o'rganishga tizimli yondoshib, ularni quyidagi chizma ko'rinishida ifodalaydi (14.1.1-chizma)<sup>111</sup>.



#### **14.1.1-chizma. Iqtisodiy muvozanatning mazmuni va tarkibiy tuzilishi**

Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashda asosan ikkita o'zaro bog'liq usuldan foydalilanadi: 1) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli; 2) jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli.


**Yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash** uchun ishlab chiqarish umumiyl hajmining miqdoriy ko'rsatkichi sifatida sof milliy mahsulot (SMM), iqtisodiyotda yalpi sarflar sifatida iste'mol hajmi va sof investitsiya sarflarining umumiyl summasi ( $S+I_n$ ) olinadi. Mazkur modelda yalpi investitsiyalar o'rniga sof investitsiyalar ko'rsatkichidan foydalananish ishlab chiqarish umumiyl hajmini ifodalashda YAIM o'rniga SMMning qo'llanishi bilan izohlanadi.

Iqtisodiyotning muvozanatlari darajasi bu ishlab chiqarishning shunday hajmiki, u ishlab chiqarish mazkur hajmini sotib olish uchun yetarli umumiyl sarflarni

<sup>111</sup> Hamroyev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta'minlash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2004, 35-bet

ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, sof milliy mahsulot muvozanatli darajasida ishlab chiqarilgan tovarlarning umumiyligi miqdori (SMM) xarid qilingan tovarlar umumiyligi miqdoriga ( $S+I_n$ ) teng bo'ladi. To'la bandlik sharoitida yalpi sarflar SMM hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Bu mos kelmaslik chizmada retsession yoki inflayatsion farq ko'rinishida ifodalangan. Yalpi sarflarning SMM hajmidan kam bo'lgan miqdori **retsession farq**, yalpi sarflarning SMM hajmidan ortiqcha bo'lgan miqdori **inflayatsion farq** deyiladi.

**Jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usulining mohiyati** shundaki, ishlab chiqarilgan mahsulotning har qanday hajmi shunga mos daromad hajmini beradi. Biroq aholi bu daromadning bir qismini iste'mol qilmasdan jamg'armaga qo'yishi mumkin. Jamg'arma "sarflar — daromadlar" oqimidan potensial sarflarni olib qo'yish hisoblanadi. Bunda jamg'armaga qo'yilgan mablag' investitsiyalar bilan to'liq qoplansa, yalpi sarflar ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi (14.1.2-chizma).



#### 14.1.2-chizma. Iqtisodiy muvozanat darajasini aniqlashning jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli

Investitsion sarflarning ko'payishi ishlab chiqarish hajmi va daromad darajasining o'sishiga olib keladi. Bu o'zaro natija **multiplikator samarasini** bilan izohlanadi. Multiplikator tushunchasi "ko'paytiruvchi" degan ma'noni anglatadi. Multiplikator samarasining mohiyati investitsiya hajmining o'sishi jamiyat milliy daromadining unga nisbatan ko'proq o'sishiga olib kelishi orqali ifodalananadi.

**Multiplikator samarasini** — bu sof milliy mahsulot o'zgarishining investitsiya sarflaridagi o'zgarishga nisbati:

$$\text{Multiplikator samarasini} = \frac{\text{Real sof milliy mahsulot o'zgarishi}}{\text{Investitsiya sarflaridagi o'zgarish}}.$$

Yoki, **multiplikator koeffitsientini** quyidagicha ifodalash ham mumkin:

$$k = \frac{1}{1 - MPC} = \frac{1}{MPS}.$$

Bundan kelib chiqqan holda:

## *Real CMMdagi o'zgarish = multiplikator koeffitsiyenti × investitsiyalar – dagi o'zgarish.*

Investitsion sarflardagi o'zgarishdan tashqari iste'mol, davlat xaridi yoki eksportdagagi o'zgarishlar ham multiplikator samarasiga ta'sir ko'rsatadi.

Multiplikator samarasini ikkita holatga asoslanadi. Birinchidan, iqtisodiyotda bir subyekt tomonidan qilingan sarf, boshqasi tomonidan daromad shaklida olinadi. Ikkinchidan, daromaddagi har qanday o'zgarish iste'mol va jamg'armada xuddi shunday yo'nalishda o'zgarish bo'lishiga olib keladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jamg'arma va investitsiya darajasi ham o'ziga xos chegaralarga ega bo'lib, bu borada klassik va keynscha qarashlar tafovutlanadi. Klassik nazariya qarashlariga ko'ra, jamg'arma investitsiya manbai bo'lib, jamg'armaga nisbatan moyillikning yuqori darajasi muqarrar ravishda iqtisodiyotning yuksalishiga olib keladi.

Keynscha nazariya esa klassik talqinka qarshi chiqib, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bu jarayon o'zgacha kechishi ta'kidlanadi. Chunki, rivojlangan mamlakatlarda jamg'armaga bo'lgan intilish investitsiyalashga bo'lgan intilishdan jadalroq borib, u quyidagi sabablar bilan izohlanadi: Birinchidan, yuqori foyda keltiruvchi kapital qo'yilmalarning muqobil imkoniyatlari qisqarib boradi. Natijada kapital jamg'arishning o'sishi bilan uning amal qilishining keyingi qo'shilgan samaradorligi pasayib boradi. Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlarda daromadlarning o'sishi bilan jamg'armaning ulushi oshib boradi. Shunga ko'ra, jamg'arma hajmi investitsiya sarflari hajmidan oshib ketsa, jamg'arma egalari muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'ladi. Bu holatni iqtisodiy adabiyotlarda "tejamkorlik paradoksi" tushunchasi orqali izohlanadi.

Bu paradoksning mohiyati shundan iboratki, investitsiyalar nazariy jihatdan avtonom va hosilaviy investitsiyalarga ajratilib, avtonom investitsiyalar milliy daromad hajmi va uning o'zgarishiga bog'liq bo'limsa, hosilaviy investitsiyalar milliy daromadning o'zgarishiga ham bog'liq bo'ladi. Aynan avtonom investitsiyalarga qo'shimcha ravishda o'sib boruvchi hosilaviy investitsiyalar iqtisodiy o'sishni kuchaytirishi, uni jadallashtirishi natijasida **akselerator samarasini ro'y beradi** ("akselerator" tushunchasi jadallashtiruvchi degan ma'noni anglatadi).

Iqtisodiy muvozanatlik darajasini aniqlashda yuqoridagi usullardan tashqari balans usulidan va xarajat va natijalarni taqqoslash usulidan ham foydalilanadi. Balans usulida tarmoqlararo balans, moddiy, moliyaviy va ishchi kuchi balanslaridan foydalananilib iqtisodiyotdagi muvozanatlik darajasiga baho beriladi. "Xarajat va natija"larni taqqoslash usulida ishlab chiqarishga qilingan iqtisodiy resurs xarajatlari miqdori bilan olingan mahsulot hajmini taqqoslash orqali muvozanat darajasi tahlil qilinadi. Milliy iqtisodiyotdagi muvozanatlik uning turli tomonlari va sohalari o'rasisida mutanosiblik bo'lishini taqozo qiladi. Iqtisodiy mutanosiblik tushunchasining mazmuni va mohiyatini bilish faqatgina ilmiy-nazariy ahamiyatiga ega bo'libgina qolmay, shu bilan bir qatorda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishda katta amaliy ahamiyat kasb etib, uni mensimaslik yoki e'tiborga olmaslik pirovardida jiddiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi, iqtisodiy resurslardan, yalpi ichki mahsulotdan foydalanishda katta isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi mumkin. Tovarlar hajmi bilan amalda harakat qilayotgan pul massasi (naqd)

va kredit pullar) o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi, tovarlar hajmi e'tiborga olinmasdan naqd pul va ko'plab turli xil to'lov vositalari, qimmatli qog'ozlarning muomalaga chiqarilishi jahon moliyaviy va iqtisodiy inqirozini keltirib chiqargani, bundan esa butun jahon iqtisodiyoti zarar ko'rib kelayotganligi kabi ko'pgina misollar fikrimiz dalilidir. Iqtisodiy mutanosiblik alohida iqtisodiy kategoriya bo'lib, u o'z tabiatni, kelib chiqish sabablari, ichki rivojlanish qonuniyatlarini va namoyon bo'lish shakllariga egadir. Mutanosiblikning bu jihatlarini va samarali iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini bilish uchun eng avvalo uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmunini chuquroq o'rganish taqozo etiladi. Bugungi kundagi mavjud darsliklar, o'quv qo'llanma va boshqa adabiyotlarning aksariyat qismida iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni, amal qilish shart-sharoitlari va xususiyatlari to'g'risidagi ilmiy hulosalar va ma'lumotlar bayon etilmagan. Bir qator adabiyotlarda bozor muvozanati va makroiqtisodiy muvozanat to'g'risida fikr yuritsada, ularni ta'minlashning muhim sharti va tarkibiy qismi hisoblangan iqtisodiy mutanosiblik nazardan chetda qolgan<sup>112</sup>.

Iqtisodiyotni mutanosibli yuritishning asosiy negizi turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojni, ya'ni talabni o'rganishdan boshlanadi. Aholining qaysi turdag'i tovar va xizmatlarga qanday sifatda va qancha miqdorda talabi borligi, bu turli talablarning o'zaro nisbatli aniqlansa, ushbu talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish tarkibi, hajmi va ularni yaratish uchun qancha miqdorda ishchi kuchi va boshqa iqtisodiy resurslar kerakligi va bu resurslar o'rtasidagi nisbatlar aniqlanadi. Shunday qilib, iqtisodiy mutanosiblik bir tomonidan turli talab miqdorlari va sifatlarini aniqlab, ular o'rtasidagi ma'lum nisbatlar bo'lishini, bu nisbatlar orqali ular o'rtasida o'zaro aloqadorlik mavjudligini, ikkinchi tomonidan esa shu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi sohalar, tarmoqlar o'rtasida, shuningdek ularni yaratishda ishtirok etuvchi turli omillar o'rtasida ham ma'lum nisbatlar bo'lib, ular bir-biri bilan aloqada va o'zaro ta'sirda bo'lishini ifodalaydi. Masalaning eng muhim tomoni mana shu talab turlari o'rtasidagi nisbatlar bilan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning turlari va ularni yaratishda qatnashuvchi iqtisodiy resurslarning turlari o'rtasidagi nisbatlar ma'lum darajada bir-biriga bog'liqlikda va muvosiflikda, ya'ni moslikda bo'lishi zarurdir. Bu jarayon juda murakkab va o'zgaruvchan jarayondir. Shunga ko'ra, iqtisodiy mutanosiblikning alohida, mustaqil, doimo o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladigan ilmiy kategoriya sifatidagi mazmuni va xususiyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvosif hisoblanadi.

Makroiqtisodiy jarayon g'oyat murakkab va ko'p qirrali bo'lishi sababli mutanosiblik turlari ham ko'p va xilma-xil. Jumladan, professor A.G. Gryaznova va boshqalar iqtisodiyotda muvozanatga erishishni ta'minlovchi beshta asosiy

<sup>112</sup> Куликов Л.М. Экономическая теория: учеб. - М. : ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. - 432стр.; Борисов Э.Ф. Экономическая теория: учеб. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. - 544стр.; Иохин В.Ю. Экономическая теория: Учебник /В.Я. Иохин. - М.: Экономист', 2005.- 861 стр.; Экономика: Учебник. 3-е изд., перераб. и доп. /Под ред. д-ра экон. наук проф. А.С. Булатова. - М.: Экономист', 2005. - 896 с.; Экономическая теория: Учебник для студентов высших учебных заведений //Колл-авт.: К.Абдурахмонов и др. - Т.: Шарк, 1996.-640 стр.; Экономическая теория: Учеб. для студ. высш. учеб. заведений /Под ред. В.Д. Камаева. - 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС, 2004. - 592 стр.; Экономическая теория: Учебник. - Изд. испр. и доп. /Под общ.ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добринина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. - М.: ИНФРА-М, 2005. - 672 стр. va boshqa.

mutanosiblikni ajratib ko'rsatadilar: resurslarning hajmi, tarkibiy tuzilishi va samaradorligini moddiy ne'matlar va xizmatlar ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasi bilan bog'lovchi omillar (ishlab chiqarish, mehnat, moliyaviy resurslar) **mutanosibligi**; jamg'arish me'yorini, ya'ni ishlab chiqarishning ma'lum hajmiga erishish uchun uni kengaytirishga yo'naltiriluvchi mamlakat milliy daromadidagi ulushni belgilovchi **jamg'arish mutanosibligi**; ishlab chiqarish faoliyatidan olingan daromadlarni ishlab chiqarish omillarining barcha egalari o'rtaida taqsimlanishi nisbatini belgilab beruvchi **taqsimot mutanosibligi**; iste'molchi talabi va taklifning hajmi, tarkibiy tuzilishi va qiymati bo'yicha nisbatini belgilab beruvchi **ayrboshlash (sotish) mutanosibligi**; tovar va pul massasi o'rtafigi nisbatni aks ettiruvchi **tovar-pul mutanosibligi**<sup>113</sup>. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, iqtisodiy mutanosiblikning mazmunini ifodalash borasida mutaxassis va olimlar tomonidan bir necha yondashuvlar amalga oshirilgan (14.1.1-jadval).

#### 14.1.1-jadval

#### Mutanosiblikning iqtisodiy mazmunini talqin qilish borasidagi asosiy yondashuvlar<sup>114</sup>

Yondashuv	Mutanosiblik iqtisodiy mazmunining talqini	Ustun jihatni	Kamchiliklari
Birinchi yondashuv	Ijtimoiy mehnaming ijtimoiy ehtiyojga mos ravishda tarmoqlar va sohalar bo'yicha taqsimlanishi	Mutanosiblik yaxlit ishlab chiqarish va uning tarkibiy qismalarning o'zaro samarali, uzviy bog'liqlikda amal qilishi va rivojlanishining o'chov birligi sisifatida namoyon bo'ladi	Mutanosiblikka xos bo'lgan ichki ziddiyatlar o'z ifodasini topmagan va inkor qilingan
Jkkinchchi yondashuv	Ishlab chiqarish munosabatlari tizimining tarkibiy qismalari o'rtafigi midqdoriy bog'liqlik va ushbu tizimning maqsadini ro'yoba chiqarishning ta'minlovchi vositasini	Mutanosiblik tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini aniqlab, uning ishlab chiqarish munosabatlari tizimidagi boshqa tarkibiy qismalari bilan aloqadorligini tahlil qiladi	Tadqiqot sohasi faqat ishlab chiqarish munosabatlari tizimining tarkibi bilan cheklanib qolgan
Uchinchchi yondashuv	Turli iqtisodiy qonun va jarayonlar (masalan, vagoni tejash qonuni, ishlab chiqarish samaradorligi, iqtisodiy resurslardan oqilonla foydalishni va boshqalar) ning amalga oshish sharti	Mutanosiblikning turli iqtisodiy hodisa va jarayonlar bilan o'zaro aloqasi va bog'liqligi ochib beriladi, uning serqirra va mazmunan kengligi asoslanadi	Mutanosiblik xususiyatlari ayrim asosiy iqtisodiy qonun va jarayonlarga tabitqan o'rganilib, iqtisodiyoning boshqa jabhalari nazardan chetda qolgan
To'rtinchchi yondashuv	Iqtisodiy jarayon va hodisalarning tarublashgan nisbati, ular o'rtafigi muvozanatlikni ta'minlovchi va o'zaro aloqani ifodalovchi vosita	Mutanosiblikning asosiy xususiyati bo'lgan jo'shqinlikka, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabalarining o'zaro aloqadorligiga e'tibor qaratiladi	Mutanosiblikning umumiy tafsifini kengaytirgan holda o'zgaruvchanligi va uning negizida yotgan ziddiyatlar tahlilini qamrab ololmagan
Beshinchchi yondashuv	Inson faoliyatining butun sohalarini (moddiy va nomoddiy) qamrab oluvchi umumiqtisodiy va umuminsoniy kategoriya	Mutanosiblikning umumfalsafiy, tizimlik jihatni va ijtimoiy ishlab chiqarishda namoyon bo'lish shakllarining ochib berilishi	Tadqiqotlar asosan falsafiy-ijtimoiy tafsifiga ega bo'lib, iqtisodiy jihatlarga e'tibor qaratilmagan

14.1.1-jadvalda ko'rsatilgan yondashuvlarning ma'lum darajadagi ijobjiy ahamiyati bilan bir qatorda kamchilik jihatlari ham ko'zga tashlanadi. Birinchidan, bu yondashuvlarda mutanosiblikka xos bo'lgan ichki ziddiyatlar o'z ifodasini topmagan

<sup>113</sup> Экономическая теория: Учебник / Под ред. А.Г.Гризновой, Т.В.Чечелевой. – М.: Издательство «Экзамен», 2004, 415-6.

<sup>114</sup> Hamroev O.H. Iqtisodiy muvozanatlikning nazariy asoslari va uni ta'minlash mexanizmlari. – I.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss – T. 2004 88-91- b.

va inkor qilingan. Ikkinchidan, tadqiqot sohasi faqat ishlab chiqarish munosabatlari tizimining tarkibi bilan cheklanib qolgan. Uchinchidan, mutanosiblik xususiyatlari ayrim asosiy iqtisodiy qonun va jarayonlarga tatbiqan o'rganilib, iqtisodiyotning boshqa jahbalarini nazardan chetda qolgan. To'rtinchidan, ba'zi yondashuvlar falsafiy-ijtimoiy tafsifga ega bo'lib, ularda iqtisodiy jihatlarga e'tibor qaratilmagan. Tadqiqotchi A.O.'rinov mavjud tan olingen (umumiqtisodiy, tarmoqlararo, tarmoq ichidagi, hududiy, davlatlararo) mutanosibliklar bilan bir qatorda ishlab chiqarish ichidagi mutanosibliklarni ham alohida ta'kidlab o'tadi. Ushbu turkumdag'i mutanosibliklar korxonalarda qo'llanilayotgan yer, kapital bilan ishchi kuchi, iqtisodiy resurslar, ishlab chiqarish vositalari, ya'ni texnika, texnologiya bilan xomashyo, asosiy va aylanma kapitallar o'rtasidagi mutanosibliklarni ifodalaydi<sup>115</sup>. Bugungi kunda ayrim iqtisodiy adabiyotlarda mutanosiblikning turli ko'rinishlariga e'tibor berilib, ular umumiqtisodiy, tarmoqlararo, tarmoq ichidagi, hududiy mutanosibliklar kabi guruhlarga ajratiladi. Ushbu mutanosibliklarning turlari, ularning qisqacha mazmuni va aniq namoyon bo'lish shakllarini yuqoridagi jadval orqali ifodalash mumkin ekanligi tadqiqotchi E.Sh. Shodmonov tomonidan batafsil o'rganilgan (14.1.2-jadval).

#### 14.1.2-jadval

#### Mutanosiblikning turlari, qisqacha mazmuni va aniq namoyon bo'lish shakllari<sup>116</sup>

Mutanosiblik turlari	Qisqacha mazmuni	Aniq namoyon bo'lish shakllari
Umumiqtisodiy mutanosibliklar	Umumiqtisodiy tafsiddagi hodisa va jarayonlar, ularning turli tonomalar o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'rtasidagi mutanosiblik; 2) iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi mutanosibliklar; 3) oholining daromadlari bilan xarajatlar o'rtasidagi mutanosibliklar va h.k.
Tarmoqlararo mutanosibliklar	Iqtisodiyoming turli tarmoq va sohalari o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 2) sanoat va qurtish tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 3) qishloq xo'jaligi va transport tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 4) sanoat va xizmat ko'sratish tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik va h.k.
Tarmoq ichidagi mutanosibliklar	Iqtisodiyoming turli tarmoq va sohalarini tashkil etuvchi tarkibiy qism va bo'limnalar o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) sanoating undirma va qayta ishlash tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 2) qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachiliik tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik; 3) chorvachiliikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi mutanosiblik va h.k.
Ishlab chiqarish ichidagi mutanosibliklar	Ishlab chiqariladigan mahsulotga sarflanadigan omillarning tashkil etuvchi tarkibiy qismlar o'rnasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) ishchi kuchi va ishlab chiqarish vositalari o'rtasidagi mutanosiblik; 2) mahsulotni yaratish uchun zarur bo'lgan turli qismlari o'rtasidagi mutanosiblik va h.k
Hududiy (territorial) mutanosibliklar	Milli iqtisodiyoning turli hududlari o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) hududlararo kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonlarining turli fazaralining uzluksizligini ta'minlovchi nisbatlar; 2) ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining me'yorda amalga oshishini ta'minlovchi soha va tarmoqlarning mamlakat hududlari bo'yicha rivojlanganlik nisbati; 3) hududlarda tashkil etilgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlari miqdori o'rtasidagi nisbat.
Mamlakatlararo mutanosibliklar	Jahonning turli davlatlari o'rtasida taqozo etiluvchi ma'lum nisbatlardagi moslik	1) davlatlararo jahon hamjamiyatida turgan iqtisodiy o'mi va rolini namoyon etuvchi nisbatlar; 2) davlatlarining xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtiroki; 3) eksport va import hajmi jihatidan davlatlar o'rtasidagi nisbat va h.k

<sup>115</sup> O'rinov A.A. Mutanosiblik – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'mirlashning muhim omili – I f'n ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss – T., 2006 - b

<sup>116</sup> Shodmonov E.Sh. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyomi muvozanatlari va mutanosibli rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari: I f'd ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2011. 67-b

Mualliflar tomonidan amalga oshirilgan turli yondashuvlar hamda iqtisodiy mutanosiblikning yuqorida ko'rib chiqilgan asosiy turlarini umumlashtirgan holda uning mazmuni bo'yicha quyidagi ta'rifni shakllantirish mumkin.

**Iqtisodiy mutanosiblik** – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'tasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishi shart emas. Bunda tenglik bo'lishi shart emas. Ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 2:3, 5:3, 3:1) bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy mutanosibliklarni bu kabi turli ko'rinishdagi turkumlashlar boshqa manbalarda ham ko'plab uchraydi. Shunga ko'ra, ularning barchasini umumlashtirib mutanosiblikning quyidagi guruhlari tarkibiga kiritish mumkin.

**1. Umumiqtisodiy tavsifdag'i mutanosibliklar.** Bunga milliy daromaddagi tarkibiy qismlar: iste'mol fondi va jamg'arish fondi o'tasidagi; iqtisodiyotdagi tovar va xizmatlar massasi bilan pul massasi o'tasidagi; aholining daromadlari bilan xarajatlar o'tasidagi mutanosibliklarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

**2. Tarmoqlararo mutanosibliklar.** Milliy iqtisodiyotning muvozanatini ta'minlashda tarmoqlararo mutanosibliklar alohida o'rinn tutadi. Mamlakat xalq xo'jaligi juda ko'p tarmoq va sohalardan iborat bo'lib, ularning rivojlanishi bir-birini taqozo qiladi. Bir tarmoqda yaratilgan mahsulot boshqa tarmoqda iste'mol qilinadi yoki pirovard mahsulotga aylantirilib, o'z iste'molchisini topadi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlarning ko'pchilik qismi (paxta, g'alla, pilla, sut va h.k.) sanoatning tegishli tarmoqlarida qayta ishlanib, pirovard mahsulotga aylantiriladi va iste'molchilik tovarlari bozoriga chiqariladi. O'z navbatida sanoatning ishlab chiqarish vositalari yaratadigan sohalarning mahsulotlari xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari (qishloq xo'jaligi, qurilish va h.k.)da unumli iste'mol qilinadi. Bu ularning bir-biriga bog'liqlikda rivojlanishini taqozo qiladi. Tarmoqlararo mutanosibliklarga sanoat bilan qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari o'tasidagi mutanosibliklar misol bo'ladi.

**3. Tarmoq ichidagi mutanosibliklar.** Tarmoqlararo mutanosiblik va milliy ishlab chiqarish darajasidagi muvozanatlilik tarmoqlar ichidagi mutanosiblik orqali ta'minlanadi. Tarmoqlar ichidagi mutanosiblik alohida olingen tarmoq tarkibidagi soha va ishlab chiqarishlar o'tasidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Masalan, sanoatning ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan sohalari, qishloq xo'jaligining dehqonchilik va chorvachilik sohalari o'tasidagi mutanosibliklar va h.k. Shu bilan birga ta'kidlab o'tilgan sohalarning ichidagi tarkibiy bo'linmalar o'tasida ham bog'liqlik bo'lishi zarur. Masalan, sanoatning qazib olish va qayta ishslash tarmoqlari, chorvachilikning sut va go'sht ishlab chiqarish sohalari o'tasida va boshqalar

**4. Hududiy (territorial) mutanosibliklar.** Iqtisodiy rivojlanish mamlakat ayrim hududlari o'tasidagi bog'liqlikni ham taqozo qiladi. Yuzaki qaraganda hududlar o'tasidagi mutanosibliklarning mamlakat iqtisodiy rivojidagi roli to'liq namoyon bo'lmaydi. Lekin alohida hududiy bo'linmalar (viloyat, tuman, shahar va boshqa hududiy birliliklar)ning bir-biriga iqtisodiy va tashkiliy jihatdan bog'liqligi, ixtisoslashish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va kommunikatsiya nuqtai-nazaridan qaralsa, bu bog'liqlikning ahamiyati yaqqol ko'rinaldi.

**5. Davlatlararo mutanosibliklar.** Bu mutanosiblikni ikki holat taqozo qiladi. Birinchidan, dunyoning ko'pchilik mamlakatlari xalqaro mehnat taqsimoti orqali bir-biri bilan bog'langan, ikkinchidan, shu bog'liqlik orqali milliy ishlab chiqarishning bir qismi chet elliqlari tomonidan xarid qilinadi yoki milliy ishlab chiqaruvchilar o'z iste'molining bir qismini chetdan keltirilgan mahsulotlar hisobiga qondiradi.

Qarab chiqilgan mutanosibliklarga erishish orqali milliy ishlab chiqarishning muvozanatlari rivojini ta'minlab borishdan quyidagilar ko'zda tutiladi:

- mamlakatda mayjud bo'lgan iqtisodiy resurslardan samarali foydalangan holda jamiyatning ehtiyojlarini to'laroq qondirib borish;

- to'la bandlilikka erishish, ya'ni mehnat qilishga layoqatli bo'lgan va ishlashni xohlaganlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash;

- narx-navoning nisbiy barqarorligiga erishish va uni inflyatsiya ta'siridan xoli qilish;

- iqtisodiyotning bir maromda o'sib borishini yetarli darajada investitsiya bilan ta'minlash va muomaladagi pul massasiga bog'lab borish.

Bu maqsadlar faqatgina ularga intilish bo'lib, bunga erishish muqarrar ekanligini bildirmaydi. Chunki mutlaq muvozanatga erishish mumkin emas, u buzilib va qaytadan tiklanib turishi orqali iqtisodiy o'sish notejis boradi.

Iqtisodiy adabiyotlar tahlili va amaliy tadqiqotlar iqtisodiy mutanosiblikning mazmuni uning ko'plab belgilari orqali namoyon bo'lishini ko'rsatdi (14.1.3-rasm).



#### 14.1.3-rasm. Iqtisodiy mutanosiblikning asosiy belgilari<sup>117</sup>

Iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi ekanligi. Mutanosiblikning ilmiy kategoriya sifatidagi mazmunini tadqiq etishda eng avvalo unga iqtisodiy

<sup>117</sup> Shodmonov E.Sh. Mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida iqtisodiyotni muvozanatlari va mutanosibli rivojlantirishning asosiy yo'naliishlari: Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2011, 67-b.

munosabatlarning o'ziga xos ko'rinishi jihatidan yondashish zarur. Chunki, iqtisodiy mutanosiblik kishilar o'rtasida sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni, ya'ni munosabatlarni namoyon etadi. U kishilik jamiyatidan tashqarida mavjud emas. Shunday ekan, mutanosiblikning muhim belgisi – jamiyat a'zolari o'rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning turli tomonlarini ma'lum nisbatlardagi o'zaro muvofiqligini namoyon etuvchi munosabatlardir.

Yuqoridaagi fikr-mulohazalardan ko'rindiki, iqtisodiy mutanosibliklar obyektiv tavsiif kasb etib, takror ishlab chiqarishning barcha fazalari, ya'ni ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol jarayonlari uchun xosdir. Iqtisodiy mutanosibliklarning paydo bo'lishini insonning dastlabki iqtisodiy faoliyatining yuzaga kelishi bilan bog'lash mumkin. Biroq, ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan iqtisodiy mutanosiblik turlari ko'payib, zarurligi oshib, ko'rinishlari takomillashib boradi.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy tizimining rivojlanishi eng avvalo ishlab chiqarish munosabatlari va ustqurmaning ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanish darajasiga mos holda takomillashib borishi orqali ro'y beradi. Buning natijasida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada o'sadi. Agar ular o'rtasidagi moslik buzilsa, ishlab chiqarish munosabatlarini o'zgartirish zaruriyati paydo bo'ladi. Ushbu holatlar, o'z navbatida, jamiyatdagi mavjud iqtisodiy mutanosibliklarning mazmuni va tarkibiga, ular o'rtasidagi nisbatlarga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan past rivojlangan jamiyatdagи ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlari o'rtasidagi nisbat yuqori rivojlangan jamiyatdagи nisbat bilan farqlanadi. Shuningdek, kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida jamg'arish jarayonining salmog'i juda past darajada bo'lishi, ba'zida esa mazkur jarayon umuman amalga oshirilmasligi ham mumkin.

Iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida amal qilishi. Iqtisodiy mutanosiblik faqat kishilik jamiyati hayotiga, uni amal qilishining moddiy asosi bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimga xosdir. To'g'ri, tabiatda ham mutanosibliklar mavjud. Masalan, Quyosh tizimidagi sayyoralar va boshqa samoviy jismlar vazni, tortish kuchi va harakat yo'nalishlari o'rtasidagi mutanosiblik; yer sharidagi quruqlik va suv hajmi o'rtasidagi mutanosiblik; yil fasllarining havo haroratlari, namgarchilik va boshqa belgilari bo'yicha mutanosibligi va h.k. Biroq, bu mutanosibliklar insonga nisbatan obyektiv, barqarordir. Bu mutanosibliklar hali insoniyat shakllanmagan davra ham mavjud bo'lган va uning xohish-irodasidan tashqarida amal qiladi. Iqtisodiy mutanosibliklar esa insonning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, shu jihatdan tabiatdagи mutanosibliklardan farq qiladi. Shu o'rinda, insonning o'zi ham tabiatning bir bo'lagi sifatida muayyan mutanosibliklarning shakllanishi va amal qilishida ishtirok etadi.

Iqtisodiyot o'ta murakkab, serqirra va turli jihatlarni qamrab oluvchi o'ziga xos tizimdir. Iqtisodiyotning samarali amal qilishi va rivojlanishi mana shu tizim tarkibiy qismalarining o'zaro uyg'unlik va muvofiqlikdagi harakatiga bog'liq. Bundan ko'rindiki, iqtisodiy mutanosiblik iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida amal qilib, ularning maqsadiga muvofiq harakatini tartibga soladi.

Hodisa va jarayonlarning miqdor va sifat jihatlarini qamrab olishi. Ko'p hollarda mutanosiblik hodisa va jarayonlarning turli tomonlari o'rtasidagi muayyan nisbatlardagi muvofiqlik sifatida qaraladi. Biroq, bu nisbatlar aniq holatlarda nimalar orqali namoyon bo'lishi mavhumligicha qoladi. Ayrim mutaxassislar ushbu nisbatlarning iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasidagi faqat miqdor jihatdan mosligini namoyon etishini ta'kidlaydilar. Bu esa, fikrimizcha, masalaga bir tomonlama yondashuv hisoblanadi. Chunki, mutanosiblikda nisbatlarning sifat jihatlari ham muhim o'rinn tutadi. Bu borada "Iqtisodiy mutanosiblik – iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasida miqdor va sifat jihatdan ma'lum moslik bo'lishidir"<sup>114</sup> degan ta'rifning o'rini ekanligini ta'kidlash joizdir.

Biroq, iqtisodiyotning turli tomonlari va sohalari o'rtasidagi moslikni aniqlashda sifat mezonlaridan foydalanish murakkab jarayon hisoblanadi. Miqdor mezonlari nisbatan aniq, yaqqol namoyon bo'luvchi va baholashga qulay bo'lsa, sifat mezonlari, aksincha, bir oz mavhumlik kasb etadi. Masalan, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi mutanosiblikni baholashda bu ikki jarayonni mahsulot va xizmatlarning qiymati, natural hajmi kabi miqdoriy o'chamlari bo'yicha taqqoslash mumkin. Biroq haqiqiy mutanosiblikka erishish uchun, ishlab chiqarish tarkibining iste'mol tarkibiga muvofiqligi kabi sifat jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Ma'lum bir jarayonning turli tomonlari o'rtasidagi tenglik bo'lishining shart emasligi, ular mos keluvchi nisbatlarda bo'lishi mumkinligi. Biz oldingi bobda iqtisodiy muvozanat to'g'risida so'z yuritganda uning iqtisodiy hodisa va jarayonlar o'rtasidagi tenglikni taqozo etishini ta'kidlab o'tgan edik. Muvozanatlidan farqli o'laroq, iqtisodiy mutanosiblikda tomonlar o'rtasidagi tenglik shart bo'lmay, balki ushbu tomonlarning mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ma'lum nisbatlardagi moslik kifoya qiladi. Ko'plab mutaxassislar tomonidan ham iqtisodiy mutanosiblik sharoitida tenglikning shart emasligi, ular mos keluvchi nisbatlarda (masalan, 2:3, 5:3, 3:1) bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Shu o'rinda qayd etish lozimki, real hayotda iqtisodiy mutanosiblik taqozo etiluvchi tomonlar o'rtasida tenglik holatlari ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, rivojlanayotgan iqtisodiyotda milliy daromadning ma'lum bir qismi iste'mol qilinib, qolgan qismi jamg'arish orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarishga sharoit yaratishi ko'zda tutiladi. Biroq, iqtisodiy tanazzul sharoitida milliy daromad hajmining pasayib ketishi uning barcha qismini iste'mol qilinishiga, ya'ni milliy daromad va iste'mol hajmining tengligiga olib kelishi mumkin. Albatta, bunday holatlар iqtisodiy mutanosiblik shartlarining buzilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Umuman iqtisodiyotni, shu jumladan, undagi iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tartibga solishga yo'naltirilganligi. Iqtisodiy mutanosibliklar iqtisodiyotni tartibga solish xususiyatiga ega. Bunda ular iqtisodiyotning turli tomonlarini o'zarob bog'lovchi, oqilona harakatini ta'minlovchi me'yoriy talablar sifatida paydo bo'ladi. Mazkur me'yoriy talablar har bir iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, rivojlanganlik va erkinlik darajasiga ko'ra farqlanishi mumkin. Ularga amal qilmaslik iqtisodiy

<sup>114</sup> Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti. 2010. 477-b.

nomutanosibliklar, ya'ni uning turli tomonlarining muvosiq kelmasligi natijasida barqraror va izchil, bir maromda rivojlanishning izdan chiqishiga olib keladi.

Turli omillar ta'sirida o'zgaruvchanligi. Iqtisodiy mutanosiblik ijtimoiy xo'jalikning turli tomonlarini qamrab olar ekan, ayni paytda uning tarkib topishi va amal qilishi ham ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi. Biz mutanosibliklarning alohida turlari bo'yicha ularga ta'sir qiluvchi omillarni oldindan aniqlab, ular maqsadga muvosiq namoyon bo'ladi. Biroq, iqtisodiy hayotning turliligi, undagi voqeа va hodisalarining o'zgaruvchanligi mazkur mutanosiblik jarayonlarga turli omillarning ta'sirini ham keltirib chiqaradi.

Bu esa iqtisodiy mutanosibliklarning uzoq vaqt davomida bir xil bo'lib tura olmasligi, o'zgaruvchanlik xususiyatga ega ekanligini bildiradi. Masalan, bugungi kunda sanoat va qishloq xo'jaligi o'tasida 2:1 nisbat bo'lsa, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan u 3:1, 4:1 nisbatlarda bo'lishi mumkin. Ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi bilan iqtisodiyotning boshqa sohalari va tarmoqlari o'tasida ham shunday o'zgarish bo'lishi mumkin.

Buzilgan nisbatlarning o'z-o'zidan qayta tiklanishga intilishi. Mutanosibliklar iqtisodiyotdagi o'zgarishlar va tasodifiy omillar ta'sirida o'zgarib, bazan buzilib, izdan chiqib turar ekan, ayni paytda ularning tabiatida mustaqil (avtomatik) ravishda qayta tiklanishga intilish ham mavjud bo'ladi. Chunki, mutanosibliklarning buzilishi, ularning turi va darajasidan kelib chiqqan holda, turli iqtisodiy subyektlar manfaati muvozanatining buzilishiga olib keladi. Bu esa, umu-miy holda, iqtisodiy subyektlar tomonidan olinayotgan naflilik darajasining pasayishi orqali namoyon bo'ladi.

Naflilik darajasini oshirishga intilish ko'plab iqtisodiy dastaklar (bozor, talab va taklif, narx, raqobat va boshqa mexanizmlar) orqali mutanosiblikni qayta tiklashga tomon undaydi. Shunga ko'ra, mutanosiblikning amal qilishini ham "mutanosiblikning vujudga kelishi - mutanosiblikning buzilishi - mutanosiblikning qayta tik-lanishi" sxemasi orqali ifodalash mumkin. Biroq, mutanosibliklarning o'z-o'zidan qayta tiklanish xususiyatini ro'yobga chiqarishi uchun iqtisodiyotda ma'lum shart-sharoitlar, jumladan, sog'lom iqtisodiy muhit, iqtisodiy erkinlik, ijobiy tarkibiy o'zgarishlar, fan-teknika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanish va boshqa imkoniyatlar mavjud bo'lishi lozim.

Turli xususiyatlarga ko'ra farqlanuvchi muayyan tizimga egaligi. Iqtisodiy mutanosibliklarning mazmun-mohiyatini chuqurroq bayon etish maqsadida ularning turli ko'rinishlari bo'yicha turkumlash maqsadga muvosiqidir. Bunday turkumlash shunchaki rasmiy tavsif kasb etmay, balki mutanosibliklarning iqtisodiy hodisa va jarayonlardagi rolini ochib berish hamda tahlil qilishda maqsadga muvosiq yondashish imkonini beradi.

Iqtisodiy mutanosiblikning mazmunini tadqiq qilish natijasida uni ta'minlashning obyektiv zarur degan xulosaga keldik. Chunki, Iqtisodiy mutanosiblikning obyektiv zarurligi uning vazifalari orqali yanada kengroq namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, iqtisodiy mutanosiblikning ilmiy kategoriya sifatidagi mazmunini ochib berish uning vazifalarini ajratib ko'rsatishni ham taqozo etadi. Iqtisodiy

mutanosiblikning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish orqali uning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- iqtisodiy o'sish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning bir maromda, barqaror ravishda borishi uchun asos yaratish;
- ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash;
- iqtisodiy resurslarning davlatlar, milliy iqtisodiyot tarmoq va sohalari, hududlari va boshqa tarkibiy qismlari bo'yicha oqilona va samarali taqsimlanishiga imkon yaratish;
- jamiyatdagi yalpi ijtimoiy mehnatni ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalari o'tasida oqilona taqsimlash va h.k.

Iqtisodiy mutanosibliklarning ushbu vazifalarini aniq va izchil ravishda bajarilishi o'z navbatida iqtisodiy taraqqiyotning barqarorligi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

#### **14.2. Respublika iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishida vujudga kelgan nomutanosibliklar: sabab va oqibatlar**

O'zbekiston mustaqillikka erishishdan oldin respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasi asosan Rossiyaning markaziy shaharlarida qayta ishlanib va paxtamizdan olinadigan gazmol va tikuvchilik mahsulotlarini chetdan olib kelishga majbur edik.

O'zbekiston resurslarga boy mamlakat bo'la turib, iqtisodiy taraqqiyotda ko'pgina SHarq mamlakatlardan orqada qolib ketdi. 1990-yili aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda 75-80 o'rinni egalladi, ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, uning tarkibiy strukturasi, tarkibining yangilanishi, ya'ni diversifikatsiyasi jihatidan dunyo talablaridan ancha orqada qoldi.

O'zbekistonning ishlab chiqarishi ko'p jihatdan agrar xomashyo xarakteriga ega edi va sanoati yaxshi rivojlanmadidi. 1960-1990-yillar ichida sanoatning milliy daromadni yaratishdagi hissasi o'zgarmadi.

Vujudga kelgan nomutanosibliklardan yana biri yirik, o'rtaligida mayda korxonalar o'tasidagi nisbatdir. Sobiq Ittifoq vazirlik va mahkamalari tomonidan barpo qilingan korxona va birlashmalar asosan ulkan hajmli bo'lib, yirik ishlab chiqarishga mo'ljalangan edi. Bu, albatta, respublikada sanoat ishlab chiqarishning an'anaviy turlarini rivojlantirish, mehnat jamoalarining harakatchanlik qobiliyatini oshirish, bozor konyunkturasiga tezkor moslashuv kabi talablarga javob bermasdi.

Bugungi kunda butun dunyoda korxonalarning 95 %i kichik biznesga to'g'ri kelmoqda, shu jumladan, AQShda 90 %ni, G'arbiy Yevropada 72 %ni tashkil qilmoqda, Yaponiyada kichik va o'rtaligida biznes ko'rsatkichlari juda yuqoridir, shuning uchun uning iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Kichik va o'rtaligida biznesning ulushi umumiyligi korxonalarning 99 %ini tashkil etadi. Kichik korxonalarning yirik korxonalarga nisbatan afzalliklari ko'p, ular bozor iqtisodiyoti sharoitida kelib chiqadigan o'zgarishlarga tez moslashadi. Shuning uchun ham, iqtisodchi ekspertlarning hisob-kitoblariga ko'ra, XXI asrda yirik korxonalarda ishlovchilarining ulushi juda ham qisqaradi, AQShda butun ishlovchilarining 5 %i, Yaponiyada 10 %i to'g'ri keladi<sup>119</sup>.

<sup>119</sup>Тухлиев Н., Таксанов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. – Т.: Учитувчи, 2000. 153-б

O'zbekiston iqtisodiyotida 1970-1980-yillar mobaynida butun sanoat mahsuloti miqdorida ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarishning hissasi bir oz kamayib, iste'mol buyumlari ishlab chiqarish hajmining o'sganligiga qaramasdan, tarkib topgan bu nisbatni maqsadga muvofiq deb ham bo'lmaydi. Iste'mol buyumlari ishlab chiqarish bundan ham yuksakroq rivojlanishi kerak. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishida vujudga kelgan nomutanosibliklardan yana biri - qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar rivojlanishi o'rtasidadir. Mineral xomashyolarning katta qismi qayta ishlanmagan yoki yarim tayyor mahsulot holida respublikadan chiqib ketardi. Ko'pgina tog'-ruda kombinatlari xomashyoni qayta ishlashning past darajasi bilan ajralib turardi. Buning sababi shuki, ittifoq ahamiyatidagi ulkan korxonalar qazib oluvchi sanoatni respublika ichkarisida mineral xomashyoni chuqr qayta ishlashga, vertikal integratsiya jarayonini, diversifikasiyanı rivojlantirishga emas, balki xomashyo chiqarishga bo'ysundirgan.

80-yillarning oxiriga kelib, O'zbekiston qishloq xo'jaligida ham murakkab vaziyat va nomutanosibliklar vujudga keldi. Dehqonchilikda, chorvachilikda sur'at pasaya boshladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish darajasi borgan sari uning texnik jihozlash sur'atlaridan ham, aholining tabiiy o'sish sur'atlaridan ham orqada qola boshladi. 1980-1990-yillarda yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti ishlab chiqarish sur'ati respublikada aholi tabiiy o'sishi sur'atidan ikki marta, asosiy ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlashdan uch martadan ziyod past bo'ldi.

Tabiiyki, bunday sharoitda asosiy muammo mo'l-ko'ichilik, ichki oziq-ovqat bozorini shakllantirish, ortiqchasinini tashqi bozorga olib chiqish emas, aholini minimal zaruriy iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash bo'lib qoladi.

1980-1991-yillar ichida qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hammasi bo'lib 8,9 %ga o'sdi. Bu mamlakat aholisi o'sishidan ham, qishloq xo'jaligini asosiy fondlar bilan ta'minlash va kapital sarmoyalar sarfidan ham past ko'rsatkichdir. 1980-1991-yillar mobaynida paxta xomashyosi va toiasi, g'alla ishlab chiqarish pasaydi. Buni quyidagi 14.2.1-jadvaldan ko'rish mumkin.

#### 14.2.1-jadval

#### O'zbekistonda 1980-1991-yillarda qishloq xo'jalik ekinlarining yalpi yig'imterimi, (barcha turdag'i xo'jaliklarda, ming tonna)<sup>1</sup>

Yillar	paxta		g'alla	kartoshka	sabzavot
	xomashyo	tola			
1980	5579,0	1623,5	2435,4	239,0	2459,1
1985	5381,8	1727,7	1471,3	240,7	2385,6
1990	5057,7	1592,6	1898,7	336,4	2842,5
1991	4645,8	1443,2	1908,2	351,2	3348,0
1980-1991-yillarda o'sish, %	83,3	88,9	78,3	146,2	136,0

Paxtachilikda bu hodisa asosan ikki sababga ko'ra ro'y berdi. Birinchidan, paxta maydonlari boshqa ekinlar, jamoa va davlat xo'jaliklari ishchilarining shaxsiy tomorqa xo'jaligi hisobiga qisqartirildi.

<sup>1</sup> Tuxliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. – T.: O'qituvchi, 1994. 50-b.

Ikkinchidan, hosildorlikning pasayishi ham uning yalpi yig'im-terimi miqdoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi. G'allachilikda ham pasayish hosildorlik hisobiga bo'ldi. Kartoshka va sabzavot ishlab chiqarish ancha o'sdi. Bu o'sish ekin maydonlarini kengaytirish (ekstensiv yo'l) hisobiga ta'minlandi.

#### 14.2.2-jadval

##### O'zbekistonndagi barcha xo'jalik turlari bo'yicha 1 hektar yerdagi ekinlar hosildorligi, (sentner hisobida)<sup>1</sup>

Yillar	paxta		g'alla	kartoshka	sabzavot
	xomashyo	tola			
1980	29,7	8,6	20,7	100	221
1985	27,0	8,7	15,1	90	199
1990	27,6	8,7	18,8	80	192
1991	27,0	8,4	17,3	87	188
1980-1991-yil-larda o'sish, %	90,0	97,7	83,6	87,0	85,1

14.2.2-jadvaldan ko'rinish turibdiki, asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bo'yicha hosildorlik pasaydi. 1980-1990-yillar mobaynida barcha xo'jalik toifalarida chorvachilik mahsulotlarini etishtirish sezilarli o'sganini ta'kidlash o'rinnlidir.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligi ayanchli holatga tushib qolgan edi. Buning sabablari anchagina. Eng avvalo, shuni ta'kidlash lozimki, bu erda qaror topgan ishlab chiqarish tarkibi oziq-ovqat mahsulotlarini mo'l-ko'l qilishga emas, balki sanoat markazlarini arzon xomashyo bilan ta'minlashga, markaziy mahkamalar irodasini bajarishga qaratilgan edi. Shuning uchun ham, dehqonchilik ekinlari orasida asosiy o'rinni texnika ekinlari jumladan, paxta egallab keldi.

Jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadi, sanoatsiz qishloq xo'jaligini rivojlantirib bo'lmaydi. Qishloq xo'jaligining qoloqligi sanoatning nochorligi bilan, uning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Sanoat nochor bo'lsa, qishloq xo'jaligi ham nochor bo'ladi.

Shu bilan birga, surunkasiga texnika ekinlari ekilaverib, har hektar boshiga mineral o'g'itlar sarfining oshib borganligi yerning tinka-madorini quritdi va tuproq xosildorligi pasayishiga olib keldi. Almashlab ekish qoidalariga to'la rioya qilinmadni. Natijada sho'r bosgan tuproq eroziyasiga uchragan maydonlar ulushi kengaydi. Tuproq tarkibining buzilishi hosildorlikning asosiy kushandasini bo'lib chiqdi.

O'zbekiston Respublikasida 1991-yilgacha ijtimoiy mehnat taqsimo-tiga ko'ra, paxta tolasi ishlab chiqarishga nisbatan yuqori darajada ixti-soslashgan edi. Masalan, ushbu davrlarda paxta maydonlari respublikaning umumiy ekin maydonlarining 75 %dan ko'proq qismini tashkil etar edi. Prezidentimiz I. Karimov so'zlariga ko'ra, "jahonni birota mamlakatida, yerni yaroqsiz holatga olib keladigan uning unumdarligi, kimyoviy tarkibini buzadigan bunday yuqori darajadagi paxta monopoliyasi bo'lmagan"<sup>120</sup>.

Yuqorida bayon etilgan iqtisodiyotdagi salbiy holatlar aholi turmush darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadidi.

<sup>120</sup> Tuxliyev N. O'zbekiston iqtisodiyoti. – T.: O'qituvchi, 1994. 50-b.

<sup>121</sup> Karimov I.A. Yangicha sikrash va ishlash - davr talabi. – T.: O'zbekiston, 1997. 16-b

O'zbekistonning YalMni aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'satkichi bo'yicha sobiq respublikalardan bunday orqada qolishining asosiy sabablaridan biri - sobiq Ittifoqdagi subyektiv tarzdag'i noto'g'ri hududiy mehnat taqsimotidir. O'zbekiston ittifoqning asosiy paxta bazasi, ipakchilik, qorako'Ichilik va boshqa mahsulotlarning asosiy ishlab chiqaruvchisi bo'lib, ularni xomashyo tarzida chetga chiqargan. Bu tarmoqlarda esa, qo'l mehnatining ulushi yuqori bo'lib, mehnat unumdarligi esa past darajada bo'lgan edi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, paxtaning 95 %si qayta ishlanmasdan respublikadan tashqariga olib ketilar edi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari va korxonalarini rivoj topmadidi.

Sanoat tarmoqlari tarkibiy tuzilishida ham chuqur nomutanosiblik mavjud edi. Sanoatda tayyor mahsulotlar ulushi 50 %ni tashkil etar edi. Bu esa, sanoatning ham xomashyo va oraliq mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi nomutanosiblik O'zbekistonga yuqorida turib zo'r lab tiqishtirilgan ixtisoslashuv oqibati edi. Sobiq Ittifoq davrining keyingi 50 yili mobaynida yengil sanoatning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 54 %dan 37 %gacha, oziq-ovqat sanoati ulushi esa, 30 %dan 14 %gacha tushib qoldi.

Tarkibiy tuzilishda vujudga kelgan nomutanosibliklar investitsiya muammolari bilan ham bog'liq edi.

Investitsiyalash muammosi - bu avvalo ularni amalga oshirishga ketadigan moliyaviy va moddiy resurslar muammosidir. Ishlab chiqarishning 1991-1995-yillardagi pasayishi uni o'stirish uchun zarur bo'lgan moddiy imkoniyatlarni pasaytiradi, respublikaning moliyaviy resurslarini, birinchi navbatda davlat byudjeti daromadlarini kamaytiradi. O'zbekiston Respublikasida davlat byudjetining real daromadlari, byudjetdan tashqari kapitallar daromadlarini ham qo'shganda, bizning hisoblarimizga asosan 1995-yildan 1991-yilga nisbatan 41 %ga kamaydi. Investitsiyalash va aholini ijtimoiy himoyalash uchun moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj kattadir. Amaliyotning ko'rsatishicha, investitsiyalarni ko'paytirmay, ularning samaradorligini oshirmay turib, ishlab chiqarishning pasayishini to'xtatib va uning yuksalishiga erishib bo'lmaydi.

Ahvol yana shu bilan murakkablashdiki, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqaruvchi tarmoqlar hali yetarli darajada rivojlanmagan edi. Bu barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida iqtisodiyotda tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi va katta hajmdagi resurslarni talab etadi.

#### **14.3. Milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy nomutanosibliklarni bartaraf etish zarurligi va uning yo'llari**

Respublikamizda uzoq yillar davomida amal qilib kelgan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan xo'jalik yuritish tizimi iqtisodiyotimizda o'zining salbiy asoratlarini qoldirdi. Zamonaviy tarkibiy tuzilish markazlashgan rejalashtirish usuli bilan umumitifoq mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan edi. Shu bilan birligida, O'zbekiston butun sobiq ittifoqni sanoat tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo'jaligini paxtachilik sohasidagi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirar edi. O'zbekiston totalitar tuzum davrida ishlab chiqarish darajasi jihatdan kam rivojlangan

mamlakatlar qatoridan o'rın oldi. Davlat mustaqilligining qo'lga kiritilishi bilan O'zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning keng istiqbollari ochildi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'li tanlab olindi. Respublikada barqaror iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash uchun iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilishida tub o'zgarishlar qilish muhim vazifalardan biri sifatida belgilab olindi.

Ya'ni: "... eng asosiy vazifa - o'tish davri davomida butun xalq xo'jaligi strukturasi chuqur qayta qurishdan iboratdir. Shunday bir strukturani vujudga keltirish zarurki, bu strukturna barcha resurslarimizni hisobga olib, O'zbekistonning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini ta'minlash imkonini bersin"!<sup>121</sup>.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishda asosan ikki muhim muammoni hal etishga e'tibor qaratilishi lozim. Birinchidan, mustaqil davlatchilikni shakllantirgan holda bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini vujudga keltirish; ikkinchidan jamiyat a'zolarining yashashi va mehnat qilishlari uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Bugungi kunda iqtisodiyotni barqarorlashtirishga ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, bozor infratuzilmasini yaratish va takomillashtirish, ishlab chiqarish mexanizmini ixtisoslashtirish, iqtisodiy qonunlar mutanosibligini ta'minlash orqali erishish mumkinligi amalda yaqqol namoyon bo'lmoida.

Milliy istiqodiyotni tarkibiy jihatdan qayta tuzish zarurligi eng avvalo tarkibiy o'zgarishlarning xalq xo'jaligining ustuvor tarmoqlarida amalga oshirish, ularning maqsad va vazifalarini belgilash hamda muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shuning uchun, hozirda har bir tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda tarkibiy qayta tuzish chora-tadbirlarini belgilab olish va amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aniq-puxta ishlab chiqilgan moliya-kredit siyosatini amalga oshirish, iqtisodiyotda tub tarkibiy siljishlarga erishish xalq xo'jaligining xomashyoviy qiyofasiga barham berish o'tish davrida navbatdagi ustuvor vazifalar sifatida ko'rsatildi.

I.A. Karimov Shunday ta'kidlaydi: "Xomashyo yetishtirishga mo'ljallangan iqtisodiyotimizning bir tomonlamaligini qat'yan bartaraf etish, tarmoq tuzilishini tubdan o'zgartirish, "umumittifoq miqyosida ixtisoslashtirish" shiori ostida ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish va joylashtirishda yo'l qo'yilgan nomutonosiblikni tugatish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish, mahsulot sifati va raqobatbardoshligini jahon bozori talablari darajasiga yetkazish vazifasi qo'yilayotir.

XXI asr bo'sag'asida tarkibiy tuzilish siyosati O'zbekistonning tamomila yangi xalq xo'jalik kompleksini bunyod etishga qaratilgan. Bu kompleks respublikaning iqtisodiy va siyosiy mustaqilligi uchun garov bo'lib, respublikamiz xalqiga munosib turmush sharoitini yaratib beradi»<sup>122</sup>.

I.A. Karimov shunday ta'kidlaydi: "Ustuvor hisoblangan yetakchi tarmoqlar belgilab olinmasa, bozor munosabatlari sharoitida ularning shakllanishiga yordam ko'rsatilmasa, iqtisodiy strategiya boy beriladi... O'tish davrida davlat o'z iqtisodiy

<sup>121</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloqotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995. 246 b.

<sup>122</sup> Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy isloqotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995. 228-229 b.

siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish chog'ida shuni e'tiborda tutishi kerakki, u ustuvor, katta istiqbolga ega bo'lgan tarmoqlar va ishlab chiqarishlarni har tomonlama rag'batlantirishi, ya'ni eng muhim bo'g'lnarni aniqlashi (neft-neft mustaqilligi, energetika-energetika mustaqilligi, don-g'alla mustaqilligi, paxtani qayta ishlash sanoati va hokazo) va shu orqali iqtisodiyotni tarkiban qayta tashkil qilish bo'yicha izchil siyosat o'tkazishi kerak". Mamlakatimiz YALM o'sish sur'atlarining barqarorligini ta'minlashda iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning yuqori o'sish sur'atlari mustahkam zamin bo'lmoqda (14.3.1-jadval).

#### 14.3.1-jadval

**O'zbekistonda iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalaridagi o'sishsur'atlari,%da**

Ko'rsatkich	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil	2012-yil	2013-yil
Sanoat ishlab chiqarishi	12,1	12,7	9,0	8,3	6,3	7,7	8,8
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yesitshtirish	6,1	4,5	5,7	6,8	6,6	7,0	6,8
Chakana savdo aylanmasi	21,0	7,2	16,6	14,7	16,4	13,9	14,8
Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish	20,6	21,3	12,9	13,4	16,1	14,2	13,5

Jadvaldan ko'rindaniki, yuqorida bayon etilgan murakkab va qiyin sharoitda ham iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalarida iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlari saqlanib qolmoqda. Jumladan, 2013-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmi 2012-yilga nisbatan 8,8 %ga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 6,8 %ga, ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 13,5 %ga o'sib, uning YALM tarkibidagi ulushi 53 %ni tashkil qildi. Ichki talabni rag'batlantirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida o'tgan yilda chakana tovar aylanmasining 2012-yilga nisbatan 14,8 %ga o'sishi kuzatildi. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida butun iqtisod tayanchi bo'lgan o'zak tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish o'zbek modelining muhim jihatidir.

O'zak tarmoqlar bu milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun eng zarur resurslarni yetkazib beruvchi tarmoqlar majmuidir. O'zak tarmoqlarga neft mahsulotlari va boshqa energiya resurslari, tabiiy gaz, ko'mir ishlab chiqaruvchi sohalar, tog'-metalluriya kompleksi, kimyo, mashinasozlik va samolyotsozlik sanoatlari kiradi. Hozirgi kunda O'zbekistonda milliy iqtisodiyotga xizmat qiladigan va texnika taraqqiyotini ta'minlashning asosiy sharti hisoblangan o'zak tarmoqlar yirik investitsiyalarni yo'naltirish orqali davlatning bevosita ko'magi orqali rivojlanmoqda. Darhaqiqat, mustaqillikning muhim iqtisodiy sharti hisoblangan o'zak tarmoqlarni rivojlantirish orqali birinchidan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga erishish, ikkinchidan, dunyo hamjamiyatida iqtisodiy qudrati katta bo'lgan davlatlar qatoridan munosib joy olish mumkin. Shuningdek, o'zak tarmoqlarni rivojlantirish iqtisodiyotda yangi infratuzilmalarni barpo etish uchun katta

imkoniyatlar yaratadi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlar infratuzilma va noishlab chiqarish sohalaridagi tarkibiy siyosatda ham ma'lum o'zgarishlarni taqozo etadi. Infratuzilma sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar uning ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi kabi barcha sohalarini qamrab oladi. Iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini o'zgartirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:


- milliy iqtisodiyot taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega sanoat komplekslarini mutanosib va o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishning tarmoq dasturlarini ishlab chiqish. Bunday komplekslar jumlasiga yoqilg'i-energetika, mashinasozlik va metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, oziq-ovqat komplekslari kiradi;

- eksportga yo'naltirilgan, raqobatbardosh mahsulotlarni vujudga keltirish, ularni rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy sharoitlarni ta'minlash, shuningdek, ushbu tarmoqlarda marketing strategiyasini ishlab chiqish, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi, shu jumladan, transport va aloqa tizimlari, lizing va konsalting firmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

#### **14.4. O'zbekistonda ishlab chiqarishning tarkibiy tuzilishini qayta qurish jarayonida makroiqtisodiy barqarorlikning ta'minlanishi**

Mamlakatimizda mustaqil taraqqiyot yillarda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni tubdan isloh qilish, iqtisodiyotda uzoq yillar hukm surib kelgan sobiq ma'muriy-buyruqbozlik tizimining salbiy oqibatlarini, u keltirib chiqargan ko'plab muammolarni hal etish, bu orqali barqaror, samarali va raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish yo'lida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa pirovard maqsadimiz – xalqimizning yuksak turmush farovonligini ta'minlash, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, Vatanimizning xalqaro miqyosdag'i obro'-e'tiborini oshirishda mustahkam poydevor bo'limoqda.

O'tgan 2013-yilda mamlakatimizda islohotlar dasturi davom ettirilib, undan o'rinni organ muhim chora tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda mutanosiblik yanada mustahkamlandi, iqtisodiyotimiz modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yugori sur'atlar bilan rivojlandi.




Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasiga ma'lumotlari

##### **14.3.1-rasm. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yillar davomida o'sish dinamikasi, %da**

Ayonki, jahon amaliyotida mamlakatlarning yillar bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ularda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari orqali aniqlanadi. Jumladan, 2013-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti oldingi yilga nisbatan 8 %ga o'sib, uning mutlaq hajmi 119 trillion so'mga teng bo'ldi (14.3.1-rasm).

Rasmga ko'ra, mamlakatimizda YalMning o'sish sur'atlari barqaror tarzda bormoqda. Agar o'rtacha o'sish sur'atlari 2000-2003-yillarda 4 %dan, 2004-2006-yillarda 7,3 %dan, 2007-2008-yillarda esa 9,2 %dan yuqori darajada kuzatilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich keyingi besh yil davomida 8,2 %dan yuqori bo'lmoqda. Mamlakatimizda chuqur o'yangan holda ishlab chiqilgan hamda izchil ravishda olib borilayotgan samarali iqtisodiy siyosat global inqirozning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirini sezilarli darajada "yumshatib", shunday murakkab sharoitda ham YalMning yuqori va barqaror o'sish sur'atlari saqlanib qolishini ta'minladi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligi jihatidan jahoning ko'plab mamlakatlarida hamon ma'lum muammolar saqlanib qolayotganini ham qayd etish joiz (14.3.2-rasm).



Manba: Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlari asosida.

#### 14.3.2-rasm. Ayrim mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot dinamikasi, %da<sup>122</sup>

Rasmga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, JAR, Germaniya kabi mamlakatlarda 2013-yildagi o'sish sur'atlari oldingi yildagiga nisbatan pastroq bo'lgan. Ispaniyada esa hamon ilgari yillarga nisbatan iqtisodiy pasayish kuzatilmoqda.

Ta'kidlash joizki, iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi, uning yuqori sur'atlarini ta'minlovchi omillar juda ko'p. Asosiy jihat – ushbu omillarni to'g'ri aniqlab, ularni o'z vaqtida harakatga keltirish hisoblanadi. O'zbekistonda o'tgan yilda barqaror va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlagan omillar qatorida quyidagilarni keltirish mumkin (14.3.3-rasm).

<sup>122</sup> Manba: Inozemsev V. Est li svet v kontse krizisa? //Argumenti i fakti, №7, 2014, c.12. [www.aif.ru](http://www.aif.ru).

Tashqi va ichki bozor talablarasi asosida iqtisodiyotni chuoq tarkibiy o'zgartirish va diversifikasiatsiya qilish jarayonlarining izchil amalga oshirilayotgani

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan yangilashni jadallashtirish, yo'l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish hisobidan iqtisodiyotning raqobatdoshligini oshirish

Bozor islohotlarini chuoqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, raqobatni kuchaytirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash hamda yangi ish o'rinnarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturiy vazifalarning o'z vaqtida bajarilayotgani


Ichki talabni aholi bandligi va real daromadlarining oshishini ta'minlash hisobidan raq'batlanirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi

Qishloq xo'jaligini isloh etish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shakllarini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlaming yaratib berilishi, qishloq xo'jaligida ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy etish ko'laming kengaytirilishi

Mamlakatimiz moliya-bank tizimini yanada rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, uning faoliyatini zamonaliviy talablar asosida takomillashtirish borasida keng ko'lami chora-tadbirlarning amalga oshirilishi

#### 14.3.3-rasm. 2013-yilda O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atlari ta'minlagan omillar<sup>123</sup>

Mamlakatimizdagi yuqori va barqaror o'sish sur'atlari ko'p jihatdan davlat iqtisodiy siyosati orqali faoliyatning raq'batlanirilishiga bog'liq bo'lib, bunda soliq yukining yildan-yilga pasaytirib borilayotgani sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda (14.3.4-rasm).



#### 14.3.4-rasm. O'zbekistonda soliq yuki darajasining pasayib borishi, YalMga nisbatan %da

<sup>123</sup> <http://www.cbu.uz>

O'zbekistonda soliq yuki 1995-yilda YalMga nisbatan 41,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2013-yilda 2 barobardan ko'proq pasayib, 20,5 %ni tashkil etdi. Ya'ni, 2013-yilda soliq yukining umumiy darajasi o'tgan yilga nisbatan 1 %lik punktga kamayтирildi. Ushbu ko'rsatkichning dunyodagi rivojlangan va boshqa bir qator davlatlar holatiga e'tibor beradigan bo'lsak, mamlakatimizda olib borilayotgan soliq siyosati juda meyoriy holatda ekanini ko'rish mumkin (14.3.1-jadval).

#### 14.3.1-jadval


#### Dunyoning ayrim davlatlarida soliq yukining o'rtacha darajasi, YalMga nisbatan %da<sup>124</sup>

Davlatlar va ularning uyushmalari nomi	Soliq yukining o'rtacha darajasi, %da	O'zbekistondagi soliq yukining boshqa davlatlardagi holat bilan qiyosiy darajasi
AQSh	32,3	1,5 marta past
Yevropa Ittifoqi davlatlari	42,6	2 marta past
Lotin Amerikasi davlatlari	47,2	2,2 marta past
IFTga a'zo davlatlar	35,9	1,7 marta past
Janubiy Osiyo davlatlari	40,2	1,9 marta past
Sharqiy Osiyo davlatlari	34,5	1,6 marta past
Markaziy Osiyo davlatlari	40,5	1,9 marta past
Rossiya Federatsiyasi	34,1	1,6 marta past
MDHga a'zo davlatlar	25,2	1,2 marta past
Dunyo davlatlari bo'yicha o'rtacha	44,7	2,1 marta past
<b>O'zbekiston</b>	<b>20,5</b>	<b>X</b>

Jadvalga ko'ra, O'zbekistonda soliq yuki dunyo bo'yicha, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Lotin Amerikasi davlatlaridagi o'rtacha darajadan 2,1 marta past. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, MDH mamlakatlaridagi soliq yuki o'rtacha darajasining ham nisbatan past bo'lishida O'zbekistondagi soliq yukining past darajasi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki, Rossiyada bu ko'rsatkich 34,1 %ni, Belorussda 27,6 %ni, Ukrainada 25,3 %ni tashkil etadi<sup>125</sup>. 2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 %dan 20,5 %ga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 %dan 8 %ga tushirilganiga qaramay, davlat budgeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 % profitsit bilan bajarildi (14.3.5-rasm).

<sup>124</sup> Manba: [www.worldtax.org](http://www.worldtax.org), [www.worldwide-tax.com](http://www.worldwide-tax.com), [www.taxworld.org](http://www.taxworld.org) internet saytlari ma'lumotlari.

<sup>125</sup> Manba: [www.worldtax.org](http://www.worldtax.org).



**14.3.5-rasm. Davlat budjeti ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi, YaIMga nisbatan %da**

Rasmga ko'ra, 2000-2004-yillar davomida mamlakatimiz davlat budjeti taqchilligini -1,0 %dan -0,4 % darajasiga qadar pasaytirish, 2005-2008-yillar davomida esa davlat budjeti taqchilligiga barham berib, davlat budjeti profitsitini 0,1 %dan 1,5 %ga qadar oshirishga erishildi. Keyingi yillarda mazkur jarayonga ham jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi salbiy ta'sir ko'rsatishiga qaramay, budget profitsitini saqlab qolishga erishilmoqda. Xususan, 2013-yilda ham maqsadga muvofiq yo'naltirilgan chora-tadbirlar natijasida budget daromadlarining uning xarajatlaridan ortish hajmi YaIMning 0,3 %ni darajasida bo'lishiga erishildi.


Umuman, davlat budjeti sohasidagi bunday natijalarni qo'lga kiritishda mamlakatimiz iqtisodiyotini tarkibiy jihatdan bosqichma-bosqich o'zgartirish va erkinlashtirish, ilgari davlat zimmasida bo'lgan bir qancha vazifalarni xususiy sektorga o'tkazish orqali davlat budjeti xarajatlarini optimallashtirish, yangi sanoat yo'nalishlarining rivojlantirilishi hamda xususiy sektor moliyaviy holating mustahkamlanishi, shuningdek, uning yurtimiz iqtisodiyotidagi roli va ulushining ortishi kabi omillar sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

2013-yilda qat'iy pul-kredit siyosati yuritilgani inflyatsiyani jilovlashda muhim ahamiyat kasb etdi va uning belgilangan prognoz ko'rsatkichidan past bo'lishi ta'minlandi.

2013-yil yakuni bo'yicha iste'mol baholari indeksi asosida hisoblanadigan inflyatsiya darajasi 2012-yilga nisbatan 0,2 % bandga pasayib, 6,8 %ni tashkil etdi. Bunda iste'mol baholari indeksining o'sishi asosan nomonetar omillar hisobidan yuz berdi.

Jumladan, o'tgan yilda oziq-ovqat mahsulotlarining narxi 3,9 %ga o'sib, uning inflyatsiyaga ta'siri 2 %ni, nooziq-ovqat mahsulotlari narxi 7,4 %ga o'sib, uning inflyatsiya darajasiga ta'siri 2,1 %ni tashkil etdi. Xizmatlar narxi esa 13,8 %ga o'sib, uning iste'mol baholari indeksiga ta'siri 2,6 %ni tashkil etdi(14.3.6-rasm)<sup>29</sup>.

<sup>29</sup> 2013-yilda pul-kredit sohasidagi vaziyat va monetar siyosatning 2014-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari. - <http://www.cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmli sayti.



**14.3.6-rasm. O'zbekistonda 2013-yilda narx-navo o'zgarishining inflyatsiyaga ta'siri, %da**

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, o'tgan yili mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash borasidagi muhim chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi natijasida ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi mutanosiblik kuchayib, iqtisodiyotimizning modernizatsiya va diversifikatsiya hisobidan yuqori sur'atlar bilan rivojlanishiga erishildi.

#### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Jqtisodiy muvozanat, xususiy muvozanat, umumiy muvozanat, retsession farq, inflyatsion farq, multiplikator samarasi, iqtisodiy mutanosiblik, tarmoqlararo mutanosiblik, tarmoq ichidagi mutanosiblik, hududiy mutanosiblik, davlatlararo mutanosiblik, akselerator samarasi.

#### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Iqtisodiy muvozanat, xususiy va umumiy muvozanatga tavsif bering. Ularga misollar keltiring.

2. Quyidagi ikki usul, ya'ni: a) yalpi sarflar va ishlab chiqarish hajmini taqqoslash usuli; b) jamg'arma va investitsiyalarni taqqoslash usuli yordamida muvozanatlari SMM grafikda qanday aniqlanishini tushuntiring.

3. Multiplikator samarasi nima? Investitsion sarflarning o'zgarishi va multiplikator miqdori o'rtasidagi bog'liqlik qanday? Agar jamg'armaga o'rtacha moyillik 0; 0,4; 0,6 ga teng bo'lsa, multiplikator qanday bo'ladi? Agar tadbirkor investitsiyalari darajasini 8 mln. so'mga ko'paytirsa, iste'molga o'rtacha moyillik esa 4/5 ga teng bo'lsa, SMM qanday o'zgaradi?

4. Akselerator samarasi nima va u iqtisodiy muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatadi?

5. Milliy iqtisodiyotning muvozanatlari darajasiga erishishda xususiy mutanosibliklarning roli qanday? Mutanosiblikning qanday turlarini bilasiz? Ularga qisqacha ta'rif bering.

6. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday?

7. Respublikada iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini qayta qurishlarni qaysi yo'llarda amalga oshirish ko'zda tutilgan?

## 15-bob. IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNING DAVRIYLIK XARAKTERI

### 15.1. Davriylik - iqtisodiy taraqqiyotning umumi shakli ekanligi

Har qanday mamlakat, shu jumladan industrial rivojlangan mamlakatlar ham iqtisodiy o'sish, iqtisodiy resurslarning to'la bandligi va narxлarning barqaror darajasiga erishishga harakat qiladilar. Ammo uzoq muddatli iqtisodiy o'sish bir tekis va uzuksiz bormaydi, u iqtisodiy beqarorlik davrlari bilan uzelib turadi. Iqtisodiy o'sish ketidan doimo tanazzul kelib turadi. Vaqtı-vaqtı bilan obyektiv qonunlarning o'zgartirib bo'lmaydigan ta'siri ostida takror ishlab chiqarish harakatida uzelishlar paydo bo'ladi va bu uzelish iqtisodiyot nomutanosibliklarining keskin shaklda namoyon bo'lishi hisoblanadi. Bu holat iqtisodiy adabiyotlarda **iqtisodiyotning davriy rivojlanishi** deb ataladi.

Ko'plab iqtisodchilar ortiqcha ishlab chiqarish sabablarini ochib berishga harakat qilib, talabning ko'payishi va kamayishi, ishlab chiqarish hajmining o'sishi yoki qisqarishi kabi hodisalarining davriy tavsifiga e'tibor qaratdilar. Bu hodisalarining ro'y berish ketma-ketligidagi ma'lum izchillik ham aniqlandi. Davriy rivojlanishning obyektivligi va realligi, uning iqtisodiy jarayonlar tavsifiga ta'siri nuqtai nazaridan ahamiyatiligi to'g'risida bir qator taniqli iqtisodchilar, jumladan, A.Shpitgof, M.Tugan-Baranovskiy, T.Veblen, U.Mitchell, J.M.Klark, J.Xiks, J.M.Keyns, Y.Shumpeter va boshqalarning ilmiy asarlarida bayon etilgan.

Ta'kidlash lozimki, turli darslik va o'quv qo'llanmalarda mazkur muammoni yoritishga ham turlicha darajada yondoshiladi. Jumladan, akademiklar V.I.Vidyapin, A.I.Dobrinin, G.P.Juravleva va L.S.Tarasevich umumiy tahriri ostida tayyorlangan darslikda bu muammoga alohida mavzu orqali keng to'xtalib o'tilgan.<sup>127</sup> Unda iqtisodiy davrlar nazariali iqtisodiy o'sish nazariali bilan bir qatorda iqtisodiy dinamika nazariali tarkibiga kirishi, iqtisodiy davr tabiatining o'zi esa munozarali va kam o'rganilgan muammolardan biri ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, ijtimoiy hayotda davriy rivojlanishni tan oluvchi hamda inkor etuvchi ikki yo'nalishdagi tadqiqotchilar mavjudligi ko'rsatilgan. Davrning mohiyatini ochib berishda dastlab unga jismlar o'zaro ta'sir jarayonining natijasi sisfatida qarab, falsafiy qoidalar nuqtai nazaridan izohlashga harakat qilingan. Davr fazalarini ajratib ko'rsatishda markscha sanoat davri nazariyasiga keng to'xtab o'tilgan. Shundan so'ng davrlarning asosiy turlari, bugungi kunga qadar mayjud bo'lgan davrlar to'g'risidagi nazariali bayon etilgan.

Ba'zi bir darsliklarda esa iqtisodiyotning davriy rivojlanishi muammolariga nisbatan qisqa, umumiy tarzda to'xtab o'tilgan.<sup>128</sup> Ushbu xususiyatlarni hisobga olgan holda iqtisodiy davrning mohiyati va uning fazalari bayoniga to'xtalib o'tamiz.

Iqtisodiy davr deganda, odatda iqtisodiyot rivojlanishining bir holatidan boshlanib, birin ketin bir necha fazalarni bosib o'tib, o'zining dastlabki holatiga qaytib kelgunga qadar o'tgan davr tushumiladi. Iqtisodiyotning rivojlanishidagi

<sup>127</sup> Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. вкад. В.И.Видапина, А.И.Добринина, Г.Р.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 465-485-стр.

<sup>128</sup> Экономическая теория:Учеб. для студ. высш. учеб. заведений /Под ред. В.Д.Камаева. – 10-е изд., перераб. и доп. - М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 2004, 537-541-стр.; Борисов Е.Ф. Экономическая теория: Учебник. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: ЮУрайт-Издат, 2005, 301-309-стр.

harakati bir davr bilan to'xtab qolmaydi, balki u to'xtovsiz to'lqinsimon harakat sifatida davom etadi. Davrli harakat iqtisodiy o'zgarishning muhim omili, makroiqtisodiy muvozanat unsurlaridan biri bo'lib, milliy xo'jalik turli tarkibiy qismlarining amal qilishidagi notejislikni, uning rivojlanishidagi inqilobiy va tadrijiy bosqichlarning, iqtisodiy taraqqiyotning almashuvini aks ettiradi.

Iqtisodiy davr maxsus fazalar orqali amalga oshadi. Har bir faza iqtisodiy rivojlanishdagi muayyan pallani ifodalab, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Odadta iqtisodiy davrning **inqiroz**, **turg'unlik**, **jonlanish**, **yuksalish** fazalari ajratib ko'rsatiladi. Ana shu fazalarning har biri rivojlanishi jaryonida navbatdagi fazaga o'tish uchun sharoit yuzaga keladi.

Iqtisodiy davrning dastlabki fazasi **inqirozdan** boshlanib, u ishlab chiqarishning pasayishida ifodalanadi. Inqiroz fazasining asosiy belgilari va o'ziga xos xususiyatlarini mazkur bobning 3-bandida batatsil bayon etiladi.

Inqirozdan keyin **turg'unlik fazasi** boshlanib, u nisbatan uzoqroq davom etadi. Bu fazada ishlab chiqarish darajasining barqarorligi ta'minlansada, u inqiroz boshlanishidan oldingi darajaga nisbatan ancha past bo'ladi. Narxlarning pasayishi to'xtab, ssuda %'lari pasayadi, tovar zaxiralari barqarorlashadi. Biroq ishsizlikning yuqori darajasi saqlanib qoladi. Turg'unlik fazasi davomida iqtisodiy faollik jonlanishi uchun sharoitlar vujudga kelishi niyojasiga etadi.

**Jonlanish fazasida** ishsizlik darajasi bir oz qisqarib, ishlab chiqarish darajasi sekin-asta o'sib boradi. Narxlar ham asta ko'tarilib, ssuda %'i o'sa boshlaydi. Iqtisodiyotning bandlik darajasining ortishi va foyda hajmining tezlik bilan o'sishi jonlanish fazasining yuksalish bosqichiga o'sib o'tishiga imkoniyat yaratadi. Yangi davr yuksalishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi.

**Yuksalish fazasida** ishchi kuchiga bo'lgan talabning kengayishi ishsizlikning birmuncha kamayishiga hamda ish haqining o'sishiga olib keladiki, buning oqibatida iste'mol tovarlariga to'lovga qodir talab kengayadi. Pirovard talabning oshishi, o'z navbatida, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarga, bozorni kengaytirishga jadal turki beradi. Raqobat va foyda ketidan quvish oqibatida nomutanosibliklarning to'planib borishidan iborat zanjirli reaksiya tezlashadi. Bu bilan yangi inqiroz muqarrar bo'lib qoladi.

Hozirgi zamon iqtisodiy adabiyotlarida AQSh Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi (NBER) tomonidan ishlab chiqilgan atamalardan keng foydalilanadi.<sup>129</sup> Unga ko'ra davr o'z ichiga quyidagi to'rtta fazani, ya'ni **yuqori nuqta** (cho'qqi, bum), **qisqarish** (retsessiya, tushkunlik), **quyi nuqta** (turg'unlik), **jonlanish** (kengayish)ni oladi.

Bu ikkala ko'rinishdag'i davr bir-biridan shaklan farqlansada, mazmun jihatidan o'xshash bo'lib, inqiroz va o'sishlarning muqarrar ravishda ma'lum davrlarda takrorlanib turishi tan olinadi.

<sup>129</sup> Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. /Под общ. ред. акад. В.И.Видяпина, А.И.Добринина, Г.П.Жураалевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М, 2005, 465-485-6.

## **15.2. Iqtisodiy davrlarning monetaristik, iqtisodiy beqarorlik nazariyaları**

Iqtisodiy davrlarning kelib chiqish sabablari va ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning chuqur va izchil ravishda tadqiq etilishi turli ko'rinishdagi iqtisodiy davrlarning vujudga kelishiga olib keldi.

Ko'pchilik hozirgi zamonda iqtisodchilar iqtisodiy davrlarning obyektiv tafsifini tan olib, bu hodisani unga ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish orqali o'rganishni tavsya qiladi. Iqtisodiy davrlarni tashqi omillarning mavjudligi bilan tushuntiruvchi nazariyani **eksternal nazariya** deb atash qabul qilingan.

Tashqi omillarga iqtisodiy tizimdan tashqarida yotuvchi va iqtisodiy hodisalarning davriy takrorlanishini keltirib chiqaradigan omillar kiritiladi. Bu tashqi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- urushlar, inqilobiy o'zgarishlar va boshqa siyosiy larzalar;
- oltin, uran, neft va boshqa qimmatli resurslar yirik konlarining ochilishi;
- yangi hududlarning ochilishi va bu bilan bog'liq ravishda aholi migratsiyasi, yer shari aholisi sonining o'zgarib turishi;
- ijtimoy ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan texnologiya, tadqiqotlar va innovatsiyalardagi qudratli o'zgarishlar.

**Internal nazariya** iqtisodiy davrlarni iqtisodiy tizimning o'ziga xos ichki omillar tug'diradi deb hisoblaydi.

Asosiy kapitalning jismoniy xizmat muddati ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan iqtisodiy davrni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan biri sifatida qaratiladi.

Agar bir yoki bir necha tarmoqda mashina-uskunalaraga talabning keskin ortishini keltirib chiqaradigan iqtisodiy o'sish boshlansa, tabiiyki, bu hol mashina va uskunalar to'liq eskiradigan har 10-15 yildan keyin takrorlanadi.

Boshqa ichki omillardan quyidagilar ajratib ko'rsatiladi:

- shaxsiy iste'molning o'zgarishi (qisqarishi yoki kengayishi);
- investitsiyalar, ya'ni ishlab chiqarishni kengaytirish, uni yangilash va yangi ish joylarini vujudga keltirishga yo'naltiriladigan mablag'lar hajmi;
- ishlab chiqarish, talab va takliflar hajmiga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarishi.

Iqtisodiy davrlarning kelib chiqishini faqat eksternal yoki internal nazariya orqali tushuntirish ko'pam to'g'ri emas. Iqtisodiy davrlarning umuman iqtisodiy tizimdagagi miqdoriy va sifat o'zgarishlar tashqi va ichki omillar oqibatida kelib chiqishi mumkin emas.

Shuningdek, iqtisodiyotning davrli rivojlanishi sabablarini izohlashda bir qator quyidagi nazariyalar ham ilgari suriladi:

**Sof monetar nazariya.** Bu nazariya tarafdarlarining fikricha bozor iqtisodiyotida markaziy o'rinni pul va kredit egallaydi. Iqtisodiyotning davrli o'zgarishi eng avvalo pul massasining oqimini o'zgartirishga bog'liq.

Iqtisodiy faollikning o'sishi, iqtisodiyotning ravnak topishi uning turg'unlik bilan almashinib turishiga yagona sabab pul oqimining o'zgarishidir. Tovarlarga talabning ortishi natijasida savdo, chakana narx o'sib, ishlab chiqarishning kengayishiga olib keladi.

Pul oqimi (iste'mol xarajatlari summasi) pul miqdorining o'zgarishi natijasida o'zgaradi. Pul miqdorining kamayishi iqtisodiy faoliyat faolligini pasaytiradi.

Pul va kredit tizimi beqaror tavsifga ega ekanligi sababli pul oqimini barqarorlashtirish murakkab hisoblanadi. Hozirgi paytda kredit pullari to'lov va muomala vositasi sifatida asosiy rolni o'ynaydi. Aynan bank tizimi kredit pullarni yaratadi, shunga ko'ra, pul oqimining o'zgarishida banklarning hisob stavkalari katta ahamiyat kasb etadi. Bu nazariyaning ayrim namoyandalari pulni harakatga keltiruvchi kuch sifatida qarab, muvozanatning buzilishiga asosiy sabab deb ko'rsatadilar.

Ikkinchi guruhi esa pul tizimi mutanosiblikni buzmaydi, faqat mutanosiblikni buzilishiga olib keluvchi boshqa omillar uchun sharoit yaratadi, degan fikrni ilgari suradilar. Muvofiq ravishda monetar va nomonetar yo'nalish vujudga keldi. Monetar nazariyaning e'tiborli tomonlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1) yuksalish fazasi davrida kreditni kengaytirish tufayli kelib chiqqan ishlab chiqarish tuzilmasi nomutanosibliklarini tahlil qilinadi;

2) mazkur nomutanosibliklarning salbiy oqibati sifatida kelib chiquvchi inqirozlar tahlil qilinadi.

Shunday qilib, bu nazariya jamg'arishning davriy ravishda oshib ketishi va mutanosiblikning buzilishining asosiy sababi sifatida pulni ko'rsatadilar. **Nomonetar nazariya** tarafdorlari esa texnologik o'zgarishlar, yangiliklar, ixtirolarning ahamiyatini alohida ta'kidlab, pul jamg'arishning ko'payib ketishidagi rolini ko'rsatishadi. Monetar va nomonetar yo'nalish o'rtaсидаги farq uncha katta emas, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Har ikkala nazariya ham oxir-oqibat iqtisodiy faollikning kuchayishiga iste'mol emas, balki investitsiya sabab bo'ladi, degan fikrni ilagi suradi.

Iqtisodiy davrlarni iste'mol tovarlariga talabni o'zgarishiga bog'lab, akseleratsiya printsipiga e'tibor qaratiladi. Bu printsip mohiyatiga ko'ra texnik sabablar tufayli iste'mol tovarlariga bo'lgan talabning ozginagina o'zgarishi ishlab chiqarish uchun zarus tovarlarga talabni keskin o'zgarishiga olib keladi.

**Yetarlichcha iste'mol qilmaslik nazariyasি.** Bu nazariyaning mohiyati ko'proq jamg'arib, samarali darajada iste'mol qilmaslik jamiyatni davriy rivojlanishining sababi qilib ko'rsatiladi.

1. Mablag'ni jamg'arish, boshqacha aytganda xazinaga aylantirish turg'unlikka olib kelishi mumkin, chunki bu mablag' investitsiyalash uchun foydalanimaydi.

2. Pulni jamg'arish iste'mol tovarlariga talabning qisqarishiga olib keladi, chunki u iste'molga sarflanmaydi.

3. Natijada investitsiyaga nisbatan pul shaklidagi jamg'arish hajmi o'sib borib, iste'mol tovarlariga talab kamayib boradi, taklif esa ortadi, narx pasayadi, iste'mol tovarlari bozoridagi qiyinchiliklar inqirozga olib keladi.

**Jamg'arish nazariyasи.** Bu nazariyaga ko'ra iqtisodiy davr ishlab chiqarish vositalari yoki kapitallashgan investitsion tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq. Kundalik iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan uzoq muddat foydalilanladigan tovarlar va ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish davrlari o'rastida katta farq bor.

Kundalik iste'mol mollari doimiy ravishda iste'mol qilinadi. Ularning iste'mol miqdori o'zgargan taqdirda ham uncha katta o'zgarishlar sodir bo'lmaydi.

Uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlarni domiy ravishda xarid qilinmaydi. Balki ular iste'molchi daromadi ko'paygan paytdagina sotib olinadi.

Iste'mol o'sgan sari kapital tovarlarga talab ham ortadi. Bunda ishlab chiqarish tarkibida nomutanosibliklar yuz beradi, ya'ni iste'mol tovarlari, uzoq muddat foydalilaniladigan va kapital tovarlar o'rtasida nisbatlar buziladi.

Inqirozning sababi pul yetishmasligi, bank rezervlarining kamligi tufayli emas, balki ana shu nisbatlarning buzilishidir. Lekin ko'pchilik iqtisodchilar yetarli darajada iste'mol qilmaslik inqirozning sababi emas, balki uning oqibatidir, deb ta'kidlaydilar. Ya'ni iste'molchilar daromadlarini ko'proq jamg'arishga ajratganlaridan emas, balki to'lov qobiliyatini yetarli emasligidan, ya'ni xarid qilish uchun pulni yo'qligidan kelib chiqadi.

**Psixologik nazariya.** Iqtisodiyotning davriy rivojlanishini tushuntirishda iqtisodiy nazariyalar bilan bir qatorda psixologik nazariyalar ham keng o'rinn olib bormoqda. Psixologik nazariya tarafdonlariga J.M.Keyns, U.Mitchell, F.Xayek va boshqalarni kirtish mumkin. Ularning fikricha, insondagi optimizm va pessimizm faoliyat aktivligiga obyektiv iqtisodiy omillar: % normasi, pul oqimi, foya va boshkalar ta'sir ko'rsatib, buning natijasida ishlab chiqarishning qisqarishi yoki kengayishi ro'y beradi.

Hozirgi zamон iqtisodiy fanida iqtisodiy davrining 1380 dan ortiq turlari mavjudligi ta'kidlanadi<sup>1</sup>. Quyidagi 15.1.1-jadvalda ularning ko'pchilik iqtisodchilar tomonidan tan olingan eng asosiy turlari ifodalangan.

### 15.1.1-jadval

#### Davrlarning asosiy turlari

Davr turlari	Davrning davomiyligi	Asosiy xususiyatlari
Kitchin davri	2-4 yil	Zaxiralarni miqdori → YaMM, inflyatsiya, bandlikning tebranishi, tijorat davrlari
Juglar davri	7-12 yil	Investitsion davr → YaMM, inflyatsiya va bandlikning tebranishi
Kuznets davri	16-25 yil	Daromad → immigratsiya → uy-joy qurilishi → yalpi talab → daromad
Kondratev davri	40-60 yil	Texnika taraqqiyoti, tarkibiy o'zgarishlar
Forrester davri	200 yil	Energiya va materiallar
Toffler davri	1000-2000 yil	Sivilizatsiyalarning rivojlanishi

**Kitchin davri** zaxiralar davri deb ham nomланади. Bunda Jozef Kitchin (1926-y.) o'zining e'tiborini tovar zaxiralarining harakat chog'idagi moliyaviy hisoblar va sotish narxlarini tahlil qilish asosida 2 yildan 4 yilgacha davr davomidagi qisqa to'lqinlarni tadqiq qilishga qaratadi. Ayniqsa u davrining davomiyligini jahondagi oltin zaxiralarining tebranishlari bilan bog'lab, uni 3 yilu 4 oyga teng, deb hisoblaydi.

<sup>1</sup> Экономическая теория: Учебник. - Изд., испр. и доп. / Под общ. ред. акад. В.И.Вядигина, А.И.Добринина, Г.П.Журавлевой, Л.С.Тарасевича. – М.: ИНФРА-М. 2005. 469-стр.

Biroq qisqa muddatli davrlar sabablarining bunday izohi bugungi kunda ko'pchilik iqtisodchilarni qoniqtirmaydi.

**Juglar davri** "biznes-davr", "sanoat davri", "o'rtacha davr" va "katta davr" kabi nomlar bilan ham ataladi. Oldingi davrlarda iqtisodiy fan 7-12 yillik davrlarni ajratib ko'rsatganligi tufayli, aynan shu davr Fransiya, Angliya va AQShda % stavkalari va narxdagi tebranishlarni asosiy tahlil qilish asosida sanoat davring tabiatini o'rganishga katta hissa qo'shgan Klement Juglar (1819-1905-yy.) nomi bilan ataladi.

Birinchi sanoat davri 1825-yili Angliyada metallurgiya va boshqa yetakchi tarmoqlarda mashinali ishlab chiqarish hukmron mavqeni egallagan davrda kuzatiladi. 1836-yildagi inqiroz dastlab Angliyada boshlanib, keyin AQShga ham tarqaladi, 1847-1848-yillarda AQSh va qator Yevropa davlatlarida boshlangan inqiroz, tub mohiyatiga ko'ra birinchi jahon sanoat inqirozi bo'lган. Agar XIX asrda sanoat davri 10-12 yilni tashkil qilgan bo'lsa, XX asrda uning davomiyligi 7-9 yil va undan ham kam davrgacha qisqargan.

AQSh va Yevropaning rivojlangan davlatlari XX asrda 12 ta sanoat davrini boshdan kechirgan bo'lib, ulardan yettiasi ikkinchi jahon urushidan keyin ro'y bergan.

**Kuznets davri** ko'p hollarda "qurilish davri" deb ham nomlanib, 20 yilgacha bo'lган iqtisodiy tebranishlar bilan aniqlanadi. Saymon Kuznets o'zining "Milliy daromad" (1946-y.) nomli kitobida, milliy daromad, iste'molchilik sarflari, ishlab chiqarish maqsadidagi uskunalar, hamda bino va inshootlarga yalpi investitsiyalar ko'rsatkichlarida 20 yillik o'zarobog'liq tebranishlar mayjud bo'lishini aniqlaydi. 1955-yilda amerikalik iqtisodchining xizmatlarini tan olish ramzi sifatida sanoat davrini Kuznets davri deb nomlashga qaror qilinadi.

**Kondratev davri** "uzoq to'lqinlar" davri deb ham ataladi. Davriylikning bu nazariyasini ishlab chiqishga rus olimi N.D.Kondratev katta hissa qo'shamdi. Uning tadqiqoti Angliya, Fransiya va AQShning 100-150 yil davomidagi rivojlanishini qamrab oladi. Bunda u iqtisodiy o'sishning ko'p omilli tahlilini o'tkazib, ya'ni tovar narxlarini kapital uchun %, nominal ish haqi, tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rtacha darajasini umumlashtirish natijasida bir qator katta davrlarni ajratib ko'rsatadi.

I-davr: 1787-1814-yillar - ko'taruvchi to'lqin; 1814-1851-yillar - pasaytiruvchi to'lqin.

II-davr: 1844-1851-yillar - ko'taruvchi to'lqin; 1870-1896-yillar - pasaytiruvchi to'lqin.

III-davr: 1896-1920-yillar - ko'taruvchi to'lqin.

Kondratev davrining davomiyligi o'rtacha 40-60 yilni tashkil qiladi va uning asosiy xususiyati texnika taraqqiyoti hamda tarkibiy o'zgarishlarni o'zida aks ettirishi hisoblanadi.

Kondratev birinchi katta davrning yuksalish fazasini Angliyadagi sanoat revolyutsiyasi, ikkinchisini - temir yo'l transportining rivojlanishi, uchinchisini - elektr energiyasi, telefon va radioning kashf etilishi, to'rtinchisini - avtomobil sanoatining rivojlanishi bilan bog'laydi. Hozirgi zamон tadqiqotchilari beshinchi

davrni elektronika, gen injenerligi va mikroprotsessorlar rivojlanishi taqozo qilishini ko'rsatadi.

Iqtisodiy davr barcha tomonlari bilan namoyon bo'lib, amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismalarning o'zaro bog'liqligi sababli uning hech bir sohasiga inflyatsiya to'lqini yoki turg'unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e'tiborga olish zarurki, iqtisodiy davr alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Odatda iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalilaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlari ko'proq zarar ko'radilar.

Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og'ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo'jalik buyumlari va shunga o'xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo'lgan ishchilar davning inqiroz fazasida og'ir oqibatga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar davning yuksalish fazasida o'zining rivojlanish uchun yuqori darajada rag'bat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshdan kechira boshlaganda, ishlab chiqaruvchilar ko'pincha zamонави uskunalarini sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to'xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday konyunktura sharoitida investitsion tovarlar zaxiralarini ko'paytirish hech qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlardan ancha to'laroq foydalanshlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay davrlarda, ya'ni davning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to'liq eskirgunga qadar almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o'zining eskirgan uskunalarini ta'mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lgan ayrim korxonalar, hatto iste'mol qilingan asosiy kapitalining o'rmini qoplashga ham harakat qilmaydi.

Qisqa muddatli foydalilaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari iqtisodiy davning oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste'molchilar qatlamiga iqtisodiy davr turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad oluvchi iste'molchilar oila budgetini qisqartirishga to'g'ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalilaniladigan tovarlarni xarid qilishini to'xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a'zolari yeb-ichishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, ya'ni qisqa muddatda foydaladanligan iste'mol tovarlarni xarid qilishni to'xtatish mumkin emas. Faqat, bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalilaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi ko'pchilik sanoat tarmoqlari yuqori darajada monopol mavqega egaligi bilan farqlanadi va natijada bozorda nisbatan ko'p bo'limgan yirik firmalar ma'lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi turishi, talabning kamayishi sababli mahsulot chiqarish hajmini cheklash uchun yetarlicha monopol hukmronlikka ega

bo'lishi mumkin. Shu sababli talabning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlilik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bunga teskarli bo'lgan holatni qisqa muddatli foydalilanidigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko'pchiligi o'zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarish markazlashuv darajasining pastligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli ular davrning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlariga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko'proq aks etadi.

Demak, kapitalning to'planishi yuqori darajada bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, to'planish darajasi past bo'lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

### **15.3. Iqtisodiy inqiroz mazmuni, uning moddiy asosi, sabablari va turlari**

Davrli rivojlanishning dastlabki va asosiy fazasi inqiroz hisoblanadi. Shunga ko'ra ushbu fazanining mazmuni va uning turlarini batafsil ko'rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Inqiroz bir davrni nihoyasiga yetkazib, yana muqarrar ravishda inqiroz bilan tugaydigan yangisining boshlanishiga asos soladi; inqiroz vaziyatida asosiy kapitalning ortiqcha jamg'arilishi uning hamma funksional shakllarida namoyon bo'ladi.

Inqiroz fazasida ishlab chiqarish va bandlilik qisqaradi, ammo narxlar pasayish tamoyiliga berilmaydi. Bu fazaning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlilik o'zining eng past darajasiga tushib ketishi orqali tavsiflanadi. Shunga ko'ra, iqtisodiy inqiroz deb ishlab chiqarish hajmining keskin tushib ketishiga aytildi.

Inqirozning sababi shundan iboratki, jamiyatda ishlab chiqarilgan tovarlar massasi to'lovga qobil talabga mos kelmay (undan oshib ketadi yoki kam bo'ladi) qoladi. Natijada ishlab chiqarishning bir qismi to'xtab qoladi, tovarlar ishlab chiqarish kamayadi, ishlab chiqarishning o'sish davri uning tushkunligi bilan almashinadi. Iqtisodiyotning o'sishi inflyatsiya, ya'ni narx darajasining asossiz ravishda keskin ko'tarilishi sababli orqaga ketadi. Shunday davrlar ham bo'ladi, bunda iqtisodiy o'sish bandlilik va ishlab chiqarishning past darajasiga o'tin beradi, ayrim hollarda narx darajasining ko'tarilishi bilan birga ishsizlik ham keskin o'sadi. Qisqacha aytganda, iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli tamoyillari ham ishsizlik, ham inflyatsiya oqibatida uzilib qoladi va murakkablashadi. Inqirozlarning asosiy sababi - takror ishlab chiqarishdagи beqarorlik va nomutanosibliklardir. Bu avvalo ishlab chiqarish va uning natijalarini o'zlashtirish o'rtasidagi nomutanosiblik bo'lib, u turli ishlab chiqarish usullari va iqtisodiy tizimning har xil nushalarida turli shakllarida namoyon bo'ladi.

Ishlab chiqarish bilan iste'mol, talab va taklif o'rtasidagi vaqt-i-vaqti bilan yuzaga kelib turadigan nomutanosibliklar ham iqtisodiy inqirozlarning yuzaga chiqish imkoniyatini saqlaydi.

Rivojlangan tovar xo'jaligi paydo bo'lgunga qadar ishlab chiqarishning keskin qisqarishi odatda tabiiy ofatlar (qurg'oqchilik, toshqinlar va h.k.) yoki urushlar va ular keltiradigan vayronagarchiliklar bilan bog'liq bo'lgan. Yirik mashinali ishlab chiqarishga o'tilgan davrdan keyingi vaqt-i-vaqti bilan iqtisodiyotni larzaga solib

turuvchi iqtisodiy inqirozlar ijtimoiy takror ishlab chiqarishga davriylik tavsifni kasb etadi. Inqirozlar turli-tuman tarzda ro'y bersada, ularni umumiy, o'xshash tomonlarini nazarda tutib, guruhlarga ajratish mumkin.

1. Xo'jalik tizimida muvozanatning buzilishi **miqyosiga ko'ra** inqirozlarni umumiy hamda ayrim sohalarda yuz beradigan inqirozlarga bo'lish mumkin. Umumiy inqirozlar butun milliy xo'jalikni qamrab olsa, ikkinchisi qisman, ya'ni ayrim sohalar yoki tarmoqlardagi tanglik sifatida ro'y beradi.

Ayrim sohalardagi inqirozlarga quyidagi larni kiritish mumkin:

**Pul-kredit sohasidagi inqiroz.** Mamlakatda pul-kredit tizimining tang ahvolga tushishi bo'lib, bunda tijorat va bank krediti qisqaradi. Aksiya va obligatsiyalarning kursi, bank %i tushib ketishi natijasida banklar sinib, yalpi holda bankrotlikka uchraydilar.

**Valyuta inqirozi.** Bunda milliy valyutaning obro'si tushib ketadi. Bankda valyuta zaxirasi tugab, milliy valyuta kursi tushib ketadi.

**Birja inqirozi.** Bu tanglik birjada qimmatli qog'ozlar kursining tezda tushib ketishi, ularni emissiya qilishni qisqarishi, fond birjalari faoliyatidagi chuqur tushkunlikda ifodalanadi.

**Ekologik inqiroz.** Atrof-muhitni eng avvalo inson sog'lig'ini yo'qotish, umrini qisqartirishga olib keladigan darajada vaziyatni vujudga kelishida ifodalanadi. U sanoatning shiddatli tarzda o'sishiga yo'l qo'ymaydi.

**Tarmoqlar inqirozi.** Bu milliy xo'jalikni biron-bir tarmog'ini qamrab, ishlab chiqarishning tarkibiy o'zgarishi yoki normal xo'jalik aloqalarining buzilishi tufayli yuz beradi.

**Tarkibiy inqirozlar.** Iqtisodiyotdagagi inqirozlardan bir ko'rinishi yoki uning bir turi tarkibiy inqirozlardir. Bu inqirozlarni ishlab chiqarishning ayrim sohalari bilan tarmoqlar rivojlanishi o'ttasidagi chuqur nomutanosibliklar keltirib chiqaradi.

Tarkibiy inqirozlar bilan iqtisodiy tebranishlar va shu jumladan iqtisodiy faoliyning mavsumiy tebranishlari ham mavjud bo'ladi. Masalan, bayramlar arafasidagi xarid qilish, iste'molchilik tovarlarining faoliyk sur'atida, asosan chakana savdoda sezilarli har yillik tebranishlarga olib keladi. Qishloq xo'jaligi, avtomobil sanoati, qurilish ham qandaydir darajada mavsumiy tebranishlarga duchor bo'ladi.

Iqtisodiy faoliy iqtisodiyotdagagi uzoq muddatli tamoyillarga, ya'ni uzoq muddatli davr, masalan, 25, 50 yoki 100 yil davomida iqtisodiy faoliyning ortishi yoki pasayishiga bog'liq. Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, ayrim mamlakatlarda (masalan AQSh) uzoq muddatli tamoyil sezilarli iqtisodiy o'sish bilan tavsiflansa, boshqalar uchun iqtisodiy o'sishning sekinlashuvi xos.

Iqtisodiy faoliyning tebranishini tushuntiruvchi ko'plab qarashlar mavjud bo'lishiga qaramasdan ko'pchilik iqtisodchilar, ishlab chiqarish va bandlik darajasini bevosita aniqlovchi omil umumiy yoki yalpi sarflar darajasi hisoblanadi, deb tasdiqlaydi.

**Agrar inqiroz.** Qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy inqirozlar agrar inqirozlar deb ataladi. Agrar inqirozlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: 1) qishloq xo'jalik mahsulotlarining nisbiy ortiqcha ishlab chiqarilishi, uning sotilmay qolgan juda katta zaxiralarining to'planishi; 2) narxlarning pasayishi, daromadlar va foydalarning

kamayishi; 3) fermerlarning ommaviy ravishda xonavayron bo'lishi, ularning qarzlarining ortishi; 4) qishloq aholisi o'rtasida ishsizlarning ko'payishi.

Qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganligi sababli, agrar inqirozlar o'ziga xos tavsif kasb etadi. Agrar inqirozlar sanoat davrlariga qaraganda odatda ancha uzoqroqqa cho'zilib boradi. Birinchi agrar inqiroz XIX asrning 70-yillarida boshlanib, har xil shakllarda 90-yillar o'rtasigacha davom etgan edi.

Birinchi jahon urushidan keyin, aholining xarid qobiliyati juda pasayib ketgan sharoitda, 1920-yil bahorida keskin agrar inqiroz boshlanib ketdi va ikkinchi jahon urushining boshlanishga qadar davom etdi. Uchinchi agrar inqiroz 1948-yildan boshlanib, 80-yillargacha davom etdi.

Agrar inqirozlarning cho'zilib ketishining asosiy sabablari quyidagilar: a) yerga xususiy mulk monopoliyasi sharoitida, u qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining rivojlanishida sanoatga nisbatan orqada qolishni taqozo etadi; b) yer rentasining mavjud bo'lishi va uning uzluksiz sur'atda o'sib borishi. Yer rentasining, avvalo absolut rentaning ko'payishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini qimmatlashtirib yuboradi, buning natijasida uni sotish qiyinlashadi; v) ko'plab mayda dehqon xo'jaliklarining mavjud bo'lishi. Mayda ishlab chiqaruvchilar xo'jalikni asosan o'zi va oilasi uchun zarur tirikchilik vositalarini topish maqsadida yuritadi. Inqiroz sharoitida ham ular ishlab chiqarishni qisqartira olmaydilar. Tirikchiliklarini o'tkazish va ijara haqini to'lash uchun ishlab chiqarishni ilgarigi miqiyoslarda olib boraveradi. Bu hol qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarishni yana ham ko'paytirib yuboradi.

Agrar inqirozlar davrli tavsifga ega bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ortiqcha ishlab chiqarish absolyut tavsifga emas, balki nisbiy tavsifga ega. Chunki inqiroz ro'y bergen mamlakatlarda million-million kishilar doimiy suratda ochlikda yashaydi.

2. Iqtisodiyotda muvozanatning buzilishini muntazam yoki aksincha tarzda yuz berishiga ko'ra davriy, oraliq, nomuntazam inqirozlarga ajratish mumkin.

**Davrli inqirozlar** ma'lum vaqt mobaynida takrorlanib turadi.

**Oraliq inqirozlar** to'liq davr bo'yicha yuz bermaydi. Davrning biron-bir fazasida to'xtatiladi. Ular nisbatan uncha chuqur bo'lmay, qisqa muddat davom etadi.

**Nomuntazam inqirozlar** biron-bir alohida sabablarga ko'ra yuz beradi. Masalan, tabiiy ofat, sel, to'fon, qurg'oqchilik tufayli iqtisodiyotda tang ahvolga tushish mumkin.

3. Takror ishlab chiqarish nisbatlarining buzilishi tavsifiga ko'ra inqirozlar ikkiga: ortiqcha ishlab chiqarish va taqchil ishlab chiqarish inqirozlariga bo'linadi. Tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi turli naf keltiradigan ne'matlarni ko'p ishlab chiqarish, lekin ularni to'la sota olmaslikda namoyon bo'ladi.

Taqchil ishlab chiqarish inqirozi davrida muvozanat buzilib, yetishmovchilik natijasida tang ahvol kelib chiqadi. Shunday qilib, iqtisodiyotning tang ahvolga tushishiga faqat ortiqcha ishlab chiqarish emas, balki taqchil ishlab chiqarish ham sabab bo'ladi.

## **15.4. O'zbekistonda inqirozli jarayonlarning namoyon bo'lish xususiyatlari va uni bartaraf etish yo'llari**

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichi globallashuv jarayonlarining jadal rivojlanishi orqali tavsiflanadi. Globallashuvni iqtisodiy jihatdan qaraydigan bo'lsak, u jahon xo'jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimining tashkil topishi va rivojlanishini anglatadi.

Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globallashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko'rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o'tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro'y beradi.

Umuman olganda, globallashuv jarayonlari jahon xo'jaligining yaxlit iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishida sifat bosqichi hisoblanib, yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Biroq, globallashuv jarayonini mutlaqlashtirish va unga bir tomonlama qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, mazkur jarayon o'zining ijobjiy jihatlari bilan bir qatorda ziddiyatlari tomonlariga ham ega. Jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi shulardan biri hisoblanib, bugungi kunda ro'y berayotgan moliyaviy inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining oqibati hisoblanadi.

Shu o'rinda jahon moliyaviy inqirozining mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'siri qanday bo'ladi, degan savol barcha yurtdoshlarimizni qiziqtirishi tabiiydir. Bu borada Prezidentimizning "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'imas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi"<sup>130</sup> degan so'zlarini yana bir bor esga olish muhimdir. O'z navbatida O'zbekistonning globallashuv jarayonlaridagi ishtiroki ham ushbu inqiroz oqibatlarining ma'lum darajada iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkinligidan darak beradi.

Darhaqiqat, O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarda, boshqa MDH mamlakatlari singari, davlat va jamiyat qurilishining qanday tamoyillari va usullariga asoslanish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotini belgilashda qaysi yo'ldan borish masalasi ko'ndalang turar edi.

Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeli orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, "shok terapiysi" deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan

<sup>130</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009, 11-b.

urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdiq"<sup>131</sup>.

Biroq, o'z o'mida ta'kidlash lozimki, moliyaviy inqirozning respublikamiz iqtisodiyotiga ta'siri boshqa rivojlangan va ayrim qo'shni davlatlarda qaraganda mazmunan farq qiladi. Agar boshqa mamlakatlarda bu jarayonlar bevosita moliya tizimining izdan chiqishi va ishlab chiqarish hajmlarining keskin qisqarib ketishi, ko'plab yirik korxonalarining yopilishi orqali namoyon bo'lsa, bizda jahon xomashyo bozorlarida talabning susayishi tufayli narxlarning keskin pasayishi hamda buning oqibatida eksport daromadlarining sezilarli kamayishi, asosiy savdo hamkorlarimizning xarid qobiliyatining pasayishi natijasida tashqi savdo aylanmasining qisqarishi orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda ko'plab yetakchi olim va mutaxassislarimiz tomonidan iqtisodiyotimizda moliyaviy inqirozning salbiy oqibatlari ta'sirini pasaytiradigan omillar mavjudligi ta'kidlanmoqda. Iqtisodchi olimlar va mutaxassislarining fikrlariga ko'ra, mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyotiga inqiroz oqibatlari ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan darajada integratsiyalashmaganligi, mamlakatimizda katta hajmdagi xorijiy kapitalni ushlab turuvchi kompaniya va moliyaviy institutlarning yo'qligi, xususiy lashtirish mexanizmi va shart-sharoitlari natijasida deyarli barcha ustav fondlarining korxonalarining real xususiy aktivlari bilan ta'minlanganligi kabi holatlar asosida inqirozning salbiy ta'siri u qadar katta bo'lmasligi mumkin.

Aksincha, hozirgi inqiroz ehtimol tutilayotgan salbiy ta'sirlardan tashqari biz uchun ijobji ta'sirlarga ham ega bo'lishi, yangi imkoniyatlarni vujudga keltirishi mumkin. AQSh va Yevropadagi investorlar aksiyalardan bosh tortib, o'z aktivlarini bo'shatmoqdalar. Mohiyatiga ko'ra, qaytadan qandaydir ishga jalg etilishi zarur bo'lgan resurslarni bo'shatish jarayoni bormoqda. Demak, yangi bozorlarni, yangi imkoniyatlarni izlash boshlanadi. Investorlar kapital kiritishning muqobil yo'llarini qidiradilar. G'arb bozorlari turg'unlikka yuz tutgan chog'da rivojlanayotgan mamlakatlar bozorlari o'sishning ijobji dinamikasini ko'rsatadi. Shunday mulohazalardan kelib chiqqan holda, ko'plab investorlar O'zbekiston bozoriga e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas.

Shuningdek, jahon moliyaviy inqirozining O'zbekistonga ta'sirining jiddiy bo'lmasligini qo'yidagi omillar bilan izohlash mumkin:

- ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tishning bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lini tanlanganligi;

- davlat bosh islohotchi sifatida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi zarurligini aniq belgilab olinganligi;

- O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, budget, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini va tarmoqlarining barqaror hamda uzlusiz ishslashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zaxiralar yaratilganligi va zarur resurslar bazasining mavjudligi;

- oqilona tashqi qarz siyosati olib borilganligi;

<sup>131</sup> Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choraları.  
– T.: O'zbekiston, 2009, 7-b.

- aholining ish haqi va daromadlarini izchil va oldindan oshirib borish hamda iste'mol bozorida narxlar indeksining asossiz tarzda o'sishining oldini olishga doir chora-tadbirlarning izchillik bilan amalgalashganligi;

- davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekani, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchliligi bilan izohlanadi.

Qayd etish joizki, mustaqillik yillarda O'zbekistonda qulay investitsiyaviy muhit shakllantirildi, xorijiy investorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonun yo'li bilan keng ko'lamdag'i imtiyozlar, afzalliliklar va kafolatlar tizimi belgilandi.

Natijada respublikada iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4,2 mingtadan ko'proq korxona tashkil qilindi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Har yili 3,0 milliarddan ko'proq asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilmoqda, mamlakat iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiya umumiy hajmining 26,6 %dan ko'prog'i ularning hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa xorijiy investorlarning respublika iqtisodiyoti barqarorligi va pishiq-puxtaligiga, uni rivojlantirish istiqbollariga qiziqishi hamda ishonchi ortib borayotganligidan yaqqol dalolat beradi.

Shu bilan birga, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligi, jahon va mintaqaviy investitsiya bozorlarida raqobat kuchayib borayotganligi mamlakatda yana ham qulayroq investitsiya muhitini yaratish, ishlab chiqarishlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash bo'yicha loyihalarni amalgalashganligi uchun xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, shuningdek, xorijiy investorlar bilan ishlashdagi mavjud byurokratik g'ovlar va to'siqlarni bartaraf etish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatiga davlat va nazorat idoralari tomonidan noqonuniy aralashuvlarga yo'l qo'ymaslik borasida qo'shimcha chora-tadbirlar qabul qilinishini taqozo etmoqda.

Barcha investitsiyalarning 66,8 %i iqtisodiyotning ishlab chiqarish yo'nalishidagi sohalarda, qolgan 33,2 %i noishlab chiqarish sektorida o'zlashtirildi. 2013-yilda barcha investitsiyalarning 34,4 %i sanoat sohalarida o'zlashtirilgan edi. Shuni qayd etish lozimki, sanoat ulushi 2005-yildan buyon 30 %dan yuqori darajada barqaror ravishda saqlanib turibdi.

2013-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi 3 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etdi, shundan 72,0 %dan ortig'i yoki 2,2 milliard AQSh dollari - to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar. Asosiy kapitalga investitsiyalar va kreditlar ulushi 20,3 %ni tashkil etdi. Barcha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning 40 %idan ortig'i transport va aloqa korxonalarida o'zlashtirilgan. Yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini jalb etgan xorijiy investitsiyalar hajmi 2013-yilda butun xorijiy kapitalning 35 %ini tashkil etdi.<sup>132</sup>

Darhaqiqat, hozirgi kunda tashqi dunyo bilan ikki tomonlama o'zaro manfaatlari aloqalarimiz rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarni amalgalashganligi oshirishimizda xorijiy mamlakatlarning ilg'or texnologiyalariga asoslangan investitsiyalariga ehtiyoj

<sup>132</sup>Bank axborotnomasi, №14 (933), 2014-yil 2-aprel. 9 b.

mavjud. Qolaversa, jahon bozoridagi talabning pasayib borishi mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalarimizni eksport ko'lamiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunga asoslangan holda, hukumatimiz tomonidan inqirozga choralar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, mazkur dasturda talabni rag'batlantirishga yo'naltirilgan bir qator moliyaviy imtiyozlar va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlovchi chora-tabdirlar majmui o'z aksini topdi.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Iqtisodiy davr, iqtisodiy inqiroz, turg'unlik (depressiya), jonlanish, yuksalish, tarkibiy inqirozlar, agrar inqirozlar, eksternal nazariya, internal nazariya, sof monetar nazariya, nomonetar nazariya, yetarlicha iste'mol qilmaslik nazariyasi, jamg'arish nazariyasi, psixologik nazariya, Kitchin davri, Juglar davri, Kuznets davri, Kondratev davri, valyuta inqirozi, birja inqirozi, ekologik inqiroz, davriy inqiroz, oraliq inqirozlar.

### **Takrorlash uchun savol va topshiriqlar**

1. Makroiqtisodiy barqarorlik nima? Unga erishish yo'llari qanday? Iqtisodiy inqirozlar mohiyati nimada ifodalananadi?
2. Iqtisodiy davming ta'rifini bering va uning har bir fazasining o'ziga xos belgilarini ko'rsating.
3. Tarkibiy inqirozlarni tushuntiring. Davrli tebranishlar vujudga kelishining sabablarini ko'rsating.
4. Agrar inqirozlarning xususiyatlarini bayon qiling.
5. Iqtisodiy davr asosiy turlariga tavsif bering va muhim belgilarini ko'rsating.
6. Iqtisodiy davming oqibatlarini baholang.

## **16-bob. DEMOGRAFIK HOLATNING MAMLAKAT IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTIGA TA'SIRI**

### **16.1. Aholi o'sishi va iqtisodiy taraqqiyot o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha turli xil nazariyalar**

Demografik omilning o'zgarib borishi global muammo bo'lib, u ko'p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi. Dunyo aholisi yiliga 80 milliondan ziyod kishiga ko'payishi davom etmoqda. Insoniyat soni 1804-yilda bir milliard kishiga yetgan bo'lsa, atigi 123-yildan so'ng yana bir milliard kishiga ko'paydi, uchinchi milliard 33 yilda, to'rtinchisi 14 yilda, beshinchisi 13 yilda qo'shildi. Aholining rekord darajada - o'rta hisobda 87 million kishi miqdorida yillik ko'payishi 1980-yillarda kuzatildi. Dunyo aholisi soni 1950-2000-yillarda oshishining deyarli uchdan ikki qismini Osiyo qit'asi ta'minladi: uning ulushi oshib, 56 %dan 61 %ga yetdi. Aholi ko'payishining hajmi jihatidan Afrika ikkinchi bo'lib qoldi, uning ulushi oshib, 9 %dan 13 %ga yetdi.

2000-yilda sayyora aholisining soni 6 milliard kishidan oshdi va ko'payish sur'ati birmuncha qisqarayotganligiga qaramay, uning o'sish jarayoni davom etmoqda va 2050-yilga borib, chamasi 10,2 milliard kishiga yetishi mo'ljallamoqda.

BMTning tug'ilish va o'lim, aholining bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi to'g'risidagi ma'lumotlari kelajak voqealarini hozirdayoq ayon qilib qo'ymoqda: tug'ilish koefitsienti yuqori bo'lgan mamlakatlar aholining "xatarli ko'payish" muammosini vujudga keltiradi. Ayni chog'da tug'ilish past, umr uzunligi yuqori darajada bo'lgan mamlakatlar demografik muvozanatini faqat immigrantlar oqimi hisobiga saqlashlari mumkin bo'ladi.

Hozir sanoati rivojlangan mamlakatlarda (immigratsiyani hisobga olmaganda) aholining ko'payishi yo nolga, yoki manfiy qiymatga teng bo'lmoqda. Bu hodisani demografik o'tish nazariysi izohlaydi, unga ko'ra daromadlar oshishi va ayollar emansipatsiyasidan tortib, bola tug'ilishiga munosabat o'zgarishigacha - qator ijtimoiy omillar tufayli muayyan davrda Yer kurrami aholisining soni ko'payishi to'xtaydi. Insoniyat yuqori darajalardagi tug'ilish va o'limdan past darajalardagi tug'ilish va umr uzunligiga o'tadi. Hozirgi vaqtga kelib, bu jarayon rivojlangan mamlakatlarda tugallandi va endilikda rivojlanayotgan mamlakatlarda kechmoqda.

Olimlarning hisoblashlaricha, yaqin yarim asr ichida sayyoramiz aholisi soni qariyb ikki barobar oshganidan keyin, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari barcha mamlakatlarda umuman tenglashadi. Demografik o'sish nazariysi go'yo insoniyatga resurslar yetmay qolishi mumkinligi to'g'risidagi vahimali bashoratlarni rad etadi. Ovqatlanish bo'yicha xalqaro tashkilotning ma'lumotlariga qaraganda, mavjud resurslar bilib ishlatisa, 20-25 mldr odamni boqishga bermalol yetadi. Ya'ni, olimlarning hisoblariga ko'ra, ular sayyoramizda yashaydigan odamlarning eng ko'p miqdoridan ham ko'proq miqdordagi odamlarni boqishga yetarlidir.

Yer kurrami aholisi hozirgi kunda juda yosh, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda va bunday yosh tarkibi mehnatga layoqatli bo'lmagan aholini boqish sezilarli darajada iqtisodiy harajatlarni talab qiladi. Masalan, 15 yoshgacha bo'lgan bolalar rivojlanayotgan mamlakatlarda umumiy aholining tahminan 40 %, rivojlangan davlatlarda esa 21% tashkil qiladi. Shuning uchun rivojlanayotgan

davlatlardagi ishlayotganlar rivojlangan davlatlardagiga qaraganda ikki barobar ko'proq bolani ta'minlashlari kerak. Hozirgi kunda Shvetsiya va Buyuk Britaniya aholisining tahminan 65 % mehnatga layoqtatlarni tashkil qiladi: ishlayotganlar Shvetsiyada 18 % va Buyuk Britaniyada 19 % aholini-mehnatga layoqtali bo'limgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashi kerak. Bu mamlakatlarda asosiy muammolar tabiiy o'sish darajasining pastligi va 65 yoshdan yuqori bo'lgan qariyalar bilan bog'liq bo'lib, ular aholining 16-18% tashkil qiladi.

2050-yilga borib Italiya, Yaponiya, Rossiya kabi mamlakatlar aholisi qisqaradi. Buyuk Britaniya aholisi hozirgi darajada qoladi. Mali, Saudiya Arabiston va Nigeryada shu davr ichida aholi soni 3 baravar, Misr va Keniyada 2 baravar oshadi. BMT mutahassislari rivojlangan mamlakatlarning aholisi umuman 2050-yilga borib 1,8 mlrd kishidan 1,16 mlrd kishigacha qisqaradi, rivojlanayotgan mamlakatlarning aholisi esa 4,57 mlrd kishidan 8,2 mlrd kishigacha ko'payadi deb hisoblamoqdalar (16.1.1-jadval).

#### 16.1.1- jadval

##### Aholi soniga qarab darajalangan eng yirik davlatlar<sup>133</sup>

1950-yil		1996-yil		2050-yil			
Darja	Mamlakatlar	Aholi soni mln. kishi	Darja	Mamlakatlar	Aholi soni mln. kishi		
1.	Xitoy	555	1.	Xitoy	1232		
2.	Hindiston	358	2.	Hindiston	945		
3.	AQSh	158	3.	AQSh	269		
4.	Rossiya	102	4.	Indoneziya	200		
5.	Yaponiya	84	5.	Braziliya	161		
6.	Indoneziya	80	6.	Rossiya	148		
7.	Germaniya	68	7.	Pokiston	140		
8.	Braziliya	54	8.	Yaponiya	125		
9.	Buyuk Britaniya	51	9.	Bangladesh	120		
10.	Italiya	47	10.	Nigeriya	115		
					10.	Eron	170

**Aholining keksayishi muammosi.** Barcha zamonaviy demografik jarayonlar orasida aholi keksayishi jarayoni jo'nroq o'chanadigan, taxminlar qilinishi qulayroq va aslida, o'z oqibatlariga ko'ra xavfliroq bo'lgan jarayondir. Shunday bo'lsa-da, u eng kam tadqiq qilingan jarayonlardan biri ekanligicha qolmoqda. Demograflarning fikricha, mamlakat aholisi undagi yoshi qaytgan shaxslar ulushi 7-8 %dan oshgan taqdirda keksaygan hisoblanadi. G'arbdagi iqtisodiy rivojlangan davlatlarning ko'chiligidagi 65 yoshli va undan kattaroq yoshdagilarni, ba'zi mamlakatlarda esa 60 yoshdan oshganlarni yoshi qaytganlar toifasiga kirish qabul qilingan.

Aholining keksayishi Fransiyada XVIII asrning oxirlarida boshlanib, keyinchalik asta-sekin barcha rivojlangan mamlakatlarga tarqalgan. Lekin avvallari hech qachon yoshi qaytgan odamlarning ulushi hozirgidek tez va ko'lamdor

<sup>133</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov Demografiya. T.: Fan va tehnologoyalar. 2012 y. 68-b

oshmagan. 2000-yilda yoshi qaytean kishilar ulushi Germaniyada 15,0 %, Angliyada 16 %, Fransiyada 15 %, AQShda 13 %, Yaponiyada 13 % ni tashkil etdi.

Aholi keksayishining sababi ikki xildir. Bir tomonidan, bu - tug'ilish kamayishi bo'lib, buning oqibatida bolalar va yoshlar ulushi qisqaradi. Ikkinechi tomonidan, bu - umr uzunligining oshishidir.

Aholining keksayishi bir qator iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Birinchidan, yoshi keksa odamlar ulushining oshishi o'z navbatida aholining iqtisodiy faolligi pasayishiga olib keladi. Odamning yoshi qanchalik katta bo'lsa, mahsulorligi shunchalik past bo'ladi, deb hisoblanadi.

Ikkinchidan, aholining keksayishi iqtisodiyotda yoshlar ulushi kamayishini anglatadi, bu esa, ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ish bilan band aholi kasb-malaka va tarmoq tarkibining o'zgarishi jarayoni va, binobarin, iqtisodiyot samaradorligi oshishini sekinlashtiradi. Iqtisodiy samaradorlik oshishining sekinlashishi aholi harakatchanligining pasayishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, pensiya fondlari zimmasiga pensiyalar to'lash xaratjatlarining benihoya og'ir yuki tushadi, zero, pensionerlar ulushi ko'payishi bilan bir yo'la pensiya fondlariga mablag' to'lab boradigan ishga qobiliyatli aholi salmog'i qisqaradi.

To'rtinchidan, nochor qariyalarga yordam ko'rsatishi lozim bo'lgan davlat ijtimoiy xizmatlariga ish ko'payadi. Qariyalarni parvarish qilish uchun to'lov kabi muammolar ko'payadi.

Beshinchidan, yoshi qaytgan kishilarga tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun qo'shimcha mablag' sarflash, gerontologik muassasalar tarmog'ini kengaytirish va butun sog'liqni saqlash tizimini sifatlari tarzda qayta qurishni talab qiladi.

Oltinchidan, hali ishslashni istaydigan "yosh qariyalar"ni ish bilan ta'minlash lozim. Bu oson vazifa emas, chunki, ma'lumki, pensiya yoshiga yetmaganlarga ham ish o'rinnari yetishmaydi. Yoshi qaytganlarda faol hayotiy pozitsiyani saqlab qolish, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish, yolg'izlikka qarshi kurash ham g'oyat muhimdir.

Yettinchidan, aholining keksayishi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining tuzilmasiga ta'sir etadi. Axir yoshi qaytganlarning talab-ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovarlar va xizmatlar assortimentini o'zgartirishga to'g'ri keladi. Ba'zi texnologik operatsiyalarni ham o'zgartirish, mashina va uskunalarni xodimlarning yosh xususiyatlariga moslashtirish kerak bo'ladi.

"Qariyalar ko'payishi" asta-sekin butun dunyoni qamrab, ko'plab muammolarni yuzaga keltirmoqda. Insoniyat mazkur tendentsiya tufayli kelib chiqadigan vazifalarning muhimligini tushunib yetishi darkor. Ko'pchilik mamlakatlar yoshi qaytgan odamlarning munosib hayot kechirishini ta'minlash uchun hozirdayoq ko'p ishlarni amalga oshirmoqdalar. Lekin keng qamrovli davlat siyosatining ishlab chiqilishi bu muammoni hal qiladi degan umiddamiz.

Hayot sifati deganda, biz insonlarning yashash sharoitlarini tushunamiz. Bunda ularning moddiy ne'matlar bilan (oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy) ta'minlanganligi, xavfsizligi, tibbiy xizmatlar ulushi, bilim olish imkoniyatidan foydalaniishi, atrof-muhit holati, jamiyatda ijtimoiy munosabatlari darajasi, siyosiy maydonda erkin fikr yuritishi va so'z erkinligi kabi ko'rsatkichlar nazarda tutiladi.

Xalq moddiy farovonligining bosqichma-bosqich va izhil o'sib borishini ta'minlash, insonning munosib hayot kechirishi va kamol topishi uchun shart-sharoitlarni yaratish, aholini, eng avvalo uning yordamga muhtoj qatlamlari-bolalar, qariyalar, nogironlar, o'quvchi yoshlarni ijtimoiy muhofazalashning aniq yo'naltirilgan kuchli mexanizmni joriy etish – shakllanib kelayotgan milliy iqtisodiy tizimdan ko'zlangan pirovard maqsaddir<sup>134</sup>.

Hayot sifati insonlar hayot tarzining barcha jabha va sohalarini o'z ichiga olib, tabiat, oila, ish faoliyati, ijtimoiy faoliyat, o'qish, bo'sh vaqtini sarflash bilan belgilanadi.

Insonlarning mehnat faoliyatini amalga oshirish sharoitlarini, mehnat hayotining sifati, deb atash qabul qilingan. Keng ma'noda bu ko'rsatkichga ish joylari, ishlab chiqarish holati (t0da, namlik, chang, shovqin, vengeletsiya)ning ulushi va uni tashkil etish, korxona mehnat jamosidagi o'zaro aloqalar va boshqalar kiradi.

Hayot sifatining turli taraflari yuz yillar davomida dunyoviy bilimlar – falsafa, sotsiologiya, va iqtisodiy bilimlarda aks etib kelgan.

O'z davrida Aristotel "Davlatning maqsadi – bu, yuqori hayot sifatiga erishishda birgalikdagi harakatdir", degan edi.

Hayot sifati nazariyasining rivojlanishiga E.Dyurkgeym, M.Veber, E.Meyo, A.Maslov kabi olimlar katta hissa qo'shishgan. D.Gelbreyt ilmiy qarashlaridan so'ng o'tgan asrning 80-yillarda "hayot sifati" tushunchasi keng qo'llanila boshlandi.

Ilmiy tahlilda hayot sifati biror mezon bilan aniqlash yoki taqqoslashni talab qiladi. Ma'lumki, har qanday jarayonni yoki obyektni o'rganish uchun uni baholashning ma'lum etalonini aniqlash lozim. Bunday etalon norma, standart, qoida, urf-odat yoki me'yorlarga asosan o'matiladi, mahsulot sifati esa tasdiqlangan standartlar, texnik sharoitlar, parametrlar darajasiga mosligiga ko'ra aniqlanadi.

Hayot sifati - inson ehtiyojlarini qondirish darajasini xarakterlab, shaxsiy ehtiyojning urf-odat, qadriyatlar va normalarga mos kelishini belgilab beradi. Bu ko'rsatkich turli xalqlarda turlicha bo'lishi mumkin.

Insonlarning hayot sifati ko'rsatkichlarini tahlil etish va rejalashtirishda turli ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Odatda, bu ko'rsatkichlar ijtimoiy indikatorlar, ham deb ataladi.

Ijtimoiy indikatorlar obyektiv tafsiflar berib, unda moddiy ne'matlar iste'moli darajasi, o'rtacha hayot kechirish darajasi, ta'lim tizimi kabi ko'rsatkichlar bilan birga subyektiv tafsiflar, ya'ni insonlarning turmush tarzi sharoitlarini qabul qilish darajasi bilan aniqlanadi.

Jahon iqtisodiy adabiyotida "inson hayoti sifati" («Quality of life» QOL) tushunchasi bilan birgalikda "subyektiv to'kin-sochinlik" (SWB subjection well-being) atamasi ham qo'llaniladi.

Insonning hayot sifati turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Bu ko'rsatkich millatlar o'rtaida ham nisbiy xarakterga ega. Masalan, amerikaliklarning hayot sifati bilan Afrika davlatlaridagi qabilalarda yashovchilarining turmush tarzi bir-biridan keskin farq qiladi. Fan-texnika taraqqiyoti ham hayot sifatiga keskin o'zgarishiga

<sup>134</sup> Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston 2000. 499-b.

ta'sir ko'rsatadi. Yevropa, Amerika, Yaponiya aholisi hayotini "Internet" siz tasavvur qiladi, haydi rivoylatmay o'g'lan davlatlar esa muhibot, radio yoki oddiy televideniya bilan cheklanadi.

Har bir millat miqyosida hayot sifati darajasi hayotda insonning maqsadidan kelib chiqadi.

Inson o'z faoliyat davrida quyidagi asosiy maqsadlarga erishishni oldiga qo'yadi:

- 1) moddiy ne'matlar;
- 2) hokimiyat va mashhurlik;
- 3) bilim va ijod;
- 4) moliyaviy takomillashuv.

Dunyo taraqqiyoti insonlar moddiy farovonligining o'sib borishi bilan xarakterlanadi. Moddiy ne'matlarning ko'payib borishi ishlab chiqarish, ijtimoiy, aqliy va ma'naviy sohalar va inson ta'siri ostida tabiiy resurslardan foydalanish rivojlanib borishi bilan belgilanadi.

Insonlar hayot sifati ko'rsatkichi dinamikasi, birinchi navbatda, moddiy ne'matlarni iste'mol qilishning miqdor va safat jihatidan oshib, o'rtacha umr ko'rish davri ish vaqt qisqarishi bilan esa qisqarishi sodir bo'ladi. Ushbu ko'rsatkichlarining oshib borishi XVIII asr oxiriga kelib turli ixtiro va kashfiyotlarni (to'quv mashinasi, bug' mashinasi) ishlab chiqarishda qo'llash tufayli ro'y bera boshladи. Natijada mehnat unumdarligi ko'rsatkichining o'sib borishi ro'y berdi. Bu davrda G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida ish vaqtining qisqarishi, moddiy va aqliy ne'matlar iste'molining ko'payib borishi kuzatildi.

1914-yili G.Ford zavodlarida 41 soatlik ish haftasi joriy etildi. Hozirgi davrga kelib rivojlangan davlatlarda haftalik ish vaqt 33-40 soatni, haq to'lanadigan ta'til davri esa 4-6 haftani tashkil etadi. Mamlakat miqyosida aholi moddiy farovonligining o'sib borishi, eng avvoli, shu davlat miqyosida YaMMning o'sishi bilan belgilanadi. Bu esa, o'z navbatida, tabiiy resurslardan ko'proq foydalanishni talab etadi. Buning natijasida atrof-muhitni himoya qilish muammosi kelib chiqadi. Hozirgi davrga kelib, jahon ekotizimining 70 %idan chiqqanligi ma'lum. Ekologik muammolar respublikamizni ham chetda qoldirmagan. Buni birligini Orol muammosi orqali ham bilamiz.

Dunyo taraqqiyotidagi yana bir tendentsiya – jinoyatchilikning o'sib borishidir. BMTning to'rtinchi ma'ruzasi ma'lumotlarida qayd etilishicha, 1985-1990-yillarda dunyo miqyosida jinoyatchilik yiliga o'rtacha 5 % o'sgan, bu ko'rsatkich, ayniqsa, rivojlangan davlatlarda yuqoriligidcha qolmoqda. Iqtisodiy jihatdan jinoyatchilikning yashirin iqtisodiyotdagi ulushi yildan-yil o'sib bormoqda.

Shu jihatlariga qarab, jahon sivilizatsiyasi rivojlanishining asosiy jarayonlari quyidagi jihatlari bilan xarakterlanadi:

- mehnat unumdarligining o'sishi XVIII asr oxirlariga kelib sezilarli darajada ro'y bera boshladи. Oxirgi o'n yillikda rivojlangan davlatlarda bu ko'rsatkich yiliga o'rtacha 2-2,5 % ni tashkil etmoqda;

- ish vaqtining o'rtacha davomiyligi keyingi 200 yil mobaynida rivojlangan davlatlarda 2 barobar kamaydi, kelajakda yanada kamayishi kutilmoqda;

– moddiy ne'matlar iste'moli miqdori ikkinchi jahon urushidan so'ng 3-4 barobar o'sdi. keyingi o'n yil mobaynida bu jarayon ko'rsatkich bir oz sekinlashib, o'sish sur'ati yiliga 2 %ni tashkil etmoqda;

– aholining o'rtacha tabiiy o'sishi miqdor jihatdan bir oz pasaydi, keyingi yillarda esa bu boradagi ko'rsatkich 1-1. 2 % ni tashkil etishi kuzatilmoxda;

– o'rtacha umr ko'rish keyingi 200 yil mobaynida rivojlangan davlatlarda qariyb 2 marotabaga oshdi, biroq tabiiy ahvolning yomonlashuvi va insoniyatning turli kasalliklarga chalinishi (SPID) o'rtacha umr ko'rishning pasayish xavfini keltirib chiqarmoqda;

– ishlab chiqarish faoliyati natijasida chiqindilar chiqarish darajasi o'sib bormoqda. Bu boradagi ko'rsatkich yiliga 5 %, o'ta xavfli chiqindilar esa yiliga 7-8 % miqdorida ko'paymoqda. Tabiatdagi ayrim resurslar yaqin o'n yillarda tugab qolishi taxmin qilinmoqda.

– jinoyatchilikning o'sib borishi barcha davlatlarda kuzatilmoxda, BMT ma'lumotlariga ko'ra, bu boradagi ko'rsatkich yilliga o'rtacha 5 %ni tashkil etmoqda.

Demak, jahon miqyosida inson taraqqiyotining ijobiy va salbiy jihatlari mavjud.

## **16.2. Aholi o'sishining ijtimoly-iqtisodiy oqibatlari. Maltus nazariyasi va unga bo'lgan tanqidiy yondashuvlar**

Ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus demografiya muammoları to'g'risida birinchilardan bo'lib fikr yuritgan bo'lmasa-da, "Nufus nazariyasi"ni ilk bor u yaratdi. Bu muammo bo'yicha barcha munozaralarda uning nomi birinchilardan tilga olinadi. Masalan, Aristotel (m.a. 384-322) "Siyosat" asarida aholisi kam sonli mamlakatni ideal davlat deb hisoblagan, chunki shunda sotsial garmoniya bo'ladiki, aholi me'yordan ko'p bo'lsa sotsial ziddiyat kelib chiqadi. U nikoh to'g'risida qonun taklif etgan, unda erkaklarga 37, ayollarga 18 yoshgacha farzand ko'rish ta'qilangan, uningcha aholi ko'pligi yer yetishmasligiga olib keladi va u qashshoqlikka mahkum etiladi.

F.Kene (1694-1774) "Aholi" (1756-y.) maqolasida insonlar "boylik" manbai ekanligiga ancha yaqin fikrlarni ilgari surdi. "Mamlakatning buyukligi uning aholisi bilan", degan edi u. Aholi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirib, odamlar mehnatidan foydalanish masalalari davlatning bosh iqtisodiy siyosati obyekti bo'lishi kerak. Bu fikr A.Smit tomonidan rivojlantirildi.

V.Petti ham aholini ayniqsa uning mehnat qiladigan qismini ulug'lagan, boylik yaratuvchi deb hisoblagan, birinchi bo'lib "insoniy kapital" tushunchasini kiritgan.

T.Maltus yashagan davr Angliyada sanoat inqilobi amalga oshayotgan yillar bo'lib, qayta ishlab chiqaruvchilar ommaviy qashshoqlashdi, ishsizlar armiyasi ko'paydi, ishchilarning iqtisodiy ahvoli tobora yomonlashdi. Xuddi shu holatlarga baho berish, uni izohlash, bu ahvolning sababi nimada ekanligini tushuntirish Maltusga nasib etdi. Uning asosiy asarlari quyidagilar: "Aholi nufusi qonuni to'g'risidagi tajriba" (1798), "Yer rentasining tabiatи va o'sishi to'g'risidagi tajriba" (1815), "Siyosiy iqtisod printsiplari" (1820-yilda yozilgan va avvalgi kitobni qayta ishlab, ikki jiddli asarga aylantirilgan). Bu asar uning do'sti D.Rikardonning "Siyosiy

iqtisodning boshlanishi” asaridan uch yil keyin chiqqan bo‘lib, nazariy metodologik jihatdan undan keskin farq qilmaydi. Bu asarlarda Maltus lendlordlar manfaatini himoya qiladi, ammo yer egalari va kapitalist-fabrikantlarning manfaatlari mos kelsa va ishchilarga qarshi qo‘yilsa, ularning ikkalasini qo‘llab-quvvatladi, hukmron sinflarni oqladi, ommanning och-yalang‘ochligi va og‘ir ahvolida ularning hech qanday aybi yo‘qligini isbotlamoqchi bo‘ldi. Mavjud tizimni takomillashtirish kerakligini u xayoliga ham keltirmadi, buni o‘ziga xos utopiya deb hisobladi.

Asosiy iqtisodiy masalalarni yagona bir omil asosida oddiygina tushuntirishga harakat qilinadi.

Tadqiqot predmeti sifatida avvalo ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish yo‘li bilan jamiyatning moddiy boyligini yanada ko‘paytirish masalasi qaraladi. Shu bilan birga, birinchi marta iqtisodiy o‘sish muammosini aholining o‘sishi bilan bog‘lashga harakat qilingan. Avvalgi tadqiqotlarda aholi o‘sishi o‘z-o‘zidan milliy xo‘jalik rivojiga olib kelishi (va aksincha) masalasi qo‘yilgan bo‘lsa, bu olim muammoga o‘ziga xos ravishda yondoshadi.

Tadqiqot usulida iqtisodiy liberalizm konsepsiyasini tan olgan holda, iqtisodiy o‘sish sur’atlari bilan aholi soni o‘rtasida o‘zaro aloqadorlikni ilmiy jihatdan isbotlashga o‘rinining o‘ziga xos yo‘llari mavjuddir.

Jahonga ma’lum bo‘lgan Ch.Darvin, D.Rikardo va boshqalarning qarashlari unga metodologik asos sifatida xizmat qildi.

Bu olim metodologiyasining yangiligi va ahamiyati shundaki, undan milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va qashshoqlik sabablarini aniqlash va undan chiqish uchun amaliy xulosalar chiqarish mumkin, yashash minimumi sifatida belgilanadigan tirikchilik vositalari va aholi o‘sish soni o‘rtasidagi oddiy nisbatni isbotlashga harakat qilinadi.

M.Blaugning ta’kidlashicha, Maltus bo‘yicha insoniy jamiyatni sotsial qonunlar (sotsial islohotlar) yordamida har qanday ongli takomillashtirishga urinish engib bo‘lmas insonlar ommasi tomonidan surib tashlanadi va shu sababli har bir odam o‘zi haqida o‘zi jon kuydirmog‘i va o‘zining xatolari uchun to‘la javob berishi kerak.

Maltus tabiat bilan hamohang o‘simlik va hayvonlarning cheksiz ko‘payishi va yashash uchun kerakli mablag‘lar o‘sishi yo‘nalishlarini tadqiq etadi. Agar insonlar har 25 yilda ikki marta ko‘payib, geometrik progressiya asosida ortib borsa (1, 2, 4, 8, 16, 32, 64, 128, 256 va hokazo), tirikchilik vositalari eng qulay sharoitlarda ham arifmetik progressiya asosidagina ko‘payishi mumkin (1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 va hokazo).

Bunday sharoitda 200 yildan so‘ng aholi sonining tirikchilik vositalariga nisbati 256 : 9, 300 yildan so‘ng esa 40096 : 13 bo‘ladi va hokazo (16.2.1-jadvalga qarang).

### 16.2.1-jadval

**T.R.Maltus “Nufus qonuni”ning matematik ifodasi**

Aholining o'sishi	Geometrik progressiya	1,2,4,8,16,32,64, 128 va hokazo
Tirikchilik vositalarining o'sishi	Arifmetik progressiya	1,2,3,4,5,6,7,8,9,10
200 yildan so'ng	Aholining o'sishi 256 marta	Tirikchilik vositalari 9 marta
300 yildan so'ng	Aholining o'sishi 9096 marta	Tirikchilik vositalari 13 marta

### 16.2.3-jadval

Avlodni davom ettirish instintki	Aholining o'sish potensiali		Aholi o'sishini chekllovchi omillar	
	Oldini olish choralar: tug'ilish kamayishi		Real omillar: O'lim ortishi	
	Axloqiy xarakterdag'i cheklashlar	Sog'liq pastligi	Noo'rin hayot	Kambag'allik
	Tirikchilik vositalarining cheklanganligi			

Tirikchilik vositalariga nisbatan doimo tezroq ko'payishga intilishi “aholining nufus qonuni”dir, bu qonun jamiyat paydo bo'lgandan buyon mavjud bo'lib, doim va quadratli harakatdadir. Aholining ortiqcha qismi zarurat tufayli ochlik, yalang'ochlik va qirilishga mahkum etilgan.

Maltusning fikricha, qashshoqlikning asosiy va doimiy sababi, boshqarish tarzi yoki mulkning notekis taqsimlanishiga hech ham bog'liq emas; bu jarayon “tabiiy qonunlar va insoniy hirs” tabiatning nochorligi va insoniyatning favqulodda tez ko'payishi bilan bog'liqdir. Shu sababli xalq o'z azob-uqubatlari uchun o'zini o'zi ayplashi kerak”. Uni to'g'rilashga hech qanday inqilob va sotsial islohotlar yordam bera olmaydi. Bunda faqat bir to'g'ri yo'l bor - bu aholi sonini qisqartirish. O'ta ko'payishning oldini olish vositasi, chorasi sifatida “axloqiy chidam” (kambag'allar nikohdan o'zlarini tiyishlari, kech turmush qurishlari), og'ir mehnat yoki turli baxtsizliklar (ochlik, qashshoqlik, kasallik, epidemiya, urush va boshqalar) taklif etiladi.

Maltusning fikricha, tabiiy biologik instinctga ko'ra insoniyat ko'payish imkoniyatiga ega va doimo shunga intiladi, ammosi jonivor va o'simliklar qaramaqarshi ravishda bu jarayonni cheklash imkoniga ham ega bo'lib, hayvonot dunyosidan ajralib turadi. Quyidagi jadvalda ana shu imkoniyatlar aks etgan.

Shunday qilib, Maltus ta'lomi bo'yicha, jamiyat illatlari insoniyatning beixtiyor qismatidir. Nazariy jihatdan bu fikrlarda hech qanday ilmiylik va yangilik yo'q. Bu “qonun”dagi asosiy g'oyalar ungacha bo'lgan olimlardan to'g'ridan-to'g'ri o'g'rilangan (*plagiat*), chunki o'z davrida Styuart, Uolles, Taunsend va boshqalar bu masalani yoritgan edilar. Maltusning bu nihoyatda reaksiyon xulosalari qattiq tanqidga uchradi. Tug'ilishni kamaytirish uchun u nikoh yoshini oshirishni, davlat tomonidan bolalarga beriladigan nafaqalarni butunlay bekor qilishni taklif etdi.

Maltus bu tanqidlardan xulosa chiqarib, 1820-yilda o'z asarini qayta ishlab chiqdi va unda o'z fikrlarini ancha yumshatishga intildi; ayniqsa ustiga dam-badam yog'ilib turadigan va aholini o'limga mahkum etadigan balo-ofatlarni zaruriy deb hisoblashdan voz kechdi va kechirim so'radi, uni noto'g'ri tushunganliklarini aytib o'tdi, ammo u o'zining bosh fikrini inkor etmadi.

Maltus markaziy g'oyasi, ya'ni aholi soni o'sish sur'atlarining jamiyat farovonligiga ta'siri printsipda to'g'ri va dolzarbdir. Ammo olim tomonidan berilgan prognoz (istiqbol) lar baxtimizga normal bo'lib chiqdi. Har 20-25 yilda aholining ikki marta ko'payishi insoniyatni to'la qashshoqlikka mahkum etishi kerak edi.

Maltus "doktrinasi" avvalo metodologik jihatdan xato edi, chunki hech qanday isbotsiz tabiat qonunlari jamiyat hayotida qo'llaniladi, vaholanki insonlar o'simlik va hayvonot dunyosidan farqli o'laroq faqat iste'mol qilmaydilar, balki o'zları ishlab chiqaradilar va tirikchilik vositasini ko'paytirish imkoniyatlariga egadirlar. Shuni eslab o'tish joizki, o'z davrida Petti va Smit mamlakat boyligining asosi unumli mehnat bilan shug'ullanuvchi aholi ekanligini isbotlab bergenlar. Maltus klasavrarning bu fikrini inkor etadi. Undan tashqari, Maltus o'zi ochgan qonunni abadiy deb e'lon qiladi. Aslida esa kapitalizm davrida ortiqcha ishchi kuchi hisobiga aholining nisbiy ortiqchaligi yuzaga keladi, bu yerda aholining nisbiy ortiqchaligi aholining absolyut ortiqchaligi deb ko'rsatilgan.

Maltus progressiyalari esa statistik va amaliy (faktik) materiallarni ochiqdan-ochiq soxtalashtirishdir (falsifikatsiya). Unda berilgan ma'lumotlar AQShning XVI-XVIII asrlardagi aholi o'sishiga nisbatida keltiriladi, bu mamlakat aholisining asosan Yevropa aholisining emmigratsiyasi hisobiga ko'payganligi haqidagi "arzimas" fakt esa hisobga olinmagan (tabiiy o'sish bor, emmigratsiya bor).

Maltus o'z fikrini "isbotlash" uchun "*tuproq unumidorligining pasayib borishi*" nazariyasidan foydalanadi. Bu nazariyaga ko'ra, yerga sarflangan qo'shimcha kapital go'yoki mahsulotni proportional tarzda ko'paytirishga imkon bermas emish, binobarin odamlar o'zlarini oziq-ovqat va boshqa tovarlarga bo'lган ehtiyojlarini qondiradigan mahsulotlarni to'la hajmda etishtira olmaydilar. Shu tariqa mahsulotlarning yetishmasligi tabiatning tabiiy-biologik qonunlari bilan izohlab beriladi. Bu "qonun"da jon bor albatta, masalan bir gektar yer bilan dunyoni boqib bo'lmaydi, lekin ilmiy-texnika taraqqiyoti tufayli ko'pgina davlatlar yerdan niroyatda unumli foydalanib oziq-ovqat va boshqa muammolarni hal etmoqdalar. Demak, bu "qonun" ham nazariya, ham amaliyot tomonidan inkor qilinadi. Bunga "ko'k inqilob"ni misol keltirish mumkin.

"Ko'k inqilob" 1960-yillarning oxirida paydo bo'ldi, u qishloq xo'jaligida ilmiy-texnika taraqqiyotini qo'llash yo'li bilan uning mahsulorligini oshirishni anglatadi. Bu jarayon 1950-yillarning o'rtalarida donning yuqori hosilli gibrid navlari kashf qilinishi bilan bog'liq.

Bir qancha mamlakatlar "ko'k inqilob"dan foydalanib ancha katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Masalan, Hindiston 70 yillarning oxiri va 80 yillarning boshida o'zini o'zi don bilan ta'minlashga erishdi. Bu yerda 1976-yilda 120 million tonna don olindi, bu 1950-yilga nisbatan 2.5 marta ko'pdir, 1989-yilda esa 200 million tonnaga yaqin don olindi, shundan 165 million tonnasi guruch va bug'doydir.

Filippinda 1965-89-yillarda sholi hosildorligi bir necha marta, ya'ni 1.7 mln tonnadan 9.5 mln tonnaga o'sgan bo'lsa, Indoneziyada bu ko'rsatkich gektariga 18.1sentnerdan 42.3 tsentnerga o'sdi. XXR da yiliga 430-465 mln tonna don olinishi natijasida bu yerda 1 mlrd 250 mln kishilik aholi uchun oziq-ovqat muammosi asosan hal etilgan.

Maltus "Nufus nazariyasi"ga ko'ra, ishchilarning sonini kamaytirishni taklif etgan bo'lsa, ishlar mayda eydiganlarning sonini oshirishni jamiyat uchun foydalı deb hisoblaydi.

Bu g'oyalar aslida Sismondiga tegishli faqat Sismondi kapitalizmdan voz kechish va mayda ishlab chiqarishni rivojlantirishni taklif etgan bo'lsa, Maltus kapitalizmdan voz kechmagan holda, avvalo yirik er egalari va ruhoniylar manfaatini ta'minlashni qo'llaydi.

Maltus g'oyalaridagi bu ilmiy chalkashliklarga qaramasdan, unda bir qancha ijobjiy fikrlar mavjud. Hozirgi davrda rivojlanayotgan mamlakatlardagi og'ir ahvolni tushuntirishda bu olimning qarashlari to'g'ri keladi. Ayniqsa, Koreya Respublikasi rivoji xarakterlidir. Agar bu erda 1950-60-yillarda aholining o'sishi yiliga 3 %ni tashkil etgan paytda iqtisodiy rivojlanish past bo'lgan bo'lsa, 90 yillarda aholining o'sishi 1 %ga tushgan paytga kelib iqtisodiy o'sish keskin oshdi. Markaziy Osiyo mamlakatlarda ham aholining o'sishi katta bo'lib, iqtisodiy rivojlanish muammolarini hal etishda bu olimning ba'zi g'oyalaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Maltusning "Nufus nazariyasi" XIX asrda juda keng tarqaldi va mashhur bo'lib ketdi. Hozirgi davrda ham yangi zamonaviy maltuschilar G.Butul, N.Chemberlen, P.Erlux, U.Fogltar Maltusning "ikki progressiya" to'g'risidagi dastlabki qarashlarini biroz o'zgartirib, "aholining qarib borishi", "aholining eng maqbul miqdori", "qimmatli" va "arzon" kishilar kabi turli-tuman g'oyalarini ilgari surmoqdalar. Bu konsepsiyalarda ilmiy-tehnika taraqqiyotining oqibatlari, atrof-muhitni muhofaza qilish bahonasi bilan, Yer kurrasida "ortiqcha" odamlar ko'payib ketdi, deb ularning sonini turli yo'llar bilan kamaytirish rejalarini taklif qilindi.

XXI asr boshida planetamizda 6 *mlrd* dan ortiq aholi istikomat qilmoqda (1945-yilda aholi soni 2.5 *mlrd* edi) va bu ko'rsatkich tobora ortib bormoqda. Eng muhim va ayanchli tomoni shundaki, kam rivojlangan va qolqo davlatlarda bu o'sish tez bo'lib, aholining 75 %i shu davlatlarga to'g'ri keladi. Shuning uchun demografiya muammosi hozirda ham nihoyatda dolzarbdir. Bugungi kunda bu muammoni hal qilish maqsadida hatto oilani rejalashtirish chora-tadbirlari taklif qilinmoqda.

### **16.3. O'zbekistonda demografik jarayonlarning o'ziga xosligi**

Bozor munosabatlariiga o'tish sharoitlarda MDH mamlakatlari aholisi soni ancha kamaygan Belorus, Rossiya, Ukraina va Qozog'iston kabi mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda aholi soni ma'lum darajada oshib bormoqda.

1897-yilda hozirgi O'zbekiston hududida atigi 3,9 mln kishi yashar edi, ya'ni o'tgan 100 yildan sal ko'proq vaqt mobaynida bu yerda aholi 6,3 baravar (2000 yilga kelib 24,6 mln kishigacha) ko'paydi. 3.2-jadvaldan ko'rinish turganidek, XX asrda O'zbekiston aholisining soni bir tekis oshgani yo'q. Uning dastlabki ikki hissa ko'payishi salkam 60 yil davomida ro'y berdi, keyingi ikki hissa ko'payishi esa 20 yil

ichida amalga oshdi. Respublika aholisi 2001-yilning oxiriga kelib 1980-yilga nisbatan 1,6 baravar ko'payishi kutilgan edi, aholining uchinchi marotaba ikki hissa ko'payishi esa uning yuzaga kelgan ko'payish sur'ati saqlangan taqdirda XXI asr ikkinchi o'n yilligining oxirida ro'y berishi kutilmoqda.

Aholi ko'payishi bilan bir yo'la uning zinchligi ham ancha oshmoqda: 1940-yilda har km<sup>2</sup>-ga 14,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000-yilda 54,1 kishi to'g'ri keldi (zinchlik 3,7 baravar oshgan). Hozirgi vaqtida O'zbekistonning 14 ta hududiy bo'linmasidan 10 tasi, shu jumladan, Toshkent shahri aholi zinch bo'lgan hududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi, vaholanki, ular O'zbekiston hududining atigi choragini, aholi uncha zinch bo'lмаган to'rtta viloyat esa respublika hududining qolgan to'rtdan uch qismini egallagan.

Aholi nihoyatda zinch bo'lgan mintaqalar hissasiga respublika mehnat resurslarining 81 % ni to'g'ri kelayotgan bo'lsa, ishsizlar ular umumiy sonining atigi 55 % ni miqdoriga to'g'ri kelmoqda. Umuman, O'zbekiston bo'yicha rasmiy ishsizlik darajasi 0,5 %ni tashkil etayotgan bo'lsa, aholi nihoyatda zinch bo'lgan mintaqalarda 0,3 %ni tashkil etmoqda.

### 16.3.1-jadval

O'zbekistonning asosiy demografik ko'rsatkichlari<sup>135</sup>

Yil	Aholi soni, mln kishi	Aholining o'rtacha yillik ko'payishi, ming kishi	Aholi ko'payishi-nинг o'rtacha sur'ati	Tug'ilish koefitsienti, %	O'lim koefitsienti, %	Tabiiy ko'payish koefitsienti, %
1897	3,95	-	-	-	-	-
1960	8,52	72,6	1,25	39,9	6,0	33,9
1980	15,76	362,0	3,15	33,8	7,4	26,4
1999	24,14	445,6	2,30	22,3	5,3	17,0
2000	24,49	332,2	1,4	21,3	5,5	15,8
2001	24,9	361,3	1,2	20,4	5,3	15,1
2002	25,4	395,5	1,2	21,0	5,4	15,6
2003	25,7	372,5	1,1	19,8	5,3	14,5
2025	33,4*	233,7	0,75	-	-	-

Aholi zinchligi past darajada bo'lgan mintaqalarda kamroq rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, tor yo'naltirilgan tarmoq ixtisoslashuvi va ekotizimiga putur yetishining oqibatlari sezilarliroqligi hosdir. Respublika aholisi sonining o'sishi uni shakllantirish manbalari bo'lgan tabiiy va mexanik tarzda ko'payishi bilan bog'liqidir.

Hozirgi vaqtida aholi migratsiyasining manfiy saldosи kamayib, 1990-yildagi 181 ming kishidan 2000-yilda 66,6 ming, 2006-yilda 65,2 ming, 2013-yilda 34,6 ming, kishiga tushib qoldi (16.3.2-jadval)<sup>136</sup>.

<sup>135</sup> Q.X.Abdurahmonov, X.X.Abduramanov Demografiya. – T.: Fan va tehnologoyalar. 2012-y. 126-b.

<sup>136</sup> O'zbekiston aholisi 2014. Statistik to'plam. 12-bet. Toshkent. 2014-y.

**Aholining tabiiy harakati va migratsiya (ming kishi)**

Yillar	Yil boshiga aholi	Umumiy o'sish	Tabiiy o'sish	Migratsion o'sish	Yil oxiriga aholi	Yillik umumiy o'sish (%)
<i>Jami aholi soni</i>						
2006	26312,7	351,1	416,3	-65,2	26663,8	1,33
2010	28001,4	1122,0	496,4	-44,1	29123,4	4,01
2011	29123,4	432,0	479,5	-47,6	29555,4	1,48
2012	29555,4	438,1	479,1	-40,9	29993,5	1,48
2013	29993,5	499,3	533,8	-34,6	30492,8	1,66
<i>Shahar aholisi</i>						
2006	9495,1	89,5	112,7	-23,2	9584,6	0,94
2010	14425,9	471,5	214,0	-29,8	14897,4	3,27
2011	14897,4	245,8	206,1	-46,7	15143,2	1,65
2012	15143,2	226,9	207,3	-38,1	15370,1	1,50
2013	15370,1	185,1	231,0	-49,0	15555,2	1,20
<i>Qishloq aholisi</i>						
2006	16817,6	261,6	303,6	-42,0	17079,2	1,56
2010	13575,5	650,5	282,4	-14,3	14226,0	4,79
2011	14226,0	186,2	273,4	-0,9	14412,2	1,31
2012	14412,2	211,2	271,8	-2,8	14623,4	1,47
2013	14623,4	314,2	302,8	14,4	14937,6	2,15

Shu bilan birga O'zbekiston aholisining XX asr ohriga kelib umumiy ko'payishi, asosan, tabiy ko'payish hisobiga ro'y berdi, ushbu ko'payish esa mexanik tarzda ko'payishning mexanik saldosini qopladi. Ayni vaqtida aholini tabiiy ko'payishi asta sekin pasayib bormoqda. Buning boyisi avvalo shundaki, Respublika aholisi o'z hayotini sifat jihatdan yahshilash uchun oilani oqilonqa rejalashtirishga moyilroq bo'lib bormoqda.

2000-2013-yillarda respublikada aholining yosh tarkibi progressivroq bo'lib qoldi. Mehnatga layoqatli yoshga yetmagan bolalar va o'smirlar ulushi 2013-yilda butun mamlakat aholisining 41 %ini, mehnatga layoqatli yoshdagagi odamlar ulushi 51,2 %ini, mehnatga layoqatli yoshidan kattaroq odamlar ulushi 7,5 %ini tashkil etdi. Ushbu yillarda mehnatga layoqatli yoshdan oshgan aholi jamiyat keksayishi jarayonini belgilaydigan yo'l qoyiluvchi eng yuqori darajadan oshmadidi.<sup>137</sup>

To'g'ri hozirgi vaqtida amalda barcha rivojlangan mamlakatlarda namoyon bo'layotgan aholi keksayishi istiqbolda bizdan ham boshlanishi mumkinligi ehtimoldan holi emas. O'zbekistonda bu hozirgi vaqtdagi mehnatga layoqatli aholi o'zining yosh guruhidan kattaroq yosh guruhiga o'tib, pensionerlar safini to'ldirishi natijasida ro'y beradi. Darvoqe, 50-yillarning ohrida mamlakatimizda bunday jarayon kuzatilgan edi. 1959-yilda mehnatga layoqatli yoshdan kichikroq shahslar ulushi 38,9 %ni, mehnatga layoqatli yoshdagagi shahslar ulushi 49,1%ni, mehnatga layoqatli yoshdan kattaroq shahslar ulushi 12% ni tashkil etgan edi. O'shanda

<sup>137</sup> O'zbekistonda mehnat va bahdlik. Statistik to'plam. Toshkent. 2014-y.

ikkinchi jahon urushi yillarida tug'ilish darajasi pasayganligi bunday nisbatning asosiy sababi bo'lgan edi.

Qishloq aholisining soni doyimiy oshib borishi va respublika aholisi umumiy miqdorida uning ulushi yuqoriligi O'zbekiston demografik rivojlanishining o'ziga hos xususiyatidir. Ayni qishloq aholisi respublika aholisining uchdan ikki qismini tashkil etib, undagi tabiiy ko'payish, tug'ilish va chaqaloqlar o'limi hajmlarini birinchi navbatda belgilaydi.

Aholining ko'payib ketish muammosi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb bo'lib turganligi yuqorida aytib o'tildi. Ushbu muammo O'zbekitonda ma'lum darajada tahdid solishi mumkin. Bu tahdidni tashqi va ichki tahdidiga bo'lish mumkin. Tashqi tahdid sirasiga aholisi zinch bo'lgan va odatda, qashshoqlashgan qo'shni mamlakatlarda turmush darajasi yomonlashishi kiradi. Bular ijtimoiy va harbiy mojarolarga, migrantlarning sonining ko'payishiga olib kelishi mumkin.

### 16.3.2-jadval

#### O'zbekistonda aholining tug'ilish, o'lish va tabiiy o'sish holati<sup>138</sup>

Yillar	Jami kishi			1000 kishiga nisbatan		
	Tug'ilganlar	O'lganlar	Tabiiy o'sish	Tug'ilganlar	O'lganlar	Tabiiy o'sish
<b>Jami aholi</b>						
2008	608,9	137,4	471,5	22,6	5,1	17,5
2009	646,1	138,8	507,3	23,6	5,1	18,5
2010	651,3	133,6	517,7	23,4	4,8	18,6
2011	634,8	138,4	496,4	22,0	4,8	17,2
2012	622,8	143,3	479,5	21,2	4,9	16,3
2013	625,1	146,0	479,1	21,0	4,9	16,1
<b>Shahar aholisi</b>						
2008	191,4	58,1	133,3	19,7	6,0	13,7
2009	203,1	57,7	145,4	20,7	5,9	14,8
2010	292,2	71,4	220,8	20,3	5,0	15,3
2011	289,4	75,4	214,0	19,6	5,1	14,5
2012	283,1	77,0	206,1	18,9	5,1	13,8
2013	287,0	79,7	207,3	18,8	5,2	13,6
<b>Qishloq aholisi</b>						
2008	417,5	79,3	338,2	24,2	4,6	19,6
2009	443,0	81,1	361,9	25,2	4,6	20,6
2010	359,1	62,2	296,9	26,7	4,6	22,1
2011	345,4	63,0	282,4	24,5	4,5	20,0
2012	339,7	66,3	273,4	23,7	4,6	19,1
2013	338,1	66,3	271,8	23,2	4,6	18,6

Ichki muammolar O'zbekistonning o'zidagi aholi nisbatan tez suratda ko'payib borayotganligi bilan bog'liq. Ko'p bolali oilalarga beriladigan nafaqalarga, muktabgacha va boshlang'ich ta'limning qimmat infratuzilmasini kengaytirishga, sog'liqni saqlash xizmatlarini kengaytirishga sarf-harajatlarni ko'paytirish kabi chora-tadbirlar ushbu tug'ilish darajasi bilan bog'liq. Buning ustiga aholini ijtimoiy

<sup>138</sup> O'zbekiston aholisi 2014. Statistik to'plam. 47-b. Toshkent. 2014-y.

himoyalash ustuvorligini va o'tish davrida jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash bilan birga hukumat ko'p bolali oilani faqat nafaqalar hisobidan boqish mumkinligi bilan ko'p yillarda buyon bog'liq bo'lib kelayotgan boqimandalik kayfiyatlaridan jamiyatni halos eta borishi ham kerak bo'ldi.

Bu esa manzilsiz tusda bo'lgan va deyarli butun aholini qamragan, shu tufayli samaradorligi pasaygan aholini iltimoiy himoyalash tizimidagi shusiz ham qiyin bo'lgan vaziyatni murakkablashtirar, mazkur tizim deyarli butun aholini qamrar, bu esa ushbu himoyaning samarasini pasaytirar edi.

O'zbekistonda bir onadan farzandlar tug'ilishidagi vaqt oralig'ini uzaytirish, oilada farzandlar sonini emas, balki mamlakatning kelajagini ta'minlay oladigan sog'lom, ilmli insonlarni tarbiyalash maqsadida, sog'lom millat genofondini shakllantirish borasida olib borilayotgan oqilonqa siyosatni yanada rivojlantirish lozim. Shu munosabat bilan respublikada olib borilayotgan "Sog'lom avlod" dasturini, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amaliyligini ta'minlash, jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va madaniy hayotdagi hotin-qizlar roli va maqomini, ommaviy jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, jamiyat va oilaning umumiy madanniyatini yuksaltirish kabi bir qator tadbirlarni amalga oshirish lozim.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Aholi o'sishi, ko'k inqilob, demografik omil, aholining keksayishi, Maltus nazariyasi, Nufus nazariyasi, tirikchilik vositalari, falsifikatsiya, iqtisodiy taraqqiyot.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Aholi o'sishi va iqtisodiy taraqqiyot o'rtaqidagi qanday bog'liqlik mavjud?
2. Aholi o'sishi qanday ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltiradi?
3. Maltus nazariyasining mohiyati nimadan iborat?
4. O'zbekistonda demografik jarayonlarning o'ziga xosligi nimada?
5. O'zbekistonda aholi tug'ilishi, o'lishi va tabiiy o'sishini qanday baholaysiz?

## 17-bob. IQTISODIY TARAQQIYOTNING UMUMBASHARIY QONUNIYATLARI

### 17.1. JAHON MAMLAKATLARINING IQTISODIY TARAQQIYOTI VA O'ZERO IQTISODIY BOG'LILQILINGINING O'SISHI

Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojlanishining eng muhim o'ziga xos xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlar va xo'jalik mintaqalari o'rtasidagi o'zaro bog'lilikning o'sib borishi hisoblanadi.

Dunyo bir-biridan maqsadlari, amal qilish mexanizmi bilan farqlanuvchi turli xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlar, xalqaro guruhlarga bo'lingan. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash har xil mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarining turli-tumanligi ular taraqqiyot darajasini qandaydir bitta nuqtai-nazardan baholash imkonini bermaydi. Shunga ko'ra, mazkur maqsadda bir necha asosiy ko'rsatkich va mezonlardan foydalilanadi:

- mutlaq va nisbiy YaIM;
- milliy daromad va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori;
- milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi;
- mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi;
- ahollining turmush darajasi, sifati va boshqalar.

Mamlakatning jahon xo'jaligidagi o'mini aniqlashda bir necha yondoshuvlar mavjud. Ulardan eng oddiyları – mamlakatlarni aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromad darajasi bo'yicha guruhlarga ajratish hisoblanadi. Bunday yondoshuv BMT, Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon tiklanish va taraqqiyot banki (JTTB) tomonidan qo'llaniladi. Masalan, JTTB daromad darajasiga ko'ra mamlakatlarning uchta guruhini farqlaydi. 1995-yili aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi milliy daromadlarning quyidagi chegaraviy miqdorlari belgilangan edi:

- daromadlarning past darajasi – 765 dollargacha (49 ta mamlakat);
- daromadlarning o'rtacha darajasi – 766 dollardan 9385 dollargacha (58ta mamlakat);
- daromadlarning yuqori darajasi – 9386 dollar va undan yuqori (26ta mamlakat).

Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlashga umumiylasosda yondashib xo'jalik tizimlarining xususiyatlariga mos ravishda davlatlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: rivojlangan, bozor iqtisodiyotiga asoslangan holda rivojlanayotgan va bozor iqtisodiyoti mavjud bo'limgan mamlakatlar. Rivojlanganlik darajasi bo'yicha ham o'z navbatida uchta guruh farqlanadi: past, o'rtacha va yuqori rivojlangan mamlakatlar. Shimoli-sharqi Osiyo va Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar (YaIM), yuqori daromadli neft eksport qiluvchi mamlakatlar (Saudiya Arabiston, Quvayt va boshqalar), eng kam rivojlangan mamlakatlar (EKRM), shu jumladan eng kambag'al mamlakatlar (Chad, Bangladesh, Efiopiya), har xil mintaqaviy ittifoqlar va baynalminal guruhlarga ajratiladi.

Jahon xo'jalik aloqalarining tez o'sishi shunday davrlarga to'g'ri keladiki, bu davrda ishlab chiqarish omillarining harakati tezlashadi, kapital milliy chegaradan

o'sib chiqadi, ishchi kuchi migratsiyasi kuchayadi, xalqaro mehnat taqsimotining shakllanish jarayoni tezlashadi. Bu shundan guvohlik beradiki, xo'jalik aloqalarining baynalminallahuvini ko'p jihatdan ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish mantiqi taqozo qiladi, ya'ni u milliy chegaradan o'sib chiqadi va obyektiv ravishda ishlab chiqarishning baynalminallahuvini zarur qilib qo'yadi.

Intensiv davlatlararo iqtisodiy aloqalarning hozirgi darajasi quyidagilarni ko'rsatadi:

- jahon xo'jaligida xalqaro mehnat taqsimoti darajasining chiqurligini;

- an'anaviy xalqaro tayyor mahsulotlar savdosi miqyoslarining kengayishi va xarakterining o'zgarganligini (u ko'p jihatdan milliy ishlab chiqarish jarayonlariga to'g'ridan-to'g'ri xizmat qila boshlaydi);

- kapital migratsiyasining intensivlashganligini;

- ilmiy-texnik bilimlar almashuvining tezlashganligi va shuningdek xizmatlar sohasining rivojlanganligini;

- ishchi kuchi migratsiyasining sezilarli darajada o'sganligini (xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi xalqaro xo'jalikning baynalminallahuvining muhim qismi bo'lib qolmoqda);

- davlatlar va mintaqalar o'rtaсидаги iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlarining tezlashishi va kengayishini.

Sanoati rivojlangan davatlarning savdo, ishlab chiqarish va kredit-moliya sohasida erishilgan yutuqlar darajasi jahon xo'jaligining shakllanishini ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Uning ishtirokchilari davlat chegaralarining mavjudligiga qaramay umumiy xo'jalik tizimining tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko'rsatadilar. Xo'jalik hayotining baynalminallahushi tushunchasi ortida alohida davatlarni global jahon majmuiga birlashtiruvchi ko'p darajali jahon xo'jalik aloqalari tizimining samarali ishlashi turadi.

Baynalminallahuv alohida milliy iqtisodiy tizimlarning o'sib borayotgan o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqligini xarakterlaydi. XX asrda ayirboshlashning baynalminallahuvi kapital va ishlab chiqarishning baynalminallahuviga aylanadi, ITI ta'sirida rivojlanishda sezilarli turtki oladi (XX asr 50-yillarining o'rtalari). Xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasi keskin o'sdi. Yirik miqyosdag'i ixtisoslashgan ishlab chiqarish uchun ichki bozorlar doirasi torlik qila boshlab, u obyektiv ravishda milliy chegaralardan chiqa boshlaydi.

ITI ta'sirida ishlab chiqarishning baynalminallahushi shunday holatni yuzaga keltiradiki, u har qanday mamlakat uchun "shaxsiy ishlab chiqarishga" ega bo'lish foydasiz bo'lib alohida milliy iqtisodiyotlar esa yanada ko'proq jahon xo'jaligiga integratsiyalashadilar. Ishchi kuchi harakati, kadrlar tayyorlash, mutaxassislar bilan almashish yanada baynalminnal xarakterga ega bo'ladi.

Ushbu aloqalar va rivojlanishining istiqboli shakllanish qonuniyatlarini tekshirish shuni ko'rsatmoqdaki, jahon xo'jaligini rivojlanishining asosiy tendentsiyasi bo'lib kapital, tovar va xizmatlarning yagona planetar bozorini tashkil qilish va alohida davatlarni yagona jahon xo'jaligi majmuiga birlashtirishga bo'lgan harakat hisoblanadi. Bu esa global iqtisodiyot masalalarini xalqaro iqtisodiyot munosabatlar

tizimi majmui sifatida o'rganish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bu esa xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqacha qilib aytganda yuqoriqoq darajasidir.

Jahon iqtisodiyoti va XIMda globalizatsiya fenomenini ikki tomonlama, ya'nı makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy darajada ko'rib chiqish mumkin. Makroiqtisodiy darajada globalizatsiya – bu, davlatlar va alohida mintaqalarning chegaralaridan tashqarida iqtisodiy faoliyat ko'rsatishga bo'lgan umumiyligi intilishlari tushiniladi. Bunday intilishlarning ko'rinishlari - liberalizatsiya, savdo va investitsion to'siqlarning olib tashlanishi, erkin tadbirkorlik zonalari tashkil etish va h.k.lar hisoblanadi. Mikroiqtisodiy darajadagi globalizatsiya esa korxona faoliyatining ichki bozor chegaralaridan tashqarida kengayishi tushiniladi. Tadbirkorlik faoliyatining millatlararo yoki ko'pmilliy yo'nalganligidan farqli ravishda globalizatsiya jahon bozori yoki "jahon uchligi" (Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Yaponiya) bozorlarini o'zlashtirishda yagona yondashishni tushuniladi.

## 17.2. Xalqaro mehnat taqsimoti va uning turlari

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning mohiyati, ma'nosini ko'rsatuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri xalqaro mehnat taqsimotidir. Dunyoning barcha mamlakatlari u yoki bu jihatdan xalqaro mehnat taqsimotiga (XMT) qo'shilgan. Uning chuqurlashuvi ilmiy-teknika inqilobining (ITI)ning ta'siri ostida bo'lgan ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishidan kelib chiqadi.

Xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etish davlatlarga qo'shimcha iqtisodiy samara berib, o'z ethiyojlarini eng kam harajatlar bilan to'liqroq qondirish imkonini beradi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mohiyati ishlab chiqarish jarayonining mehnat faoliyatini turli shakllarining ixtisoslashuvi va ularning kooperatsiyalashuvida, o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Mehnat taqsimotini faqat ajratish jarayoni sifatida emas, balki, jahon miqyosida mehnatni birlashtirish yo'li sifatida ham ko'rish mumkin.

Xalqaro mehnat taqsimoti davlatlar o'tasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimotining darjasini hisoblanadi. U alohida bir davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti nazariyasi siyosiy iqtisod klasdavrari A.Smit va D.Rikardo ishlarida asoslab berildi va rivojlantirildi. Adam Smit "Xalqlar boyligining tabiatи va sabablari" kitobida (1776-y.) xalqaro mehnat taqsimotini tahlil qilib, savdo va tadbirkorlik erkinligi zarurligini isbotlaydi. Uning fikricha, savdo erkinligini cheklashlar alohida mintaqalar va butun bir davlatlar o'tasida ro'y berayotgan mehnat taqsimotini chuqurlashishiga halaqit beradi. To'siqlarning yo'qotilishi va xalqaro almashinuv maydonining kengayishi milliy iqtisodiyotni ixtisoslashuviga va ularning o'zaro bog'liqligini oshirishga, umujahon xo'jaligining yuzaga kelishiga olib kelishi kerak. A.Smit keyinchalik jahon iqtisodiyotida juda mashhur bo'lib ketgan erkin savdo shiorini olg'a surgan edi (laisser-faire). A.Smit g'oyalarini keyinchalik ingliz iqtisodchilar David Rikardo, R. Torrens va Jon Stuart Mill va boshqalar o'z ishlarida rivojlantirishdi.

Klasdavrarning xalqaro mehnat taqsimoti to‘g‘risidagi ilmiy nazariyasining asosiy yutuqlaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarishning nisbiy harajatlari nazariyasidir. Bu nazariya xalqaro savdo haqidagi iqtisodiy ta’limotning “klassik” asosi hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning nisbiy harajatlari nazariyasining asosida mamlakatlar orasida ishlab chiqarish sharoitlarida farq mavjudligi haqidagi g‘oya yotadi. Bunga ko‘ra har qanday mamlakatda ham va shuningdek har qanday tabiiy va iqlimiy sharoitlarda ham har qanday tovar ishlab chiqarishni tashkil etish mumkin deb hisoblanadi.

Nisbiy harajatlар nazariysi biron-bir tovar ishlab chiqarishda bir davlatning boshqa bir davlatdan absolyut ustunligi mavjudligida emas, balki bunday ustunlik mavjud bo‘lmagan holatda ham ixtisoslashuv foydali ekanligi isbotlanadi. Agar xalqaro darajadagi harajatlarga nisbatan kam harajat bilan tovar ishlab chiqarishning iloji bo‘lmasa, harajatlarning o‘rtacha darajadan ko‘pligi qaysidir bir tovorda eng kam bo‘ladi. Boshqa tovarlarga nisbatan foydaliroq bo‘lgan shu tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish kerak (bunda ixtisoslashish samara beradi). Bunda teskari holat ham nazarda tutilgan. Mamlakat bir necha tovarlar bo‘yicha ustunlikka ega bo‘lsa, bu ustunlik maksimal bo‘lgan tovar ishlab chiqarishga ixtisoslashish kerak. Iqtisodiy klasdavraring ushbu g‘oyalari E. Xeksher, P. Samuelson, B. Olin, V. Leontev va boshqa zamonaviy iqtisodchilar tomonidan yanada rivojlantirildi.

Jahon xo‘jaligini rivojlantirish uchun birinchi navbatda ishlab chiqarishda mehnat unumdoorligini oshirish, ishlab chiqarishda samaradorlikni ko‘tarish, shuningdek ishlab chiqarishda harajatlarni kamaytirishga intilish zarur. Xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi jarayonida asosiy narsa, bu shu jarayonning har bir ishtirokchisi o‘zining XMTdagi ishtirokidan iqtisodiy foyda qidirishi va topishidir.

Har qanday davlatning xalqaro almashuv jarayonida xalqaro mehnat taqsimotining ustunliklarini amalga oshirishi – birinchidan, eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning tashqi va ichki bozor narxlaridagi farqni olish; ikkinchidan, arzonroq bo‘lgan importdan foydalanib, milliy ishlab chiqarishdan voz kechgan holda ichki harajatlarni kamaytirish imkonini beradi.

Jahon xo‘jaligini tizim sifatida ko‘rib chiqqanda XMTni bu tizimni tashkil qilgan birlashtiruvchi asos deb ko‘rish mumkin.

Jahon iqtisodiyotida sanoati rivojlangan davlatlarning ishlab chiqarishi ko‘p holatlarda tashqi iste’molchilarga, ichki talab esa importga yo‘nalgan bo‘ladi deb taxmin qilinsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa ichki bozorning nisbatan tez, lekin ekstensiv kengayishi taxmin qilinmoqda.

Xullas, XX-XXI asrlar bo‘sag‘asida jahonda misli ko‘rilmagan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy jarayonlar ro‘y bergen bo‘lib, ular albatta xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishiga o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatgan edi.

Xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi asosiy yo‘nalishini biz xalqaro ixtisoslashuv va ishlab chiqarish kooperatsiyasining kengayishida ko‘rishimiz mumkin. Xalqaro kooperatsiya (XK) va xalqaro ixtisoslashuv (XI) xalqaro mehnat taqsimotining shakllari bo‘lib, uning mohiyatini namoyon qiladi.

Turli davlatlarning korxonalarini ma'lum bir tovarga ixtisoslashuvi zamonaviy ITI bilan bog'liqdir. Ishlab chiqarishning texnologik tizimini murakkablashib borishi bilan tayyor mahsulotda ishlataladigan detallar soni ko'paydi. Masalan: yengil avtomobil sanoatida 20 minggatacha, prokat dastgohlarida 100 mingtacha, elektrovozлarda esa 250 mingtacha detallarning qismlari ishlatalishi mumkin.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi (XII) ikkita yo'nalish bo'yicha – ishlab chiqarish va hududiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanib bormoqda. O'z navbatida ishlab chiqarish yo'nalishi:

a) sohalararo;

b) davlatlar guruhi;

v) alohida korxonalarining ixtisoslashuviga bo'linishi mumkin. Bundan tashqari hududiy xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvi esa:

a) alohida davlatlar;

b) davlatlar guruhi;

v) hududlarning jahon bozori uchun ma'lum tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuviga bo'linadi.

Xalqaro ishlab chiqarish ixtisoslashuvining asosiy turlariga:

- predmetli (mahsulot ishlab chiqarish);

- detalli (mahsulotni tashkil qiluvchilarni ishlab chiqarish);

- texnologik yoki bosqichli (ya'ni, alohida texnologik jarayonlarni, masalan yig'ish, bo'yash va boshqalarni amalga oshirish) ixtisoslashish kiradi.

Xalqaro mehnat taqsimotining boshqa bir shakli – xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasidir. Uning obyektiv asosi bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishining o'sib borayotgan darajasi, hamda mamlakat ichida yoki tashqarisida ro'y berishidan qat'iy nazar mustaqil korxonalar o'rtafigi barqaror ishlab chiqarish jarayonlarini borishi hisoblanadi. Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi o'zining rivojlangan shakllarida hamkorlikning turli sohalarini qamrab oladi. Jumladan, birinchidan, ishlab chiqarishda texnologik hamkorlik. Ushbu hamkorliklarga quyidagilar kiradi:

a) litsenziyalar berish va mulkchilik huquqlaridan foydalanish;

b) loyiha konstrukturlik hujjatlarini, texnologik jarayonlarni, mahsulotning texnik darajasi va sifatini, qurilish va montaj ishlari zamonaviy, kooperatsiyalashgan korxonalarни ishlab chiqish va moslashtirish;

v) ishlab chiqarishni boshqarish, standartlashtirish, unifikatsiyalash, sertifikatsiyalashni takomillashtirish, ishlab chiqarish dasturlarini taqsimlash va h.k.lar.

Jahon iqtisodiyotida kooperatsiya aloqalarini o'rmatishda foydalilanidigan quyidagi uch asosiy usulga alohida e'tibor beriladi:

- Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish.

- Shartnoma asosida ixtisoslashish.

- Qo'shma korxonalar tashkil qilish.

Hamkorlikdagi dasturlarni amalga oshirish o'z navbatida ikki asosiy shaklda. (pudratli ishlab chiqarish kooperatsiyasi va hamkorlikdagi ishlab chiqarish) amalga oshiriladi. Shartnoma asosida ixtisoslashish esa ishlab chiqarish dasturlarini ishlab

chiqarish kooperatsiyasi ishtirokchilari orasida taqsimlanishini nazarda tutadi. Qo'shma korxonalar bu integratsiyalashgan kooperatsiyadir.

### **17.3. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlari to'g'risidagi turlicha nazariyalar va ularning asosly yo'nalishlari**

XX asrning ikkinchi yarmida xo'jalik hayotining baynalminallahuvi zamonaviy jahon xo'jaligi rivojanishining yetakchi an'anasisiga aylandi. Jahon xo'jaligini global baynalminallahuvining asosiy tendentsiyalaridan biri shundaki, ma'lum bir davlat yoki bir necha davlatlar guruhining ta'sir zonasini vujudga kelishidir. Bu davlatlar yoki davlatlar guruhi jahon xo'jaligi aloqlari ta'sirida o'ziga xos mintaqalar hosil qilib boshqa davlatlarni o'z atrofida birlashtiruvchi integratsion markazlarga aylanib boradi.

Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiya o'z navbatida, bu jarayon ishtirokchilari bo'lmish davlatlar o'tasida ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallahuviga imkon yaratadi. Iqtisodiy integratsiyaga boshlovchi jarayonlarni sxemali tarzda quyidagi o'zaro bog'liq zanjir shaklida tasvirlash mumkin: ishlab chiqarish kuchlarining rivojanishi - xalqaro mehnat taqsimoti - ishlab chiqarish va kapitalning baynalminallahuvi - iqtisodiy integratsiya. Jahon iqtisodiyotida iqtisodiy integratsiyaga ikkita omil katta ta'sir ko'rsatadi: ilmiy-texnik inqilob va transmilliy korporatsiyalarni faoliyatni.

Jahon xo'jaligi va XIMda integratsion jarayonlarni rivojanishi bo'yicha to'plangan tajribalar iqtisodiy integratsiya hosil bo'lishi va rivojanishining quyidagi to'rt bosqichi mayjudligini ko'rsatadi:

1. Tarif va boshqa cheklashlarni bekor qilish bilan erkin savdo zonasini tashkil qilish;
2. Savdo, mehnat va kapital harakatida bir xil tariflar tizimini o'rnatish bilan bojxona ittifoq tashkil qilish;
3. Iqtisodiy siyosatni muvosifqlashtirish bilan diskriminatsiyasiz ishtirokchi davlatlar iqtisodiy ittifoqini tuzish.
4. Yagona iqtisodiy siyosat, umumiy valyuta va davlatdan yuqori turuvchi tartibga soluvchi organlarga ega bo'lgan to'liq integratsiya.

Oxirgi ikki bosqich o'z ichida u yoki bu integratsion guruhga xos bo'lgan tomonlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lum bir kichik bosqichlarni jamlashi ham mumkin.

Jahon iqtisodiyotida mintaqaviy integratsiya alohida kompaniyalar va davlatlararo darajalarda ham ro'y berishi mumkin.

G'arbiy Yevropada iqtisodiy integratsiya eng yuqori darajada rivojlangan. G'arbiy Yevropaning iqtisodiy integratsiyasi obyektiv iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda V. Gyugo, I. Kant kabi Yevropaning siyosiy, jamoat arboblari va faylasuflari tomonidan olg'a surilgan yagona qarashlar konsepsiysi bilan ham keng sug'orilgandir.

Jahon iqtisodiyotida Yevropa Ittifoqini (EI) tashkil topishi va rivojlanishining yangi tarixi 1951-yildan boshlandi. Shu yilning aprelida 6 davlat - Frantsiya, GFR, Italiya, Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg a'zo bo'lib kirgan Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi (EKPB) haqidagi bitim imzolandi. Bu G'arbiy Yevropa

integratsiyasining o'ziga xos kirish qismi bo'ldi. Uning tashkil topishi va rivojlanishining boshlanish vaqtini yuqorida sanab o'tilgan davlatlar tomonidan 1957-yilda Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati (EIH) va atom energiyasi bo'yicha Yevropa Hamjamiyati (Yevroatom) haqidagi bitimlarni imzolangan paytidir. Hamjamiyat tarkibiga rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar kirdi. Bu esa keyingi 15 – 20 yillar mobaynidagi iqtisodiy o'sish sur'atlarining yuqori darajada bo'lislarga sabab bo'ldi.

Jahon iqtisodiyotida G'arbiy Yevropa integratsiyasining hozirgi kungacha bo'lgan rivojlanishi nihoyatda qarama-qarshiliklardan iboratdir. Shu bilan birga Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatini tashkil topishida uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalar hozirgi kunga qadar muvaffaqiyatlari amalga oshirilib kelinmoqda.

G'arbiy Yevropa integratsiyasi rivojlanishini to'rt bosqichga bo'lib o'rghanish mumkin.

**Birinchi bosqich** (50-yillarning oxiri - 70-yillarning o'rtalari). Bu davr EIH davlatlari hayotida "oltin asr" hisoblanadi. Unda bojxona ittifoqi belgilangan muddatidan oldin tashkil etildi, yagona agrar bozori yaratildi. EIHga uchta yangi davlat - Buyuk Britaniya, Daniya va Irlandiya a'zo bo'lib kirdi. EIH yoki "Umumiy bozor"ni tashkil qilishning maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda asta-sekin barcha to'siqlarni olib tashlash;
- uchinchi davlatlar bilan savdoda bir xil boj tariflarini o'matish;
- "insonlar, ishchi kuchi, kapital va xizmatlar" ning erkin harakatlanishiga qo'yilgan to'siqlarni olib tashlash;
- transport va qishloq xo'jaligi sohasida umumiyligini siyosat ishlab chiqish va amalga oshirish;
- valyuta ittifoqi tuzish;
- soliq tizimini unifikasiatsiya qilish;
- qonunchilikni yaqinlashtirish;
- iqtisodiy siyosatni muvoqiqlashtirish tamoyillarini ishlab chiqish.

Bularni amalga oshirish maqsadida boshqaruv strukturasi majmui - EIH Vazirlar Kengashi, Yevropa Hamjamiyati komissiyasi, Yevropa Kengashi, Yevropa Sudi, Yevropa parlamenti tashkil qilindi.

EIHning birinchi galdegisi vazifasi sifatida a'zo davlatlar o'rtasida tovarlar, kapital, xizmatlar va ishchi kuchining umumiyligini bozorini tashkil qilish vazifasini qo'yildi. Buning uchun Bojxona ittifoqi tuzildi. Aynan Bojxona ittifoqi EIHning asosi hisoblanadi. Bojxona ittifoqi doirasida quyidagilar amalga oshirildi:

- ishtirokchi davlatlar o'rtasidagi o'zaro savdoda to'siqlar olib tashlandi;
- uchinchi davlatlarga nisbatan bir xil bojxona tariflari o'matildi;
- kapital, kreditlar, pul ko'chirmalarining erkin harakatlanishiga sharoit yaratildi;
- ishchi kuchi migratsiyasi erkinligi va turar joy tanlash erkinligi ta'minlandi.

Bu choralar EIHga a'zo davlatlari o'rtasida sanoat integratsiyasining tezlashishiga imkon berdi. Ayni bir paytda a'zo davlatlarda kompensatsion yig'imlar va qishloq xo'jaligi fondi orqali moliyalashtirish yordamida, umumiy protektsionizm

siyosatini qo'llash yo'li bilan agrar sohaning integratsiyalashuvini amalga oshirishga harakat qilindi. El doirasidagi agrar siyosat Elga a'zo davlatlarning asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlari uchun bir xil minimal narx o'mnatishni kafolatlaydigan yagona narxlar tizimiga asoslanadi. Umumiy bozoring shakllanishi EIH davlatlarning milliy monopoliyalarini transmilliy korporatsiyalarga aylanish jarayonini tezlashtirdi, hamkor davlatlar iqtisodiyotiga kirishga imkon yaratdi. EIHni rivojlanishi Hamjamiyatga a'zo-davlatlarning yopiq milliy xo'jalikdan tashqi bozorga yuzlangan ochiq tipdag'i iqtisodiyotga intensiv ravishda o'tishini anglatadi.

**Ikkinchи bosqich** (70 va 80-yillarning o'rtalari). Bu davr EI tarixiga asosan turg'unlik davri sifatda kirdi. Bu davrda Elga a'zo-davlatlar Yevropa valyuta hamkorligi dasturi, tashqi siyosiy konsultatsiyalar mexanizmini qabul qilishga muvaffaq bo'lsalarda, vujudga kelgan salbiy jihatlar G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining jiddiy inkiroziga olib keldi. Bu inqiroz "yevroskleroz" nomini oldi. 70 va 80- yillarning boshida EI davlatlari o'rtaida rivojlanish darajasi bo'yicha farq o'sib bordi. 1981-yilda Elga Gretsiyaning kirishi bilan bu farq yanada kuchaydi, Chunki ushbu davlat iqtisodiyoti hamjamiyatning boshqa ishtirokchi davlatlari iqtisodiyotiga nisbatan juda past darajada rivojlangan edi.

**Uchinchi bosqich** (80-yillarning oxiri va 90-yillarning boshi). Bu davr Hamjamiyat tarkibining yanada kengayishi bilan xarakterlanadi. 1986-yilda Ispaniya va Portugaliyaning EIHa qo'shilishi a'zo-davlatlar o'rtaidagi farqning yanada kengayishiga olib keldi. EIHa a'zo bo'lган vaqtida Portugaliyada aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad EIH dagi o'rtacha daromadning taxminan 45-50%ga, Ispaniyada esa 3/4 qismiga to'g'ri kelgan edi. Yangi ishtirokchi davatlarda aholining taxminan 1/5 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lgan bo'lsa, EIH da esa o'rtacha 1/13 qismi to'g'ri kelgan. Shu bilan bir qatorda, aynan shu davrda G'arbiy Yevropa integratsiyasi yanada rivojlandi. Bunga birinchi navbatda Yagona Yevropa Akti (YAEA)ning qabul qilinishi ham sabab bo'ldi. Ushbu aktda EIHa ishtirokchi-davlatlarining umumiy maqsadi - Yevropa Ittifoqining tashkil qilinishi yana bir bor tasdiqlandi.

Yevropa Ittifoqi Hamjamiyati ham siyosiy, ham iqtisodiy ittifoq bo'lib, a'zo-davlatlar o'rtaida iqtisodiy, valyuta-moliya, gumanitar sohalardagi hamkorliklar bilan bir qatorda tashqi siyosat xavfsizlikni ta'minlash sohalarida ham chuqur hamkorlikni amalga oshirish ishlari nazarda tutilgan. YAEAning asosiy maqsadi shundaki, EIHa a'zo-davlatlar o'rtaida yagona xo'jalikni tashkil qiladigan yagona iqtisodiy hududni yaratishidir. YAEAning qabul qilinishi bilan Hamjamiyatga a'zo-davlatlar o'rtaida mikro va makroiqtisodiyot, siyosat va huquq, fan va ekologiya, mintaqaviy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar sohasidagi integratsion jarayonlar kuchaydi. 90-yillar boshida Elga a'zo-davlatlar yagona bozor asoslarini yaratishni amalda tugatishib, valyuta, iqtisodiy va siyosiy ittifoqlarni shakllantirishga bevosita yaqinlashdilar.

**To'rtinchi bosqich** (90-yillarning o'rta va XXI asr boshi). Bu Yagona Yevropa Aktiga muvofiq 1993-yilning 1-yanvaridan boshlab Hamjamiyat chegaralari doirasida ishlab chiqarish vositalarining erkin harakati yo'lga qo'yildi. Hamjamiyat

doirasida yagona iqtisodiy hudud vujudga keldi. Bu EI doirasidagi iqtisodiy integratsiyaning sifat jihatdan yangi bosqichga kirganini anglatadi.

Maastricht Bitimiga (1992-yil fevral) muvofiq 1994-yilning 1-yanvardan EIY Yevropa Ittifoqiga aylandi va uning a'zolari 15 taga yetdi. EI doirasida yagona ichki bozorming tuzilishi amalga oshirildi. Maastricht bitimida integratsion hamkorlikning keyingi bosqichlarini maqsadlari (Yagona valyuta - YEVRONi emissiya qilish huquqiga ega yagona Yevropa bankini tuzish, ichki chegaralarsiz yagona G'arbiy Yevropa hududini tashkil qilish va boshqalar) e'lon qilingan edi.

EI integratsiyasida hozirgi kunda ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda qiyinchiliklar ham ro'y bermoqda. Yuqorida EI ga yangi a'zo-davatlarning kirishi munosabati bilan yuzaga kelgan davlatlararo iqtisodiy rivojlanishdagi farqlar ko'rib chiqilgan edi. Elga yangi davatlarning a'zo bo'lib kirishi ham sezilarli muammolari keltirib chiqarishi mumkin. Eng katta muammolardan biri Yevropa valyuta tizimini shakllantirish davomida namoyon bo'immoqda. 1992-yildagi 7%ga Britaniya funt sterlingi va Italiya lirasi devalvatsiyasi oqibatida ro'y bergen EVT inqirozi Buyuk Britaniya va Italiani avtomatik tarzda EVT dan chiqarib tashladi. Valyuta ittifoqini shakllantirishda unga kirish uchun qo'yilgan bir qator talablar ham davlatlarga qiyinchiliklar tug'dirgan edi. O'sha davrda almashuv kursi infliyatsiyasining darajasiga, % stavkalari darajasiga, budget defitsiti va davlat qarzi bo'yicha qo'yilgan talablarga faqat Lyuksemburg javob bergen edi. Elga a'zo-davalatlar orasida Ittifoqni kengaytirish, integratsiyani chuqurlashtirish yo'llari haqida kelishmovchiliklar mavjud edi.

Jahon iqtisodiyotida G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasi faqat EI chegaralari bilan cheklanmaydi. 1962-yilda Yevropa erkin savdo assotsiyasi (EESA) tashkil topdi. EESA EI dan farqli ravishda davlatdan yuqori turuvchi funksiyalarga va davlatlararo muvofiqlashtiruvchi institutlarga ega emas. 80-yillarda EEST a'zo-davatlarni soni 7 ta bo'lib, 90-yillar o'rtaida yana 4ta davlat - Buyuk Britaniya, Islandiya, Lixtenshteyn, Shveysariya a'zo bo'lib kirgan edi. Ushbu a'zo-davatlarning uchinchi davlatlar bilan u yoki bu savdo-iqtisodiy kelishuvlarga erkin qo'shilishlari va bu davlatlarga nisbatan xohlagan bojxona tariflarini o'matishlari mumkin edi. EESAga a'zo-davatlarning o'rtaida savdoda erkin, bojsiz savdo rejimi faqat sanoat tovarlariga nisbatan qo'llaniladi. Chunki EESA konvensiyasining faoliyati qishloq xo'jalik mahsulotlariga ta'sir o'tkazmaydi.

1972-yilda EESA ga a'zo bo'lgan har bir davlat EIY-EI bilan o'zaro kelishuvlarni imzoladi. Unga muvofiq sanoat tovarlariga boj va son jihatdan cheklashlar asta-sekin kamaytirildi. Bu davatlarning o'rtaida bojsiz savdo murakkab qoidalari tizimiga asoslanadi. Yagona bojxona tarifi yo'qligi sababli EESA ichida bojsiz savdo erkinligi faqat a'zo-davatlarda ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

EESAga kiruvchi davatlarning va ular o'rtaida iqtisodiy aloqalarning yuqori darajada rivojlanganligiga qaramasdan, EESA to'laqonli integratsion guruhga aylanmadidi. Amalda u EIY - EI uchun "farmklub", ya'ni, yangi a'zolar yetkazib beruvchi tashkilot bo'lib qoldi. Hozirgi kunda EESAning ko'pgina a'zolari uni

Sharqiy va G'arbiy Yevropa davlatlari o'ttasidagi istiqbolli erkin savdo zonasini sifatida qaramoqdalar.

Ma'lumki, 2004-yilning mayida Yevropa Ittifoqiga Chexiya, Sloveniya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Litviya, Latviya, Estoniya, Kipr, Malta a'zo bo'lib kirdi. Bundan tashqari Bolgariya, Turkiya, Ruminiya, Xorvatiya davlatlari hozirda Elga kirish uchun muzoqaralar olib bormoqdalar. Bu Elning yanada rivojlanishiga guvohlik beradi.

XX-XXI asrlar bo'sag'asida G'arbiy Yevropa iqtisodiy integratsiyasining muvaffaqiyatlari rivojlanishi jahonning boshqa rivojlanayotgan mintaqalarini ham e'tiborini o'ziga jalb qildi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida o'ttizdan ortiq erkin savdo zonalari, bojxona yoki iqtisodiy ittifoqlar yuzaga keldi. Ammo jahon iqtisodiyotida eng sezilarli, rivojlanayotgan integratsion jarayon shimoliy Amerika erkin savdo zonasini - NAFTAni tashkil topishi va faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. AQSh bilan Kanada o'ttasidagi mavjud bo'lgan iqtisodiy integratsiya va ularning G'arbiy Yevropadagi davlatlar bilan olib borayotgan hamkorligi AQShni qoniqtirmay qo'ydi.

Natijada 1994-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini (NAFTA) haqidagi shartnoma imzolandi. NAFTAgan AQSh va Kanadadan tashqari Meksika ham qo'shildi. Shunday qilib ushbu blok hududi 370 mln.dan ortiq aholiga, kuchli iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan hududni qamrab oldi. NAFTA davlatlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar taxminan 7 trln. AQSh dollarini tashkil qilib, ushbu davlatlar ulushiga jahon savdo umumiy hajmining 18-20%ni yaqini to'g'ri kelmoqda.

NAFTA davlatlari tomonidan imzolangan shartnomaning asosiy holatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- AQSh, Kanada va Meksika davlatlari o'zaro savdo qiladigan tovarlarga nisbatan bojlarni bekor qilish

- Shimoliy Amerika bozorlarni Meksika orqali AQShga kirib kelayotgan tovarlar uchun bojlarni to'lamaslikka harakat qiluvchi Osiyo va Yevropa kompaniyalari ekspansiyasidan himoya qilish

- Meksikada bank va sug'urta kompaniyalarning ishida Amerika va Kanada kompaniyalari kapital qo'yilmalari va raqobatlariga bo'lgan ta'qiqlarni olib tashlandi.

- Atrof-muhitni himoyalash bilan bog'liq muammolarni hal qilish uch tomonlama guruhlar tashkil qilish va boshqalar.

Shartnomaga ko'ra 2000-yilgacha AQSh Meksikadan import qilinadigan mahsulotlar turining 2/3 qismi uchun import tariflarini bekor qilgan edi. Imzolangan kelishuvlardan eng ko'p foydani savdo bloki iste'molchilari olgan, chunki raqobatning kuchayishi va tariflarning pasayishi natijasida keng tovarlar doirasiga nisbatan narxlari ham pasaya boradi. Amerika sanoatchilari foyda olishadi, chunki arzon ishchi kuchi oqimi kuchayadi. Kafolatlangan daromadning o'sishi amerika iqtisodiyotining elektronika va kompyuter ta'minotida, qurilish materiallarida, avtomobil ehtiyyot qismlarini ishlab chiqarish va boshqa sohalarida kuzatilmoqda. Ayni bir paytda, shakar, sitrus mevalari, qishki sabzavotlar yetishtiruvchi Amerika fermerlari katta zarar ko'radi. Meksika esa NAFTA davlatlari yordamida o'z

iqtisodiy o'sishi sur'atlarini oshirib (taxminan YalMning yilik o'sish darajasi 1,6 % - 2,6 % atrofida), iqtisodiyotini isloh qilish va sanoati rivojlanigan davlatlar qatoriga qo'shilish muddatini yarim asrdan 10-15 yilga qisqartirishi mumkin.

NAFTAdan eng kam foydani Kanada oladi. Uning iqtisodiyoti AQShniki bilan chambarchas bog'liq bo'lsada, Meksika iqtisodiyoti bilan aloqlari unchalik rivojlanmagan. Ammo, NAFTA rivojlanib borishi bilan Kanada ham integratsion jarayonga yanada ko'proq tortiladi va kengayotgan bozordan dividendlar oladi.

Jahon iqtisodiyotida NAFTA faoliyatining dastlabki ikki yilda eksport hajmini oshirish hisobiga qo'shimcha ish o'rinnlari hosil bo'lishiga bo'lgan umid oqlanmadi. Bundan tashqari, AQShning Meksika bilan savdodagi ijobjiy saldosи yo'qolib, 1995-yilda defitsit paydo bo'ldi. Xullas NAFTAni tashkil qiluvchilarning rejasiga ko'ra, to'laqonli Shimoliy Amerika bozori 2010-yillarda tashkil qilinishi mumkin ekan. Bundan tashqari hozirgi kunda Amerika iqtisodchilari Alyaskadan Olovli Yergacha cho'zilgan o'ziga xos panamerika savdo blokini tuzishni rejalshtirmoqda.

Jahon iqtisodiyotida integratsion jarayonlar Janubiy Amerika ham faollashib bormoqda. 60-yillarning boshida Janubiy Amerika "erkin savdo zonasи"ni yaratish, so'ngra Markaziy Amerika umumiy bozorini – (MAUB) tashkil qilish ishlari rejalshtirildi. Biroq, ushbu mintaqada siyosiy va iqtisodiy inqiroz bu rejalarни amalga oshirishga imkon bermagan edi.

90-yillarning o'rtaida integratsion jarayonlar 1991-yilda Argentina, Braziliya, Uruguay va Paragvay o'rtasida tuzilgan va 1995-yilning 1-yanvarida kuchga kirgan "MERKOSUR" savdo paktini tuzilishi orqali yanada faollashdi. Bu paktga a'zo bo'lgan davlatlarning umumiy aholisi 200 mln. kishidan ko'proq bo'lib, yillik umumiy YalMi 550 mlrd. doll.dan ortiqroqdir.

MERKOSUR savdo guruhining tuzilishi natijasida unga a'zo bo'lgan to'rt davlat o'zaro savdosidagi (90% atrofida) tarifli to'siqlardan ozod qilindi, uchinchi davlatlardan importga esa bir xil tarif strukturasi va bojxona qoidalari kiritildi.

O'z mintaqalarida integratsion jarayonlarni rivojlantirishga Afrika davlatlari ham intilmoqdalar. 1989-yilda Afrika qit'asining Shimoliy qismida Jazoir, Liviya, Mavritaniya, Marokash va Tunis ishtirokida Arab Mag'ribi Ittifoqi davlatlari tashkil topdi. Ushbu ittifoqqa a'zo bo'lgan davlatlarning shartnomasida mintaqaviy integratsiya darajasida iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirilish ishlari nazarda tutiladi.

XX – XXI asrlar bo'sag'asida Sharqiy Osiyoda ham integratsion jarayonlari kuchayib bordi. Osiyo "ajdarholari"dan biri - Singapur, shuningdek "YAYD"lar deb nom olgan Malayziya, Indoneziya, Tailand, Bruney va Filippin kabi Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari Assotsiatsiyasi (ASEAN) qariyb 30 yillar mobaynida muvaffaqiyatlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bu guruh doirasida o'zaro hamkorlikning muvaffaqiyati ushbu davlatlarni ko'pchiligining iqtisodiyoti gurkirab o'sishi, rivojlanishining bir-biriga mosligi, yaxshi yo'lga qo'yilgan va uzoq tarix an'analariga ega bo'lgan o'zaro savdo aloqlari, shuningdek tartibga solib bo'lingan hamkorlik shakli bilan chambarchas bog'liqdir.

Shunday qilib, ASEAN rejalarida ishtirokchi davlatlar bojlarini 2000- yilgacha 38 ming turdag'i tovarlar bo'yicha o'rtacha 5 % gacha qisqarish ko'zda tutilgan

bo'lsa, 2003-yilga kelib erkin savdo zonasini tashkil qilish haqida qaror qabul qilingan edi.

Jahon iqtisodiyotida Sharqiy Osiyoda iqtisodiy integratsion jarayonlarning rivojlanishi istiqbollarini ko'p jihatdan Osiyo - Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (OTIH)ning tuzilishi bilan bog'lashadi. Ushbu tashkilotga Osiyo, shuningdek Shimoliy va Janubiy Amerikaning 18 davlati a'zo bo'lib kirgan edi.

Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorlik tashkilotining rejalariga muvofiq ushbu mintaqada 2020-yillarga borib jahonda eng yirik bojxona va ichki to'siqlarsiz erkin savdo zonasini tashkil qilish nazarda tutilgan. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarini baholagan ko'plab mutaxassislar uning rivojlanishi stixiyali ekanligi va o'ziga xosligini ta'kidlaydilar. Buning ustiga integratsion munosabatlar hozircha ushbu mintaqalarda unchalik rivojlangan emas. Masalan, ASEAN tizimidagi savdo zonasini iqtisodiy integratsiyaning birinchi bosqichi, ya'ni, tarif va tarifli to'siqlarsiz erkin savdo zonalariga kiritish mumkin. OTIHga nisbatan esa hozircha erkin savdo zonasasi deb emas, "erkin iqtisodiy asotsiatsiya" deb aytish mumkin. Ayni bir paytda, iqtisodiy siyosatni o'zaro muvosfiqlashtirish natijasida mintaqaning ichki savdosи va kapital bozorlarining tez rivojlanishi Osiyo-Tinch okeani mintaqasining integratsiyasi erkin savdo zonasiga o'tishiga imkon beradi.

Jahon iqtisodiyotida integratsiyaga, ya'ni, o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirishga bo'lган intilish Fors ko'rfaqidagi Arab davlatlari orasida ham kuzatilmoqda. 1981-yildan buyon Saudiya Arabiston, Quvayt, Qatar, Baxravn, Birlashgan Arab Amirliklari va Ummon kabi davlatlar o'z ichiga olgan "neft oltiliqi" Hamkorlik Kengashi davlatlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 1992-yilda Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy hamkorlik tashkilotini (IHT-EKO) tashkil qilinishi haqida fikrlar bildirildi. Uni tashkil qilish taklifi bilan Eron, Pokiston va Turkiya davlatlari chiqishgan edi. Ta'sischilarning fikricha, IHT-EKO o'zida MDH mamlakatlari ham birlashtirgan bo'lajak Markaziy Osiyo umumiy bozorining timsoli bo'lmog'i lozim edi. Shunday qilib, rivojlanayotgan davlatlar hamkorligi, ularning integratsiyaga bo'lган intilishlari haqida fikr bildirganda shuni nazarda to'tish kerakki, real integratsion jarayonlar ushbu davlatlarda hali juda kuchsiz bo'lib, xarakteri va harakatlantiruvchi omillari bilan, rivojlanish sur'atlari bilan bir-biridan keskin farq qilib turadi. Rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy hamkorligi, ular e'lon qilgan integratsion jarayonlarga ko'rilayotgan tayyorlarlik bosqichidir, xolos. Jahon iqtisodiyotida e'lon qilingan integratsion guruhlarning ko'pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yetuk emasligini, milliy xo'jaliklarning oddiy va strukturaviy differentsiyasizligini, bozor va moliyaviy infrastrukturalarining rivojlanmaganligi bu tuzilmalarni yo harakatsiz qoldirmoqda yoki butunlay muvaffaqiyatsizlikka uchratmoqda.

#### **17.4. O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi**

Mustaqil Respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi yangi siyosati jahondagi juda ko'p mamlakatlar bilan har tomonlama aloqalarni kengaytirishda uz ifodasini topmoqda. Chet el davlatlari bilan o'zaro munosabatlarda respublika milliy manfaatlarini amalga oshirishning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, savdo-

iqtisodiy hamkorlik bo'yicha ikki tomonlama hukumatlararo komissiyalar faoliyati hisoblanadi. Hozirda bunday komissiyalar 30 dan ortiq mamlakatlarda asosiy sheriklarimiz bilan tashkil etilgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston 140 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rmatgan. Ularning orasida Janubiy Koreya, Germaniya, AQSh, Buyuk Britaniya, Shveytsariya, Turkiya, Fransiya, Yaponiya, Eron, Gollandiya, MDH mamlakatlardan – Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Turkmaniston bilan savdo aloqalari keng yo'lga qo'yildi. O'zbekistonning asosiy tashqi savdo ko'rsatkichlari 17.4.1-jadvalda ko'rsatilgan.

#### 17.4.1-jadval

##### O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (million AQSh dollarri)<sup>139</sup>

	2009	2010	2011	2012	2013
<b>Tashqi savdo avlanmasi</b>	<b>21197,3</b>	<b>21209,6</b>	<b>22199,2</b>	<b>26365,9</b>	<b>26416,1</b>
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	8659,5	8010,4	9369,2	11345,7	12731,8
Boshqa xorij mamlakatlari	12537,8	13199,2	12830,0	15020,2	13684,3
<b>Eksport</b>	<b>11493,3</b>	<b>11771,3</b>	<b>13023,4</b>	<b>15021,3</b>	<b>13599,6</b>
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	3926,6	3921,3	5647,7	6720,1	7703,4
Boshqa xorij mamlakatlari	7566,7	7850,0	7375,7	8301,2	5896,2
<b>Import</b>	<b>9704,0</b>	<b>9438,3</b>	<b>9175,8</b>	<b>11344,6</b>	<b>12816,5</b>
<i>Shu jumladan</i>					
MDII mamlakatlari	4732,9	4089,1	3721,6	4625,6	5028,4
Boshqa xorij mamlakatlari	4971,1	5349,2	5454,3	6719,0	7788,1
<b>Eksport-import saldozi</b>	<b>1789,3</b>	<b>2333,0</b>	<b>3847,6</b>	<b>3676,7</b>	<b>783,1</b>
<i>Shu jumladan</i>					
MDH mamlakatlari	-806,3	-167,8	1926,2	2064,5	2675,0
Boshqa xorij mamlakatlari	2595,6	2500,8	1921,4	1582,2	-1891,9

O'zbekiston Respublikasi eksporti tuzilmasida xomashyo tovarlari asosiy o'rinni egallaydi. O'zbekiston paxta tolasi eksporti bo'yicha jahonda yetakchi o'rindlardan birida turadi. O'zbekiston eksportning tovar tarkibida asosiy o'rinni energiya manbalari va neft mahsulotlari (o'rtacha 28 %), xizmatlar (o'rtacha 12%), paxta tolasi (o'rtacha 9,7 %) va boshqalar (o'rtacha 26 %) egallaydi. Import tarkibida esa asosiy o'rinni mashina va asbob-uskunalar (o'rtacha 48,5 %), kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar (o'rtacha 12,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (o'rtacha 10,1 %) va boshqalar (o'rtacha 10,4 %) egallaydi (14.4.2-jadval).

<sup>139</sup> O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2014. T.. 2014-y. 313-b.

**O'zbekiston eksport va importning tovar tarkibi<sup>140</sup>**

(% hisobida)

	2009	2010	2011	2012	2013
Eksport	100	100	100	100	100
<i>Shu jumladan</i>					
Paxta tolasi	9,3	8,6	12,1	9,0	9,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	4,5	6,0	9,7	13,3	6,4
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	5,6	5,0	5,1	5,6	5,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	24,7	34,2	22,8	18,5	34,6
Qora va rangli metallar	7,0	5,0	6,9	7,4	7,8
Mashina va asbob-uskunalar	7,6	2,9	5,5	6,6	6,5
Xizmatlar	10,4	8,8	10,2	11,8	17,3
Boshqalar	30,9	29,5	27,7	27,8	12,5
<b>Import</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>	<b>100</b>
<i>Shu jumladan</i>					
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,3	9,0	10,5	11,5	10,9
Kimyo va undan tayyorlangan mahsulotlar	11,6	11,1	13,8	12,5	13,7
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	4,6	3,5	7,1	8,5	6,6
Qora va rangli metallar	7,7	6,3	8,1	7,6	7,2
Mashina va asbob-uskunalar	52,4	56,5	44,0	44,0	45,9
Xizmatlar	4,4	4,4	5,3	5,0	5,8
Boshqalar	11,0	9,2	11,2	10,9	9,9

O'zbekistonga 30 dan ortiq mahsulot turi chetdan keltiriladi. Jumladan, bug'doy, go'shit, sut va sut mahsulotlari, sariyog', shakar, moyli o'simliklar urug'i va mevalar, choy, kofe va shirinliklar, kartoshka, farmatsevtika mahsulotlari, kiyim-kechak va trikotaj mahsulotlari, charm va poyabzal mahsulotlari, avtomobillar, qora va rangli metallar hamda ulardan tayyorlangan mahsulotlar, teleradioapparatura, mashina va ularning uskuna-jihozlari importning asosiy bandlarini tashkil etadi.

O'zbekiston Yevropa Ittifoqining (EI) Markaziy Osiyodagi eng yirik savdo-iqtisodiy sherigi hisoblanadi. 1994-yilning oktyabrida O'zbekiston bilan EI o'rtasida diplomatik munosabatlар o'tmatildi va Bryusselda, EI huzurida O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi ishlay boshladi. 1995-yilda EI bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzildi. Bu bitim Elga a'zo mamlakatlar va O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma'rifiy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochib bermoqda.

**Asosiy tayanch tushunchalar**

Mutlaq va nisbiy YALM, milliy daromad va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdori, milliy iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi, mamlakat eksporti va importi tarkibiy tuzilmasi, xalqaro mehnat taqsimoti, kapital migratsiyasi, ASEAN,

<sup>140</sup> O'zbekiston Respublikasi yillik statistik to'plami 2014. T.: 2014-y. 324-b.

xalqaro iqtisodiy integratsiya, tarif va boshqa cheklashlar, NAFTA, erkin savdo zonasasi, MERKOSUR.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Hozirgi davrda jahon iqtisodiy rivojining eng muhim o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?
2. Jahon hamjamiyati mamlakatlarini turkumlash qanday mezonlarga asoslanadi?
3. Iqtisodiy hayotning baynalminallahuvi jarayonining mohiyati nimadan iborat?
4. Globallashuv jarayoni nima va uning qanday yo'nalishlari mavjud?
5. Xalqaro mehnat taqsimoti qanday tamoyillarga asoslanadi?
6. Jahon infratuzilmasi tarkibiy qismlarining tavsifini bering.
7. Hozirda xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qanday xalqaro tuzilmalarini bilasiz?

## **18-bob. MAMLAKAT IQTISODIY TARAQQIYOTIDA XALQARO SAVDONING O'RNI VA ROLI**

### **18.1. Xalqaro savdoning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning asosiy shakllaridan biri – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatdagi savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy, huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'langandir. Savdo siyosatini tub mohiyatidan kelib chiqqan xolda iqtisodiy masalalar asosiy hisoblanadi.

Mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qilish, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatlarni savdo siyosatini mavjud vositalari yordamida tartibga soladilar. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari xarakteriga ko'ra ta'rif – ya'ni boj tarifini qo'llashga asoslangan va notarif – boshqa barcha vositalarga bo'linadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni ayniqsa tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda, mavjud usullardan qaysi biridan foydalanish muammosi vujudga keladi.

Bu chora-tadbirlar jahon xo'jaligida ma'lum ustuvorliklarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

- Bir tomonlama, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora-tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo'yicha sherik davlatlar bilan kelishmaslikdan va ular bilan maslahatlashmagan xolda qo'llaniladi. Odatta biror-bir davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bir tomonlama chora-tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan xuddi shunday tartibda kabul qilingan chora-tadbirlarni qarama-qarshi tarzda qo'llashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida savdo bo'yicha sherik davlatlar o'rtasida siyosiy ziddiyatlarning paydo bo'lishiga va keskinlashuviga olib keladi.

- Ikki tomonlama, yani savdo siyosati choralar o'zaro sherik bo'lgan davlatlar o'rtasida kelishilgan xolda amalga oshiriladi. Misol uchun o'zaro kelishilgan xolda har bir tomon tomonidan iqtisodiy manfaatlarga ziyon yetkazmagan xolda, konvension bojlar qo'llanilishi, mamlakatlar tovarlarini qadoglanishiga, belgisiga qo'yilgan texnik sabablar, sifat sertifikatlarini o'zaro tan olishi to'g'risida kelishib olishlari mumkin.

- Ko'p tomonlama, ya'ni savdo siyosati kelishilgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati protektzionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.

Protektzionizm – tarif va notarif usullarini qo'llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qaratilgan davlat siyosati.

Bularning qaysi biri qanday afzallikka ega yoki ega emasligi bir-biridan ustunligi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillar mavjud bo'lib kelgan tortishuvlarning

asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin.

50-60 yillarda dunyo xo'jaligi iqtisodiyoti uchun protektsionistik siyosatidan erkin savdo siyosatiga o'tish xos bo'ldi.

70 yillarning boshlarida esa teskari tendentsiya, ya'ni erkin savdo siyosatidan tariflar orqali ayniqsa notarif usullari yordamida ichki bozorni ximoya qilish siyosatiga o'tish kuzatila boshladi.

Protektsionistik tendentsiya taraqqiyoti protektsionizmni bir necha shakkarga ajratish imkonini beradi:

—Selektiv protetsionizm- ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.

—Soha protektsionizmi – xalq xo'jaligini ma'lum sohasini himoya qilishga (qishloq xo'jaligi) qaratilagan.

—Kollektiv protektsionizm – ma'lum davlatlar guruhni tomonidan shu guruhga kirmagan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan chora tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Erkin savdo siyosati yaxshimi yoki protektsionistik savdo siyosatimi?

Bu masala doimo iqtisodchilarni qiziqitirib kelgan.

Hozirgi kundagi iqtisodiyotni yanada globallashtirish sharoitida iqtisodiyotni ochiqlashtirishiga intilish qonuniydir.

Garvard universiteti ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki yopiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davlatlarda (115 ta davlat) yalpi ichki mahsulot hajmining yillik o'sishi 0,7%ni tashkil qilgan bir paytda ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotganda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 marta yuqori bo'ldi.

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish usullari mohiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Bojxona tariflariga asoslangan tarif usullariga (iqtisodiy bilvosita), hamda notarif (ma'muriy bevosita) usullari.

Notarif usullari o'z navbatida me'yoriy usullarga va ko'rinsmas protektsionizm usullaringa bo'linadi. Savdo siyosatining ba'zi bir usullari ko'pincha cheklashni eksportni qo'llab-quvvatlash uchun qo'llaniladi.

Xalqaro savdoda davlatning asosiy vazifasi – o'zlarini ishlab chiqargan mahsulotlarini iloji boricha chetga olib chiqishlari uchun eksportchilarni qo'llab-quvvatlash, ularni tovarlarini xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ichki bozorda chet el tovarlarini raqobatbardoshlik darajasini pasaytirish maqsadida importni chegaralashdir.

Shuning uchun davlat tomonidan tartibga solish usullaridan bir qismi ichki bozorni chel el raqobatidan himoya qilishga, ya'ni importni chegaralashga qaratilgan. Usullarni boshqa qismini asosiy maqsadi eksportni jadallashtirishga qaratilgandir.

Har bir davlat savdo siyosatini u yoki bu vositalarini qo'llash bo'yicha qaror qilish oldidan, qo'llanilayotgan vositalarni davlat savdo siyosati xarakteriga ta'sirini va sherik davlatlar tomonidan javob chegaralari qo'llanilishi mumkinligini o'rganib chiqish lozim.

Savdo siyosati choralarini baholash maqsadida iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti tomonidan 1985-yili indikativ savolnoma mamlakatlar hukumatlari amaliyotida keng qo'llaniladi.

Savdo siyosatidagi iqtisodiy chora-tadbirlarni qo'llashdan oldin javob berilishi lozim bo'lgan savollar qo'yidagilardan iboratdir:

– Bu chorani amalga oshirilishi natijasida tarmoq yoki firma uchun qanday iqtisodiy yutuq kutiladi va qancha ish joylari tashkil etiladi yoki saqlab qolinadi?

– Budget daromadlari qanchaga oshadi yoki tadbirlarni amalga oshirish uchun qancha byudjet xarajatlari talab etiladi?

– Ichki narxlar qanchaga oshadi va bu chora-tadbirlar natajasida iste'mol miqdori qanchaga kamayadi?

– Amalga oshirilmogchi bo'lgan chora tadbirlarni bozor tuzilishiga va undagi raqobatga ta'siri qanday?

– Bu chora tadbirlarni qo'llanilishiga savdo bo'yicha sherik davlatlar qanday munosabat bildiradilar va uni ularga potensial ta'siri qanday?

– Qo'llanilishi kutilayotgan chora-tadbirlar mavjud davlat ishtirok etayotgan ko'p tomonlama yoki ikkitomonlama shartnomalar qoidalariga to'g'ri keladimi yo'qmi?

Mana shu savollar javablarini o'rganib va tahlil qilingandan so'ng xalqaro savdoni tartibga solish vositalari u yoki bu turlaridan qo'llaniladi.

### **18.2. Tashqi savdoni boshqarishning tarifli va tarifsiz usullari**

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishda jahon amaliyotida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulining asosini boj tarifi, ya'ni bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi printsiplari va qoidalariga asosan bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalari to'plami tashkil etadi.

Bojxona boji – tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport yoki import sharoitini belgilovchi hamda to'lanishi lozim bo'lgan badaldir.

Bojxona bojlari mohiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar:

- Fiskal vazifa – bu ham import va ham eksport bojlariga tegishlidir. Chunki bu bojlar davlat byudjetini to'ldirish manbalaridan biridir.

- Protektsionistik vazifa – bu faqat import bojlariga taalluqlidir. Chunki ular yordamida davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qiladi.

- Balanslashtiruvchi, ya'ni mamlakat ichki bozoridagi narxi jahon bozoridagi narxlardan past bo'lgan tovarlarni mamlakat hududan eksport qilinishini oldini olish vazifasi. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni, xususan tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda tarif usullari bilan bir qatorda notarif usullari ham qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda tarif usullariga nisbatan notarif usullarini qo'llashga ko'proq e'tibor beriladi. Chunki notarif usullar siyosiy tomonidan qo'llashda qulay, iste'molchilar uchun soliq bo'yicha qo'shimcha og'irliklar tug'dirmaydi. Bundan tashqari notarif usullar ko'zlagan maqsadga erishishda ham qulaydir.

Misol, bug'doy importi miqdorini 2,5 mln.tonna qilib belgilashda notarif usullardan foydalanish qulaydir. Chunki shu tovar bo'yicha import miqdorini, import tarifi orqali shunday qilib belgilash uchun kerak bo'lgan tarif stavkasini hisoblash ko'p mehnat talab qiladi.

Va nihoyat, notarif usullarni qo'llash hech bir xalqaro tashkilot tomonidan tartibga solinmaydi va bu usulni o'z savdo siyosatida qo'llash orqali har bir davlat tarifni qo'llashga nisbatan o'zini erkinroq his etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda tarif usullaridan foydalanish, aniqrog'i tashqi savdoni ko'zlagan miqdorda tartibga solish butun jahon savdo tashkiloti tomonidan tartibga solinadi.

Notarif usullari mazmun mohiyatiga ko'ra miqdoriy, ko'zga tashlanmas va moliyaviy chegaralash turlariga bo'linadi.

Miqdoriy chegaralash – eksport va importga ruxsat etilgan tovarlarini miqdori va nomenklaturasini belgilashda davlat tomonidan qo'llaniladigan notarif usullarining ma'muriy shaklidir. Miqdoriy chegaralashlar biron-bir davlat hukumati qarori asosida yoki ma'lum tovar savdosini tashkil etuvchi xalqaro kelishuvlar asosida qo'llanilishi mumkin.

Miqdoriy chegaralash usullaridan keng tarqalgan turi kvota yoki kontingentdir. Bu ikkala tushuncha bir xil ma'noga ega bo'lib, kontingenit so'zi odatda mavsumiy xarakterga ega bo'lgan kvotani belgilashda qo'llaniladi.

Kvota – bu eksport yoki importni belgilangan miqdorda va summada ma'lum vaqt oralig'ida chegaralash bilan bog'liq bo'lgan miqdoriy chegaralash chorasisidir.

Kvotalar ta'sir yo'nalishlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

- Eksport kvotalari – biron davlatni ma'lum tovar eksportini umumiyl miqdordagi ulushini belgilashda, xalqaro muvofiqlashtiruvchi kelishuvlar asosida kiritiladi. Bundan tashqari bu kvotalar biron-bir davlat tomonidan alohida holda, ichki bozorda taqchil bo'lgan tovarlarni olib chiqib ketilishini oldini olish maqsadida ham kiritiladi.

- Import kvotalari – mahalliy hukumat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, savdo balansini muvofiqlashtirish, ichki bozordagi talab va taklifni tartibga solish, shuningdek boshqa davlatlar tomonidan qo'llaniladigan savdo bo'yicha iqtisodiy tazyiqqa javob maqsadida kiritiladigan kvotalar.

Kamrab olish darajasi bo'yicha esa kvotalar qo'yidagi turlarga bo'linadi:

- Global kvotalar – qaysi davlatdan import qilinayotganidan, qaysi davlatga eksport qilinayotganidan qat'iy nazar, ma'lum tovar eksport va importi bo'yicha ma'lum davrga belgilanadigan kvotalaridir. Bu turdag'i kvotalar ichki iste'molni kerak bo'lgan darajada ushlab turish uchun qo'llaniladi.

- Individual kvotalar – eksport yoki import qilayotgan davlat tomonidan, global kvota doirasida, belgilanadigan kvotadir. Odatda bunday kvotalar o'zaro ikki tomonlama kelishuvlar asosida qo'llanadi. Bu kvotalar o'zaro siyosiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlarga ega bo'lgan davlatlarga eksport va import bo'yicha ma'lum afzalliklar beradi.

Ko‘p xollarda individual kvotalar mavsumiy bo‘ladi, ya’ni ichki bozorni ma’lum tovarlar bo‘yicha davlat himoyasiga muhtoj bo‘lganda, ma’lum vaqt oralig’ida qo‘llaniladi.

Miqdoriy notarif usullarini yana bir turi – litsenziyalashdir.

Litsenziyalash – davlat organlari tomonidan eksport va importning belgilangan hajmi bo‘yicha ma’lum davrga beriladigan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi ruxsatnomadir.

Litseziyalash kvotalashning tarkibiy qismi bo‘lishi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning alohida olingan davlat quroli ham bo‘lishi mumkin. Birinchi xolatda belgilangan kvota doirasida tovari olib kirish va olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjat bo‘lishi mumkin, ikkinchi xolatda esa u bir qator aniq shaxslarga ega bo‘lishi mumkin:

–Bir marotaba beriladigan litsenziya – bir savdo kelishuvi asosida bir yil ichida tovarlar olib kirish va chiqish bo‘yicha davlat tomonidan beriladigan yozma ruxsatnoma.

–Bosh litsenziya – u yoki bu turdagи tovarlarni chegaralanmagan miqdordagi savdo kelishuvlari asosida, bir yil davomida olib kirish va chiqish bo‘yicha beriladigan ruxsatnoma.

–Global litsenziya – ma’lum vaqt oralig’ida, chegaralanmagan miqdordagi va qiymatdagi ma’lum bir tovari ixtiyoriy davlatga olib kirish va chiqish bo‘yicha beriladigan ruxsatnoma.

–Avtomatik litsenziya – eksportchi va importchi tomonidan ma’lum savdo operatsiyalarini o’tkazish bo‘yicha ruxsat so‘ralgan paytda davlat organlari tomonidan inkor qilinmaydigan ruxsatnoma.

Litsenziyalash dunyodagi juda ko‘p davlatlar tomonidan qo‘llaniladi. Jumladan rivojlanyotgan davlatlar tomonidan litsenziyalash importni tartibga solishda, rivojlangan davlatlar esa belgilangan kvota doirasida importchi tomonidan ma’lum tovari olib kirish bo‘yicha ruxsatni tasdiqlovchi hujjat sifatida ishlataladi.

Importni miqdoriy chegaralash nafaqat import qilayotgan davlat tomonidan import tarifi yoki import kvotalarini kiritilishi orqali amalga oshirilishi mumkin, balki eksport kiluvchi davlat tomonidan “eksportni erkin ravishda” doirasida ma’lum chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ham amalga oshirish mumkin.

“Eksportni ixtiyoriy ravishda” chegaralash odatda katta importchi davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy tazyiq ostida amalga oshiriladi. Katta davlat eksport qiluvchi davlatga nisbatan bir tomonlama xolda importni chegaralash orqali uni o‘z tomonidan “o‘z eksportni erkin ravishda” chegaralashga majbur qiladi.

“Eksportni erkin ravishda” chegaralash bu - savdo bo‘yicha sheriklar davlatlararo rasmiy kelishuv asosida yoki eksportga kvota o‘rnatishtir bo‘yicha norasmiy kelishuvlar asosida eksportni miqdoriy chegaralash yohud juda bo‘Imaganda uning hajmini oshirmaslik to‘g‘risida majburiyat olishidir.


Savdo siyosati sifatida eksportni moliyalashtirish davlat byujetidan, hamda davlat organlari tomonidan (banklar, jamg’armalar va boshqalar) amalga oshiriladi. Savdo siyosati sifatida moliyalashtirish milliy ishlab chiqaruvchi va eksportchilar manfaatlarini diskriminatsiya qilishga qaratilgan.

Savdo siyosatining keng tarkalgan usullari bo'lib subsidiyalash, kreditlash va dempinglar hioylanadi. Bu usularning har biriga alohida-alohida tavsifnoma beramiz:

Subsidiyalar agarda davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilar eksportini qo'llab-quvvatlashni lozim deb bilsa, u xolda davlat ularga u yoki bu shaklda davlat byudjetidan subsidiyalar berishi mumkin. Kreditlash va eksport krediti – firmalar eksportini davlat tomonidan rag'batlantirish bilan bog'liq bo'lган, tashqi savdo siyosatining notarif moliya usulidir.

Demping – tovarni eksport narxini shu davlatda mavjud bo'lган narx darajasidan kamaytirish orqali uni tashqi bozorga xarakatini та'minlovchi tashqi savdo siyosatini moliyaviy usulidir. Shunday qilib tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan notarif-moliya usullarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu usullarni barchasi milliy tovarlarni eksportini oshirishga, eksport jarayoniga ko'maklashishga qaratilgan ekan. Bu usullar mazmun mohiyatidan ko'rinish turibdiki, u asosan rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llaniladi

Yuqorida sanab o'tilgan usul va vositalar asosida mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida tashqi savdo balansida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistan Respublikasi tashqi savdo aylanmasi 2012-yilda, 2011-yilning shu davriga nisbatan qariyb 100,5 %ni tashkil etib, 26,4 mld. AQSh dollariga teng bo'ldi. Uning tarkibida eksport hajmi 2011-yilga nisbatan 111,6 % yoki 13,1 mld. AQSh dollarini, import esa 109 % yoki 12,0 mld. AQSh dollarini tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobil saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi (18.2.1-rasm).



18.2.1-rasm. O'zbekistonning tashqi savdo ko'rsatkichlari dinamikasi, mlrd.doll<sup>141</sup>

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinishdiki, mustaqillik yillari davomida mamlakatimizda eksport hajmi 29,8 marta oshib, tashqi savdo aylanmasi hajmi 33 marta o'sdi. Eksportni rag'batlantirish borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar va mahalliylashtirish dasturining izchil amalga oshirilishi natijasida respublikamiz to'lov balansining, xususan, tashqi savdo balansining barqarorligi saqlab qolindi.

<sup>141</sup>"Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" Prezident Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. – T.. 2013. 16-b.

Mamlakatimizda eksport kilinayotgan mahsulotlar ham tarkiban, ham sifat jihatidan yaxshilanib bormokda. Buni eksport tarkibining yillar bo'yicha o'zgarishida ham kuzatish mumkin (18.2.1 -jadval). Jadvaldan ma'lumotlaridan ko'rindan, 1990-2012-yillar davomida eksport tarkibida paxta tolasining ulushi 59,7 %dan, 9,6 %gacha qisqardi. Natijada eksportning xomashyoga bog'lanib qolish muammosi to'la barham topdi. Xizmatlar eksportining ulushi esa 13,5 marta, mashina va uskunalar - 4,1 marta, kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar - 2,5 marta, yoqilg'i va neft mahsulotlari - 2,2 marta, oziq-ovqat mahsulotlari eksportining ulushi 1,7 marta o'sganligi eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibida xomashyo bo'limgan tayyor tovarlarning ulushining oshishiga hamda eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanishiga zamin yaratdi.

#### 18.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasining eksport tarkibining yillar bo'yicha dinamikasi, %da<sup>142</sup>

Eksport tarkibi	1990-yil	2000-yil	2011-yil	2012-yil
Paxta tolasi	59,7	27,5	9,0	9,6
Oziq-ovqat mahsulotlari	3,9	5,4	13,2	6,7
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	2,3	2,9	5,6	5,8
Yoqilg'i va neft mahsulotlari	17,1	10,3	18,5	37,4
Qora va rangli metallar	4,6	6,6	7,4	8,0
Mashina va uskunalar	1,7	3,4	6,7	7,0
Xizmatlar	1,3	13,7	11,8	17,6
Boshqalar	9,4	30,2	27,8	7,9

Agar mamlakatimiz importi tarkibining yillar davomidagi dinamikasini kuzatadigan bo'lsak, unda ham ma'lum sifat o'zgarishlarini ko'rish mumkin (18.2.2-jadval).

#### 18.2.2-jadval

O'zbekiston Respublikasining import tarkibining yillar bo'yicha dinamikasi, %da<sup>143</sup>

Import tarkibi	1990-yil	2000-yil	2011-yil	2012-yil
Mashina va uskunalar	12,1	35,4	41,3	45,4
Kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar	9,7	13,6	13,3	14,4
Yoqilgi va neft mahsulotlari	3,1	3,8	8,1	7,3
Qora va rangli metallar	10,2	8,6	8,1	7,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	48,9	12,3	12,4	9,9
Xizmatlar	1,5	8,5	5,3	6,1
Boshqalar	14,5	17,8	11,5	9,1

<sup>142</sup> "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" Prezident Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha O'quv qo'llanma. -T . 2013. 16 b.

<sup>143</sup> O'sha manba.

Eng avvalo shuni ta'kidlash lozimki, import tarkibida mashina va ishlab chiqarish uskunalarini ulushi 2012-yilda 45,4 %ni tashkil qilib, bu 1990-yildagi ko'rsatkichga nisbatan deyarli 4 baravar ko'proqdir. Mazkur holat respublikamizda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va texnik jihatdan qayta qurollantirish jarayonlarini amalga oshirishda zamonaviy va yuqori texnologiyalarga asoslangan mashina va ishlab chiqarish uskunalariga bo'lgan ehtiyoj orqali izohlanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari importining ulushi 1990-yilda 48,9 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilga kelib 9,9 %ga qadar, ya'ni deyarli 5 baravar qisqardi. Bu esa mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish asoslarining tobora rivojlantirib va mustahkamlab borilayotganligi ko'rsatadi. Shuningdek, ushbu davrda xizmatlar importi ulushining 4 baravardan ko'proq o'sishi mamlakatimizda zamonaviy xizmat turlariga bo'lgan ehtiyojning tobora o'sib borayotganligidan darak beradi.

2013-yilda jahon bozoridagi konyunktura beqarorligiga qaramasdan, eksport hajmi 2012-yilga nisbatan 10,9 %ga o'sdi. Tashqi savdo faoliyatidagi ijobiy saldo 1milliard 300 million AQSh dollarini tashkil etdi. Eksport tarkibida raqobatdosh tayyor mahsulotlar ulushi barqaror sur'atlar bilan o'sib bormoqda. 2013-yilda umumiyligi eksport hajmining 72 %dan ortig'i tayyor tovarlar hissasiga to'g'ri keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlagankaridek - "Iqtisodiyotimiz tarkibidagi chuqur o'zgarishlar mamlakatimiz eksport salohiyatini mustahkamlash, eksport hajmini barqaror oshirish va uning tarkibida ijobiy o'zgarishlarga erishishda eng muhim omilga aylandi"<sup>44</sup>.

Bundan tashqari, kelgusida, O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy majmuani yanada takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlарини ham ichki, ham tashqi bozorlarda himoya qilish;
- Milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini rag'batlantirishga qaratilgan zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;
- Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish;
- Eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;
- Ishlab chiqaruvchilar va eksporterlar faoliyatini har taraflama qo'llab quvvatlovchi tizimlarni yanada takomillashtirish;
- Iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqobatbardosh va ilmtalab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan xalqaro standartlarni joriy etish;
- Xorijiy mamlakatlardan bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatsiya qilish sohasida hamkorlik qilish ko'lalimi yanada kengaytirish;
- Xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish;

<sup>44</sup> Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruba. - T.: O'zbekiston, 2014. – 7-bet.

– To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro standartlarga javob beradigan hamda jahon bozorida raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatning turli hududlarida qo‘shma korxonalar yaratilishini ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlari bilan savdo – iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarni yanada kuchaytirish;

– Kichik va o‘rta biznes subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishiga hamkorlik qilish;

– Xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarning transportda tashish xaratjalarni kamaytirish.

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yanada rivojlanirishga to‘sinqilik qilib ketayotgan bunday bunday masalalarning o‘z vaqtida bartaraf etilishi O‘zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtiroy etishi imkonini beradi.

### **18.3. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalar rivojining ustuvor yo‘nalishlari**

Globallashuv jarayonining hozirgi bosqichidagi muhim yo‘nalishlardan biri – O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish hamda jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlarini kuchaytirish hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizning ko‘plab mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yishi, jahondagi turli iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a’zosiga aylanishi e’tiborga molikdir. Hozirgi davrda Respublikaning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi asosiy strategiyasi import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni tashkil qilish bilan birga eksportga yo‘naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishni rivojlanirish va o‘zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishdan iborat. Respublikada bozor islohotlarini amalga oshirish modelining asosiy tarkibiy qismlardan biri tashqi savdodir. Davlat eksport siyosati mustaqillik yillari davomida birinchi navbatda kerakli tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratishga qaratilgan edi. Bu pirovard natijada tashqi savdo aylanmasi tuzilmasidagi ijobjiy o‘zgarishlarga:

- neft va uni qayta ishslash mahsulotlari hamda energiya tashuvchilarini eksport bazasining kengaytirilishi;

- import tuzilmasidagi siljishlar – energiya tashuvchilarini, bug‘doy, g‘alla ulushining kamaytirilishi hamda mashinasozlik mahsuloti importi hajmlarining ortishi;

- tashqi savdoning ekvivalentligi hamda o‘zaro tovar yetkazib berish hajmlarining teng kuchliligi muammolarining susayishi;

- Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi iqtisodiy integratsiyaning kuchaytirilishiga olib keladi.

Prezidentimiz I.A. Karimov hozirgi moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida bir narsaga e’tibor berishimiz kerakligiga to‘xtab: “Barchamiz bir haqiqatni anglab etishimiz lozim – O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorming ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Buning tasdig‘ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar

ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin".

Eksportning xomashyoga yo'naltirilganligi saqlanib kelaversa milliy xo'jalikning zaifligi ortadi, chunki uning samaradorligi ko'proq jahon xomashyo bozorlarining konyunkturasiga bog'liq bo'lib qoladi, bu bozorlarning ahvoli esa yetarli darajada barqaror emas va tez-tez jiddiy o'zgarishlarga uchrab turadi. Paxta, gaz, rangli metallar, oltin bozorlari konyunkturasining yomonlashishi mamlakat iqtisodiyotini halokat yoqasiga keltirib qo'yishi mumkin, chunki respublikamizda eksportning 50 %dan ko'prog'i ushbu resurslarga to'g'ri keladi. Bu borada I.A.Karimov shunday ta'kidlaydilar: "Jahon bozorida talabning pasayib borishi oqibatida O'zbekiston eksport qiladigan qimmatbaho va rangli metallar, paxta, uran, nest mahsulotlari, mineral o'g'itlar va boshqa mahsulotlarning narxi tushib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, xo'jalik yurituvchi subyektlar va investorlarning eksportdan oladigan tushumlari kamayishiga olib keladi. Ularning foyda ko'rishiga va ishlab chiqarish rentabelligiga, oxir-oqibatda esa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarimizning o'sish sur'atlari va iqtisodiyotimizning boshqa tomonlariga salbiy ta'sir etadi".

Bunday sharoitlarda bizning fikrimizcha quyidagilar O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining imtiyozli yo'nalishlari bo'lishi lozim:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan holda liberallashtirish siyosatini o'tkazish;

- eksport va import tuzilmasini, ularning ishlab chiqarish salohiyotini rivojlantirish yo'li bilan takomillashtirish;

- respublikamizdag'i eksportga mo'ljallangan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchilarining manfaatlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash;

- xorijiy kapitalni avvalo moddiy eksportga yo'naltirilgan va import o'mini bosuvchi ishlab chiqarishga jalb qilish;

- O'zbekistonni jahon transport kommunikatsiyalariga integratsiyalashuvini rivojlantirish. Yuqori texnikaviy saviyadagi tayyor mahsulot ulushining oshirilishi yuqorida aytib o'tilgan chora-tadbirlar ichida muhim o'r'in tutishi lozim, buning uchun esa quyidagilarni bajarish zarur:

- respublikamizdag'i eksportchilarining mahsulotini sotish bozorini shakllantirishda muhim rol o'ynovchi xorijiy mamlakatlardagi korxonalar bilan O'zbekistondagi eksportchi korxonalar o'rtaida kooperatsiya aloqalarining shakllanishiga ko'maklashish;

- chuqr qayta ishlash mahsulotlarini yuqori texnologiya va ilm talab qiluvchi buyumlar ishlab chiqariladigan eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarish sohasi va uning tarkibini takomillashtirish;

- eksportning intellektual mulk obyektlari litsenziyalarini hamda nou-xau shaklida texnika va tijorat sirlarini sotish, injiniring va lizing sohalarida xizmatlar

ko'rsatish kabi turini rivojlantirish yo'li bilan respublikamizda erishilgan fan-texnika yutuqlarining jahon xo'jaligi aylanmasiga kirib borishini tezlashtirish.

- ilmiy loyihalarga, xususan, amaliy fan va texnologiyalar transferti sohasidagi ilmiy loyihalarga bozor yo'nalishini berish uchun sharoitlar yaratish maqsadida innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini ishlab chiqish;

- innovatsiya jarayonini davlat tomonidan va tijoriy qo'llab-quvvatlashning optimal uyg'unlashuvining asosiy yo'llarini belgilab olish hamda ilmiy-texnikaviy loyihalarni tijorat ahamiyatiga ega bo'lgan natijalar darajasigacha yetkazish;

- o'zbek olimlari va mutaxassislarining chet eldag'i yetakchi institutlar, tashkilot va firmalar bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish;

- yuqori darajali marketing tadqiqotlari o'tkazish, tijoratlitashtirish va texnologiyalar menejmenti sohasidagi yutuqlarni o'rganish, xorijiy bozorlarning kon'yunkturasi sig'imi, talabning mavjudligi hamda raqobatchilarning narx siyosati, kooperatsiya, qo'shma korxonalar tashkil etish bo'yicha hamkorlar qidirish yuzasidan tahliliy ma'lumotlarni o'rganish zarur bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda erkin iqtisodiy zonalar ham alohida o'r'in tutadi. Dunyo mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyalashuvi, erkin iqtisodiy zonalarni shakllantirishni taqazo etadi. Ular xalqaro xo'jalik aloqalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Erkin iqtisodiy zonalar turli mamlakatlardagi xorijiy va milliy tadbirkorlar faoliyati uchun imtiyozli iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan hududlar bo'lib, ular iqtisodiy o'sishni t'minlash, sotsial va ekologik muammolarni yechish bartaraf etish maqsadida tashkil etiladi. Erkin iqtisodiy zonalar o'zining faoliyat yo'nalishiga qarab turlicha bo'lishi mumkin:

1. Erkin savdo zonalarida boj bekor qilinadi yoki uning miqdori ancha past bo'ladi, eksport-import ustidan nazorat bo'lmaydi.

2. Eksportga mo'lallangan sanoat zonalarida xorijiy kapitalga soliq imtiyozi beriladi, boj puli kamaytiriladi. Bunday imtiyoz milliy kapitalga ham beriladi. Bundan ko'zlangan bosh maqsad ma'lum joylarda chet el kapitali faoliyatini kuchaytirib, xorijiy texnologiyani joriy etish, eksportni ko'paytirib valyuta topish yoki import qilinadigan tovarlar o'mini bosuvchi boshqa bir tovarlarni ishlab chiqarishdan iborat bo'ladi.

3. Bank va sug'urta zonalari ham erkin iqtisodiy zona turkumiga kiradi. Bunday zonalarda bank operatsiyalari va sug'urta ishlari uchun imtiyoz bo'ladi va kapitalning kirib kelishiga qulay sharoit yaratiladi.

Erkin iqtisodiy zonalarning maxsus turi bo'lib texnologik zonalar hisoblanadi. Bu yerda yangi texnika va texnologiyalarni yaratish uchun imtiyozlar mavjud bo'lib, ulardan nafaqat xorijiy, balki milliy korxonalar va har xil tashkilotlar ham foydalanadi. 5. Nihoyat kompleks xarakterdag'i alohida iqtisodiy zonalarda ham savdo, ham sanoat, ham texnologiya ishlari uchun qulayliklar yaratiladi. Bunday zonalarni hamma uchun ochiq hududlar deb yuritiladi. Erkin iqtisodiy zonalarni ko'payishi jahon miqyosidagi resurslar doiraviy harakatini tezlashtirib, iqtisodiy samaradorlikni umumjahon miqyosida oshirishga hissa qo'shadi. Globallashuv sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilish mamlakat iqtisodiy aloqalarining rivojlan-tirishning yo'llaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining hududida EIZlar uchun tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida tartibi (bojxona, valyuta, soliq va boshqalar) o'rnatilishi mumkin bo'lib, u erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solib turiladi. O'zbekistonda 1996-yil 25-aprelda "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi qonun qabul qilingan. Ularni tuzishdan maqsad u yoki bu davlat hududida chet el investorlarini jalb qilish ularni faoliyat ko'rsatishlari uchun qulay sharoit yaratish yo'li bilan iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish hisoblanadi. Erkin iqtisodiy zona-aniq belgilangan ma'muriy chegaralari va alohida tartiboti bo'lgan maxsus ajratilgan hududdir. Erkin iqtisodiy zona-mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanadirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladi. Erkin iqtisodiy zona hududida yuridik va jismoniy shaxslar moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yiladi.

Oxirgi yillarda dunyoning ko'pchilik davlatlarida erkin iqtisodiy zona keng tarqalib borayapti. Hozirgi kunda jahonda 5000 ga yaqin har xil ochiq iqtisodiy zonalar mavjud. Rossiyada erkin iqtisodiy zona sezilarli darajada faoliyat ko'rsatayotganiga qaramasdan MDH davlatlarida hozirgacha ham erkin iqtisodiy zona tuzish, ularning faoliyati printsiplarini huquqiy masalalari aniqlangan emas. MDH davlatlari ichida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda erkin industrial-iqtisodiy zona tuzishga kirishildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 2-dekabrdagi farmoni bilan Navoiy viloyatida "Erkin industrial – iqtisodiy zona (EIIZ)" tashkil etilishi e'lon qilindi. Uning faoliyat qilish muddati hozircha 30 yil qilib belgilangan, keyinchalik yana uzaytirilishi mumkin. Bu erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etilishi mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni yanada ko'proq jalb etilishiga olib keladi.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, "Navoiy aeroporti bazasida erkin industrial – iqtisodiy zonani tashkil etish, shuningdek, Navoiy shahrida yangi barpo etilgan aerodromni xalqaro operator – Koreyaning "Korean Air" kompaniyasi boshqaruviga berish to'g'risidagi qarorning qabul qilinishi tufayli oldimizda katta istiqbollar ochiladi. Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi undan nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydigan qit'alararo transport-ekspeditsiya uzeli sifatida foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda u Navoiy viloyati va qo'shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratadi".

Yana bir masalani ta'kidlab o'tishni lozim topamiz. Turizm serdaromad soha sifatida jahon iqtisodiyotida muhim o'r'in egallaydi. BMT Jahon turizm tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo iqtisodiyoti ko'rayotgan daromadning 9,4 %i, ya'ni 5,5 trillion AQSh dollari miqdoridagi mablag' aynan ushbu soha hisobiga shakllanadi. O'z navbatida, turizmga daxldor infratuzilmalarda hozirgi kunda 220 milliondan ortiq kishining mehnat qilayotgani ham uni salohiyati nechog'li yuksak ekanini yana bir karra tasdiqlaydi. Ana shu Yuqoridagi xolatlardan kelib chiqqan holda, jahon madaniyati xazinasiga kiruvchi ko'plab tarixiy arxitektura yodgorliklariga ega bo'lgan O'zbekistonning turli hududlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Xiva va

Jizzax viloyatlarida xalqaro turizm bo'yicha erkin iqtisodiy zonalarni tashkil qilishni maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

Xalqaro turizm milliy iqtisodning daromadga va tashqi iqtisodiy aloqalarning muhim shakllaridan biridir. Dunyodagi ko'pchilik davlatlar turistik faoliyatini kengaytirib juda katta foyda oladilar. Turizmdan keladigan foyda, ayrim davlatlarda neft va gaz tarmoqlari bilan, avtomobil ishlab chiqarish bilan bahslashadi. Ayrim davlatlarga turizm faoliyatidan olinadigan daromadning ulushi yalpi milliy daromadning 15-35 %ini egallaydi. Gretsya, Italiya, AQSh, Fransiya, Italiya, Misr va boshqa davlatlar shular qatoriga kiradi. Turizmnинг rivojlanishi bilan boshqa tarmoqlar va xizmat turlarini rivojlanishiga, muhim sotsial vazifalarni hal qilinishiga va shuning bilan hozirgi globallashuv sharoitida milliy iqtisodiyotni yanada rivojlanishiga olib keladi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan va savdo qiladigan korxonalar ochiladi, mehmonxonalar quriladi, kommunal xo'jaligi, transport, aloqa va infratuzilmaning boshqa sohalari rivoj topadi.

Turizm rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatayaptiki, bir turistga xizmat ko'rsatish uchun iqtisodiyotning turli sohalarida 3-4 shartli ishchi joyini tashkil qilish zarur bo'ladi. Diversifikatsiyalash tamoillarini nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi siyosatda ham qo'llash mumkin va buning samarasi o'laroq ijobjiy natijalarga erishish mumkin. Diversifikatsiya jarayoni natijasida monopolistik birlashmalar murakkab ko'p tarmoqli komplekslar shaklini olib, ularning manfaatlari sohasiga ko'pincha dastlabki faoliyat turi bilan bog'liq bo'lмаган turli korxonalar, kombinatlar, kompaniyalar kiradi. Diversifikatsiya – ilmiy-tehnika revolyutsiyasi tomonidan hamda kapitalistik xo'jalik ichki ziddiyatlarining kuchayishi orqali vujudga keltirilgan, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar iqtisodiyotida sifat jihatidan yangi hodisa.

Diversifikatsiya asosida, xususan, ba'zi tarmoqlarning jadal ravishda o'sishi va ba'zilarining pasayib ketishi orqali namoyon bo'lувчи iqtisodiyotning bir tekisda rivojlanmasligi sharoitida firmalarning yashab qolishga intilishi yotadi. Diversifikatsiya eng ko'p darajada XX asrning 50-yillari o'rtalarida rivojlanigan kapitalistik mamlakatlarda sanoat, transport, qurilish tarmoqlarida ko'zga tashlandi va tez orada barcha kapitalistik davlatlar uchun xarakterli bo'lib qoldi. Birinchi navbatda diversifikatsiyaga ilmiy-tehnika revolyutsiyasining kengayishi, raqobat kurashining yangi shakllari, iqtisodiyotning harbiyashtirilishi, mazkur mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi.

Ko'p tarmoqli yirik monopolistik birlashmalar birinchi navbatda yangi, nisbatan foydalı tarmoqlar – kimyo, elektronika, radiotexnika tarmoqlariga kiradi. Kompaniyalarga bir xildagi xomashyodan turli tovarlarni ishlab chiqarish, sarf-xarajatlarni pasaytirish, xususan, ilmiy tadqiqot faoliyatiga xarajatlarni qisqartirish imkonini beruvchi mahsulot nomenklaturasini kengaytirish, kombinatsiyalash yo'lidan borish foydalı hisoblanadi. Diversifikatsiya iqtisodiy inqirozlarning yirik kapitalistik birlashmalar uchun oqibatlarini yumshatib, ularning ta'sirini pasaytiradi, biroq, tovarlarni ortiqcha ishlab chiqarishning oldini olish vositasi bo'lib hisoblanamaydi. Diversifikatsiya ham kapitalning kontsentratsiyalashuvi, ham kapitalning markazlashuvi asosida amalga oshiriladi.

Birinchi holatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasining kengayishi, boshqa tarmoqlarga kirish o‘zining xususiy jamg‘armalari hisobiga amalga oshiriladi. Ikkinci holatda esa – mazkur jarayon boshqa tarmoq va ishlab chiqarish turlarida band bo‘lgan kapitallarning birlashuvni, “yutib yuborilishi” natijasida amalga oshiriladi. Diversifikatsiyalash maqsadida moliyaviy muassasalarning investitsion trestlar shakllaridan keng foydalaniadi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash eng avvalo kapitalistik dunyoning eng yirik kompaniyalari imkoniyati darajasidadir. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash natijasida, masalan, kimyo kompaniyalari mahsulotlari nomenklaturasi minglab nomda hisobga olinib, odatda, universal hisoblanadi.

Yetakchi konsernlarni diversifikatsiyalash usuli sifatida kapitalning markazlashuvi kompaniyalarning ilmiy-ishlab chiqarish komplekslari tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va optimallashtirish bilan bog‘liq yangi xususiyatlari bilan ajralib turdi. Ba’zi hollarda hatto yirik kompaniyalar ham yakka holda nisbatan qisqa muddatlarda diversifikatsiyalash uchun ilmiy-texnik ishlasmalarni hamda ishlab chiqarish bazasini yaratishga qodir bo‘lmay qoladilar.

Diversifikatsiyalashning asosan quyidagi jihatlarini O‘zbekistonda amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xo‘jalik faoliyatining turli-tumanligini ta’minlash maqsadida eksport qilinayotgan mahsulot nomenklaturasini kengaytirish;
- biznesning diversifikatsiyasini amalga oshirish – bu birinchi navbatda iqtisodiy xavfsizlik tomon tutish;
- kompaniyalarning ichki xo‘jalik resurslarini kam daromad keltiruvchi sohalardan yuqori daromadli sohalarga o’tkazish orqali yengillik bilan o‘zgartira olishi imkoniyatini yaratish;
- diversifikatsiyalash orqali biznesning ba’zi sohalarida olinmagan foya boshqa sohalardagi yuqori daromad bilan qoplash yo’llarini ishlab chiqish;
- diversifikatsiyalashda ham me’yor chegaralariga amal qilish. Aks holda xo‘jalik resurslarining haddan tashqari “tarqatib yuborilishi”, firmaning o‘z faoliyatini qandaydir bir yoki ikki magistral yo‘nalishlarda kuchli namoyish eta olmasligi vaqt o‘tishi bilan uning moliyaviy holatini izdan chiqarishi, hattoki bankrotlikka olib kelishi ham mumkin”;
- jahon xo‘jaligining yangi sohalari va boshqa tarmoqlarga kirib borish orqali ishlab chiqarishning yangi turlarini tashkil etish.

Diversifikatsiyalashni ushbu jihatlaridan foydalanish orqali tashqi iqtisodiy aloqalardan samarali ijobiyligi natijalarga erishish mumkin deb o‘ylaymiz. Hozirgi davr keng xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bilan bir qatorda chuqr ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muammolarni hal qilishni ham taqozo etadi. Bular ishsizlikni, jahon mamlakatlarida tez-tez ro‘y berib turadigan ocharchilikni, turli-tuman yuqumli kasalliklarni va shuningdek, iqtisodiy qoloqliknii yo‘q qilishdir. Butun dunyo jamoatchiligi diqqat markazida turgan bunday muammolar, dunyo mamlakatlarining o‘zaro hamkorlik qilishini talab etmoqda va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining taraqqiy ettirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Globallashuv

sharoitida milliy xo'jaliklarning umumjahon mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi ularning muvaffaqiyatlari faoliyat ko'rsatishining muhim shartiga aylanib bormoqda.

O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlariga kirib borishi, respublikamizning ham ichki, ham tashqi salohiyatni yanada yuksaltirmoqda. O'zbekistonning integratsiya tuzilmalaridagi ishtiroki tufayli uning ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro aloqalari kengayib borayotganligi, dunyo jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda. Shunday ekan, integratsiya – O'zbekistonning dunyo xo'jaligi tizimiga kirib borishi uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli O'zbekistonning jahon xo'jaligiga qo'shilishi masalasi hozirgi kundagi eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Faqat shu yo'l bilangina jahon fan-texnika va iqtisodiy taraqqiyoti darajasiga erishish mumkindir.

### **Asosiy tayanch tushunchalar**

Tashqi iqtisodiy aloqalar, tashqi iqtisodiy siyosat, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish, tashqi savdo siyosati, kapital migratsiyasi siyosati, ishchi kuchi migratsiyasi siyosati, valyuta siyosati, eksport, import, tartibga solishning ma'muriy va iqtisodiy usullari, bojxona tariflari, eksport va import kvotasi, litsenziyalash va standartlashtirish.

### **Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar**

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, boshqarish va tartibga solishda davlatning o'rni va roli qanday?
2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarishda davlatning qanday vositalari mayjud?
3. Tashqi savdoni boshqarishning tarifli va tarifsiz usullarini aytинг.
4. TIFni tartibga solishda notarif usullardan foydalanishning tarif usullaridan afzalligi nimada?
5. Kvotalashning iqtisodiy samarasini nimada?
6. Bojxona tarifi va uning asosiy funksiyalari.
7. Tarif kvotasi nima?
8. Eksport tarifining import tarifidan farqi nimada?

## GLOSSARIY (Izohli lug'at)

**Aholi pul daromadlari** – ish haqi, tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad, nafaqa, pensiya, stipendiya shaklidagi barcha pul tushumlarini, mulkdan %, dividend, renta shaklda olinadigan daromadlarni, qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk, qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlarini sotishdan va har xil xizmatlar ko'rsatishidan kelib tushadigan daromadlar.

**Aholini ijtimoiy muhofaza qilish** – davlat tomonidan aholining yetarli darajadagi hayotiy faoliyati uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga maqsadli yo'naltirilgan kafolatlar tizimi.

**Aholining real daromadlari** – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori, ya'ni, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadning xarid quvvati.

**Axborot infratuzilmasi** – mamlakat axborot fazosining rivojlanishi va o'zaro faoliyatini ta'minlovchi tizimchalar, tashkiliy tarkiblar majmui.

**Bandlik** – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi; fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunga zid kelmaydigan, mehnat daromadi beradigan faoliyati.

**Bank-moliya tizimining barqarorligi** – banklarning va boshqa moliya muassasalarining o'z majburiyatlarini yuzasidan talablarga to'la javob bera olishi. Bu likvidililik, kapitalning yetarliliği, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

**Bank aktivlari** – banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirishda foydalanuvchi turli moddiy va moliyaviy resurslar majmui. Ular asosan bank kreditlari, asosiy vositalari, sotib olgan qimmatli qog'ozlari, investitsiyalari, valyuta boyliklari ko'rinishida bo'ladi.

**Bank tizimining likvidligi** – bankning o'z majburiyatlarini vaqtida va so'zsiz bajara olish imkoniyati.

**Banklar likvidligi** – banklar aktivlarining qisqa muddat ichida pulga aylanish qobiliyati. Likvidlik bank majburiyatlarini bajarish va aktivlar o'sishini moliyalash bilan birgalikda depozitlar va qarz mablag'lari darajasining pasayishini samarali boshqarishni ham bildiradi.

**Banklarning kredit portfeli** – tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiyligi jamlanmasi bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi: a) yaxshi; b) standart; v) substandart; g) shubhali; d) umidsiz. Tijorat banklarning ma'lum sanaga ssuda hisobvaraqlarida qolgan pul mablag'lari majmuasi (qoldig'i).

**Bank likvidliligi** – banklar majburiyatlarini o'z vaqtida qaytara olish qobiliyati yoki passivlardagi majburiyatlarini qaytarish uchun aktivlarni pulga aylanish qobiliyatidir.

**Bozor iqtisodiyoti** – tovar ishlab chiqarish, ayirboshlash va pul muomalasi qonun-qoidalari asosida tashkil etiladigan va boshqariladigan iqtisodiy tizimdir.

**Bozor mexanizmi** – bozor iqtisodiyotining amal qilishini tartibga solishda va iqtisodiy jarayonlarni uyg'unlashtirishda qo'llaniladigan dastak va vositalar ya'ni muruvatlar to'plamidir.

**Bozor konyunkturasi** – muayyan vaqt mobaynida tovarlar bozorining holatini tavsiylovchi vaqtinchalik iqtisodiy vaziyat bo‘lib, quyidagi belgilarni aniqlanadi: ichki va tashqi savdodagi o‘zgarishlar; ishlab chiqarish va qurilish dinamikasi; tovar zaxiralari harakati; narxlar dinamikasi va boshqalar.

**Byudjet defitsiti** – byudjet xarajatlarining budget daromadlaridan oshib ketishi natijasida vujudga kelgan taqchillik.

**Bozor islohotlari** – bozor iqtisodiyotini va bozor munosabatlarini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuidir.

**Davlat budjeti** – davlat daromadlari va sarflarining moliyaviy rejasi.

**Daromad solig‘i** – fuqarolarni bir yil davomidagi yalpi daromadidan olinadigan majburiy to‘lov (soliq).

**Daromad solig‘i stavkalari** – aholi daromadlaridan tabaqalashtirilgan holda olinadigan soliqlarning %lardagi darajalari.

**Diversifikasiya** – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini ko‘paytirish.

**Diversifikasiya strategiyasi** – korxona faoliyatini mavjud mahsulotlar va bozorlar turini kengaytirish orqali rivojlanish strategiyasidir.

**Dividend** – aktsionerlik jamiyati sof foydasidan aksiya egalariga to‘lanadigan qismi bo‘lib, u aktsionerlarga naqd pul yoki aksiyalar bilan to‘lanadi.

**Erkin industrial-iqtisodiy zona** – mamlakat hududining xorijiy mamlakatlar tomonidan turli shakklardagi hamkorlikdagi tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari uchun ruxsat etilgan qismi.

**Erkinlashtirish** – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini, iqtisodiy faoliyatning bozorga xos mexanizmlarining samarali amal qilishini ta’minlashga qaratilgan jarayon; davlat tomonidan belgilangan chora-tadbirlar tizimi; iqtisodiy siyosat yo‘nalishlaridan biri.

**Eksport** – tovarlar, texnologiyalar va xizmatlarni tashqi bozorda sotish uchun mamlakat tashqarisiga olib chiqilishi.

**Emissiya** – muomalaga pul yoki qimatli qog‘ozlarni chiqarish.

**Eksportning geografik tarkibi** – alohida qit‘a mamlakatlari, mamlakatlar guruhlari, yoki alohida mamlakatning mamlakat eksportidagi ulushlari nisbati.

**Fermer xo‘jaligi** – ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalangan xolda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyekt.

**Global moliyaviy-iqtisodiy bozor** – jahon mamlakatlari o‘rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy aloqalarni yagona xo‘jalik tarzida amal qilishiga asoslangan munosabatlar.

**Xususiy tadbirkorlik** – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o‘zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir.

**Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar** – ikki turdagisi – ishtirokchilari bevosita davlatlardan iborat hukumatlararo (davlatlararo) hamda tarkibiga ishlab

chiqaruvchilar birlashmalari, kompaniya va firmalar, ilmiy jamiyatlar va boshqalar kiruvchi nohukumat tashkilotlari.

**Ijtimoiy soha** – aholi turmush tarzi, uning farovonligi, iste'mol darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan va ularni belgilab beruvchi tarmoqlar, korxonalar va tashkilotlar majmui. Ijtimoiy sohaga eng avvalo xizmat ko'rsatish sohasi (maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, jismoniy tarbiya, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmat ko'rsatish, yo'lovchi transporti, aloqa va boshqalar) kiradi.

**Ijtimoiy dasturlar** – aholining bevosita turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlarni rivojlantirishga oid choratadbirlarni o'z ichiga olgan rejaviy hujjatlar.

**Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar** – bu kishilar uchun zarur bo'lgan hayotiy ne'matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayrboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

**Ijtimoiy infratuzilma** – aholining turmush faoliyatini, uning farovonligi ta'minlashga xizmat qiluvchi turli muassasa va obyektlar majmui.

**Iqtisodiy islohotlar** – iqtisodiyotda tub (yoki qisman) o'zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardir.

**Iqtisodiy uklad** – turli mulkchilikka asoslangan xo'jalik yuritishning shakllari va turlari.

**Iqtisodiyotni erkinlashtirish** – nima va qancha ishlab chiqarishni, qayerga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning o'zi belgilishi uchun imkon berish.

**Islohotlar konsepsiysi** – ijtimoiy – iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsad va yo'nalishlari, uni amalga oshirishning vazifalari va strategik yo'llarining umumiy g'oyasidir.

**Iqtisodiyotni barqarorlashtirish** – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shartsharoitlarni vujudga keltirishdir.

**Ijtimoiy to'lovlar** – kam ta'minlanganlarga pul yoki natural shaklda yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

**Ijtimoiy siyosat** – bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiy qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat.

**Ijtimoiy-amaliy markaz** – ish bilan band bo'lmagan aholi va ishsizlar o'rtaida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinnarini yaratish bilan shug'ullanuvchi, odatda bandlik markazlari qoshida tashkil etiluvchi tuzilma.

**Iqtisodiyotning real sektori** – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

**Investitsiyalar** – asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishi.

**Investitsiya dasturi** - respublika iqtisodiyotini barqaror va tadrijiy rivojlantirishga erishishga, tabiiy, mineral xomashyo, moliyaviy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish yo'li bilan respublika ayrim tarmoqlari va mintaqalarini tarkibiy o'zgartirishning asosiy ustuvorliklarini va strategik vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan bir-biri bilan o'zaro bog'langan chora-tadbirlar kompleksi.

**Investitsiya muhiti** – investitsiyalar jozibadorligi hamda xavf-xatar darajasini belgilab beruvchi ijtimoiy-iqtisodiy, moliyaviy va siyosiy omillar majmui.

**Investition kreditlar** – ishlab chiqarishni kengaytirish, texnik va texnologik jihatdan yangilash, modernizatsiyalash va rekonstruksiya qilish, yangi bino va inshootlarni qurish uchun zarur bo'lган vositalarni sotib olish maqsadida olingan kreditlar.

**Infratuzilma** – har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lishi shart hisoblangan tarkibiy qismi.

**Ishlab chiqarishni infratuzilmasi** – ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun tashqi shart-sharoitlarni ta'minlovchi tarmoqlar majmui bo'lib, o'z ichiga temir va avtomobil yo'llari, elektr, gaz va suv ta'minoti, aloqa kommunikatsiyalari, ombor xo'jaligi va boshqalarni oladi.

**Ishlab chiqarishni mahalliylashtirish** – sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallarni asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

**Iqtisodiy rivojlanish sur'atlari** – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkich va natijalarining miqdor jihatidan ko'payishi va sifat jihatidan takomillashuvi darajasi.

**Iqtisodiy rivojlanish samaradorligi** – iqtisodiyotni rivojlantirish natijalarining bu borada qilingan sarf-xarajatlarga nisbati.

**Industriyalashtirish** – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o'tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko'paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

**Inflyatsiya** – pul muomalasi qonunlarining buzilishi natijasida milliy valyutaning qadrsizlanishi, narxlarning o'sishi.

**Inflyatsiya darajasi** – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlар darajasining %dagи o'zgarishi.

**Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi** – iqtisodiyotning turli qism va bo'laklari o'rtaqidagi proporsiyalar va o'zaro nisbatlar.

**Investitsiyalar** – daromad olish maqsadida iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda ularga doir huquqlar.

**Iste'mol bozoridagi mutanosiblik** – iste'mol bozoriga taklif etilayotgan tovarlar va xizmatlar hajmi bilan aholining to'lovga qodir talabining o'zaro mosligi.

**Ijtimoiy soha obyektlari** – aholining munosib turmush sharoiti va farovonligini ta'minlashga xizmat qiluvchi soha va tarmoqlar majmui. Bular qatoriga uy-joy

fondlari, sog'liqni saqlash, maorif, sport, madaniyat muassasalari va boshqalarni kiritish mumkin.

**Ijtimoiy hamkorlik** – xilma-xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinka mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligi.

**Iqtisodiy o'sish** – real yalpi ichki mahsulot umumiy hajmining yoki aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real yalpi ichki mahsulotning oldingi yilga nisbatan o'sishi.

**Import** – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini, texnologiyasini va xizmatlarni olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir.

**Investitsion soliq krediti** – soliq majburiyati bo'yicha to'lash muddatini o'zgartirish imkoniyati beriladi, agarda soliq to'lovchida belgilangan tartibdagi asos bo'lsa, u holda soliq to'lovlarini kamaytirilgan holda ma'lum bir vaqt ichida bosqichma – bosqich to'lash mumkin bo'ladi.

**Inson omili** – amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning bosh yo'naliishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil. Inson omili tarkiban ikki muhim jihatni o'z ichiga oladi.

**Institutsional siyosat** – davlat tomonidan mulkchilik, mehnat, moliyaviy, ijtimoiy va boshqa sohalarda yangi iqtisodiy institutlarni shakllantirish, esklarini yo'qotish, mavjudlarini transformatsiyalash bo'yicha amalga oshiradigan choratadbirlar, xatti-harakatlar.

**Intermodal markaz** – yuk tashishlar bo'yicha xalqaro kommunikatsiya va logistika markazi.

**Inflyatsiya darajasi** – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) kamida 300 ta tovar va xizmatlardan tashkil topgan iste'mol savati bo'yicha narxlar darajasining %dagi o'zgarishi.

**Iste'mol** – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulidan aholini iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

**Iste'mol krediti** – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati dastagi. U banklar va boshqa maxsus kredit institutlari tomonidan aholining uzoq muddatli iste'mol tovarlarini sotib olish uchun beriladigan kredit.

**Ish bilan band bo'lgan jami aholi** – ishchi kuchi (iqtisodiy faol aholi)ning ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan qismi.

**Ihsizlik** – iqtisodiy jihatdan aktiv (faol) aholining bir qismi o'z kuchini qo'llay olmay "ortiqcha" bo'lib, mehnat zaxirasi armiyasini bo'lib qolish hodisasi.

**Jahon bozori konyunkturasi** – jahon tovar bozorlari uchun shart, ushbu bozorlardagi talab, taklif, narxlar darajasi, ularning o'zgarish tendentsiyalari.

**Jahon banki** – 1944-yilda Xalqaro valyuta jamg'armasi bilan bir vaqtda tuzilgan birinchi davlatlararo investitsiya institutidir. Bank o'zining faoliyatini 1946-yil 25-iyundan boshlagan.

**Kichik biznes subyektlari** – korxona ko'lami, ishlab chiqarish hajmi, ishlovchilar soni, moliyaviy mablag'lari miqdori va boshqalar jihatidan imkoniyatlari cheklangan ishlab chiqaruvchi subyektlar.

**Kichik korxona** – kichik biznes subyektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'rasanoat ishlab chiqarishning ayrim tarmoqlarida (masalan, yengil va oziq-ovqat sanoati, metallga ishlov berish va asbobsozlik sanoati va h.k.) 100 kishigacha, ayrimlarida (masalan, mashinasozlik, metalluriya, yoqilg'i-energetika sanoati va boshqalarda) 50 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 25 kishigacha ishlovchi korxonalar kichik korxona hisoblanadi.

**Kooperatsiya aloqalari** – turli soha ishlab chiqarish tarmoqlarida ma'lum mahsulotni tayyorlash bo'yicha uzoq muddatli aloqalarni o'matish.

**Kreditor qarzdorlik** – korxona, tashkilot yoki muassasaning tegishli yuridik yoki jismoniy shaxslarga to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'lari bo'lib, ular me'yordagi (muddati o'tmagan) hamda muddati o'tgan qarzdorliklarga bo'linishi mumkin.

**Korporativ obligatsiyalar** – korporativ tashkiliy tuzilmalar (yuridik shaxslar) tomonidan o'zining faoliyatini moliyalashtirish uchun muormalaga chiqarilgan qarz instrumentlari.

**Kooperatsiya aloqalari** – mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha bir yoki bir necha korxonaning hamkorligi.

**Korxonalarni texnik qayta qurollantirish** - alohida ishlab chiqarish turlarini zamонавиј таълабларга асосан янги техника ва технологияларни киритиш, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, eskirgan qurilma va uskunlarni yangilash va almashtirish, ishlab chiqarish tuzilmasi va tashkil etilishini yaxshilash yo'li bilan, korxonaning texnik darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuasi.

**Kapital xarajatlar** - asosiy kapitalga kiritiladigan mablag'lar va zaxiralarning o'sishi.

**Kredit** – jismoniy va yuridik shaxslarning vaqtinchalik bo'sh mablag'larlarini muayyan tamoyillar asosida qaytarish sharti bilan foydalanishga berish jarayonida vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlardan majmui.

**Kutilayotgan inflyatsiya darjası** – mavjud ijtimoiy-iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyatsiya darjası.

**Makroiqtisodiy muvozanat** – iqtisodiyot turli tomonlarining o'zaro tengligi bo'lib, eng avvalo yalpi talab va yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo'ladi.

**Mikrofirma** – kichik biznes subyektlarining bir turi bo'lib, mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka ko'ra sanoat ishlab chiqarishning tarmoqlarida 20 kishigacha, xizmat ko'rsatish sohasida 10 kishigacha, savdo va umumiyligi ovqatlanish sohasida 5 kishigacha ishlovchi korxonalar mikrofirma hisoblanadi.

**Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar** – mamlakat yaxlit iqtisodiyoti darajasidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon va hodisalarni o'lchash va baholash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlar. Masalan, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, iqtisodiy o'sish, ishsizlik, inflyatsiya darjası va boshqalar.

**Moliyaviy sog'lomlashtirish** – korxonaning bankrotligini bartaraf etish yoki raqobatbardoshligini oshirish maqsadida chora-tadbirlar tizimini qo'llash orqali uning moliyaviy holatini sog'lomlashtirish.

*Mamlakatning eksport salohiyati* – muayyan mamlakatning o'zida mavjud bo'lgan yoki ishlab chiqarilayotgan resurslari, mahsulotlarini eksportga chiqarish imkoniyati, qobiliyati.

*Mamlakat to'lov balansi* – mamlakat rezidentlari (uy xo'jaliklari, korxonalar va davlat) va chet elliklar o'rtasida ma'lum vaqt (odatda bir yil) oralig'ida amalga oshirilgan barcha iqtisodiy bitimlar bo'yicha to'lovlar summasining nisbati bo'lib, u o'z ichiga savdo balansi, xizmatlar balansi, o'tkazmalar balansi va kapital operatsiyalarini oladi.

*Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshliligi* – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati.

*Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshliligi* – iqtisodiyotning to'lovga qodir talabga mos keluvchi, iqtisodiy o'sish va turmush sifatini oshirishni ta'minlaydigan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va ichki hamda tashqi bozorlarda sotish qibiliyati.

*Mahalliylashtirish* – import qilinadigan tayyor mahsulot, butlovchi buyumlar va materiallarni mamlakatda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali unga bo'lgan ichki talabni qondirish va eksportini yo'lga qo'yish.

*Mikrokredit* – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va boshlang'ich sarmoyani shakllantirishga beriladigan kreditlar.

*Modernizatsiya* – obyektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

*Moliya tizimi* – moliyaviy munosabatlar va turli darajada ularga xizmat qiluvchi moliyaviy muassasalar majmuasi.

*Narx* – tovar qiymatining puldagi ifodasi.

*Nodavlat va jamoat tashkilotlari* – davlatga qarashli bo'limgan, ammo ma'lum qonunlar yoki me'yoriy hujjatlarga bo'ysungan holda faoliyat ko'rsatadigan tuzilmalar nodavlat va jamoat tashkilotlari hisoblanadi.

*Osiyo taraqqiyot banki* – Osiyo va Uzoq sharq mintaqasiga bevosita qarzlar berish hamda texnik jihatdan ko'maklashish orqali mazkur mamlakatlar iqtisodiyoti o'sishini rag'batlantirish maqsadida 1966-yilda tashkil etilgan bank.

*Preferentsiya* – iqtisodiyotni maqsadga muvofiq rivojlantirish va tartibga solishda ayrim soha va tarmoqlar, korxona va ishlab chiqarish turlariga nisbatan beriluvchi imtiyoz, afzallik va ustuvorliklar.

*Profitsit* – davlat byudjeti daromadlarning xarajatlardan ko'proq bo'lishi.

*Pul - kredit siyosati* – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

*Protektzionizm* – davlatning xorij raqobatidan ichki bozorni himoya qilish siyosati, mamalakatga olib kelinayotgan tovarlarga yuqori bojlar belgilaydi, ayrim tovarlarni olib kelish cheklanadi yoki umuman ta'qilanganadi.

*Pul emissiyasi* – amaldagi pul massasining ortishiga olib keluvchi pullarni muomalaga chiqarish.

*Pul massasi* – har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar,

birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladian naqd va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuidir.

**Pul - kredit siyosati** – davlat tomonidan iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida pul muomalasini tashkil etish va barqarorligini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan barcha chora-tadbirlar majmui.

**Pul** – hamma tovar va xizmatlar ayirboshlanadigan, umumiyligida ekvivalent sifatida foydalilanadigan, boshqa barcha tovarlar qiymatini ifodalaydigan maxsus tovar.

**Real daromad** – narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lган daromadga sotib olish mumkin bo'lган tovar va xizmatlar miqdori bo'lib, real daromad aholining ixtiyorida bo'lган daromadning xarid quvvatini bildiradi.

**Samarali iqtisodiy siyosat** – davlatning iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama asoslangan, izchil va o'zaro uyg'unlashtirilgan chora-tadbirlari majmui.

**Soliqlar** – davlat budgeti yoki mahalliy byudjetlarga jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarganlari uchun yoki ishlab chiqarish omillaridan foydalganliklari uchun majburiy to'lovlari.

**Soliqlarni unifikatsiya qilish** – soliq mexanizmini soddalashitirish maqsadida iqtisodiy mohiyati, soliqqa tortish obyekti o'xshash bo'lган soliq turlarini birxillashtirish. **Soliq imtirozi** – soliq to'lovchilarining ayrim toifalariga qonun hujjalarda belgilangan tartibda soliq to'lashdan to'liq, qisman va vaqtinchcha ozod qilish shakli.

**Soliq krediti** – byudjetga to'lanishi lozim bo'lган soliq summasini ma'lum muddatga kamaytirish, kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash yoki soliqni qaytarish shakli. **Soliq solishning soddalashitirilgan tartibi** – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilananadigan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Soliq stavkasi** – soliqlarni hisoblashda soliq bazasining har bir birligi hisobiga to'g'ri keladigan soliq me'yorini ifodalaydi. **Soliq yuki** – mablag'larni boshqa foydalinish mumkin bo'lган yo'naliishlardan olib, soliqlarni to'lash uchun yo'naltirish orqali vujudga keladigan iqtisodiy chekllovlar darajasi bo'lib, odatda soliq to'lovchining muayyan davrda byudjetga to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakat miqyosida soliq yuki darajasini soliqlarning yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i orqali ifodalanadi.

**Soliq yukini yengillashtirish** – soliqlarning % stavkalari kamaytirish va imtiyozlar yaratish.

**Sug'urta kompaniyasi** – sug'urtalovchi roilda maydonga tushuvchi, ya'ni sug'o'rta hodisasi ro'y bergan chog'da sug'urtalangan shaxsning zararlarini qoplash majburiyatini o'ziga oluvchi tashkilot.

**Sekulyarlashtirish** – davlat va jamiyat boshqaruvini din ta'siridan holi qilish jarayoni.

**Tashqi savdo aylanmasi** – mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, muayyan vaqt oralig'idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig'indisiga teng bo'ladi.

**Tashqi savdo aylanmasi saldosi** – mamlakat eksporti va importi hajmlari o'tasidagi farq, tafovut.

**Tashqi qarz** – mamlakat hukumi, moliya-kredit tashkilotlari, yirik korxonalarining boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi.

**Tashqi savdo siyosati** – bir mamlakatni boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huuqqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

**Tashqi savdo aylanmasi diversifikasiyasi** – eksport va importning tovar nomenklaturasini va hamkor davlatlar sonining kengaytirilishi.

**Tejamkorlik** – jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muayyan darajasida barcha resurslardan tejamli foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabat bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi.

**Turmush darajasi** – aholining zaruriy, moddiy va nomoddiy ne'matlar hamda xizmatlar bilan ta'minlanganlik hamda ularni iste'mol qilish darajasi.

**Tarkibiy o'zgarishlar siyosati** – davlat tomonidan amalga oshiriladigan, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui.

**To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar** - o'zga mamlakat rezidentlari tomonidan boshqa mamlakat real aktivlariga mablag' kiritish, uni tasarruf etish va ular ishlatalishi ustidan nazorat o'rnatish. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tavsifiga ko'ra aksiyalarni kamida 10 %iga egalik qilish.

**Turmush sifati** – jamiyat farovonligi darajasini namoyon etuvchi va mohiyatiga ko'ra uning o'lchovi hisoblanuvchi tushuncha.

**Tashqi nodavlat qarzlar** – mamlakatdagi xususiy shaxslar (molika muassasalari, korxonalar va aholi) tomonidan boshqa mamlakatlar moliya-kredit muassasalaridan qarzga olgan moliyaviy mablag'larining jami hajmi. **Tashqi savdo** – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi.

**Urbanizatsiya** – jamiyat taraqqiyotida shaharlar rolini oshirish jarayoni. Urbanizatsiya jarayoni shahar ahonisining tabbiy o'sishi, qishloq aholi punktlarini shaharlarga aylantirish, keng shahar oldi hududlarini shakllantirish hamda aholining qishloq joylaridan shahar joylariga migratsiyasi hisobiga ro'y beradi.

**Valyuta bozori** – xorijiy valyutalar yoki xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning alohida sohasi.

**Yakka tartibdag'i tadbirkorlik** – alohida fuqarolar tomonidan o'zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo'jalik faoliyatি.

**Yagona soliq to'lovi** – kichik biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida turli solik va yig'imlar o'rniga soddalashtirilgan tartibda to'lanuvchi yagona soliq turi.

**Yalpi ichki mahsulot** – mamlakatda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami pirovard mahsulot va xizmatlarning bozor qiymati.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini to'g'risida"gi (yangi tahriri) qonumi, 2003-yil 29-avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxona to'g'risida"gi qonumi, 2003-yil 11-dekabr.
6. Karimov I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. – T.: "O'zbekiston", 1995.
4. Karimov I.A.O'zbekistan XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.:O'zbekiston, 1997-y.
5. Karimov I.A.O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.:O'zbekiston, 2000.
6. Karimov I.A. Jahan moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009.
7. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi /O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Qonunchilik palatasi va senatining qo'shma majlisidagi ma'ruba, 2010-yil 12-noyabr. –T.: O'zbekiston, 2010.
8. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. – T.: O'zbekiston, 2011.
9. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2011.
10. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. – T.: O'zbekiston, 2012.
11. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish" /2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistoni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruba. – T.: O'zbekiston, 2013.
12. Karimov I.A. Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug' kelajagimizning asosi omildir./ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 21 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi, 2013-yil 6- dekabr.
13. Karimov I.A. 2014-yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi: Mamlakatimizni 2013-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. – T.: O'zbekiston, 2014.
14. Karimov I.A. 2015-yilda iqtisodiyotmizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirdorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir: Mamlakatimizni 2014-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga

bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi, 2015-yil 17-yanvar.

15. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi, 2015-yil 24- yanvar.

16. Abduraxmonov Q.X., Toxirova X.T. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish. Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv. qo‘l. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘ armasi nashriyoti, TDIU, 2004.

17. Abulkasimov H.P. Makroiqtisodiy tartibga solish va O‘zbekistonning barqaror rivojlanishi. – T.: Akademiya, 2011.

18. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari. – T.: Akademiya, 2012.

19. Abulkasimov H.P., Hamrayev O.Ya. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. – T.: Iqtisod-moliya, 2014.

20. Vaxobov A., Sirojiddinova Z. O‘zbekiston Respublikasining davlat byudjeti. – T., 2002.

21. Vahabov A. V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: Noshir, 2012.

22. Malikov T.S., Jalilov P.T. Byudjet – soliq siyosati. – T.: Akademnashr, 2011.

23. Malikov T. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Monografiya. – T.: “Akademiya” nashriyoti, 2002.

24. Tojiboyeva D. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: Sharq, 2003.

25. Hamroyev O.H. Iqtisodiy muvozanat va uni ta’minalash mexanizmlari. – T.: TDIU, 2004.

26. Sodiqov K.S., Seytmuratov R.A., Aslyanov D.X., Isxoqova S.A. Sotsial iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston, 2006.

27. Valyutani tartibga solishda diskont (%) siyosatidan foydalanish masalallari. – T.: Iqtisodiyot, 2007.

28. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh, 2005. – T.: SISM, 2006.

29. O‘zbekiston Respublikasining 2010-yilgi statistik axborotnomasi. – T., 2011.

30. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillardagi (1990-2010 yil) asosiy tendentsiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozлari. – T.: O‘zbekiston, 2011.

31. Фишер С., Дорнбуш Р., Р. Шмалензи. Экономикс. – М., 1995.

32. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги “Начала”, 1997.

33. Томбовцев В.Л. Государство и переходная экономика: Правилы управляемости. – М.: МГУ – ТЕИС, 1997.

34. Смит А. Исследования природы и богатство народов. – М.: Лекиздат, 1935.

35. Букенан Дж. Границы свободы. – М.: Таурус Алфа, 1977.

36. Олейник А. Институциональная экономика. – М.: ИНФРА-М, 2000.

37. Руденко И.А. Экономическая политика. Учебное пособие. – Минск, 2010.
38. Государственное регулирование рыночной экономики. – М.: Рут России. //Экономическая литература. 2002.
39. Государственное регулирование рыночной экономики. – М.: Учебное пособие для вузов. /Т.Г.Морозова и др. Род ред. Т.Г.Морозовой. – ЮНИТИ-ДАН. 2001.
40. Разенти А. Очерки политической экономии капитализма. В 2 т.: Пер. с итальянского. Т. 2. – М.: Прогресс, 1976.
41. Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер. с англ. – М.: Иностранная литература, 1948.
42. Макконелл Н.Р. Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. В. 2-т.: Пер. с англ. Пер. 11-го изд. Т. 1. – М.: Республика, 1992.
43. Шираева Л., Мамедова Н. Неоклассическая модель государственного регулирования рыночных отношений. //Российский экономический журнал. – 1992. -№4.
44. <http://www.gov.uz> – O'zbekiston Respublikasining davlat portalı.
45. <http://www.mineconomy.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti.
46. <http://www.edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy sayti.

Qahramon Qurbanurdyevich Mambetjanov

IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOT NAZARIYALARI

*O‘quv qo‘llanma*

*Muharrir  
Vaxabova M.M.*

*Musahhih  
Sultanova D.X.*

Litsenziya AI № 240 04.07.2013. Bosishga ruxsat etildi 29.05.2015.  
Qog‘oz bichimi 60x80 1/16. Shartli bosma tabog‘i 20,7. Adadi 25 nusxa.  
Buyurtma №007

“IQTISODIYOT” nashriyoti DUKning matbaa bo‘limida chop etildi.  
100003. Toshkent shahri O‘zbekiston shohko‘chasi, 49-uy.